O’ZBEKISTONRESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



“BANK ISHI” KAFEDRASI

TOYMUXAMEDOV IBROXIM RIXSIBOEVICH

“BANK ISHI”

FANI BO’YICHA
O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Ma’ruza mashg’uloti uchun

TOSHKENT– 2018

UDK: 336.5

I.Toymuxamedov**.** N.Sobirova.**“Bank ishi”**fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. Ma’ruza mashg’uloti uchun –Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 501 bet.

G’oya muallifi: iqtisod fanlari doktori, professor B.Yu. Xodiev

Taqrizchilar:

T.M. Karaliev	- TMI “Bank hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisod fanlari nomzodi;
I.I. Alimov	-“TDIU, “Bank ishi” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari noizodi.

“Bank ishi” kafedrasining 2018 yil 4 iyuldagi 45-sonli majlisida muhokama qilingan.

O’quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2018 yil “___” _____dagi _____-sonli qaroriga muvofiq o’quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

© Iqtisodiyot, 2018 yil.

O’QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILIShI

(*ma’ruza mashg’uloti uchun*)

№	Majmuaning tarkibiy qismlari	betlar
	Majmuaning qisqacha annotatsiyasi.....	**4**
I.	**Fanning me’yoriy-uslubiy ta’minoti.....**	**6**
1.	O’quv dasturi.....	6
2.	O’quv kursi prospekti.....	19
3.	Ma’ruza mashg’ulotlari rejasi.....	29
II.	**Fanning mazmuni va axborot-resurs ta’minoti.....**	**40**
1.	Mavzular bo’yicha matn annotatsiyasi va oxirgi yangiliklar *(Mavzuga oid adabiyotlar, jurnallar va internet tarmog’idan olingan tarqatma materiallar, maqolalar)*.....	40
2.	Mavzular bo’yicha taqdimot slaydlari va video roliklar.....	296
III	**Fanni o’qitishning interaktiv texnologiyalari.....**	**480**
1.	Qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi.....	480
2.	Mustaqil ta’limga oid topshiriqlar.....	492
3.	Glossariylar.....	494
4.	Tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar.....	499

Majmuaning qisqacha annotatsiyasi

O’quv-uslubiy majmua – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavriat va magistratura ta’lim bosqichilarining O’quv rejalarida aks etgan fanlar bo’yicha professor-o’qituvchining dars jarayoniga o’quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me’yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o’qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda etkazish (talaba uchun – o’zlashtirish) uchun yagona o’quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O’quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun mo’ljallangan bo’lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- ***fanning me’yoriy-uslubiy ta’minoti,***
- ***fanning mazmuni va axborot-resurs ta’minoti,***
- ***fanni o’qitishning interaktiv texnologiyalari,***
- ***talabalarning bilimini baholash uslubiyoti,***
- ***qo’shimcha elektron ta’lim resurslarini*** o’z ichiga olgan.

Ilg’or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg’or xorijiy tajribani keng o’rganish, umumlashtirish va undan ta’lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»”gi qarorda “har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning etakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatish, o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o’quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o’tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o’qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari magistrant, yosh o’qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o’tashlarini, professor-o’qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”[1] vazifalari hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayogan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»”[2]gi qarorida ta’lim yo’nalishlarining o’ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashnig zamonaviy, shaffof va adolatli(avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars beradigan pedagogning yakuniy nazoart jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimini joriy etish alohida ta’kidlangan.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta’lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Yel Universiteti, Massachusets Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSh), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay Universiteti (XXR) va boshqa etakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»”gi 2909-sonli Qarori. “Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 21 aprel.

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayogan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida »”gi 3775-sonli Qarori. 2018 yil 5 iyun.

Majmuani takomillashtirish masalalari.

Elektron o’quv-uslubiy majmua o’quv yili mobaynida xalqaro va milliy moliya-bank tizimidagi o’zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o’quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Bank ishi”fani o’z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ***birinchidan,*** bank tizimi va moliya-kredit munosabatlarining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish;
- ***ikkinchidan,***valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillarni bilish;
- ***uchinchidan,*** bank xizmatlari bozori va bank operatsiyalarini o’rganish;
- ***to’rtinchidan,*** naqd pulsiz hisob-kitoblar va ularni tashkil qilish asoslarini o’rganish;
- ***beshinchidan,*** bank aktiv va passiv operatsiyalari turlari, kredit shakllari va ulardan foydalanish mexanizmini o’rganish hisoblanadi.

Shuningdek, “Bank ishi” fani fundamental fanlardan biri bo’lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o’rganishda asos bo’lib xizmat qiladi.

O’QUV DASTURI

KIRISH

O’zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog’liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo’jalik yurituvchi sub’ekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga moliyaviy mablag’larni kengroq jalb etish va boshqarish, ularning mamlakatimizda o’tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta’minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog’liqligini tushunib olish qiyin emas. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida bank tizimni shakllantirishda pul-kredit vositalari orqali moliyaviy himoyaning faol vositasi bo’lgan bank xizmatlari va bank mablag’laridan samarali foydalanishga asos bo’ladi. Bundan tashqari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ustuvor yo’nalishlardan biri etib aholi farovonligi va real daromadlarining izchil o’sishini ta’minlash, ish bilan bandlikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, aholini, birinchi navbatda, uning ijtimoiy nochor qatlamlarini va kam ta’minlangan oilalarni davlat tomonidan aniq manzilli muhofaza qilish va ularga ijtimoiy yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirish belgilangan. Ushbu mulohazalar bank tizimini yanada takomillashtirish, ularning mablag’laridan foydalanishning manzilliligini oshirish kabi ustuvor yo’nalishlarni takomillashtirishga asos bo’ladi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun bank ishi(faoliyati) bo’yicha etarli bilim, ko’nikma va malakaga ega bo’lish kerak.

Ushbu ko’rsatib o’tilgan holatlar bevosita zamonaviy bank tizimida qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini baholashning yo’llari va usullarini, bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarning moliyaviy mablag’larini boshqarishda, ularning bozor sharoitidagi harakatini, pul mablag’lari egalarining xatti-harakatini, cheklangan moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish yo’llarini nazariy va amaliy tomonlarini qayta ishlab chiqishni talab qiladi.

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashda pul-kredit vositalaridan foydalanish, pul mablag’larini boshqarish va baholash, uning ko’lamini kengaytirish bilan bog’liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o’rganishda “Bank ishi” fani alohida o’rin tutadi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda “Bank ishi” fanida o’rganiladigan mavzular va nazariy-amaliy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bank ishi” bank tizimining shakllanish mexanizmini, pul mablag’larini shakllantirish, foydalaning tashkiliy-iqtisodiy , me’yoriy. ilmiy va uslubiy asoslarini, ularning rivojlanish yo’nalishlari, shakllari va usullarini o’rganadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning o’qitishdan maqsad – “Bank ishi” mutaxassislari uchun talabalarga bank faoliyatini, bank tizimi operatsiyalarini tahlil qilishning zamonaviy usullari orqali moliya kredit institutlarining turli tuzilmalari o’rtasidagi raqobat jarayonlarini, bank xizmatlarini yoritib berish, shu bilan bir qatorda yangi bank xizmatlarini joriy qilish, bank xizmatlari bozorida raqobatdoshligini ta’minlash, banklarning moliya bozordagi strategiyalarini to’g’ri tanlash bo’yicha yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, tijorat banklari valyuta operatsiyalarining mazmuni va turkumlanishi, tijorat banklarini tashkil etishning xuquqiy va iqtisodiy asoslari, tijorat banklari passiv operatsiyalari tarkibi va ularni joylashishi, tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularni joylashishi, tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalari, kreditlashni tashkil etish asoslari, tijorat banklarining lizing va faktoring operatsiyalari, tijorat banklarining foiz siyosati, tijorat banklarining yangi xizmat turlari, tijorat banklarning balansdan tashqari operatsiyalari, tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi, tijorat banklarining to’lovga layoqatligi va likvidligi, tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari kabi masalalarini qamraydi.

Fanning vazifasi - mazkur fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanning tarixiy shakllanish bosqichlarini o'rgatishdan iborat.

Bank ishi fanini o'zlashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: banklar faoliyati va operatsiyalarining amaliy tomondan o'rganishlari va ularning tashkiliy tomonlarini bilishlari; iqtisodiyotni bank sektori tomonidan tartibga solish jarayonlarini o'rganishga, tijorat banklari tizimining faoliyatini samarali olib borish, ularni liberallashtirish hamda modernizatsiyalash mexanizmlarini hamda informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, moliya-bank ssuda kapitali bozorini kengayishi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Bank ishi" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- banklar faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari;
- tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy asoslari;
- kredit tizimi va ular faoliyatining yo'nalishlari;
- tijorat banklari passivlari va aktivlarining shakllanishi, tarkibi, dinamikasi va etarliligi;
- tijorat banklarining passiv va aktiv operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;
- tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligini ta'minlash;
- banklar faoliyatidagi risklarni baholash va boshqarish haqida ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining funktsiyalari va operatsiyalarini;
- O'zbekiston Respublikasi kredit tizimi faoliyati qonunchiligi asoslarini;
- banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziyalash, ular ustav fondini shakllantirish manbalari hamda banklarni qo'shish va tugatishning xususiyatlarini;
- tijorat banklari kapitali tarkibi va ularning etarliligiga qo'yiladigan talablarni;
- tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullarini;
- banklarning valyuta pozitsiyasini boshqarish va nazorat qilishni;
- bank tizimining fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan o'zaro hamkorligini;
- tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslarini;
- mijoz kreditga layoqatliligining asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini;
- kredit bo'yicha ta'minot turlari va ularni rasmiylashtirishning huquqiy asoslarini;
- tijorat banklarining kredit siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlarini;
- kredit bahosi va unga ta'sir etuvchi omillarni;
- tijorat banklarining alohida kredit turlari va ularning farqli jihatlarini;
- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash amaliyotini tashkil qilishni;
- tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi sub'ektlarini kreditlashning huquqiy va iqtisodiy asoslarini;
- tijorat banklarining faktoring va lizing operatsiyalari va ularni amalga oshirish tartibini;
- tijorat banklarining yangi xizmatlarini amalga oshirish tartibini;
- tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarining turlarini;
- tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlari va xarajatlarini;
- tijorat banklari foydasi va rentabellik ko'rsatkichlarini;
- tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash va uning holatiga baho berishni;
- bank risklarini boshqarish usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi lozim;***
- kredit tizimining rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil etish;
- tijorat banklari tomonidan resurslarni jalb etish va ularni joylashtirish;
- tijorat banklarida kreditlash shakllaridan foydalanish;
- tijorat banklari operatsiyalari ustidan bank nazoratini tashkil etish;
- banklarning mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarish;

- banklarda boshqaruv tizimini tashkil etish;
- banklar faoliyatining moliyaviy natijalarini baholash;
- tijorat banklari operatsiyalarining risklilik darajasiga baho berish;
- mijozning kreditga layoqatliligini tahlil etish va uni baholash;
- tijorat banklari foydasini taqsimlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

"Bank ishi" fani universitetda o'rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. "Bank ishi" fanini chuqur va mukammal egallab olish uchun talabalar quyidagi fanlar bo'yicha bilimlar olishlari zarurdir: "Pul, kredit va banklar", "Bank statistikasi", "Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish", "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari", "Bank auditi", "Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika", "Moliyaviy va boshqaruv tahlili", "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Bank menejmenti va marketingi" va boshqalar.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Mamlakatimizda faoliyat yuritayogan tijorat banklarining bajarayotgan operatsiyalari va ko'rsatayotgan xizmat turlari hamda ajratayotgan kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatiga ega. O'z navbatida, iqtisodiyotda tarmoqlarini rivojlantirishda bank tizimi asosiy bo'g'indir. Shunga ko'ra, bank ishi faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislarga alohida talablar qo'yiladi. Bank ishi fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, iqtisodiyot bo'g'imining ajralmas qismi hisoblangan bank timiziga kadrlar etkazib berishda muhim rol o'ynaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va virtual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Talabalarning "Bank ishi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, fanni o'zlashtirish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda ba'zi tijorat banklar faoliyatida qo'llaniladigan mijozlarni kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

O'quv fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-mavzu. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari

"Bank ishi" fanining predmeti va metodi. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fanning maqsadi va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi

Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funktsiyalari. Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi. Tijorat

banklarining funktsiyalari va operatsiyalari. Nobank kredit tashkilotlari, lombardlar va mikrokredit tashkilotlarining tarkibi va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi bank tizimini hamda nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.

2-mavzu. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari

Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish, qo'shish, qayta tashkil etish, bo'lish, vasiylik va tugatishning huquqiy asoslari. Banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalash tartibi. Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati. Ustav fondini shakllantirish manbalari. Banklarga vasiylik tayinlash. Respublikamizda tijorat banklarini qo'shish va tugatishning o'ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu. Tijorat banklari passivlari tarkibi va ularni joylashishi

Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi. Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining balansda joylashishi. Tijorat bankining kapitali uning tarkibi, va etarliligiga qo'yilgan talablar. Bank kapitali va uning samaradorligini oshirish yo'llari. Bank kapitali etarliligi bo'yicha xalqaro talablar. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari. Tijorat banklarining depozit va nodepozit operatsiyalarining tavsifi. Tijorat banklarining talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha operatsiyalarining mohiyati. Aholi pul jamg'armalari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Aholi omonatlarini kafolatlashning huquqiy asoslari. Tijorat banklarining kredit potentsiali va uning ahamiyati. Banklararo kredit resurslari, uning ahamiyati va uni o'tkazish tartibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi.

4-mavzu. Tijorat banklarining aktivlari tarkibi va ularni joylashishi

Bank aktivlari tarkibi va ularni balansda joylashishi. Bank aktivlarining sifati darajasi va bank aktivlarining diversifikatsiyasi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktivlarini boshqarish usullari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlarini boshqarish strategiyasi. Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari va turlari. Tijorat banklarida majburiy zahiralarni tashkil etish tartibi va uning zaruriyati.

5-mavzu. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari

Valyuta va valyuta kursi tushunchasi. Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari. Valyuta pozitsiyasi va nazorati. Joriy va muddatli valyuta operatsiyalar. Xedjerlash va uning valyuta munosabatlarini tashkil qilishdagi roli. O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorining shakllanishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy valyutalarga bo'lgan talab va taklif (eksportga yo'naltirilgan korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan)ni muvofiqlashtirish masalalari.

6-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari

Qimmatli qog'ozlar tushunchasi va uning turlari. Qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. REPO operatsiyalari. Anderrayting operatsiyalari. Trast

operatsiyalari. Qimmatli qog’ozlar bilan balans va nobalans operatsiyalari. Fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan bank tizimining o’zaro hamkorlik darajasi.

7-mavzu. Kreditlashni tashkil etish asoslari

Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari. Kredit mexanizmi va uning elementlari. Kreditlash tamoyillari va usullari. Kreditlash ob’ekti, sub’ekti va ssuda schyotlarining turlari. Xo’jalik sub’ektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish yo’llari.

8-mavzu. Aylanma mablag’lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Aylanma mablag’lar tushunchasi va uning tarkibi. Aylanma mablag’larni tashkil etish manbalari va kreditning roli. Kreditga layoqatlilik tushunchasi. Mijozning kreditga layoqatliligining asosiy va qo’shimcha ko’rsatkichlari. Biznes reja va uni kreditlash jarayonidagi o’rni. Tijorat banklari tomonidan aylanma mablag’larni to’ldirish uchun beriladigan kreditlarni rasmiylashtirish tartibi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O’zbekistonda korxonalarni moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashda tijorat banklarining roli.

9-mavzu. Kreditning ta’minoti va uning shakllari

Kreditning ta’minoti tushunchasi va uning ahamiyati. Kredit bo’yicha ta’minotning turlari: a)garov, b)kafillik, v)kafolat, s)sug’urta, d)depozit. Ta’minotlarni rasmiylashtirishning huquqiy asoslari. Garov reestri va uning kredit ta’minotidagi ahamiyati. Kreditning qaytarilishida garov va boshqa ta’minot shakllarining tutgan o’rni. Birlamchi va ikkilamchi ta’minot.

10-mavzu. Kreditlash jarayonlari va ularning bosqichlari

Tijorat banklari kredit siyosati va uning zarurligi. Kreditlash bosqichlari haqida tushuncha. Tijorat banklarining kredit siyosatiga Markaziy bank talablari. Tijorat banklarining kredit siyosati va uning mezonlari. Tijorat banklarining kredit siyosati va uning o’ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklari kredit siyosatining bajarilishi ustidan nazorat. Kredit hujjatlari yig’majildini tashkil qilish. Bank va mijozlarning sherikchilik munosabatlari va ularni mustahkamlash. Kredit shartnomasi, uning mazmuni va ahamiyati. Kredit shartnomasi bajarilishi ustidan nazorat va ko’riladigan choralar. Ssuda hisob varag’idan kredit berish va qaytarish tartibi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda kredit monitoringgi va uning ahamiyati. Kreditlarni tasniflanishi va ular bo’yicha zahira tashkil qilish. Umidsiz kreditlarni balansdan tashqariga chiqarish tartibi. Kreditlarni hisobdan chiqarish amaliyoti.

11-mavzu. Tijorat banklarining foiz siyosati

Tijorat banklari foiz siyosati haqida umumiy tushuncha. Foiz stavkalarining turlari. Kredit bahosini o’rnatish tartibi. Kredit bahosi va unga ta’sir etuvchi omillar. Kredit narxi. Marja va uning hisoblanishi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xorijiy mamlakatlarda kreditlar foizining o’zgarishi sabablari va uning O’zbekistonda o’ziga xosligi.

12-mavzu. Alohida kredit turlari

Alohida schyotdan kreditlash va kredit liniyasini ochib kreditlash tartibi. Kontokorrent schyotidan kreditlash. Overdraft bo'yicha kreditlash va uni o'ziga xos xususiyatlari. Lombard krediti va undan foydalanish imkoniyatlari. Revolver kreditini berish tartibi va uning ahamiyati. Iste'mol krediti haqida tushuncha va uni rasmiylashtirish shartlari. Ta'lim kreditini berish tartibi va uning ahamiyati. Ipoteka krediti va undan foydalanish imkoniyatlari. Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga ajratiladigan kreditlar va ulardan foydalanish shartlari. Tijorat banklari tomonidan sindikatlashgan kreditlarni berish tartibi.

13-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash

Kichik biznes haqida tushuncha va uning Respublika iqtisodiyotidagi o'rni. Kichik biznesni kreditlashni tashkil qilish asoslari. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash jamg'armasini tashkil etish asoslari va shakllantirilishi. Imtiyozli kreditlash jamg'armasi hisobidan xo'jalik sub'ektlarini kreditlash tartibi. Kichik biznes subektlarini Mikrokreditbank mablag'lari va nobyudjet fondlar xisobidan dastlabki sarmoyani kreditlash tartibi va uning ahamiyati. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratiladigan kreditlarni o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklari tomonidan mikrolizingni rasmiylashtirish tartibi va uning ahamiyati. Kichik biznes loyihalarini chet el investitsiyasi va boshqa manbalar hisobidan moliyalash. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis hamda kasanachilik sohalarining barqaror rivojlanishida Davlat Dasturining tutgan o'rni va banklarning roli.

14-mavzu. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jalik sub'ektlarini kreditlash

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini tutgan o'rni va undagi islohotlar. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi. Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'allani etishtirishni imtiyozli kreditlash. Bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kreditlash va uning ahamiyati. Erga egalik qilish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 26.04.2018 yildagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini banklar tomonidan amalga oshirilishi.

15-mavzu. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari

Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va uning mohiyati. Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi. Korxonalarni debitorlik qarzlarini qisqartirishda faktoring operatsiyalarining o'rni. Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

16-mavzu. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari

Lizing operatsiyalari va ularning mohiyati. Lizing operatsiyalarining turlari. Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va ular bilan bog'liq risklari. Lizing to'lovlari va ularni aniqlash tartibi. Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

17-mavzu. Tijorat banklarining emissiya-kassa operatsiyalari

Naqd pullarni emissiya qilish tartibi. Naqd pullarni tijorat banklarining kassalariga kirim

qilish tartibi. Tijorat banklari tomonidan mijozlarga naqd pul berish tartibi. Tijorat banklarining aylanma kassalariga limitlar belgilash. Naqd pullarni inkassatsiya qilish tartibi.

18-mavzu. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari. Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati. Plastik kartochkalarning to'lov tizimidagi o'rni. O'zbekiston Respublikasida plastik kartochkalarni qo'llash imkoniyatlari. Qimmatliklarni saqlash va seyf xizmati. Mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish. Internet banking xizmatlari.

19-mavzu. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari

Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarining mazmuni va turlari. Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlarining balansdan tashqaridagi hisobining yuritilishi. Hosilaviy instrumentlar bo'yicha transaktsiyalarning balansdan tashqari operatsiyalari. Bank kafolatlari bo'yicha balansdan tashqari operatsiyalar. Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar bo'yicha talablarning balansdan tashqari operatsiyalari. Tijorat banklarida balansdan tashqari operatsiyalarni takomillashtirish masalalari.

20-mavzu. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi

Tijorat banklarining daromadlari: foizli va foizsiz daromadlari. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari. Tijorat banklarining operatsion xarajatlari. SPRED tushunchasi va uni hisoblash tartibi.Tijorat banklarining daromadliligini oshirishda spekulyatsiya operatsiyalarining o'rni. Bank daromadlarini ko'paytirish yo'llari. Tijorat banklarining foydasi haqida tushuncha. Tijorat banklari foydasi va uni taqsimlash. Tijorat banklarini soliqqa tortish tartibi. Tijorat banklari rentabellik ko'rsatkichlari. Tijorat banklarining dividend siyosati. Bank foydasini oshirish yo'llari.

21-mavzu. Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligi

Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi haqida tushuncha. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari. O'zbekiston tijorat banklarining likvidlik holati. Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari. Likvidlilik va rezervlarni boshqarish bo'yicha tijorat banklarining siyosati va strategiyasi. GEP tahlili. Banklarni reytingi va uni baholash usullari. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari.

21-mavzu. Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari

Bank riski tushunchasi va uning turlari. Kredit riski va uni baholash yo'llari. Bank risklarini boshqarish masalalari. Tijorat banki riskini baholashda aktivlar diversifikatsiyasining o'rni. Bank risklarini sug'urtalash usullari. Bank risklarini boshqarish asoslari va uni takomillashtirish. Foiz riski: mazmuni, baholash va boshqarish. Bozor riski: mazmuni, baholash va boshqarish. Transformatsiya riski va uni boshqarish.

23-mavzu. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish

Tijorat banklari faoliyatini markazlashgan tarzda tartibga solish. Omonatlarning xavfsizligini ta’minlashning davlat tizimi. Tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga qo’yiladigan talablar. Tijorat banklariga nisbatan majburiy zaxira talabnomalarini qo’llash. Banklar faoliyatiga oid ma’lumotlarni oshkor etishga qo’yiladigan talablar. Tijorat banklari faoliyatini markazlashmagan tarzda tartibga solish. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning zarurligi. Bank nazorati turlari: masofaviy nazorat va uni amalga oshirish tartibi. Inspektsion nazorat va uni amalga oshirish tartibi.

Amaliy mashg’ulotlarning taxminiy ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari.
2. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari.
3. Tijorat banklari passivlari tarkibi va ularning joylashishi.
4. Tijorat banklarining aktivlari tarkibi va ularning joylashishi.
5. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari.
6. Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalari.
7. Kreditlashni tashkil etish asoslari.
8. Aylanma mablag’lar va mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash usullari.
9. Kreditning ta’minoti va uning shakllari.
10. Kreditlash jarayonlari va ularning bosqichlari.
11. Tijorat banklarining foiz siyosati.
12. Alohida kredit turlari va usullari.
13. Kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash.
14. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo’jalik sub’ektlarini kreditlash.
15. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari.
16. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari.
17. Tijorat banklarining emissiya-kassa operatsiyalari
18. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari.
19. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari.
20. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi.
21. Tijorat banklarining to’lovga layoqatligi va likvidligi.
22. Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari.

Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha tavsiyalar

Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo’yicha olgan bilim va ko’nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha talabalar bilimlarni o’zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o’zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish, masalalar echish, mavzular bo’yicha taqdimotlar va ko’rsatmali qurollar tayyorlash, qonun, qaror, me’yoriy-huquqiy xujjatlardan foydalanish lozim.

Kurs ishlarini tayyorlash uslublari

“Bank ishi” fani bo’yicha kurs ishi tanlangan mavzu bo’yicha natijalarni umumiy yaxlitlikka ega ilmiy va amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdir. Kurs ishi “Bank ishi” fani

rivojlanishining zamonaviy darajasiga, iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalariga doir masalalarini aks ettirishga mos kelishi kerak.

Kurs ishi nafaqat nazariy ahamiyati, mavzusining dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tadbiqi, balki uning uslubiy tayyorgarlik darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini yozishning eng muhim bosqichi - bu qo'yilgan savollarning o'zaro nazariy va amaliy aloqadorligini ta'minlash. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash talabaga kurs ishining maqsadi va vazifalarini aniq qo'yish hamda ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini, shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini to'g'ri tanlashga imkon yaratadi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishini oqilona va sifatli ishlab chiqilishi talabaga izlanishning oldiga qo'yilgan maqsad hamda natijalarini to'g'ri ifodalash, fikrlarni bayon etish uslublari va kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Kurs ishi talabaning ilmiy jihatdan etukligi hamda "Bank ishi" fani bo'yicha chuqur bilimga va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qilishi zarur. Kurs ishida o'rganiladigan masalalarning nazariy jihatlari, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan ilmiy va amaliy vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarni hal etishni ko'zlagan holda bir-biriga mantiqiy mos reja tuziladi va shu asosida yoziladi. Talaba kurs ishi bo'yicha izlanish natijalarini yoritishda bank ishini tashkil qilishning o'ziga xosligini hisobga olib, chet davlatlarning tajribalarini o'zimizda orttirgan amaliy yutuqlarni umumlashtirgan holda uning xususiyatlarini, belgilangan muammolarning echimini topish yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va bartaraf qilish usullarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha mavjud iqtisodiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish;
- kurs ishida chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- kurs ishi bo'yicha to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarning asoslab berilishi;
- talaba tomonidan fikrning ketma-ketlikda, muayayn izchillikda bayon qilinishi;
- qo'yilgan talablar bo'yicha kurs ishining rasmiylashtirilishi.

Kurs ishlarining namunaviy mavzulari

Kurs ishi namunuviy mavzulari tegishli kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o'quv dasturida keltirib o'tiladi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba "Bank ishi" o'quv fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

1) mavzular bo'yicha konspekt (referat, taqdimot) **tayyorlash.** Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'quv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqtni tejaydi;

2) o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Talabalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida olgan bilimlarini o'zlashtirishlari, turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tavsiya etilgan elektron manbalar, innovatsion dars loyihasi namunalari, o'z-o'zini nazorat uchun test topshiriqlari v.b;

3) fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Mustaqil o'rganish uchun berilgan mavzular bo'yicha talabalar tavsiya etilgan asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha o'quv, ilmiy adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda rus va xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanish rag'batlantiriladi;

4) INTERNET tarmog'idan foydalanish. Fan mavzularini o'zlashtirish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda mavzu bo'yicha INTERNET manbalarini topish, ular bilan ishlash nazorat turlarining barchasida qo'shimcha reyting ballari bilan rag'batlantiriladi;

5) mavzuga oid masalalar, keys-stadilar va o'quv loyihalarini ishlab chiqish va taqdim etish;

6) amaliyot turlariga asosan material yig'ish, amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish, hisobotlar tayyorlash;

7) ilmiy seminar va anjumanlarga tezis va maqolalar tayyorlash va ishtirok etish;

8) mavjud laboratoriya ishlarini takomillashtirish, masofaviy (distantsion) ta'lim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar tayyorlash va h.k.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or interfaol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektro-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blits-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturidan o'rin olgan bank tizimidagi masalalar tahlili va ularning ijrosi.
2. Korxona mablag'larini maksimallashtirishda bank tizimining vazifalari.
3. Bank tizimi:mohiyati va iqtisodiyotdagi ahamiyati.
4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat bankning vazifalari
5. Markaziy bankning monetar siyosati va uni bank tizimini liberallashtirishdagi ahamiyati.
6. Pul-kredit muomlasini tartibga solishda bank tizimi o'rni.
7. O'zbekiston Respublikasi valyutasini barqarorlashtirish usullari.
8. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning alohida bo'g'inlarining tavsifi va hokazo.
9. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida tijorat kreditining o'rni.
10. O'zbekiston Respublikasida bank tomonidan kreditlash va uning o'ziga xos xususiyatlari.
11. Rivojlangan davlatlarning kredit mexanizmdan foydalanish tajribalari.
12. O'zbekiston Tijorat banklarining moliyaviy va valyuta hisob-kitoblarga plastik kartochkalarni tatbiq qilish muammolari.
13. Mamlakat iqtisodiyotida tijorat banklari aktivlari va ularni boshqarish usullari.
14. "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturini moliyaviy mablag'lar manbasida bank kreditlarining o'rni.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida xalqaro valyuta operatsiyalari va uning bo'g'inlariga tegishli ma'ruza darslarida modul tizimiga asoslangan elektron majmuadan, xalqaro valyuta operatsiyalari va ularning hisob-kitoblariga tegishli ma'ruza mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan, xalqaro valyuta operatsiyalari va axloq kodeksi bo'limiga tegishli ma'ruza mashg'ulotlarida aqliy hujum, amaliy ish o'yini texnologiyalaridan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uslubiyot boshqarmasida qo'llaniladigan metod, metodologiya va modellardan, Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron didaktik)

texnologiyalaridan foydalaniladi.

O’zbekiston Respublikasi bank tizimi amaliyotida nazorat masalalari bo’limiga tegishli ma’ruza mashg’ulotlarida mantiqiy fikrlash, aqliy hujum va ta’limning shu kabi boshqa metodlari, pedagogik va axborot texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro’yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Cousin. E. J. Invertment strategy and the monetary a buziness cyeles – NY. Ets. : Wiley, 1990. - R. 301.
2. Friedman M. The lag in Effect of monetary policy, journal of Political Economy, Oct. 1961. - R. 237-260.
3. M.Fridmen. Esli bi zagovorili dengi. Per. s angl.-M.:INFRA-M, 2001.- S. 63.
4. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –T.: Cho’lpon, 2011. -328 bet.
5. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - T.:Iqtisod-moliya, 2017.
6.Лаврушин О.И., Афанасьева О.Н., Корниенко С.Л. Банковское дело: современная система кредитования. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 264 стр.
7. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 352 стр.
8. Toymuhamedov I.R. Bank ishi. Toshkent. 2012 yil.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so’zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O’zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – 48 b
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O’zbekiston”, 2017. – 488 b
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O’zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
7. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O’zbekiston, 2018. – 46 b.

Internet saytlari

1. www.gov.uz–O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. www.press-service.uz–O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
4. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali
5. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti.
6. www.InternetNews.com– yangiliklar serveri.
7. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
8. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi rasmiy sayti
9. www.cbu.uz- O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

O’QUV KURSINING PROSPEKTI

2.O’quv kursi prospekti

(2018/2019 o’quv yili)

<table>
<tr><td>O’quv kursining to’liq nomi:</td><td colspan="4">Bank ishi</td></tr>
<tr><td>Kursning qisqacha nomi:</td><td colspan="2">BI</td><td>Kod: BI</td><td></td></tr>
<tr><td>Kafedra:</td><td colspan="4">Bank ishi</td></tr>
<tr><td>O’qituvchi haqida ma’lumot:</td><td colspan="3">Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich
i.f.n., dots.</td><td>Toymuhamedov
64@mail.ru</td></tr>
<tr><td>Semestr va o’quv kursining davomiyligi</td><td colspan="4">6-7-8-semestr, 19 haftadan</td></tr>
<tr><td rowspan="6">O’quv soatlari xajmi:</td><td>jami:</td><td colspan="2">268</td><td></td></tr>
<tr><td>shuningdek:</td><td colspan="2"></td><td></td></tr>
<tr><td>ma’ruza</td><td colspan="2">82</td><td></td></tr>
<tr><td>seminar</td><td colspan="2"></td><td></td></tr>
<tr><td>amaliy</td><td colspan="2">84</td><td></td></tr>
<tr><td>mustaqil ta’lim</td><td colspan="2">102</td><td></td></tr>
<tr><td rowspan="2">Yo’nalish nomi va shifri</td><td>5230700</td><td colspan="3">Bank ishi</td></tr>
<tr><td>5230800</td><td colspan="3">Soliqlar va soliqqa tortish</td></tr>
<tr><td>O’quv kursining statusi</td><td colspan="4">Asosiy o’quv kursi</td></tr>
<tr><td>Dastlabki tayyorgarlik:</td><td colspan="4">Kurs Iqtisodiyot nazariyasi, korxona iqtisodiyoti, “Pul, kredit va banklar”, “Moliya” va boshqa maxsus fanlaridan o’zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.</td></tr>
<tr><td colspan="5">Kursning predmeti va mazmuni: Kursning predmeti bank va bank tizimining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini o’rganishdan iborat.
Kurs bank faoliyati, bank ishining mohiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish maqsadida strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy va amaliy tomonlarini o’rganishga yo’naltirilgan.</td></tr>
<tr><td colspan="5">Kursni o’qitishning maqsadi va vazifalari: Kursni o’qitishdan maqsad – talabalarga bank faoliyatini, bank tizimi operatsiyalarini tahlil qilishning zamonaviy usullari orqali moliya kredit institutlarining turli tuzilmalari o’rtasidagi raqobat jarayonlarini, bank xizmatlarini yoritib berish, shu bilan bir qatorda yangi bank xizmatlarini joriy qilish, bank xizmatlari bozorida raqobatdoshligini ta’minlash, banklarning moliya bozordagi strategiyalarini to’g’ri tanlash bo’yicha yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malaka shakllantirishdir.
Fanning asosiy vazifalari:
▪ banklar faoliyati va operatsiyalarining amaliy tomondan o’rganish;
▪ bank faoliyati va bank operatsiyalarining tashkiliy tomonlarini bilish;
▪ iqtisodiyotni bank sektori tomonidan tartibga solish jarayonlarini o’rganish;
▪ tijorat banklari tizimining faoliyatini samarali olib borish;
▪ bank tizimini iqtisodiyotni liberallashtirish hamda modernizatsiyalash jarayonlariga ta’sir etish mexanizmlarini o’rgatish.
“Bank ishi” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida bakalavr:
– banklarni shakllantirish tamoyillari, shakllari va yo’nalishlari;
– bank xizmatlari va ularning operatsiyalari;
– banklarni boshqarish va ularni tartibga solish tartibi;
– bank faoliyati, ularda xizmat qiladigan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish elementlari, mexanizmlari va tizimlari;
– bank faoliyatining asosiy yo’nalishlarini belgilovchi omillar;</td></tr>
</table>

– bank tizimlari va ularning turlari;
– bank faoliyati sohasida xalqaro hamkorlik ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***;
– bank faoliyatining xususiyatlarini;
– bank xizmatlarini amalga oshirishni;
– tijorat banklarini boshqarishni;
– bank xizmatlari bozori muammolarini hal etish usullarini bilishi va ulardan foydalana olish usul va yo'llarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
– bank faoliyatini doimiy o'zgarib turuvchi bozor kon'yunkturasi asosida tahlil qilish va o'z vaqtida unga moslasha olish;
– bank faoliyatini tashkil etish va bank xizmatlari bozorini takomillashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish;
– bank faoliyatini boshqarish bo'yicha variantlarni ishlab chiqishni va ularni asoslab berish;
– ijtimoiy tayyorgarlikning aniq sohasi bilan bog'liq asosiy hodisa va jarayonlarni, ulardan ilmiy - tadqiqot usullarida foydalanish;
– bank faoliyatini tahlil qilish; tijorat banklarining boshqa nobank tashkilotlari bilan o'zaro aloqasini aniqlash;
– bank xizmatlari va mahsulotlari bozori muammolarining asosiy iqtisodiy talablarini ifodalash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***
bank sohasining joriy faoliyatini doimiy o'zgarib turuvchi bozor kon'yunkturasi asosida tahlil qilish va o'z vaqtida unga moslasha olish;
bank faoliyatini boshqara olish va tashkil etishni takomillashtirish masalalari bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish;
bank faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha variantlarni ishlab chiqish va ularning tanlovini ijtimoiy - iqtisodiy samaradorlik mezonlari bilan asoslash;
– tijorat banklarining boshqa nobank tashkilotlari bilan o'zaro aloqasini shakllantirish***;***
ijtimoiy tayorgarlikning aniq sohasi bilan bog'liq asosiy hodisa va jarayonlarni bilish va ulardan ilmiy - tadqiqot usullarida foydalanish; bank mahsulotlari bozorining muammolari haqida***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
	6-semestr			
1.	Bank ishi fanining predmeti va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari	4	4	4
2	Tijorat banklarini tashkil etishning xuquqiy va iqtisodiy asoslari	4	4	6
3	Tijorat banklari passiv operatsiyalari tarkibi va ularni joylashishi	6	6	6
4	Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularni joylashishi	6	6	4
5	Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari	6	6	4
6	Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari	4	2	4
7	Kreditlashni tashkil etish asoslari	2	4	4
8	Aylanma mablag'lar va mijozlarning kreditga layoqatligini baholash usullari	4	4	4
	Jami	**36**	**36**	**36**

9	Kreditning ta’minoti va uning shakllari	4	4	4	
10	Kreditlash jarayonlari va ularning bosqichlari	2	2	4	
11	Tijorat banklarining foiz siyosati	2	2	4	
12	Alohida kredit turlari va usullari	4	4	4	
13	Kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash	4	4	4	
14	Tijorat banklari tomonidan qishloq xo’jalik sub’ektlarini kreditlash	4	2	4	
15	Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari	2	4	4	
16	Tijorat banklarining lizing operatsiyalari	2	2	4	
17	Tijorat banklarining emissiya-kassa operatsiyalari	2	4	4	
Jami:		**26**	**28**	**36**	
8-semestr					
18	Tijorat banklarining yangi xizmat turlari	4	4	6	
19	Tijorat banklarning balansdan tashqari operatsiyalar	4	4	6	
20	Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasi	4	4	6	
21	Tijorat banklarining to’lovga layoqatligi va likvidligi	4	4	6	
22	Tijorat banklari risklari va ularni boshqarish usullari	4	4	6	
Jami:		**20**	20	30	
Hammasi		**82**	**84**	**102**	

1-mavzu. Bank ishi fanining predmeti va vazifalari. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari. Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funktsiyalari. Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi. Lombard tashkilotlari va mikrokredit tashkilotlarining tarkibi va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O’zbekiston Respublikasi bank tizimini hamda nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va mustahkamlashning zarurligi.

- moliyaviy rag’batlantirish uslubi sifat ko’rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko’rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog’ozlarni vujudga kelishi va hokazo.

Haqiqatdan ham, mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek: “Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo’lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o’tgan yili printsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo’yicha qat’iy qadamlar qo’yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir.

Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so’zsiz davom ettiriladi.

Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o’rinbosarlari bo’ladimi, hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo’ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo’lib qolishi kerak”[3].

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida tijorat banklari muassasalarining keng tarmoqqa ega bo’layotganligi, o’z navbatida, mijozlarga sifatli bank xizmatlari ko’rsatish, ularning bank xizmatiga bo’lgan ehtiyojlarini to’liq qondirish va tijorat banklari o’rtasidagi raqobat muhitini kuchayishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda o’z faoliyatini boshlagan nobank tashkilotlari hisoblangan mikrokredit tashkilotlari va lombardlar bank xizmatlari bozorida tijorat banklariga kuchli raqobatni yuzaga chiqarmoqdalar.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borish natijalariga asosan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni alohida ta’kidladi: «Bozor iqtisodiyotining talabi shundayki, resurs va imkoniyatlardan foydalanish imkoni, ya’ni faoliyat maydoni hammaga teng bo’lishi kerak. Yakkahokimlikka hech kimning haqqi yo’q. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo’lsak, aholi ehtiyoji uchun zarur bo’lgan mahsulotlarni mamlakatimizga import qilish faqat ayrim guruhlar qo’lida to’planib, ular uchun mo’may daromad manbaiga aylanib qolganini adolatdan deb bo’lmaydi.

Endilikda banklar mutlaqo boshqacha, ya’ni bozor tamoyillari asosida ish olib bormokdalar. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona yoki boshqa biror xo’jalik sub’ekti kabi banklar ham endilikda asoslangan biznes rejasisiz kredit va ularga unga tenglashtirilgan pul mablag’larini resurslarni ilgaridek topish imkoniyatiga ega bo’la ololmaydilar. Bundan tashqari bank kreditisiz ko’pgina korxonalarning to’g’ridan-to’g’ri pul mablag’lari bilan ta’minlanish shart-sharoitlari cheklanib qolmoqda. Ma’lumki bank kreditlari nafaqat qaytib berish sharti, balki tegishli foiz stavkalari bilan ham xo’jalik yurituvchi sub’ektlariga berilishi mumkin.

Banklar faoliyatining asl mohiyatini ochib berishda xorijlik olimlar ham o’z fikrlarini bayon etganlar; “Ko’pchilik odamlar uchun banklar bu faqat pulni depozitga jalb qilish va chek yozib berishdir. Ammo, u erda shunday siz ahamiyat berishingiz kerak bo’lgan jarayon borki, ya’ni sizda o’z pulingizni to’g’ri boshqara olish ishonchi paydo bo’ladi..."[4]

Shuning uchun iqtisodiyotda bank tizimining ahamiyatini oshirish maqsadida bir tomondan bank tizimi faoliyatini pul-kredit vositalari orqali tartibda solishnining turli tamoyillari, yondashuvlar va aniq shakllari muhim ahamiyatga ega bo’lsa, boshqa tomondan, O’zbekiston iqtisodiyotining hozirgi sharoitida bank tizimi operatsiyalaridan samaraliroq foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishhamda uni O’zbekiston sharoitiga moslashtirish bugugngi kunda zamon talabidir.

Yurtimizda o’tgan yillar davomida ish haqi va pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o’sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig’idir.

1.2.O’zbekiston Respublikasining bugungi kundagi bank tizimi va uning asosiy operatsiyalari.

Banklar faoliyatida tijorat ma’lum qoidalarga asoslanadi. Ular orasida eng muximi - xo’jalik yuritishdan foyda olish qoidasi, iloji boricha katta foyda ko’rish. Birok tijorat bankida ko’p foyda olish cheklangan. Birinchidan katta ketidan mijozlardan maxrum bo’lib qolishiga olib kelishi mumkin, chunki ular xaddan tashqari katta qo’yilgan stavkali kreditdan voz kechishlari mumkin, ikkinchidan banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari orasidan bir kadar samaralirok ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin. Daromadlilik (foyda ko’rish) qoidasi sifatida shuni anglatadiki busiz bank mavjud bo’la olmaydi. Bank tijoratining bu qoidasi asosan "Arzonroq sotib olish, qimmatroqqa sotish" formulasi orqali amalga oshadi. Birok bu qoidaga

[3] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.//Xalq so’zi. 14.01.2017 y.

[4] “10 things you need to know about Banking” Suzanne Zenelman, University of Missouri Extension, 2007 №3

madaniy yondashmok lozim. U qonunchilikka tayanish, unga aslo zid kelmasligi, binobarin, bunda shunday shart-sharoit yaratilishi kerakki xar bir bank o'zining tijorat ishlarini amalga oshirayotganda bank xizmati bozori haqida bab-baravar axborot olish imkoniyatlariga ega bo'lsin.

Bank tijorati "Hamma narsa mijoz uchun hamma narsa uning foydali faoliyatini ta'minlash uchun" qoidasi asosida harakat qilishi lozim. Bankning amaliy faoliyatida eng muhimi mijozning foyda ko'rishi, undan keyingina bankning foydasi, chunki pirovard natijada mijoz foyda olib faoliyat ko'rsatgandagina bank ham foyda olgan bo'ladi, sababi-kreditlar bo'yicha foizlar faqat mijoz olgan foyda hisobidan to'lanadi. Bank mijozning foyda olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak o'zining manfaatini ham amalga oshirgan bo'ladi. Banklarning kelajakdagi yangi xizmat turlarini kengaytirish va mijozlarni yanada jalb qilish maqsadi yuzasidan; "Zamonaviy bank xizmatlari bu tarmoqni kengayishida turtki bo'ladi",- deydi amerikalik taxlilshunos olima Keyt Stalter.[5] Shunday ekan, tijorat bankning mijozlarga nisbatan sheriklik munosabati o'zaro manfaatdorlik qoidasiga asoslanishi lozim. Bank uchun ham mijoz uchun ham hamkorlik tufayli kozonilgan ishonch ular o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustahkamlaydigan jiddiy omilga aylanadi. Yaxshi sherik bo'lishni istagan bank o'z mijozlarini xizmatlar "majmuasi"bilan ta'minlashi zarur. Tijorat banklari xizmatining an'anaviy turlari qatorida, jumladan, xar-hil kreditlar berish barobarida valyuta, trast operatsiyalarini ham bajaradilar, ayni paytda o'z mijozlarining iqtisodiyotini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti va jahon ho'jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko'proq faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas, shu bilan birga moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar-brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik haqi oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks ettirilmaydi. Hozirgi paytda yirik tijorat banklari kariyib 350 turdagi moliyaviy xizmat ko'rsatmoqda. Kayd etish joizki, bank tizimi ikki bosqichlidir. Birinchi bosqichda dunyo bank amaliyotida bo'lganidayok Markaziy bank turadi, u banklar banki, davlat banki, emissiya banki va oltin-valyuta zaxiralarini boshqaruvchi bankdir.

Tijorat banki o'z faoliyatini Markaziy bankda ro'yhatdan o'tib litsenziya olganidan so'ng amalga oshiradi.

Tijorat banki qo'yidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

- ❖ Mijozlarning hisob varaqalarini olib boradi.
- ❖ Mijozlarga kassa xizmati ko'rsatadi.
- ❖ Mijozning topshirigiga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajaradi.
- ❖ qisqa yoki uzok muddatli kreditlar beradi.
- ❖ Shartnoma yoki pullik asosida buyurtmachining topshirigiga binoan kapital quyilmalarni mablag' bilan ta'minlaydi.
- ❖ Bo'sh pul mablag'lari-depozitlarini muomilaga jalb qiladi.
- ❖ Aholidan omonatlarni qabul qiladi.
- ❖ Investitsiya operatsiyalarini.
- ❖ Lizing operatsiyalarini.
- ❖ Tijorat banki davlatning hamda boshqalarning qimmatli qog'ozlarini xarid qiladi va sotadi.
- ❖ Xorijiy valyuta va qimmatbaho metallarni xarid qiladi va sotadi.
- ❖ O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar beradi.
- ❖ Byudjetning kassa ijrosini.
- ❖ Bank operatsiyalari bo'yicha maslaxatlar beradi.

Banklarning operatsiyalari ularning bevosita faoliyati orqali (vazifasi) amalga oshiriladi. Bunday vazifalarni o'zaro bog'liq ikki turga bo'linadi.

Passiv (bank resurslarini shakkilantirish bo'yicha operatsiyalar).

Aktiv (bunday resurslarni joylashtirish hamda foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar).

[5] "The Future of Banking" by Kate Stalter, Contributor. U.S.News/Money/ June 29, 2015.

Bank resurslari o’ziga tegishli va jalb etilgan mablag’lardan vujudga keladi. O’ziga tegishli mablag’lar odatda banklar tasarrufidagi barcha resurslarning faqat unga katta bo’lmagan qismlarini tashkil etadi. Ularning asosiy qismi depozitlar yoki banklarning mijozlariga karashli omonatlardan iborat.

Bankning aktiv operatsiyalariga avvalo beriladigan, foizli, ssudalar yoki (kreditlar) kiradi. Ular orasida eng ko’p tarqalgani Veksellarni hisobga olish usulidir. Qimmatli qogoz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek mana shunday qogozlarni xarid qilish bo’yicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar egasiga beriladigan ssudalar omborlar yo’ldagi va savdo aylanmasidagi bo’lgan tovarlarni garovga olib taqdim etildi. ssudalar o’z muddati o’lanmagan hamma xollarda garovga quyilgan qimmatli qogozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtiyoriga mulk bo’lib o’tadi. To’lov qobiliyatiga shubxa yo’q yirik mijozlarga bank xech qanday ta’minotsiz ssudalar yoki bank kreditlari deb ataladigan qarzlar beradi.

Tijorat banklarining yana bir muhim funktsiyasidan biri bu hisob to’lovlarini amalga oshirish funktsiyasidir. Bugungi kunda korxona va xo’jalikliarni o’rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshirilmokda. Bu jarayonlarda tijorat banki vositachi sifatida to’lovlar o’tkazish jarayonini bajarmokda. To’lov xujjatlarining o’z vaqtida o’tishi hamda hisob-kitob jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash zaruriyati bugungi kunda banklardan hisob-kitoblarni tashkil qilish va nazorat qilishning mukammal metodlarini ishlab chikishni talab etmokda.

Hisob-kitoblarni tezlashtirish, jarayonlarni ishonchligini ta’minlash hamda bu jarayonlar bilan bog’liq xarajatlarni kamaytirish maqsadida tijorat banklari bugungi kunda kompyuter texnikasi bilan jihozlanmokda. Bundan tashqari mamlakat bo’yicha joylashtirilgan filiallar yordamida to’lovlar jarayoni yanada tezlashtirishga erishilmokda. Bankning bo’limlari tarmogi barpo etilishi kamida uchta asosiy vazifani ko’zlaydi:

Umuman mamlakat iqtisodiyoti manfaatlari:

Bank o’z infratsrukturasini rivojlantirish:

Bankning eng katta mijozlari manfaatlarini nazarda tutish.

Tijorat banklarining to’lovlarini amalga oshirish funktsiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat byudjetiga bo’lgan majburiyatlari nazorat kilinmokda.

1.3.Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida bank tizimi va islohotlari.

Bozor munosabatlariga o’tish bilan iqtisodiyotga ko’p ukladlik shakllanishi tijorat banklarini tashkil etishga to’rtki bo’ldi.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish munosabati bilan birinchi navbatda bank ishini tashkil etish mazmuni o’zgartirishga kirishildi. Ko’p tomli intsruktsiyalar o’rniga bank ishlarini yuritish metodik ko’rsatmalari tayerlandi, kreditlashni kredit shartnomasi asosida amalga oshirish yo’lga ko’yildi, bir operatsiyalaridan bank nazorati olib tashlandi.

Tijorat banklari xo’jalik tashkiloti kabi korxonaning alohida hisoblanadi. Mutsaqil ravishda xo’jalik faoliyati yuritib o’zlarining konkret natijalaridan hamda jihozlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan manfaatdordir.

Jamiyatning ijtimoiy bazasini ifoda etib, tijorat banklari iqtisodiyotni boshqarishda tizim sifatida katnashib, Markaziy bankning pul, kredit va foizlar sohasidagi siyosatini tadbik etuvchi sifatida faoliyat ko’rsatadi.

Tijorat banklarini rivojlanishi tor ma’noda bo’lsa ham ijtimoiy maxsulotning jami summasiga bo’ladi.

Yuqorida keltirilgan fikirlarimizni tahlil etadigan bo’lsak, tijorat banklarining mohiyatini ularning milliy iqtisodiyotda bajaradigan roli va funktsiyalari ochib beradi.

Pul, kredit va iqtisodiy kategoriyalar esa mohiyatini oshishida asos bo’lib hizmat qiladi. Bu kategoriyalarining harakatida banklar katnashadi, ya’ni banklar pul muomalasini aniqlaydi, kredit milliy iqtisodiyotni kreditlovchi sifatida, kredit esa foiz siyosatini amalga oshiradi.

Banklar korxonalar sifatida o’z funktsiyasini ko’pchilik qismi ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va ist’emol bilan.

Bozor munosabatlariga o’tish bilan tijorat banklari o’z manfaatlari doirasida bo’sh pul resurslarini xarakatga keltiruvchi infratuzilmasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Banklarning ikki pogonali tizimi paydo bo’lishi pul muomalasi barqarorligini ta’minlash zaruratining okibati bo’ldi, iqtisodiyoening "sog’lomligi" ko’p jihatdan ana shunga edi. Pul aylanishini umumilliy darajada tartibga solish huquqini olgan banklar keyinchalik yoki to’la davlat banklariga yohud davlat bilan mutsaxkam bog’liq bo’lgan banklarga aylanadi bu esa ularga davlat pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkonini beradi.

Banklarning bajaradigan operatsiyalariga qarab emissiya va tijorat banklariga bo’linadi. “Banklarning eng muhim vazifalaridan biri bu *“pulni yaratish”*. Pulni yaratish bu pulni *“ishlab chiqarish”* bilan cheklanmasdan, buning o’rniga bank rezervlaridan *“tomchilanma”* usulida ham pulni ko’paytirish mumkin”,- deydi xorijlik olim Stefan D.Simpson.[6]

Har qanday mamlakatda emissiya banklari kredit tizimining markazi hisoblanadi, ularga davlat banknotalar chiqarish, emissiya uchun monopoliyalik huquqini beradi. Ular boshqa banklarni kreditlaydi va shu ma’noda banklarning banki sanaladi.Bizning mamlakatimizda kredit tizimining markazi, emissiya banki va banklarning bankiO’zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Tijorat banklari bank tizimining quyi bo’lib, mijozlarga tijorat tomoyillarida kredit, hisob-kitob xizmatlari ko’rsatish yuzasidan bevosita vazifalarini bajaradigan mutsaqil bank muassasa tarmoqlaridan tarkib topgan. Tijorat banklari amalda o’z mijozining xo’jalik faoliyati xizmati bilan bog’liq kredit, hisob-kitob va moliya operatsiyalarini barcha turlarini bajaradi.

Tijorat banklari sanoat, savdo va boshqa hil korxonalarini asosan omonat tarzida jalb etilgan pul mablag’lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o’rtasida hisob kitoblarini amalga oshiradi, shunindek fond, vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shugulanadi.

O’zbekistonda bozor bank tizimini shakllantirishda vujudga kelayotgan boshqa bir muxim muammo-bu tijorat banklarining vujudga kelishi va rivojlanishida davlatning rolidir.

Odatda ishlab chiqarishning pasayishi va pulning kadrsizlanishiga olib keladigan, butun xo’jalik tizimi qayta ko’riladigan bozor munosabatlariga o’tish chogida bozor infrato’zilmasining tarkib topishida davlat tomonidan ko’mak berilishi zarur hisoblanadi. Davlatning roli ishlab chiqarishdagi jamg’arishni jadallashtirishdan, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda iqtisodiyoeni rivojlantirish uchun ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy va moliyaviy muxitni yaratishan iboratdir. O’zbekistonda davlat ishtirokida ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari tashkil etilmokda, ularning maqsadi uzoq davr mobaynida iqtisodiyoening sarmoyasiga bo’lgan ehtiyojini ta’minlashdan iborat bo’ladi. Ularning faoliyati asosan xususiy sektorning datsavval kichik va o’rta tadbirkorlikning mavkeyini rivojlantirish va mutsaxkamlashga karatilgan.

Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan samarali nazorat qilish, omonatchilar va aktsiyadorlarning manfaatlarini ximoyalash maqsadida bank nazorati tizimini mutsaxkamlash yuzasidan muntazam ish olib bormokda.

Tijorat banklari ko’payib bormokda. Markaziy bank tijorat banklari o’rtasidagi raqobatni rivojlantirish, ular faoliyatini diversifikatsiyalash va universallashtirish maqsadida bunday ko’payishga ko’maklashmokda. Birok bu borada xali ko’p ish qilish lozim.

Tijorat banki mohiyatini uning maqsad va vazifalarini yaxshi tushunmaslik tijorat banklari faoliyatida eng ko’p tashvish uygatmokda.

Bu xolat aniq shakllantirilgan va puxta belgilangan rivojlanish tsrategiyasi yo’qligida o’z aksini topayapti. Bu banklar faqat shu kungi foydani uylamokda. Bu esa qanday bo’lmasin tez foyda olish, kerak bo’lsa, xatto o’z mijozlari hisobiga boyish maqsadi

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadini umumiy ko’rinishda moliya xizmatlari taklif etish va ko’rsatish sifatida ifodalash mumkin.

[6] “The Banking System” by Stephen D.Simpson, CFA. Investopedia 2016

Tijorat banklari bozorlarida qarz mablag'larini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va boshqaruvchi eng muxim elementlaridan biridir. Shu munosabat bilan ular zimmasiga sarmoyalar saklanishi va ko'paytirilishini, pullar samarali ishga solinishini, demak zarur daromadlar olinishini ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Tijorat banklari o'z mijozlarining asosiy agenti ishonch bildirgan shaxsi, topshiriqlarni bajaruvchisi, ular mablag'larining bosh tasarrufchisi, aktsiyalar hamda bankdagi hisob varaqlar egalari aksariyat ko'pchiligi uchun eng yaqin maslaxatchi va ekspert hisoblanadi. Bizning uchun ular asosiy iqtisodiy, moliyaviy masalalar hamda shu bilan bog'liq yuridik muammolarni chuqur va juda yaxshi bilishi, rivojlangan axborot-taxlil bazasiga ega bo'lishi va ayni paytda o'z vazifalariga taallukli xar qanday so'rov bo'yicha konkret yordam bera olishi lozim.

Hozirgi paytda qishloqda ssuda jamg'arma shirkatlari tusidagi kredit kooperatsiyalarini va shaxarlarda o'zaro kreditlar jamiyatlarini tashkil etish muxim vazifa hisoblanadi. Bu hozirgi paytda uydagi "paypokka" yashirib saklaetgan pul mablag'larini jalb etish va ularni kreditlar shaklida kredit kooperatsiyasi a'zolari o'rtasida joylashtirish imkonini beradi. Tuman markazlaridagi mikrokredit tashkilotlari kredit kooperatsiyalariga moliyaviy yordam ko'rsatishi, shuningdek ularning a'zolariga texnika, o'g'itlar sotib olish va maxsulotni sotishda ko'maklashishi kerak. Jahon tajribasining dalolat berishicha ishlab chiqarish kooperatsiyalari ham iqtisodiyoeni barqaror rivojlantirishning g'oyat muxim sharti hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar bir vaqtning o'zida ham investor ham emitent sifatida qatnashmoqda. Banklarning boshqa xo'jalik sub'ektlariga nisbatan stabil moliyaviy xolatga egaligi Qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarda qatnashishga imkon bermoqda. Respublikada tijorat banklarning Qimmatli qog'ozlar bozorida aktiv ishtirok etishini sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshrish sohasida o'z aktsiyalarini sotishga bo'lgan intilishdir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari Qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalardan tashqari depozit va jamg'arma sertifikatlar bilan ishlashni ham yo'lga qo'ymokdilar.

Bundan tashqari banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funktsiyalarni bajarishlari korxona tashkilotlarning qimmatli qogozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qo'lay sharoit yaratmokda.

Respublika iqtisodiyotiga kirib kelayotgan «Lizing» jarayonlari bugungi kunda ishlab chiqarishni texnika va texnologiya ta'minlash hamda qayta mijozlashda muximligini ko'rsatmoqda. Agar biz lizing xizmatlariga to'lanadigan foiz bilan bank krediti bo'yicha to'lanadigan foiz o'rtasidagi bogliqlikga e'tibor beradigan bo'lsak, u holda lizing xizmatlarini bugungi kunda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishini yo'lga qo'yish qo'lay hamda muximdir. Chunki tijorat banklari lizing xizmatlari uchun boshqa lizing tashkilotiga kredit berishidan ko'ra bank krediti foizi darajasida mijozlarga xizmat ko'rsatishi va shu bilan lizing xizmatlari bahosini kamaytirish mumkin.

1.4.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotni jadal rivojlantirishdagi rolini oshirishda bank faoliyati.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. "Aqlli biznes egalari bilishadiki, xodimlarni maqsad sari to'g'ri yo'naltirish bu omad sari etaklovchi kuchdir",- deb ta'kidlaydi iktisodchi Jim Blasingeym o'zining zamonaviy qarashlarida.[7] Xuddi shunday kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

[7] "Motivating employees is good business" by Jim Blasingame, "The Small Business Advocate" August 5/2015.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta’minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar etkazib berish, yangi ish o’rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta’minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o’sishini ta’minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

So’ngi yillarda ham Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o’sishni ta’minlash, yangi ish o’rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o’rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag’batlantirish va qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi. Prezidentimiz ta’kidlab o’tganlaridek, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag’batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

-xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo’lidagi barcha to’siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to’liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va kuchli bo’ladi» degan tamoyilni amalga oshirish va boshqalar.

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida instituttsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o’z ichiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo’lgan mulkdorlar sinfini, ya’ni o’rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo’lmaydi[8].

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida instituttsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o’z ichiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo’lgan mulkdorlar sinfini, ya’ni o’rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo’lmaydi[9].

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o’rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta’minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to’ldirishda, aholini ish bilan ta’minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo’lgan mulkdorlar sinfining, ya’ni o’rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo’lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi to’g’risida” 15.05.2015 yildagi PF-4725-son Farmoni va “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2015 yil 28 apreldagi PQ-2340-son qarorining bajarilishi borasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining moliya-xo’jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin


[8] Karimov I.A “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi” T. 21.01.2011 y.

[9] Karimov I.A “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga hizmat qiladi” T. 21.01.2011 y.

kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritishning moddiy-texnik shart-sharoitlarini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga soliq va boshqa to'lovlar borasida engilliklar yaratish, hisobot topshirish tizimini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ularining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berish, kichik biznes sub'ektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlar va qulay sharoitlar tizimini yanada rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo`yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o`sish sur`atlarini ta`minlash imkonini bermoqda. 2000-2016 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 31,0 foizdan 56,9 foizga o`sib, 25,9 foiz birlikka ortgan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi. (foizda).[10]

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy etishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishi, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratishi, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi.

2016 yilda respublikamiz hududlari bo`yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining YAHMdagi ulushi Namangan va Jizzax viloyatlarida yuqori darajaga yetib, 80,3 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida bu ko`rsatkich 78,0 foiz, Surxondaryo viloyatida 75,3 foiz va Xorazm viloyatida 74,2 foizni tashkil etgan. Sirdaryo, Buxoro, Andijon, Farg`ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida, Toshkent shahri va Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik biznes

[10] O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari.

va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50-70 foizlar oralig`ida bo`lib, o`rta darajani qayd etgan. Shu bilan birga, past daradaja qolayotgan Navoiy viloyatida bu ko`rsatkich 37,6 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining YAHMdagi ulushi[11]

(foizda)

	yillar				***2000-2016 yillarda o'zgarish (+;-)***
	2000 y.[1)]	**2005 y.**	**2010 y.**	**2016 y.**	
Yuqori darajada					
Namangan viloyati	33,4	45,2	76,0	80,3	46,9
Jizzax viloyati	37,1	58,3	77,3	80,3	43,2
Samarqand viloyati	44,3	49,9	73,6	78,0	33,7
Surxondaryo viloyati	39,1	42,8	71,7	75,3	36,2
Xorazm viloyati	34,2	47,1	71,8	74,2	40,0
O'rta darajada					
Sirdaryo viloyati	38,9	59,8	77,4	68,7	29,8
Buxoro viloyati	33,0	40,7	64,1	67,9	34,9
Andijon viloyati	32,9	35,8	54,7	66,0	33,1
Farg'ona viloyati	32,0	40,8	59,5	63,4	31,4
Toshkent shahri	41,5	46,4	49,9	58,9	17,4
Toshkent viloyati	34,0	32,3	54,7	57,1	23,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	45,1	63,6	57,0	30,1
Qashqadaryo viloyati	25,8	34,9	55,0	51,7	25,9
Past darajada					
Navoiy viloyati	21,5	18,5	34,4	37,6	16,1

[1)] *Kichik va o'rta bisnes*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini har tomonlama qo`llab quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni yil sayin oshib bormoqda. 2017 yil 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko`rsatayotgan kichik biznes sub`ektlari soni (dehqon va fermer xo`jaliklaridan tashqari) 218170 tani tashkil etib, 2000 yilga nisbatan 118731 taga yoki 2,2 barobar ko`paygan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilashda mikromoliyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mikromoliyalash aholini kambag'allikdan xalos etishi, ya'ni mehnatga layoqatli, iqtidorli aholi qatlamiga ish o'rinlari yaratish orqali o'z g'oya va yangiliklarini ro'yobga chiqarishi, daromad olish manbalarini kengaytirish asosida turmush farovonligini yaxshilashi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faol sub'ektlariga aylanishiga imkon beradi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda.

[11] O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari

O’zbekistonda aholi bandligini ta’minlash, uy xo’jaligi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini mikromoliyalash amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga bog’liq bo’ladi. Hozirda respublikamizda mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi barcha moliya-kredit institutlari ushbu xizmat turiga bo’lgan jami talabni qondira olmaydi.

2016 yilda O’zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosi bo’lgan biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2016 yil oktyabr oyida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning barcha turlarini bekor qilish orqali yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan Farmoni qabul qilindi.

Ushbu hujjatda asosiy e’tibor kichik va xususiy korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va ularning eksport faoliyatini rag’batlantirishni ta’minlash bo’yicha amaliy chora-tadbirlarga qaratilgan bo’lib, bu tarmoqlar va hududlar iqtisodiy rivojlanishining hamda aholi bandligini ta’minlashning muhim yo’nalishi bo’lishi lozim.

Xususiy mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo’yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar 2016 yilda ushbu sohaning barqaror rivojlanishi uchun imkon yaratdi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yaratilgan mahsulotlar qo’shilgan qiymati yil davomida o’sib bordi va birinchi chorakda – 43,1%ni, ikkinchi chorakda – 46%ni, uchinchi chorakda – 54,6%ni va yil yakuni bo’yicha 56,9%ni tashkil etdi hamda 2017 yilga nisbatan 0,4 f.b.ga o’sdi. 2016 yil davomida YaHMda kichik tadbirkorlik sub’ektlarining yuqori o’sish sur’ati Jizzax (1-chorakdagi 61,6%dan yil yakunida 80,3%ga), Namangan (68,2%dan 80,3%ga), Samarqand (67,7%dan 78%ga) shuningdek, Surxondaryo, Xorazm, Sirdaryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida qayd etildi.

2016 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 6 barobardan ziyodga o’sib, I chorakdagi 3235,9 mlrd.so’mdan yil yakuni bo’yicha 19963,2 mlrd.so’mgacha o’sdi va respublika bo’yicha o’zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 40,3%ini yoki o’tgan yilga nisbatan o’sish 122,9%ni tashkil etdi.

2016 yil yakuniga ko’ra, KTdagi bandlar soni 10392,5 ming kishini tashkil etib, o’tgan yildagi ko’rsatkichga (10178,9 ming kishi) nisbatan 102,1% ni tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi jami bandlar tarkibida KTdagi bandlarning ulushi 78,1%ni tashkil etdi. KTning individual sektorida – 8212,1 ming kishi (2017 yilga nisbatan o’sish 3,3 f.b.), kichik korxona va mikrofirmalarda – 2180,4 ming kishi mehnat qilmoqda. KTning xususiy sektori hissasiga 9573,5 ming kishi yoki kichik biznesda band bo’lganlarning 92,1%i to’g’ri kelmoqda[12].

Hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar tufayli, yangi tashkil etilgan sub’ektlar soni sezilarli ortdi va 2017 yildagi 225998 birlikdan (o’sish 26,9 ming birlik) 2016 yilda 233292 birlikka (o’sish 31,8 ming birlik) ko’paydi. Tarmoqlar kesimida eng ko’p tashkil etilgan yangi kichik biznes sub’ektlari soni sanoat va qurilish sohasi (9654 birlik), savdo (8536), qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi (3337), xizmatlar sohasi (2839), tashish va saqlash sohasi (1666) va boshqa sohalarga (5734) to’g’ri keldi. Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar sonining o’sishi Toshkent shahri (o’sish 23,5%), Toshkent (9,2%), Andijon (8,4%), Samarqand (7,2%), Farg’ona (8,0%), Buxoro (5,8%), Jizzax (4,7%), Xorazm (4,7%) viloyatlarida qayd etildi.

Tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari ulushi bo’yicha respublika o’rtacha darajasidan past ko’rsatkichlar Navoiy (2,7%), Sirdaryo (3,8%) viloyatlari va Qoraqalpog’iston Respublikasi (4,1%) bo’yicha qayd etildi.

[12] O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi ma’lumotlari

So’nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e’tibor berilishi hamda qo’llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirilishida moliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar asosiy o’rinni egallamoqdalar. Ularning moliyaviy ko’maklari evaziga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari va tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo’lgan aholining iqtisodiy faol qismi o’z bizneslarni yo’lga qo’ymoqdalar, chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kreditning ahamiyati kattadir. Kreditlash asosan moliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar tomnidan amalga oshiriladi. Moliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar odatda tijorat banklari, kredit uyushmalari, lombardlar, mikrokredit tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlaridan tashkil topadi.

1.5.O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funktsiyalari

Bank faoliyatida riskning iqtisodiy asoslangan chegaralardan chiqib ketmaslik bank sistemasi barqaror ishlanishi muhim shartidir. Risk doiralarini cheklab qo’yish Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun rioya etilishi majburiy bo’lgan iqtisodiy me’yorlarni belgilab qo’yish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar uchun majburiy bo’lgan iqtisodiy me’yorlarni. Shu jumladan:

- kapitalning etarliligi koeffitsienti;
- bir qarz oluvchi yoki bir - biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko’p miqdorini;
- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko’p miqdorini;
- likvidlilik koeffitsientlarini va boshqalarni belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy me’yorlarning o’zgarishi to’g’risida kamida bir oy oldin e’lon qiladi. Banklar va ularning filiallari banklarga oid qonun xujjatlarini, belgilab qo’yilgan iqtisodiy me’yorlarni buzgan taqdirda Markaziy bank ulardan ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,1 foizigacha jarima undirish yohud ayrim operatsiyalarni o’tkazishni olti oygacha bo’lgan muddatga cheklab qo’yish huquqiga ega.

Tijorat banklariga kredit berishning eng ko’p tarqalgan bu turi banklarni qayta moliyaviy ta’minlash deb yuritiladi va u "O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida"gi Qonunning 30 - moddasiga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari va hukumat O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy mijozlaridir. Boshqacha aytganda, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning banki hisoblanadi. Tijorat banklari O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o’z hisobvaraqlaridan o’zaro hisob - kitoblar uchun foydalanadilar va undan tashqari naqd pul zarur bo’lganda ham ular Markaziy bankga murojaat qilishadi.

Bugungi kunda banklarni va boshqa moliya-kredit tashkilotlari orasidagi farqini yo’qotishni mamlakatdagi kapital harakatini markazlashuvuni va jamg’arlishi bilan bevosita bog’liqdir.

Bunday harakat natijasida o’zaro yakin va uxshash bo’lmagan kredit tashkilotlarini yo’qolib ketishi yoki kushilishi jarayoni amalga oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga banklarning universallashuvi makroiqtisodiy omillariga bog’liqdir. Ammo bu faoliyat uzoq muddatni o’z ichiga oladi. Hozirgi kunda farqlarning yo’qolishi va banklar tomonidan funksional va yuridik xususiyatlarni bekor bo’lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshmokda. Shu qayd qilish lozimki yirik banklarning universallashuvi va global yo’nalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga yani malum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bo’lmoqda. Bu esa ko’pgina mamlakatlarda faoliyot ko’rsatayotgan ko’p bosqichli bank tizimiga hos xususiyatdir.

Bozor iqtisodieti va jahon xo’jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Hozirgi sharoitda banklar tobora ko’prok faqat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Pul-kredit siyosati usullari umumiy bo’lishi mumkin, yani mamlakatdan kredit munosabatlar holatiga umumiy tasir ko’rsatuvchi, yoki sElektiv, yani alohida olingan kredit turlariga tasir

ko’rsatish uchun yo’naltirilgan hamda alohida korxona, jumladan tarmoqlarni kreditlash uchun yo’naltirilgan bo’lishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining umumiy usullariga:

- Markaziy bankning hisobga olish siyosati yoki foiz stavkalarini tartibga solish siyosati;
- ochiq bozordagi operatsiyalar, yoki davlat qimmatbaho-qog’ozlarini sotib olish va sotish;
- majburiy zahira normalarini o’zgartirishlar kiradi.

Hisobga olish siyosati Markaziy bankning tijorat banklari uchun oxirgi navbatdagi zahirasi sifatida kreditoriga ayalanishi bilan bog’liq.

Majburiy zahira normalarini tartibga solish bu hukumat talabi asosida tijorat banklarining belgilangan miqdoridagi pul mablag’larini Markaziy bankdagi foizsiz hisob varag’iga o’tkazilishidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar-bu markaziy bankning tijorat va gazna obligatsiyalari va boshqa qimmatbaho qog’ozlarni bozor kursi yoki oldindan elon qilingan kurs bo’yicha sotib olish va sotish, hamda qayta kelishuvlaridir.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati selektiv usullariga:

- limitlar, kvotalar urnatish orqali kredit miqdorini yoki Veksellarini hisobga olishni to’g’ridan-to’g’ri qisqartirishdir;
- kredit operatsiyalarini o’sish darajasini pasaytirish;
- alohida olingan turdagi kreditlar ustidan nazoratni urnatish, ismol krediti ustidan;
- alohida olingan jamg’armalarga yuqori foizlarni o’rnatish yoki umuman foiz stavkalarini tartibga solish va boshqalardir.

Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini o’zida mujassamlashtirilgan o’zida Davlatning tartibga soluvchi organi bo’lib qoladi. “Tarixan zamonaviy Markaziy Bank tushunchasi 20 asrgacha paydo bo’lmagan. Uning zamonaviy funktsiyalari allaqachon tijorat banklari tuzulishida mavjud bo’lgan”,- deb iqtisodchi olim Rim Xikel o’zining “Markaziy Banklar nima?” deb nomlangan maqolasida Markaziy Bankning kelib chiqishiga tarixan nazar solgan holda o’z fikrlarini bildirib, ularni video tasma orqali izoxlab beradi.[13]

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo’lib hisoblanadi. Markaziy bank- birinchi urinda davlat va iqtisodiyot o’rtasida vositachi bo’lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o’z oldiga foyda olishni maqsad qilib kuymaydi.

Markaziy bank funktsiyalari uzoq yillar mobaynida deyarli o’zgarmay aniq modifikatsiyalangan ko’rinishga egadir.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda va ukuv darsliklarida Markaziy bank funktsiyalari turlicha talkin qilinadi.

Masalan V.M. Usoskinining fikriga ko’ra Markaziy bank funktsiyalariga:

- kredit pullari (banknotlar) emissiyasi;
- banklar uchun va boshqa kredit tashkilotlari uchun turli xizmatlarni amalga oshirish;
- hukumatning moliyaviy agenti funktsiyasi;
- markazlashgan oltin-valyuta zahiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati tadbirlarini o’tkazish kabilar kiradi.

“Moliya, pul muomalasi, kredit” kitobining mualliflari fikricha Markaziy bankning asosiy funktsiyasi: - “muomalaga kredit pullari - banknotalarni chiqarish va pul muomalasini tartibga solishdan iboratdir”.

Shunday qilib, Markaziy banklar - “banklar banki”ga aylantirib yuborildi, ya’ni ularning mijozlari bo’lib tijorat banklari hisoblanadilar. Markaziy banklar o’zlarining joriy (depozit) raqamlarida tijorat banklarining pul mablag’larini aks ettiradilar, ularning naqd pullarini tuldirishga bog’liq operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar ko’p hollarda Davlatning bankirlari hisoblanadilar. Shu bilan barcha emission banklarning yana bir asosiy funktsiyalariga ochiq bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi. Ular davlatning

[13] “What Are Central Banks?” by Reem Heakal, “Investopedia” December 10/2015.

qimmatbaho qog’ozlarini sotish va olish, xorijiy valyutalarni hamda milliy valyuta kurslarini ushlab turish maqsadida sotadi va sotib oladi.

Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi turt guruhga (turga) bo’linadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- banklar banki hisoblanadi;
3. Markaziy bank- hukumat bankiri hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vaqili sifatida qonuniy tarzda banknotlarni monopol ravishda emissiya qilish biriktirilgan, yani umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Takidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilarsiz qismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funktsiyasi birmuncha pasaytirilgan. Biroq banknotalarni chiqarish funktsiyasi mamlakatdagi pul zahiralarini tashkil qiluvchi, chakana pul muomalasini naqd banknotalar bilan taminlash va kredit tizimini likvidliligini taminlash vositasi hisoblanadi. Bu funktsiyalar naqd pul muomalasi ulushi sezilarli bo’lgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir.

1.6.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” Davlat dasturidan o’rin olgan bank tizimi oldidagi masalalar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil “22” yanvardagi PF–5308-son Farmoniga asosan 2017–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi «Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili»davlat dasturi belgilab berildi.

O’zbekiston Respublikasida «Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili» deb e’lon qilinganligi munosabati bilan:

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari:

- Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish.

2.Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari:

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minlash;
- Ma’muriy, jinoyat va fuqarolik protsessualqonunchilikni takomillashtirish;
- Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish.

3.Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashning ustuvor yo’nalishlari:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini saqlab qolish;
- Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish;
- bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag’batlantiruvchi choralarni kengaytirish;
- Tarkibiy o’zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish;
- Qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

➢ Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

4.Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:

➢ Aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish;

➢ Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish;

➢ Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;

➢ Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish.

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

➢ Xavfsizlik, dinny bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

2-jadval

2018 yilda Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari[14]

№	Manbalar	So'mda (mlrd.so'm)	AQSh dollarida (mln.doll.)
1.	Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari	5348,9	102,4
2.	Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari	1560,1	
3.	Tijorat banklari kreditlari	441,9	
4.	Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablag'lari va beg'araz yordam	3888,3	1182,5

1.7.Tijorat banklarining funktsiyalari va operatsiyalari.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi. Hindistonlik olima Shrita Chand o'zining "Tijorat banklari va ularning funktsiyalari" haqidagi maqolasida quyidagicha fikr bildirgan; "Banklarni ularning tuzulishi asosida yoki ularning funktsiyalariga qarab turli guruxlarga bo'lish mumkin. Bank strukturasi bank ishlari doirasida bank bo'limlarida shakllanadi. Bankning bajaradigan funktsiyalariga qarab depozit va investitsion banklar faoliyatiga bo'lish mumkin".[15]

Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o'z vaqtida mablag' bilan qo'llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muxim bir vazifani amalga oshirmoqda. Tijorat banklari kreditlash jaraenlari orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga xam juda katta xissa qo'shmoqda. (jadval 2).

Tijorat banklarining yana bir muxim funktsiyasidan biri bu xisob to'lovlarini amalga oshirish funktsiyasidir. Bugungi kunda korxona va xo'jaliklari o'rtasidagi xisob–kitoblarning asosiy qismi pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Bu jaraenlarda tijorat banki vositachi sifatida to'lovlar o'tkazish jaraenini bajarmoqda.

To'lov xujjatlarining o'z vaqtida o'tishi xamda xisob- kitob jaraenlarining uzluksizligini ta'minlash zaruriyati bugungi kunda banklardan xisob-kitoblarni tashkil qilish va nazorat qilishning mukammal metodlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

[14] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil "22" yanvardagi PF–5308-son Farmoniga asosan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi

[15] "Commercial Banks; Types and Functions of Commercial Banks of India" by Smriti Chand, "Your Article Library" 2015

Xisob-kitoblarni tezlashtirish jaraenlarni ishonchligini ta’minlash xamda bu jaraenlar bilan bog’liq xarajatlarni kamaytirish maqsadida tijorat banklari bugungi kunda kompyuter texnikasi bilan jixozlangan. Bundan tashqari mamlakat bo’yicha joylashtirilgan filiallar yordamida to’lovlar jaraeni yanada tezlashtirishga erishilmoqda. Bankning bo’limlari tarmog’i barpo etilishi kamida uchta asosiy vazifani ko’zlaydi:

- Umuman mamlakat iqtisodieti manfaatlari;
- Bank o’z infrastrukturasini rivojlantirish;
- Bankning eng katta mijozlari manfaatlarini nazarda tutish.

Tijorat banklari to’lovlarni amalga oshirish funktsiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat byudjetiga bo’lgan majburiyatlari nazorat qilinmoqda.

Ayni paytda bank tizimining umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridagi mablag’lar miqdoridan 2 barobardan ham ortiq bo’lib, bu depozitlarni ishonchli himoya qilish hamda ularga o’z vaqtida va to’la hajmda xizmat ko’rsatishni kafolatlaydi.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larni yig’ish va ularni kapitalga aylantirish;
- korxona, tashkilotlar va axolini kreditlash;
- muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish;
- iqtisodiyotda xisob-kitoblar va to’lovlarni amalga oshirish;
- moliya–valyuta bozorida faoliyat ko’rsatish;
- iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslaxat xizmatlarini ko’rsatish.

Tijorat banki shuningdek quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

1. Mijozlarning xisob varaqlarini olib boradi;
2. Mijozlarga kassa xizmati ko’rsatadi;
3 Mijozning topshirig’iga binoan naqd pulsiz xisob-kitoblarni bajaradi;
4. Qisqa eki uzoq muddatli kreditlar beradi;
5. Shartnoma eki pullik asosida buyurtmachining topshirig’iga binoan kapital qo’yilmalarni mablag’ bilan ta’minlaydi;
6. Bo’sh pul mablag’lari - depozitlarini muomalaga jalb qiladi;
7. Axolidan omonotlarni qabul qiladi;
8. Faktoring operatsiyalarini;
9. Lizing operatsiyalarini;
10. Tijorat banki davlatning xamda boshqa tashkilotlarning qimmatli qog’ozlarini xarid qiladi va sotadi;
11. Xorijiy valyuta va qimmatbaho metallarni xarid qiladi va sotadi;
12. O’z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar beradi;
13. Byudjetning kassa ijrosini;
14. Bank operatsiyalari bo’yicha maslaxatlar beradi

1.8.Lombard tashkilotlari va mikrokredit tashkilotlarining tarkibi va vazifalari.

Respublikada nobank kredit tashkilotlari tizimini rivojlantirish borasida ko’rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni, aholining keng qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatish imkoniyati kengayib bormoqda.

Lombard (frantsuz tilidan tarjima qilinganda Lombard) moliya muassasasi, ko’char mulk garovga qo’yish asosida ssuda beruvchi tashkilot tushuniladi.

Lombardlar - fuqarolarga tegishli bo’lgan ko’char mulklar garovga qo’yilgan holda lombardlar tomonidan fuqarolarga kredit berish tushuniladi ya’ni lombardlar aholidan tilla taqinchchoqlar va boshqa likvid buyumlarni garovga qo’yish evaziga ma’lum bir shartlar va foizlarda moliyaviy xizmatlar ko’rsatmoqdalar.

O’zbekiston respublikasida lombardlar 2002 yildan buyon O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O’zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to’g’risida"gi 402 - sonli Qarori bilan faoliyat yuritib kelmoqdalar. 2009 yilning 1 yanvar holatiga lombardlarning soni 34 tani tashkil qilmoqda.

Mikrokredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar bozorining eng yosh ishtirokchiloridan biridir. Ular 2006 yil 25 avgustdan buyon O'zbekiston Respublikasi "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan dan so'ng faoliyat yuritmoqdalar.

Mikrokredit tashkiloti - mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish soxasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va «Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir. "Aksariyat hollarda mikrokredit va mikromoliyalash mazmun mohiyati birdek tushunilsa hamki, ular o'rtasidagi farqni to'g'ri tushunib olish lozim. Mikrokredit biz bilganimizdek, kredit ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelsa, mikromoliyalash esa xuddi shu mijozlarga jamg'arma institutlari va sug'urta kompaniyalari orqali moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi",- deb mikromoliyalash institutlariga iqtisodchi olimlar ta'rif keltirganlar.[16]

"Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mikrokredit tashkilotlarining boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlardan farqi, ular qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga haqli emas deb ko'rsatilgan.

Bugungi kunda mikrokredit tashkilotlari mikrokredit yoki mikroqarz berish, qarz majburiyatini sotish yoki sotib olish(faktoring), mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi) va qonun xujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kredit berish bilan shug'ullanmoqdalar. Mikrokredit tashkilotlari kredit siyosatiga muvofiq o'rtacha yillik 60 % gacha mikrokreditlar bermoqdalar. Garov, ta'minot sifatida ular tilla taqinchoqlar, texnika asbob uskunalar va boshqa buyumlar qabul qilishadi.

Shuningdek mikrokredit tashklotlar tijorat banklar va mikrokredit tashkilotlar singari depozitlar qabul qilmaydi. Unga ko'ra tijorat banklar tomonidan ajiratilayotgan kreditlar va mikrokreditlar uchun foiz stavkalari o'rtacha yillik 16 foizni, mikrokredit tashkilotlarida yillik 30 foizni, mikrokredit tashkilotlarida yillik 35 foizni tashkil qilayotgan bo'lsa, lombardlarda bu foiz stavkasi ancha balandroq. Lombardlar bir oyiga 17 foizgacha yillik foiz stavkalri esa tahminan 210 foizni tashkil qilmoqda.

Mikrokredit tashkilotlari o'z faoliyatini belgilangan qonuniy hujjatlar asosida olib boradilar. Qonuniy baza to'g'ri va mustahkam bo'lsa ularning faoliyati barqaror bo'ladi. Shu sabali ham Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, kredit tashkilotlari zimmasiga "...investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim."[17].

Lombardlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 17 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro'yxatdan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to'g'risida"gi 402-sonli qaroriga muvofiq shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 289-moddasiga, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 50-moddasiga, Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2002 yil 28 iyundagi 236-son qaroriga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi hududida lombardlarni ro'yxatdan o'tkazish va ular faoliyatini litsenziyalashni tartibga solish va boshqa yo'riqnomalar va tartiblarga asosan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublkasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 10 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan 1291-sonli "Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizomga va O'zbekiston respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublkasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 10

[16] "The Microfinance Revolution; An Overview" Sengupta, Rajdeep, Craig P., "Federal Reserve Bank of St.Louis Review" January 2008

[17] I. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T. Uzbekiston. 2009y.

dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan 1290-sonli “Lombardlar tomonidan faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari”ga muvofiq o’z faoliyatlarini amalga oshiradilar.

Lombardlar tomonidan kreditlarni rasmiylashtirish va berish tartibi quyidagicha:

Garov ostida kreditni berilishi lombard bilan fuqaro o’rtasida tuziladigan kredit shartnomasiga va garov shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Lombardlar undiruvni qaratish mumkin bo’lmagan mulkni garovga qabul qilish huquqiga ega emas. Shuningdek bir shaxsga berilishi mumkin bo’lgan kreditlar summasi va soni, ularning beriladigan muddatlari, shuningdek kreditlardan foydalanish uchun to’lovlar me’yori, tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi. Fuqarolar kredit olish uchun lombardga garovga topshiriladigan mulk tomonlar kelishuviga asosan baholanadi.

Lombardlar faoliyatini tartibga soluvchi xuquqiy xujjatlar

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2003 yil 17 sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to’g’risi”dagi 402- sonli qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan “Lombardlar tomonidan faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari” 1290-sonli yo’riqnomasi.

3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan “Lombardlar faoliyatini litsenziyalash” 1291-sonli yo’riqnomasi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi tashkilotlar orasida yagni bir moliya muassasalaridan biri bu mikrokredit tashkilotlaridir.

Mikrokredit tashkilotlar 2006 yil 26 avgustdagi “Mikrokredit tashkilotlari to’g’risida”gi qonunga muvofiq o’z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Unga ko’ra mikrokredit tashkiloti - mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish soxasida xizmatlar ko’rsatish bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va «Mikrokredit tashkilotlari to’g’risida»gi Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi yuridik shaxs deb ko’rsatib o’tilgan. Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug’urta, savdo-vositachilik va «Mikrokredit tashkilotlari to’g’risida»gi qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug’ullanishga xakli emas.

Mikrokredit tashkiloti faoliyatining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- «Mikrokredit tashkilotlari to’g’risida»gi Qonun;
- «Mikromoliyalash to’g’risida»gi Qonun;
- Vazirlar Maxkamasining “Moliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori (2007 yil 19 fevral №37);
- Mikrokredit tashkilotlarini litsenziyalash tartibi to’g’risidagi Nizom (Adliya vazirligida 2006 yil 31 oktyabrda ro’yxatga olingan №1635);
- Mikrokredit tashkilotlari tomonidan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish Qoidalari (Adliya vazirligida 2006 yil 23 noyabrda ro’yxatga olingan №1642);
- Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya xisobi xisobvaraklari rejasi (Adliya vazirligida 2006 yil 11 noyabrda ro’yxatga olingan №1639);
- Tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va mikrokredit tashkilotlari tomonidan byudjetga soliqlarni hisoblash va to’lash tartibi to’g’risida Nizom (Adliya vazirligida 2007 yil 9 avgustda davlat ro’yxatiga olingan №1701);
- Mikrokredit tashkilotlari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari (Adliya vazirligida 2007 yil 24 sentyabrda davlat ro’yxatiga olingan № 1719);
- Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish to’g’risida Yo’riqnoma (Adliya vazirligida 2007 yil 12 oktyabrda davlat ro’yxatiga olingan № 1728);
- Mikrokreditbank orqali mikromoliyalashtirish uchun jalb etilgan grant va kreditlarni mikrokredit tashkilotlari va mikrokredit tashkilotlari o’rtasida tanlov asosida taqsimlash tartibi to’g’risidagi Nizom (Adliya vazirligida 2008 yil 31 yanvarda davlat ro’yxatiga olingan № 1763);

Mikrokredit tashkilotlari yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq har kanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin, shuningdek mikrokredit tashkilotlari davlat organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va dinniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin emasligi qonunda ko'rsatib o'tilgan.

Mikrokredit tashkilotining ustav fondi pul mablag'laridan, shuningdek mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantiriladi. Mikrokredit tashkilotining ustav fondini shakllantirishda kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mikrokredit tashkilotlari ustav fondining eng kam mikdori, Toshkent shaxrida tashkil etilayotgan mikrokredit tashkilotlari uchun 20 ming AKSh dollari ekvivalentida, boshka axoli punktlarida tashkil etilayotgan mikrokredit tashkilotlari uchun 10 ming AKSh dollari ekvivalentida belgilangan.

Litsenziya olish uchun mikrokredit tashkiloti qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tganidan so'ng 60 kundan kechiktirmasdan Markaziy bankka yoki uning xududiy Bosh boshqarmasiga quyidagi xujjatlarni taqdim etishi lozim.

- litsenziya berish to'g'risidagi ariza;
- mikrokredit tashkilotining ta'sis hujjatlari;
- mikrokredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvoxnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- mikrokredit tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi to'g'risida ma'lumot;
- mikrokredit tashkilotining ustav fondi shakllanganligini tasdiqlovchi bank hujjati;
- litsenziya davogarining arizasini ko'rib chiqilishi uchun yigim to'langanligini tasdiklovchi to'lov topshiriknomasining nusxasi.
- Markaziy bank taqdim etilgan hujjatlar qonunchilikda o'rnatilgan talablarga nomuvofiqligiga, hujjatlarda noto'g'ri va buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjudligiga, mikrokredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malaka talablariga nomuvofiqligiga ko'ra, litsenziya berilishini rad etish huquqiga ega.

Mikrokredit tashkilotlar o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Iqtisodchi Anil Karnani o'zining "Mikromoliyalash izidan..." nomli asarida; "Mikrokredit avvalam bor, nochorlarga yordam ko'rsatishi kerak. Bu to'g'rida hamma o'z fikrini bildirgan, shu asnoda Yunus ham; "Biz Bangladesh halqini 2030 yilgacha qashshoqlikdan qutqaramiz",- degan g'oya bilan chiqqan. 2006 yilda Mikrokredit tashkilotlar yig'ilishida Umum jahon qashshoqlikka qarshi kurashishda mikrokredit eng afzal instrument hisoblanadi" deb mikrokredit haqida o'z fikrlarini bildirgan.[18]

Mikrokredit tashkilotlari mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi uchun o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari, shuningdek investorlar, shu jumladan chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag'lari, bankning kreditlari va davlat maksadli jamg'armalarining mablag'lari, xalqaro moliya institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining grantlari va qarz mablag'lari va qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan xizmat ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Turli mulk shaklidagi banklar.
2. Bank tizimi va uning funktsiyalari.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bank faoliyati va uni funktsiyalari
4. Mikrokredit tashkilotlari va ularning tuzilishi
5. Mamlakat bank tizimi va uni iqtisodiyotdagi o'rni
6. Tijorat banklari operatsiyalari
7. Zamonaviy kredit tizimi faoliyat ko'rsatishning xususiyatlari

[18] "Microfinance misses its mark" by Aneel Karnani, "Stanford Social Innovation Review" Summer 2007

2-MAVZU. TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Reja

2.1.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi va islohotlari.
2.2.Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.
2.3.Banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalash tartibi.
2.4.Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati.
2.5.Respublikamizda tijorat banklarini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar

Bank mohiyati, bank tizimi, tijorat banki, Markaziy bank, funktsiya, litsenziya, aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, resurslar, valyuta operatsiyalari, korrespondent munosabatlar, marketing va menejment.

2.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi va islohotlari.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlarda unda sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqichma bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmoqda.

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

2017 yil davomida Markaziy bank tomonidan naqd pul muomalasini tashkil etish borasidagi ishlar «Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimi faoliyatiga doir farmon va qarorlariga muvofiq amalga oshirib borildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi «Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2753-sonli Qaroriga asosan 2017 yilning fevral oyidan boshlab:

- barcha turdagi pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlarsiz to'liq hajmda naqd shaklda berilishi;
- mamlakatimiz hududlaridagi 58 ta tog'li va olis tumanlardagi byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to'lash, ijtimoiy to'lovlar hech qanday cheklovlarsiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;
- oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalarning kamida 50 foizi naqd shaklda berilishi joriy qilindi.

Natijada 2017 yilning **birinchi yarmi** davomida bank kassalaridan ushbu va boshqa maqsadlarda amalga oshirilgan naqd puldagi to'lovlar hajmi 17,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, aholidan xorijiy valyutalarning bank valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali bozor mexanizmlari asosida shakllangan almashuv kurslari bo'yicha sotib olinishining joriy qilinishi jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi amaliyotlarining hamda ushbu amaliyotlar bilan bog'liq naqd pul aylanmasining bank sektoriga o'tishini ta'minladi.

Jumladan, bank kassalariga tovarlar sotishdan tushgan naqd pullar hajmi 2017 yilning ikkinchi yarim yilligida birinchi yarim yillikdagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 barobarga (7,8 trln. so'mga), pullik xizmat ko'rsatish sohasidan tushumlar 2,4 barobarga (2,4 trln. so'mga), aholi tomonidan bank omonatlariga qo'yilgan naqd pullar hajmi 1,3 barobarga (800 mlrd. so'mga), soliqlar va boshqa majburiy yig'imlardan tushumlar qariyb 4 barobarga (2,5 trln. so'mga) hamda boshqa sohalardan tushumlar 2,9 barobarga (2,4 trln.so'mga) oshgan.

Naqd pullarning banklar orqali aylanishi hajmining keskin darajada ko'payishi bilan birga, 2017 yilning oxirgi 2 oyida muomalaga chiqarilgan naqd pullar hajmining bosqichma-bosqich qisqarishiga ham erishildi.

Jumladan, 2017 yilning ikkinchi yarim yilligida bank kassalariga 27,7 trln. so’m yoki birinchi yarim yillikka nisbatan 2,3 barobar ko’p naqd pullar kelib tushgan bo’lsa, aynan shu davrda bank kassalaridan amalga oshirilgan naqd puldagi to’lovlar 28,6 trln. so’mni yoki birinchi yarim yillikdagi ko’rsatkichdan 1,7 barobarga ko’p miqdorni tashkil etdi.

Buning natijasida iyul-dekabr oylarida muomalaga chiqarilgan naqd pullar hajmi yilning birinchi yarim yilligidagi ko’rsatkichga nisbatan 73 foizga kamayib, 1,5 trln. so’mni tashkil etdi.

- aholining bank tizimiga bo’lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida, tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali aholidan naqd xorijiy valyutani sotib olish uchun tijorat banklari filiallarini etarli miqdorda so’mdagi naqd pullar bilan ta’minlash uchun 3 834,7 mlrd. so’m;

ish haqi, pensiya va nafaqa bo’yicha to’lovlarning hamda paxta yig’im-terim mavsumida terimchilarga terilgan paxta hosili uchun hisob-kitoblarni o’z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash uchun 2 172,6 mlrd. so’m miqdoridagi naqd pullar bilan ta’minlanganligi ham o’z ta’sirini ko’rsatdi.

Chunki, jahonda davom etayotgan iqtisodiy-moliyaviy inqiroz yillarida ko’plab davlatlar o’z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag’larni yo’naltirishga majbur bo’ldi. Bu, o’z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo’ldi.

Bank tizimi - tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo’lib – mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy nematlarni ishlab chiqarish, muomala va itsemol qilish bilan bog’liq holda ko’rib chiqish zarurdir. O’zining amaliy faoliyatida banklar xujvalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan o’zviy ravishda bog’liq.

Bank tizimi- bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va konkn bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko’rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o’ziga hos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning, geografik shartlari ob-xavo aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yo’llari va omillar asosida shakllanadi.

Bank tizimi - yagona manoga ega emas. Uni turli tamoyillarni kurish, turli holatlariga qarab guruhlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga ko’ra intitustional chizma ko’rinishida ko’rib chiqish mumkin. Bundan tashqari bank tizimini bajaradigan funktsiyalari, o’zaro aloqadorligi, mavkei, maxsus yo’nalishi, bajaradigan operatsiyalarga va ularni tanbex etilishiga qarab ham guruhlash mumkin.


Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat bankiga, akciyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintakaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bulinadi. Akciyador banklar akciyador jamiyat kabi ochiq turdagi yoki yopiq turdagi akciyador banklar bo’lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish akciyalarni sotib olish yuli bilan amalga oshiriladi. Xuquqiy va jismoniy shaxslar banklarning akciyalarini sotib olishi va akciyadorlar bo’lishi mumkin.

Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag’lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Joylashish belgisiga karab tijorat banklar: xalkaro, respublika, mintakaviy, viloyat banklariga bulinishi mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga karab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bulinadi.

Universal banklar hilma-hil operatsiyalar bajarish, xar hil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega buladi. Maxsus banklar ma’lum yunalishlarga xizmat kursatib, uz faoliyatini shu yunalishlarda yutuklarga, samaradorlikka erishishga bagishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat kursatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, invetsiciya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.



1- rasm. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi[19].

Banklarni intutitsional tuzilishi bilan bo’yicha guruhlari bir qancha unsurlarni majmuini bevosita va bilvosita bank faoliyati bilan shug’ullanuvchilarni, ularni tuzilishini, vazifalari, funktsiyalari, muhitdagi operatsiyalarini o’zaro aloqadarlikda o’z ichiga oladi (tashkilot va korxonalar).

Tashkiliy tuzilish bo’yicha guruhlash ushbu davlatda faoliyat olib boradigan kredit turlari va shakllarini, bunda ishtirok etadigan banklarning turlarini o’z ichiga oladi. To’zilma kredit shakllari va bank ishtiroki belgilariga qarab tuziladi.

O’zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga real asos 1991 yil 15 fevralda "Banklar va bankfaoliyati to’g’risidagi" qonuni asosida yuzaga keldi. Bu qonunga asosan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak edi. U faqat Respublika Oliy majlisiga hisobot beradi.

O’zbekiston bozor iqtisodiyotiga o’tishning bosqichma - bosqich yo’lini tanlaganligi bois, 1 - bosqichdagi kredit-pul siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib qo’yildi:

- Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklarni o’zida mujassamlashtirgan ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo’limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta’minlash;
- kredit va naqd pul massasining asossiz o’sishini keskin cheklash;
- O’zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart - sharoitlar, hamda imkoniyatlarini yaratish va boshqalar.

Ixtisoslashgan tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda Vazirlar Maxkamasining "Bank tizimini takomillashtirish va pul - kredit munosabatlarini barqarorlashtirish bo’yicha chora - tadbirlari to’g’risida" gi 1994 yil 18 martdagi qarori muhim ahamiyatga ega bo’lib, unda banklarning axborot infratuzulmasini tuzish va xalqaro bank amaliyotining ilg’or usullarini respublika bank amaliyotiga qo’llash orqali bank tizimini takomillashtira borishi bo’yicha yo’l -

[19] Muallif tomonidan tuzilgan.

yo’riqlar belgilab berildi. 1994 yildan boshlab yangi buxgalteriya hisobi tizimini ishlab chiqish va ularni banklarga tadbiq qilish jarayoni boshlandi.

1996 yilda Respublika Prezidentining "Bank auditi tizimini rivojlantirish bo’yicha chora - tadbirlari to’g’risida"gi farmoniga asosan bank tizimida buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish jarayoni yanada takomillashtirildi va jahonning nufuzli auditorlik kompaniyalaridan "Artur Andersen", "Deloyt end tush", "Key Pi Em Ji - (KRMG)", "Ernest end Yang", "Kupers end Laybrand" kabilar etakchi tijorat banklari faoliyatini audit qilishga taklif qilindi. Bank tizimini rivojlantirishning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, bank tizimining huquqiy asoslarini mustaxkamlash va zamon talablariga moslashtirish maqsadida "O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risidagi" va "Banklar va bank faoliyati to’g’risida"gi qonunlarning yangi loyihasi ishlab chiqildi.

1995 yil 21 dekabrda bank faoliyatining xuquqiy va me’yoriy tartibga solish qoidalarini belgilovchi "O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida" va 1996 yil 25 aprelda "Banklar va bank faoliyati to’g’risida"gi qonunlarning qabul qilinishi bank tizimini jahon andozalariga yaqinlashtirish sohasida mustahkam qonuniy poydevor yaratdi.

Bu jarayon O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 24 apreldagi "Xususiy tijorat banklari tashkil qilishni rag’batlantirish chora - tadbirlari to’g’risida"gi Farmonning qabul qilinishi bilan yanada faollashadi. Mazkur Farmonga ko’ra, nizom jamg’armasida jismoniy shaxslarning ulushi 50 foizdan kam bo’lmagan holda tijorat banklarini ochish uchun bir qator imtiyozlar belgilangan edi. Natijada so’nggi yillar ichida xususiy banklarning soni keskin ko’payib, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun dastlabki ruxsat berilganlari bilan qo’shib hisoblaganda 20 taga etdi. Hozirgi paytda respublikada faoliyat ko’rsatayotgan tijorat banklarining deyarli yarmi xususiy banklar hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank tizimini isloh qilish chora - tadbirlari to’g’risida"gi 1999 yil 15 yanvardagi qaroriga asosan bank tizimini barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta’minlashda banklarnig ishtirokini kengaytirish, bank xizmatlari sohasida raqobat muhitini rivojlantirish sohasida vazifalar belgilab berildi. 1991 - 2000 yillar mobaynida yuzaga keltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozalarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirsh va isloh qilish chora - tadbirlarining boshlanishi bank tizimi rivojlanishining to’rtinchi bosqichi boshlanganligini ko’rsatadi. Bu bosqich O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora - tadbirlari to’g’risidagi" 2000 yil 21 martdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasinig "Bank tizimini isloh qilishga doir qo’shimcha chora - tadbirlar to’g’risida"gi 2000 yil 24 martdagi Qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.

2.2.Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.

O’zbekiston Respublikasining N 216-I “Banklar va bank faoliyati to’grisida” gi Konuni hamda "O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida"gi Qonun, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solib boriladi.

Ushbu qonunlarda bank tushunchalariga va ularning operatsiyalariga ta’riflar keltirilgan. Unga ko’ra bank - tijorat tashkiloti bo’lib, bank faoliyati deb xisoblanadigan kuyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar kabul kilish xamda kabul kilingan mablaglardan tavakkal kilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

to’lovlarni amalga oshirish.

Banklar bevosita ishlab chikarish, savdo va sugo’rta faoliyati bilan shugullanishga xakli emaslar.

Banklar uchun quyidagi vakillik hisobvaraqlari ochiladi:

a) O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi milliy va chet el valyutasidagi vakillik hisobvaraqlari;

b) rezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari.

Rezident tijorat banklar milliy va chet el valyutasida vakillik hisobvaraqlarini O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Hisob-kitob markazida ochadilar.

Yangi tashkil etilayotgan bank ta’sischilari bank ro’yxatga olingunga qadar ta’sis badallarini yig’ish uchun O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankida yoki boshqa tijorat bankida vaqtinchalik 29801 - "Mijozlar bilan hisob-kitoblar" hisobvarag’ini ochadi.

Vaqtinchalik hisobvaraqni ochish uchun vakolatli shaxs ta’sischilar nomidan hisobvaraq ochish to’g’risida ariza taqdim qiladi.

Banklarga O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro’yxatga olinib, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berilgandan keyin mazkur Yo’riqnomaning 26 va 28-bandlariga muvofiq vakillik hisobvarag’i ochiladi.

Vakillik hisobvarag’i ochilayotganda, vakillik munosabatlari to’g’risida shartnoma tuziladi.

Tijorat banki milliy valyutada vakillik hisobvarag’i ochish uchun quyidagilarni taqdim qiladi:

a) hisobvaraq ochish to’g’risida ariza;

b) soliq to’lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to’g’risida guvohnoma nusxasi;

v) bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaning nusxasi;

g) statistika organlari tomonidan berilgan Korxona va tashkilotning yagona davlat ro’yxatiga kiritilganligi to’g’risida guvohnoma nusxasi;

d) imzolar namunalari va muhr izi qo’yilgan varaqcha.

Rezident banklarga chet el valyutasida vakillik hisobvaraqlari chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasi bo’lgan holdagina boshqa rezident vakolatli banklarda ochiladi.

Norezident banklar tomonidan O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va O’zbekiston Respublikasining vakolatli banklarida vakillik hisobvaraqlarini ochish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:

a) norezident bankning to’liq nomi va uni ro’yxatdan o’tkazgan davlatdagi yuridik manzili ko’rsatilgan holda hisobvaraq ochish to’g’risida ariza;

b) imzolar va muhr izi qo’yilgan varaqcha hamda mazkur davlatning Markaziy (Milliy) banki tomonidan berilgan litsenziyaning legallashtirilgan nusxasi;

v) norezident bank tomonidan va u ro’yxatga olingan davlatda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar qo’llanilishi to’g’risidagi axborot. Bank kuyidagi xollarda o’z faoliyatini to’xtatadi:

aktsiyadorlar yigilishining karoriga ko’ra;

Markaziy bank litsenziyani chakirib olganida;

bankrot deb e’lon kilinganida.

Aktsiyadorlarning umumiy yigilishi, bank kengashi va boshkaruvi bankning boshkaruv organlari xisoblanadi.

Banklarning barkarorligini ta’minlash xamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini ximoya kilish maksadida banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iktisodiy normativlarga rioya etishlari shart.

Banklar o’z faoliyatlariga doir xisobot va boshka axborotni Markaziy bankka o’z vaktida takdim etishlari shart.

Banklar va ularning mijozlari o’rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Banklar shartnoma asosida mablaglarni depozitlar, kreditlar shaklida bir-birlaridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, tashkil etiladigan xisob-kitob markazlari va vakillik xisobvaraklari orkali xisob-kitoblarni amalga oshirishi xamda litsenziyada nazarda tutilgan boshka o’zaro operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Banklar o’z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, xisobvaraklari xamda jamg’armalariga doir ma’lumotlar sir saklanishiga kafolat beradi. Banklarning bank operatsiyalari bozorini

monopoliyalash va bank ishida rakobatni cheklashga karatilgan bitimlarga erishish maksadida o’z ittifoklari, uyushmalari va boshka birlashmalaridan foydalanishi takiklanadi.

Banklarning faoliyati konun xujjatlariga muvofik auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan auditorlar tomonidan xar yili tekshirib turilishi lozim.

Markaziy bank konun xujjatlariga muvofik banklar faoliyatini nazorat kilib boradi.

Banklar O’zbekiston Respublikasida o’z filiallarini, chet el banklari esa o’z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari mumkin.

Bank filiali uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo’linmadir.

Chet el banki vakolatxonasi bank faoliyatini amalga oshirmagan holda bankning manfaatlarini ko’zlab ish yurituvchi alohida bo’linmadir.

Filiallarning rahbarlarini ularni tashkil etgan bankning rahbari Markaziy bank bilan kelishib tayinlaydi.

Banklar Markaziy bankning ruxsati bilan chet ellarda o’z sho’’ba banklarini, filiallari va vakolatxonalarini ochishlari, banklar tashkil etishda qatnashishlari mumkin.

Banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari Markaziy bank tomonidan O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari buzilganligi uchun bank rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladilar.

Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim.

Audit, xususan, kapitalning etarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo’yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni o’lchashni o’z ichiga oladi. Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqarishlari va amalga oshirishlari ham shart.

Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi.

Markaziy bank tijorat banklaridan axborot berishni talab qilishga va ushbu qonunni bajarish maqsadida boshqa ishlarni amalga oshirishga haqlidir.

Banklar faoliyatini tekshirish Markaziy bank tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

2.3.Banklarni davlat ro’yxatidan o’tkazish va litsenziyalash tartibi.

Bank, shu jumladan chet el banki, O’zbekiston Respublikasida o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro’yxati ko’rsatiladi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati gayrikonuniy deb xisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib ko’yilishi lozim.

Banklar o’z ustavlari asosida faoliyat ko’rsatadilar.

Bank ustavida:

bankning (to’la va qisqartirilgan) nomi va qaerda joylashganligi (pochta manzili);

bank operatsiyalarining ro’yxati;

ustav kapitalining miqdori, muassislar ro’yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti;

bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma’lumotlar;

bank auditi tartibi, shu jumladan, buxgalteriya hisobi xalkaro standartlariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko’rsatilgan bo’lishi lozim.

Bank ustavida, ushbu moddada belgilangan talablardan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma’lumotlar ham bo’lishi kerak.

Bank ustaviga kiritiladigan o’zgartishlar belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilishi lozim.

Banklar, basharti, konun xujjatlarining talablariga zid kelmasa, o’z faoliyatlarini muvofiklashtirish, o’z a’zolari manfaatlarini ximoya kilish va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoklar, uyushmalar va boshka birlashmalar tuzishlari mumkin.

Banklar Markaziy bankda ro’yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo’ladilar.

Ro’yxatga olish tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ro’yxatga olish bilan bir vaqtda banklarga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya topshiriladi.

Banklarni ruyxatga olish va ularga litsenziya berish haq evaziga amalga oshiriladi.

Banklarning filiallari Markaziy bankda ro’yxatga olinadi va o’z faoliyatlarini ularni tashkil etgan bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Litsenziya berishdan oldin Markaziy bank arizachilarga bank tashkil etish sohasidagi faoliyatlarini davom ettirish imkonini beradigan dastlabki ruxsatnomani beradi.

Dastlabki ruxsatnomani berish to’g’risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko’pi bilan uch oy ichida qabul qilinadi va muassislarning moliyaviy imkoniyatlarini hamda obro’sini, bank rag’barligiga taklif etilayotganlarning kasb malakalarini, biznes-rejani, moliyaviy rejani, kapitalning tuzilishini, tegishli bank binolari va uskunalar bilan ta’minlash imkoniyatlarini baholashga asoslanadi.

Bankni ro’yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog’i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari kerak.

Bankni ro’yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko’pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

bank to’lovga qobiliyatsiz bo’lib qolganida, passivlar aktivlardan ko’payib ketganida;

litsenziya berishga asos bo’lgan ma’lumotlarning noto’g’riligi aniqlanganda;

bank o’z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo’lmaganida;

hisobot ma’lumotlari muntazam ravishda buzib ko’rsatilganda;

qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;

litsenziya berilgan paytdan e’tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;

monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda;

Markaziy bank chet el kapitali ishtirokidagi banklar oldiga qo’shimcha talablar qo’yish, shu jumladan, chet davlatlar banklaridan ular o’zlari joylashgan va ro’yxatga olingan erdagi tekshiruv organi nazorati ostida ekanliklarining tasdiqnomasini talab qilish huquqlariga ega.

Chet el banklariga litsenziyalar, basharti, chet davlat banki o’z mamlakatida qaytarib berish sharti bilan pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga ega bo’lsagina beriladi.

2.4.Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati.

Tijorat banklarining barqarorligida ularning ustav kapitali muhim o’rin tutadi. Shakllangan kapital yildan-yilga iqtisodiy normativlarning barcha parametrlarini bajarilishini to’liq ta’minladi, yana shu bilan birga, u o’rnatilgan minimal belgilardan bir necha baravar yuqori bo’lishiga olib keldi.

Bugungi kunda bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko’rsatkichlari, xalqaro indiqatorlar asosida tahlil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi ko’rsatkichi 2015 yil yakuni bo’yicha bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi qariyb 23,6 foizni, shuningdeq likvidlik darajasi 64,5 foizni tashkil etdi. Kapital etarlilik ko’rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 marta, bank likvidligi esa 2 marta ko’pdir.

2016 yil davomida aktsiyadorlik-tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 401,4 mlrd. so’mlik aktsiyalar investorlar o’rtasida, shundan, 245,7 mlrd. so’mlik aktsiyalar nodavlat sektori o’rtasida joylashtirildi.

1-jadval

Tijorat banklarining ustav kapitaliga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumot[20]

mlrd.so'm

№	Bank nomi	Jami	Shu jumladan, yillar bo'yicha								
			2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
1.	AT "Xalq banki"	120,0	20,0	18,0	26,7	35,3	10,2		226,0	54,0	54.0
2.	"Sanoatqurilishbank" ATB	130,1	62,5	2,9	0,0	0,0	30,0	152,0		157,0	
3.	"Agrobank" ATB	98,8	0,0	30,1	19,9	7,6	0,0	94,1	30,0	50,0	50.0
4.	"Qishloq qurilish bank" ATB	150,0	14,0	75,0	61,0	0,0	0,0		33,3	25,0	25.0
5.	"Asaka" ATB	147,1	0,0	147,1	0,0	0,0	0,0		68,8		
6.	"Mikrokreditbank" ATB	72,0	44,8	27,2	0,0	0,0	0,0	40,0		25,0	25.0
7.	«Ipoteka-bank» ATIB	15,0	15,0	0,0	0,0	0,0	0,0		43,2		
8.	TIF milliy bank									35,0	75.0
9.	Orient Finans								19,5		
10.	Asia Alliance Bank								23,7		
11.	J a m i :	733,0	156,3	300,3	107,6	42,9	40,2	286,1	414,8	346,0	229.0
12.	**Xukumat tomonidan**	**637,3**	**136,0**	**224,9**	**107,6**	**42,9**	**40,2**	**286,1**	**316,0**	**346,0**	**229.0**

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 martdagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2325-sonli Qarori bilan 2015-2017 yillar davomida bank ustav kapitalini 185,0 mlrd. so'mga oshirish orqali 385,0 mlrd. so'mga etkazish, shu jumladan, 2016 yilda 54,0 mlrd. so'mga oshirilishi yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3066-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 2017 yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari hisobidan ekvivalenti 500 mln. AQSh dollari miqdorida tijorat banklarining ustav kapitallarida davlat ulushini oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. Shunga ko'ra tijorat banklarining ustav kapitallariga yo'naltirilayotgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari, ularning ustav kapitallariga mablag'lar tushgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisobga olindi.

2-jadval

Tijorat banklarining ustav kapitaliga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumot[21]

mln.AQSh dollarida.

[20] Muallif tomnidan tayyorlandi.

[21] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3066-sonli Qarori.

№	Bank nomi	01.06.2017 holatiga ustav kapitali miqdori.	Qo'shimcha berilgan ustav kapitali miqdori
1.	O'zbekiston Respublikasi TIF milliy banki	452	51
2.	ATB «Asaka»banki	264	70
3.	ATB «Uzsanoatqurilishbank»	266	71
4.	Xalq banki	134	65
5.	ATB «Kishlok kurilish bank»	158	46
6.	ATIB «Ipoteka-bank»	120	60
7.	ATB «Mikrokreditbank»	91	30
8.	ATB «Agrobank»	152	100
9.	ATB «Turonbank»	26	7
	Jami	1661	500

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ulushini shakllantirish va oshirish hisobiga yo'naltirilayotgan mablag'lar, birinchi navbatda, 2017-2018 yillarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning tasdiqlangan manzilli dasturlarini moliyalashtirishga (birgalikda moliyalashtirishga) sarflanishi belgilandi.



2-rasm. Banklarning jami kapitali, mlrd.so'mda. [22].

Shu bilan birga, mamlakatimizda bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo'llanish doirasi kengayib, tadbirkorlar o'rtasida keng ommalashib, 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilarning jami soni 2016 yilning boshiga nisbatan qariyb 2 barobarga oshib, 2 042 mingtaga etdi. Shu jumladan, «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 135,6 mingtadan ortgan bo'lsa, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 1 906,5 mingtani tashkil etdi (11-diagramma).Tijorat banklarining umumiy kapitali 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2016 yilning 1 yanvariga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni tashkil etdi.

2016 yil davomida aktsiyadorlik-tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 401,4 mlrd. so'mlik aktsiyalar investorlar o'rtasida, shundan, 245,7 mlrd. so'mlik aktsiyalar nodavlat sektori o'rtasida joylashtirildi.

[22] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Xususan, tijorat banklarining muomaladagi qarz qimmatli qog'ozlari hajmi 2017 yil 1 yanvar holatiga 1 054,1 mlrd. so'mni, jumladan, muomaladagi uzoq muddatli obligatsiyalar 216,3 mlrd. so'mni va depozit sertifikatlari miqdori 837,8 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchi ovozga ega aktsiyalar egalari bo'lgan aktsiyadorlarning ko'pchilik to'rtdan uch qismi ovoz bergan xolda qabul qilinadi. Ovoz berish "bitta aktsiya - bir ovoz" tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi.

Ustavga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun bank aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi tegishli qaror qabul qilgan kundan boshlab bir oy mobaynida Markaziy bankning Tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamentiga quyidagi xujjatlarni uch nusxada taqdim etadi:

- Bank kengashi raisi imzolagan bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatga olish to'g'risidagi iltimosnoma (davlat yagona muassisi xisoblangan banklar iltimosnomasini Boshqaruv raisi imzolaydi);
- ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan bank aktsiyadorlari umumiy yig'ilishining baennomasi;
- Bank kengashi raisi imzolagan bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar matni.

Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar xajmi katta bo'lib, ular ustav bilan ishlashni murakkablashtirgan eki boshqa xollarda Markaziy bank ushbu bankdan mazkur Nizomning 1.5-bandida ko'rsatilgan xujjatlarga qo'shimcha ravishda ustavning yangi taxririni (uch nusxada) taqdim etishni talab qilish xuquqiga ega.

Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar ular Markaziy bankda ro'yxatga olingan sanadan boshlab kuchga kiradi. Bank ustaviga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgach uning ajralmas qismi xisoblanadi.

Mablag'larni jalb qilishda banklarning imkoniyatlari Respublika Markaziy Banki tomonidan boshqariladi va xozirgi kunda banklarning xususiy kapitallarining xajmi xamda ularning tashkiliy - xuquqiy shakllaridan kelib chiqqan xolda banklarning imkoniyatlari aniqlanadi:

- tijorat banklari uchun jalb qilingan mablag'lar xajmi banklarning xususiy kapitalidan 25 martadan oshmasligi lozim;
- epiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati ko'rinishida barpo etilgan banklar uchun – 20 barobardan ortmasligi lozim;
- ochiq turdagi aktsioner jamiyati ko'rinishda barpo etilgan banklar uchun 10 barobardan ortmasligi lozim.

Banklarning kapitallashuv darajasini oshirishda ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tijorat banklari ustav kapitallarining eng kam miqdorini 2011 yilning 1 yanvaridan barcha yangi ochilayotgan tijorat banklari uchun 10 mln. evro ekvivalentiga, yangi ochilayotgan xususiy tijorat banklari uchun esa 5 mln. evro ekvivalentiga etkazish tartibi belgilandi. Faoliyat yuritayotgan banklar uchun esa ustav kapitali miqdori ularning riskka tortilgan aktivlarga nisbatan 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

2.5.Respublikamizda tijorat banklarini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Jahon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslaxatlar kabi xizmatlar ham keng o'rin olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham bu sohani o'rganishdir.

Yangi iqtisodiy sharoit o'z navbatida tijorat banklarining rivojlanishini ular ko'rsatayotgan xizmatlarga va bu xizmatlarning kay darajada tashkil qilinganligi bo'ladi. Chunki ishlab chiqarishdagi kabi bank sohasida ham raqobat ertami-kechmi o'z ishini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror va samarali ishlovchi bank tizimini yaratish mutsaqillikning birinchi kunlaridan O'zbekistonda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

"O'zbekistonning moliyaga doir yordamchi tarmoqlarini, mamlakatning bank tizimini takomillashtirish biz uchun birinchi navbatdagi vazifadir",- deb etirof etilgan edi, chunki

Mutsaqillik elon qilingunicha mamlakatda mutsaqil bank tizimi mavjud emas va mavjud bank muassasalari sobiq Ittifok bank tizimining tarkibiy qismi hisoblanardi.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Xo'sh, gap qaysi o'zgarishlar to'g'risida bormoqda?

Birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirshning texnologik inqilobi bilan bogliq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, birok uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning ko'shilib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu xodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli hildagi tijorat to'zilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli ist'emolchilari ta'siri ortadi. Ist'emolchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qo'layligi, mijozlarning ehtiyojlariga o'tkazish-e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattiq talablar boshlaydi. Bank tizimi hozir xal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya intsi-tutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi. Bu ikki omilning o'zaro uygunligi kreditlash xajmlarining usishi uchun sharoit yaratadi. Biroq bu boshqarilmaslik kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

Bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

- aktsiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;
- Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;
- bankrot deb e'lon qilinganida.

O'z faoliyatini to'xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi.

Bankning faoliyati to'xtatilganligi haqidagi xabar matbuotda e'lon qilinadi.

Bank faoliyatini to'xtatish va uni tugatish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Banklarning barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlarga rioya etishlari shart.

Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini etarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zahiralarni tashkil etishlari shart, shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishini ta'minlashlari lozim.

Banklar:

- amalga oshirilgan investitsiyalarning turlari yoki shakllariga;
- ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk sotib olish hamda unga egalik qilishga;
- boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlarida qatnashishga doir shartlarga rioya etishlari lozim.

Banklar:

- kapitalni taqsimlash natijasida o'z kapitali talab qilinadigan eng kam miqdordan ham kamayib ketadigan bo'lsa, kapitalni taqsimlashga;
- aktsiyalar shaklidagi o'z qimmatli qog'ozlari bilan kafolatlangan kredit berishga;

- oldindan Markaziy bankning roziligini olmay turib, o’z aktsiyalarini sotib olishga haqli emaslar.

Normativlar va ularni hisob-kitob qilish uslubiga bo’lajak o’zgartishlar amalga kiritilishidan kamida bir oy oldin Markaziy bank tomonidan rasman e’lon qilinadi.

Ustav kapitalining eng kam miqdori o’zgartirilishi to’g’risida Markaziy bank bunday o’zgartish amalga kiritilishidan kamida uch oy oldin rasman xabar beradi.

Banklar O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ko’zda tutilgan tartibda bank qonunchiligida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda tugatiladi. Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat.

Bank ixtiyoriy yoki majburiy ravishda tugatilishi mumkin (Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya chaqirib olinganida). Banklarni tugatish uchun quyidagilar asos bo’ladi:

a) bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olinishi;

b) Markaziy bank roziligi mavjud bo’lgan holda aktsiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig’ilishining bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to’g’risidagi qarori;

Bank Markaziy bank tomonidan tugatilganda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya, shuningdek, ayrim operatsiyalarni bajarish uchun berilgan litsenziyalar (agar bunday litsenziyalar mavjud bo’lsa) chaqirib olinadi.

Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to’g’risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to’g’risidagi qarori u qabo’l qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. qaror u qabo’l qilingan kuni bank rahbariyatiga (mazkur qarorni olganligiga to’g’risida) imzo qo’ydirilgan holda topshiriladi.

Bankni tugatish to’g’risida qaror qabo’l qilingandan keyin, Markaziy bank Banklarni ro’yxatga olish Davlat kitobiga bankda tugatish jarayoni ketayotganligi to’g’risidagi yozuvni kiritadi.

Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zahiralar hisobvarag’ida hisobda turgan mablag’lari tugatuvchi tomonidan bankni tugatish jarayoni boshlanganligi to’g’risidagi tasdiqnoma taqdim etilganidan so’ng uch kunlik muddatda tugatilayotgan bank joylashgan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi ho’zuridagi Hisob-kitob-kassa markazida ochiladigan bankning tugatish hisobvarag’iga qaytariladi.

Bankni tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarlash;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini yakunlash.

Ixtiyoriy tugatish.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta’minlash imkoniyatiga ega bo’lgan bank aktsiyadorlari umumiy yig’ilishi (ishtirokchilari) tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to’g’risida qaror qabo’l qilingan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish quyidagi tadbirlarni o’z ichiga oladi:

Bank aktsiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig’ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to’g’risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilishi lozim. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to’g’risidagi iltimosnoma aktsiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig’ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan bo’lishi zarur.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to’g’risidagi iltimosnoma bilan birga Markaziy bankka quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

- aktsiyadorlar umumiy yig’ilishi tomonidan bankni tugatish to’g’risidagi tugatish sabablari ko’rsatilib qabo’l qilgan qarori;
- bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to’g’risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojat qilingan vaqtdagi balans hisoboti;
- tugatish komissiyasi a’zolari ro’yxati;
- aktsiyadorlar umumiy yig’ilishi tasdiqlagan tugatish rejasi.

Markaziy bank iltimosnoma qabo’l qilingan kundan boshlab bir oy davomida bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik berish to’g’risida qaror qabo’l qiladi. Markaziy bank ushbu iltimosnomaga rozi bo’lmasa bank rahbarlari va aktsiyadorlariga bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik bermasligi to’g’risida asoslangan qarorni etkazadi. Markaziy bank zarur hollarda tugatish rejasi va jadvalini ko’rib chiqish yoki boshqa hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilishi mumkin.

Likvidator Markaziy bankning tugatish to’g’risidagi roziligi olingandan keyin, kreditorlar o’z talablarini bildirishi mumkin bo’lgan manzilni ko’rsatgan holda ushbu ma’lumotni kamida ikki respublika gazetasida e’lon qilishi lozim.

Talab qilinayotgan barcha choralar bajarilgach tugatish komissiyasi aktsiyadorlar umumiy yig’ilishi tasdiqlaganidan so’ng 7 kun ichida Markaziy bankka hisobot va tugatish balansini taqdim etishi lozim.

Majburiy tugatish.

Bankni majburiy tarzda tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to’g’risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning litsenziyani qaytarib olish to’g’risidagi qaroriga asosan bankni majburiy ravishda tugatish quyidagi asoslarga ko’ra amalga oshiriladi:

a) passivlarning aktivlardan oshib ketishi tufayli bankning to’lovga layoqatsiz bo’lib qolishi;

b) litsenziya berilishiga asos bo’lgan ma’lumotlarning noto’g’ri ekanligi aniqlanishi;

v) bank o’z omonatchilari yoki boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarni bajarishga layoqatsizligi;

g) hisobot ma’lumotlarining muntazam ravishda bo’zib ko’rsatilishi;

d) qonunchilikka hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi litsenziya shartlariga zid bo’lgan bank operatsiyalarining amalga oshirilishi;

e) litsenziya berilgan vaqtdan boshlab bir yildan ortiq muddatda bank operatsiyalarini bajarishni kechiktirish;

j) monopoliyaga qarshi qoidalarning bo’zilishi;

z) O’zbekiston Respublikasi xududida sho’’ba bankni tashkil etgan xorijiy davlat banki litsenziyasining qaytarib olinishi.

Mazkur hujjat maqsadlarida bank tomonidan yo’l qo’yilgan omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi tartibbo’zarliklarga quyidagilar kiradi:

a) amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me’yoriy hujjatlarining bo’zilishi;

b) xavfli yoki nosog’lom bank faoliyatining yuritilishi;

v) bankning Markaziy bank ko’rsatmalarini atayin va o’zoq muddat bajarmasligi;

g) bank tomonidan hujjatlar yoki yozishmalarning Markaziy bank inspektorlaridan yashirilishi yoki bank nazorati xizmatiga talab etilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortilishi.

Quyidagi hollarda bank faoliyati omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soladi deb tan olinadi:

- bank kapitalining etarlilik koeffitsienti darajasi Markaziy bank belgilagan ushbu iqtisodiy me’yorning 75 foizidan kam bo’lishi;
- bank ketma-ket keluvchi har uch chorakda bank regulyativ kapitalining 10 foizidan yoki vaqtdan qat’iy nazar regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq miqdorda potentsial zarar ko’rishi yoki ko’rishi mumkin ekanligi;
- omonatchilar va kreditorlarning bankka ishonib topshirgan mablag’lari butligiga real xavf soluvchi boshqa hollar.

Nazorat uchun savollar

1. «Bank» tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati
2. Banklar - xo’jalik yurituvchi korxona sifatida
3. Bozor iqtisodiyotida kreditning ijtimoiy funktsiyalari xususiyatlari
4. Bank aktsioner tashkiloti sifatida
5. O’zbekiston tijorat banklarida menejmentni rivojlantirish
6. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi xolati va rivojlanish istiqbollari
7. Banklarning operatsiyalari va ularning tuzilishi
8. Aholi pul daromadlari va xarajatlarini muozanatlashtirish muammolari

3-MAVZU. TIJORAT BANKLARI PASSIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNI JOYLASHISHI

Reja

3.1.Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.
3.2.Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari.
3.3.Tijorat bankining kapitali va uning tarkibi.
3.4.Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari.
3.5.Depozit operatsiyalarning turlari va ularning qiyosiy tavsifi
3.6.Banklararo kredit resurslari va uning ahamiyati.

Tayanch iboralar


Passiv, kapital, jalb qilingan mablag'lar, aktsiya, majburiyatlar, depozit, plastik kartochkalar, nodepozit mablag'lar, foizlar, ustav fondi, daromad.

3.1. Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

Oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Natijada oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib



1-rasm. Banklarning jami depozitlari, mlrd.so'mda. [23].

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish 2016 yil mobaynida mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

2016 yil yakuniga ko'ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2015 yilga nisbatan 25,2 foizga oshib, 44,6 trln. so'mni tashkil etdi.

[23] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning banklardagi depozitlari hajmining o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, uzoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Aholining talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hozirda tijorat banklari tomonidan 400 dan ortiq jozibador omonat turlari taklif etilmoqda.

Bugungi kunda banklar resurs bazasining muttasil o'sib borayotganligi, o'z navbatida banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda.

Ayni paytda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi.

Bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi, bank resurclarini shakllantirishdan iborat. Bank resurslarining mukammal tashkil qilinishi va tejamli ishlatilishi har qanday bank faoliyatining samarali olib borilishiga zamin yaratadi. Hosil qilingan resurslar banklarning tijorat va xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslarini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirib turishni ham o'z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank passivlaridan samarali foydalanish depozit siyosatining oqilona yuritilishidan iborat bo'ladi.

Tijorat banklari resurslarining tarkibini tadqiq qilishdan oldin bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Resurs - frantsuzcha «ressourse»[24]. so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli hil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchrab turadi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxclarning pul mablag'lari, chek- depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblandi.

Bank resurslari to'g'risida respublikamizda i.f.n. B.Boboev tomonidan ilmiy tadqiqot ishi olib borilgan. Unda bank resurslarining mohiyati, tarkibi, resurslarni shakllantirish bilan bog'liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini keng ochib berishga harakat qilgan. Respublikada pul bozorini shakllantirish va unda pul resurslari bilan operatsiyalar o'tkazishda banklar faoliyatining strategiyasini ishlab chiqish uchun bank resurslari tushunchasini hamda banklarning resurslar bilan bog'liq holda o'tkaziladigan operatsiyalarning mohiyatini to'liq anglash va talqin etish lozim.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilar iqtisodiy tahlillarini o'rganar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Masalan, E.Rid, R.Kotter, E.Pill va R.Smitlarning[25] muallifligi ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini guruhlashtirilgan holda ko'rish mumkin va unda pul mablag'larining manbalariga alohida e'tibor berilganligi hamda ularni tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligi uqtirilganining guvohi bo'ldik.

[24] Sovet Entsiklopediya lug'ati. M. Sovet Entsiklopediya 1986 g.; Finansovo-kreditniy slovar M. Finansi i statistika 1986 g. 368 s.; Uzbeksko-russkiy slovar. gos. izd-vo innostrannix i natsionalnix slovarey. M.: 1959 g. 343 s.

[25] E.Rid, R. Kotter, E.Pill va R.Smit «Kommercheskie banki» perevod s angl. M. Kosmopolis 1991g. str.-16

Yana bir guruh D. Polfreman va F. Ford[26] kabi iqtisodchi olimlar bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini, bank passivlari deb ko'rib chiqishgan hamda ular bank aktsionerlari mablag'lari va jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topgan, degan fikrni bildirishgan. Bu qarashning ikkinchi jihati shundaki, tijorat banklari shu resurslarni o'z majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va shu orqali resurslardan yuqori samara olish uchun qattiq kredit siyosatini olib boradi, hamda tijorat banklarining faoliyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, «bank resurslari» nafaqat qarz majburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablag' jalb qilish, balki bank uchun daromad keltiradigan zahira va imkoniyat hamdir.

Bizning fikrimizcha, bank passivlari bank resurslarini tashkil qilish manbai bo'lib, ularning hajmi bir necha omillarga bog'liq:

-banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan faoliyati;
-pul-kredit siyosatini boshqarish sohasidagi Markaziy bankning siyosati;
-bankning jalb qilingan mablag'lari va ularning tarkibi;
-tijorat banki tomonidan Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy zahira miqdori;
-boshqa passivlar.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablag'larining shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar o'zlarining turlicha ta'riflari orqali izoh berganlarining shohidi bo'lamiz.

Rossiyalik olim O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi[27]. Tijorat banklarining resurslari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Shu boisdan tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, biz bank resurslari - bu bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'laridan va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, bankning daromad olishga asos bo'luvchi zahira va imkoniyatlarning yig'indisidir degan ta'rifni keltirmoqchimiz.

Chet el adabiyotlarida[28] mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli hil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Albatta, bozor munosabatlarining rivojlanishi banklar faoliyatida raqobatbardosh moliyaviy institutlar va fondlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir hil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi. Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'laridir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli hil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va

[26] Polfreman D., Ford F. Osnovi bankovkogo delo. Perevod s angl. Moskva infra 1996 g. str.-102.
[27] Bankovskaya delo. Pod redaktsii O.I. Lavrushina M.Fin. i statistika. 1998 g. str.68
[28] Sinki Dj. F. Upravlenie finansami kommercheskix bankov. Prevod s angl. M.: Catallaxy. 1994 g. str. 22-23

xarakteri ko’p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o’z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o’zgarishi ham ta’sir qiladi.

Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag’lari tashkil qiladi. Bank boshqa mablag’larini jalb qilish uchun, avvalambor me’yoriy hujjatlar talablari bo’yicha bank o’z kapitalining etarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banki o’z mijozlarining bo’sh turgan mablag’larini qarzga olish bilan bir vaqtning o’zida, bu mablag’larni o’z vaqtida qaytarilishini ta’minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo’lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo’lib, ular aholining bo’sh turgan pul mablag’larining bank sari oqimini ta’minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo’lgan holatda mijozlar o’z mablag’larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o’z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Banklarda mavjud bo’lgan mablag’lardan foydalanish imkoniyatiga qarab bank resurslari o’z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo’linadi. Bu holda bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma’lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo’lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo’yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo’lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo’ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo’lmasa, zarur miqdordagi mablag’larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurs bozoridan sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. Shunday qilib, o’z mablag’lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag’lari yig’indisi tarkibiy shakllanish jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi.

Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo’yicha guruhlarga ajratish mumkin. Bu bankning o’z mablag’lari va ularga tenglashtirilgan mablag’lar hamda jalb qilingan va qarz mablag’laridir.

O’zbekiston banklari kapitalining etarliligiga qo’yiladigan asosiy talablar “Banklar kapitalining etarliligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida”gi Markaziy bankning 420-sonli Nizomida belgilangan. Nizom bo’yicha banklar kapitalining etarliligiga qo’yiladigan talablar xalqaro Bazel qo’mitasining andozalarida ko’zda tutilgan talablarga mos keladi.


Banklarda mavjud bo’lgan mablag’lardan foydalanish imkoniyatiga qarab bank resurslari o’z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo’linadi. Bu holda bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma’lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo’lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo’yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo’lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo’ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo’lmasa, zarur miqdordagi mablag’larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurs bozoridan sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. Shunday qilib, o’z mablag’lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag’lari yig’indisi tarkibiy shakllanish jihatdan banklarning resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o’z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan “Vostro” depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag’lar va boshqa manbalar.

Bu bank mablag’larini shakllantirishning eng konservativ usulidir. Banklarning resurs bazasini quyidagicha tasniflash mumkin. Banklarning jalb qilingan malbag’lari qarz mablag’laridan shunisi bilan farq qiladiki, birinchi holda, mablag’larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

1-chizma.

Bank resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi[29]



Ishonchlilik darajasi bo’yicha bankning o’z mablag’lari va ularga tenglashtirilgan mablag’laridan keyingi o’rinda turuvchi jalb qilingan va qarz mablag’lari bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’siriga bog’liqdir:

[29] Muallif tomonidan yaratildi.

– fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari foiz stavkalari miqdori;

– omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish va ularni yuritish shartlari.

Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish tartibi va unga o'zgartirishlar kiritish bankning Nizomida belgilangan bo'ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi aktsiyalarni muomalaga chiqarish, yoxud sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bankning muhim resurslaridan biri bo'lgan zahira kapitali banklarning foydasidan ma'lum bir foizini ajratish orqali tashkil qilinadi.

Zaxira kapitali bank majburiyatlarni qaytarishga va maxsus zahiralar tashkil qilinmaydigan bank operatsiyalari bilan bog'liq xatarlarni qoplashga sarflanadi.

1-jadval[30]

Bank resurslarining belgisi va manbasi bo'yicha tasniflanishi

Tasnif	**Resurslar turlari**	**Izoh**
Manbai	O'z mablag'lari	Nizom, qo'shimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob raqamidagi qoldiq.
	Jalb qilingan va qarz mablag'lari	Mijozlarning hamda vakil - banklarning joriy, depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; yuridik shaxslar tomonidan olingan kreditlar
Mablag'lar-ning kimga tegishliligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: jamg'armalar, taqsimlanmagan foyda, taqsimotdan keyingi joriy davrning foydasi, o'z mablag'larini ko'payishiga ta'sir qiluvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda emission daromad.
	Bankka tegishli bo'lmagan	Banklararo kredit, jalb qilingan depozitlar, maxsus jamg'armalar, korxonalarning hisob raqamlardagi bo'sh pul mablag'lari, bankning kreditorlik qarzlari, debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha zaxiralar.
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar (talab qilib olinguncha hisobraqamlaridagi minimal qoldiqlar), uzoq muddatli depozitlar.
	Qiska muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxona va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan ortgan mablag'lar.
Ishonchliligi bo'yicha	Ishonchli	O'z mablag'lari, uzoq muddatli depozitlar, moliyaviy yordam
	Ishonchsiz	Talab qilib olinguncha depozitlar, korxona va tashkilotlarning hisob raqamlari.
Ko'payish manbai	O'z ichki va tashqi mablag'lari	Taqsimlanmagan foyda.
		Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aktsiya, obligatsiya, veksellar) shu jumladan, konvertirlanadigan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish.
	Jalb qilingan ichki va tashki qarz mablag'lari	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish.
		Yuridik shaxslarni hisob raqamlarini ochish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlari, banklararo kreditlar.

[30] Muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi tasnif iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan qisqacha tasnifdan farqli o'laroq bank resurslarining manbasi, turlari, kimga tegishli ekanligi, muddati, ishonchlilik va risk darajasi, ko'rsatish imkoniyatlarini o'zida mujasamlashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

Banklarning barcha resurs bazasidagi elementlarni turli belgilar bo'yicha guruhlarga ajratdik. Tahlil maqsadida va klassifikatsiyaning asosini boshqarishda (1-jadvalda keltirilgan), quyidagi belgilar inobatga olindi.

Bular resurslarni:

- manbalari bo'yicha;
- mablag'lar kimga tegishliligi bo'yicha;
- muddatiga ko'ra;
- ishonchlilik darajasiga ko'ra;
- ko'payish manbaiga ko'ra va boshqalar bo'yicha tasniflash mumkin.

Yuqorida tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib, banklar o'zida mavjud bo'lgan resurslarni qaysi manbadan, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, bu tasnif asosida banklar mablag'lari qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda, ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasini aniqlashga va shu omillar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab turishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlariga hamda boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ–2344-son «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga hamda 2015 yil 6 iyuldagi 2693-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom"lar asosida mamlakatimizda tijorat banklarining kapitali shakllantiriladi va boshqariladi.

Mablag'larni jalb qilishda banklarning imkoniyatlari Respublika Markaziy Banki tomonidan boshqariladi va xozirgi kunda banklarning xususiy kapitallarining xajmi hamda ularning tashkiliy - xuquqiy shakllaridan kelib chiqqan holda banklarning imkoniyatlari aniqlanadi:

- tijorat banklari uchun jalb qilingan mablag'lar xajmi banklarning xususiy kapitalidan 25 martadan oshmasligi lozim;

- yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati ko'rinishida barpo etilgan banklar uchun – 20 barobardan ortmasligi lozim;

- ochiq turdagi aktsioner jamiyati ko'rinishda barpo etilgan banklar uchun 10 barobardan ortmasligi lozim.

"O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 2015 yil 26 avgustdagi 2711-sonli yo'riqnomasiga binoan tijorat banklari o'z depozit operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Banklar tomonidan pul mablag'larini yig'ish, boshqa depozitlarni jalb qilish strategiyasini amalga oshirish bankning kredit-investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun ham zarur.

Depozit operatsiyalari yordamida banklarning 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini banklar o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Bankning depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchars bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy ahvolining barqarorligi hisoblanadi.

Depozit foiz stavkalari darajasini har bir banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki

hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit hisobvarag'ining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvarag'ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Bank depozit sertifikatlari – bank resurslar manbaasiga qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilishning bozor mexanizmiga xos bo'lgan usullaridan biri bo'lib, bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishda va resurs bazasining mustaxkamlanishida o'ziga xos muxim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda depozit sertifikatlar amalda bo'lish qoidalari va bozori shartlarini tashkil etish va ularning muomalasini tartibga solish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro'yxatga olish va muomalada bo'lish qoidalari» ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur tartibga asosan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga mo'ljallangan o'z depozit sertifikatlarini chiqarib kelinmoqda. Bank tomonidan chiqarilayotgan sertifikatlar xalqaro amaliyotda va bizning qonunchilikda belgilangan shartlar bo'yicha ikki turda chiqarilishi mumkin:[31]

1. Yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan – depozit sertifikatlari.
2. Jismoniy shasxlar uchun mo'ljallangan - jamg'arma sertifikatlari

Mamlakatda moliya bozorlarining keng ko'lamda ishlashining ta'minlanishi ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Tijorat banklarining barcha resurs bazasidagi elementlarni turli belgilar bo'yicha guruhlarga ajratdik. Tahlil maqsadida va klassifikatsiyaning asosini boshqarishda (2-jadvalda keltirilgan), quyidagi belgilar inobatga olindi.

Bular resurslarni:

- manbalari bo'yicha;
- mablag'lar kimga tegishliligi bo'yicha;
- muddatiga ko'ra;
- qiymatiga ko'ra;
- ishonchlilik darajasiga ko'ra;
- ko'payish manbaiga ko'ra va boshqalar bo'yicha tasniflash mumkin.

Bu tasnif asosida tijorat banklari mablag'lari qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda, ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasini aniqlashga va shu omillar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab turishga yordam beradi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular:

– banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;

– iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;

– aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;

– korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

3.2. Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari.

Bank tizimi faoliyati davlatning iqtisodiy holati bilan uzviy holda bog'lik va unga o'ziga yarasha ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa xozirgi bozor iqtisodiga o'tish sharoitida, mamlakatdagi moliya –

[31] "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'jrisida" NIZOM. 2008 yil 24 sentyabr №1859.

kredit tizimining tashqil etilganligi, iqtisodiy sikllarning barqarorligini bank faoliyati ko'rsatkichlari orqali qisman bo'lsa ham ko'rish mumkin. Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak bank faoliyatida ham o'ziga yarasha extiyojlar va talablar mavjud. Ushbu bobda bank faoliyati yuritish uchun zarur bo'lgan «resurslar» tushunchasi va ularning tarkibi hamda moxiyati bilan tanishamiz. Banklar faoliyati ham boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari o'z faoliyatini olib borishi uchun etarli darajada pul va moliyaviy resurslari bilan ta'minlagan bo'lishi kerak, chunki ularning asosiy taklif etadigan va ko'rsatadigan xizmatlari ham pul mablag'lari yoki moliyaviy resurslarda tashqil topadi.

Hozirgi kunda tijorat banklarining to'qnashishi mumkin bo'lgan muommolardan biri bu bank resurslarning shakllantirish va ularni saklab qolish bo'lib qolmoqda.

Tijorat banklari resurslari makroiktisodiy ko'rsatkichlar katoriga kiradi va bankning likvidligiga va daromadligigiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Tijorat bankning faoliyati ko'rsatish qamrovini oladigan bo'lsak ular oladigan foydalar bank resurslarini qanday shakllantirganligi va qanday shartlar va turlari bo'yicha jalb qilganligiga juda ham bog'liqligini juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun banklar o'rtasida ham mablag'larni jalb qilishda ham katta raqobat muhiti yuzaga kelganiligini ko'rishimiz mumkin.

Bank resurclarini shakllantirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankga jalb qilishning o'zi emas balki bank mablag'lari tuzilishining doimiy ravishda o'zgarib turishi va tarkibidagi passivlarning holatiga qarab o'z aktivlarini boshqarishi ham tushuniladi. Buning uchun esa samarali passivlarni boshkarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etiladi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarni bajarishi kerak. Bugungi kunda Markaziy bank talablaridan hamda o'zining ichki faoliyatidan kelib chiqib likvidlik normalari belgilangan. Likvidlik normasini ko'rsak, bugungi kunda u barcha talab qilib olguncha depozitlarga nisbatan 30% kam bo'lmagan miqdorida mablag'larni likvid holda ushlab turishi shart.

Bankning depozit siyosati o'z ichiga hamma ijtimoiy darajadagi shaxslar – nafaqaxo'rlar, yoshlar va yoshi kattalar hamda kam ta'minlanganlar va kam daromadlilarning ham hisobini olishlari kerak.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar shuni ko'rsatadiki, bank resurlarining shakllanishi va ularni barqarorligini ta'minlashda quyidagilar asosiy bo'lib qolmoqda:

- Bugungi kunda banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aktsiyadorlarni jalb qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zahira fondlar yaratish va maqsadli zahiralar tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

- Bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali, ya'ni depozitlarga jalb qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmokda.

Bankning o'z kapitali bank faoliyatining asosini tashqil etuvchi hamda bank passivlarining muhim manbalaridan hisoblanadi.

Jalb qilingan va sotib olgan mablag'lar yoki qarzga olingan mablag'lar bank passivlarining katta qismini tashqil etuvchi hamda tijorat bankning vositachi tashqilot ekanligini, ya'ni vaqtincha bo'sh mablag'larni jalb qilib boshqa mijozlarni talablarini qondiruvchi ekanlini tavsiflaydi.

Banklar resurslaridan samarali foydalanish uchun o'z passivlarini boshqarishni o'ta extiyotqorlik va kat'iy holatda olib boradi hamda bankning likvidligini va daromadliligini ta'minlaydilir. Bank passivlarini boshqarilishini qo'yidagilarni o'z ichiga oladi va olishi kerak.

Birinchidan, passivlarni boshqarish – bankni barqaror resurslar bilan ta'minlashi.

Ikkinchidan, jalb qilingan va o'z mablag'lari o'rtasida nisbatni optimal tarzda belgilashi.

Uchinchidan, passivlarni boshqarish orqali kapitalning etarliligi talablarini nazorati.

To'rtinchidan, depozitlar turlarini salmogini ko'proq bo'lishini ta'minlashi va mulkchilik shakllarini manfaatlarini ifoda etishi.

Beshinchidan, muddatli jamg'armalarga aloxida e'tibor berilishi va likvidlikni ta'minlanishi.

Oltinchidan, jalb qilingan resurslarni muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlarning muddatlari va summalarini mos kelishi.

Ettinchidan, passivlarni boshqarilishi shunday tashqil etilishi lozimki, natijaviy holatda bank foyda ko'rishi lozim.

Bank passivlarini boshqarishdan maqsad bankni barqaror resurslar bazasi bilan ta'minlash bo'lib, bankning olib borayotgan yoki olib borishi lozim bo'lgan depozit siyosatiga bog'lik bo'lgan holda ularga ko'yiladigan talablarni keyingi qismlarda ko'rib chiqamiz.

Bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini o'rganadigan bo'lsak, bu yuzasidan taniqli iqtisodchi olim Lavrushin O.I., qo'yidagicha ta'rif beradi: «Tijorat banki resurslari yoki«bank resurslari», aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun o'z ixtig'rga jalb qilingan va o'z mablag'larining jamlamasidir». Maslechenqov Yu.S. ham o'z kitobida «Bank resurslari o'z va jalb qilingan mablag'laridan tashqil topadi» deydi.

Taniqli iqtisodchi olim Usoskin V.M. ham bank passivlarini ikkita katta guruxga bo'lib o'rganadi:

- Bank kapitali va unga tenglashtirilgan moddalar
- Jalb qilingan mablag'lar, depozit va nodepozit

Horijiy adabiyot manbalardan birida "Tijorat banklarining passiv operatsiyalari ularning o'z va qarz mablag'lari pullaridagi bank faoliyati hisoblanadi",- deb keltiriladi.[32]

Bizning fikrimizcha ham bank resurslariga, bankning o'z kapitali, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lari kirib, ulardan bankning aktiv amaliyotlarini amalga oshirishda foydalaniladi, ya'ni mablag'larni daromad olish maqsadida soxalarga joylashtirish tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslarini shakllantirish va barqarorligi ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanib, fakatgina o'z va jalb qilingan mablag'larigina ularni joriy aktiv amaliyotlarini amalga oshirishga sharoit yaratib beradi.

Bank resurslarining depozit va nodepozit manbaalar ham o'z o'rnida bozor tizimidagi bank faoliyatining bir necha iqtisodiy unsurlardan tashqil topganligini ko'rishimiz mumkin. Bankning resurslari tarkibini ikki kismga jalb qilingan va o'z mablag'lariga bo'lib o'rganar ekanmiz, ular ham o'z vaqtida bir necha iqtisodiy unsurlarda tashqil topganligini ko'ramiz.

Bulardan, bankning o'z mablag'lari umumiy olganda o'z aktsiyalarini joylashtirish, shuningdek rezervlar shakllantirish, xar hil fondlar tashqil etish, va taqsimlangan foyda hisobiga shaklllanadi. Shuningdek banklarda boshqa nomoliyaviy tashqilotlardan farkli o'larok, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ozrok bo'ladi. (Boshqa nomoliyaviy tashqilotlarda 50% dan yuqori, banklarda esa 10% atrofida)

Bank resurslari tarkibida yoki banklarning passiv operatsiyalarda tijorat banklarining banklararo depozitlar ham muhim o'rinni egallaydi. Xususiyatiga ko'ra banklararo depozitlar muddatli yoki muddatsiz bo'lishi mumkin, ular yirik miqdordagi aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilib, turli maqsadlar hisobiga shakllantiriladi.

Bular depozit manbalardan farqli o'laroq o'z egasiga ya'ni mablag' joylashtiruvchiga mablag' qo'yganligini tasdiqlovchi egalik xuquqi to'g'risida maxsus hujjatlari asosida ta'minlanishi yoki ko'zda tutilgan shartnomalar asosida sotib olinishi mumkin.

Banklarning pul bozoridagi marketing tadqiqotlarini olib borish bilan birga, resurlar bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishning zamonaviy usullari deb qarashimiz mumkin. Bu usullardan biri qimmatli qog'ozlar toifasiga kiruvchi yoki uning bir ko'rinishi bo'lgan bank depozit sertifikatlaridir.

Mablag' jalb etishning nodepozit usullaridan yana bir turi banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kreditlar – Markaziy bank yokivaqil bankdan qarz olish zahiralarning holatini tuzatish va likvidlikni saqlash uchun mablag'larni safarbar etishning «hisob oynasi» deb nomalangan bir usulidir. Zahiralarni barobarlashtirib borishning usuli keng yig'ilmagan bo'lsa-da, bunday qarzlar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Mablag' joylashtirishdan naf ko'rishdan tashqari, kreditor banklar bank faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha ham amaliy sheriklik munosabatlari o'rnatish imqoniyatlariga ega bo'ladilar.

[32] "Active and Passive operations of a Commercial Banks", "Modern Economic Theory" September 9/ 2013

Moliyaviy barqaror banklardan tashqari, tashqil qilinish va rivojlanish bosqichida turgan banklar bo'sh kredit resurslariga ega bo'ladilar.

Bush resurslarni jalb etish (joylashtirish) to'g'ridan to'g'ri (sotuvchi-xaridor) emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning o'zlari, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit do'qonlari shu yusinda katnashishlari mumkin.

Zahira fondlarni olish – likvidlikni ta'minlash maqsadida kreditlar foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi hisob varog'larda saklanadigan depozit qoldiqlaridir. Kutilmaganda qo'yilmalar oqimi kela boshlagan yokissudalar qisqargan taqdirda tijorat banklarida ortiqcha zahiralar yuzaga kelishi mumkin. Bu mablag'lar daromad keltirmasligi sababli, banklar ularning qisqa muddatga boshqa banklarga foydalanish uchun berib qo'yadilar. Zahiralar majburiy xajmni tiklash yoki aktivlar sotib olish uchun mablag'ga muxtoj bo'lgan banklar esa ushbu ortiqcha mablag'larni bajonidil sotib oladi.

Qaytarib sotib olish to'g'risida bitimlar – Zahira fondlariga oid banklararo operatsiyalarga qo'shimcha ravishda banklar bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha dilerlar hamda boshqa investorlar o'rtasida shularga o'xshash bitimlar amalga oshiradi. Bular oddiy qilib «REPO» deb nomlanadi. Bunday bitimlarda aktivlarni qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narhda amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo'sh malaglar uchun muxim kanal bo'lib qolgan. Chunki ular ikkala tomonning extiyojlariga moslashtirish oson. Ular bir kundan bir necha oylargacha cho'zilishi mumkin. Chunki bank zahiralarini barobarlashtirishning eng yaxshi vositasi «Repo» bitimlaridir.

3.3.Tijorat banklari kapitali va ularni tarkibi.

Bank o'z mablag'lari tarkibi,

1) Aktsiyadorlik kapitali (Oddiy, Imtiyozli)
2) qo'shimcha kapital,
3) zahira kapitali (Zahiralar va maxsus fondlar, devalvatsiya)
4) Taqsimlanmagan foyda
5) qayta baholash ortiqchasidan iborat.

Tijorat banklari, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'z mablag'lari ustav kapital, rezerv kapital, maxsus fondlar, o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydalar, rezervlar, qayta baholash natijalaridan iborat.

Shundan, bank ustav kapitali ular tomonidan chiqargan aktsiyalarning nominal qiymatiga teng bo'lib, bankning boshlangich ish faoliyatida bank faoliyatini yuritishi uchun kerakli darajada mablag'ga ega bo'lish maqsadida o'zi uchun etarli bo'lgan miqdorda joylashtiriladi. Shuningdek rivojlangan mamlakatlarda Fond bozorlariga joylashtirilgan aktsiyalarning nominalidan yuqori bo'lgan bozor narhlari qo'shimcha ravishda nominalidan ortiqcha qismi qo'shimcha kapitalda hisobga olinadi.

Bankning rezerv kapitali foydadan ajratmalar ajratish hisobiga maksadli tarzda shakllantirilib uning tarkibiga, xar hil yaratilgan maqsadli fondlar va zahiralar, shuningdek ko'zda tutilmagan xarajatlarni, ssudalardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahiralar kiradi. Zahiralarning zarurligi shundan kelib chiqadiki, umidsiz bo'lgan qarzlarni qoplash va hamma kredit uchun noto'lovlarni oldini oladi. Bizning amaliyotda bank zaxiralari xarajatlarni oshirish evaziga amalga oshiriladi. Shuningdek kapitalga faqatgina ja'mi xatarga tortilgan aktivlarga nisbatan 1,25% gina qo'shiladi.

Kapitalning navbatdagi elementi bo'lib, taqsimlanmagan foyda kiradi. Bu bank egalarining ixtig'rida qoladigan mablag' hisoblanib, yil yakuni bo'yicha zahiralarga ajratish, soliqlarga to'lovlar va dividendlar uchun o'tkaziladi.

Bank kapitali yoki o'z mablag'larining ja'mi bank resurslari tarkibida ulushi kamroq bo'lishiga qaramay, bir qator funktsiyalarni bajaradi.

Ular bugungi kunda keng tarzda e'tirof etilayotgan uchta asosiy funktsiyalarga: ximoya, tezqorlik va nazorat ga bo'linadi. Bank aktivlarning sezilarli qismi jamg'armachilar tomonidan

moliyalashtiriladi, shuning uchun o’z mablag’lari jamg’armachilar manfaatini ta’minlovchi ximoya vazifasini

Bank kapitali, o’z o’rnida bank uchun «yotsiqcha» vazifasini bajaradi yokibank faoliyatini ko’zda tutilmagan xarajatlar va zararlardan saklanish uchun ishonch vazifasini o’taydi.

Kapitalning tezqorlik funktsiyasidan o’z o’rnida, bankning boshlangich faoliyatida kerakli bo’lgan bino va asosiy vositalarga manbaa sifatida foydalaniladi.

Kapitalning nazorat funktsiyasi ommaning qiziqishi va e’tiborida bo’lib bankning samarali ishlash faoliyati nazoratini ta’minlaydi. Kapitalning nazorat funktsiyasi orqali davlat organlari bank faoliyatiga baho beradi va u orqali bank faoliyatiga ta’sirini o’tkazadi. Odatda kapitalga qo’yiladigan minimal miqdor va ularga belgilanadigan cheklovlarni hamda ularga nisbatan bankning boshqa ko’rsatkichlarini nazorat qilish yokiunga nisbatan shakllantirish foydalaniladi. Markaziy bankning tijorat banklari uchun belgilagan ayrim iqtisodiy normativlari ham bank kapitaliga nisbatan belgilanadi va ular kredit va investitsiyalarni hamda qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalar olib borishning maksimal miqdorini belgilaydi.

Bugungi kunda bank kapitaliga nisbatan nazorat va uni o’rganish ikki asosiy guruxlash asosida olib boriladi va ular quyidagi turlarga bo’linadi, shundan:

1 darajali kapitalga:

- Muomaladagi aktsiyalar
- qo’shimcha kapital
- Zahiralar
- Taqsimlanmagan foyda

2 darajasi kapital

- Joriy yil sof foydasi
- Subordinar qarzlar

Bu erda II darajali kapital ja’mi kapitalning 50% dan ko’p bo’lishi talab qo’yilgan.

Yuqoridagi ko’rsatib o’tilgan hamma funktsiyalar bank faoliyatida xatar darajasini kamaytirishga qaratilgan bo’lib, bankni samarali boshqarish sharoitini yuzaga keltiradi.

Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish tartibi va unga o’zgartirishlar kiritish bankning Nizomida belgilangan bo’ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi aktsiyalarni muomalaga chiqarish, yoxud sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ustav kapitalidagi o’zgarishlar aktsiyadorlarning umumiy yig’ilishining qarori bilan tasdiqlanishi va Markaziy bank ro’yxatidan o’tishi kerak. (chizma).

Tijorat korxonalarining bir turi sifatida bank muassasalarining o’ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ularning resurslari asosan qarzga olingan mablag’lar xisobidan xosil qilinadi. Mablag’larni jalb qilishda banklarning imkoniyatlari Respublika Markaziy Banki tomonidan boshqariladi va xozirgi kunda banklarning xususiy kapitallarining xajmi xamda ularning tashkiliy - xuquqiy shakllaridan kelib chiqqan xolda banklarning imkoniyatlari aniqlanadi:

- avvalgi ixtisoslashtirilgan davlat banklari bazasida tashkil etilgan tijorat banklari uchun jalb qilingan mablag’lar xajmi banklarning xususiy kapitalidan 25 martadan oshmasligi lozim;
- yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati ko’rinishida barpo etilgan banklar uchun – 20 barobardan ortmasligi lozim;
- ochiq turdagi aktsioner jamiyati ko’rinishda barpo etilgan banklar uchun 10 barobardan ortmasligi lozim.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv schyotidagi pul mablag’larining salmog’i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o’ynaydi. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to’rtta shakli mavjud.

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog’ozlarini muomalaga chiqarish yo’li bilan resurslar yig’ish;
2. Bank foydasi hisobidan har hil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasining oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag’larini jalb qilish;

4. Depozit operatsiyalarini amalga oshirish

O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari kapitali etarliligi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 26.04.2000 yilda tasdiqlangan “Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida”gi NIZOM” ga asosan aniqlanadi.

Markaziy bank "O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida"gi Qonunning 52-moddasi va "Banklar va bank faoliyati to’g’risidagi" Qonunning 25-moddasiga muvofiq banklardan bank faoliyati, iqtisodiy vaziyat va moliyaviy ahvoliga xos tavakkalchilikka qarab kapital etarliligining yanada yuqori koeffitsientlari ta’minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar o’z ichiga quyidagilarni oladi va ular bilan cheklanib qolmaydi: muammoli kreditlarning katta mikdori, sof zararlar, aktivlarning katta miqdorda o’sishi, foiz stavkalari bo’yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi va tavakkalli faoliyatga jalb qilinishi.

Kapitalning etarlilik koeffitsientlari:

a) regulyativ kapital (RK) chegirmalar ajratilgan holda I darajali kapital va II darajali kaptitalning yig’indisi sifatida aniqlanadi;

b) tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan kapitalning umumiy summasi (TKUS) chegarmalar ajratilib, tavakkalchilik hisobga olingan holda hisoblangan balans va balansdan tashqari aktivlar yig’indisi sifatida aniqlanadi;

v) regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblangan aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo’lmasligi kerak. Regulyativ kapitalning etarlilik koeffitsienti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

K1 q RK / TKUS.

g) I darajali kapitalning etarlilik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

K2 q I darajali kapital / TKUS. K2 ning eng kichik darajasi 0,05 ga teng (5 foiz).

Kapitalning etarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda tijorat banklari nomoddiy aktivlar, shu jumladan gudvill chegirib tashlangan holda I darajali kapitalning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

K3 q I darajali kapital / (Umumiy aktivlar - Nomoddiy aktivlar)

Leveraj koeffitsientining ruxsat etilgan eng kichik darajasi 0,06 ga teng (6 foiz).

Bank kengashi har yili bankning kredit va investitsiya siyosatining asosiy yo’nalishlarini ishlab chiqish va tasdiqlash chog’ida foydadan kapitalni oshirishga yo’naltiriladigan ajratmalar miqdorini e’tiborga oladi.

Soliqlar to’langandan so’ng foydadan kapitalni oshirishga yo’naltiriladigan ajratmalar me’yorlari leveraj koeffitsientidan kelib chiqqan holda qiyidagi miqdorlarda belgilanadi:

a) leveraj koeffitsienti 0,15 gacha bo’lganda (0,15 ham kiradi) - foydadan 30 foiz;

b) leveraj koeffitsienti 0,15 dan 0,30 gacha bo’lganda - foydadan 20 foiz;

v) leveraj koeffitsienti 0,30 va undan yuqori bo’lganda - foydadan 10 foiz.

Mazkur Nizomning 9.1-bandiga muvofiq kapitalni oshirishga ajratilgan mablag’lar 30903-“Umumiy zaxira fondi” balans hisobvarag’ida hisobga olinadi.

Kapitali mazkur Nizom talablariga muvofiq bo’lmagan banklar quyidagilarni o’z ichiga oluvchi kapitalga qo’yiladigan talablarning bajarilishini ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishlari kerak:

- bank kapitalini etarlilik darajasigacha ko’tarish uchun zarur bo’lgan strategiya va hatti-harakatlar;

- rejaning amal qilish davri mobaynida belgilanadigan kapitalning cheklangan miqdorlari;

- bankning faoliyatiga belgilangan cheklovlar ta’siri ostida reja bilan qamrab olinadigan davr uchun tadbirlar rejasi;

- Markaziy bank talablariga muvofiq boshqa axborot.

Muddatlari ko’rsatilgan reja kapitalning etarliligiga qo’yiladigan talablarda nomuvofiqlik yuzaga kelgan va uni tijorat bankning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan paytdan boshlab 30 kun ichida Markaziy bankka ko’rib chiqish uchun taqdim etilishi kerak.

3.4.Tijorat banklarining jalb qilingan mablag’lari.

Bank resurslarining asosiy manbai sifatida uning tashkiliy tuzilishi va strategik yo'nalishidan kelib chiqgan xolda bugungi kungi amaliyotda ularning salmoqli qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil kiladi. Bankning o'z mablag'lari esa ja'mi resurslarning kichikroq ulushini tashkil qilgani xolda yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajaradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek bank resurslarining tarkibida, jalb qilingan mablag'lar xam etarli darajada katta o'rinni egallaydi. Jalb qilingan mablag'lari bank resurslari tarkibida 50% va undan xam ko'proq ulushni tashkil etishi mumkin. Banklarning rivojlanish taraqqiyotida shuning bilan birgalikda an'anaviy va xorijiy tajribalardan kelib chiqgan xolda jalb qilingan mablag'larning tarkibida uni tashkil etuvchi manbaalarda bir qator o'zgarishlar yuzaga kelgan, ya'ni bugungi kunda jalb qilingan mablag'lar depozit va nodepozit manbaalar xisobiga shakllanayotganligini ko'ramiz.

Bank resurslarining depozit va nodepozit manbaalar xam o'z o'rnida bozor tizimidagi bank faoliyatining bir necha iqtisodiy unsurlardan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin.

Depozit – lotincha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosidan kelib chiqgan xolda saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.

Depozit amallari banklarning asosiy vazifalaridan biri xisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklari o'zlarining boshqa asosiy vazifalarini bajarishlari mumkin emas. Banklarning bosh maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollarini belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq faoliyatlarida jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muxim o'rin tutadi.

Depozitlarning iqtisodiy mazmuni va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni nimalardan iborat? Ushbu savolga javob berish uchun avvalo depozit amallarini bank va mijozlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar sifatida qarash talab etiladi. Fikrimizcha, nazariy jihatdan bu iqtisodiy manfaatdorlikdir yoki har ikkala tomon ham ma'lum iqtisodiy naf olishni ko'zlagan xolda iqtisodiy munosabatga kirishadi. Agar, aholi bo'sh pul mablag'larini banklarda bexavotir saqlash kafolatlari mavjudligi hamda topshirilgan omonatlar bo'yicha foizli daromad olishdan manfaatdor bo'lsa, banklar esa ushbu jalb qilingan mablag'lar hisobiga mijozlarga kreditlar berib yoki lizing, faktoring kabi jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan xizmatlarni ko'rsatish orqali foizli daromadlar olishadi. Shu yo'l bilan bo'sh pul mablag'larini bank orqali yig'ish va iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, natijada pul aylanish tezligini o'stirishi evaziga milliy valyuta qadrsizlanishining jilovlanishiga erishish mumkin. Aynan, mana shu omil ham depozit amallarining rivojlanishida asosiy o'rin tutadi.

Depozit - bu mijozning banklarga vaqtincha ishlatish uchun o'z mablag'larini berishi bo'yicha iqtisodiy munosabatidir.

Omonotchi chek yozib berib, ma'lum miqdordagi pul mablag'ini muomalaga (aylantirishga) qo'yishi mumkin. Shu bilan birga bu vaqtda bank pullari foiz keltiradi. Ular omonatchiga 2 hil vazifani bajaradi: birinchi tomondan pul vazifasini, ikkinchi tomondan foiz keltiruvchi kapital sifatida.

Naqd pulga nisbatan depozitning ustunligi uning foiz keltirishidir. Depozit faqat omonatchiga emas, balki banklarga ham foydalidir. Ular yordamida banklar ssuda kapitalini yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, xo'jalikning xoxlagan soxasiga qulay shartlar asosida joylashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Depozit foizlari bilan pul foizlari o'rtasidagi farq asosida banklar mukofotga ega bo'ladilar.

Tijorat banklari tomonidan qabul qiladigan depozitning eng ko'p miqdori chegaralanmaydi. Barcha depozitlar joriy mablag'lar tarzida qabul qilinadi va shu asosda to'lanadi.

Depozitlar tratta, cheklar, pul topshiriqnomalari, davlat xazina kafolatlari va boshqa shakllarda kelib tushsa, ular umumiy olish sharti bilan qabul qilinadi. Biroq bunday summalar bankning hisobvarag'iga kelib tushmaguncha ushbu depozitga kiritilgan hisoblanmaydi.

Banklarning depozitlar bilan bog'liq foizlar (foiz stavkalari) banklar tomonidan depozitlar bilan kelishuviga muvofiq belgilanadi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, banklarning

depozitlarga to’laydigan foizlari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga hamda bankning narx siyosatini hisobga olgan holda belgilanadi.

Respublikamizda banklarning depozit va unga bog’liq amaliyotlari qo’yidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

-“O’zbekiston Respublikasi Fuqorolik qodeksi”: 759-770, 771-789, 327 Moddalar, 29,08,1996 yil 257-1

-“O’zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to’g’risidagi” qonun, 1996 yil 25 aprel

-“Banklarning depozitlari to’g’risida” nizom, “O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida”gi qonun 28.03.1997 y, № 319

-“Bank depozit sertifikatlarining chiqarish, ro’yxatga olish va muomalasi tartibi to’g’risida”, “O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki 24.12.1994, № 103, O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 09.11.1998, № 522

-“Markaziy bank depozit sertifikatlarini chiqarish to’g’risida” nizom, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki 26.12.1998, № 434, «O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 09.02.1999 № 624

-“Vaqolatli banklariga erkin ayriboshlanuvchi valyutada taqdim etuvchiga depozitlarni mukammallashtirish to’g’risida” nizom, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki 20.02.1999 № 439, «O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 15.03.1999 y № 673

-“Banklarning Veksellar bilan operatsiyalar o’tkazish to’g’risida” tartib O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki 30.05.1995 y.

Talab qilib olguncha depozitlar yoki tranzaktsion hisoblar, bankning nobarqaror resurslar manbasi turkumiga kiritilib, ular hisobidan jamg’armachi va hisob varaq egalari to’lovlarni amalga oshirish yoki undagi qoldiqlar uchun chek olish xuquqini beradi. Bundan tashqari, ushbu depozitlarning egasi o’z talabiga ko’ra belgilangan tartibda naqd pul ham talab qilib olishi mumkin. Ushbu depozitlarning tarkibiy qismini hamda tashqil qiluvchi asosini davlat, qorxona va tashqilotlar hamda firmalar, individual shaxslarning saqlayotgan mablag’lari kiradi. Talab qilib olguncha depozitlar bank jalb qilingan mablag’lari tarkibida ko’proq kismini tashqil qiladi. Shu bilan birgalikda ushbu depozitning o’ziga xos xususiyatlaridan biri ulardagi mablag’lar egalari tomonidan itsalgan vaqtda talab qilib olinishi va o’z extiyojlari uchun ishlatilishi mumkin. Shuning ushbu depozit turi banklar uchun tashqiliy xuquiy asosiga ko’ra boshqalariga nisbatan ancha arzon resurs turi hisoblanib, bugungi kunda ushbu omonat turi bo’yicha ularning egalariga banklarning depozit siyosatlaridan kelib chiqgan holatda turlicha belgilanib ulardagi qoldiklar uchun o’rtacha yillik 10% atrofida foiz to’lanmoqda.

Muddatli depozitlar o’z nomidan kelib chiqgan holda mijozlarning ma’lum muddatlarga saqlash va foiz shaklida daromadlar olish uchun banklarga qo’ygan mablag’larini tushunish mumkin. Uni tashqil etuvchi mablag’lar bank va mijoz o’rtasidagi tuziladigan depozit shartnomasi asosida oldindan belgilangan va kelishib olingan aniq muddatlarga qo’yiladi, shuningdek ularning qabul qilinish va amalda bo’lish shartlari va turlari o’z moxiyatidan kelib chiqgan holda turlicha bo’lishi mumkin. Buning boshqa depozit turlaridan utsunlik tomonlari mijozlarga qo’ygan mablag’lari uchun muddatlari va xajmlaridan kelib chiqgan holda bank tomonidan oldindan shartnoma shartlariga asosan ma’lum kat’iy yokio’zgaruvchan foizlar to’lanadi. Mablag’ni jalb qilish shartlari va ularga boglik talablar hamda boshqa ko’zda tutilgan holatlar mijoz bilan bank o’rtasidan tuzilgan depozit shartnomasida oldindan belgilab olinadi. Depozit bazasi mutsaxkamligini ta’minlashda banklar tomonidan hamda tashqiliy me’g’riy asoslaridan kelib chiqib ushbu depozit turining qo’yidagi turlarga ajratib olingan bulib, bular qo’yidagicha tavsiflanadi:

- 30 kungacha bo’lgan depozitlar;
- 90 kungacha bo’lgan depozitlar;
- 180 kungacha bo’lgan depozitlar;
- 1 yilgacha va undan yuqori bo’lgan depozitlar;

Depozitlarning bunday tabaqalanishi xalqaro amaliyotda hamda «O'zbekiston banklari amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek 1 yildan yuqori bo'lgan depozitlarga aloxida e'tibor qaratiladi, chunki ushbu depozitlar bank uchun barqaror resurlar tarkibiga kiradi va bank uchun uzoq muddatga mablag' investitsiya qilish uchun o'ziga xos sharoit yaratib beradi. Iqtisodiy holatdan kelib chiqgan holda ayrim davrlarda ushbu depozit turi bo'yicha mijozlar uchun qo'yish u darajada foydali bo'lmasligi mumkin, chunki o'sha davrdagi iqtisodiyotdagi inflyatsiya sur'ati va pulning qadrsizlanishi pulning to'lov qobiliyatini yokiqiymatini tushirib yuborishi mumkin. Lekin ushbu holati buyicha bizdagi muammo to'liq echilgan va omonatchilar o'z mablag'larini banklarga ishonishi mumkin.

Jamg'arma depozitlar – Bank uchun resurslari bazasini mutsaxkamligini ta'minlovchi hamda resurslar sifatida ishlatilishi engillashtiruvchi asosiy manbaalardan biri hisoblanadi va jamg'armachi uchun o'z jamg'armalarini to'plash va ularni jamg'arish bilan birga salmoqli darajada foiz daromadlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Depozitlar bankning asosiy resurs manbaasi sifatida tavsiflanadi, shu bilan birgalikda ular tashqil etish jarag'nida o'ziga xos muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan ularni jalb qilish o'ziga yarasha marketing ishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan qaraganimizda bank uchun ko'zda tutilgan aktiv operatsiyalardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish yoki ma'lum maqsadli investitsiya jarag'nini amalga oshirish itsalgan vaqtda kerakli resurslarni yig'ib olish imqonini bermaydi. Shu jumladan pul mablag'larini jamg'armalarga jalb qilish ko'p hollarda bankga emas, balki mijozga bog'lik bo'ladi. Uni kerakli darajada va ko'zlangan miqdorlar jalb qilishga ta'sir etuvchi omillar sifatida raqobatdosh banklarning taklif etayotgan foizlar yoki boshqa sabablarni ko'rsatish mumkin. Bunday hollarda banklar banklararo qarzlar yoki boshqa nodepozit intsrumentlarga murojaat qiladilar.

3.5. Depozit operatsiyalarining turlari va ularning qiyosiy tavsifi.

Depozit - lotincha (depositum) so'z bo'lib, saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankka topshirishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabat tushuniladi. Iqtisodchi olim Rik Shatl o'zining "Depozit operatsiyalari uchun to'lov o'lchovi" nomli maqolasida "Depozit operatsiyalari bilan ishlaydigan professonal mutaxassislar eng yangi hisob hujjatlarini kuzatib borgan holda ularga bog'liq banklar yoki mikrokredit tashkilotlari tomonidan komp'yuter ma'lumotlar bazasi ichiga omonatlarni kiritish va barcha oylik omonatlarini umumlashtirish hisobotlarini yaratadi"[33],- deb fikr bildirilgan.

Bankning depozit operatsiyalari 4 guruxga bo'linadi:

1 Talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar;

2 Muddatli depozitlar;

3 Aholi jamg'armalari;

4 Qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish.

Muddatsiz depozitlar – bu mijoz tomonidan o'z mablag'ini xoxlagan paytda xech qanday oldindan ogoxlantirmay olinishi mumkin bo'lgan mablag'lar tushuniladi.

Muddatli depozitlar – bu bank tomonidan ma'lum bir muddatga jalb qilinadigan mablag'lardir. Muddatli depozitlarda mablag' shartnomada keltirilgan muddatga bankka foydalanishga topshiriladi. Bu muddat tugashi bilan uning egasi mablag'ni qaytarib olishi mumkin. Jalb qilingan mablag'lar ichida muddatli depozitlar asosiy o'rinni egallaydi.


1-chizma

Depozitlarning turkumlanishi[34]

Jamg'arma turlari bo'yicha

[33] "Pay Scale for Deposit Operations" by Rick Suttle, "Chron"

[34] Muallif tomonidan tuzildi.



Talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to'lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo'yicha Markaziy bankga o'tkaziladigan majburiy rezervlar salmog'i yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibi talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvarag'alardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvaraq egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo'lgan biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli talab qilgungacha hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqalardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Muddatli depozitlar - bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlarlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;
- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;
- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;
- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;
- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h.k.

Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 70 foizdan ortiq passivlari tashkil

qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchars bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarning subektlari bo'lib bir tomondan tijorat banklari qatnashsa, ikkinchi tomondan:

- davlat korxona va tashkilotlari;
- moliya, sug'urta, investitsion va trast kompaniyalar;
- xususiy korxona va tashkilotlar;
- aktsioner kompaniyalar;
- banklar va boshqa kredit muassasalari;
- qo'shma korxonalar, kooperativlar;
- jamoa tashkilotlari va fondlar;
- alohida jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmalari qatnashadilar.

Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy ahvolining barqarorligi hisoblanadi.

Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvaraqini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va, nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Talab qilingungacha bo'lgan depozitlar bo'yicha hisobvaraqalari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday schetlar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqalaridagi mablag'lar qoldiqi bo'yicha foizlar umuman to'lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to'lov mablag'larini talab qilinguncha hisobvaraqalarda mablag'larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo'yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varakalar bo'yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o'rnatiladi, ammo u bo'yicha daromad hamisha muddatli qo'yilmalarga qaraganda pastroq bo'ladi. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

3.6.Banklararo kredit resurslari va uning ahamiyati

Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari deb, tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, veksellarni, obligatsiyalar vositasini muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytiladi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish;
- bank aktseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- evro - dollarlar bozoridan qarz olish;
- kapital notalar va obligatsiyalar chiqarish va boshqalar.

Odatda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalaridan ham foydalanishga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Bu erda, birinchidan, mablag'larni sotib olish g'oyasi bankning o'ziga tegishli, ikkinchidan, bu g'oya bankning biror - bir mijozi bilan bog'liq emas. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foylanadilar. Nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Qo'yilmalarga mablag'larni jalb qilish uchun tijorat banklari qo'shimcha ravishda chet el tajribasidan foydalanishi mumkin, xususan:

- aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqish;
- mijozlar - pul qo'yuvchilarga turli - tuman, jumladan, nobank xizmatlarni ham ko'rsatish;
- qo'yilma muddati tugashi bilan mukofot berish bilan investitsion xarakterdagi qo'yilmalardan yuqori foiz stavkasini qo'llash;
- doimiy pul qo'yuvchilarga "bankka sadoqati" uchun mukofot to'lash;
- mijoz va bank iqtisodiy qiziqishlarini optimallashtiradigan aralash xarakterda amal qiluvchi NAU va SAPS tipidagi hisobvaraqlarni qo'llashni amalga oshirishlari mumkin.

Banklar resurslarini boshkarishning asosiy kontseptsiyalari biri va juda keng tarkalganligi bulib, banklararo kreditlar nazariyasi xisoblanadi.

Banklararo kreditlar nazariyasi

Markaziy bank yoki vakil bankdan karz olish zaxiralarning (binobarin, likvidlikning xam) xolatini tuzatish uchun mablaglarni safarbar etishning "xisob oynasi" (*diskount window*) deb xam nomlanadigan bir usulidir. Zaxiralarni baravarlashtirib borishning ushbu usuli keng yoyilmagan bo'lsa-da, bunday karzlar Markaziy bank tomonidan nazorat kilinadi.

Mablag joylashtirishdan naf kurishdan tashkari, kreditor banklar bank faoliyatining boshka masalalari buyicha xam amaliy sherikchilik munosabatlari urnatish imkoniyatiga ega buladilar. Moliyaviy barkaror katta banklardan tashkari, tashkil kilinish, rivojlanish boskichida turgan banklar bush kredit resurslariga ega buladi. Ular xozircha mijozlar etishmasligi davrini boshdan kechirishmokda.

Bush resurslar jalb etish (joylashtirish) tugridan-tugri (sotuvchi-xaridor) emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning uzlari, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit dukonlari shu yusinda katnashishlari mumkin.

Banklar resurslarini boshkarishning asosiy kontseptsiyalaridan yana biri evrodollar bozoridan karz olish nazariyasi xisoblanadi.

Evrodollar bozoridan karz olish nazariyasi.

Evrodollarlar bozoridan karz olish yirik tijorat banklari uchun iloji bulgan passivlarni boshkarish instrumentidir. Undan chet elda filiallari bulgan banklar xam, bunday filiallari bulmagan banklar xam foydalanadi. Evrodollarlar - AKSh dollarlarida ifodalangan va AKSh dan tashkaridagi tijorat banklarida, shu jumladan, Amerika banklarining filiallarida saklanadigan kuyilmalardir. Evrodollarlar AKSh bankining amerikalik yoki chet ellik omonatchisi chet eldagi bankka yoki Amerika bankining filialiga mablag utkazganida yuzaga keladi. Evrodollardagi karzlarning ancha kismi Amerika banklarining chet eldagi uz filiallari oldidagi majburiyatlarining kupayishida ifodalanadi. Bunda karzlarning 75 foizi Nyu-Yorkdagi eng yirik muassasalarning filiallariga tugri keladi. Ushbu depozitlarni kabul kilib oladigan Evropa banklari va filiallari ularning egalari, odatda AKSh pul bozoridagi stavkalardan yukori stavkalar buyicha foiz tulaydilar va Amerikadagi xamda chet eldagi firmalarga, shuningdek, AKSh banklariga karzga pul beradilar. Kreditga extiyojni koplashga etarlicha mablagni mamlakat ichida jalb etishga tijorat banklarining kurbi etmagan takdirda ular zarur resurslarni olish uchun evrodollar bozoriga murojaat kiladilar. Kupincha bu manbadan banklarda utkazilayotgan muddatli depozit sertifikatlari summasi kiskargan yoki bir ozgina oshgan davrlarda foydalaniladi.

Banklar resurslarini boshkarishning kontseptsiyalaridan yana biri zaxira fondlarini olish nazariyasi xisoblanadi.

Zaxira fondlarini olish nazariyasi.

Zaxira fondlarini olish - likvidlikni ta’minlash maksadida kreditdan foydalanishning keng tarkalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi xisobvaraklarda saklanadigan depozit koldiklaridir. Kutilmaganda kuyilmalar okimi kela boshlagan yoki ssudalar kiskargan takdirda tijorat banklarida ortikcha zaxiralar yuzaga kelishi mumkin. Ba’zan banklarning biri boshkasiga davlatning kimmatli kogozlarini sotadigan bo’lsa, bitim qaytarib sotib olish tugrisidagi bitim shaklini kasb etadi. Bunday bitimlar, odatda bir kunlik muddatga muljallanadi. Lekin, ayrim bitimlar buyicha tulov muddati bir xafta yoki xatto, bir necha xaftani tashkil etishi mumkin. Zaxira fondlariga oid operatsiyalar mexanizmini oddiyginadir. Ta’minlanmagan tipik bitim tuzilgan takdirda ikkita bank shart-sharoitlari tugrisida kelishadi, sotuvchi bank Markaziy bankka belgilangan mikdordagi mablagni uzining zaxira fondidan xaridor bankning zaxira xisobvaragiga ukazishni taklif etadi. Keyingi kuni bank ochilishi chogida aksincha bitim amalga oshiriladi. Foizlar odatda aloxida chek bilan tulanadi.

Banklar resurslarini boshkarishning kontseptsiyalariga qaytarib sotib olish tugrisida bitimlar nazariyasini xam kushishimiz mumkin.

Zaxira fondlariga oid banklararo operatsiyalarga kushimcha ravishda banklar bilan davlat kimmatli kogozlari buyicha dilerlar xamda boshka investorlar o’rtasida shularga uxshash bitimlar amalga oshiriladi. Bu bitimlar qaytarib sotib olish tugrisidagi bitimlar (*repurchase agreements I* RF) yoki shunchaki «pepo» deb nomlanadi. Bunday bitimda aktivlarni sotish qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narxda amalga oshiriladi. Ular bir kundan bir necha oygacha muddatga tuzilishi mumkin. Lekin kupincha kiska muddatga tuziladi. Tavvakalchilik xatari yukori emasligi «repo»ning afzalligidir. Chunki «repo» bitimlari - bank zaxiralarini baravarlashtirishning eng yaxshi vositasidir. Bank aktivlarni qaytarib sotib olish majburiyatini olgan xolda sotganida tulov xaridorning depozit xisobvaragini debetlash yuli bilan yoki boshka bankka yozib berilgan chek orkali amalga oshiriladi. Birinchi xolda bankning majbariy zaxiralari kamayadi. Chek olganida esa nomiga chek yozilgan bankning zaxiralariga nisbatan sotuvchi bankning muayyan xukuklari yuzaga keladi. Odatda, bunday bitimga kimmatli kogozlar ob’ekt bo’lsa-da ssudalar xam shunday ob’ekt bulishi mumkin.

Fondlarni boshkarish strategiyasini boshkara borib, tijorat banklari bank xizmatlari bozorida:

-muddatli depozitli mayda omonatchilarni;

-muddatli katta kuyilmali kam sonli yirik mijozlarni kuzlab xarakat kilishlari mumkin.

Passivlarni boshkarishda bank xizmatlari bozorini taxlil kilish muxim axamiyatga ega. Bunday taxlil ushbu mintakadagi boshka banklarning kuyilmalarini jalb etish shart-sharoitlari tugrisida axborot beradi. Bank kuyidagilarni:

- kuyilmalarga oid manfaatlirok shart-sharoitlarni;
- yangi moliyaviy maxsulotlarni;
- kushimcha xizmatlarni (masalan, bozor tugrisidagi axborotni va boshka kredit muassasalari foiz stavkalarining takkoslanishi);
- xizmat kursatishning yukorirok darajasini taklif etsa, rakobatbardoshligi oshadi.

Yukoridagilar bilan birgalikda aytib o’tish kerakki, depozit siyosatini yuritishda bankning foiz siyosati xam kata rol o’ynaydi va u mablag’ jalb qilishning asosiy instrumenti xisoblanadi. Foiz siyosatini yuritishning asosiy yo’llaridan biri bu depozit amaliyotlari va resurslarning ja’mi kiymati tahlili xisoblanadi.

Buning uchun

- Omonatlar uchun kulay foiz belgilanishi
- Jalb qilingan omonatlarning foiz stavkasi dinamikasi
- Resurslarning real bahosi, inflyatsiyani xisobga olgan xolda

-Foiz xarajatlarning umumiy bank xarajatlariga nisbatan o’zgarishini tahlili

Shuning bilan birga bank o’zing faoliyatini quyidagilar bilan to’ldirishi lozim.

Depozit, kredit va boshka operatsiyalarini bankning barqarorligini ta’minlashi bo’yicha bog’likligini yanada kuchaytirishi.

Risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim.

Depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo'yicha);

Mijozlarni turlari bo'yicha individual yo'nalish olib borish;

Xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi.

Bu holati bo'yicha banklar o'rtasidagi kredit resurslari bozorini «O'zbekiston Valyuta birjasida emas, balki soddaroq shaklda va o'rta banklar ham kira olishi mumkin bo'lgan sharoitlarda «O'zbekiston Banklari Assositsiyasi qoshida yuritilishi hamda unifikatsiyalashgan shartlar tizimini tashqil etish yoki banklar uchun resurslarning elektron bozorni tashqillashtirish choralarni ko'rilsa, bu ko'prok bank resurslariga bulgan talab va taklifni optimal tarzda shakllantirilishiga hamda bank tomonidan ularning diversifikatsiyasiga va foydalanish samaraliligini ortishiga olib kelar edi.

Nazorat uchun savollar.

1. Bank mablag'lari tushugchasi va ularning tuzilishi
2. Bankning depozit operatsiyalari
3. Bankning nodepozit mablag'lari
4. Bank kredit potentsiali
5. Tijorat banklari mablag'larini ta'minoti va barqarorligini taxlili[35]
6. Bank kredit mablag'lari, tuzilishi
7. Bank kapitali va unga qo'yilgan talablar
8. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag'lariga qo'yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar
9. Bank tizimi va aholi jamg'armalari
10. Tijorat banklari passivlarini boshqarish muammolari[36]

[35] TDIU va MDX mamlakatlari iktisodiy mutaxassisliklari buyicha bakalavriat bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining namunaviy mavzulari. T, 2005 y., 76

[36] O'sha erga qaralsin

4-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING AKTIV OPERATSIYALARI TARKIBI VA ULARNI JOYLASHISHI

Reja

4.1 Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi.
4.2 Bank aktivlarning risk va daromad darajasi bo'yicha tavsifi.
4.3 Banklarning kredit operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi.
4.4 Bank aktivlarining sifati darajasi va diversifikatsiyasi.
4.5 Tijorat banklarining aktivlarini boshqarish usullari.
4.6 Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari va turlari.
4.7 Tijorat banklarida majburiy zahiralarni tashkil etish tartibi va uning zaruriyati

Tayanch iboralar

Kredit,qarz, kredit olish qobiliyati, to'lov qobiliyati, likvidlilik, koeffitsientlar, faktoring, mikrokredit, boshlang'ich sarmoya, garov, ta'minot, imtiyoz, to'lov, foiz.

4.1.Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi.

Tijorat banklari o'zining iqtisodiyotda tutgan o'rni va o'ziga xos faoliyati bilan bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida yuzaga keldi. Tijorat banklarining bugungi kundagi faoliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, halq ho'jaligining xech bir sub'ekti yo'qki, u bugun bank xizmatidan foydalanilmayotgan bo'lsin.

Bundan tashqari banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funktsiyani bajarishlari korxona tashkilotlarning qimmatli qogozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qo'lay sharoit yaratmokda.

Bankning aktiv operatsiyalari uning operatsiyalarining aniklab beruvchi kismi xisoblanadi. Aktivlar strukturasi deganda bank balansi aktivlari turli sifatli moddalarining balans yakuniga nisbati tushuniladi. Bank aktivlarining sifati aktivlar strukturasi, aktiv operatsiyalarni diversifikatsiyalash, riskli aktivlar xajmi, kritik va tulik bulmagan aktivlar xamda aktivlarning uzgaruvchanlik xususiyatlari bilan aniklanadi.

Tijorat banklari aktivlarini 4 kategoriyaga bulish mumkin: kassadagi nakd pul va unga tenglashgan mablaglar; kimmatli kogozlarga investitsiyalar; ssudalar; imorat va uskunalar.

Evropa mamlakatlarida, Buyuk Britaniyada eng likvid aktivlarning salmogi taxminan 3%ni egallaydi. Bu birinchidan, aloxida mamlakatlar markaziy banklarining turli rezerv talablari bilan; ikkinchidan, turli mamlakatlar banklarinig aktivlar klassifikatsiyasi o'rtasidagi nomutanosibliklar bilan tushuntiriladi. Muradova L. O'zining iqtisodiy olib borgan amaliy izlanishlarida shunday keltiradi; "Bundan tashqari iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq ayrim muammoli vaziyatlar mavjud. Asosan bunday holat kreditni yopish uchun katta miqdordagi rezervlar bilan bog'liq holda yirik tijorat banklari faoliyatida kuzatimiz mumkin",- deb taxlil ko'rsatgichlari bilan izohlaydi.[37]

Agar aktivlar tarkibini bank faoliyatidagi assosiy turlari buyicha guruxlashtirsak, u xolda kuyidagi xulosalar chikarish mumkin:

1. Bank aktiv operatsiyalarida asosiy urinni kredit operatsiyalar egallaydi. Ularning ulushi 19,90% dan 83,25% gacha tashkil etadi.

2. Bank aktivlarida ikkinchi urinni kimmatli kogozlarga kilingan investitsiyalar egalaydi (2,15% dan 29,18% gacha).

3. Uchinchi urinda — kassa aktivlari (0,2% dan 12,94% gacha).

4. Boshka aktivlar ulushi xisob-kitob xususiyatlaridan kelib chikib bank operatsiyalarida juda xam keng spektrni uz ichiga oladi (2% dan 78% gacha)[38].

[37] "Important issues of increasing the active operations profitability of commercial bank" by Muradova L., "Advanced Science Journal", December 2014
[38] AT "Asaka"banki ma'lumotlari.

Daromad keltirishiga karab bank aktivlari: daromad keltiruvchi aktivlarga va daromad keltirmaydigan aktivlarga bulinadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga kuyidagilar kiradi: barcha berilgan kreditlar (jumladan banklararo kreditlar); investitsiyalar; xazina veksellari; davlat obligatsiyalari; kimmatli kogozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar: pul aktivlar guruxi; asosiy vositalar; kapital xarajatlar; barcha moddiy aktivlar va boshka aktivlar; nomoddiy aktivlar.

Bu guruxda pul mablagidan tashkari barcha aktivlar xam likvid aktivlarga kiradi.

Ikkinchi gurux aktivlariga bank faoliyatida katta e'tibor berish lozim. Chunki bu guruxda aktivlarning sifatini tushiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan foizsiz ssudalar, muddati utgan ssudalar va foizlar, tulanmagan arenda va boshkalar bulishi mumkin.

Bu aktivlarning darajasi umumiy aktivlar xajmidan 3 foizdan oshmasligi kerak.


Agar bu aktivlar mikdori 2 va undan ortik marta urnatilgan normadan ortik bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baxolanadi.

Banklar aktiv operatsiyalarining yana bir muxim turi tovarlar buyicha ssudalar, ya'ni tovarlarni garovga kuyib ssuda olish xisoblanadi. Tovarlar buyicha ssudalar bank tomonidan tovarning tulik bozor kiymatida emas, balki uning bir kismida (50 - 60 foizdan yukori bulmaydi) beriladi.

Tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2015 yildagiga nisbatan 23,3 foizga oshib qariyb 80,4 trln. so'mni tashkil etdi (1-rasm).

1-Chizma.

Bank aktiv operatsiyalari tuzilmasi[39].



Banklar aktiv operatsiyalarining yana bir muxim turi tovarlar buyicha ssudalar, ya'ni tovarlarni garovga kuyib ssuda olish xisoblanadi. Tovarlar buyicha ssudalar bank tomonidan tovarning tulik bozor kiymatida emas, balki uning bir kismida (50 - 60 foizdan yukori bulmaydi) beriladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi - fond operatsiyalaridir. Turli kimmatli kogozlar uning ob'ekti bulib xizmat kiladi. Banklarning kimmatli kogozlar buyicha operatsiyalarining ikki turi kuprok kullaniladi. Bular - kimmatli kogozlarni ssudalarni ta'minlanganligi uchun kabul kilish yuli bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan uz xisobiga

[39] Muallif tomonidan tuzilgan

sotib olish yuli bilan operatsiyalar utkazadilar. Kimmatli kogozlar soxta kapitalni ifodalasa-da, ular buyicha ssudalar xakikiy tovar ishlab chikarish bilan boglangan jarayonga xizmat kiladi.

Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifatida kuchmas mulk, boshka bank yoki suro'rta tashkilotining suro'rta kafolati xam kabul kilinishi mumkin.

Iqtisodiyot nuktai nazaridan aktivlarni boshqarish masalalari passivlardan alohida ko'rib chiqiladi, birok amaliyotda ular o'zaro bogliqdir. Bank balansining passiv qismidagi jalb etilgan mablag'larning manbalarini taxlil qilmasdan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish qiyin. Tijorat banki yo'naltiriladigan resurslarni depozitlar muddatligi asosida vaqti-vaqti bilan aniqlash va tartibga solish muammosiga duch keladi.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi - fond operatsiyalaridir. Turli kimmatli kogozlar uning ob'ekti bulib xizmat kiladi. Banklarning kimmatli kogozlar buyicha operatsiyalarining ikki turi kuprok kullaniladi. Bular - kimmatli kogozlarni ssudalarni ta'minlanganligi uchun kabul kilish yuli bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan uz xisobiga sotib olish yuli bilan operatsiyalar utkazadilar. Kimmatli kogozlar soxta kapitalni ifodalasa-da, ular buyicha ssudalar xakikiy tovar ishlab chikarish bilan boglangan jarayonga xizmat kiladi.

Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifatida kuchmas mulk, boshka bank yoki suro'rta tashkilotining suro'rta kafolati xam kabul kilinishi mumkin.

Iqtisodiyot nuktai nazaridan aktivlarni boshqarish masalalari passivlardan alohida ko'rib chiqiladi, birok amaliyotda ular o'zaro bogliqdir. Bank balansining passiv qismidagi jalb etilgan mablag'larning manbalarini taxlil qilmasdan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish qiyin. Tijorat banki yo'naltiriladigan resurslarni depozitlar muddatligi asosida vaqti-vaqti bilan aniqlash va tartibga solish muammosiga duch keladi.

Tijorat banklarining asosiy aktiv operatsiyasi bu kreditlash faoliyatidir. Kredit munosabatlarining sub'ektlar: xo'jalik organlari, aholi davlat va banklarning o'zidir.

4.2.Bank aktivlarning risk va daromad darajasi bo'yicha tavsifi.

Tijorat banklarini aktivlari tavakkalchilik darajasi buyicha 0, 20, 50, 100% li turt guruxga bulinadi. Xar hil toifali aktivlar nisbiy tavakkalchiligi uz zimmasiga majburiyatlarni kabul kilgan shaxs turi va garov yoki kafolat tavsifiga boglik. Masalan, nakd pul 0 foizli tavakalchilik darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100% li risk toifasiga kiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalning muayyan summasi bilan tulik ta'minlangan bulishi kerakligini anglatadi.

Riskni xisobga olgan xoldagi aktivlar xar bir aktiv balans summasining unga tegishli tavakkalchilik mikdoriga kupaytirish va risk buyicha aniklangan aktivlar yigindisi orkali topiladi. Kuyida bank aktivlari toifalarining ta'rifi keltirilgan.

1. Tavakkalchilikdan xolis bulgan aktivlar (risk koeffitsenti - 0%) kuyidagilarni uz ichiga oladi:

• Bankda va uning filiallarida nakd pul kurinishida saklanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, yildagi nakd pullar va bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saklanayotgan oltin kuyilmalar);

•Markaziy bank va uning xududiy, boshkarmalarida vakillik va zaxira xisob rakamlaridagi mablaglar;

• Xukumat va Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tugridan-tugri talablar va bu emitentlar tomonidan chikarilgan kimmatli kogozlar;

• Iktisodiy xamkorlik va tarakkiyot tashkiloti (IXTT) ga kiruvchi mamlakatlar xukumatlari va markaziy banklariga kuyiladigan boshka talablar;

• Aktivlar yoki ularning Uzbekiston Respublikasi va IXTTga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya kilinib, nakd pul bilan ta'minlangan xamda bankda aloxida cheklab kuyilgan depozit xisob rakamida saklanayotgan kismi.

2.Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsenti - 20%) kuyidagilardan iborat:

• IXTT davlatlarida ruyxatga olingan depozit institutlariga nisbatan talablar, shu jumladan, karzlar va pul bozori vositalari;

• Bankning Jaxon banki, Xalkaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va tarakkiyot banki kabi xalkarotashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

• evroobligatsiyalar,kiska muddatli birinchi sinf
ta'minlanganlikka ega bulgan kreditlar vaboshka xujjatlar kiradi.

3. O'rtacha risk darajasiga ega aktivlar (risk koeffitsenti
- 50%) kuyidagilardan iborat:

-jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy sotib olish yoki kurish uchun berilgan va dastlabki garov bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda ssuda mikdorining garov kiymatiga nisbati 60% dan oshmasligi kerak. 60 va undan ortik kunga muddati utgan, foizlar xisoblash tuxtatilgan yoki restrukturizatsiyalangan kreditlar tavakkalchilik darajasi yukori (100%) bulgan aktivlar toifasiga kiradi;

• bankning IXTTga kiruvchi davlatlar maxalliy xokimiyat organlariga nisbatan talablari yoki bu talablar va kafolatlar buyicha tulovlar mazkur majburiyatlar buyicha moliyalashtiriladigan muayyan loyixa tushumlariga boglik bo'lsa, ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan aktivlar. Yukoridagi tashkilotlar tomonidan emissiya kilingan kimmatli kogozlar.

4.Yukori risk darajasigaega aktivlar(tavakkalchilik koeffitsenti — 100%) kuyidagilardan iborat:

• bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, kishlok xujalik, ishlab chikarish korxonalariga berilgan kreditlar, iste'mol va ipoteka kreditlari,1 - 5 bandlarida kursatilgan kreditlar bundan mustasno;

•bankning asosiy vositalari, inshootlari, jixozlari va shaxsiy kuchmas mulki;

•boshka barcha aktivlar.

4.3.Banklarning kredit operatsiyalari va ularni tarkibiy tuzilishi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy urinni egallaydi. U kuyidagi boskichlarni uz ichiga oladi:

• kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini kurib chikish;
• karzoluvchining tulovgavakreditgalayokatliligini bank tomonidan urganib chikilishi;
• kredit kumitasining karori;
• kredit bitimini rasmiylashtirish;
• kredit berilishi;
• ssuda va u buyicha foiz tulashni bank tomonidan nazorat kilinishi.

Kredit va uni tulash jarayoni kredit shartnomasida kursatilgan bulib, kredit va karz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va xukuklarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maksadi va ob'ekta, kredit mikdori, ssudani berish va uni tulash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshkalar kursatiladi. Ssuda tulashni nazorat kilish bankning kredit portfelini muntazam taxlil kilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniklanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida uz ifodasini topadi. Xorijiy iqtisodiy manbalarda; "Bank kreditlari o'zida iqtisodiy o'sish jarayonida yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarishni tubdan yangilash, kengaytirish, yangi tovarlar ishlab chiqarish bilan hamda sifat darajasini yangilash maqsadida harajatlarni qoplashda xizmat qiladi",- deb keltirib o'tilgan.[40]

Moliyalashtirish manbalariga va karz oluvchining mintakaviy urni va manziliga karab tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin.

Xozirgi vaktda markazlashtirilgan kreditlar xukumatimizning chikargan karorlariga asosan, ustuvor tarmoklarni rivojlantirish uchun milliy valyutada beriladi. Qayta moliyalashtirish va

[40] "Banks" by Menzies, Sir Joseph "Collins Discovery Encyclopedies" 2005

bankning uz mablaglari xisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layokatli bulganda miliy valyutada yoki xorijiy davlat valyutasidi berilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida turli hil risklar uchrab turadi. Lekin ularning faoliyatida kuprok kredit riski, likvidlilik riski va foiz stavkasi ta'sir kiladi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy kismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishgayunaltirilganbulganligiuchunular faoliyatida bu risklarning salmogi xam yukori buladi.

Tasniflangan kreditlarning kaysi guruxga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yukori likvid mablaglarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Ushbu vazifa zamirida foiz stavkalarini oshirish yoki pasaytirish, uzoq muddatli va qisqa muddatli foiz stavkalari o'rtasidagi nisbatning o'zgaririshi kabi funktsiyalar etadi, negaki bankning aksari passivlari qisqa muddatli, aktivlar (ssuda)ning talay qismining qaytarilishi esa muddatlarga ega. Jalb etilgan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalari usishi xavfi tugilganda bank foydasini ximoyalash uchun qarshi choralarni ko'rish zarur.

Tijorat banklarining operatsiyalari ichida kredit operatsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Tijorat banklarining kreditlari bank faoliyatida asosiy o'rin tutgan operatsiyalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni»da bank terminiga tushuntirish berilganda bu tashkilot uchta operatsiyani albatta amalga oshirishi kerakligiga berilgan bulardan biri kredit berish operatsiyasidir. Jahon bank faoliyatida bank terminiga moliyaviy univermag degan tushuncha berilganiga karamay kredit operatsiyalari barcha banklar faoliyatida muxim o'rin egallagan. Bir tomondan bank krediti iqtisodiy sub'ektlar uchun zaruriy xollarda vaqtincha yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklarni echishda yordam beruvchi muxim manbaa hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa banklar olib borayotgan jarayonlari ichida eng ko'p foyda beruvchi jarayondir.

Banklarning kredit jarayonlari o'z navbatida muddat bo'yicha uchga bo'linadi:

- qisqa muddatli 1 yil muddatgacha bo'lgan;
- uzok muddatli 1 yildan ortiq.

Agar biz bu ko'rsatkichni Respublikamiz banklari bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak, u holda o'rtacha 50 foiz atrofidaligini ko'rishimiz mumkin. Kredit operatsiyalarining bank faoliyatida eng riskli jarayonlardan biri hisoblangan bir vaqtda, uning daromadliligi ham yuqoridir. Bugungi bank tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar banklari daromadida kredit jarayonlaridan olingan foiz daromadi salmoqli ulushni tashkil etmokda. AKSh banklari bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 85,9 foizni tashkil qilgan.

Kredit portfelini tugri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos xisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan boglik xatarlar, sudalar, muddtati utgan ichki uzaytirilgan kreditlar buyicha xisob-kitob operatsiyalari, ssudalar buyicha zalararlarni koplash zaxira mikdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar bular sirasiga kiradi.

Demak, kredit portfeli - bu turli hil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga karab turkumlangan kreditdar mikyosidagi bank talablarining yigindaisidir.

Ipoteka krediti, Qishloq xo'jalik krediti, Blank krediti, Veksel krediti, Lombard krediti, Overdraft va boshqalar(8-jadval).

Bularning barchasi mijozlarning kredit olish qobiliyatini taxlil qilish natijasida qaror qabul qilingandan so'ng mijozlarga beriladi.

Bu kredit turlari deyarli barcha sobiq MXDlarida bir xil bo'lib, ular banklar tomonidan va boshqa nobank tashkilotlari tomonidan mijozlarga beriladi. Biroq islom davlatlarida islomga kredit berish usullari ustun turadi.

Banklar, alohida kredit tashqiloti sifatida (mutsaqil) iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar, bank qonunchiligining rivojlanish darajasi, banklararo raqobat hamda bank infratuzilmasining rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda o'z kredit siyosatini amalga oshiradi

1-jadval.

Bank krediti turlari. [41]

Kredit sub'ektlari bo'yicha kreditlar	a) davlat korxonalari b) nodavlat korxonalari c) aholi d) boshqa xo'jaliklar e) davlat organlari f) qo'shma korxonalar g) boshqa banklar va h) boshqa tashkilotlar
Kredit maqsadiga ko'ra kreditlar	a) iste'molga b) sanoatga c) savdoga d) qishloq xo'jaligiga e) investitsion f) byudjet kreditlari
Kreditni joriy qilish muxitiga qarab kreditlar	a) ishlab chiqarishga b) muomalaga
Kredit muddatiga qarab kreditlar	a) qisqa muddatli b) uzoq muddatli c) o'rta holda muddatli d) talab qilib olguncha kredit
Kredit hajmiga ko'ra kreditlar	a) yirik b) o'rta c) mayda (mikro) kreditlar
To'lov turiga ko'ra kreditlar	a) bozozr foizi b) yuqori foizli imtiyozli foizli
Kreditlash ob'ektiga ko'ra kreditlar	a) xususiy ob'ektlar b) umumlashgan kreditlashtirish ob'ekti
Kreditlashtirishdagi valyuta turi bo'yicha kreditlar	a) milliy valyutada b) xorijiy valyutadagi kreditlar
Kredit ta'minoti bo'yicha kreditlar	a) ta'minlangan kreditlar b) ta'minlanmagan kreditlar
Qaytarish tartibiga ko'ra kreditlar	a) bir vaqtda qaytariladigan kreditlar b) to'lovni kechiktirish asosidagi kreditlar (oylik, kvartal, yil)
Foiz stavkasini o'rnatilishiga qarab	a) qat'iy belgilangan b) o'zgaruvchan
Kredit munosabatlarida qatnashadigan banklar soniga ko'ra	a) bitta bankdan beriladigan kreditlar b) sinditssirlashgan kreditlar kabilardir
Kreditlash uslubiga ko'ra	a) qoldiq b) oborot (muomala) c) kredit liniyasi orqali

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek mamlakatimizda ham kreditlarning turlari juda hilmaBu kredit turlari deyarli barcha sobiq MXDlarida bir hil bo'lib, ular banklar tomonidan va boshqa nobank tashqilotlari tomonidan mijozlarga beriladi. Biroq islom davlatlarida islomcha kredit berish usullari utsun turadi.

[41] Muallif tomonidan tuzilgan

Shuni ta’kidlash lozimki, amaliet kursatganidek, kredit berishning ushbu koidalarini kullash bank zaxiralaridan yanada samarali foydalanishga, banklar likvidligini oshirishga, ularni xakikatdan ximoya qilishga, shuningdek iktisodietning ishlab chikarish sektorini rivojlantirishga imkon yaratadi.

4.4. Bank aktivlarining sifati darajasi va diversifikatsiyasi

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarini amaldagi buxgalteriya xisobi raqamlarining rejasiga asosan quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) muddatsiz aktivlar;

b) ma’lum muddatga joylashtirilgan aktivlar:

- talab qilib olinguncha aktivlar;
- muddati 30 kungacha bo’lgan aktivlar;
- muddati 30 kundan 90 kungacha bo’lgan aktivlar;
- muddati 90 kundan 180 kungacha bo’lgan aktivlar;
- muddati 180 kundan 360 kungacha bo’lgan aktivlar;
- muddati 360 kundan ortiq bo’lgan aktivlar.

Tijorat banklari aktivlarining muddatlariga asosan tarkibi bankning aktiv operatsiyalarining qaltislik darajasiga bevosita bog’liqdir. Lekin asosiy o’rnini muddatlari bo’yicha joylashtirilgan aktivlar tarkibi bankning passivlar tarkibida qisqa muddatli passivlar asosiy ulushini egallab turgan vaqtda tijorat banklari o’z aktivlarining uzoq muddatga joylashtirish imkoniyatidan mahrum bo’ladi. Chunki, tijorat banklarining mijozlari muddatsiz yoki talab qilib olingunga bo’lgan depozitlarni o’zlari hohlagan vaqtda bankdan talab qilish huquqiga ega. Bunday holatlarda tijorat banklari o’zining likvidlik darajasini bajara olmaydilar. Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlar tarkibida muddati 90 kundan 180 kungacha bo’lgan aktivlarning ulushi asosiy o’rinni egallaydi.

Tijorat banklari o’zlarining aktivlarini o’z mijozlari orasida joylashtiradi va ayrim qismi bankning likvidligini ta’minlash maqsadida o’zida saqlanadi. Xalqaro amaliyotda joylashtirilgan bank aktivlari kimlar tomonidan foydalanilayotganligiga asosan quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. tijorat bankini o’zining tomonidan foydalanayotgan aktivlar;
2. tijorat banki tomonidan o’zining boshqa mijozlariga vaqtinchalik foydalanish uchun ajratilgan aktivlar:

a) davlat organlariga:

- Moliya vazirligiga, Markaziy bankka va mahalliy hokimiyat organlariga;
- byudjetdan tashqari maqsadli jamg’armalaga;
- davlat mulkchiligiga asoslangan moliya tashkilotlariga;
- davlat mulkchiligiga asoslangan va uning ixtiyoridagi tijorat korxonalari va tashkilotlari;
- davlat mulkchiligiga asoslangan va uning ixtiyoridagi notijorat korxonalar va tashkilotlar.

b) nodavlat yuridik shaxslarga:

- turli moliya muassasalari;
- tijorat korxonlari va tashkilotlari;
- notijorat korxonalar va tashkilotlar;

v) jismoniy shaxslarga:

- xususiy tadbirkorlarga;
- fuqarolarga;

g) norezident shaxslarga:

- xorijiy davlatlarga;
- xorijiy tijorat banklari va boshqa moliya muassasalariga;
- xorijiy nomoliyaviy yuridik shaxslarga;
- norezident jismoniy shaxslarga.

Tijorat banki aktivlarining sifat jihatdan baholash bankning kapitalining etarlilik darajasi ko’rsatkichi hamda uning faoliyatining qay darajada samaradorligini baholash kabi ko’rsatkichga

tengdir. Tijorat banki aktivlarini baholash bank o'zining oldiga qo'ygan maqsad hisoblanadigan daromad topishdagi bir maromda faoliyat amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarining sifati turli omillar asosida olib boriladi. Ushbu omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aktivlar tarkibining muddatlariga asosan passivlar tarkibiga mosligi;
- tijorat banklarini aktivlarining likvidliligi;
- tijorat banklarining aktivlarining daromadliligi;
- tijorat banklari aktiv operatsiyalarining diversifikatsiya qilinganlik darajasi;
- umidsiz va shubxali aktivlarning umumiy aktivlar tarkibidagi ulush;
- tijorat banklari aktivlarining uzgaruvchanlik belgilari.

Tijorat banklari aktivlarining yuqori sifatga ega ekanligi, bank tomonidan mijozlari bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan muddat joylashtirilgan aktivlarni va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z muddatida hamda to'liq qaytarib olishi bilan belgilanadi. Agarda qaytarib olinishning imkoniyati bo'lmasa, garovga olingan ta'minotni balans qiymati bo'yicha qisqa muddatda sotish qobiliyati bilan belgilanadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarining sifati jihatidan "yaxshi" (to'laqonli) va "yomon" (talabga javob bermaydigan) aktivlar, ya'ni bank o'z aktivlarini balans qiymati bo'yicha to'liq sotib yuborish imkoniyatiga ega bo'lmagan aktivlarga ajratiladi. Bundan tashqari tijorat banklarining yomon aktivlarini qaltislikka asoslangan aktivlardan ajrata olish lozim. Agarda qaltislikka asoslangan aktivlarni kelajakda yo'qotish extimoli bo'lsa, yomon aktivlar bo'yicha ularni yo'qotish vaqti kelganligi tushuniladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining aktivlari bankning ixtisoslashganligiga, ustav kapitali miqdoriga, mijozlarning tarkibiga, bank xizmatlari bozoridagi raqobatga, bankda zamonaviy texnologiyalarni joriy etilganlik darajasiga va shunga o'xshash ko'p omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga milliy bank tizimidagi qonunchilikning xususiyatlari, ya'ni undagi berilgan xuquqlar, majburiyatlar bilan bir qatorda o'rnatilgan cheklovlar ham muhim axamiyat kasb etadi. Yuqoridagi omillarni uzviy bog'liqlikda aktivlarni joylashtirish faoliyati olib boriladi.

2-jadval

Tijorat banklari aktivlarining toifalari va ular bo'yicha zaxiralar ajratish tartibi[42]

№	Aktivlarning nomlanishi	Zaxiralar ajratish foizi
1.	standart aktivlar (kreditlar)	1,0
2.	substandart aktivlar (kreditlar)	10,0
3.	qoniqarsiz aktivlar (kreditlar)	25,0
4.	shubxali aktivlar (kreditlar)	50,0
5.	umidsiz aktivlar (kreditlar)	100,0

Tijorat banklarida ehtimoliy yo'qotishlarga doir zaxirani shakllantirish tartibi quyidagilardan iborat:

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining adekvatligi tahlili va zarur hollarda qo'shimcha zaxiralarning yaratilishi davriy ravishda kamida oyiga bir marotaba amalga oshirilishi lozim.

Aktivlarning quyida keltirilgan asosiy shartlaridan hech bo'lmaganda bittasi o'zgartirilgan bo'lsa, ular shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb hisoblanadi:

- foiz stavkasining pasaytirilishi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi pasayishi munosabati bilan foiz stavkasining pasaytirilishi holatlari bundan mustasno;
- asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan qisman voz kechilishi;
- foizlar va (yoki) asosiy qarzga doir to'lovlarning bir qismi yoki barchasidan voz kechilishi;

[42] Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi NIZOM. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 28-son, 374-modda

- aktivning asosiy va (yoki) foizlarining to’lash muddati kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;
- qarz oluvchi va (yoki) ta’minot turining o’zgartirilishi, kreditning bir qismi qaytarilganligi munosabati bilan ta’minotdan chiqarilgan holatlar bundan mustasno.

Shartlari qayta ko’rib chiqilgan aktivlar sifatini tasniflashda quyidagi omillar hisobga olinishi kerak:

- shartlar qayta ko’rib chiqilishining asoslari yoki sabablari;
- bir qarz oluvchiga qarzni qaytarish muddatining necha marta uzaytirilganligi;
- dastlabki bitim shartlariga nisbatan yangi bitimda keltirilgan shartlardagi o’ziga xos o’zgartirishlari. Bunda foiz stavkasining bozor stavkasi darajasidan pasayishi, qo’shimcha ravishda aktiv bo’yicha qabul qilingan ta’minotning o’zgarishi yoki kreditni qaytarish muddatining uzaytirilishi shartlari qayta ko’rib chiqilgan aktiv sifatini tasniflash va tahlil qilish jarayonida inobatga olinishi lozim.

Shartlari qayta ko’rib chiqilgan aktivlar sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarning mezonlaridan foydalangan holda tasniflanadi.

Aktivlar sifati ularning shartlari qayta ko’rib chiqilishidan oldingi tasniflangan toifadan yuqori yoki yaxshiroq toifada tasniflanishi mumkin emas. Hech qanday holatda aktivga uning shartlari qayta ko’rib chiqilgandan so’ng darhol «standart» toifani berish mumkin emas. Aktiv ikki va undan ortiq marta shartlari qayta ko’rib chiqilganda, aktiv sifatini tasniflash toifasi shartlari qayta ko’rib chiqilishidan oldingi toifasidan bir pog’onaga past bo’lishi kerak.

4.5.Tijorat banklarining aktivlarini boshqarish usullari.

Moliyaviy menejment tizimida eng muhim yo’nalishlardan biri bank aktiv va passivlarini samarali boshqarish bo’lib hisoblanadi.

Aktivlarni boshqarish asosida o’z va jalb qilingan resurslarni joylashtirish tartibi va yo’llari yotadi. Tijorat banklarining passivlarini boshqarishda, xalqaro bank amaliyotida, «Bank passivlarini boshqarish» nazariyasidan keng foydalaniladi. Mazkur nazariyada asosiy e’tibor tijorat banklarining depozit bazasini yaxshilashga qaratiladi.

Tijorat banklarida bu naqd pullarga, investitsiyalarga, ssudalarga va boshqa aktivlarga taqsimlanadi. Bunda asosiy e’tibor qimmatli qog’ozlarga qilingan investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi.

Bankni oqilona boshqarishning birinchi sharti omonatchilar talabini qondira olish imkoniyatiga ega bo’lish bo’lsa, ikkinchi sharti kreditga bo’lgan talabni qondirish uchun etarli bo’lgan mablag’larga ega bo’lishdir.

Aktiv va passivlarni boshqarishning asosiy vazifasi: bankning qisqa va uzoq muddatli likvidligini boshqarish; bank rentabelligini ushlab turish va oshirish; bank kapitali strukturasi va etarliligini boshqarish; bankning foizli xarajatlarini boshqarish; aktivlar sifatini boshqarish; soliq yukini pasaytirish va optimallashtirish;

Aktiv va passivlarni boshqarishning maqsadi – balans strukturasi va uning rentabelligi bo’yicha bankning bosh strategiyasiga erishishda bank faoliyatini risklardan himoya qilish bo’lib hisoblanadi.


Aktiv va passivlarni boshqarish metodlari.

Tijorat banklari jalb qilingan resurslarni turli xil aktiv operatsiyalarga taqsimlashlari kerak. Bunda banklar quyidagi metodlardan foydalanadilar:

Umumiy fond mablag’lari metodi. Bu metod asosida barcha resurslarni umumiy bitta joyga yig’ish g’oyasi yotadi. Bu metodni ko’pgina banklar mablag’lar ko’p bo’lgan davrda qo’llaydilar. Tijorat bank boshqaruvchisi joylashtirilishi uchun javobgar bo’lgan mablag’lar turli manbalardan: talab qilib olinguncha qo’yilmalar, jamg’arma, muddatli qo’yilmalar, shuningdek bank o’z kapitalidan kelib tushadi. To’plangan resurslar mos hisoblangan aktivlar turlari (ssudalar, davlat qimmatli qog’ozlari, kassadagi naqd pul va hokazo) o’rtasida taqsimlanadi.

Umumiy fond mablag’lari metodida ma’lum aktiv operatsiyani amalga oshirishda mablag’lar qaysi manbadan kelib tushganligi ahamiyat kasb etmaydi.

Resurslarning joylashtirilishi bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga yordam berishi talab etiladi. Bu metod sxematik ravishda 1-rasmda ko'rsatilgan. Bu metod bank boshqaruvidan likvidlilik va daromadlilik printsiplarini teng amal qilishini talab etadi. Shuning uchun mablag'lar shu printsipga mos keladigan aktiv operatsiyalar turlariga joylashtiriladi.



1-rasm. Umumiy fond mablag'lari modeli yordamida aktivlarni boshqarish[43]1.

Aktivlarni boshqarishda ushbu usulni amalga oshirish uchun quyidagi bosqichlardan o'tish darkor:

Birinchisi, mablag'larning taqsimlanish tuzilishini aniqlashda ularning ulushini belgilash, bu ulush birlamchi rezerv sifatida tashkil qilinadi. Birlamchi rezervlarga balansdagi naqd va unga tenglashtirilgan pullar hamda ularning qoldiqlari kiradi. Birlamchi rezervlar tijorat banki likvidligining asosiy manbasi hisoblanadi. Chunki aynan ushbu manbadan tijorat banklari kunlik hisob-kitoblarida foydalanadi.

Ikkinchisi, ikkilamchi rezervlarni tuzish masalasidir. Tijorat banklari aktivlarni joylashtirayotganda "nokassaviy" likvid aktivlarni tuzadi. Bunday rezervlar yuqori likvidlikka ega bo'ladi. Chunki ularni qisqa muddat ichida naqd pulga aylantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ikkilamchi rezervlarni tuzishdan maqsad birlamchi rezervlarni to'ldirish manbasi hisoblanadi. Ikkilamchi rezervlarga qimmatli qog'ozlar portfeli, ayrim hollarda ssuda hisobvarag'idagi mablag'lar kiradi.

Uchinchi bosqich, kredit portfelini tuzishdir. Bank birlamchi va ikkilamchi rezervlarni tuzib bo'lgandan keyin u o'z mijozlariga ssudalarni berishi mumkin. Bank aktivlari ichida ssudalar asosiy o'rinni egallaydi.

To'rtinchi bosqichda, mablag'lar taqsimlab bo'lingandan keyin, qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibi aniqlanadi.


Bu metodning kamchiligi shundaki, ushbu metodda resurslarni aktivlarga joylashtirishning aniq mezonlari o'rnatilmagan. Talab qilib olinguncha depozitlarga, jamg'arma depozitlarga, muddatli depozitlarga hamda asosiy kapitalga nisbatan likvidlik talablari hisobga olinmaydi. Buning oqibatida tijorat banklarining foydasi yildan yilga kamayib ketishi mumkin.

Aktivlarni taqsimlash metodi. Bu metod birinchi metodning ba'zi kamchiliklarini bartaraf etish bilan bog'liq. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, umumiy fond mablag'lari pozitsiyasidan mablag'larni joylashtirishda haddan ziyod diqqat likvidlikka berilib, talab qilinguncha qo'yilmalar va asosiy kapital bo'yicha likvidlikka bo'lgan talab hisobga olinmaydi.

Aktivlarni taqsimlash metodi umumiy fond mablag'lari metodi kamchiligini engish imkonini berdi.

[43] Abdullaeva Sh.Z. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: "Moliya-iqtisod", 2007 y. 172 bet.

Bu metod bankka zarur bo'lgan likvid mablag'lar miqdori fondlarni jalb qilish manbalariga bog'liqligini belgilab berdi. Sxematik ravishda bu 2-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktivlarni boshqarish[44].

Aktivlarni taqsimlash usuliga ko'ra, tijorat bankiga zarur bo'lgan likvid mablag'lar resurslar jalb qilishning manbalariga bog'liqdir. Bu usulda har bir depozit turi bo'yicha alohida rezervlarni tashkil qilish nazarda tutiladi. Ushbu usulning eng asosiy afzalligi shundaki, ushbu usulni qo'llash likvid aktivlarning kamayishiga olib keladi. Bu esa foyda me'yorini oshiradi. Foyda me'yorining oshishi aynan ortiqcha likvid mablag'larni ishlatishdan kelib chiqadi. Umuman olganda, yuqoridagi ikki usul minimal likvidlik darajasiga tayanmasdan, o'rtacha likvidlik darajasiga tayanadi. Bu esa ikkala usul uchun kamchilik hisoblanadi.

Ko'rib chiqilgan ikki metod aktiv va passivlar turli moddalari o'rtasidagi bog'liqlikni analiz qilish ilmiy boshqarishning sodda usullariga to'g'ri keladi.

2. Ilmiy metod, shuningdek EHMni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan metod. Bu metod nisbatan murakkab matematik metodlar va EHM orqali boshqarish muammolariga yondashishni kasb etadi. Ushbu usul orqali aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda matematik model usullaridan foydalaniladi. Ilmiy boshqarish metodi uch xil savolga javob berishni nazarda tutadi: "muammoning mohiyati nimada?", "muammo echimining variantlari qanday?", "qaysi variant eng yaxshi hisoblanadi?".

Ushbu savollarga javob berishda EHMlardan keng foydalaniladi. Aktivlar va passivlarni boshqarishda bank aktivlari likvidligi masalasini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Banklar samarali faoliyat yuritishi va ularning ishonchliligini ta'minlashga erishish uchun 18 banklarning likvidligini qay darajada ekanligini aniqlash juda muhimdir. Likvidlik bank faoliyatini tavsiflaydigan asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u bank tomonidan majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishi hamda aktivlar o'sishini ta'minlash bilan birga, depozitlar va qarz mablag'lari darajasining samarali boshqaruvini bildiradi.

Hozirgi kunda bank likvidligini boshqarishning 4 ta asosiy nazariyasi farqlanadi. Ular quyidagilardir:

1. Tijorat ssudalari nazariyasi.
2. Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi.
3. Kutiladigan daromad nazariyasi.
4. Passivlarni boshqarish nazariyasi.

[44] Abdullaeva Sh.Z. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: "Moliya-iqtisod", 2007 y. 173 bet

Birinchi uchta nazariya bevosita bank aktivlarini boshqarish nazariyasi bilan bog'liq. Bank amaliyotida yuqoridagi nazariyalarning barchasi qo'llaniladi, lekin turli banklar ulardan turlicha foydalanadi hamda qaysidir biriga faoliyati davomida ko'proq e'tibor qaratadi.

Dastlab bank likvidligi 2 ta nazariy yondashuvni o'z ichiga olar edi:

- Bank aktivlari tarkibi summasi, muddati, bank passivlari tarkibi summasi va muddatlariga mos kelishi shart. Bu esa amaliy jihatdan tijorat banklari o'z likvidligini boshqarish bo'yicha faol siyosat yuritishga yo'l bermas edi. Ushbu berilgan nazariy asoslar natijasida bankning "oltin qoida"si yuzaga kelib chiqdi, ya'ni bank moliyaviy talablari hajmi va muddati bank majburiyatlari hajmi va muddatlariga mos kelishi shart;

- Bank balans aktiv va passivlar tarkibi real mos kelmasligiga asoslangan, xatto eng qudratli, moliyaviy barqaror tijorat banklari ham bankrotlik, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlardan va boshqa mojarolardan sug'urtalanmagan. Bu rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlarga ayniqsa xos sanaladi.

Tijorat ssudalari nazariyasi. Bu nazariyaning vakillari tijorat banklari likvidligi uning aktivlarini qisqa muddatli ssudalarga joylashtirilgan paytda saqlanishini ta'kidlaydi. Bunda ssudalarning qisqa muddatliligi, aylanish tezligi, daromadliligi inobatga olingan.

Boshqacha qilib aytganda, banklar tovarlar harakati ishlab chiqarishdan uni istemolgacha bo'lgan bosqichlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

Ushbu nazariyaning kamchilik tomoni shundaki, rivojlanayotgan iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan talabi hisobga olinmagan. Nazariyaga qattiq amal qilish banklarga korxonani kengaytirishni rag'batlantirish, asbob-uskuna, uy-joy sotib olishga (moliyalashtirishga) yo'l qo'ymas edi.

Ushbu turdagi talablarni bajara olmaslik natijasida raqobatlashadigan moliya institutlari: maxsus fondlar, kredit uyushmalari va boshqalarni yuzaga kelishiga olib keldi.

Nazariyaning yana bir kamchiligi qisqa muddatli tijorat ssudasi iqtisodiyot normal holatda bo'lsagina banklar likvidligini ta'minlaydi, biroq iqtisodiyot inqirozi vaqtida likvidlikni boshqarish bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Joydan-joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi. Bu nazariyaga asosan bank aktivlarini boshqa aktivlarga ko'chira olishi yoki ularni boshqa kreditorlarga hamda investorlarga sota olishi bilan o'z likvidligini ta'minlashi mumkin. Agar tovarlar bilan ta'minlangan ssudalar o'z vaqtida qaytmasa, u holda bank bozorda ularni sotishi mumkin, agar ssuda mablag'lariga muxtojlik sezilsa, banklar Markaziy bankdan qayta moliyalanishi yoki banklararo kredit resurslari bozoridan resurs sotib olishi mumkin. Demak, har qanday talabni amalga oshirish uchun tijorat banklari har doim likvid aktivlarga ega bo'lishi kerak.

Yo'kotishlarsiz va ushlanishlarsiz almashadigan ikkinchi darajali zaxiralar quyidagi jihatlarga javob berishi kerak:

- yuqori sifat;
- qaytarishning qisqa muddati;
- bozorda oson sotilishi;
- risklardan xoliligi.

Joydan-joyga ko'chirish nazariyasidan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari likvidligini boshqarishda keng foydalanishi maqsadga muvofiq.

Kutilayotgan daromadlar nazariyasi. Har bir iqtisodiy sub'ekt o'z taxminlari asosida har bir qabul qilingan qarorga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lib, bu qarorlarning bajarilishida kechikishlar prognozlar muddatining cho'zilishiga ta'sir qiladi.

Bu nazariy qarash ta'sirida kreditlar bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lovlarning qaytishi, avvalo, mijozlar tomonidan kutilayotgan daromad darajasiga ham miqdor, ham vaqt nuqtai nazaridan mos kelishi va o'zaro bog'lanishi amalga tatbiq qilindi. Banklar kreditlarni diversifikatsiya qilish jarayonida shu xususiyatni hisobga olishi lozim edi. Bu esa kelajakda kutilayotgan likvidlik muammosining oldini olishga imkon berardi.

Bu nazariyaga ko'ra bank likvidligini kreditlarni qaytarishda to'lovlar grafigiga, kelajakda qarz oluvchining oladigan daromadini qo'ygan holda rejalashtirsa bo'ladi. Bu nazariya yuqoridagi nazariyalarni rad etmaydi. U shuni ta'kidlaydiki, qarz oluvchilar daromadlari kreditlarni qaytarish

bilan tavsiflanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra bank likvidligiga kreditlarni va investitsiyalarni qaytarish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan ta'sir etishi mumkin.

Nazariya ba'zi kredit turlarini rivojlanishini va tez usishini tan oladi, xozirgi vaqtda tijorat banklari kredit porfelida har xil turdagi kreditlar shakllanmoqda. Bu kreditlar bitta umumiy likvidlikni oshirish, ya'ni qisqa vaqtlarda kreditlarni qaytarish natijasida kelib chiqadi.

Kutiladigan daromad nazariyasiga ko'ra ko'plab banklar investitsiya siyosatini shunday yuritishi talab qilinadiki, ularning qaytarish muddatlari zanjiri uzilmasligi kerak, ya'ni doimiy tushumlar bo'lib turishi kerak va buning natijasida mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaktida bajarishni rejalashtirish imkoni paydo bo'ldi.

Chunonchi, kutiladigan daromadlar nazariyasi mamlakatimiz bank tizimida keng qo'llanilmoqda. Chunki banklar berilgan kreditlarini qaytarish grafigi asosida mablag'lar harakatini, ya'ni qaysi sanada kredit foizlari qaytishi va ular hisobiga mijozlar majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini aniqlaydi, tahlil etadi va amalga oshiradi.

Passivlarni boshqarish nazariyasi. 1960-70 yillardan boshlab bank likvidligini boshqarish borasida "passivlarni boshqarish" nazariyasi paydo bo'ldi va bank likvidlik muammosini echish borasida o'z passivlariga, ya'ni majburiyatlariga e'tibor qarata boshladi. Bu nazariyaning paydo bo'lishiga iqtisodiyotda fond va pul bozorining shakllanishi hamda ikki pog'onali bank tizimining to'la shakllanishi bilan bank mablag'lari bozorining rivojlanishi turtki bo'ldi. Bu nazariy fikrga tayangan holda banklar o'z likvidligini pul bozori va sarmoya bozoridan qarz olish, ya'ni mablag'lar jalb qilish orqali boshqara boshlashdi.

Bu usulning banklarga foydali tomoni : birinchidan, daromad nuqtai nazaridan - banklar sotib olingan mablag'larga barcha uchun yagona imtiyoz bo'lgan bozor foiz darajasida to'lovlar amalga oshirishga muvaffak bo'lishgan bo'lsa, ikkinchidan, miqdor nuktai nazaridan -fundamental, doimiy jamg'armalar yuzaga kelib, bu mablag'lap bank balansining ham aktivida ham passivida bank likvidligini dastaklay boshladi. Banklar resurslarni sotib olib, ularning foiz stavkalari o'rtasidagi foydali farqdan kelib chiqqan holda joylashtiradi va shu sababli spredni boshqarish an'anaviy bank amaliyotiga aylandi.

Ushbu nazariya himoyachilari bank likvidligi muammosini bozordan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish yo'li bilan erishish mumkin deb ta'kidlaydilar. Boshida bu nazariyani faqat yirik banklar ma'qullagan edi, lekin keyinroq bu nazariya barcha banklar tomonidan tan olindi.

Passivlarni boshqarish nazariyasi orqali tijorat banklari likvidligini boshqarish quyidagi ikki isbotga asoslanadi:

1. Tijorat banklari qo'shimcha mablag'larni kapital bozorlaridan jalb qilish yo'li orqali likvidlikka erishishi mumkin.

2. Tijorat banklari Markaziy bank, boshqa banklardan olingan pul mablag'lari hisobiga likvidligini ta'minlashi mumkin.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar bank tizimida asosan "bank passivlarini boshqarish" nazariyasi orqali o'z likvidligini ta'minlaydi. O'zbekistan banklari amaliyotida ushbu nazariyadan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki resurslar etishmovchiligi holatida banklar banklararo kredit resurslari bozoridan ularni jalb qiladi, ortiqcha bo'lganda esa banklararo depozitlarga joylashtiradi.

Demak, banklar aktiv va passivlarini boshqarish nazariyalari vujudga kelishi orqali amaliyotda ulardan turli davrlarda banklar keng foydalangan va hozirda ham foydalanib kelmoqda.

Banklar aktiv operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida belgilangan likvidlilik me'yorlariga amal qilishlari va ayrim turdagi aktivlar bo'yicha tavakkalchiliklarning maqsadga muvofiq taqsimlanishini ta'minlashlari lozim bo'ladi.

Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risk darajasi, likvidlilik nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak. Bank likvidliligi va uning daromadliligi o'rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

4.6. Tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari va turlari.

Banklarning vakillik hisobvaraqdagi quyidagilarga bo'linadi:

a) rezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari;
b) nerezident banklardagi vakillik hisobvaraqlari;
v) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi majburiy zaxira hisobvaragi;
g) banklarning boshqa depozit hisobvaraqlari.

Yangi tashkil etilayotgan bank ta'sis badallarini yig'ish uchun itsalgan bankda vaqtinchalik talab kilinguncha (mablag' yigish uchun) depozit hisobvaragi ochishi mumkin.

Tijorat bank milliy valyutada vakillik hisobvaragi ochish uchun quyidagilarni taqdim qiladi:
a) hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;
b) soliq to'lovchining identifikakiya raqami berilganligi to'g'risida guvoxnoma nusxasi;
v) bank operakiyalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyaning nusxasi;
g) tsatistiqa organlari tomonidan berilgan korxona va tashkilotning yagona davlat ro'yhatiga kiritilganligi to'g'risida guvoxnoma nusxasi;
d) imzolar namunalari va muxr izi qo'yilgan varaqcha.

Nerezident banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va O'zbekiston Respublikasining vakolatli banklarida vakillik hisobvaraqlarini ochish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:
a) ixtiyoriy shaklda hisobvaraq ochish to'g'risida ariza;
b) imzolar va muxr izi namunalari.

Tijorat banklari mablag'larni korrespondent hisobvaraqdan Markaziy bankda ochiladigan bank aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun majburiy zaxiralar depozitiga (bundan keyin - majburiy zaxiralar depozitlari) bank aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllangan maxsus zaxiralar mablag'lari miqdoriga teng summani o'tkazishni ta'minlashlari shart.

4.7.Tijorat banklarida majburiy zahiralarni tashkil etish tartibi va uning zaruriyati

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari tomonidan jalb etilgan omonatlarning bir qismi mamlakat markaziy bankining maxsus hisobraqamiga majburiy zahiralar talabi asosida o'tkaziladi. Mamlakat markaziy banki o'zi belgilangan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida tijorat banklariga ko'rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy zahiralarning eng kam miqdori Markaziy bankning normativ hujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning xajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy zahiralarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha mulkchilik shaklidagi tijorat banklari uchun bir xildir.

Iqtisodiy adabiyotda olimlar va mutaxassislar o'rtasida majburiy zahiralar summasini yuqori likvid aktivlar tarkibiga kirishi to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Markaziy banklari tomonidan tijorat banklari uchun berilgan maxsus yo'riqnomalarda majburiy zahiralar yuqori likvid aktivlar tarkibiga kiritilgan. Lekin ayrim iqtisodchi olimlar, majburiy zahiralarni o'z mohiyatiga asosan yuqori likvid aktiv emas, balki ularni muomaladan chiqarilgan aktivlar deb hisoblashadi. Ularning fikricha, tijorat banklari majburiy zahiralardan o'z mijozlarini joriy talablarini qondirishga yo'naltira olishmaydi. Majburiy zahiralar tijorat banklarini "sinishi" vaqtida foydalaniladigan mablag'lar deb hisoblashadi.

Hisob-kitob yakunlari bo'yicha uch ish kuni davomida tijorat banklari maxsus zaxiralar miqdoridan etishmayotgan summani majburiy zaxiralar depozitlariga yoki ularning asoslab berilgan murojaati asosida Markaziy bank ortiqcha summalarni tijorat banklariga qaytarib beradi.

Markaziy bank kredit portfelini tahlil qilish asosida bank aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun qo'shimcha zaxiralarni hosil qilish bo'yicha tijorat banklariga ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishga haqli.

Belgilangan me'yorlarga muvofiq yaratilgan rezervga nisbatan aktiv bo'yicha ehtisoliy yo'qotishlar miqdorining oshib ketishi mumkinligidan dalolat beruvchi faktlar va sharoitlar

aniqlangan holda rezervga extimoliy yo'qotishlarga nisbatan yirik ajratmalar amalga oshirilishi kerak.

Aktivning hisobdan chiqarilishi ssuda qisman yoki to'liq qaytarilishi mumkinligini inkor etmaydi.

Agar ssuda (aktiv) noto'g'ri tasniflangan bo'lsa, qo'shimcha kreditlash va bankning ehtimoliy yo'qotishlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning batafsil tahlilisiz na joriy kredit bo'yicha qo'shimcha resurslar shaklida, na yangi kredit shaklida bank qarzdorga qo'shimcha mablag'lar berishi mumkin emas. Biroq, bank bankdagi depozit yoki bank nazorati ostidagi ssuda (aktiv)ni yaxshi ta'minlovchi boshqa garov bilan ta'minlangan qo'shimcha kredit bergan taqdirda yangi ssuda boshqa kreditlar noto'g'ri tasniflangan hollarda ham "yaxshi" deb tasniflanishi mumkin.

Markaziy bank muayyan ssudalarning yanada qat'iyroq tasniflanishini yoki quyida keltirgan noqulay faktlar va hollarning hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan zaxiraga qo'shimcha chegirmalarni ajratishni talab qilishi mumkin:

- bank kredit portfeli umumiy holatining yomonlashuvi;
- kreditlar berish adekvat bank tadbirlarining o'zgarishi yoki yo'qligi;
- shunga o'xshash ssudalar, masalan, ushbu sohaga berilgan kreditlar bo'yicha bank ko'rgan amaldagi zararlar;
- bank rahbariyatining muammoli ssudalarni undirishga noqobilligi;
- yirik ssudalarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki jo'g'rofik mintaqada katta miqdorda to'planishi;
- taqdim etilgan bank hisobotini tahlil qilish yoki Markaziy bank nazoratchilari tomonidan o'tkazilgan qarzdorlarning yoxud bankning o'zining moliyaviy ahvoliga taalluqli tekshirishlar natijasida aniqlangan boshqa holatlar.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralariga ajratmalar "Ehtimoliy zararlarni baholash" hisob raqami orqali bank xarajatlariga kiritilishi va joriy davr uchun "Foydalar va zararlar to'g'risidagi hisobot"ning "Aktivlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlarni baholash" satrida aks ettirilishi lozim.

Zaxiralarning noadekvtligi hollarida bank tomonidan zaxiralarning etishmovchiligi aniqlangan davrda zaxiralarga qo'shimcha ajratmalar qilinishi zarur. Bu "Ehtimoliy zararlarni baholash" (Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisob raqamini debetlash va "Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira" (Balans hisoboti) hisob raqamini debetlashi va "Ehtimoliy zararlarni baholash"(Foyda va zararlar to'g'risida hisobot) hisob raqamini kreditlashi lozim.

Aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralarining adekvat darajasini doimiy ravishda ushlab turishning ta'minlanishi uchun to'liq javobgarlik bank Kengashiga yuklatiladi.

"Ishonchsiz" aktivlarni ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralari hisobidan qoplash to'g'risidagi qaror bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinib, bu haqda bank Boshqaruvi bank Kengashiga uch kunlik muddat ichida ma'lumot beradi.

Zararlarni qoplash zaxiralari hisobidan qoplangan ishonchsiz aktivlarning hisobi "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'ida yuritiladi. Ehtimoliy zararlarni qoplash zaxiralari etishmagan taqdirda belgilangan tartibga muvofiq 56800-"Ehtimoliy zararlarni baholash" hisobvarag'idan kontr-aktiv hisobvaraqqa qo'shimcha ajratmalar qilinishi kerak. O'tkazilayotgan aktiv bo'yicha olinadigan foizlarni hisobga olish shaxsiy hisob raqami ham bir vaqtning o'zida ushbu aktiv bo'yicha "Olinadigan hisoblab yozilgan foiz" hisobvarag'ini kreditlar va "Foizli daromad" hisobvarag'ini debetlash yo'li bilan yopilishi kerak.

Bank qonunchilikka muvofiq mazkur aktiv bo'yicha asosiy qarz va foizlarni undirish yuzasidan barcha chora-tadbirlarni qo'llashi zarur. Bank qarzdor majburiyatining to'liq summasini to'g'ri aks ettirish uchun mazkur aktivga foizlar hisoblab yozishni uni "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'iga o'tkazgandan keyin ham davom ettiradi.

Bunda bank muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta qarzdorga “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvaraqlardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va olinadigan hisoblab yozilgan foizlar bo’yicha muddati o’tgan qarzning mavjudligini tasdiqlovchi “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’idan ko’chirmani ilova qilgan holda kredit bo’yicha qarzni qoplash va u bo’yicha hisoblab yozilgan foizlarni to’lash talab qilingan da’vo xatini yuborishi lozim. Da’vo xati va ko’chirmalar bankning muddati o’tgan qarzlarni undirib olish bo’yicha sud organlariga murojaat etishi uchun asos bo’ladi.

Bank Kengashi moliyaviy yil yakuni bo’yicha bank aktsiyadorlarining yillik umumiy yig’ilishi kun tartibiga bankning ishonchsiz aktivlarini undirish bo’yicha qo’llangan chora-tadbirlar haqidagi masalani kiritadi.

Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Hukumati qaroriga ko’ra markazlashtirilgan resurslar yoxud boshqa mablag’lar hisobidan berilgan kreditlar hisobidan tashkil topgan ishonchsiz aktivni balans hisobvaraqlaridan “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’iga o’tkazish haqidagi qaror Markaziy bank yoxud Hukumat oldidagi qarzlarning bekor qilinishi emas. Bank Markaziy bank yoki O’zbekiston Respublikasi Hukumati oldidagi qarzlarni hatto agar ushbu mablag’lar hisobidan berilgan kreditlar ilgari tuzilgan kredit shartnomalariga muvofiq to’lanmagan bo’lsa ham qaytarishi shart.

Agar qarzdor tomonidan “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’ida hisobga olinadigan aktiv bo’yicha qarz bank tomonidan ushbu qarzni undirish bo’yicha ko’rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, u bu hisobvaraqlarga o’tkazilgandan keyin besh yil davomida to’lanmasa, u holda ushbu aktiv (asosiy qarzlar ham, foizlar ham) bank Kengashining aktsiyadorlar umumiy yig’ilishida tasdiqlangan qaroriga ko’ra hisobdan chiqariladi.

Agar qarzdor ilgari ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxira barpo etilgan aktiv bo’yicha qarzlar hisob raqamiga to’lasa va qarz tijorat bankining balans hisobvaraqlaridan “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’iga o’tkazilmagan bo’lsa, u holda “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralar” hisobvarag’i debetlanadi va “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralarga ajratmalar” hisobvarag’i kreditlanadi.

Agar qarzdor aktiv “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’iga o’tkazilganidan keyin ushbu aktiv bo’yicha qarzlar hisob raqamiga to’lasa, u holda bank tomonidan “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralar” hisobvarag’i kreditlanadi, tegishli aktiv hisobvarag’i, masalan qarz to’lanishida pul olinishini aks ettirish uchun kassa hisobvarag’i debetlanadi va, oqibatda, bank tomonidan “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralar” hisobvarag’i debetlanadi va “Ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralarga ajratmalar” hisobvarag’i kreditlanadi, bu bilan shu vaqtgacha “Ko’zda tutilmagan holatlar” hisobvarag’iga o’tkazilgan zararlar bank daromadlari oqimiga qaytariladi.”.

Nazorat uchun savollar

1. Bank aktiv operatsiyalari va ularni tuzilishi
2. Bank kredit operatsiyalari va ularni tuzilishi
3. Ist’emol krediti va uni O’zbekistonda rivojlanish istiqbollari
4. Kredit portfeli va uni bahosi.
5. O’zbekistonda ipoteka kreditlashtirishning rivojlantirish istiqbollari
6. Tijorat banklari kredit portfeli va ularni muammolari
7. Tijorat banki kredit portfelini boshqarish taxlili

5-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING VALYUTA OPERATSIYALARI

Reja

5.1 Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.
5.2 Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari.
5.3 Xalqaro valyuta konunchiligi. O'zbekiston Respublikasi valyuta konunchiligi.
5.4 Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini o'tkazish tartibi.
5.5 Xedjerlash va uning valyuta munosabatlarini tashkil qilishdagi roli.
5.6 Tijorat banklari tomonidan mijozlarni chet el valyutasida kreditlash
5.7 Xalqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.

Tayanch iboralar

Valyuta, tizim, ko'rs, kross, spot, forvard, optsion, arbitraj,svop operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar, Veksel, akkkreditiv, inkasso, halqaro kreditlar, aktsept krediti, firma krediti, import va eksport operatsiyalari.

5.1 Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari. Masalan, Amerika ko'shma Shtatlarini «dollari», Buyuk Britaniya «funt tserlingi», Kanada «dollari», Frantsiya «franki», Germaniya «markasi» va shu kabilar. Mazko'r dalatlar milliy pul birliklari o'zlarida, xar biri uchun, milliy valyuta hisoblanadi. Muayyan bir davlat ichki bozoriga nisbatan olingan boshqa davlatlarni milliy valyutalari xorijiy valyutalar deb ataladi. Masalan, AkSh dollari, Buyuk Britaniya funt tserlingi, Germaniya markasi, Shveytsariya franki va boshqa shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyutalar bo'ladi. O'z navbatida, O'zbekiston «so'm»i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo'ladi.

Rus iqtisodchi olimi V.S. Safonovning ta'rifiga ko'ra, "currency" atamasi banknotalar va tangalar ko'rinishidagi pullar ma'nosini anglatadi . Xorijiy valyuta uchun foreign currency atamasi ishlatiladi. Jahon valyuta bozori – bu foreign currency exchange market dir, yoki oddiy qilib aytganda, FOREX.

Valyutalarning turli klassifikatsiyasi mavjud bo'lib, asosan ularni uch guruhga ajratishadi.

Bular jahon valyuta bozorining barcha segmentlarida hech qanday cheklovlarsiz amal qiladigan valyutalardir. Ular cheklanmagan miqdorda va turli joriy va muddatli bitimlar bo'yicha to'liq konvertirlana oladilar.

Bunday turdagi valyutalar ichida katta beshlikni ajratib ko'rsatish lozim. Ularga AQSh dollari (USD), Yevro (EUR), Shveytsariya franki (ChF), Yaponiya ienasi (JPY) va Angliya funti (GBP) kiradi.

Asosiy valyutalarga shuningdek, Kanada dollari (CAN) va boshqa bir nechta valyutalar (masalan, Avstraliya dollari AUD) ham kiritiladi.

Valyutalarning mazkur sirasiga Irlandiya, Singapur, Gretsiya, Shvetsiya, Daniya, Oman, Quvayt, Hindiston kabi davlatlar valyutalari kiritiladi.

Bu valyutalar bo'yicha doimo kotirovkalar mavjud, biroq ba'zida operatsiyalar miqyosi, muddatli bitimlar bozori bo'yicha (agar u umuman mavjud bo'lsa) katta cheklovlarning bo'lishi ehtimoli bor; shuningdek, muayyan davlatlar tomonidan ularning keng savdosiga qarshi qonuniy cheklovlar ham o'rnatiladi. Mazkur guruhga Indoneziya, Tailand, Gonkong, Malayziya, Vetnam, Fillipin kabi mamlakatlar valyutalarini kiritish mumkin.

Hozirgi kunda yangi paydo bo'luvchi bozorlar valyutalari ham yuzaga keldi. Bular Chexiya, Slovakiya, Polsha, Rossiya, Janubiy Amerika va JAR mamlakatlari pul birliklaridir.

2016 yilda ham valyuta siyosati inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqib yuritildi.

Ushbu maqsadlarga erishishda 2016 yil davomida so’mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borildi.

Natijada 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko’ra, milliy valyutaning 2016 yil boshidagi almashuv kursiga nisbatan devalvatsiya darajasi 15 foizni tashkil qilib, so’mning AQSh dollariga nisbatan rasmiy almashuv kursi 3231,48 so’m/AQSh dollarini tashkil etdi.

Shuningdek, valyutani tartibga solish va valyuta nazorati sohasiga doir chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi va bu borada asosiy e’tibor eksport operatsiyalari bo’yicha valyuta tushumining to’liq, o’z vaqtida kelib tushishini ta’minlash hamda vakolatli banklarning valyuta resurslarini ko’paytirishga qaratildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so’mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo’ljal sifatida so’mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.

Shunga muvofiq, so’mning AQSh dollaridan tashqari boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSh dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so’mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi ta’siri ostida shakllandi.

1-jadval

Valyutalarning xalqaro amaliyotda belgilanishi[45]

AUD	Avstraliya dollari
BRL	Braziliya reali
BYR	Belorussiya rubli
CAD	Kanada dollari
CHF (SFR)	Shveytsariya franki
CNY	Xitoy yuani (renminbi)
EUR	Evro
GBP (STG)	Angliya funt sterlingi
ILS	Isroil shekeli
INR	Hindiston rupiyasi
JPY	Yaponiya ienasi
KZT	Qozog’iston tengesi
MXP	Meksika pesosi
NZD	Yangi Zelandiya dollari
RUR	Rossiya rubli
SGD	Singapur dollari
TRL	Turkiya lirasi
UAH	Ukraina grivnasi
USD	AQSh dollari
UZS	O’zbekiston so’mi

Jahon amaliyotida moliyaviy bozorlar faoliyatida standartlashtirish xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan, lotin tilidagi uchta harfdan iborat valyutalarning quyidagi belgilanishlari qabul qilingan bo’lib, ular xalqaro va mahalliy amaliyotda keng qo’llaniladi (ISO 4217 standarti – International Organization for Standartization):

[45] Muallif ishlanmasi.

O’z navbatida, 2016 yilda so’mning hamkor davlatlar va boshqa asosiy xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursining qadrsizlanishi mamlakatimiz eksport qiluvchi korxonalari raqobatbardoshligining 2014-2015 yillardagi kuchsizlanishidan keyin tiklanishiga xizmat qildi[46].

Jahon amaliyotida qabul qilingan tartibga asosan, barcha davlatlarni milliy valyutalari 3 xarf bilan belgilanadi. Bu xarflarni boshidagi 2-tasi mamlakatni, so’ngi 3-chisi esa valyuta nomini bildiradi. Masalan, USD - AkSh dollari, ya’ni US - ko’shma Shtatlar, D - dollar yoki GBP - Buyuk Britaniya funt tserlinigi, GB - Buyuk Britaniya, P - (point) funt tserling va shu kabi.

Qavslar ichidagi valyutalarning belgilanishi SWIFT tizimi foydalanuvchilari tomonidan qabul qilingan kodirovka bo’yicha amalga oshiriladi. Qisqacha aytganda, banklar tomonidan foydalaniladigan mazkur axborot tizimi xizmat xabarlarining xavfsiz yetkazilishini ta’minlaydi.

Ba’zi bir davlatlarni milliy pul birliklarini, mazkur dalatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va xarakatda bo’lgan qonun qoidalarga asosan, xorijga chiqishi va u erda muomalada bo’lishi chegaralanadi. Shunga ko’ra, muomaladagi valyutalar turli maqomlarga, ya’ni erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman va butunlay cheklangan, yopik yoki ekzotik valyutalarga bo’linadi.

Ekzotik valyutalar toifasiga quvayt «dinori», Grek «draxmasi» va shu kabilar kiradi.

Joriy konversion operatsiyalari uchun spot almashuv kursi qo’llaniladi. Spot kursi joriy valyuta kursi hisoblanadi va u doimo gazetalar sahifalarida, axborot agentliklari ekranlarida e’lon qilib turiladi.

Bank amaliyotida valyutalar kurslarining quyidagi belgilanishlari amal qiladi: masalan, AQSh dollarining Shveytsariya frankiga nisbatan kursi - USD/ChF kabi, dollarning rublga nisbatan kursi - USD/RUR kabi belgilanadi, va aksincha, yevroning dollarga nisbatan kursi - EUR/USD, funt sterlingning dollarga nisbatan kursi - GBP/USD kabi belgilanadi.

Mazkur belgilanishlarda chap tomonda kotirovka asosi (baza valyutasi yoki asosiy savdolanadigan valyuta), o’ng tomonda kotirovka valyutasi yoki kotirovkalanadigan valyuta (shu jumladan, kontrvalyuta atamasi ham qo’llaniladi) turadi:

USD	**/**	**CHF**	**=**	**1,7525**
↑		↑		↑
kotirovka bazasi		**kotirovka valvutasi**		**kurs**

Bu yozuv bir birlik baza valyutasiga nisbatan kotirovkalanadigan valyutaning mos keladigan miqdorini anglatadi (ya’ni 1 Amerika dollari uchun 1,7525 Shveytsariya franki).

Nominal almashuv kursi – Markaziy bank tomonidan valyuta bozorini tartibga solish borasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida so’mning almashuv kursi belgilangan maqsadli koridor doirasida bo’ldi. 2008 yilda AQSh dollarining so’mdagi nominal qiymati yil boshidagi 1290 so’mdan 1393 so’mga yetdi.

Kross-kurs (cross-rates) bu – ikki valyuta o’rtasidagi ayirboshlash kursidir, AQSh dollari bundan mustasno. Kross-kurs bo’yicha eng faol konversion operatsiyalar bozoriga yapon ienasiga nisbatan yevro EUR/JPY, yevroga nisbatan funt sterling EUR/GBP, Shveytsariya frankiga nisbatan yevro EUR/ChF va boshqa valyutalar kurslari kiradi. Kross-kurslarga shuningdek, rublning (dollardan tashqari) boshqa valyutalarga nisbatan kurslarini EUR/RUR, GBP/RUR ham kiritish mumkin. Savdo hajmi uncha katta bo’lmagan valyutalar bo’yicha kross-kurslarni yaxlit tarzda olish ba’zida mushkul bo’ladi, bunday vaziyatda bitimlarni AQSh dollari orqali amalga oshirish qo’l keladi. Umuman olganda, kross-kurslar bilan bo’ladigan savdo hajmi salmoqli miqyosga ega emas va ularning ulushi 10% ni tashkil qiladi, dollardagi kotirovkalar bo’yicha aylanmalarning ulushi esa mos ravishda 90% dan iborat.

[46] Monetar siyosatning 2017 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari. O’zbekiston respublikasi Markaziy banki internet sayti.2017 y.

Kross-kurslarning xususiyatli jihatlaridan biri shundaki, valyutalar o'rtasidagi kurslarning kotirovkasi qaysi bank kotirovkani o'tkazishiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Aytaylik, funt sterling va yapon ienasi o'rtasidagi kross-kurs uning Britaniya banki yoki Yaponiya banki kotirovkalashiga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, Londonda Barclays Bank funtning ienaga nisbatan to'g'ri kotirovkasini 100 iena uchun JPY/GBP = 0,5990 funt ko'rinishida amalga oshirishi mumkin, shu bilan bir vaqtda Tokiodagi bank 1 funt sterling uchun GBP/JPY = 166,94 iena ko'rinishida ienaning funtga nisbatan to'g'ri kotirovkasini beradi.

Jahonning asosiy kross-kurslari Reyter WX= agentligining sahifalarida to'g'ri va teskari kotirovkalar ko'rinishida taqdim qilinadi va doimiy ravishda avtomatik tarzda bir necha daqiqada joriy to'g'ri dollar kursi asosida yangilanib turadi.

Valyuta kurslari kotirovkasi to'g'ri va teskari turlarga bo'linadi.

To'g'ri kotirovka – bir birlik xorijiy valyuta uchun zarur bo'ladigan milliy valyuta miqdori. Odatda ko'pincha valyutalar Amerika dollari bilan solishtiriladi: 1 AQSh dollariga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdori (bu yerda dollar bazaviy valyuta hisoblanadi). To'g'ri kotirovka sifatida jahondagi ko'pgina valyutalarning dolllarga nisbatan kursi rasmiy ravishda kotirovka qilinadi - USD/ChF, USD/RUR, USD/JPY, USD/CAD va h.k.

Yevro hududiga kiruvchi mamlakatlarning valyutalari ham yevroga almashtirilguniga qadar kurslari dollarga nisbatan to'g'ri kotirovka bo'yicha belgilangan (USD/DEM, USD/FRF, USD/ITL va b.).

Teskari kotirovka – bir birlik milliy valyutada aks ettirilgan xorijiy valyuta miqdori:

$$\text{Teskari kotirovka} = \frac{1}{\text{To'g'ri kotirovka}}$$

Odatda teskari kotirovkadan kam foydalaniladi.

Funt sterlingning bazaviy valyuta sifatida kotirovkalanishining sababi bu ingliz funtining Britaniya imperiyasi davridan beri asosiy jahon valyutasi bo'lib kelishidadir. XX asr boshlarida boshqa mamlakatlar, shu jumladan AQSh ham o'z valyutalarini funt sterlingga solishtirganlar.

O'sha davrlardan buyon funt sterlingning dollarga bo'lgan kursini "telegraf kursi" yoki "keybl" (cable) deb atalib kelingan. Mazkur an'ananing ildizlari shunga borib taqaladiki, XX asr boshlarida birja kotirovkalari, shuningdek, Buyuk Britaniya va AQSh o'rtasidagi hisob-kitoblar okean tubidan o'tkazilgan sim (cable) orqali telegraf xabarlari vositasida amalga oshirilgan.

Jahon bozorlarida asosiy valyuta juftligi bo'lib AQSh dollarining yevroga kotirovkasi hisoblanadi, xalqaro muomalada uning ulushi 2001 yilda taxminan 30%ni tashkil qilgan. Keyingi o'rinlarda dollar/iena (20%), funt sterling/dollar (11%) va dollar/Shveytsariya franki (5%) turadi.

5.2.Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari.

Valyuta bilan birgalikda, halqaro valyuta munosabatlari tushunchasi mavjud. Valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo'jaligida funktsional amal qilish jarayonida va halqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatuvchi o'ziga xos pul munosabatlarini yig'indisidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimini asosi bo'lib xizmat qiladi. Valyuta munosabatlarining axvoli quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;

-siyosiy axvolga;

-jahon bozorida davlatlar aro munosabatlar borasidagi

muammolarga va bunday muammolarning rivojlanish tendentsiyalariga.

Jahon valyuta bozoridagi moliyaviy vositachilar nafaqat o'z mijozlarini topshiriqlariga muvofiq, balki o'z tashabbuslari bilan va o'z manfaatlarida ham operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Valyuta munosabatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishining xuquqiy asoslari bo'lib, xalqaro kelishuvlar va davlatning ichki qonun va qoidalari xisoblanadi.

“Bugungi zamonaviy holatlarda banklar faoliyatda uchrashi kuzatilayotgan holatlardan biri bu valyuta operatsiyalari bilan bog’liq risklarni tashqi iqtisodiy ko’rsatgichlar bilan uzviy bog’liqligidir”, deb ukrainalik olimalar o’zlarining iqtisodiy taxlillarida keltirib o’tganlar.[47]

Valyuta munosabatlarining axvoli quyidagilarga bog’liq bo’ladi:

-milliy va jaxon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;

-jaxon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va bunda muammolarning rivojlanish tendentsiyalariga.

Valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

Rezident shaxslar – bu muayyan davlat xududida yashayotgan va faoliyat ko’rsatayotgan xamda shu davlatning fuqarosi bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslardir.


Norezident shaxslar - bu muayyan davlat xududida yashayotgan va faoliyat ko’rsatayotgan, lekin shu davlatning fuqarosi bo’lmagan yuridik va jismoniy shaxslardir. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va kompaniyalarining filiallari va shu kabilar.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va ish kuchining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul oqimi yordamida o’tishi bu harakatlarni yo’lga qo’yish va tartibga solishni taqozo etdi.

Tarixan oldin halqaro huquq me’yorlarini hisobga olgan, milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan milliy valyuta tizimlari vujudga kelgan. Milliy valyuta tizimi nisbatan mustaqil bo’lib, milliy chegaradan chiqsa ham, mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.(1-chizma).

1-chizma.

Valyuta munosabatlarini tartibga solish darajalari[48]



Milliy valyuta tizimi valyuta munosabatlarini tashkil etishning halqaro kelishuvlar bilan mustahkamlangan shakli, ya’ni jahon valyuta tizimi bilan uzviy bog’liqdir. Halqaro valyuta tizimi XIX asrning o’rtalariga kelib shakllangan. Jahon valyuta tizimi faoliyatining xususiyati va barqarorligi, uning tamoyillari jahon xo’jaligining tarkibiga, kuchlar nisbati va ilg’or mamlakatlar manfaatlariga qanchalik to’g’ri kelishiga bog’liq bo’ladi. Bu shartlar o’zgarishi bilan jahon valyuta

[47] Organization of the currency risk management system in Commercial Banks” by Bodrova N.E., Annaorazova S.B. “Business Inform” Ukraine 2012

[48] Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. – М.: 2000.

tizimining davriy inqirozi vujudga kelib, uning barbod bo'lishi va yangi valyuta tizimining hosil bo'lishi bilan yakunlanadi.

Tijorat banklari, milliy, xududiy va jaxon valyuta bozorlarida nafaqat o'z manfaatlari, balki, birinchi navbatda o'z mijozlari manfaatlarining ximoyachisidir. Jaxonning yirik tijorat banklari, o'z mijozlarining topshiriqlarini yaxshi bajarish, ularning moliyaviy manfaatlarini ximoya qilish va o'z tijorat maqsadlarida jaxon moliya bozorining yirik markazlarida o'z filiallarini ochganlar.

Tijorat banklarining o'zlarida va mijozlarida turli sabablarga ko'ra xamda turli maqsadlarda xorijiy valyutaga extiyoj paydo bo'ladi.

Konversion operatsiyalar – bu valyuta bozori agentlarining bir mamlakat valyuta birligining boshqa mamlakat valyutasiga kelishilgan kurs asosida o'zaro kelishilgan summalarga muayyan muddatlarga hisoblangan holda ayirboshlashdan iborat bitimlaridir.

Yuridik jihatdan konversion operatsiyalar valyutalar oldi-sotdisi bitimlari hisoblanadi.

Ingliz tilida konversion operatsiyalarga nisbatan Foreign Exchange Operations (qisqacha forex yoki FX) atamasi qabul qilingan.

Konversion operatsiyalar muddatlariga qarab 2 guruhga ajratiladi:

- Spot turidagi operatsiyalar, yoki joriy konversion operatsiyalar;
- Forvard yoki muddatli konversion operatsiyalar.

Ikki guruh konversion operatsiyalar o'rtasidagi farq valyutalash sanasida mujassamlashgan. Xalqaro amaliyotda qabul qilinishi bo'yicha, joriy konversion operatsiyalar spot shartlari asosida, ya'ni bitim tuzilgan kundan keyingi 2-ish kuniga valyutalash sanasi bilan amalga oshiriladi. Joriy konversion operatsiyalar xalqaro bozori spot-bozor (spot market) deb yuritiladi.

Bitim kontragentlari uchun spot hisob-kitoblari shartlari juda qulaydir: joriy va keyingi kun davomida zarur hujjatlarni ko'rib chiqish, bitim shartlarini bajarish uchun kerak bo'lgan to'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirib olish mumkin.

Rossiyada va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda konversion operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni olib borishning o'ziga xos amaliyoti qo'llaniladi. Dollar□rubl bozorida joriy (yoki kassa atamasi qo'llaniladi) bitimlar "bugun" (today), "ertaga" (tomorrow) va kam hollarda spot valyutalash sanalari bilan tuziladi. "Bugun" valyutalash sanasi bilan tuziladigan bitimlar butun ish kuni davomida tuzilishi mumkin, chunki kech kirgunga qadar dollarda va rublda naqdsiz pul o'tkazmalarini amalga oshirish mumkin (Nyu-York bilan Moskva o'rtasida sakkiz soatlik farq mavjudligi sababli tugash vaqti Moskvada kechqurunga to'g'ri keladi).

Shunday qilib, jahon amaliyotidan farqli ravishda Rossiya valyuta bozorida "bugun" valyutalash sanasi bilan bo'ladigan bitimlarni dollar□rubl joriy konversion operatsiyalari guruhiga kiritiladi.

Dollarning Kanada dollari bilan bo'ladigan joriy konversiyalari (USD□CAD) uchun valyutalash sanasi ertangi kun hisoblanadi (value tomorrow), chunki AQSh va Kanada hududiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan. Bir qator "ekzotik" valyutalar uchun ham shu xususiyat xosdir.

Forvard (muddatli) operatsiyalari (FX forward operations yoki qisqacha FWD) – bu valyutalarni avvaldan kelishilgan kurs bo'yicha ayirboshlash bitimlaridir, bu bitimlar bugun tuziladi, biroq valyutalash sanasi (ya'ni shartnomaning bajarilishi) kelajakdagi muayyan sanaga qoldirilgan bo'ladi.

Svop (ingl. "swap", "swop") – almashuv, almashtirish ma'nosini bildiradi. Svop operatsiyasi - bu hisob-kitob sanalari turlicha bo'lgan, taxminan teng hajmdagi xorijiy valyutaning bir vaqtning o'zida sotilishi va sotib olinishidir. Svop valyuta operatsiyasi bo'lib, valyutaning "spot" shartlari asosida, milliy valyuta evaziga sotib olinishi va keyinchalik uni qayta sotilishini ko'zda tutadi. Demak, svop operatsiyasi - bu valyutaning miqdor jihatidan teng summalarga, ular bo'yicha hisob-kitoblarni turli sanalarda amalga oshirish sharti bilan, bir vaqtning o'zida sotib olinishi va sotilishidir. Qisqacha aytganda, svop bu, valyutani so'nggi sotuv kafolati bilan vaqtinchalik sotib olishdir.

Amaliyotda svop, bir vaqtning o'zida valyuta almashuvi bilan bog'liq ikki alohida kontraktning imzolanishini ko'zda tutadi. Bu shartnomalar qarama-qarshi yo'nalishlar va turli

hisob-kitob sanalariga ega. Mazkur shartnomalarning biri bo'yicha birinchi valyuta ikkinchi valyuta hisobiga, ma'lum bir sanada yetkazib berish sharti bilan sotib olinadi. Ikkinchi shartnoma bo'yicha esa birinchi valyuta ikkinchi valyutaga, boshqa sanada yetkazib berish sharti bilan sotib yuboriladi.

Svop valyuta operatsiyalarini ko'p hollarda banklar amalga oshiradi. Bunda ikki bank o'rtasida ikki valyuta bilan almashuv ma'lum bir davrda bo'lib, shartnoma oxirida dastlabki valyutalar banklarga qaytariladi. Valyutalar bilan almashuv bir vaqtning o'zida tuziladigan, ammo valyutalarni turli sanalarda yetkazib berilishi ko'zda tutilgan ikki qarama-qarshi shartnoma shaklida amalga oshiriladi: "spot" bir shartnoma bo'yicha va "forvard" boshqa shartnoma bo'yicha. Buning natijasida ikkala bank ham "spot" shartlari asosida sotib olingan valyutani, to u "forvard" shartlari asosida sotilgunga qadar o'z ixtiyoriga oladi.

Valyuta svopi (Foreign exchange swap) – bu bir xil summadagi va turli valyutalash sanalaridagi ikki qarama-qarshi konversion bitimlarning kombinatsiyasidir. Svopda muddati eng yaqin bo'lgan bitimning bajarilish sanasi valyutalash sanasi hisoblanadi, chunonchi, uzoq muddatdagi qarama-qarshi bitimning bajarilish sanasi esa svopning yakunlanish sanasi bo'ladi. Valyuta svopi bitimlarining katta qismi 1 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Riskli pozitsiyalarni ochishni nazarda tutadigan arbitraj operatsiyalardan farqli o'laroq, bir qator konversion operatsiyalar bank hisobidan emas, balki mijoz hisobidan va uning talabi bilan amalga oshiriladi, bular mijoz konversiyalaridir. Mijoz konversiyalarini amalga oshirish tartibi ikki – ichki va tashqi konversiyani o'tkazishni nazarda tutadi.

5.3. Xalqaro valyuta konunchiligi. O'zbekiston Respublikasi valyuta konunchiligi.

Xar qanday davlatda valyuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday tartibga solish albatta turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi xududida valyuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2003 yilda «O'zbekiston Respublikasi xududida valyuta munosabatlarini tartibga solish qonuni» va 1994 yil oktyabr oyida «So'mni ichki konvertatsiyasi haqida qonun» qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar xarakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashki iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O'zbeksiton Respublikasi Markaziy bankining bir qator me'yoriy xujjatlari va yo'riqnomalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 aprelda qabul qilingan "Pul muomalasini mustahkamlash va so'm-kupon xarid qobiliyatini oshirishning kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori pul muomalasini barqarorlashtirish, so'mning xarid qobiliyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda muhim tadbir bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq, 1994 yil 15 apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida Rossiya banki banknotalarining muomalada bo'lishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli to'lovlarga qabul qilinishi ta'qiqlab qo'yildi.

Respublika hukumati tomonidan ko'rilgan choralar natijasida pul muomalasi va iste'mol bozoridagi salbiy jara¸nlar to'xtatildi, to'liq qiymatli milliy valyutani joriy etish uchun sharoitlar yaratildi.

Valyuta jarayonlarini tartibga solish, valyuta chegaralanishlarini va soliqlarni hisobga olmagan holda, zamonaviy sharoitda valyuta kurslarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lib qolgan.

Xar qanday davlatda pul tizimi bo'lganligi sababli, valyuta tizimi ?am mavjud. Valyuta tizimi - bu, davlatlar aro kelishuvlar va shartnomalar bilan belgilanadigan halqaro valyuta munosabatlarni tashkil etishni davlat-xuuqiy shaklidir (Berjanov S.A.). Yoki, valyuta tizimi – bu, xo'jalik aloqalari baynalminallashuvi asosida tarixan shakllangan valyuta muomalasi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Valyuta tizimini moxiyati, tashkiliy shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda valyuta tizimlarini 3 hil ko'rinishi farqlanadi, ya'ni milliy, jahon va xududiy.

Milliy valyuta tizimi va uni elementlari.

Milliy valyuta tizimini qonuniy asosda belgilangan elementlari quyidagilardan iborat:

1.milliy valyuta va uni nomi;

2.milliy valyuta paritetini aniqlash;
3.milliy valyuta konvertatsiya shart-sharoitlari;
4.milliy valyuta kursi rejimi;
5.halqaro muomala kredit qurollari turlari va ulardan foydalanish tartibi;
6.halqaro zaxira aktivlari komponentlari orasidagi nisbatni aniqlash;
7.mamlakat halqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
8.milliy valyuta va oltin bozori faoliyatini rejimi;
9.valyuta chegaralanishlarni o'rnatilish tartibi;
10.valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni tartibga soluvchi milliy organlar maqomi.

Jahon valyuta tizimi - bu, davlatlararo kelishuvlar bilan mutsaxkamlangan jahon bozori rivojlanishi asosida, halqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Uning asosi bo'lib, shu tizimga kirayotgan xar qanday davlatni milliy valyuta tizimini tashkil etilishini davlat-huquqiy shakli va valyuta mexanizmi hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi, milliy valyuta tizimi singari, o'z ichiga bir nechta elementlarni olgan. Ular milliy valyuta tizimi elementlari bilan yaqindan o'zaro bog'liq bo'lib, quyidagilardan iborat:

1.halqaro hisob-kitob birligining nomi (SDR, EVRO);
2.valyuta paritetlarini soddalashtirilgan (unifikatsiya qilingan) rejimi;
3.valyutalar konvertabelligining shartlari;
4.valyuta kurslari rejimining chegaralanishi (reglamentatsiyasi);
5.halqaro muomala kredit qurollaridan foydalanishni soddalashtirilgan tartibi; 6.halqaro valyuta likvidligi tarkibiy tuzilishini aniqlash;
7.halqaro muomala kanalini ishonch qozongan vositalar bilan etarli miqdorda to'ldirish mexanizmini cheklanishi (reglamentatsiyasi);
8.halqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiyasi);
9.valyuta chegaralanishlarni davlatlar aro tartibga solinishi;
10.jahon valyuta va oltin bozorlari faoliyat rejimlarini belgilash;
11.davlatlar aro valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi organlar maqomi.

Xududiy valyuta tizimi - bu, xududiy birlashma a'zosi bo'lmish davlatlarning dalatlar aro kelishuvlar bilan mutsaxkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Zaxira (rezerv) valyuta - bu, jahon savdosida o'rin egallagan mamlakatlar milliy valyutasi bo'lib, u halqaro to'lov muomalasiga xizmat ko'rsatish uchun va baholar belgilashda, hamda boshqa davlatlar markaziy banklarida valyuta zaxiralari sifatida saqlash maqsadida ishlatiladigan valyutadir.

5.4. Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini o'tkazish tartibi.

Xar qanday tashqi iqtisodiy faoliyatda moliya-valyuta operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan Moliya vaziriligi va Markaziy bank tomonidan mamlakatimizdagi va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarsida chet el valyutasi bilan opreatsiyalarni amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Olish - sotish bitimi hisoblanar ekan, demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari provardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansi – u bir tomonida chetdan barcha tushumlar, ikkinchi tomonida esa, chetga chiqaradigan barcha to'lovlari ko'rsatilgan hujjatdir.

Valyuta operatsiyalarini o'tkazishda banklar turli risklarga duch keladilar. Birinchi navbatda ular alohida valyuta bo'yicha qoplanmagan bitimlar, ya'ni uzun va qisqa pozitsiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Bo'lishi mumkin bo'lgan risklardan chetlanish maqsadida davlat valyuta operatsiyalari ustidan nazorat o'rnatadi va ularni tartibga soladi. Buning zaruriyati valyuta operatsiyalaridan bo'lgan yo'qotishlar tufayli bir necha yirik banklarning bankrotlikka uchrashidan kelib chiqdi.

Valyuta munosabatlarini tartibga solishni har bir mamlakat o'ziga xos yondashuvni qo'llab, uni o'z iqtisodiy manfaatlariga moslashtiradi.

Valyuta- kredit va moliya siyosatlari shaklidagi davlatlararo miqyosda tartibga solish qo'yidagi sabablardan kelib chiqadi:

1.Milliy iqtisodiyotlarning (valyuta-kredit va moliya munosabatlarini hisobga olgan holda) o'zaro bog'liqligining kuchayishi;

2.Xo'jalik munosabatlarining erkinlashuvi sharoitida bozor va davlat tomonidan tartibga solish o'rtasidagi nisbatning bozor foydasiga o'zgarishi; Jahon maydonida kuchlar nisbatining o'zgarishi, AQShning mutlaq rahbarligi, hamkorlik va raqobatchilikning uch markazi (AQSh, g'arbiy Evropa va Yaponiya)ning hukmronligi bilan almashdi. Bundan tashqari, yosh raqobatchilar – yangi sanoat (industrial) davlatlar vujudga keldi.

3.Jahon valyuta – kredit va moliya bozorlarining yirik masshtablari. Bu bozorlar valyuta kurslari va foiz stavkalarining tebranishlari, neftga oid davriy shoklar; birja, Tijorat banklarining kredit-depozit valyuta operatsiyalari – bu erkin pul mablag'larini joylashtirish, shuningdek, turli muddatlarda muayyan foiz asosida xorijiy valyutalarda etishmaydigan mablag'larni jalb qilish bo'yicha qisqa muddatli (1 kundan 1 yilgacha) operatsiyalarning yig'indisidir. Mazkur operatsiyalar banklar va kompaniyalarning qisqa muddali likvidligini ta'minlaydi va daromad olish maqsadiga xizmat qiladi.

Ingliz tilida bunday operatsiyalar bir atama bilan pul bozori operatsiyalari (Money Market Operations, yoki qisqacha MM) deb nomlanadi.

Pul bozori operatsiyalarida quyidagi bitim turlari farqlanadi:

- Mablag'larni joylashtirish bo'yicha – xorijiy valyutada kreditlash. Unga kreditlar mos keladi;
- Mablag'larni jalb qilish bo'yicha – xorijiy valyutada qarz olish. Unga depozitlar to'g'ri keladi.
- Real xalqaro va mahalliy amaliyotda pul bozorining banklararo ssuda operatsiyalarida «depozitlar» atamasi ishlatiladiki, ular quyidagilarga bo'linadi:
- Jalb qilingan depozitlar va
- Joylashtirilgan depozitlar.
- Rossiyada ko'proq «banklararo kreditlar» atamasi ishlatiladi. qisqacha tarzda depozitlar DEPO yoki DP kabi belgilanishi mumkin.

Har bir kredit vaqt bo'yicha muayyan muddat yoki davomiylikka egadir. Kreditni joylashtirish (yoki jalb qilish) sanasi - valyutalash sanasi, qaytarilish sanasi esa kreditning tugashi deb nomlanadi.

Muddatlari bo'yicha depozitlarning 3 ko'rinishi farqlanadi:

Talab qilib olgunga qadar depozitlar – mablag'lar bankka noaniq muddatga joylashtiriladi. Biroq depozitning qaytarilishi (yoki summasining kamaytirilishi) uchun avvaldan (24 soat avval, 2 kun oldin va h.k.) xabar berish lozimligi sharti mavjud. Onkol depozitlar uchun pasaytirilgan suzib yuruvchi foiz stavkasi xususiyatlidir, u muayyan davr asosida (masalan, har hafta) ikki tomonning roziligi bilan o'rnatiladi;

qisqa muddatli bir kunlik depozitlar. Ularga «overnayt» (o/n), «tom-nekst» (t/n), «spot-nekst» (s/n) tipidagi bir kunlik depozitlar kiradi. Mazkur depozit turlaridan banklarning NOSTRO schetlari bo'yicha qisqa muddatli likvidligini tartibga solishda foydalaniladi.

Qat'iy belgilangan muddatlardagi depozitlar. Odatda depozitlar standart muddatlarga 7 kun (1 hafta), 1, 2, 3, 6 oy va 1 yilga joylashtiriladi. Bu muddatlar «to'g'ri sanalar» ("straight dates") nomini olgan. Amaliyotda depozit muddatini spot sanasidan hisoblash qabul qilingan, biroq ba'zida «ertaga» (from tomorrow), yoki hattoki «bugun» (from today) valyutalash sanasi sharti asosida joylashtiriladigan depozitlar ham uchraydi, masalan: ertadan bir haftalik depozit «tom-uik» (t/w).

Valyutalash sanasining tanlanishi quyidagilarga bog'liqdir:

- depozit valyutasi;
- joylashtirish vaqti;

- depozit valyutasi davlati va bank o'rtasidagi soatlar farqi.

Foizlarni hisoblashda yildagi kunlar miqdoriga qarab 2 uslub farqlanadi:

❖ Xalqaro uslub, unda yildagi kunlar miqdori 360 kunga teng deb olinadi;

❖ Britaniyalik uslub, unga ko'ra bir yildagi kunlar soni 365 (kabisa yilida 366) kunga teng.

Mazkur uslubdan quyidagi valyutalar uchun hisob-kitoblarni bajarishda foydalaniladi: funt sterling (GBP), Singapur dollari (SGD), Janubiy Afrika rendi (ZAR) va gohida evro.

Xalqaro amaliyotda foiz stavkasining 2 xil belgilanishi mavjud:

O'nlik kasr soni ko'rinishida: masalan, 5.23% = 0.0523. Bu erda o'n mingdan bir ulush bir foizlik yoki baza punktini tashkil qiladi. Yuz baza punktlari bir foizga teng.

Oddiy kasr ko'rinishida: masalan, 4-3/4%. Oddiy kasr ko'rinishidagi foiz 1/2 dan boshlanadi va kasrning kamayib borishiga qarab 1/64 gacha borishi mumkin. Biroq xalqaro pul bozorlarida foiz stavkalarining 1/2 dan 1/16 ulushigacha bo'lgan kotirovkalari keng tarqalgan.

Odatda depozitlarning foiz stavkasi ikki tomonlama kotirovka ko'rinishida beriladi, masalan:

USD 1 week =	**BID**	**OFFER**
	5,75	**5,93**

Bu erda bid – kotirovkaning chap tomoni – jalb qilish stavkasi. Bid stavkasi bo'yicha kotirovkani amalga oshiruvchi bank mazkur davrda depozitga mablag'larni jalb qiladi; offer (yoki ask) – kotirovkaning o'ng tomoni – joylashtirish stavkasi. Offer stavkasi bo'yicha kotirovkani amalga oshiruvchi bank mazkur davr uchun pul mablag'larini joylashtirishni taklif qiladi.

Ikkala usul ham bir xil ahamiyatga ega va butun dunyodagi valyuta dilerlari tomonidan foydalaniladi.

Konversion operatsiyalar – bu valyuta bozori agentlarining bir mamlakat valyuta birligining boshqa mamlakat valyutasiga kelishilgan kurs asosida o'zaro kelishilgan summalarga muayyan muddatlarga hisoblangan holda ayirboshlashdan iborat bitimlaridir.

Yuridik jihatdan konversion operatsiyalar valyutalar oldi-sotdisi bitimlari hisoblanadi.

Ingliz tilida konversion operatsiyalarga nisbatan Foreign Exchange Operations (qisqacha forex yoki FX) atamasi qabul qilingan.

Konversion operatsiyalar muddatlariga qarab 2 guruhga ajratiladi:

♦ Spot turidagi operatsiyalar, yoki joriy konversion operatsiyalar;

♦ Forvard yoki muddatli konversion operatsiyalar.

Ikki guruh konversion operatsiyalar o'rtasidagi farq valyutalash sanasida mujassamlashgan. Xalqaro amaliyotda qabul qilinishi bo'yicha, joriy konversion operatsiyalar spot shartlari asosida, ya'ni bitim tuzilgan kundan keyingi 2-ish kuniga valyutalash sanasi bilan amalga oshiriladi. Joriy konversion operatsiyalar xalqaro bozori spot-bozor deb yuritiladi.

Bitim kontragentlari uchun spot hisob-kitoblari shartlari juda qulaydir: joriy va keyingi kun davomida zarur hujjatlarni ko'rib chiqish, bitim shartlarini bajarish uchun kerak bo'lgan to'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirib olish mumkin.

Joriy konversion operatsiyalari uchun spot almashuv kursi qo'llaniladi. Spot kursi joriy valyuta kursi hisoblanadi va u doimo gazetalar sahifalarida, axborot agentliklari ekranlarida e'lon qilib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursining o'zgarashi natijasida yuzaga keladigan valyuta riskini tartibga solish maqsadida vakolatli banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyalarining limitlarini belgilaydi.[49] Jumladan, har qanday xorijiy valyutaning bir turi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har bir operatsion kun yakunida vakolatli bank regulyativ kapitalining 10%idan ortmasligi kerak. Har bir operatsion kun yakunida ochiq valyuta pozitsiyalarining umumiy qiymati bank regulyativ kapitalining 20% idan oshib ketmasligi lozim.

[49]"Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalari" – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2005 yil 28 mayda tasdiqlangan.

5.5.Xedjerlash va uning valyuta munosabatlarini tashkil qilishdagi roli.

70-yillarning boshidan barcha davlatlarning erkin suzadigan kurslar rejimiga o'tishi, tashqi iqtisodiy munosabatlar soxasida sezilarli salbiy oqibatlarga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, jaxon bozorida valyuta kurslarlarining erkin suzishi sharoitida iqtisodiy muvozanatsizlik kuchaydi.

Valyuta tavakkalchiligi deganda, keng ma'noda, valyuta kurslarining tebranishi oqibatida tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijalarini va tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lmish xo'jaliklar faoliyatlari natijasining o'zgarish extimoli tushuniladi. Valyuta tavakkalchiligi ta'siri ostiga tashqi iqtisodiy munosabatlarning barcha sub'ektlari tushadi: davlat, banklar, savdo va sanoat kompaniyalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi xalqaro mexnat taqsimotiga salbiy ta'sir etadi, tovarlar va xizmatlar ekvivalent almashuvini qiyinlashtiradi, xalqaro savdo balansiga va xajmiga salbiy ta'sir etadi.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi importyor va eksportyorlarni o'zlarining xorijdan sotib olish va xorijga sotish operatsiyalarini qisqartirishga majbur qiladi. Chunki, importyor va eksportyorlar valyutalarning yaqin vaqt ichidagi dinamikasini oldindan bila olmaydilar. Shuning uchun, masalan, importyor ma'lum bir tovarni o'zini valyuta xavf-xatariga qo'yib, chet davlatdan sotib olganidan ko'ra, o'z mamlakatida shunday ishlab chiqarilayotgan tovarni sotib olmog'i afzalroqdir.

To'lovi kelgusida amalga oshishi ko'zda tutilgan, shartnoma tuzilish paytida ma'lum bir summada qayd etilgan xar qanday kredit operatsiyasi, shartnoma valyutasi ishtirokchi uchun xorijiy bo'lgan tarafning valyuta xavf-xatariga chalinadi Kreditor, o'zining xorijlik kontragentlariga kreditni bergan xolda, qiymatni ekvivalent miqdorda ololmaslik xavf-xatariga uchraydi. qarz oluvchi xam, agarda to'lov paytida qarz valyutasining kursi shartnoma tuzilgan sanaga nisbatan ko'tarilsa, zarar ko'rishi mumkin.

Eksportyor va importyorlar, valyuta tavakkalchiligi bilan, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirganda to'qnashadilar. Eksportyor, agarda u tovarlarni to'lovi kechiktirilgan xolda sotgan bo'lsa, va baxo valyutasi sifatida importyor valyutasi yoki uchinchi davlat valyutasi olingan bo'lsa, valyuta riskiga duchor bo'ladi. Agarda, baxo valyutasining kursi eksportyor milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, unda eksportyor zarar ko'rishi mumkin.

Shunday qilib eksportyor uchun valyuta xavf-xatari bo'lib, shartnomaning tuzilishidan to ijro etilgunga qadar davr ichida, baxo valyutasi kursining milliy valyutaga nisbatan pasayishi xisoblanadi. Demak valyuta tavakkalchiligi barcha tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq shartnomalarga ta'sir etadi.

Importyor uchun valyuta tavakkalchiliklari quyidagi xolatlarda vujudga keladi: agarda, tovarlar, baxosi chet el valyutasida qat'iy belgilanib sotib olinayotgan bo'lsa. Bunda, agar chet el valyutasining kursi importyor valyutasiga nisbatan ko'tarilsa, unda importyor tomonidan sotib olingan tovarlar uchun xaq to'lashda, milliy valyutada ko'proq xarajat qilinishiga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, xech bir savdo shartnomai bir kun ichida amalga oshib, u bo'yicha to'lov xam bir kun ichida amalga oshmaydi. Shunga ko'ra, albatta, valyuta tavakkalchiligi shartnoma muddatiga to'g'ri proportsional ravishda ortib boradi.

Valyuta arbitraji – bu, foyda olish maqsadida valyutalarning oldi-sottisi bilan bog'liq operatsiyalardir. Arbitraj 2 shaklda bo'ladi: a) valyuta arbitraji va b) foiz arbitraji.

Valyuta arbitraji (frantsuzcha "arbitrage") – bu, valyutaning, uning bir vaqtning o'zida sotilishini xisobga olgan xolda, valyuta kurslari farqlari sifatida foyda olish maqsadida, sotib olinishi.

Oddiy valyuta arbitraji - bu, bir xorijiy valyuta va o'zbek so'mi bilan yoki ikki xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Murakkab valyuta arbitraji – bu, ko'p turdagi valyutalar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Muvaqqat valyuta arbitraji – bu, ma'lum bir vaqt davomida valyuta kurslarining farqi sifatida foyda olishga karatilgan operatsiyadir. U o'z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:

-valyutaning birinchi spot kursi asosida sotib olinishi;
-depozitning ochilishi;
-valyutaning depozitda saqlanishi;
-valyutaning depozitdan olinishi;
-valyutaning ikkinchi spot kurs asosida sotilishi.

Dilerlar bir oz boshqacha turdagi valyuta arbitrajini amalga oshirishlari xam mumkin. Ular birjada valyutani sotib olib, xorijiy bankka o'tkazadilar, xorijda bu valyutani naqd shakliga o'tkazib, qaytib o'z mamlakatiga olib kiradilar. O'z mamlakatida bu valyutani ular ulgurji yoki chakana sotib oluvchilarga, ustiga qo'shimcha xaq qo'ygan xolda, erkin bozor (ko'cha) baxosida sotishlari mumkin.

Arbitraj ko'p xollarda, spred shartnomalarining yakuni sifatida maydonga chiqadi. Spred shartnomasi, xamma vaqt, bir vaqtning o'zida, bir valyutaning sotib olinishi va boshqa bir valyutaning sotilishini ko'zda tutadi. Bunday valyutalar kurslari albatta, birgalikda, ammo turli sur'atlarda, ko'tariladi yoki pasayadi. Bunda, diler bir operatsiyada pul yo'qotishini va boshqa bir operatsiyada foyda olishini xisobga oladi.

Fazoviy valyuta arbitraji – bu, turli valyuta bozorlarida (turli birjalarda), mazkur valyuta kursi farqlari xisobiga foyda olish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyadir. Boshqacha qilib aytganda, bir vaqtning o'zida, bir birjada valyuta sotib olinadi va boshqa birjada shu valyuta, nisbatan yuqori kursda sotiladi.

Fazoviy valyuta arbitraji o'z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:
1. Birinchi spot kursi asosida valyutani sotib olish.
2. Sotib olingan valyutaning boshqa joyga o'tkazilishi.
3. Valyutaning ikkinchi spot kursi asosida sotilishi.
4. Valyutaning sotilishidan olingan pulni boshqa joyga o'tkazish.

Foiz arbitraji - bu, turli valyutalar bo'yicha foizlar farqi sifatida foyda olish maqsadida, xo'jalik sub'ektlarining (arbitrajyorlarning) o'z qisqa muddatli aktivlari va passivlari valyuta tarkibini tartibga solishga qaratilgan valyuta (konversion) va depozit operatsiyalarini o'zida mujassam etgan shartnomadir. Foiz arbitraji, bu, pul bozorida bir vaqtning o'zida pullarning ma'lum bir foizga olinishi va nisbatan yuqori foizga kreditga berilishi shaklida keng qo'llaniladi. Foiz arbitraji ikki shaklda ishlatiladi: a)forvardli qoplanish bilan va b)forvardli qoplanishsiz.

Forvardli qoplanish bilan foiz arbitraji – valyutaning spot kursi asosida sotib olinishi, muddatli depozitga joylashtirilishi va shu vaqtning o'zida forvard kursi bo'yicha sotib yuborilishi. Foiz arbitrajining bu shakli valyuta xavf-xatarlaridan xoli. Bu operatsiya bo'yicha foyda manbai, forvard marjasi xajmi bilan belgilanadigan, valyutalar bo'yicha foizlar farqi sifatida va valyuta risklarini sug'urta qilish qiymati xisobiga olinayotgan daromadlar darajalarining farqi xisoblanadi.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari sharoitida valyuta kurslarining tebranishi, odatda turli valyutalar foiz stavkalari orasidagi farqlardan oshib ketadi. Bu esa, forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajini o'tkazayotgan arbitrajyorlarga nafaqat foiz stavkalarining miqdoriga qarashga, balki valyuta kurslarining kutilayotgan o'zgarishiga qarashga majbur etadi. Bunda, valyuta kurslarining keskin ko'tarilishi, shartnomani forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajiga aylantiradi.

Valyuta chayqovi, lotincha "speculatio" – sinchiklab qidirish, kuzatish ma'nosini beradi. Valyuta chayqovi - bu, vaqt davomida valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yoki valyuta risklarini bilib, o'ziga qabul qilgan xolda turli bozorlarda foyda olish maqsadida o'tkaziladigan operatsiyadir.

Valyuta chayqoviga, birinchi navbatda, naqdli va naqdsiz valyutalar kurslarining farqiga qilinayotgan o'yin kiradi. Bunda, so'mlarga naqdsiz erkin muomalada yuradigan valyuta sotib olinadi va u naqdli shaklga o'tkazilib, so'ng so'mlarga sotiladi.

5.6.Tijorat banklari tomonidan mijozlarni chet el valyutasida kreditlash tartibi.

Takror ishlab chiqarishni kengaytirish ist'emolini ta'minlash uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash. Ssuda kapitallari halqaro kredit mexanizmi orqali foydasi ko'proq, daromadlirok bo'lgan tarmoqlarga intiladilar.

Horijiy kredit operatsiyalarining to'g'ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog'liq xatarlar, ssudalar, muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, zahira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi.

Demak, horijiy kredit operatsiyalari - bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning horijiy kredit operatsiyalari va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki, horijiy kredit operatsiyalarining to'g'ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari horijiy kredit operatsiyalarini boshqarishning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;
- horijiy kredit operatsiyalarini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;
- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiralarni etarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidliligini va daromadliligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni horijiy kredit operatsiyalarining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Bank horijiy kredit operatsiyalari monitoringi - bu kredit resurslarini ratsional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlashga yo'naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Bank horijiy kredit operatsiyalari monitoringi jarayoni to'rt bosqichdan iborat:

- kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligi va to'g'riligini nazorat etish;
- berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash va nazorat etish;
- qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;
- kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda to'liq undirib olishni ta'minlash, o'z vaqtida undirilmagan taqdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Qarz oluvchilarning moliyaviy ko'rsatkichlari, ta'minlanganlik qiymati barcha kredit hujjatlarining tahlilidan kelib chiqqan holda, kreditlar quyidagi tavakkalchilik guruhlariga kiritiladi:

- tavakkalchilik darajasi kam bo'lgan kreditlar (tasniflanmaydigan kreditlar);
- tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan kreditlar;
- tavakkalchilik darajasi chegaralangan kreditlar;
- qoidalardan istisno tariqasida beriladigan kreditlar.

Bank doimiy ravishda xizmat ko'rsatayotgan mijozlarining faoliyatiga doir axborotlarga ega bo'lib, ularning kreditga layoqatliligi, to'lov intizomiga amal qilishlari holatini tahlil etib borib "ma'lumotlar banki" bazasini vujudga keltirib boradi.

Bankning kreditlash jarayonidagi nazorat va tahliliy ishlari quyidagilarga qaratiladi:

- kredit shartnomasidagi shartlarning bajarilishi;
- kredit oluvchining kreditdan samarali foydalanishini ta'minlash;

- kreditni o’z vaqtida va to’liq qaytarilishi.

Bank horijiy kredit operatsiyalarini tahlil etishning asosiy bosqichlari quyidagi jadvalda ko’rsatib o’tilgan.

2-jadval

Bank horijiy kredit operatsiyalarini tahlil etishning asosiy bosqichlari[50]

№	*Tahlil etish bo’limlari*	*Ma’lumotlar*
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o’tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro’yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo’yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo’yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo’jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikrokreditlar, iste’mol krediti
4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Kayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta’minot turi bo’yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubxali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o’z mablag’lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag’lari, filiallararo va transh mablag’lari xisobidan berilgan kreditlar
8	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti Aylanma mablag’larni to’ldirish uchun beriladigan kreditlar
9	Tahlil jarayonidagi kreditlar o’zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o’sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zahiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, horijiy kredit operatsiyalari monitoringi mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar buyicha taqsimlanishi, ta’minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko’rsatkichlar bo’yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi, o’z navbatida horijiy kredit operatsiyalari sifatiga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Horijiy kredit operatsiyalarini boshqarish bank tomonidan horijiy kredit operatsiyalari tarkibi va uning sifat tarkibi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi.

Halqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi xarakati bo’lib, bu xarakat tovar va valyuta ko’rinishidagi mablag’larni uch shart asosida, ya’ni:

- qaytarib berishlilik;
- muddatlilik;
- % (foiz) to’lashlilik - asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Halqaro kredit munosabatlarining sub’ektlari sifatida tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va halqaro moliya-kredit tashkilotlari katnashadi.

Halqaro kredit funktsiyalari. Halqaro kredit halqaro iqtisodiy aloqalarda ssuda kapitallari xarakatini o’ziga xos xususiyatini namoyon etib, quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

Halqaro kredit shakllarini bir necha turga bo’lib guruhlash mumkin.

[50] Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

Manbalari bo'yicha tashki savdoni ichki, tashki (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish bo'yicha farqlanadi.

Vazifalari bo'yicha zayom mablag'lari hisobidan qanday tashki iqtisodiy bitimni ta'minlanishi bo'yicha farqlanadi:

- tijorat krediti (asosan tashki savdo va xizmatlar bilan bogliq kreditlar);
- moliyaviy kredit (yuqoridagilardan boshqa maqsadlarga ishlatiladigan, shu jumladan, kapital quyilmalar, investitsion ob'ektlar ko'rish, qimmatbaho qogozlar sotib olish, tashki qarzni o'zish, valyutaviy interventsiyaga bogliq kreditlar);
- «oralik» krediti (kapitalni olib kelishni aralash shakliga xizmat qilishga belgilangan tovar va xizmatlar, masalan, pudrat ishlarini bajarish ko'rinishida).

Halqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga bo'lib ko'rsatish mumkin:

Halqaro bank krediti;

Halqaro tijorat krediti.

Halqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko'rinishida bo'ladi.

Halqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko'rinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chiqadigan bir qancha kreditlar mavjud:

Firmaning (tijorat) krediti - odatda eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashki savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bogliq hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha bo'ladi va jahon bozori kon'yunkturasi shartlariga, tovarlar turlariga va boshqa bir qator faktorlarga bogliqdir. Mashina va asbob-uskunalar (texnologiya, mijozlar)ning eksportini kengayishi halqaro kredit muddatini o'zayishiga olib keldi. Tijorat krediti odatda Vekselg' yoki ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar orqali rasmiylashtiriladi.

Vekselli kreditda eksportyor tovarni sotish haqida bitim to'zib, o'tkazma Veksel (tratta)ni importyorga junatadi, importyor tijorat xujjatlarini olib aktseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksportyor va importyor o'rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Ochik schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat kreditining yana bir turiga importyorning avans to'lovi (sotib oluvchining avansi)ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma to'zilayotgan paytda importyor tomonidan chet ellik mol etkazib beruvchiga odatda mashina, asbob-uskunalar (texnologiya)ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to'lanadi.

Xarid avansi (poko'patelg'skiy avans) eksportni kreditlashning bir formasi bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shugullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ularok, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik maxsulotlarini olib chikib ketishda foydalanmokdalar.

Avans to'lagan tomonning aybi bilan shartnoma bajarilmay kolsa, sarf-xarajatlar undirilgan holda mablag' qaytariladi.

Avans - shartnomani bajarilishini voz kechish mumkin bo'lgan bitimga nisbatan ragbatlantiradi. Voz kechish mumkin bo'lgan bitimda esa, zarar ko'rgan tomonning xarajatlarini to'lash majburiyatlaridan ikkinchi tomon ozod bo'ladi. Ba'zan xarid - sotib oluvchining avansi (PA) to'lovni kechiktirishga o'zaro moslashadi, buning ustiga teng ulushlar bilan ma'lum intervallarga bo'linadi (oy, kvartal, 1 yil).

Tijorat krediti xajm va moliyalashtirish shartlari bo'yicha mashina va asbob-uskunalarni eksportini kreditlash muammosini to'liq echa olmaganligi sababli, bank kreditlarining roli oshadi.

Bank krediti - eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar xujjatlari, Veksellarni, hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Eksport krediti - eksportyor bankining importyor bankiga etkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul ko'rinishida beriladi va «bogliq»lik xarakteriga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi.

Yuqoridagi bayon qilingan barcha vazifalar hozirgi kunda respublikamizda mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, vazifalar bo'lib hisoblanadi.

5.7. Xalqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.

Halqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida iqtisodiy moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul majburiyatlari va talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishi tushuniladi.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun banklar o'zlarining xorijdagi bo'limlari va xorijiy banklardagi korrespondentlik aloqalaridan foydalanishadi. Buning uchun «loro» schyoti (bankdagi xorijiy bankning scheti) va «notsra» (bankning xorijiy banklardagi scheti) schetlari ochiladi. Halqaro hisob-kitoblarning xolati qo'ymdagi bir qator omillarga bog'lik:

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar

Mamlakatdagi valyuta qonunchiligi

Halqaro savdo qoidalari

Banklar amaliyoti

Tashki savdo kontraktlari va kredit kelishuvidagi shartlar

Xukumatlararo kelishuvlarda hisob-kitoblarning umumiy tartib – qoidalari belgilansa, tashki savdo bitimlarida shartlar aniq ko'rsatiladi. Ularga asosan quyidagilar kiradi:

- narx qaysi valyutada belgilanishi;
- narx qaysi valyutada amalga oshirilishi;
- to'lov shartlari;
- to'lov vositalari;
- hisob-kitob shakli;
- qaysi banklar hisob-kitobni amalga oshirishi

Narx valyutasi va to'lov valyutasi bitimning valyuta tushumi jixatdan samaradorligini belgilaydi.

Eksport – import bitimlarining narxi tovarni etkazib beruvchidan xaridorgacha xarajatlarni o'zgarishi tufayli dinamik o'zgarib boradi.

Tovar narxini belgilashning valyuta usuli mavjud:

Bitimni amal qilishi va ijro etilishi davomida o'zgarmaydigan katoiy ijro. Bu usul dunyo bozorlarida narx pasayishi yuz berayotgan sharoitlarda ko'llaniladi.

Aralash shaklda narx belgilash. Narxning bir qismi katoiy belgilansa, boshqa qismi sirpanuvchi usulda aniqlanadi.

Narx vositasi deganda bitim oboekti bo'lgan tovar narxining qaysi valyutada belgilanishi tushuniladi.

To'lov valyutasi import qiluvchi yoki qarzdor o'z majburiyatlarini qaysi valyutada qoplashni ifoda etadi.

To'lov shartlari. Tashki iqtisodiy aloqalarda tuziladigan bitimlarning muxim elementlaridan bo'lgan to'lov shartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- naqd pul asosida to'lov
- kredit berish asosida to'lov
- naqd pul bilan to'lashni 'am mumkin bo'lgan optsionli kredit asosida to'lov.

Halqaro xisoblashuvlarda to'lovni naqd pulda o'tkazish deganda to'lovni tovarlarni sotib oluvchi etkazib berilgandan (jo'natgandan) so'ng yoki bitimga muvofiq tovarlar junatilganini (olinganini) tasdiklovchi xujjatlar ko'lga tegishi bilan amalga oshirish tushuniladi.

Hisob-kitoblar turli vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin: Veksellar, to'lov topshirig'i, bank o'tkazmasi (pochta va telegraf orqali), cheklar, plastik akrtochkalar.

Halqaro hisob-kitobning asosiy shakllari qo'ymdagilardan iborat:

- xujjtli akkreditiv
- inkassa
- bank o'tkazmasi
- ochik schet
- bo'nak
- Veksel
- chek

Halqaro hisoblashuvlarning alohida xususiyatlari.

Import qiluvchi va eksport qiluvchilar, ularning banklari tashki savdo bitimi bilan bog'lik munosabatlarni urnatadilar. Bu munosabatlar asosida tovarning va to'lov xujjatlarini rasmiylashtirish, o'zatish, qayta ishlash, 'amda to'lovni amalga oshirish yotadi.

Halqaro hisob-kitob milliy meoyoriy huquqiy xujjatlar, bundan tashqari halqaro bank tartib qoidalari bilan tartibga solinadi.

Halqaro hisob-kitoblar – unifikatsiyalash oboekti bo'lib, bunga xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi, bank operatsiyalarining universallashuvi jiddiy taosir ko'rsatadi.

Halqaro hisob-kitoblar qoidaga ko'ra xujjatli xususiyatga ega, yaoni ular moliya va tijorat xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy xujjatlarga oddiy va o'tkazma Veksel, cheklar, to'lov tilxatlari kiradi. Tijorat xujjatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) schet faktura; b) tovarni yuklanganligi yoki jo'natilganligini tasdiklovchi xujjatlar (konosementlar, temir yo'l, avtomobil va xavo transporti, yuk xati, pochta kvitantsiyasi, aralash tashishning transport xujjatlari); v) sug'urta xujjatlari; g) boshqa xujjatlar – tovarni ishlab chikishini tasdiklovchi sertifikatlar, sifat sertifikatlari, chegaradan o'tganlik xujjatlari, bojxona xujjatlari va boshqallar.

Halqaro hisob-kitoblar turli valyutalarda o'tkaziladi. Shuning uchun ular valyuta operatsiyalariga chambarchas bog'lik.

Mazko'r hisoblashuvlarda kafolatlashning umumiy qoidalariga rioya etiladi. Unga muvofiq kafolat matnida quyidagilar bo'lishi lozim:

- kafolat beruvchiga xak to'lanmagan bo'lsa kafolat summasi undirilmaydi;
- bitimning tavsifi;
- pretenziya qilish uchun zarur bo'lgan xujjatlar;
- kafolat muddati tugaydigan sana va kafolat bergan bankka benifetsiar tomonidan xujjatlarni taqdim etish sanasi;
- kafodat muddati tugagandan so'ng qaytarilishi lozim.

Halqaro hisob-kitob shakllariga taosir etuvchi omillar:

- tashki savdo oboekti hisoblangan tovar turi
- kredit kelishuvining mavjudligi
- tashki iqtisodiy aloqalar bo'yicha kontragentlarning to'lov qobiliyati va obro'-e'tibori
- dunyo bozorida mazko'r tovarga bo'lgan talab va taklif.

Bitimda halqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari va shakllari asosida ko'rsatilishi lozim.

Halqaro savdo palatasi (Parij)1993 yil yangi taxrirdagi «xujjatli akkreditivlar uchun unifikatsiyalashgan qoidalari» asosida amalga oshiriladi. Shu qoidalarga muvofiq akkreditiv bu bank mijozning topshirig'iga muvofiq uchinchi shaxsga (akkreditiv ochilgan shaxs – benefitsiarga) taqdim etilgan xujjatlarni to'lash yoki benefitsiar tomonidan berilgan trattani aktseptlash (to'lash) yoki xujjatlarni negatsiatsiyalash (sotib olish) to'g'risidagi kelishuvdir. Bank bu hisoblashuvda mutsaqil tomon bo'lib, u tijorat bitimi yuzasidan tomonlarning huquqiy munosabatlariga aralashmaydi.

Xujjatli akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda:


- bankka akkreditiv ochish to'g'risida murojaat kilgan import qiluvchi (buyruk beruvchi)
- akkreditiv ochuvchi bank – emitent

➢eksport qiluvchiga uni nomiga akkreditiv ochilganini ogoxlantiruvchi unga akkreditiv matnini etkazib beruvchi bank

➢nomiga akkreditiv ochilgan eksport qiluvchi benefitsiar

2-chizma

Xujjatli akkreditiv bo'yicha hisob-kitob chizmasi.



1. Akkredetiv ochish bo'yicha ariza berish
2. Akkredetiv ochish va ariza beruvchi bank orqali benefitsiarga akkredetiv matnini jo'natish.
3. Benefitsiarga akkredetiv ochish to'g'risida xabar berish
4. Tovarni eksportga jo'natish
5. Benefitsiar tomonidan to'lov uchun xujjatlar to'plashni rasmiylashtirish va bankka jo'natish
6. Avizo qiluvchi bank tomonidan xujjatlarni bank emitentga jo'natish.
7. Bank emitent tomonidan olingan xujjatlarni tekshirish va to'lash.
8. Bank emitent tomonidan to'langan xujjatlarni import qiluvchiga etkazib berish.
9. Avizo qiluvchi bank tomonidan eksport tushumini benefitsiarlar hisobiga o'tkazish.

Ochik schyot bo'yicha hisob-kitoblarda import qiluvchi olingan tovar uchun to'lovni vaqti-vaqti bilan to'lab boradi. Uning joriy qarzlari summasi savdoda ishtirok etayotgan tomonlarning kitoblarida kaed etib boradi. Halqaro hisob-kitoblarning bu shakli ochik schet bo'yicha kreditlash bilan bog'lik. Ushbu hisob-kitob shaklidan qo'yidagilar ko'proq foydalanadilar:

Xujjatli inkassa shaklida xujjatlar aylanishi va to'lovi quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Eksport qiluvchi tavar sotish yuzasidan import qiluvchi bilan xujjatli inkassa hisob-kitob shaklida hisoblashish nazarda tutilgan bitim to'zadi va to'lovlarni unga jo'natadi.
2. Eksport qiluvchi o'z bankiga inkassa topshirig'i va tijorat xujjatlarini jo'natadi.
3. Eksport qiluvchi bank inkassa topshirig'i va tijorat xkjjatlarini vakil bankka yoki import qiluvchi bankka etkazib beradi.
4. Vakil bank bu xujjatlarni import qiluvchiga beradi.
5. Import qiluvchi o'z bankiga xujjatalar bo'yicha to'lovni amalga oshirishni topshiradi.
6. Inkassa qiluvchi bank remitent bankka to'lov bo'yicha pul o'tkazadi.
7. Remitent bank o'tkazilgan pulni eksport qiluvchi 'isobiga yozadi.

Inkassa asosida hisoblashuvlarning oddiy va xujjatli shakllari mavjud. Oddiy inkassada to'lov moliyaviy xujjatlar asosida undirilsa. Xujjatli inkassada moliyaviy xujjatlar tijorat xujjatlari bilan birgalinda yoki faqat tijorat xujjatlari asosida o'tkaziladi. Bugda banklar o'z zimmasiga xujjatlar bo'yicha to'lovni o'tkazish majburiyatini oladi.

Nazorat uchun savollar

1. Valyuta munosabatlari va ularning huquqiy asoslari
2. Valyuta operatsiyalari va ularni boshqarish tartibi
3. Halqaro moliya va kapital bozori vaularni taxlili
4. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning urni.
5. Xalkaro valyuta konunchiligi.
6. O’zbekiston Respublikasida valyuta tizimini rivojlanishi
7. Chet el valyutasida kreditlash.
8. Xalkaro xisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning valyuta
10. Banklarning valyuta operatsiyalaridagi valyuta risklari va ularni boshqarish.

6-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARI

Reja

6.1 O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori.

6.2 Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.

6.3 Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha tijorat va investitsion operatsiyalari.

6.4 Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi.

6.5 Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi

Tayanch iboralar

Investitsiya, qimmatbaho qog'oz, aktsiya, obligatsiya, sertifikat, moliya bozori, moliya tizimi, lombard, garov, vosita, trast, portfel, mulk huquqi, ishonch operatsiyalari.

.

6.1. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori.

Moliyaviy munosobatlar ustun keladigan bozorlar moliya bozorlari deb xisoblanadi va uning tarkibiga kuyidagi bozorlar kiradi:

- xalqaro kreditlar bozori;
- valyuta bozori;
- qimmatli qog'ozlar bozori;
- sug'urta va pensiya fondlari bozori;
- hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori.

Qimmatli qog'ozlar bozori yoki fond bozori deganda, fond instrumentlari bilan savdo xususida, o'z egalarining yuqorida zikr etilgan bozorlar moliyaviy tovarlarining muayyan bir turiga bo'lgan mulkiy extiyojlarini qondiruvchi pul bozori va kapitallar bozori yig'indisi tushuniladi. "So'nggi yillarda tijorat banklari o'zlarining faoliyat ko'lamini qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bilan ham kengaytirib kelmoqdalar",-deb xorijiy iqtisodiy manbalardan birida keltirib o'tilgan.[51]

Fond instrumentlari (qimmatli qog'ozlar)ning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

-aktsiyalar (oddiy va imtyozli, nomli va nomsiz aktsiyalar);

-aktsiyalar hosilalari (surogatlari), bularga depozitar tilxatlar kiradi: ADR, JDR, varrantlar, optsion va fyucherslar, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar;

-obligatsiyalar, davlat va korxona obligatsiyalari;

-depozit va jamg'arma sertifikatlari;

-veksellar va cheklar.

Fond bozori davlat qimmatli qog'ozlar bozori va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorlariga bo'linadi.

Birinchi birja maydonchalari XII-XV asrlarda o'sha zamonning Venetsiya, Genuya, Florentsiya, Shampan, Bryugge, London va boshqa shu kabi asosiy savdo shaxarlarida dastavval veksel yarmarkalari sifatida paydo bo'lgan. Birja ("Borsa") nomi gerbida uch charm qop (ter buerse) aks ettirilgan va uyi Bryugge shaxrining veksel savdolari amalga oshgan shox maydonida joylashgan qadimgi savdogar oilasining nomi Van der Burse dan kelib chiqqan.

XVI asrda dastlabki ikki fond birjasi Antverpen va Lion shaxarlarida tashkil topgan va tugatilgan. Bu erda savdolar nafaqat veksellar bilan, balki davlat zayomlari bilan ham o'tkazilgan hamda rasmiy birja kurslari belgilangan. XVII asrda dunyoda eng qadimgi bo'lgan Amsterdam fond birjasi tashkil etiladi. Savdolarda dastlab aktsiyalar paydo bo'ladi.

XVII asrning oxirida London fond birjasi (LSE) tashkil etiladi, hozirgi kunda u moliyaviy instrumentlar savdolari hajmi bo'yicha jahonda ikkinchi birja bo'lib hisoblanadi. LSEda qimmatli qog'ozlar bilan savdo qiluvchilarga nisbatan "ho'kiz" va "ayiq" so'zlari birinchi bor qo'llanila

[51] "Securities activities of Commercial Banks; Recent changes in the economic and legal environments" by George G., "Journal of Financial Services Research".

boshlagan. Ushbu so’zlarni qimmatli qog’ozlar bilan savdo qiluvchilarga nisbatan ishlatilishi mazkur xayvonlarning ov qilishdagi xatti-harakatlaridan kelib chiqqan.

Birjalar ichida birinchi o’rinda 1792 yil 17 mayda tashkil etilgan Nyu-York fond birjasi (NYSE) turadi. Hozirgi kunda NYSEida umumiy qiymati 6 trln. AQSh dollari (ularning egalari 50 mln. odamdan ziyod) bo’lgan 3000ta kompaniyaning aktsiyalari savdo qilinadi. Jahonda ikkinchi o’rinda Tokio, to’rtinchi o’rinda – Frankfurt Maynadagi fond birjasi turadi.

Qimmatli qog’ozlarning Evropadagi birjadan tashqari bozori o’z tarixini dastlab XVI asrning 60-yillarida birinchi aktsiyadorlik jamiyatlari paydo bo’lishidan, ya’ni 1568 yilda ro’yxatga olingan birinchi shartnomadan boshlagan. XVII asrning 90-yillarida esa mazkur bozor nafaqat aktsiyalar bilan, balki fyucherslar va optsionlar kabi qimmatli qog’ozlarning hosilalari bilan ham savdo qila boshladi. Ayni paytda ushbu bozorda 100dan ortiq aktsiyadorlik jamiyatlarning qimmatli qog’ozlari va davlat majburiyatlari muomalada bo’lgan. Qimmatli qog’ozlar bo’yicha broker – mutaxassisligi paydo bo’ldi. Birja savdolarining hajmi hozirgi kunda birjadan tashqari bozor aylanmasidan turli mamlakatlarda 3 barobardan 30 barobargacha ko’pdir (pasayish tendentsiyasiga ega bo’lgan holda). Yangi axborot texnologiyalari, INTERNETni paydo bo’lishi va rivojlanishi birjadan tashqari fond bozorlari rolini kuchayishida yangi rag’batlantiruvchi omil bo’ladi. Etakchi va eng rivojlangan birjadan tashqari tizim bo’lib NASDAQ – Investitsiya dilerlari milliy assotsiatsiyasining avtomatik kotirovka tizimi (AQSh) hisoblanadi.

Valyuta savdosi deganda valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan bozor kursi yoki foiz stavkasi asosida amalga oshiriladigan xorijiy valyutalardagi ayirboshlash (konversion) va depozit-kredit operatsiyalarning yig’indisi tushuniladi.

Agarda Germaniyada joylashgan bank AQSh da joylashgan bankdan AQSh dollarlarida kredit olsa, unda u xalqaro valyuta bozorida savdo qiladi. Aksincha, agarda xuddi shu bank Londonda yoki Shveytsariyada joylashgan bankdan AQSh dallarlarida kredit olsa, undu u savdoni evrovalyutalar bozorida amalga oshiradi.

Evrovalyuta tushunchasi mavjud – evrodollar, evrorubl, evroyena. Bularning barchasi AQSh, Rossiya va Yaponiya hududlarida (ya’ni, ushbu valyutalar vatanida emas) mavjud bo’lmagan, balki banklar ssuda hisobvaraqlaridagi valyutalardir.

Shunday qilib, bevosita valyuta bozori xaqida gap ketganda biz milliy valyutalar bozorlari (forex) singari evrovalyutalar bozori (deposits/ loans)ni ham ko’zda tutamiz.

Moliyaviy bozorlarda savdo ob’ektlari bo’lib tovar-xom ashyo resurslarining prognoz qilinadigan baholari ham hisoblanadi. Yaponiya davlatida bundan 300 yildan ziyodroq vaqt oldin “gurunchning bo’sh savatlari”, ya’ni kelgusi xosil ustidan fyucherslar (forvardlar) bilan savdo qilishgan. Zamonaviy sharoitda mazkur savdolarning eng faol ob’ektlari bo’lib neft, paxta, kofe, g’alla, oltin, rangli metallar va boshqa shu kabilarga prognoz qilinadigan baholar hisoblanadi.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valyutalar (qimmatli qog’ozlar) kurslarining farqi, tovar-xom ashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmatli qog’ozlar kotirovkalari indekslarining o’zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko’rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o’tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro’y beradi.


Umuman olganda, globallashuv jarayonlari jahon xo’jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Xalqaro moliyaviy markazlar deganda xalqaro valyuta, kredit, moliyaviy operatsiyalar hamda qimmatli qog’ozlar va oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlarining to’plangan joyi tushuniladi. Dastlab ular sanoat jixatidan rivojlangan mamlakatlar (AQSh, G’arbiy Evropa)da barpo etilgan. Keyinchalik esa ma’lum omillarning ta’siri ostida ularning joylashishi kengayib bormoqda. Agarda Tokio Yaponiyaning jahon bozoridagi raqobat kurashi borasidagi kuchayishi munosabati bilan moliyaviy markazga aylangan bo’lsa, Singapur, Bagam orollari, Panama, Baxreyn kabi moliviy markazlar ushbuga past soliqlar, davlat

aralashuvining deyarli yo'qligi, liberal qonunchilik va operatsion xarajatlarning nisbatan pastligi tufayli aylangan.

1- chizma

Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi[52]



Moliya bozorlari - bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata yo'naltira oladigan bozor institutlarining yig'indisidir.

Moliya bozorlari ko'p turdagi hilma-hil "kanallardan" iborat bo'lib, ushbu kanallar orkali pul mablag'lari egalaridan qarz oluvchilarga oqib o'tadi. Ushbu kanallar asosan 2 guruxga bo'linadi, ya'ni:

1) to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish kanallari. Ushbu kanallar bo'yicha pul mablag'lari bevosita pul egalaridan qarz oluvchilarga oqib o'tadi. Mazkur to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishning o'zini 2 (ikki) kichik guruxga bo'lish mumkin, ya'ni:

a)kapitalni moliyalashtirish. Ushbu xar qanday ko'rinishdagi kelishuvdan iborat bo'lib, unga asosan investitsiya qilish niyati bo'lgan pul mablag'ining egasiga firmaning mulkida ulush ishtirokiga ega bo'lish xuquqi evaziga, uning pul mablaglarini oladi. Bunga yaqqol misol bo'lib, koorporatsiya tomonidan oddiy aktsiyalarni sotilishi hisoblanadi.

Oddiy aktsiya - bu, koorporatsiya mulkidagi ulushga egalik tugrisidagi sertifikatdir xamda o'z egasiga koorporatsiya tomonidan olingan foydaning bir qismiga davogarlik qilish xuqiqini beradi;

b)qarz (zayom) olish orqali moliyalashtirish (debt finance) - ushbu toifaga xar qanday kelishuv kirib, unga asosan firma investitsiyalarni amalga oshirish maksadida pul mablag'larini qarzga, ularni kelishilgan foizlari bilan kelgusida so'ndirish buyicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Ushbu xolatda kreditor shaxs, aktsiyadagiga o'xshash firma mulkidagi ulush ishtiroki xuquqiga ega bo'lmaydi. Bunga, koorporatsiyalar tomonidan obligatsiyalar sotilishini misol sifatida keltirish mumkin.

2. Moliyalashtirishning kanallari. Egri kanallar orkali moliyalashtirishda oila xo'jaliklaridan firmalarga oqib o'tayotgan pul mablag'lari maxsus institutlar orqali oqib o'tadi. Bunday

[52] Mualif tamonidan tuzilgan

institutlarga banklar, o'zaro fondlar, sug'o'rta kompaniyalari kiradi. Ushbu turdagi tashkilotlar - moliyaviy vositachilar deb ataladi.

Moliyaviy bozordagi pul sarmoyalari birinchi bor karashda tsixiyali asosda taqsimlanilayotgandek tuyuladi, ammo ushbu tushuncha yuzakidir. Ushbu bozordagi pul sarmoyalarning taqsimoti va qayta taqsimoti, jamiyatdagi uzgarishlarga o'ta sezgir va ta'sirchan mexanizm bo'lmish talab va taklif mexanizmi orkali amalga oshadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar sifatida maydonga odatda brokerlar va dilerlar chiqadi.

Broker, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo'lib, brokerlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Ya'ni, ushbu davlatda qimmatli qog'ozlar muomalasini tartibga soluvchi qonunlarga muvofiq, ishonch bildirilgan shaxs yoki komissioner sifatida qimmatli qog'ozlar bilan fuqarolik-xuquqiy shartnomalarini, topshiriq-shartnomasi yoki komissiya xamda ishonch asosida amalga oshirilgan operatsiyalar brokerlik faoliyatiga kiradi. Brokerlar sifatida bozorda jismoniy va yuridik shaxslar xarakat qilishi mumkin. Fond bozoridagi professional brokerlik faoliyati maxsus tartibda olinadigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Diler - bu, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo'lib (yuridik yoki jismoniy shaxs), u dilerlik faoliyatini amalga oshiradi. Ya'ni, "qimmatli qog'ozlar bozori xaqida"gi qonunga muvofiq, ommaviy ravishda muayyan qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish baholarini e'lon qilgan xolda ularni o'z nomidan va o'z mablag'i hisobiga sotib olish xamda sotish, shu bilan birgalikda dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs tomonidan e'lon qilingan baholar asosida qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish bilan bog'liq shartnomalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Ushbu faoliyat o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-egalari tomonidan mazkur boshqaruvchi kompaniyaga berilgan qimmatli qog'ozlarni boshqarish;

-qimmatli qog'ozlarga foydali joylashtirish uchun mo'ljallangan mijozlar pul mablag'larini boshqarish;

-kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat borasida olingan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larni boshqarish.

Moliyaviy bozorda, moliyaviy tovarlar sotiladi va sotib olinadi. Ularni ishlab chikaruvchi shaxslar esa asosan pul sarmoyalariga muxtoj bo'lgan yoki pul sarmoyalarini sotib olmokchi bo'lgan shaxslardir.

Moliyaviy tovar boshqa oddiy tovarlardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, moliyaviy tovarlar tovar sifatida albatta ist'emolchini xamda ishlab chikaruvchi shaxsning ma'lum bir extiyojini kondiradi. Masalan, moliyaviy tovarni sotib oluvchi shaxsning vaqtincha bo'sh bo'lgan pul sarmoyalarini muxofazali, samarali va unga zarur bo'lgan muddatga joylashtirish extiyojini. Ikkinchidan, moliyaviy tovarning sotuvchisini esa pul sarmoyalariga bo'lgan vaqtincha extiyojini, o'ziga xos shartlar va muddatlar asosida. Uchinchidan, boshqa tovarlar ularni ishlab chikaruvchi shaxslarga shu zaxoti iktisodiy samara keltirmaydi. Ushbu samara olingunga qadar ma'lum bir vaqt o'tadi. Mazkur vaqtning katta yoki kichikligi texnologik jarayon, taqsimot va muomala jarayonlaridagi vaqtga bevosita boglikdir. Bulardan moliyaviy tovarlar tubdan farq qilib, o'z ishlab chikaruvchilariga samarani shu zaxoti keltiradi.

Bozorga moliyaviy tovarlarni chikaraetgan shaxslarni jahon amalietida "emitent" deb atashadi. Moliyaviy tovarlarni sotib olaetgan shaxslarni esa "investor" deb atashadi. Moliyaviy tovarning bozordagi oldi-sotdisida bevosita ishtirok etadigan xamda sotuvchi va sotib oluvchining topshirigini bajaradigan shaxslar esa moliyaviy vositachilardir.

Moliyaviy vositachilar, ixtisoslashgan moliyaviy tashkilotlar yoki jismoniy shaxslardir. Jahon amalietida moliyaviy bozorda kuyidagi moliyaviy vositachilar mavjud: Investitsiya firmalari (banklari), Broker firmalari (kontoralari), Investitsiya fondlari, Sugo'rta kompaniyalari va Pensiya fondlari. Jismoniy shaxslar esa brokerlar yoki dilerlar sifatida mavjuddirlar.

6.2.Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.

Har qanday jamiyatda moliyaviy bozor faoliyati bo'lishligi uchun yana bir muxim shart-sharoit mavjud bo'lishi lozim. Ushbu shart-sharoit, moliya bozori ishtirokchilarini va moliyaviy

vositachilarni iktisodiy ma'lumot (axborot) bilan ta'minlanganligini ko'zda tutadi. Bundan tashkari, jamiyatda iqtisodiy axborotlar erkin, ochiq, oydin matbuotda e'lon qilinmogi lozim. Boshqacha qilib aytganda, moliya bozoridagi xar bir ishtirokchi va xar bir moliyaviy vositachi bir hil iktisodiy va axborot muxitiga ega bulmogi kerak. Ushbu bozorda munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar xam barcha ishtirokchilar uchun bir hil bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasida "Fond birjasi va qimmatli qog'ozlar" xaqida qonun 1994 yilda qabul qilingan.

Shu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasida xozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanib, shakllanib bormoqda. Respublikada qimmatli qog'ozlarni oldi-sottisiga ixtisoslashgan "Toshkent" fond birjasi faoliyat ko'rsatmokda.

O'zbekiston Respublikasi banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatbaho qog'ozlar bank operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 oktyabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2420-sonli Qaroriga muvofiq, 2016 yil davomida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitaliga 75,0 mlrd. so'm, «Agrobank» ATB ustav kapitaliga 50,0 mlrd. so'm, «Mikrokreditbank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. so'm va «Qishloq qurilish bank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. so'mlik mablag'larning joylashtirilishi ta'minlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrdagi «Aktsiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2454-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan o'tgan davr mobaynida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, ushbu qaror talablaridan kelib chiqib, Markaziy bankning «Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizomiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 12 ta tijorat banklarining («KDB Bank O'zbekiston» AJ, «O'T-bank» AJ, ChEKI «Savdogarbank ATB, ChEKI «Hamkorbank» ATB, «Ipak Yo'li banki» AITB, «Asia Alliance Bank» ATB, «Orient Finans» XATB, «Madad Invest Bank» XATB, «Ravnaq-bank» XATB, «Kapitalbank» ATB, «Trastbank» XAB va «Invest Finance Bank» ATB) ustav kapitaliga Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Koreya taraqqiyot banki, Gollandiya rivojlanish va taraqqiyot tashkiloti kabi moliyaviy tashkilotlar hamda boshqa xorijiy investorlarning ulushlari jalb etildi[53].

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan holda qimmatbaho kog'ozlarga qo'yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxona ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatbaho kog'ozlariga qo'yilmasining miqdori 1- darajali bank regulyativ kapitalining 15% oshmasligi kerak.

b) bankning barcha elimentlar uchtav kapitaliga va boshqa qimmatbaho qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalning 15%idan oshmasligi kerak.

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatbaho-qog'ozlariga qilingan bank qo'yilmasi miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 25%idan olinishi kerak.

Bank ist'emol korxona (moliyaviy institutlar miqdori) ustav kapitaliga 20%idan ortig'iga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita egalik qilishi mumkin emas

Umaman olganda banklarning foyda operatsiyalariga quyidagilar kirishi mumkn:

1. qimmatbaho qog'ozlarga asosan kreditlar (lombard).
2. qimmatbaho qog'ozlarni o'z portfeli uchun sotib olish (investitsiya).
3. yangi chiqarilgan qimmatbaho kog'ozlarni birlamchi taqsimlash (jamlashtirish);
4. Mijozning topshirig'iga ko'ra qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va saqlash (qimmatbaho kog'ozlar ikkilamchi muomalasiga xizmat ko'rsatish).

Bank brokerlik operatsiyasi

[53] Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston respublikasi Markaziy banki internet sayti.2017 y.

a) Banklarning o’zlarining mijozlari topshirig’iga ko’ra komission operatsiyalarni amalga oshiruvchi masalan (o’zlari nomidan mijoz uisobidan qimmatbauo qog’ozlar sotib olish operatsiyalari amalga oshirishlari mumkin.

b)banklar amaliyotning kelishuvi asosida qimmatbauo qog’ozlarni chiqarishni tashkil etishi mumkin.

v) 3- shaxs nomidan (foydasiga) qimmatbauo qog’ozlarni joylashtirishni kafolotini olishi mumkin. qimmatbauo kog’ozlar saqlash yoki ularni uisoblash olib borish uuquqi depozitlar operatsiyalari.

O’zbekiston tijorat banklarining ushbu bozorda xarakat qilish salohiyati qimmatbaho qogozlar bozori ning boshqa institutlarinikiga nisbatan katta. Hozirgi bosqichda bu qonuniydir. Jahon tajribasi ko’rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyot jarayoni qimmatli qogozlar bozorida bankdan tashqari moliya institutlari qatnashuvi ulushining ortib borishiga olib kelmoqda, buning natijasida tijorat banklari ulushi kamayib bormokda (qimmatli qogozlar bozori sub’ektlari o’rtasida raqobatchilik mavjud bo’lgan vaqtda).

Hozirgi vaqtda qimmatli qogozlarning quyidagi besh turi O’zbekiston fond bozorining ob’ektlari bo’lib koldi: xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat 12 foizli ichki zayomi, tijorat banklari va boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning diskont Vekselari, tijorat banklarning depozit sertifikatlari va depozit obligatsiyalari.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga qimmatli qogozlar aktsiyalari, obligatsiyalar, depozit va jamgarma sertifikatlari, Veksellar, shunindek xosila qimmatli qogozlar (fyucherslar va optsionlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham, xaridor uchun ham qulay va foydaligi hisobga olingan holda, tanlab olinadi. Bank qimmatli qogozining nobank muassasi tomonidan chiqarilgan qogozdan farqi, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to’liqrok tartibga solinishidan iborat. Tijorat banki o’z faoliyatida unga balans likvidligi va kapitalning etarlilik darajasini pasaytirtirishga yo’l qo’ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

O’zbekistonda tijorat banklarining emission faoliyati va ayrim turdagi qimmatli qogozlari muomalasi «Banklar va bank to’g’risida qonun» «O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida qonun», shuningdek «Tijorat banklariga qimmatbaho qogozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo’yicha tavsiyalar» bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qogozlar emissiyasi bilan bogliq faoliyat tartibga solinishi tijorat banklari uchun emissiya prospektini chiqarish, uni ro’yhati belgilab quyilganligi ta’minlanadi. Ushbu tartib O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi qimmatli qogozlar va fond birjalari bo’yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan. Banklar uchun emissiya prospektlaridagi ma’lumotlar ro’yhatlarini O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishilgan holda belgilaydi.

6.3. Banklarning qimmatli qog’ozlar bo’yicha tijorat va investitsion operatsiyalari.

Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» so’zining ma’nosi bir qancha ma’noda ishlatiladi. Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish jarayonida termin kapital quyilma ma’nosini bildiradi. Bu pul mablag’larining takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilishiga ishlatilishini anglatadi.

Investitsiyani mulkiy tomondan qo’yilmalarga ishlatishi - bu kompaniyani korxonaning real aktivlariga yoki shaxsiy mullkka joylashtirilishi tushuniladi.

Moliyaviy faoliyat amaliyoti bo’yicha ya’ni investitsiyani moliyaviy tomondan tushuniladigan tushunchasi esa - bu kapitalni qiymatini saqlash yoki ko’paytirish (ijobiy miqdor keltirish maqsadida) joylashtirish uslubiga aytiladi.

Investitsiya yoki kapital qo’yilma deyilganda, umuman, iqtisodiy sub’ektni ixtiyorida bo’lgan mablag’larni (kelishi) ist’emolidan voz kechib kelgusida yaxshi hayot kechirishi uchun mablag’larni ko’paytirishi uchun foydalanishdi.

Investitsion faoliyatning asoiy belgilari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

-kapitalning vaqtinchalik yo’qotilgan ist’emol qiymatini (likvidligini kapitalning vaqtinchalik yo’qotilgan ist’emol qiymatini (likvidligini) kaytib kelmasligi; (bo’lmasligi).

- boshlang'ich farovonlik darajasini usishini kutish;
- uzoq muddatga qo'yilgan kapitalning natijasini noaniqliligi;

Shunday qilib investitsion jarayon - bu vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari bor bo'lgan shaxslar bilan, pul mablag'larining talabi bo'lganlar o'rtasidagi ma'lumotlarni berishligining mexanizmidir. Tijorat banklari investitsion faoliyati - bu bankning pul mablag'larining ustav fondiga qimmatbaho toshlar va boshqa ob'ektlarga joylashtirishidir.

Investitsiya maqsadiga ko'ra ikkiga bo'linadi;

1) Tug'ri investitsiyalar - bu investitsiya ob'ektini bevosita boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Agar bunday investitsiyalar qimmatli-qog'ozlarga quyilsa u holda korxoaning kontrol paketini sotib olishi kerak. Masalan investitsiyalar mulk, ishsizlik patent va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

2) Portfel investitsiyalari - qimmatbaho qog'ozlar portfelini tashkil qilish uchun kontrol paketini tashkil qilmasdan va investitsiya ob'ektini to'g'ridan-to'g'ri bevosita faoliyatidir.

Agar to'g'ri investitsiyalar bank o'z faoliyatini boshqa sohada ta'sirini kengaytirish maqsadida amalga oshirilsa, bank portfel investitsiyalari (qimmatbaho kog'ozlar portfeli) quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

-bank daromadlari boshqarilishi; agar banka qarzlari bo'yicha kreditlari foizi (daromadi) pasaysa, qimmatbaho kog'ozlar bo'yicha daromadi ko'tarilishi mumkin:

-bank kredit portfelidan keladigan kredit risklarini kplash maqsadida, tb yaxshi qimmatbaho qog'ozlari sotib olishi yoki saqlab turishi mumkin. Bu o'z navbatida bankning kredit risklari pasaytirishi mumkin.

-geografik diversifikatsiyasi ta'minlashi mumkin.

-bankning soliq pasaytirishi mumkin. Ba'zi qiimmatbaho kog'ozlar soliqka tortilmaydi yoki pats foizda soliqqa tortiladi.

-bozor foiz stavkalarning o'zgarishi jarayonida (sharoitida) bank yo'qotishlarini sug'urtalaydi.

-bank aktivlari portfelini o'zgartiruvchanligini ta'minlashi mumkin.

-Bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilishga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalarga odatda 1 yilgacha qoplash muddatiga ega bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarni kiritish mumkin.

Banklarning investitsion operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning daromad bazasini kengaytirish va diaersifikatsiyalash;
- bank faoliyati turlarini kengaytirish asosida hamda bank risklarini umumiy darajasini pasaytirish hisobiga - bankning moliyaviy barqarorligini oshirish;
- bankning mijoz va mablag'lar bazasini xizmatlar to'rini, fiskal (docherniy) moliya institutlarini tashkil qilish hisobiga kengaytirish;
- mijozlarga bo'lgan ta'sirni kuchaytirish. (qimmatbaho qog'ozlar portfelini sotib olish hisobiga).

Asosan bankning investitsiyalari deyilganda bank tomonidan kapital xarakterga (delgiga) ega bo'lgan xarakterni va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

Banklar tomonidan faoliyat amalga oshirilishi mumkin:

Brokerlik faoliti.

Dillerlik faoliyati.

Depozit faoliyati.

Qimmatbaho qog'ozlar bilan mablag'larga (qimmatbaho qog'ozlar bilan bogliq bo'lgan) o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan hisob -kliring faoliyati.

Aktsionerlar retsrini olib borish va saqlash faoliyati.

qimmatbaho qog'ozlar savdosini tashkil etish faoliyati.

O'zbekistonda iqtisodiyotni qayta ko'rishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bank sohasini isloh qilish bilan birgalikda, qimmatli qogozlar bozorini, shunindek moliya bozorining boshqa

segment (bugin)larini ham yaratishdan iboratdir. Ma'lumki, bank tizimi va qimmatbaho qogozlar bozori iqtisodiyotining tezkorlik bilan rivojlanib boruvchi sohalari bo'lib, texnologiyada ham, tashkil etishda ham eng tomonlarini, novatorlikni o'z ichiga qamrab oladi. qimmatbaho qogozlar bozori va moliya bozori ob'ektlari hamda sub'ektlari o'ta qat'iy tartibga solinganligi, tuzilmalashtirilganligi va sertarmoqlidigi tufayli eng kichik o'zgarishlar, shu jumladan, me'yoriy-huquqiy bazadagi o'zgarishlar ham qimmatbaho qogozlar bozori va bank tizimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

6.4. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi.

Tijorat banklarining asosiy faoliyati bu vaqtincha bo'sh pul mablag'larini kreditorlar va qarzdorlar o'rtasida xamda sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida aylanishini vositachilik asosida olib borish xisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda pul mablag'larini joylashtirish yuzasidan faoliyatni tijorat banklaridan tashqari bir qator maxsus-ixtisoslashgan moliya-kredit institutlari, ya'ni investitsiya fondlari, kredit uyushmalari, sug'urta kompaniyalari, brokerlik va dilerlik firmalari xam olib boradi. Lekin, tijorat banklarining mamlakat moliya bozorida faqatgina o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

-birinchidan, tijorat banklari faoliyati uchun qarz majburiyatlari yuzasidan ikki tomonlama tasnif mavjud. Ular birinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar uchun muomalaga o'zlarining qarz majburiyatlarini, ya'ni depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, obligatsiyalarini chiqaradilar. Ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa emitentlarning muomalaga chiqargan qarz majburiyatlarini (aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) sotib oladilar:

-ikkinchidan, tijorat banklari o'z nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) bo'yicha qat'iy belgilangan foiz bo'yicha daromad to'lanishi majburiyatini oladilar. Investitsiya fondlari esa daromad to'lanishi yuzasidan risklarni investorlar zimmasiga yuklaydilar.

Tijorat banklari o'z faoliyatini yuritish uchun chetdan qo'shimcha mablag' jalb etishlari lozim. Bu faoliyat-tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qaytarib berishlilik, to'lovlilik xamda muddatlilik shartlari asosida jalb etish bilan bog'liq faoliyat passiv operatsiyalar xisoblanadi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul sarmoyalariga bo'lgan extiyojning 90 foizi chetdan jalb qilingan mablag'lar xisobiga qoplanadi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar jalb qilinish usullariga asosan quyidagilarga bo'linadi:

-banklararo bozorda kreditlar olish;

-Veksellar xisob-kitobi va Markaziy bankdan kredit olish;

- muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, Veksellar);
- depozitlarni jalb etish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish shartnomalari («Repo» operatsiyasi) amalga oshirish;

Evronota va Evrobondlar bozorida ishtirok etish;

Bank aktseptlarini (aval sifatida) sotish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari pul-kredit siyosatining vositasi xisoblanadi va ular muomalaga pul massasini tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Obligatsiyalarni chiqarish, muomalada bo'lish va ularni so'ndirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 22 apreldagi 1140-sonli «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarish va ular muomalasi to'g'risida» Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalari davlat qimmatli qog'ozlari xisoblanadi va uning egalariga obligatsiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foiz ko'rinishida daromad olish xuquqini beradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy

bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarilishi, uning muomalasi tartibi va so'ndirilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002 yil 22 apreldagi 1141-sonli «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalarini chiqarish va ular muomalasi to'g'risidagi» Nizom ga asosan olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlari mamlakatimizda pul bozorida likvidlikni tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Depozit sertifikatlarini chiqarish, muomalada bo'lish va u bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 26 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risida Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikati – bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul mablag'larini omonatga qo'yilganligi xaqidagi guvoxnomasi bo'lib, u omonatchi yoki uning xuquqiy vorisining omonat summasini va u bo'yicha foizlarni belgilangan muddat tugagandan so'ng olish xuquqini tasdiqlaydi.

Depozit sertifikatining to'lovi muddatidan oldin amalga oshirilayotganda pul mablag'lari depozit sertifikati egasining xisobvarag'iga depozit sertifikatni muddatidan oldin to'lovga qabul qilish to'g'risidagi ariza tushgan kundan boshlab 5 bank ish kuni davomida ko'chiriladi.

O'zbekiston Respublikasida muomalaga depozit sertifikatlarini chiqarish muomalaga kiritish va ularni so'ndirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1994 yil 24 dekabrda tasdiqlangan «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro'yxatga olish va muomalada bo'lish qoidalari» asosida amalga oshiriladi.

Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni qaytarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha ular kiritgan pul mablag'larini qaytarish emitent tijorat banki xisobidan amalga oshiriladi.

6.5.Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi.

Tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi daromad topishdir. Xalqaro amaliyotda banklarning daromad topish uchun faoliyati aktiv operatsiyalar deb nomlanadi. Tijorat banklarining o'zlik va yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etilgan mablag'laridan o'z nomidan ma'lum daromad topish uchun foydalanishdagi faoliyati aktiv operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari juda hilma-hildir, lekin xalqaro amaliyotda aktiv operatsiyalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga hamda turli shartlar asosida kreditlar berish;
- bank mijozlariga turli vositachilik xizmatlarini ko'rsatish;
- davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga o'z nomidan va o'z hisobidan investitsiya qilish;
- lizing operatsiyalarini amalga oshirish;
- investitsiya proektlarini amalga oshirish;
- «repo» operatsiyalarini amalga oshirish;
- valyuta dilingi operatsiyalarini amalga oshirish;
- mijozlarga boshqa turdagi an'anaviy va noan'aviy bank xizmatlarini ko'rsatish.

Amalda tijorat banklarining investitsiyalariga – bank aktivining so'ndirilish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qo'shimcha daromad olish uchun yo'naltirilishi hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining investitsiya faoliyati jarayonini tsrategiyasida ikki hil tsrategiya ajratiladi:

-passiv strategiya

-aktiv strategiya

Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv tsrategiyasida asosan kutish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir maromda va doimiy ravishda daromad olishda ularning bozordagi

o’rtacha darajadagi daromadga yaqin darajada foydalanadi. Passiv tsrategiyani olib borishda banklar ikki hil usuldan foydalanishlari mumkin;

-«zinapoya» usuli;

-«shtanga» usuli;

Tijorat banki birinchi usuldan foydalanganda o’zi tomonidan aniqlangan investitsiya muddati asosida qimmatli qog’ozlarni turli muddati bo’yicha sotib oladi va ularni investitsiya portfeli tarkibida bir tekis joylashtiradi. Passiv tsretegiyani «shtanga» usulida tijorat banki investitsiyaga yo’naltirilayotgan mablag’larning asosiy qismini investitsiya portfelining likvidligini ta’minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog’ozlarga va ma’lum qismini yuqori foyda beradigan uzoq muddatli qimmatli qog’ozlarga sarflaydi.

Tijorat banklarning qimmatli qog’ozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qog’ozlarning fond bozorida kursi va foiz stavkasini tebranishidan imkoni boricha ko’p daromad olish yotadi. Lekin shuni ta’kidlash lozimki bunday agressiv siyosatni faqatgina katta miqdordagi investitsiya portfeliga ega bo’lgan moliyaviy barqaror yirik banklar olib borishi mumkin. Qimmatli qog’ozlar bilan agressiv siyosat oqilona va muvaffaqiyatli olib borish uchun esa bank tegishli analitik imkoniyatga ega bo’lishi lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Qimmatbaho kog’ozlar bozorida tijorat banklari o’rni
2. Asosiy kapitalni investitsiyalash shakllari taxlili
3. Tijorat banklarining qimmatbaho kog’ozlar bilan aktiv operatsiyalari
4. Tijorat banklarining investitsion faoliyati
5. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.
6. Moliyaviy bozor intsrumentlari, qimmatbaho kogoz bozori va uni tashkiliy tuzilishi.
7. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarning boshqa turlari
8. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi
9. Banklarning qimmatbaho bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari
10. Banklarning trast operatsiyalari va ularni boshqarish

7-MAVZU. KREDITLASHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

REJA

7.1 Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari.
7.2 Kredit mexanizmi va uning elementlari.
7.3 Kreditlash bosqichlari haqida tushuncha.

Tayanch iboralar

Kredit, kredit mexanizmi, kredit munosabatlari, ishtirokchilari, kredit tamoyillari, kredit bozori, kredit ta'minoti, kredit muddati, kredit bahosi, kredit differentsiatsiyasi, kreditlash jarayoni va bosqichlari.

7.1.Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari

Xo'jaliklar o'z faoliyatida asosan uz mablag'i va chetdan jalb kilingan mablag'lar evaziga o'z faoliyatini samarali boshkarishga xarakat kiladilar. Faoliyat yakunlarini samarali boshkarish esa uz faoliyatining ikkinchi jarayonida bush pul mablag'lari kolishiga va jamg'arilib borishiga olib boradi. Bu mablag'larni xarakati va jamg'arilishi esa bank tizimi orkali amalga oshiriladi va banklarda saklanib, jamlanib boriladi. Bu jamg'arilgan mablag'larni vaktincha ko'prok banklar vositachilik orkali samarali foydalanishlari mumkin. Kredit - bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi - iiqtisodiy isloxatlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan ta'kidlanadiki, bank tizimi xar qanday turdagi iiqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil kiluvchi unsurlaridan xisoblanadi. Bank tizimi vaktinchalik bush turgan pul mablag'larini akkumulyatsiya qilish funktsiyasini amalga oshiradi. Bank tizimining muvaffakiyatli ishidan iiqtisodiyotni samarali faoliyat kursatishi, umuman olganda mamlakatdagi iiqtisodiy usish Bilan bog'lik buladi.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir kismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaktinchalik bush turgan pul mablag'larini jamg'arish, yig'ish, jamlangan (akkumulciya kilingan) mablag'larni uz nomidan kaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish xamda mijozlarning topshirigiga kura, tulovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

O'zbekistonda tijorat banklarini yaratish va faoliyat kursatishi O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelida kabul qilishcha «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Konunga binoan olib boriladi. Ushbu konunga asosan bank- bu tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb xisoblanadigan kuyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar kabul qilish xamda kabul kilingan mablag'lardan tavakkal kilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;
- tulovlarni amalga oshirish.

Ishlab chikarish va muomalaning o'sishi munosabatida barcha mamlakatlarda banklarni axamiyati kutarildi. Natijada tijorat banklari funktsiyalariga yangi, masalan, foiz keltiradigan kapitalni boshkarish funktsiyalari qo'shildi.

Shunday kilib banklar-bu kreditning rivojlanishi natijasidir. Shuning uchun kredit bankga nisbatan asos bo'lib xisoblanadi. Kreditlashtirishda kredit bitimidagi ikki tomonning manfaatlarini ko'rsatadi. Banklar, xo'jalik tashkilotlarning manfaatlaridan kelib chikkan holda ularning talablarini kondirish maqsadida ish yuritadi. Qarz oluvchining iqtisodiyotini rivojlantirish, uning rakobatbardoshligi va foydaligi, ishlab chikarish va muomalasining to'xtovsiz olib borilishi uchun beriladigan kreditlar bank kreditlashining maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga mijozning manfaatlari kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun xal kiluvchi omil bo'lib hisoblanmaydi.

Kreditlash sharoitida boshka tomnning - bank-kreditorning manfaatlariga xam rioya qilish zarur. Uning manfaatlari mijozning manfaatlari bilan to'g'ri kelmaydi. Bank uchun xamma vakt shaxsiy va jalb kilingan kapitallarini kaerga joylashtirishi bo'yicha imkon bor. Lekin, uning imkoniyatlari ko'pincha chegaralangan. Ma'lumki tijorat banklari, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga, mavjud resurslariga va anik chegaralangan imkoniyatlariga rioya kilgan holda o'z faoliyatini olib boradi. Mijozlarga beriladigan kreditlarning xajmi joriy

likviklik normativlariga, aktiv va passivlarning muddatlarining muvozanatiga, markaziy bankning markaziy zaxiralariga ajratiladigan mablag'lar xamda shaxsiy va jalb kilingan resurslar chegaralangan proportsiyalariga bog'liqdir.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining kredit faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 22.02.2000 y. N 429 tasdiqlangan "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida nizom"ga binoan olib boriladi.

Bankning kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Shunga ko'ra bank kredit siyosatida uning maqsadi va strategiyasi, vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash, kredit turlari, kreditlarning to'planishi, kreditlarni to'lash, qarzdorlarga doir moliyaviy axborot, garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari, bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish hamda bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar bo'yicha talablar bayon qilinadi.

7.2. Kredit mexanizmi va uning elementlari.

Tijorat banklarining kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida" va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 martdagi "Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2005 yil 15 apreldagi "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-56-sonli qarori, bank nazorati bo'yicha Bazel Ko'mitasining baholash tamoyillari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2000 yil 22 fevralda 429 raqam bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi va 2000 yil 24 iyulda 472 raqam bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida Korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizomlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bank kredit siyosatning asosiy maqsadi – bu bank filiallari tomonidan mijozlarning kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kreditlash jarag'nida amaldagi qonunchilik talablari va me'yorlarga rioya etish, kreditlash cig'sati va kreditlash tartibotlarining yaxlitligini kafolatlash, tavakkalchiliklarni muntazam ravishda diversifikatsiyalash, bank likvidliligini va kreditlash jarag'nini to'g'ri hamda o'rnatilgan tartibda amalga oshirib bank faoliyatining foydaliligi va samaradorligini ta'minlashdir.

Siyosatning strategiyasi quydagilardan iborat:

a) yuqori sifatli aktivlarni tashkil etish va daromadlilik hamda likvidlilikning muntazam maqsadli darajasini ta'minlash imkonini beradigan tavakkalchilikka yo'l qo'yish va uni maqsadga muvofiq boshqarish;

b) yuqori sifatli kredit portfeli va uni samarali boshqarishni ta'minlay oladigan malakali kredit xodimlari jamoasini shakllantirish;

v) bankning strategik maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy jihatdan istiqbolli, rentabelli loyihalarni moliyalashtirishga qisqa va uzoq muddatli ssudalar berish;

g) bank mahsullari rentabelliligini ta'minlash maqsadida kredit resurslarini jalb etish, jalb etilgan resurslar muddatlaridan kelib chiqqan holda kreditlash jarayonini amalga oshirish;

d) bank mijozlari bilan uzoq muddatli, o'zaro manfaatli munosabatlarning rivojlanishiga ko'maklashish;

e) kredit faoliyatini amalga oshirishda amaldagi qonunchilik va Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga rioya etish;

j) kreditlashni mazkur soha bilan bog'liq bankning boshqa ichki siyosat va tartibotlariga asoslangan holda amalga oshirish;

z) rivojlanib borayotgan iqtisodning shakllanib borayotgan talablarini qondirishga qodir bo'lgan moslashuvchan bank xizmatlari tashkil etilishini ta'minlash.

Kredit xizmatlari mulkiy maqomidan qat'iy nazar qishloq xo'jaligi korxonalariga, ishlab chiqarish, savdo, ta'minot va xizmat ko'rsatish sohalariga, fuqarolik hamda boshqa qurilishlar, eksport va import operatsiyalarini amalga oshirishga hamda yakka tartibdagi tadbirkor, kichik biznes sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklariga taqdim etilishi mumkin.

2005 yilning 1 yanvaridan keyin berilgan ssudalar bo'yicha foizlar yillik 365 kun hisobidan hisoblanadi. 2005 yilning 1 yanvarigacha berilgan ssudalar bo'yicha shartnoma muddati tugaguncha (so'ndirilguncha) foizlar yillik 360 kun hisobidan hisoblanadi.

Kredit ajratish va so'ndirilishi ustidan monitoring jarayoni Markaziy bankning kreditlashga oid me'yoriy xujjatlari hamda banklarning ichki kredit tartibotlariga asosan amalga oshiriladi.

Bank kredit portfelining diversifikatsiyasi ko'p hollarda bozor kon'yunkturasi bilan belgilanadi (demografik omillar, mintaqadagi aholining ma'lumot darajasi, texnologik va boshqa omillar). Kengash tavakkalchilikni maqbul darajada diversifikatsiya qilish va maksimal darajada foyda olishga intilib, bank rahbariyatiga ushbu maqsadlarga erishish uchun hamkor banklar xizmatlaridan foydalanish vakolatini beradi. Banklardan sotib olingan kredit resurslari minimal tavakkalchilikka ega bo'lishi shart.

Kreditlarni tasnif qilishning belgilangan tartibi va ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira tashkil qilishning o'rnatilgan tartibi lizing hamda faktoring operatsiyalari bo'yicha qarzlarga ham tatbiq etiladi.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maksadida dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi koidasi kullaniladi. Bu koida kreditlashda «5 «S» lar koidasi» deb yuritiladi.

«5 «S» lar koidasi» ga asosan xar bir «S» buyicha korxonaning faoliyati taxlil kilib chikiladi va korxona faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. +oidaga asosan «S» xarflari korxonaning xujalik faoliyatini quyidagi jixatlarini ifodalaydi.

Character – qarz oluvchining xarakterini baholash, hamda bozordagi obrusi;

Capacity – qarz oluvchining boshlagan ishini oxiriga etkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini kaytarib berish kobiliyati;


Capital – qarz oluvchining sarmoyasini etarliligi;

Conditions – shartlar. Bunda iqtisodiy muxim va mazkur biznesni rivojlanishi nazarda tutiladi.

Collateral – garov (kafolat, kafillik, sugo'rta polisi, tovar moddiy boyliklar) va boshqalar.

Shunday kilib banklar tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy tamoyillarini quyidagi sxemada kursatish mumkin.

1 - chizma.[54]



Tijorat banklari tomonidai berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida uz ifodasini topadi. Tijorat banklari uz mijozlariga turli kurinishdagi kreditlar berishi mumkin.

[54] Sh.Z. Abdullaeva. "Pul kredit banklar". Tosh.: "Moliya" -2000 y. 134 bet.

Mamlakatimiz va xorijdagi tanikli bank mutaxassislari bu kadamni ijobiy kabul qilishdi.

Ushbu koidalarning uziga xos muxim xususiyatlari kuyidagilardan iborat. Birinchidan, endi ob'ekt emas, balki sub'ekt kredit oladi va, ikkinchidan kredit qaytarilishning ta'minlanganligi ssuda berishning majburiy sharti xisoblanadi. Kredit berishning kuydagi printsiplari: tulash; qaytarish; muddatlilik; maksadli foydalanish anik belgilangan.

Koidalarda kredit berishning kuyidagi yangi shakllari kuzda tutilgan:

- "kredit liniyasini ochmasdan" va "kredit liniyasini ochib" aloxida ssuda xisobvaragidan kredit berish;
- kontokorent-kredit;
- overdraft;
- kimmatli kogozlarni garovga kuyib kredit olish (garovxona krediti);
- Veksel krediti.

"Kredit liniyasini ochmasdan" aloxida ssuda xisobvaragidan kredit olish bir galgi ssudalarni berish yuli bilan amalga oshiriladi, ularni berish tugrisidagi karorni bank belgilangan hujjatlar majmui asosida xar bir ssuda bo'yichaaloxida akbul qiladi.

Maxsus ssuda xisobvaraklari bo'yicha kredit berish xakikiy extiyoj yuzaga kelishiga qarab pul mablaglarini muntazam berishni kuzda tutgan.

7.3.Kreditlash bosqichlari haqida tushuncha.

Kredit sohasidagi munosabatlar belgilangan ma'lum tizimiga ega bo'ladi. Bankning kreditlash tizimi deganda kreditlash jarayonini tashkil qiluvchi va uni kreditlash tamoyili bo'yicha tartibga solinishini belgilovchi elementlar majmuasi tushuniladi. Kreditlash tizimining tashkiliy elementlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kreditlash jarayonida qarz oluvchining o'z mablag'larining qatnashish tartibi va darajasi;
- kreditning maqsadga yo'naltirilganligi;
- kreditlash uslublari;
- ssuda hisobvarag'larining shakllari;
- ssuda qarzini tartiblash usullari;
- ssuda mablag'larini maqsadli va samarali foydalanilishini, hamda o'z vaqtida qaytarilishini nazorat qilish tartibi va shakllari.


Bankning ilgari hukm surgan kreditlash tizimi xo'jalik organlarining o'z va qarz mablag'laridan foydalanish chegarasi qonun bilan qat'iy chegaralanishiga asoslangan. Zamonaviy kreditlash tizimi davlat tomonidan xo'jalik organlarining o'z va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat kabi me'yorlarni belgilamasligi bilan xarakterlanadi. Faoliyat yuritishning bunday tijorat asoslari xo'jaliklarning o'z mablag'larini maksimal ishlatishga va qarz mablag'lari oldida to'liq mas'uliyatni sezishga majburlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditlash tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin:

Korxonalarning xo'jalik oborotidagi o'z mablag'lari hajmining olinishi mumkin bo'lgan kredit hajmiga va kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini hisoblashdagi mijoz faoliyatining samaradorlik darajasiga ta'sir qiladi. Kreditlash usullari deganda kreditlash tamoyillariga mos ravishda kreditni berish va qaytarish uslublari tushuniladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari yangi tijorat tuzilmalari, ya'ni mulkchilikning boshqa turiga asoslangan sub'ektlarga kredit berishda tijorat banklarining xorij amaliyotiga tayanib kreditlashning yangi usullaridan foydalanmoqdalar.

Jahon bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli mavjud. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda induvidual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Ssuda ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga ssuda ajratishda qo'llaniladi. Ikkinchi usulda ssuda bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Kreditlash tartibi



1-rasm. Tijorat banklarida kreditlash tartibi[55]

Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'ptasidagi shartnomaga asosan to'lash bir yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuvni istagan vaqtida ssuda olishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Alohida ssuda hisobvarag'i orqali kreditlash. Tijorat banklari xo'jalik sub'ektlarini «kredit liniyasi ochib» yoki «kredit liniyasi ochmasdan» kreditlash mumkin va bu kreditlar quyidagi maqsadga beriladi, tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'lash uchun, muddati 30 kundan oshmagan davrga, qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog'liq bulgan akkreditivlar ochish uchun. Kredit bank tomonidan kelishilgan muddatlarda quyidagi tartibda so'ndirilishi mumkin:

- so'ndirilish muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha mablag'larni mijozning hisobvarag'idan undirib olish orqali;
- muddatidan oldin qarzdorning topshirig'iga ko'ra hisob raqamdagi bo'sh qoldiq mablag'larni surab olish orqali;
- garov mulkini o'zlashtirish orqali.

Xo'jalik sub'ektining «kredit liniyasi ochib» kreditlash alohida hisobvaraq orqali oldindan kelishib olingan kredit summasi doirasida amalga oshiriladi. Kredit liniyasining hisobidan qarzdorning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarni bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha pul hisob-kitob hujjatlarining to'lovi amalga oshiriladi. Bundan keyin qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga, savdo, ta'minot va boshqa xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlariga, kreditlashning barcha tartib qoidalari asosida beriladi.

Lombard kredit ta'minotiga quyidagilar kredit shartnomasiga asosan qabul qilinadi:

- davlat qimmatli qog'ozlari;
- boshqa xil emitentlarning aktsiya va obligatsiyasi, depozit sertifikatlari.

Lombard kreditining e'tiborli xususiyati shundaki, garov shartnoma imzolangan kungi nominal qiymati bo'yicha emas, balki uning kurs o'zgarishi riskini hisobga olgan holda uning ma'lum qismigagina baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar garovi ostidagi lombard krediti alohida ssuda hisob varaqdan tovar moddiy qiymatlar va xizmatlari uchun hisob-kitob hujjatlarini to'lashga qimmatli qog'ozlar garovi ostidagi kredit beriladi.

Banklarning o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlari garov sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Shu bois qimmatli qog'ozlarni garovga olib lombard krediti berish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda bank qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va kredit qobiliyatini tahlil qilish bilan bir vaqtda kredit ta'minoti tarzida qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlar sifati, ularning kurs riski darajasini baholashga alohida e'tibor beradi.

[55] Muallif tomonidan tayyorlangan

Nazorat uchun savollar.

1.Tijorat banklarining kredit operatsiyalari.
2.Kredit operatsiyalarini tashkil etish asoslari.
3.Kreditlash tamoyillari va shakllari.
4.Kredit mexanizmi va uni elementlari.
5.Kredit hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi.
6.Tijorat banklarida kreditlash shakllarini va usullarini takomillashtirish yo’llari.

8-MAVZU. AYLANMA MABLAG'LAR VA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLIGINI BAHOLASH USULLARI

Reja

8.1 Aylanma mablag'lar tushunchasi va uning tarkibi.
8.2 Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari.
8.3 Kreditga layoqatlilik tushunchasi va uni hisoblash ko'rsatgichlari.
8.4 Biznes reja va uni kreditlash jarayonidagi o'rni.
8.5 Tijorat banklari tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarni rasmiylashtirish tartibi.

Tayanch iboralar

Korxona, oborot mablag'i, operatsiyalar, kredit, mulk, bank, islohatlar, samaradorlik ko'rsatgichlari, trast, vositachilik, vazifalari, manbalari, kreditor, debitorlar va barqaror passivlar..

8.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi va uning tarkibi.

Korxonaning oborot (aylanma) ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini shakllantirish uchun avanslanadigan (sarflanadigan) pul mablag'lari majmuasi *oborot mablag'lari* deb aytiladi.

Aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasi turli omillar ta'sirida vujudga keladi. Ular xo'jalikning ishlab chiqarish yo'nalishi, ixtisoslashuvi, sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi.

Turli mulkka asosolangan korxonalarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun sarflanayotgan barcha mablag'lar ularning moliyaviy mablag'lari hisoblanadi. Turli mulkka asosolangan korxonalaridagi moliyaviy mablag'larning mohiyati va shakllanish manbalarini mantiqan quyidagicha turkumlash mumkin.

Aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilmasi turli omillar ta'sirida vujudga keladi. Ular xo'jalikning ishlab chikarish yo'nalishi, ixtisoslashuvi, iqlim sharoitlari, iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, etishtirgan mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlarini realizatsiya qilish jarayonlari hamda shu kabi faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi.

Aylanma mablag'lar o'zida ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat predmetlari va moddiy boyliklarning puldagi ko'rinishini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, aylanma mablag'lar bu ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlariga yo'naltirilgan pul mablag'laridir. Ular korxonalarining joriy faoliyati uzluksizligini ta'minlovchi muhim resurs hisoblanadi. Moddiy xususiyatiga qarab, u o'z tarkibiga xom-ashyo, yoqilg'i, korxona omboridagi tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari ikki qismga bo'linadi. Birinchisiga hali ishlab chiqarish jarayonida qatnashmagan va omborda yotgan mahsulotlar kiradi. Bular em-xashak, urug'lik va o'tqazish materiallari, ehtiyot qismlar, mineral o'g'itlar, zaxarli ximikatlar, yoqilg'i-moylash materiallari va shu kabilar. Ikkinchi qism aylanma mablag'lari ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish o'simchilikda kelasi yil hosili uchun amalga oshirilgan xarajatlar hisobiga olinib, aylanma mablag'lar hisobiga kiritilsa chorvachilikda ushbu xarajatlar keyingi davrga ham o'tkaziladi (masalan: inkubatsiya xarajatlari).

Kelgusi davr xarajatlari- bu yangi texnikani o'zlashtirish xarajatlari, yangi ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha tayyorgarlik ishlari, erni tubdan yaxshilash xarajatlari bo'lib, u hozirda amalga oshirilib keyingi davrlarda tannarxga qo'shiladi.

Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar - aylanma mablag'larning eng likvid shaklidir. Korxonaning pul mablag'lariga kassadagi, joriy hisob raqamidagi, valyuta hisob raqamidagi pul mablag'lari kiradi.

Debitorlik qarzlari – korxona aylanma mablag'larining muhim qismi hisoblanadi. Debitorlik qarzlarini boshqarishning muhim vazifalaridan biri bo'lib, sotib oluvchining to'lovga qobillik riskini baholay bilishdir.

Muomala fondlari tayyor mahsulotni realizatsiya qilish va shu asosda daromad olishdir.

Aylanma mablag'lari doiraviy aylanishning uchta bosqichini bosib o'tadi: sotib olish (ta'minot), ishlab chiqarish va realizatsiya qilish.

Shuning uchun, aylanma mablag'lardan ratsional darajada foydalanish muammosiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Bu muammoni echish bozor iqtisodiyotiga xos quyidagi tamoyillarga amal qilish bilan bog'liq:

- ishlab chiqarish talabi darajasidagi aylanma mablag'larning optimal hajmini ta'minlash. Agarda biz aylanma mablag'lardan naqd pul mablag'larini ayirsak, tovar-moddiy zaxira ko'rinishdagi aylanma mablag'larni hosil qilamiz. Ushbu qismning ortishi pul mablag'larining chetlashishini bildiradi. Bu esa korxona faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarga olib keladi. Tovar-moddiy boyliklar summasining kamayishi esa o'z navbatida pul mablag'larining kelib tushishini bildiradi;
- tovar-moddiy boyliklardan samarali va tejamkorlik bilan foydalanish;
- ishlab chiqarish zaxiralarini tashkil qilishdagi xarajatlarni minimallashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini nazorat qilgan holda, aylanma mablag'larning ishlab chiqarish zaxiralarida minimal darajada ushlab turishni ta'minlash;
- aylanma mablag'larga bo'lgan talabni imkon darajasida o'zi moliyalashtirish

Korxonaning xom-ashyo zahiralari, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, qo'shimcha qismlar,idishlar, kam baholik va tez eskiruvchan predmetlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, korxona tomonidan ishlab chiqilgan yarim tayyor mahsulotlarga sarflangan pul mablag'lari ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi.

Oborot mablag'larining asosiy vazifasi (maqsadi) korxonaning ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy mablag'lar bilan va shu asosda ishlab chiqarish hamda ijtimoiy mahsulot muomalasi uzluksizligini ta'minlashdan iboratdir.

Oborot mablag'larining to'liq takror ishlab chiqarish bosqichlarini bosib o'tadigan davri, oborot mablag'larining aylanish davrini tashkil qiladi. Ushbu davrning davomiyligi – mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish darajasining asosiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Oborot mablag'lari o'zining ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra 3 guruxga bo'linadi:

a) takror ishlab chiqarish jarayonining turli sohalariga xizmat ko'rsatish belgisiga qarab – ishlab chiqarish oborot fondlari va muomala fondlariga;

b) tashkil topish manbalariga qarab – o'z mablag'lari, qarzga olingan mablag'lar;

v) rejalashtirish xususiyatlari va tashkil etish tamoyiliga ko'ra – normalashtiriladigan va normalashtirilmaydigan va h.k.

Oborot mablag'larini ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlariga bo'linishining iqtisodiy asosi bo'lib mablao'lar aylanishining ikki alohida olingan sohasining mavjudligi hisoblanadi: ishlab chiqarish sohasi va muomala sohasi. Ularning asosiysi – bu moddiy ishlab chiqarish sohasidir. Oborot mablag'larining moddiy boylik ishlab chiqarish sohasidagi ulushi qancha ko'p bo'lsa, ulardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'lishi kerak.

Oborot mablag'larining normalashtiriladigan va normalashtirilmaydigan qismlarga bo'linishining iqtisodiy zaruriyati ishlab chiqarish qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Oborot mablag'larining alohida moddalari bo'yicha normativlarni rejalashtirishdan maqsad – korxonaning uzluksiz va barqaror ishlab chiqarishni minimal xom-ashyo zazahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarning minimal xarajatlari bilan ta'minlashdan iboratdir.

Normalashtiriladigan oborot mablag'lariga: oborot ishlab chiqarish fondlari, ombordagi tayyor mahsulotlar, ortib jo'natilgan va hisob-kitob hujjatlari bankka topshirilgan tayyor mahsulotlar kiradi.

Normalashtirilmaydigan oborot mablag'lariga esa – xaridorlarga ortib jo'natilgan mahsulotlar, hisob-kitoblardagi mablag'lar, pul mablag'lari, korxonaning bank hisob raqamidagi pul mablag'lari kiradi.

Oborot mablag'larini alohida moddalari bo'yicha nisbati ularning tuzilishi deb aytiladi. Ular turli ishlab chiqarish tarmoqlarida turlichadir. Unga ishlab chiqarish faoliyat turi, xarajat tuzilishi, moddiy texnika ta'minoti, mavsumiy yoki doimiy ishlab chiqarish xususiyati, hisob-kitoblarni tashkil etish xususiyatlari kabi turli omillar ta'sir ko'rsatadi.

Oborot mablag'larini normalashtirish – bu korxonaga rejalashtirilayotgan yilda uning ishlab chiqarish, ta'minot va mahsulotni sotish xususiyatlarini hisobga olgan holda minimal ishlab chiqarish zahiralari uchun zaruriy moliyaviy resurslar summasini iqtisodiy asosda aniqlash tushuniladi.

Oborot mablag'lari normasi – iqtisodiy tomondan asoslangan TMQzahiralarining minimal hajmi – odatda kunda hisoblanadi.

Oborot kapitalidan samarali foydalanish ko'rsatkichlari bo'lib:

1. Oborot mablag'larining aylanish davrining davomiyligi (1 marotaba) – $Д_0$

$$Д_0 = \frac{C_0 K_s}{P_c}$$

C_0 = davr mobaynida oborot mablag'larining qoldig'i;

K_s = davr mobaynidagi kunlar soni;

P_c = sotilgan mahsulotlar summasi.

2.

$K_0 = \frac{P_c}{C_0}$ - aylanish koe-ti

8.2. Aylanma mablag'larni tashkil etish manbalari.

Ilmiy asoslangan qoidalarga muvofiq xo'jalik korxonalarining o'z aylanma mablag'lari minimal darajada bo'ladi.

Qarz mablag'lari asosan mavsumiy zaxira va xarajatlarni tashkil qilishga yo'naltiriladi. Ular aylanma fondlar etarlicha mavjud bo'lmaganligi sababli aylanma mablag'larning harakatini susayishi yoki to'xtab qolishi xavfining oldini oladi. Bunday sharoitda kredit kuchli iqtisodiy richag va xo'jalik kapitalini shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Kredit korxonaning o'z resurslari bilan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida doiraviy aylanishni amalga oshiradi.

Shuning uchun, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida qisqa muddatli kreditlashning usuli va shakllari ishlab chiqarish vositalarining doiraviy aylanishdagi xususiyatlari maksimal darajada hisobga olishnishi kerak: ishlab chiqarish davrida aylanishning syokinlashuvi; ichki aylanishning hissasi kattaligi ma'lum pul mablag'lari sarflanishini talab qiladigan katta hajmdagi mavsumiy ishlab chiqarish zaxiralarini tashkil qilish muhimligi; xarajatlarning syokin-atsa va notekis ravishda o'sib borishi, hamda ularning ishlab chiqarish sikli tugash vaqtida, ya'ni ishlab chiqargan mahsulot realizatsiya qilinib pul ko'rinishida qaytib kelishi; qishloq xo'jaligi mahsulotining tabiiy ofatlar va

noqulay ob-havo sharoitlari ta’sirida kerakli darajada yig’ib olinmasligi va zarar keltirishi sug’urta fondlarini tashkil qilishni talab qiladi.

1-jadval

Xo’jaligi korxonalari aylanma mablag’larining shakllanish manbalari

O’z manbaalari	Qarz mablag’lari	Qo’shimcha jalb qilingan
Ustav kapitali Qo’shimcha kapital Zaxira kapitali Taqsimlanmagan foyda Byudjet malag’larining maqsadli pul mablag’lar	Banklarning uzoq muddatli kreditlari Uzoq muddatli qarzlar Banklarning qisqa muddatli kreditlari Tijorat kreditlari Soliq kreditlari	Kreditorlik qarzlari: pudratchi vata’minotchilar; ish haqini to’lash; sug’urta va boshqa kreditorlar bo’yicha. Iste’mol fondi. Kutilayotgan xarajat va to’lovlar bo’yicha zaxira. Shubhali qarzlar bo’yicha zaxira va boshqalar.

Korxonaning aylanma mablag’ga bo’lgan ehtiyoji o’zgarmas miqdordan iborat emas. Uning o’zgarish sabablari quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

- faoliyat ko’lamining kengayishi, bunda asosiy kapitalga qo’yilmalar aylanma kapitalga qo’shimcha qo’yilmalar mos kelishi lozim; aylanma kapitalga qo’shimcha ehtiyojlarni moliyalashtirish manbalari investitsiya loyihasini moliyalashtirish rejasiga kiritiladi;
- sotish hajmlari ko’paygan yoki kamayganda korxona shunga nisbatan o’z munosabatini bildirishi lozim va bu aylanma mablag’ miqdorining mos ravishda o’zgarishini talab qiladi;
- bir qator tarmoqlar uchun xos bo’lgan, aylanma kapitalga ehtiyojning mavsumiy tebranib turishi. Aylanma mablag’larga doimiy bo’lmagan ehtiyoj asosan tabiiy omillar, mavsumlar almashishi bilan bog’liq, ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining bir qator turlari uchun xosdir. Mavsumiylik elementi tabiat bilan bilvosita bog’liq bo’lmagan ishlab chiqarishlarda ham, hatto tikuvchilik sanoatida ham kuzatiladi;
- ta’minot shartlarining mahsulot ishlab chiqarish va tarqatish omillari bilan o’zgarishi; masalan, aylanma mablag’ ortishiga ehtiyoj etkazib berish (ortib jo’natish) chatsotasi, ta’minotchilar (xaridorlar) tarkibi hamda soni, tovarlar, ishlar, xizmatlar yuzasidan hisob-kitoblar shakllarining o’zgarishi natijasida o’zgartirilishi mumkin;
- masalan, korxona uchun eng qulay paytda tovar zaxiralarining to’planishini ko’zda tutadigan, korxonaning bozor tsrategiyasi;
- debitorlik qarzlarining haddan tashqari chetlashishi;
- infilyatsiya oqibatida "yoyilib" ketayotgan aylanma mablag’larni to’ldirish.

Qarz berish shartnomalari asosida karz pullar va mablag’lar jalb etiladigan moliyaviy veksellar pul, kredit bozorining mustaqil segmentini o’zida ifodalaydi. Ayni paytda xo’jaliklarni kreditlashning o’ziga xos xususiyati mavjud bo’lib, ularning deyarlik ko’pchiligi professional kreditor emasligi bilan bog’liqdir. Ammo kreditorlar bozori bu bo’sh pul mablag’lari taklif etiladigan ochik bozor emas. Bu erda pul resurslariga bo’lgan talab va taklif aksariyat holda kreditor hamda qarz oluvchi o’rtasida yuzaga kelgan o’zaro xo’jalik munosabatlari bilan bog’liq. Odatda iqtisodiy jihatdan o’zaro ta’minot, texnologik zanjir bilan o’zaro bog’lik bo’lgan korxonalar kreditlar bilan ta’minlanadi. Bunda aynan xo’jalik vazifalari, masalan ta’minot yoki sotishning kafolatlanganligi hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to’lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o’zgartirilishi mumkin, shunga qaramay pul bozorida umumiy vaziyat, qayta moliyalash stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo’jalik kreditining o’ziga xos turi karz berish shartnomasi asosida jismoniy shaxslarning mablag’larini jalb etishdan iborat.

Bu bo’linish joriy aktivlarni moliyalashtirishning to’rtta taniqli modellari asoslariga qurilgan bo’lib, ular korxonaning joriy moliyalashtirishda qisqa muddatli majburiyatlarning roli nuqtai nazaridan o’zaro farq qiladi.

2-jadval.

Korxonalar aylanma kapitalini boshqarishda kreditning roli[56].

Aylanma mablag'ni boshqarish modellari nomi	Qisqa muddatli kredit va kreditorlik qarzining roli	Likvidlik nuqtai nazaridan tavakkalchilik
Barkamol	Qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga barcha joriy aktivlar, ya'ni ularning o'zgaruvchan qismi ham to'liq moliyalashtiriladi.	Agar bir paytning o'zida kreditorlar oldidagi barcha majburiyatlar so'ndirilishi lozim bo'lsa, eng katta tavakkalchilik ehtimoli mavjud.
Agressiv	Qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga aylanma aktivlarning o'zgarib turuvchi qismi to'liq qoplanadi.	O'ta xatarli, chunki real aktivlar minimumi bilan shakllanish imkoni yo'q.
Kompramissli	Aylanma mablag'larning o'zgaruvchi qismi 50 foizga qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga qoplanadi.	Eng kam xatar, biroq ortiqcha joriy mablag'lar mavjudligi va shuning hisobiga foydaning pasayishi ehtimoli mavjud.
Konservativ	O'zgaruvchi qismi uzoq muddatli passivlar hisobiga qisman qoplanadi.	Likvidlikni yo'qotish xatari yo'q, chunki qisqa muddatli kreditorlik qarzlari mavjud emas.

Shuni ta'kidlash joizki, qisqa muddatli majburiyatlarning roli va korxona faoliyatining moliyalashtirish manbalari tarkibida ularning ulushi "konservativ yoki kompromiss yoki agressiv yoki barkamol modeli" yo'nalishida ortib boradi, bunda korxona likvidligining buzilish xarakteri teskari yo'nalishda o'zgaradi.

Bunda hatto aylanma mablag'larni boshqarishning konservativ modeli o'zgarib turuvchi aktivlar qismini qoplash uchun kreditdan majburiy foydalanishni ko'zda tutadi.

Kreditorlarning xarakteri, qisqa muddatli kreditlash turi va shaklidan qat'iy nazar, qisqa muddatli kreditning aylanma mablag'lar harakati bilan aloqasini ko'rish lozim.

8.3. Kreditga layoqatlilik tushunchasi.

Bank mijozlarini kreditlash jarayoni juda ko'p va turli xil xavf-xatarlar (risklar) bilan bog'liq bo'lib, qaysiki kreditlarni belgilangan muddatda qoplanmaslik muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli banklar o'z mijozlariga kredit berishda, mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qiladilar.

Umuman Bankda kredit berish jarayoni qarz oluvchilar sonini ancha ko'paytirishga, mijozlarni moliyaviy axvolini xar tomonlama va chuqur taxlil qilish, ishonchli mijozlarni tanlash asosida, kredit sohasida uchraydigan tavakallarni kamaytirish, kreditdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish, kredit olishga qaratilgan takliflarni shu taqsimlash va qabul qilish, kreditning qaytarilishini ta'minlaydigan qo'shimcha shakllardan foydalanish tomonga yo'naltirilgan.

O'zbekiston tijorat banklari o'z faoliyatlari davomida qator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muxim hayotiy masaladir. Bu muammoni birinchi navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli keltirib chiqaradi. Sir emaski, qachonlardir o'z bank tizimlarini islox kilgan mamlakatlarning qariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal qilish zarurati bilan to'qnashganlar.

[56] Muallif tomonidan tuzilgan

Bank mijozlarini kredit olish qobiliyati yoki kreditga mukobilligi- bu korxonaning olgan qarz mablag'larini samarali foydalanishi uchun ishonch bildiruvchi, qarz oluvchining olgan kreditlarini shartnoma asosida qaytarish qobiliyati va tayyorlashni bildiruvchi moliyaviy xo'jalik xolatidir. Boshqacha so'z bilan aytganda

Kreditga qobillik - bu xo'jalik sub'ektlari tomonidan kreditlarni o'z vaqtida va to'laligicha qaytadan olish qobiliyati hamda moliyaviy axvoliga beriladigan bahodir.

Qarzdorni kredit olish qobiliyatini baholashga uyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- iqtisodiyot buginlari sub'ektlarini davlat ma'sarrufidan chikishi va xususiy lashtirilishi;
- davlat karmogida bo'lmagan turli mulkdagi korxonalarning shakllanishi va rivojlanishi;
-korxonalarning moliyaviy barqarorligini to'liq aks ettirmaydigan iborat mablag'larini ular ixtiyorida to'planib qolishi (korxona ixtiyorida begona shaxslarning pul mablag'larini to'planib qolishi);
- bank tizimini to'liq xo'jalik hisobiga o'tish va bank barqarorligini tiklash uchun bank risklarini pasaytirish;

Mijozni kreditga qobilligi taxlil qilish jarayonida bank 2 ta masalani xal etishi kerak.

1. Mijozni o'z majburiyatilarini o'z muddatida bajara olish qobiliyati ;
2. Mijozni o'z majburiyatlarini bajarishga tayyorligi (xoxishi).

Birinchi savolga javob mijozni moliyaviy xo'jalik faoliyatini taxlil qilish jarayonida olishsa, ikkinchi savolga javob bank xodimini kredit oluvchi mijoz bilan bo'ladigan ogzaki intervagosi orqarli olinadi.

Mijoz kredit olish qobiliyati uni kelajak davrga bo'lgan to'lov qobiliyatini istiqbolini belgilab beradi.

Bank mijozi kreditga layoqatligi deganda mijozning o'z qarz majburiyatlari bo'yicha to'liq va o'z vaqtida hisoblashish qobiliyati tushiniladi.

Mijozning kreditga layoqatlilik darajasi banklar uchun juda zarur, chunki har bir berilgan kredit risk bilan bog'liq. Agar bank riskni hisobga olmasa, kredit o'z vaqtida qaytmasligi yoki umuman to'lanmasligi mumkin. Shu sababli, banklar o'z mijozlari moliyaviy holatini, to'lovga qobilligini va albatta, kreditga layoqatliligini tahlil qiladi.

Jahon amaliyotida, xususan AQShda banklar tomonidan, mijoz kreditga layoqatliligini baholashda "five s", "besh si" qoidasi ishlatiladi. Ular quyidagilar:

- character (mijoz harakteri);
- capacity (moliyaviy sharoiti);
- capital (kapital yoki mol-mulk);
- colletarial (ta'minlanganlik);
- conditions (umumiy iqtisodiy vaziyat).

Mijoz harakteri deganda, uning yuridik shaxs sifatida reputatsiyasi, ma'suliyatliligi, olingan qarzni to'lashga xohishi va tayyorlik darajasi tushiniladi.

Mijoz moliyaviy sharoiti yoki qobiliyati deganda, mijozning kreditni qaysi manbalardan qoplashligi tushiniladi. Odatda korxonada quyidagi 3 manbalar mavjud:

- joriy kassa tushumlari;
- aktivlarni sotishdan tushgan tushum;
- va boshqa moliyalashtirish manbalari (maxsus zahiralar, amortizatsiya fondi va b.)

Kapital deganda, mijozning aktsionerlik kapitali, uning strukturasi, aktiv va passivlar orasidagi munosabatlar tushiniladi. Uning ustav fondi va o'z kapitalining kredit operatsiyasiga jalb qilish darajasini ko'rib chiqish tushuniladi.

Ta'minlanganlik deganda, mijozning aktivlari qiymati va konkret ikqilamchi qarzni qoplash manbai (kafillik, sug'o'rta, garov) qaysiki, kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Umumiy iqtisodiy vaziyat deganda, mamlakatdagi joriy va kelajakdagi iqtisodiy holat, siyosay ahvol, soliqlar, xom-ashyo va boshqa kredit qaytarilishiga ta'sir etuvchi bilvosita faktorlarni o'rganish tushiniladi. Ushbu usul hozirda bizning banklarda qo'llanilsa foydadan holi bo'lmasdi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishdan asosiy maqsad, bu qarz oluvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning imkoniyatlari, qarzni o'z vaqtida qoplashni, risk darajasini, kredit miqdori va boshqa omillarni belgilangan sharoitda va holatda tahlil qilishdan iboratdir. Banklar uchun bu masalalarni amalga oshirish juda qiyin bo'lsada, xuddi ana shu maqsad amalga oshirilsagina berilgan kreditdan foyda olinadi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilish vazifasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Kreditga layoqatlilikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash;
2. Ko'rsatkichlarni tahlil qilish (yil boshi va yil oxirini taqqoslash);
Z. Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
4. Kreditga layoqatlilikni mustaxkamlash yo'llarini aniqlash;

Bundan tashqari, kreditga qobillikni aniqlash davrida zaruriy xollarda statistiq, analitik va boshqa ma'lumotlardan shuningdek istiqbol ma'lumotlaridan ham foydalaniladi.

Xo'jalik sub'ektlarining kreditga qobilligi bir qator ko'rsatgichlar bilan ifodalanadi: bular qoplash koeffitsienti, likvidlilk koeffitsienti va mablag'lari bilan ta'minlanganligi (avtonomlik koeffitsienti) shuningdek o'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi, noto'lovlar, foydalilik va aylanma mablag'larning aylanishi ko'rsatkichlaridandir.

Kreditga layoqatlilikni ifodalovchi asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlar quyidagilar:

1. Qoplash koeffitsienti;
2. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;
Z. Likvidlik koeffitsienti;

Qo'shimcha koeffitsientlar:

1. Aylanma mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsienti;
2. O'z aylanma mablag'lari mavjudligi;
Z. Foyda va rentabellik koeffitsientlari.

Berilgan balansga asosan ushbu ko'rsatkichlarni tahlilini ko'rib o'tamiz:

1. Kreditga qobiliyatlilikning asosiy ko'rsatkichlari: qoplash, likvidlik va mustaqillik koeffitsentlaridir. Bu koeffitsientlar tahlili uchun ma'lumotlar korxona balansidan olinadi.

Jahon amaliyotida korxona likvid mablag'lari ikkiga bo'linadi:

- absolyut likvid mablag'lar;
- joriy likvid mablag'lar.

Absolyut likvid mablag'lar tarkibiga balans aktiv qismining ikkinchi bo'limi jamisi kiritiladi. Ular 3 qismdan iborat:

1. Oson ishlatiladigan zahiralar;
2. Pul mablag'lari;
Z. Oson amalga oshiradigan talablar, "debitorlik qarzlari".

Likvid mablag'larning korxonada etarlicha bo'lishi, uning majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olishidan dalolat beradi.

Joriy likvid mablag'lar bu juda ham tez pulga aylanadigan korxona vositalarini o'z ichiga oladi, shu sababli joriy likvid mablag'lar tarkibiga balans aktiv qismi ikkinchi bo'limining quyidagilari kiradi:

1. pul mablag'lari;
2. debitorlik qarzlari.

Joriy likvid mablag'lar korxonaga birlamchi to'lovlarni amalga oshirishda kerak bo'ladi. Ular yuqori likvidlikka egaligidan, korxonada ushbu mablag'lar ham me'yor darajasida bo'lishi kerak. Zero, kredit inspektori mijozni kreditga layoqatliligini tahlil qilishda ushbu ko'rsatkichlarga alohida ahamiyat beradi.

O'zbekistonda likvid mablag'lar quyidagi tartibda bo'linadi:

A) oson ishlatiladigan talablar;
B) pul mablag'lari;
V) oson amalga oshiriladigan talablar.

Likvid mablag'larni bunday 2ga bo'lishdan maqsad, qoplash va likvidlik koeffitsientlarini hisoblash oson bo'ladi.

Qoplash koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi,

$$\text{Qoplash koeffitsienti} = \frac{\text{Qisqa muddatli likvid mablag'lar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad (8.1)$$

Qoplash koeffitsienti shuni ifodalaydiki, ya'ni u kreditlash chegarasini ko'rsatadi va mijozning hamma aylanma vositalarining qarzni olishga etarliligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2 va undan yuqori bo'lsa, mijoz kreditga layoqatlidir. Agar 0,5 dan kam bo'lsa, kreditlash foydasiz bo'lib, mijoz kreditga layoqatsiz hisoblanadi.

Likvidlik koeffitsienti mijozning aylanma kapitali strukturasini baholash asosida yaqin kelajakda bankdan olgan kreditlarini operativ (tezkorlik) va o'z vaqtida to'lay olish qobiliyati hisoblanadi. Likvidlik koeffitsienti 1,5 va undan yuqori bo'lsa, korxona yuqori kreditga layoqatlilik darajasiga erishgan bo'ladi.

Qoplash va likvidlik koeffitsientlarini topishda, qisqa muddatli majburiyatlarni to'g'ri hisoblash talab etiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar, buxgalteriya balansining passiv qismidagi majburiyatlar bo'limidan olinadi.

Banklardagi kredit inspektorlari mijozning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda, balansdagi asosan (joriy aktivlari va majburiyat bo'limidagi) moddalarning tarkibiy o'zgarishlarini ko'rib chiqadilar. Bu albatta, xavf-xatarni baholashni engillashtiradi.

Korxona kreditga layoqatliligi tahlili uchun kerak bo'ladigan keyingi ko'rsatkich – bu mustaqillik (muxtorlik) koeffitsientidir. Ushbu koeffitsient 0.6 dan, ya'ni 60 %dan yuqori bo'lsa, kredit xatari eng kam hisoblanadi. Bu koeffitsient 30 %dan, ya'ni 0,3 dan kam bo'lmasligi lozim. Bu ko'rvsatkichni hisoblash uchun korxonaning balans bo'yicha o'z mablag'lari manbalari ya'ni, balans passivining birinchi bo'linmasi summasi jami passiv summasiga bo'linadi. Nolikvid balanslarga ega bo'lgan korxonalarga esa bank kreditlaridan foydalanish huquqi berilmaydi. Korxona balansi likvidligi quyidagicha hisoblanadi: korxona balansi (1- shakl) passiv qismi birinchi bo'limi summasiga, ikkinchi bo'lim uzoq muddatli majburiyatlari qo'shilib (agar to'lov muddati uch oydan oshiq bo'lsa) balans aktiv qismi birinchi bo'limi summasi ayriladi. Agar chiqqan natija ijobiy bo'lsa, korxona balansi likvidli hisoblanadi.

Jahon amaliyotida, aylanma mablag'larining mavjud summasini (o'z aylanma mablag'larini) aniqlashda quyidagi usul qo'llaniladi. Ya'ni balans aktivining 2 chi bo'lim (aylanma aktivlari) summasidan, balans passivining 2 chi bo'limi (majburiyatlar) ayiriladi. (uzoq muddatli qarz va kreditlardan tashqari).

Korxona (mijoz) kredit olishga layoqatliligining tahlilida qo'llaniladigan qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'lib, aylanma mablag'larining aylanuvchanlik koeffitsientini va aylanma mablag'larining kunlardagi aylanuvchanligi ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Aylanma mablag'lari aylanuvchanligi koeffitsienti aylanma mablag'lari harakatining tezligini ta'riflaydi va tahlil qilinayotgan davr uchun mahsulot sotishdan olingan tushum va aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi. Tahlil uchun ma'lumotlar yillik hisobotning 1-shakli balans va 2-shakli moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan olinadi.

$$\text{Aylanuvchanlik koef.} = \frac{S}{U\,K} \quad (8.3)$$

bu erda,

S-(mahsulot sotishdan tushgan tushum)

U K-(oborot mablag'lari o'rtacha qoldiqlari)

$$A\,K = \frac{UK \times D}{C} \quad (8.4)$$

A K - (oborot mablag'larining kunlardagi aylanuvchanligi).

D – davrlar.

Tijorat banklari xo’jalik yurituvchi sub’ektlar bilan kredit munosabatlarini mustaqil ravishda o’rnatadilar. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar tijorat banklaridan kredit olish uchun kredit buyurtmasini beradilar. Shu kredit buyurtmasiga asosan tijorat banklari qarz oluvchining moliyaviy ahvolini tahlil qiladilar. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- kredit olish uchun berilgan kredit buyurtmasini ko’rib chiqish va bo’lajak qarz oluvchi bilan suxbatlashish;
- qarz oluvchining kredit qobiliyatini va qarz berish bilan bog’liq xatarlarni baholash;
- kredit narxini belgilash;
- kredit shartnomasini tayyorlash va uni tuzish.

7-

Mijozlarning kreditga layoqatliligi bo’yicha sinflarga bo’lish va korxonalar reytingini aniqlash.

Agar korxona 1-sinfga kiritilsa, unda umumiy asoslarda kreditlanadi. Ularga nisbatan kredit berishning imtiyozli tartibi ham nazarda tutilishi mumkin, ya’ni ishonch krediti berilishi, qo’shimcha ma’lumotlar va hisob-kitoblarsiz kredit berilishi va boshqa imtiyozlar taqdim etilishi mumkin.

3-jadval.

Sinflar bo’yicha kreditga qobillikni asosiy ko’rsatkichlariga talablar

T/r	Nomi	1-sinf	2-sinf	3-sinf
1.	Koplash koef. (Q.k)	K.k ≥2	2<q.k>1	1>q.k>0,5
2.	Likvidlik koef.(K.l)	K.l≥1.5	1.5<k.l>1	1>k.l>0,5
3.	Muxtoriyat koef.(Km)	K.m≥60%	60%<k.m>3 0%	30%>k.m>15%

Kreditga layoqatlilikni mustahkamlash yo’llari deganda, bu iloji boricha asosiy va qo’shimcha ko’rsatkichlarni yuqori bo’lishini ta’minlashdir. Demakki, har bir ko’rsatkich bo’yicha yuqorilikka erishishdir. Buning uchun korxona barqaror ishlab chiqarish jarayonini birinchi galda tashkil etishi lozim. Pul mablag’larining ortishi korxonaning birlamchi to’lovlarni oshirish uchun kerak mablag’larga bo’lgan extiyojlarni kamaytiradi va korxonada ishlab chiqarish maromiyligi bo’zilmasligiga olib kelishi mumkin.

O’z aylanma mablag’lari bilan ta’minlanish koeffitsienti bo’yicha esa, yuqori natijalarga erishish uchun o’z mablag’lari manbaini ortishini ta’minlash kerak. Chunki oborotda ishlatiladigan mablag’larda o’z aylanma mablag’lari ulushi qancha ko’p bo’lsa, uning kreditga layoqatliligi ortadi. Uzoq muddatli aktivlar ortishi salbiy ta’sir etsada, ularning ortish tempini o’z aylanma mablag’lari mavjud summasini ortish tempidan pastrok bo’lishini ta’minlash zarur. Yana korxonada o’z aylanma mablag’larini immobilizatsiyasiga yo’l qo’ymaslik zarur, ya’ni ularning o’z maqsadidan boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo’l qo’ymaslik kerak. Chunki ular immobilizatsiyasiga yo’l qo’yilsa, ularning balans bo’yicha hisoblangan qiymatidan haqiqatda oborotda qatnashayotgan aylanma mablag’lari kam chiqadi. Buning natijasida esa, aylanma mablag’lari aylanish koeffitsienti pasayadi, oqibatda o’z aylanma mablag’lari etishmovchiligi yuzaga keladi. Kreditga layoqatlilik tahlilida aylanma mablag’lari immobilizatsiyasini ham hisobga olish kerak. Kreditga layoqatlilikni mustahkamlash yo’llaridan yana foyda va rentabellik ko’rsatkichlarini oshirish hisoblanadi. Korxona sof foydasi o’tgan yilga nisbatan hisobot yilida ortishini ta’minlash lozim, buning uchun esa unga salbiy ta’sir etuvchi omillar kamayishi va ijobiy ta’sir etuvchi omillar ko’payishini ta’minlash kerak.

Mijozlarning kreditga layoqatligini baholash tizimini takomillashtirish lozim. Hozirgi vaqtda amaliyotda qo’llanilayotgan korxonalarning kreditga layoqatliligi asosiy ko’rsatkichlari davr talabiga javob bermay qolmoqda.

Har bir bankda mijozning kreditga layoqatliligini baholashda qo’llaniladigan yagona ko’rsatkichlar tizimi ishlab chiqarilishi lozim.

Hozirgi kunda mijozning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan ko'rsatkichlar ko'p sonli va xilma – xil bo'lib, ularning sezilarli ko'pi bir – birini takrorlash xarakteriga ega. Ayrim kompyuter dasturlari o'n va undan ortiq ko'rsatkichlarni hisoblaydi. Ko'rsatkichlarni bu qadar ko'pligi tahlilni qiyinlashtiradi.

Respublikamizda hozirgi kunda asosan uchta ko'rsatkichdan mijozning kreditga layoqatliligi aniqlanadi. Bu qoplash koeffitsenti, likvidlilik koeffitsenti va muxtorlik koeffitsentidir. Bu ko'rsatkichlar ma'lum davrga hisoblanadi va ularga xos asosiy kamchilik shundan iboratki, bu ko'rsatkichlar korxonada pul oqimini (kesh - flou) holatini baholash imkonini bermaydi. Ko'pchilik hollarda, amaliyotda qoplash va likvidlilik koeffitsentlari teskari natijalarni beradi. Aksariyat hollarda, korxona omborxonasida sotilmay qolgan sifatsiz mahsulotlarni to'planib qolishi hisobiga qoplash koeffitsenti yuqori darajani tashkil qiladi. Likvidlik koeffitsenti esa past bo'ladi. Odatda, bunday korxonalarda pul oqimi zaif bo'ladi, lekin bu ko'rsatkichlar uning dinamikasini ko'zatish imkonini bermaydi.

Bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tarmoqlar o'rtasidagi jiddiy farqlar koeffitsentilarining barcha tarmoq korxonalari uchun yagona ahamiyati xususida gapirish imkonini bermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayrim xorijiy davlatlarda kreditning sifatini tasniflashda tarmoq ma'lumotlariga asoslaniladi. Korxonaning moliyaviy ahvoli, ko'p jihatdan, tarmoqdagi ahvol bilan belgilanadi. Va bunda, tarmoq riski degan tushuncha kiritiladi. Bu tushunchaga muvofiq, moliyaviy holat faoliyatidagi o'zgarishlarning darajasiga bevosita bog'liqdir.

Shuning uchun ham korxonaning moliyaviy ahvoli, baholanayoitganda, avvalo, korxona faoliyati bo'yicha hisoblangan koeffitsentlarni o'rtacha tarmoq koeffitsentlari bilan taqqoslash zarur.

Korxonaning pul oqimini holatini baholash imkonini beradigan koeffitsentlar birlamchi ahamiyat kasb etishi kerak. Bu koeffitsentlarga majburiy tartibda quyidagilar kiritilishi kerak:

A) debitor qarzdorlikning aylanish koeffitsenti;

B) tovar zahiralarining aylanish koeffitsenti.

Tahlil uchun asosiy manba bo'lib, asosan mijozning buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan foydaniladi.

8.4. Biznes reja va uni kreditlash jarayonidagi o'rni.

Biznesning maqsadi-odatda,foydani barqaror holga keltirish va uni mutaa'sil oshirib borishdir.Tadbirkorning hamma o'y-fikrlari,xarakatlari va sarf-xarajatlari aynan foyda olishga qaratilgan bo'ladi.Bu foyda biznesning keyingi rvojlanishi va sotsial ehtiyojlarini qondirishga qaratilganidir. Ya'ni:

Har qanday ishda bo'lganidek,biznesda ham muvoffaqiyat o'z-o'zidan kelmaydi. Uning zaminida har doim og'ir mexnat, uddaburonlik, moxirlik, bilimdonlik va tashabbus yotadi. Vaholanki, tashabbus bilan birga bu fazilatlaru xislatlarni to'xtovsiz kamol toptirib borish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytigan bo'lsak, "Biznes"ga ibora – li qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin:

"Biznes, ma'lum ma'noda, birovlarning cho'ntagidagi pulni zo'rlik ishlatmay olish san'atidir" (Sh.Rustavelle)

Biznesning maqsadlari, vazifalari va pirovard natijalari nechog'lik aniq belgilab olingan bo'lsa, uning xatari xam shunga yarasha kam bo'ladi.

Biznes bilan shug'ullanishdan asosiy maqsad foyda olishdir.

Biznes-rejaning vazifalari


1.Korxonaning qanday faoliyat olib borishi va bozorda qanday o'rinni egalashini aniq yoritib berishi kerak;

2.Tashkil etilayotgan korxonaning barcha ishlab chiqarish tavsifini aniq yoritishi lozim;

3.Korxona faoliyat yuritish sxemasining har bir bosqichini to'liq ifodalashi lozim;

4.Moliya mablag'larini boshqarish dasturini o'z ichiga olgan holda,undan foydalanish samaradorligini ta'minlashi lozim;

5.Kredit beruvchi banklarga korxona faoliyatining istiqbollarini ko'rsatib berishi lozim.



1-rasm. Biznes-reja maqsadi[57].

Biznes-rejaning na’munaviy tuzilish tarkibi

1.Loyixaning maqsadi;
2.Loyixaning tashabbuskori;
2.1.Tashabbuskorning statusi,rekvizitlari va tuzilish tarkibi;
2.2.Tashabbuskorning bozordagi o’rni;
3.Bozor va marketing kontseptsiyasi;
3.1.Bozorning tarkibiy tuzilishi va tavsifi.maxsulotning (xizmatning) raqobatbardoshlig;
3.2.Sohaning (firmanig) mavjud salohiyati,bozordagi mavjud raqobatchilari;
3.3.Maxsulotga (xizmatga) bo’lgan talab va uni o’sishining asosiy omillari;
3.4.Marketing kontseptsiyasi,sotish istiqbollari;
3.5.Bozorlarning joylashishi;
3.6.Maxsulot (xizmatini)sotishni tashkil etish;
4.Ishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish) ob’ektining joylashishi;
4.1.Tanlangan joyning tavsifi;
4.2.Bozorlardan uzoqligi va mavjud transport kommunikatsiyalari;
4.3.Ob’ektining atrof-muxit va ekologiya ta’siri;
5.Loyixaning umumiy qiymati;
6.Texnologiya va loyialashtirish;
7.moddiy resurslar;
8.Ishchi kuchi;
9.Soliqlar;
10. Reklama;
11.Moliyaviy vaholash;
12.Xulosa;
12.1.Loyixaning asosiy yutuqlari hamda kamchiliklari;
12.2.Loyixa bo’yicha mavjud xavf-xatarlar;

Biznes-rejasi tarkibiga, odatda, titul varagi, mundarija, uning asosiy bo’limlarining xisob-kitoblar, jadvallar, grafiklar va shu kabilar ilova qilingan matni (mazmuni), shuningdek, ilovalar – boshlangich ma’lumotlar, kontraktlar, litsenziyalar va shu kabilar nusxalari, etkazib beruvchilarning preysko’rantlari, eksport xulosalari va baxolar, sertifikatlar va asosiy matnning qismi bo’lmasa-da, lekin biznes-rejasida tilga olingan boshqa xujjatlar xam kushib qo’yiladi.

umumiy talablar:

- xar bir bo’lim tadkikotlar yoki xisob-kitoblar bilan tasdiklangan va tegishli xujjatlar bilan rasmiylashtirilgan tekshirilgan boshlangich ma’lumotlar asosida shakllantiriladi;

- xisob-kitob jadvallari xo’jalik yuritish sub’ekti faoliyatining o’ziga xos xususiyatlari asosida to’ziladi;

[57] Muallif ishlanmasi.

- boshlangich va boshqa ma’lumotlarni tasdiklovchi xujjatlar (kontraktdan oldingi, kontrakt, ta’sis va xisobot xujjatlari nusxalari, auditorlik tekshirish materiallari) aloxida tartibda rasmiylashtiriladi;

- yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish (korxona)larni asoslashga doir axborotlar amal qilib turgan normativlarga muvofik rasmiylashtiriladi, muayyan bo’lim tarkibida keltiriladi yoki ilova shaklida rasmiylashtiriladi.

Biznes-rejasini ishlab chiqishda qo’yidagi tamoyillar va yondashuvlarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- biznes-rejasining ishlab chiqarish va moliya-iqtisodiy jixatlarini tadkik qilishda loyixa boshlangich parametrlari o’zgarishining uning samaradorligi va amalga oshirilishiga ko’rsatadigan ta’sirini baxolashga imkon beradigan imitatsion modellashtirish va diskontirlash uslublaridan foydalanish tavsiya qilinadi;

- ayrim ishlab chiqarishlarni tashkil etishda yoki qayta ta’mirlashda investitsiya loyixasining umuman korxonaning ishlab chiqarish faoliyatiga ta’sirini va korxona ishlab chiqarish faoliyatining investitsiya loyixasiga ta’sirini ko’rsatish kerak bo’ladi;

- yangi korxonani ko’rish xaqidagi masalalarni xal etishda uni mavjud maydonchalarda (qayta ta’mirlashda) yoki yangi maydonchalarda joylashtirishning muqobil xisob-kitoblari va asoslarini bajarish zarur;

- davlat mablag’lari yoki uning preferentsiya (imtiyoz)lari ishtirokida amalga oshiriladigan loyixalar uchun imtiyozlar berilgan va imtiyozlar berilmagan xollardagi byudjet va byudjetdan tashkari fondlarga to’lovlar, shuningdek, davlatning zararlari va ularning kompensatsiyalari (yukotishlar)ning xisob-kitoblari bajarilishi lozim;

- biznes-rejasi investitsiya loyixasi amalga oshiriladigan butun davr uchun to’zilishi kerak, bunday davr qarzga olingan mablag’larning qaytarilishi muddati plyus bir yilni kamrab oladi (xisob-kitobning boshqacha asoslangan ko’rsatkichlarini belgilashga xam yo’l qo’yiladi);

- davlat boshqaruvi organlariga takdim etiladigan xisob-kitob (jadval)lardagi axborotni aks ettirish kadami bir yilga teng bo’lishi lozim;

- amalga oshirilishi uchun erkin almashtiriladigan valyutadagi mablag’lar talab etilmaydigan biznes-rejasida xamma xisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi (inflyatsiyani xisobga olgan xolda prognozli narxlarda), boshqa xollarda – bundan tashkari yana shartli birliklarda (shartli birlik qilib, odatda, AKSh dollari yoki boshqa konvertatsiya qilinadigan valyuta) olinadi.

Investitsiya loyixasining biznes-rejasini to’liq xajmda ishlab chiqishda ularning natijalari «Investitsiya loyixasi pasporti» shaklida, boshqa xollarda – «Investitsiya taklifi» shaklida rasmiylashtiriladi.

Investitsiya pasporti – bu mustakil ekspert tomonidan tayyorlangan, korxona (firma, kompaniya va shu kabi)larning ishlab chiqarish-xo’jalik va moliya-iqtisodiy faoliyati xaqidagi bir kator (3-5) yillar uchun dinamikadagi axborotni o’z ichiga oladigan xujjatdir. Uni ishlab chiqishning majburiy sharti tijorat va ishlab chiqarish sirlarini saklashdan iborat

8.5. Tijorat banklari tomonidan aylanma mablag’larni to’ldirish uchun beriladigan kreditlarni rasmiylashtirish tartibi.

Turli tashqi moliyalashtirish manbalarini jalb etish va so’ndirish imkoniyatlari ishlab chiqarish-tijorat davrining davomiyligi, faoliyatning mavsumiyligi hamda boshqa sharoitlar bilan bog’liq bo’lib, ular ushbu korxona aylanma mablag’larining aylanish xususiyatlariga bog’liqdir.

Shubhasiz, tijorat krediti tashkilotning joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun juda muhim hisoblanadi, u bir tomondan ta’minotchilar va pudratchilar, ikkinchi tomondan xaridorlar hamda buyurtmachilar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Tijorat krediti jarayonida aylanma mabalag’lar bank tizimini chetlab qo’ygan holda bir korxona aylanmasidan boshqa korxona aylanmasiga qayta taqsimlanadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqara borib, korxonalar bir-birini o’zaro kredit bilan ta’minlaydilar, hamda kreditning boshqa turlaridan butunlay voz kechishlari mumkin.

Tijorat krediti korxonalarni o’zaro o’z-o’zidan yuzaga keladigan moliyalashtirishni tashkil etadi, u uyg’un holda kapital aylanish jarayoniga kiritilgan, tovar muomalasiga bo’ysundirilgan:

tovarlarning muqobil harakati va ularning pul to'lovi vaqt bo'yicha to'xtovsiz amalga oshirilib, tijorat kreditini tashkil qiladi. Tijorat savdo kreditining shartlari korxona marketing tsrategiyasining bir qismi sanaladi, tijorat krediti o'zicha pul bozorining emas, balki tovar bozorining ko'rinishidir, shuning uchun uning bahosiga pul bozorining foiz stavkalari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kreditor korxona o'z aylanmasidan tovar yoki pul shakllarida mablag'larni safarbar etadi va shuning uchun muddati uzaytirilishi yoki bo'lib-bo'lib to'lanishi yuzasidan tovar narxiga utsamalar belgilash yo'li orqali o'z yo'qotishlarini qoplaydi. Tijorat krediti oldi-sotdi shartnomasi bilan ko'zda tutilgan qo'shimcha xizmat sifatida taqdim etiladi, u bank kreditga nisbatan afzaldir.

Tijorat kreditlash muddatlari hisob-kitob to'lov intizomi doirasida belgilangan bo'lib, amaldagi mavjud qonunchilikka muvofiq tovar, ishlar, xizmatlar uchun to'lovlarning eng oxirgi muddati uch oyni tashkil etadi. Debitor tomonidan to'lov muddati kechiktirilganda majburiy kreditlash birgina O'zbekiston davlati muammosi emas. Jumladan, Buyuk Britaniyada 80-yillar o'rtalarida tijorat kreditining rivojlanishi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, 75 foiz qism qarzdorlar o'z qarzlarini 30 kun mobaynida so'ndirilishi shart bo'lsada, bu talabni bor-yo'g'i ularning o'ndan bir qismi bajargan.

Xo'jalik aylanmasida Vekselning tijorat krediti intsrumenti va hisob-kitob to'lov vositasi sifatida qo'llanilishi Veksel shaklida tijorat kreditining bir qator hususiyatlarini keltirib chiqaradi. Veksel qarzining xususiyati shundan iboratki, u erkin muomalada bo'lishi mumkin, shuning uchun qarz oluvchi tomonidan qarzni so'ndirish va foizlarni to'lash avvaldan noma'lum shaxs foydasiga amalga oshiriladi.

Qarz berish shartnomalari asosida qarz pullar va mablag'lar jalb etiladigan moliyaviy Veksellar pul, kredit bozorining mutsaqil segmentini o'zida ifodalaydi. Ayni paytda xo'jalik kreditlashning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, u korxonalar professional kreditor emasligi bilan bog'liq. Bu bo'sh pul mablag'lari taklif etiladigan ochiq bozor emas. Bu erda pul resurslariga talab va taklif aksariyat holda kreditor hamda qarz oluvchi o'rtasida yuzaga kelgan o'zaro xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq. Odatda iqtisodiy jihatdan o'zaro ta'minot, texnologik zanjir bilan o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar kreditlar bilan ta'minlanadi. Bunda aynan xo'jalik vazifalari, masalan ta'minot yoki sotishning kafolatlanganligi hal etiladi, shuning uchun kredit yuzasidan to'lov turli kredit bitimlarida sezilarli darajada o'zgartirilishi mumkin, shunga qaramay pul bozorida umumiy vaziyat, qayta moliyalash stavka darajasi ham hisobga olinadi. Xo'jalik kreditining o'ziga xos turi qarz berish shartnomasi asosida jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb etishdan iborat. Banklar professional kredit beruvchi sifatida mijozlarga joriy faoliyatni moliyalashitirish uchun g'oyat turli-tuman kreditlarni taklif etadilar, ularning ichida eng qulaylari overdraft va kredit liniyalaridir.

Overdraft taqdim etish vositasida hisob varaqni kreditlash - bu "talab yuzaga kelishi bo'yicha" kredit berishdan iborat. Shubhasiz, overdraf bilan kredit liniyasi o'rtasida o'xshashlik mavjud: ular kreditdan foydalanish muddati, kreditlash limiti, kredit yuzasidan foiz stavkalari va limit ochilganligi uchun alohida to'lov belgilanganligini ko'zda tutadilar. Biroq, kredit liniyasi bo'yicha odatda kreditni tanlash jadvali tuziladi va uning buzilganligi uchun tomonlarning moddiy javobgarligi nazarda tutilishi mumkin. Overdraft esa o'z mohiyatiga ko'ra bankning o'z mijoziga "tez yordam"ni ifodalaydi va tabiiyki, avvaldan u qaysi paytda kerak bo'lishini ko'zda tutish mumkin emas. Overdraft kreditlashning eng tez moslashuvchan mexanizmidir va uni so'ndirish mijoz qarz oluvchining hisob raqamiga kelib tushayotgan mablag'lar hisobiga avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Aylanma mablag'lar umuman, shuningdek ularning alohida qismlari, masalan ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va boshqalar bankning kreditlash ob'ektlari bo'lishi mumkin. Kreditlash mexanizmini tanlash muayyan kredit bitimi holatlari va qarz oluvchining ehtiyojlari, unda ta'minot yoki likvid talablarning mavjudligi, uning bank bilan o'zaro munosabatlari xarakteri va davomliligi bilan bog'liq.

Tashkilot joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun qisqa muddatli byudjet yordamidan ham foydalanishi mumkin, u turli darajadagi byudjetlar tomonidan quyidagi shakllarda taqdim etiladi:

- ❖ pul mablag'larining qarz oluvchiga haqiqatda berilishi;

❖ kreditlashning imtiyozli shartlarini ta’minlash uchun bank kreditlari bo’yicha foiz stavkalaridagi farqni qoplanishi;

❖ bank kreditlari yuzasidan byudjet kafolatlarining taqdim etilishi;

❖ byudjet oldidagi majburiyatlarni vaqtincha kamaytirish vositasida kreditlash.

Byudjet krediti faqat qaytarilishi asosida avval taqdim etilgan byudjet mablag’lari yuzasidan muddati o’tgan qarzlari mavjud bo’lmagan yuridik shaxslarga berilishi mumkin. Vakolatli organlar kreditning amal qilish paytida har qanday vaqtda byudjet krediti oluvchisini tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek byudjet kreditidan maqsadli foydalanilishini tekshiradilar. Yuridik shaxslarga taqdim etilgan byudjet mablag’larining qaytarilishi, shuningdek ulardan foydalanganlik yuzasidan to’lov byudjet to’loviga tenglashtiriladi.

Korxona aylanma mablag’ni saqlab turilishi uchun soliqlarni to’lash bo’yicha muddatini uzaytirish, bo’lib-bo’lib to’lash va soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin.

Ushbu kreditlash shakllarida umumiy jihat shundan iboratki, ular byudjetga soliqlar va yig’imlar to’lash muddatlarining o’zgartirilishi bilan bog’liq.

Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18-noyabrdagi PF-4053 sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmonida ko’zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog’lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag’larini kengroq jalb qilishni yo’lga qo’yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Qarorda Respublika Komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish yoki to’g’ridan-to’g’ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko’zda tutilgan:

1) bankrot korxona kreditorlik qarzi tarkibining 70% va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonani tijorat banklari balansiga berish;

2) bankrot korxonani auktsion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o’z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;

3) bankrot korxonani tanlov savdolari orqali tijorat banklariga «nol» qiymatda invetsitsion majburiyat sharti bilan sotish.

Ushbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarni tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo’jalik faoliyatini yo’lga qo’yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi F-4010 sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to’g’risidagi tartibni tasdiqlash to’g’risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarning moliyaviy qobiliyatini tiklash bo’yicha bir qator imtiyozlar (ko’maklar) berilgan. Jumladan, ushbu Farmoyishga ko’ra bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar:

- qo’shimcha qiymat solig’idan ozod qilindi;

- uch yil davomida foyda solig’i, yagona soliq to’lovi, mulk solig’i va er solig’larini to’lashdan ozod qilindi;

- boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig’i va yagona soliq to’lovidan ikki yil davomida ozod qilindi.

Ayni payta mazkur jarayonning samaradorligini va ta’sirchanligini ta’minlash maqsadida tijorat banklariga bir qator majburiyatlar yuklangan. Jumladan:

1) tijorat banklari balansiga o’tkazilgan bankrot korxonalarni tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo’lganda korxonani to’liq retsrukturizatsiya qilish orqali faoliyat yo’nalishini o’zgartirish, tsrategik hamkorlar va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish;

2) yollangan har bir korxona boshqaruvchisi ishlab chiqarishda kutilgan natijalarga erishishi orqali ishlab chiqarishlarga zamonaviy va yuqori malakali boshqaruvchilarni jalb qilish ishlarini olib borishi;

3) banklar tasarrufiga berilgan bankrot korxonalari kelgusi faoliyati ustidan Respublika komissiyasida hisobot berishlari yo’lga qo’yilgan.

Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi.

Shuningdek, yagona soliq to'lovi stavkasi borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlardagi chakana savdo, ulgurji va chakana savdo faoliyatini yurituvchi dorixonalar uchun 1 foizgacha pasaytirildi. Borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlarda tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish yig'imi belgilangan stavkaning 20 foizi miqdorida, savdo korxonalaridan esa minimal oylik ish haqi miqdorida undirish belgilandi. O'tgan yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash borasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Imtiyozli kredit stavkalari, masalan, biznesni boshlash uchun ajratiluvchi kredit stavkasi 5%dan 3% ga qadar pasaytirildi va h.k.

Shuningdek, bankda hisob raqami ochish va yopish uchun olinadigan to'lovlar umuman bekor qilindi.

Shunday qilib, korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha ehtiyoji kredit xarakteridagi turli tuman manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. Har qanday holatda ham qisqa muddatli kredit va korxonaning aylanma mablag'lari quyidagi ko'rinishlarga ega:

qisqa muddatli kreditlash muddati aylanma mablag'ning aylanish muddati bilan bog'liq-bir yilga qadar;

qisqa muddatli kredit korxona joriy faoliyatidan tushumlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan tushumlar hisobiga so'ndiriladi, aylanma mablag'lar elementlari tannarxning aksariyat qismini tashkil etishi bois aylanma kapital davriy aylanishining uzluksizligi qisqa muddatli kreditni so'ndirishning sharti hisoblanadi;

qisqa muddatli kreditni jalb etish uchun xarajatlar buxgalteriya (moliya) (tannarx) tarkibiga, soliq hisobida esa o'rnatilgan cheklashlar doirasida kiritiladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Mavsumiy xarakterli tarmoqlar xususiyatlari va ularga tavsif.
2. Turli mulk sub'ektlarini kreditlash tartibi
3. Kichik va xususiy biznesni kreditlash tartibi
4. Kreditni qaytarilishi muammolari.
5. qishloq xo'jaligiga kredit berish va koplash tartibi.
6. Mikrokreditlash xususiyatlari va tartibi
7. O'zbekiston tijorat banklari investitsion kreditlashtirish xususiyatlari

9-MAVZU. KREDITNING TA’MINOTI VA UNING SHAKLLARI

Reja

9.1 Kreditning ta’minoti tushunchasi.
9.2 Ta’minotlarni rasmiylashtirishning huquqiy asoslari.
9.3 Kreditning qaytarilishida garov va boshqa ta’minot shakllarining tutgan o’rni.
9.4 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit ta’minoti bilan bog’liq muammolar.

Tayanch iboralar

Kredit, kredit munosabatlari, kredit munosabatlari ishtirokchilari, kredit ta’minoti, garov ta’minoti, shartnoma, kafolat, kafillik, tsessiya, sug’urta shartnomasi, sug’urta polisi, garov va ipoteka

9.1.Kreditning ta’minoti tushunchasi.

Kredit munosabatlari samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy holat bu – majburiyat ijrosini ikkilamchi manba predmetlari asosida to’g’ri rasmiylashtirmaslikdir. Ayni paytda kredit munosabatlari samaradorligi majburiyat ijrosini ta’minlashning ikkilamchi manbalari ob’ektini rasmiylashtirish tadbirlariga bog’liq – deya, kreditlash jarayonlarida asosiy e’tiborni majburiyat ijrosini rasmiylashtirishga qaratuvchilar soni bank xodimlari o’rtasida ham ko’pchilikni tashkil etadi. Vaholanki, kredit samaradorligi uning o’z vaqtida qay yo’l bilan bo’lsa ham qaytarilishi bilan emas, balki umuminsoniy faoliyat hamda uning shaxsiy inson omiliga xizmat qiluvchi tizim sub’ektlarining birgalikda o’zaro teng huquq va majburiyatlar asosida o’z oldilariga qo’ygan maqsadlariga muvaffaqiyatli erishib, iqtisodiy o’sish uchun zamin yaratilganligi bilan baholanadi.

Ipoteka shartnomasini tasdiqlatish uchun xuquqni tasdiqlovchi va ma’lumot tarzidagi hujjatlar jamlamasini taqdim etish lozim. Yashash joyini garovga qo’yish uchun unda istiqomat qiluvchi barcha oila a’zolarining roziligi yozma ravishda olingan bo’lishi xam kerak.

Notarius tomonlar o’rtasidagi garov shartnomasini o’z muhri va imzosi bilan tasdiqlar ekan, qonunga binoan kreditorning huquqi yuridik jihatdan himoya qilinishi xususida qayg’urishi shart. Garovga qo’yilgan mulkni boshqaga o’tkazish muqarrar ravishda taqiqlanadi, u vaqtincha oldi-sotdi, almashtirish, hadya va garovga oluvchining roziligisiz ijara predmeti bo’la olmaydi.

Tomonlar o’rtasidagi shartnomani rasmiylashtirayotganda mol-mulkni garovga qo’yish yo’li bilan olingan qarzning qaytarilishini sug’urta polisisiz to’la kafolatlab bo’lmasligini ularga tushuntirish ayniqsa muhim. Negaki garovga qo’yilgan uy, kvartira, avtomashina va boshqalar egasiga bog’liq bo’lmagan holatlarda-tabiiy ofat, avariya, yong’in, o’g’irlik va hokazolar oqibatida shikastlanishi mumkin. Bunday paytda qarzga berilgan mablag’larni kreditorga kim to’laydi? Ana shu boisdan ham bunday bitimni tasdiqlovchi har bir notarius qarz oluvchidan yuqorida aytilgan hujjatlarga qo’shimcha ravishda garovga qo’yilgan mol-mulkning sug’urta shartnomasi va sug’urta polisini ham talab qiladi.

Kreditlashning ta’minlanganlik tamoyilini amalga oshirishda xodimlarda malaka va tajribalarining etishmasligi ham bor gap.

Aslida ta’minlanganlik tamoyili kredit munosabatlarida muhim o’ringa ega, chunki, bu tamoyilning qay darajada sifatli va mukammal amalga oshirilganligi kreditlash jarayonida qarzdorning o’z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kreditorga hech bir moneliksiz qarzdor ta’minoti ob’ektiga egalik huquqini olishni ta’minlashi, shuningdek, ta’minot ob’ekti qiymati kredit va unga hisoblangan ustama foizlarni qoplay olish imkoniyatini berishi lozim. Lekin amaliyotda kredit munosabatining ta’minotiga olingan kredit ob’ekti (asosan “Ipoteka” kreditlarida)ning ayni paytdagi bahosini aniqlashda, rekonstruktsiya va tugallanmagan bino-inshootlarni tugallash xarajatlari tannarxini chiqarishdagi xatolik va malakasizlik oqibatida va eng asosiysi, qarzdor moliyaviy holatini aniqlashning huquqiy jihatlarini tahlil etishda malakasizlik qilinayotganligi kredit munosabatlari samaradorligiga salbiy ta’sir etmoqda. Bundan tashqari, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar shuni ko’rsatmoqdaki, majburiyat ijrosini ta’minotning ikkilamchi manba predmetlaridan biror-bir shakl yoki usullari asosida ta’minlashga doir rasmiylashtirish tadbirlarining amalga oshirilganligi, munosabat 100 foiz ijobiy yakunlanishi kafolatlangan, deb xulosa chiqarish

uchun asos bo’lmas ekan. Banklar faoliyatida shunday bir muammolar yuzaga kelmoqdaki, ular echimini ijobiy hal etish uchun xodimlardan ko’rilayotgan masalaning huquqiy va iqtisodiy jihatlarini tahlil eta oladigan darajada bilim va ko’nikma talab etiladi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo’lgan huquqni majburiyatlarni ta’minlash uchun berishi garov hisoblanadi (FKning 264-moddasi birinchi qismi; «Garov to’g’risida»gi Qonunning[1] 1-moddasi birinchi qismi). Yuridik va jismoniy shaxslar garovga qo’yuvchi yoki garovga oluvchi bo’lishlari mumkin («Garov to’g’risida»gi Qonunning 8-moddasi birinchi qismi). Qarzdorning o’zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo’yuvchi bo’lishi mumkin. Ashyoning (demak, mol-mulkning) mulkdori ashyoni garovga qo’yuvchi bo’lishi mumkin (FKning 266-moddasi birinchi va ikkinchi qismlari; «Garov to’g’risida»gi Qonunning 8-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari).

FK va «Garov to’g’risida»gi Qonunda mavjud bo’lgan garov to’g’risidagi umumiy qoidalar, agar boshqa talablar «Ipoteka to’g’risida»gi Qonun (4.10.2006 yildagi O’RQ-58-son) bilan belgilanmagan bo’lsa, ipoteka (ko’chmas mulk garovi) bo’yicha munosabatlarga nisbatan qo’llanadi. Biroq ipoteka bilan ta’minlangan majburiyatda ishtirok etmaydigan uchinchi shaxs ipotekaga qo’yuvchi bo’lishi mumkin («Ipoteka to’g’risida»gi Qonunning 4-moddasi birinchi qismi).

Garov predmeti bo’la oladigan (yoki bo’la olmaydigan) mol-mulk, boshqa qonun hujjatlariga havola qilingan holda FKning 267-moddasi, «Garov to’g’risida»gi Qonunning 5-moddasi, «Ipoteka to’g’risida»gi Qonunning 6 va 9-moddalarida ko’rsatilgan. Xususan, ularga quyidagilar kiradi:

Davlat xavfsizligini ta’minlash manfaatlari nuqtai nazaridan garov va ipoteka qo’llanilishi mumkin bo’lmagan ob’ektlar toifalari ro’yxati (VMning 8.05.2015 yildagi 114-son Qarori bilan tasdiqlangan);

Tarixiy, badiiy yoki o’zga madaniy qimmatliligi tufayli garov va ipoteka qo’llanilishi mumkin bo’lmagan ob’ektlar ro’yxati (VMning 5.12.2014 yildagi 335-son Qarori bilan tasdiqlangan).

Shu tariqa, jismoniy shaxsning mol-mulki, agar u oborotdan olib qo’yilgan va begonalashtirilmaydigan mol-mulk turlariga kirmasa yoki qonun hujjatlari bilan garovga qo’yish taqiqlanmagan yoki cheklanmagan bo’lsa, kreditni ta’minlashda garov predmeti bo’lishi mumkin. Bunda ushbu shaxsning o’zi uning foydasiga garov beruvchi (ipoteka beruvchi) bo’layotgan MChJ tarkibiga kirishi yoki kirmasligi muhim emas. Uchinchi shaxs mol-mulkining garovi uchun hujjatlarni rasmiylashtirish uning ko’char yoki ko’chmas mulkligi va boshqa holatlarga bog’liqdir.

FKning 271-moddasiga muvofiq garov to’g’risidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi kerak. Ipoteka va ko’chmas mulkni garovga qo’yish to’g’risidagi shartnoma yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo’lgan shartnomaga muvofiq olinadigan majburiyatlarni ta’minlash yuzasidan unga bo’lgan huquqlarni garovga qo’yish to’g’risidagi shartnoma ham notarial tasdiqlanishi shart. Bundan tashqari, ipoteka to’g’risidagi shartnoma tegishli mol-mulkli bitimlarni ro’yxatdan o’tkazish uchun belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilishi kerak. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik garov to’g’risidagi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi[2]. Bundan shunday xulosa chiqadi: ipoteka shartnomasi notarial tasdiqlanishi va kadastr xizmatida ro’yxatdan o’tkazilishi kerak.

Ta’minlanishi uchun mol-mulk garovga qo’yiladigan kredit shartnomasi notarial tasdiqlanishi majburiyligi qonunda nazarda tutilmagan. Qonun hujjatlarining tahlili shuni ko’rsatdiki, amaldagi birorta qonun hujjatida ham ko’char mulk garovi shartnomasini majburiy notarial tasdiqlash talabi mavjud emas. Binobarin, ko’char mulk garovi shartnomasi (hatto avtomototransport vositalari garovi ham, biroq bu haqda keyinroq so’z yuritamiz) notarial tasdiqlanmaydi, agar taraflarning o’zlari bunday qilishni xohlamasalar, albatta.

Agar garov predmeti ko’chmas mulk bo’lsa, ipoteka shartnomasi notarius tomonidan unga bo’lgan mulk huquqini tasdiqlovchi va boshqa hujjatlar taqdim etilgan taqdirdagina tasdiqlanishi mumkin (Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to’g’risida yo’riqnomaning[3] 37-bandi, bundan keyin – Yo’riqnoma). Bunda hujjatlarning kseronusxasi

ularning asl nusxasi va dublikati o'rnini bosa olmaydi. Yo'riqnomaning 125-bandida ipoteka shartnomasini tasdiqlash uchun notariusga ipotekaga qo'yuvchi va ipotekaga oluvchi taqdim etishi kerak bo'lgan hujjatlar sanalgan. Ular, xususan, quyidagilardir:

- ipoteka narsasiga nisbatan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat – mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi, mahalliy davlat hokimiyati organining qarori (farmoyishi) notarial tasdiqlangan; oldi-sotdi (hadya, ayirboshlash) shartnomasi, mulk huquqi va merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomalar, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa bitimlar;
- «Ergeodezkadastr» davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasining ma'lumotnomasi;
- uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismida doimiy propiska qilingan shaxslar to'g'risida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki XUMSh tomonidan berilgan ma'lumotnoma;
- garov mulkining sug'urta etilganligi haqidagi guvohnoma (sug'urta polisi) va (yoki) sug'urta shartnomasi[4];
- asosiy majburiyat haqidagi shartnoma (sizning holatda – kredit shartnomasi);
- ipotekaga qo'yilgan mol-mulkning ipotekaga oluvchi va ipotekaga qo'yuvchi bilan birgalikdagi tuzilgan baholash dalolatnomasi yoki baholovchi tashkilotning xulosasi;
- ipotekaga qo'yilayotgan mol-mulk umumiy (er-xotinning birgalikdagi mulki) bo'lsa, barcha mulkdorlarning (er-xotinning) roziligi;
- xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi ipotekaga qo'yilganda – shu uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismida doimiy propiska qilingan va xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslarning notarius yoki O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan shahodatlantirilgan roziliklari haqidagi arizalari;
- agarda ipotekaga qo'yilayotgan turar joyda doimiy propiska qilingan shaxslar voyaga etmagan, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan bo'lsa – ularning qonuniy vakillari yoki vasiylik va homiylik organlarining yozma roziligi;
- ipotekaga oluvchi yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlari, shuningdek vakilining vakolatlarini tasdiqlovchi hujjati (ishonchnoma);
- davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

1 -jadval

Garovga olinadigan mulk va kredit hajmi nisbati[58]
(joriy bozor baholarida)

Garov turlari	hajmi
Ko'chmas mulk ob'ektlari: (Toshkent shahri uchun) (viloyat va tuman markazlari uchun) (joyidan qat'iy nazar qurilishi tugallanmagan ob'ektlar)	 70 % gacha 50 % gacha - 50 % gacha
Ishlab chiqarish va boshqa mol-mulk	- 60 % gacha
D¡MO (Davlat qisqa Muddatli Obligatsiyalari) DO'MPM (Davlat O'rta Muddatli Pul Majburiyatlari)	90 - 100 % gacha 90 - 100 % gacha
"Toshkent" RFBda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar "Elsis-Savdo" MChJda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar "Banklararo savdo tizimi" MChJda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar	60 % gacha 60 % gacha 60 % gacha
Boshqa banklardagi naqd pul (depozitlar)	- 100 % gacha
"Katta ettilik"ka a'zo davlatlarning valyutalari	- 100 % gacha
Sug'urta kompaniyasi yoki bank kafolati	- 100 % gacha

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki bank kredit berish jarayonida likvidlik mollarni, kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlarini asos qilib olishi mumkin.

[58] Tijorat banklarininng kredit siyosati, 2016 yil

Ayni vaqtda shuni nazarda tutish zarurki, «Garov to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasi birinchi qismi 1-bandiga muvofiq, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab, garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'lmagan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalashi kerak.

Agar garov predmeti ko'char mulk bo'lsa, uning garovi asosiy shartnomada rasmiylashtiriladi, uni notarial tasdiqlash shart emas, bitim taraflari yoki ulardan birining talabi bundan mustasno.(1- jadval).

Kredit ta'minotlarining turiga ko'ra taqdim etiladigan ssudalar xajmi quyidagi salmog'dan oshmasligi shart(2- jadval).

2-jadval

Garovga olinadigan mulk va kredit hajmi nisbati[59]
(joriy bozor baholarida)

№	Ta'minot turlari	Hajmi (foizda)
1	O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi kafolati	100,0
2	O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kafolati	100,0
3	O'zbekiston Respublikasi boshqa tijorat banklari yoki chet el banklari kafolatlari	100,0
4	Davlat qisqa Muddatli Obligatsiyalari	100,0
5	Davlat O'rta Muddatli pul majburiyatlari	100,0
6	Sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi	100,0
7	Bankga jalb etilgan yoki boshqa banklardagi depozitlar	100,0
8	Bankga jalb etilgan yoki boshqa banklardagi erkin ayirboshlanadigan valyutadagi depozitlar	100,0
9	Qimmatbaho metallar	100,0
10	Ko'chmas mulk (mijozning yoki uchinchi shaxsning bino va ishlab chiqarish uskunasi)	80,0
11	Ko'chmas mulk (mijozning yoki uchinchi shaxsning bino va ishlab chiqarish uskunasi)	80,0
12	Ko'char mulk (mijozning yoki uchinchi shaxsning engil, qishloq xo'jaligi), yuk va boshqa transport vositalari	80,0
13	Mijoz yoki uchinchi shaxsning boshqa xo'jalik anjomlari sifatidagi mulk	80,0
14	Mijoz yoki uchinchi shaxsning tovar-moddiy zahiralari	80,0
15	"Toshkent" RFBda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar	80,0
16	"Elsis-Savdo" MChJda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar	80,0
17	"Banklararo savdo tizimi" MChJda kotirovka qilinadigan qimmatli qog'ozlar	80,0
18	Uchinchi shaxs kafilligi yoki kafolati	80,0
19	Chorva mollari garovi	50,0

Ammo shuni unitmaslik kerakki garov sifatida qo'yiladigan engil va yuk transport vositalarining foydalanish muddati besh yildan oshmagan bo'lishi shart. Kredit ta'minotiga qabul qilinayotgan garovning aniq qiymatlari xar bir bankning "Garov ta'minoti bilan ishlash" Tartibi talablariga asosan belgilanadi.

9.2.**Ta'minotlarni rasmiylashtirishning huquqiy asoslari.**

[59] Tijorat banklarining" kredit siyosati, 2016 yil

Garov huquqi – bir shaxsning majburiyatlarni ta’minlash uchun boshqa shaxsga mol-mulkka oid huquqini berishini tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar majmui. O’zbekistonda G.h. garov to’g’risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo’lsa – notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro’yxatdan o’tkazilishi shart bo’lganida esa – ro’yxatdan o’tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Garovga oid huquqiy munosabatlar, jumladan: garovga qo’yilgan mol-mulkka bo’lgan huquqlar, boshqa shaxsga o’tganida garovning saqlanishi, garov to’g’risidagi shartnoma bo’yicha huquqlardan boshqa shaxs foydasiga kechish, garov b-n ta’minlangan majburiyat bo’yicha qarzni boshqa shaxsga o’tkazish, garovga oluvchining hamda garovga qo’yuvchining huquqlari, majburiyatlari va h.k. FK va “Garov to’g’risida”gi Qonuni (yangi tahriri 1998 y. 1 may) asosida tartibga solinadi.

Kredit munosabatining huquqiy asosi bo’lgan shartnomalarning huquqiy va iqtisodiy savodxonlik nuqtai nazaridan to’g’ri tuzilmaslik holatlariga yo’l qo’yilayotganligi.

O’zbekiston Respublikasi banklarida kredit ta’minotining rasmiylashtirilishi quyidagi hujjatlarga asosan olib boriladi:

- O’zbekiston Respublikasining qonuni «GAROV TO’G’RISIDA» (yangi tahriri);
- O’zbekiston Respublikasining «Ipoteka to’g’risida»gi Qonuni;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 3 yanvardagi 2-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Uy-joy qurilishiga, uni rekonstruktsiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to’g’risida»gi nizom;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 yanvardagi 1-sonli qarori bilan taqdiqlangan «Ko’chmas mulkka bo’lgan huquqlarni va u haqda tuzilgan bitimlarni davlat ro’yxatidan o’tkazish tartibi to’g’risida»gi nizom;
- O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O’zbekiston Respublikasining Qonuni “Garov reestri to’g’risida”;
- Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 19 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma’qullangan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 12 iyundagi 155-sonli «Garov reestri to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori;
- kredit shartnomasi — O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida tuzilgan, uy-joy sotib olish uchun kredit ob’ektini garovi asosida kredit berish to’g’risidagi shartnoma;
- ipoteka shartnomasi — O’zbekiston Respublikasining «Ipoteka to’g’risida»gi Qonunida belgilangan qoidalarga rioya etilgan holda tuzilgan, kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatni ta’minlashda ipotekani (ko’chmas mulk garovini) belgilash haqidagi shartnoma;

O’zbekiston Respublikasining “Garov to’g’risida”gi Qonuni 1992 yil 9 dekabrda qabul kilingan. Qonun bo’yicha haqiqiy bo’lgan har qanday majburiyatning: zayom bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday sub’ektlari o’rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan ta’minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy valyuta yoki chet el valyutasida) ifodalangan bo’lishi lozim.

“Garov to’g’risida”gi Qonunning 4-moddasida belgilanganidek garov turlari: garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Garov huquqi garov to’g’risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud, basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo’lsa, notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro’yxatdan o’tkazilishi shart bo’lganda esa u ro’yxatdan o’tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Bugungi garov amaliyotining o’ziga xos tomonlari nimalarda namoyon bo’ladi, ayniqsa uning ipoteka kabi murakkab shaklidachi?

Shu o’rinda eslatib o’tmoqchimizki, predmeti er bilan bog’liq ko’chmas mulk bo’lgan garov, ipoteka deyiladi. Ko’chmas mulk esa turli binolar, imoratlar, xususiy uylar, jismoniy va yuridik shaxslarning xususiylashtirilgan ko’p qavatli uylardagi xonadonlari va boshqalardan iborat.

O’zbekistonda jismoniy va yuridik shaxslar o’rtasidagi garov munosabatlari O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 264-289-moddalari, O’zbekiston Respublikasi “Garov to’g’risida”gi Qonuni va boshqa bir qator huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Uy joy (uning

muayyan qismini), dala hovli, kvartira, garaj va boshqalarni garovga qo'yish to'g'risidagi bitimlar notarial tartibda tasdiqlanishi shartligini ta'kidlash kerak. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 44-moddasiga ko'ra bunday bitimlar shu mol-mulk joylashgan hududda rasmiylashtiriladi. Hozirgi vaqtdagi notarial amaliyotda jismoniy shaxslar o'rtasida ham shartnoma tuzish hollari uchrab turadi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning (25.04.1996 yildagi 216-I-son) 34-moddasi birinchi qismiga ko'ra banklar qonun hujjatlariga muvofiq ko'char va ko'chmas mulkni garovga qo'yish, kafolat berish, kafillikka olish va majburiyatlar asosida kredit beradilar. Ya'ni qarz oluvchilar o'z kredit majburiyatlarining bajarilishini turli usullar bilan ta'minlashlari kerak.

Fuqarolik kodeksining (FK) 259-moddasi birinchi qismiga muvofiq majburiyatning bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

9.3.Kreditning qaytarilishida garov va boshqa ta'minot shakllarining tutgan o'rni.

Amaliyotda kredit tashkilotlari kredit ta'minoti uchun taqdim etilgan garov predmetini notarial tartibda taqiq solish va garov predmetini sug'urta qilish orqali kredit riskdan muhofazalanishga harakat qilib ko'radi. Lekin amaliyotda kreditlash jarayonida shunday bir holatlar kelib chiqmoqdaki, bu holatlarning salbiy oqibatlaridan garov predmetining na sug'urtalanganligi va na notarial tartibda taqiq solinganligi kredit tashkilotlarini kredit risklaridan muhofaza etaolmayotganligi kuzatilmoqda. Shunday muammolardan biri, kredit munosabatining ishtirokchisi bo'lgan qarzdor tarafning noqonuniy xatti-harakatlari uchun ta'minot predmetining sud tartibida huquqbuzarlik ashyoviy quroli sifatida musodara qilinishi natijasida kredit mablag'ining ta'minotsiz qolishi va qarzdor tarafning kredit ta'minoti uchun boshqa ta'minotni taqdim eta olmaslik holatidir.

Ma'lumki, garov predmetiga notarial tartibda taqiq solinishi garovga qo'yuvchining garov predmetini sotish, hadya etish kabi huquqlarinigina cheklaydi. Lekin garovga qo'yuvchining garov predmetidan foydalanish huquqini suiiste'mol qilgan holda avtomashinada huquqbuzarlik qilishiga monelik qilmaydi. Aynan shu holat kredit mablag'ining ta'minotsiz qolishiga, ya'ni garovga qo'yuvchi tomonidan kreditlash davrida huquqbuzarlik qilgani uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqbuzarlik ashyoviy quroli sifatida sud qaroriga binoan, davlat foydasiga musodara qilinadi. Fikrimizcha, kredit tashkilotlari bunday holatlardan muhofazalanish uchun ko'rilayotgan masalaning huquqiy, iqtisodiy va texnik jihatlarini tahlil etaoladigan bilim va tajribaga ega bo'lgan malakali xodimlardan iborat "Ekspertlik xizmati" bo'limlarini hududiy bank bo'limlarida tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Qarz oluvchilar (qarzdorlar)ning kreditlarni qaytarmaganlik uchun kredit tashkilotlari oldidagi javobgarligi doirasini aniqlashda sudlar qarz tarkibiga kreditning yoki uning bir qismining summasi, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar, kredit shartnomasida belgilangan hajmda boshqa to'lovlar (komissiyalar) kirishidan kelib chiqishlari zarur.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar, kredit tashkiloti tomonidan qarz oluvchi (qarzdor) bankning pul mablag'laridan amalda foydalangan butun davri uchun, hatto aktiv (kredit/qarz) o'stirmaslik maqomiga o'tkazilgan taqdirda ham, pul majburiyatlarini kechiktirish davrini qo'shgan holda hisoblanishi mumkin.

Kredit mablag'larini undirish to'g'risidagi talablardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rishda sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, garov, kafillik shartnomalari hamda kafolat, o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlardan tashqari, ularni haqiqiy emas deb topish to'g'risida tegishli da'volar mavjud bo'lgan taqdirdagina haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi kelishuvning haqiqiy emasligi asosiy majburiyatning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

Asosiy majburiyatning haqiqiy emasligi uning bajarilishini ta'minlaydigan majburiyatning haqiqiy emasligiga olib keladi.

FKning 114-moddasi ikkinchi qismiga ko’ra qarz (kredit) shartnomasining haqiqiy emasligi oqibatlarini qo’llashda sudlar qarz mablag’laridan foydalangan taraf kreditordan olgan mablag’larini qaytarishi, shuningdek ulardan foydalangan hamma davri uchun FKning 327-moddasiga muvofiq foizlar to’lashi lozim ekanligini hisobga olishlari kerak.

Kredit summalari va foizlarni qaytarish to’g’risidagi da’vo qanoatlantirilganda bir vaqtning o’zida kredit shartnomasida nazarda tutilgan va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo’lmagan neustoyka ham undirilishi mumkin, agar uni undirish talab qilingan bo’lsa.

Kredit shartnomasida taraflar tomonidan kreditni qaytarishni kechiktirganlik (kredit majburiyatini buzganlik) uchun yuqori foiz turi sifatida belgilangan javobgarlik uzluksiz joriy sanktsiya hisoblanadi.

9.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit ta’minoti bilan bog’liq muammolar

Kredit munosabatlarida majburiyat ijrosini ta’minlashga doir milliy qonunchilik hujjatlari qoidalarini takomillashtirishning zaruriyligi. Majburiyat ijrosi ta’minotini qonuniy rasmiylashtirish majburiyat ijrosi 100 foiz ta’minlanganligini bildirmasligi amaliyotda majburiyat ijrosi ta’minotga qaratilganda yuzaga kelayotgan muammolar borligi uchrab turibdi. Aynan, shuning uchun ham kredit munosabatlarida majburiyat ijrosini ta’minlash bilan bog’liq tadbirlarda muammolar yuzaga kelayotgan og’ir ekologik muhit ta’sirida bo’lgan Qoraqalpog’iston Respublikasida xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirishda kreditlarning rolini va uning samaradorligini oshirish masalalarini hal etishda amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan ta’minot predmetlarini rasmiylashtirishga oid qoidalarga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish talab etiladi.

Majburiyat ijrosini lozim darajada bajarilishini ta’minlash uchun belgilangan amaldagi qonun talab va qoidalar qay darajada mukammal tuzilgan bo’lmasin, yuzaga kelayotgan muammolar echimini ijobiy hal etishda murakkab vaziyatlar asosan ta’minotning ikkilamchi manbalari bo’lgan “Uchinchi shaxslar kafilligi” va “Garov” shakllari asosida ish yuritish jarayonida yuzaga kelayotganligi kuzatilgan. Jumladan:

– kreditlash jarayonida shaxsning kafillik majburiyatining ijrosi uchun taqdim etgan mol-mulkining nazoratsiz qolishi oqibatida bu mol-mulklarni erkin tasarruf etib yuborishi oqibatida majburiyat ijro davriga kelib kafil shaxsning kafillik majburiyatini bajara olmay qolish holatining yuzaga kelayotganligi;

– garov predmetidan qarzdorning huquqbuzarlik ashyoviy quroli sifatida foydalanish imkoniyatining cheklanmaganligi;

– garov predmetiga oid qonun hujjatlaridagi nomutanosibliklarning mavjudligi, jumladan, O’zbekiston Respublikasining “Ipoteka to’g’risida”gi Qonuni 43-moddasi, “Garov to’g’risida”gi Qonunining 29-moddasi, 2, 3-xatboshi talabi, “Fuqarolik kodeksi”ning 281-moddasi, 6-7 xatboshi talablari, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to’g’risida”gi Qonunining 56-moddasida belgilangan talab va qoidalar kredit tashkilotlari xodimlari oldiga bir qator noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Foiz daromadlarining keskin pasayib borishi. Tadqiqot jarayonida ayrim bank tashkilotlarida foizli daromadlar kamayib borishi kuzatilgan. Kredit qo’yilmalarining ortishiga qaramay, foiz daromadlarining kamayib borishi, munosabatda ishtirok etuvchi tomonlar faoliyatida kreditning roli va samaradorligi kamayib borayotganligidan, shuningdek, mazkur banklarda kredit mablag’larini va ularni hisoblangan foizlarni undirishda muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Bankda risklarni, shu jumladan, kredit risklarini baholash va boshqarish faoliyatining yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash tizimi faoliyati samarali yo’lga qo’yilmagan degan, fikrga ham keldik.

Kreditlash jarayonlarida yuzaga kelayotgan salbiy omillar ta’sirini bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish va kredit munosabatlari samaradorligini oshirish tadqiqot oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Chunki, yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, umuminsoniy faoliyat hamda uning inson shaxsiy omiliga xizmat qiluvchi tizim sub’ektlarining birgalikda o’zaro teng huquq va majburiyatlar asosida maqsadlariga erishish yo’lidagi munosabatlarida muammolar mavjudligicha qolar ekan, jamiyatda moliyalashning asosiy vositasi hisoblangan kredit munosabatlarining samaradorligi to’liq ta’minlanishida masala echimi topilmay qolaveradi.

Nazorat uchun savollar.

1. Bank kredit ta’minoti tushunchasi.
2. Kredit ta’minoti turlari va ularga tavsif.
3. Kredit ta’minotini rasmiylashtirish tartibi.
4. Kredit ta’minotini boshqarish yo’llari.
5. Kredit ta’minotini tartibga solishning muammolari va echimlari.

10-MAVZU. KREDITLASH JARAYONLARI VA ULARNING BOSQICHLARI

Reja

10.1 Tijorat banklari kredit siyosati va uning zarurligi.
10.2 Kredit hujjatlari yig'majildini tashkil qilish.
10.3 Kredit shartnomasi, uning mazmuni va ahamiyati.
10.4 Kreditlarni tasniflanishi va ular bo'yicha zaxira tashkil qilish.

Tayanch iboralar

Kredit siyosati, kredit siyosatiga ta'sir etuvchi omillar, kredit siyosatini tartibga soluvchilar, kredit shakllari, kredit ta'minoti, kredit foizi, muammoli kreditlar, kredit operatsiyasi, kreditlash tizimlari.

10.1.Tijorat banklari kredit siyosati va uning zarurligi.

Banklarning kredit siyosati – banklarning kreditlarni olish va berish borasidagi strategiya va taktikasidir.

Tijorat banklarining kredit siyosati – bu banklarning kredit risklarini kamaytirishva kredit operatsiyalarining daromadliligini ko'paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasidair.

Banklarning kredit siyosati o'z ichiga qo'yidagi elementlarni oladi:

- maqsadni aniqlash va natijada bank kredit portfelini shakllantirish (turi, muddati, hajmi va ta'minot sifati);
- kreditlarni berish, yuritish va qoplash jarayonlarida bank bo'limlari vakolatlari;
- kerakli hujjatlar ro'yxati;
- kredit ta'minotini qabul qilish, baholash va sotishning asosiy qoidalari;
- kredit operatsiyalari chegaralari (limiti);
- kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'rnatish siyosati;
- kredit arizalarini baholash uslublari;
- muammoli (qiyin) kreditlarni istiqbolini beligilash (diagnostika) va qiyin holatdan chiqish yo'llarini taxlil qilish.

Bank kredit siyosati bank xizmatchilarining kreditlarni rasmiylashtirish, berish va boshqarish borasidagi o'z faoliyatlarida amal qiladigan standartlari, miqdori (parametrlari) va jarayonlarini aniqlab beradi.

Bank kredit siyosati odatda yozma ravishda, qat'iy belgilangan hujjat tarzida rasmiylashtiriladi.

Bank kredit siyosati – bu tijorat bankining kredit berish madaniyatini anglatadi.

Bank kredit siyosatini turli bosqichlarga va omillarga bog'liq tomonlari mavjud.

1-jadval

Bank kredit siyosatini aniqlovchi (belgilovchi) omillar.

Makroiqtisodiy omillar	Mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati. Markaziy bank pul-kredit siyosati. Xukumatning moliyaviy siyosati
Regional (sho''ba) va tarmoq omili	Xudud va tarmoqdagi iqtisodiyot holati (bank bo'limiga tegishli). Mijozlar tuzilmasi, ularning kreditga bo'lgan talabi. Raqobatchi banklarning mavjudligi.
Bank ichidagi omillar	Bank (kapitali) o'z mablag'lari hajmi (miqdori). Passivlar tuzilishi. Bank personali (xizmatchilari) tajribasi va qobiliyati

Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalb qilingan kredit resurslari miqdoriga bog'liqdir. 1:10

Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo'ljallangan (arzon olib - qimmat sotish va marja).

Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi bankning kelishuviga ya’ni kredit shartnomasiga asoslanadi.

Kreditlashda hozirgi kunda asosiy bo’lib ya’ni birlamchi bo’lib kredit sub’ekti, so’ng esa kredit ob’ekti hisobga olinadi.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan tuziladigan kredit siyosati elementlari

Kredit bosqichlari	Tartibga soluvchi parametrlar (ko’rsatkichlar) va jarayonlar
Kreditni berish bo’yicha birlamchi ish (faoliyat)	- kelgusi qarz oluvchilar turi (turkumi) - kreditlash turlari - kreditlash jarayoning miqdoriy ko’rsatkichlari (chegaralari) - qarz oluvchini kredit olish qobiliyatini baholash standartlari - kreditlarni baholash standarti - foiz stavkalari - kreditni qaytishini ta’minlash usullari - jarayonlarni borishini nazorat qilish va berishga tayyorlash
Kreditni rasmiylashtirish	- hujjat shakllari - kreditni berishning texnik (texnologik) jarayonlari - kreditni to’g’ri rasmiylashtirish nazorati
Kreditni boshqarish	- kredit portfelini boshqarish tartibi - kredit shartnomasini bajaralishini nazorat qilish - muddati o’tgan kreditlarni kechiktirish yoki yangilash shartlari - qarzlarni (zararni) qoplash tartibi - kreditlarni boshqarish nazorati

Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo’yicha (potentsiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog’liqdir (N1 – kapital etarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtrish stavkasi va boshqalar).

Kreditlash tizimi kreditning eski tan olingan tamoyillariga – muddatlik, qaytarib berish, to’lovlilik va ta’minotga asoslanadi.

10.2.Kredit hujjatlari yig’majildini tashkil qilish.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so’ng keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan bank rahbari yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan beriladigan kreditning muddati, miqdori va foiz stavkasi ko’rsatilgan holda, mijoz uchun ssuda hisobvarag’i ochish to’g’risida buxgalteriyaga berilgan farmoyishga asosan shu ish kunidan kechiktirmasdan mijozga ssuda hisobvarag’i ochiladi.

Har bir berilgan kreditga unga xizmat ko’rsatuvchi kredit xodimi tomonidan qarzdorlik to’la so’ndirilgunga qadar kredit ishini umumlashtiruvchi mijozning ssuda kartochkasi ochiladi va yuritiladi.

Kredit yig’majildi birlamchi taqdim etilgan hujjatlardan tashqari o’z ichiga quyidagi hujjatlarni oladi:

a) shaxsning qarz oluvchi nomidan kredit shartnomasi va kreditlash bilan bog’liq boshqa hujjatlarni imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

b) garov ta’minotini baholash dalolatnomasi;

v) kreditdan maqsadli foydalanishi haqida bank dalolatnomasi;

g) kreditdan foydalanishning haqiqiy maqsadi guvohligini beruvchi to’lov topshiriqnomalarining nushalari;

d) kredit hisobiga to’lov amalga oshirilgan tovarlar etkazib berish yoki ko’rsatilgan xizmatlar to’g’risidagi shartnomalarning nusxalari;

e) tovar etkazib berilganligi va u qabul qilinganligi yoki xizmat ko’rsatilganligi haqida guvohlik beruvchi tovar-transport yuk xatlari, hisobvaraq-faktura hamda boshqa hujjatlarning nushalari;

j) kredit monitoringi o’tkazilishi haqida guvohlik beruvchi hujjatlar;

z) kafillik beruvchining buxgalterlik balansi va moliyaviy ahvoli to’g’risidagi ma’lumot (kredit ajratish masalasini ko’rib chiqish davriga va keyingi davrga uning kredit layoqatliligini belgilaydi).

Yuqorida qayd etilgan hujjatlardan tashqari bank kredit shartnomasida o’zaro kelishilgan shartlarga muvofiq qarz oluvchidan bank kreditidan foydalanish davri uchun zarur bo’lgan boshqa hujjatlarni ham talab qilinishi mumkin.

Tadbirkorlik sub’ektiga ajratilgan kredit ta’minotiga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 iyuldagi PF-3780-sonli “Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshoatlari bilan band bo’lgan er uchastkalarini xususiylashtirish to’g’risida”gi Farmoniga binoan yuridik shaxslarning xususiylashtirilgan er uchastkalari olingan bo’lsa va kelgusida kredit qaytarilishi ta’minot hisobidan qoplanganda ushbu er uchastkasi bank balansiga olinib belgilangan tartibda ochiq birja savdolarida sotilishi lozim.

Kredit hujjatlarini saqlash va taqsimlash tartibi:

a) kredit shartnomasi, garov va kafillik, sug’urta polisi hamda kafolat to’g’risidagi shartnomalar, garovga qo’yilgan ko’chmas mulklarning kadastrlari, lizing yoki mikrolizing ob’ektlarining (traktorlar, kombaynlar va transport vositalaridan tashqari) texpasportlari, ipoteka asosida olib berilgan yoki qurilgan uy-joylarning kadastrlarining asl nusxalari va muddatli majburiyatlarning asl nushalari balansdan tashqari hisobvaraqga kirim qilinadi va bank kassasining omborida saqlanadi;

b) yuqorida qayd etilgan hujjat nusxalari esa kredit yig’majildida saqlanadi.

Har bir filial bank kreditidan foydalanayotgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyati to’g’risida muntazam ma’lumotga ega bo’lishi, kredit layoqatliligi, to’lov intizomi holatini tahlil etishi, ya’ni ma’lumotlar bazasini shakllantirib borishi lozim.

Kredit to’liq so’ndirilgunga qadar kredit shartnomasi shartlariga rioya etilishi ya’ni kreditdan samarali foydalanish, uni o’z vaqtida va to’la so’ndirish, kreditdan foydalanishning to’la muddati davomida qarz oluvchi bilan yaqindan aloqani ta’minlab turish lozim.

10.3 Kredit shartnomasi, uning mazmuni va ahamiyati.

Kredit shartnomasi bo’yicha asosiy qarzni (yoki asosiy qarzning bir qismini) qaytarish muddati uzaytirilgan davrdagi bank foizlari ustamasining oshirilishi qarzdor tomonidan majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaganlik uchun to’lanadigan neustoyka yoki oshirilgan foizlar shaklidagi javobgarlik bo’lmay, sudlar tomonidan unga kredit mablag’laridan foydalanganlik uchun shartnomaviy to’lov shakli sifatida qaralishi lozim.

Muqaddam kechiktirilgan majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaganlik uchun (majburiyatlarning bajarilishi uzaytirilgan qismi ijrosi kechiktirilganligi uchun) javobgarlik choralari sudlar tomonidan kredit shartnomasida belgilangan shartlar bo’yicha qo’llaniladi. Agar kredit shartnomasida majburiyatlarni o’z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgarlik choralari ko’rsatilmagan bo’lsa, kredit tashkilotlari FKning 736-moddasi birinchi qismiga muvofiq javobgarlik choralarini qo’llashni talab qilishga haqlidir.

FKning 736-moddasi birinchi qismiga muvofiq, agar qonun hujjatlarida yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, qarz oluvchi qarz summasini vaqtida qaytarmagan hollarda FKning 734-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar to’langan bo’lishidan qat’i nazar, qarz qaytarib berilishi kerak bo’lgan kundan boshlab to u qarz beruvchiga qaytarib berilgan kungacha bu summa yuzasidan FKning 327-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan miqdorda foizlar to’lanishi kerak.

Kredit shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi kredit tashkilotini kredit shartnomasini bekor qilish paytidan boshlab qaytarish kuniga qadar pul mablag’laridan

foydalanilgan butun davr uchun FKning 734-moddasida nazarda tutilgan foizlarni olish huquqidan mahrum qilmaydi.

Agar shartnomada qarz to'lovining kechiktirilganligi munosabati bilan foizlar miqdori oshirilishi belgilangan bo'lsa, qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun to'lov oshirilgan stavka miqdori FKning 327-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq shartnomada belgilangan boshqa foizlar miqdori deb hisoblanishi lozim.

FKning 736-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar fuqarolik-huquqiy javobgarlik chorasi hisoblanadi. Ko'rsatilgan, qarz summasini qaytarishni kechiktirish munosabati bilan undiriladigan foizlar, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, pul mablag'laridan foydalanganlik uchun qaytarish kuniga hisoblangan foizlarsiz ushbu summaga hisoblanadi.

Qonun hujjatlarining mazmuniga ko'ra, qonun bo'yicha har qanday haqiqiy majburiyat garov bilan ta'minlanishi mumkin. Fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishiga yo'l qo'yiladigan har qanday mol-mulk (korxona, bino, inshoot, jihoz, boshqa ishlab chiqarish jamlamalari, qimmatbaho qog'ozlar, pul mablag'lari, mulkiy huquqlar va hokazo) garov narsasi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, garov huquqi shartnoma bilan garovga qo'yuvchining mulki (to'la xo'jalik yuritishi)ga kelgusida qo'shiladigan mol-mulkiga ham tatbiq etilishi mumkin.

Qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Kafillik — uchinchi shaxsning boshqa shaxs kreditori oldidagi mazkur shaxsning kredit shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlari bo'yicha to'la yoki qisman javobgar bo'lish majburiyatidir.

Kafillik shartnomasi boshqa shaxsning kreditori va kafil o'rtasida tuziladi. Kafillik shartnomasi bo'yicha majburiyatning mazmuni qarzdor asosiy majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda kafilning qarzdor bilan birga kreditor oldida javob berish majburiyati hisoblanadi.

Kafillik alohida shartnoma bilan rasmiylashtirilishi, shuningdek kafillik to'g'risidagi shartlar ular bilan qaysi shartnoma majburiyatlari ta'minlanayotgan bo'lsa, shu shartnomaga kiritilishi mumkin. Bunday holda shartnoma kreditor, qarzdor va kafil tomonidan imzolanadi.

Ayni paytda sudlar e'tiborga olishlari lozimki, kreditorning (bank yoki boshqa kredit tashkilotining) vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan imzolangan, muhr bilan tasdiqlangan, qarzdor va kafil o'rtasida tuzilgan kafillik shartnomasi uch tomonlama bitim hisoblanishi mumkin.

Qonunga muvofiq qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa (FKning 293-moddasi birinchi qismi).

Asosiy majburiyat bo'yicha qarzdorning javobgarligiga nisbatan kafil majburiyatining solidarligi kreditorning asosiy majburiyat bo'yicha ham qarzdorga, ham kafilga, ham birgalikda, ham alohida, ham to'la, ham qarzning qismiga nisbatan o'z talablarini taqdim etishga haqli ekanligini anglatadi.

Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko'rgan boshqa zararlarni to'laydi.

Kreditor tomonidan da'vo bir vaqtning o'zida kafil va qarzdorga nisbatan qarzdor tomonidan asosiy majburiyat bajarilmaganligi munosabati bilan taqdim etilib, solidar javobgarlik to'g'risidagi qoidalarni qo'llash lozim bo'lgan hollarda, bunday javobgarlik faqat kafil yoki faqat qarzdorga yuklatilishi mumkin emas. Kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob berishlari kerak.

Kreditorning kafilga nisbatan da'vosini ko'rishda asosiy qarzdorni ishda ishtirok etish uchun jalb qilish haqida kafilning iltimosnomasi mavjud bo'lgan taqdirda, sud bunday iltimosnomani qanoatlantirishi shart.

Sug'urta polisini olish uchun tegishli sug'urta badallarini o'z vaqtida to'lash lozim. Sug'urta badallarining miqdori bevosita garovga qo'yilgan mol-mulkning hajmiga qarab belgilanadi. Agar notarius garov shartnomasini tasdiqlamoqchi bo'lsa, garov xaqidagi amaldagi qonun xujjatlarining barcha talablarini va albatta, taraflardan biri shartnoma shartlarini buzsa, ularning kelishuvi qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tomonlarga tushuntirish lozim.

Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (printsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq printsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida printsipalga bir tomonlama yozma majburiyat beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, kafolat bo'yicha faqatgina bank, boshqa kredit muassasasi, sug'urta tashkiloti kafil beruvchi bo'la oladi.

Shartnoma ishtirokchilarining nizo va tortishuvlari kelgusida sudgacha etib bormasligi uchun qarz beruvchi va qarzdor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida vakolatli notariusning oqilona maslahati va yo'l-yo'riqlari juda asqotadi. Bitimlar qonuniy tuzilishining kafili sifatida notarius imkon qadar tomonlar o'rtasida o'zaro kelishmovchilik va nizolar kelib chiqishining oldini olishi kerak.

Garov shartnomalarining yana bir afzalligi shundaki garov narsasini almashtirishga, agar garov narsasi nobud bo'lgan yoki shikastlangan yoxud unga bo'lgan mulk huquqi yoki xo'jalik yuritish huquqi qonunda belgilangan asoslarga ko'ra bekor qilingan bo'lsa garovga qo'yuvchi oqilona muddatda (nizo chiqqan taqdirda esa sud belgilagan muddatda) garov narsasini tiklashga yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uni teng qiymatli boshqa mol-mulk bilan almashtirishga haqli.

Tomonlar bir-birining oldidagi majburiyatini to'la bajarganidan keyin qarz beruvchi ikkinchi tarafga hech qanday da'vosi yo'qligini notariusga yozma ravishda ma'lum qiladi. Ayni vaqtda garovga qo'yilgan mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlash chorasi olib tashlanadi.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash uchun berilgan kafolatda nazarda tutilgan majburiyat asosiy majburiyatdan mustaqil hisoblanadi. Kafil printsipalning javobgarligidan qat'i nazar, benefitsiar oldida javobgar bo'ladi. Agar kafolat matnida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, kafilning benefitsiar oldidagi majburiyati benefitsiar asosiy majburiyatni bajarish talabi bilan printsipalga dastlab murojaat qilmagan bo'lsa ham, benefitsiarning talabi bo'yicha bajarilishi lozim.

10.4 Kreditlarni tasniflanishi va ular bo'yicha zaxira tashkil qilish.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o'rnatilgan me'yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. O'zbekistonda 1996 yil iyulidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan ko'rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo'yicha yuqotishlar bo'yicha zahiralarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan aktivlarni tavsiflash, muammoli yoki harakatsiz kreditlar bo'yicha zahiralarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi NIZOM"[60]iga muvofiq tijorat banklarining kredit qo'yilmalari tasniflanadi va ular bo'yicha maxsus zahiralar shakllantiriladi.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baholashdan boshlanadi:

- tendentsiya va tarmoq (iqtisodiy sektor) kelajagi; - qarzdorning moliyaviy axvoli; - mijozning kredit tarixi;

- muayyan loyixaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi; - korxonadagi menejment sifati.

[60] O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi NIZOM"2015 yil 14 iyul № 2696.

Bank aktivlari qo'yidagi toifalar bo'yicha tasniflanadi: standart, substandart,qoniqarsiz, shubhali va umidsiz.

3-jadval

Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zahiralar normasi[61]

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zahiralar uchun ajratmalar normasi
Standart	1%
Substandart	10%
Qoniqarsiz	25%
Shubhali	50%
Umidsiz	100%

Sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qaytarilishida muammolar kuzatilmaydi. Bunda asosiy qarz summasining va foizlarining hech qanday qismi muddati o'tgan yoki shartlari qayta ko'rib chiqilmagan bo'lishi lozim. Asosiy qarz summasi yoki foizlardan muddati o'tgan va shartlari qayta ko'rilgan aktivlar sifati «standart» deb tasniflanishi mumkin emas.

Tijorat banki zaxira kapitali tarkibida sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining bir foizi miqdorida standart aktivlarga yaratiladigan zaxira shakllantirishi lozim.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar tijorat banklari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qolgan sof foyda hisobidan mazkur Nizom kuchga kirgan kundan keyin ajratilib, hisobot sanasiga sifati «standart» deb tasniflangan aktivlar qoldig'idan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Qarzdorning moliyaviy holati barqaror hisoblangan, lekin ayrim salbiy holatlar yoki tendentsiyalar mavjud bo'lib, agar ular bartaraf etilmasa, moliyalashtirilgan loyihaning amalga oshishiga yoki qarzdorning aktivni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlar sifati «substandart» deb tasniflanadi. Bunda moliyaviy holati yoki ta'minotni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lgan, kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki ta'minot bo'yicha hujjatlari bo'lmagan «standart» deb tasniflangan aktivlarning sifati ham «substandart» deb tasniflanishi lozim.

Tijorat banki sifati «substandart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «qoniqarsiz» deb tasniflanadi:

- asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli bo'lmasa, ta'minotga qo'yilgan mulkni va qarz oluvchining boshqa asosiy vositalarini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni uzaytirishlarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topish talab etiladigan bo'lsa;
- qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo'lmasa;
- qarz oluvchining kapitali etarli darajada bo'lmasa;
- ushbu sohaga nisbatan tendentsiya va istiqbollar barqaror bo'lmasa;
- ta'minot qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa.

Tijorat banki sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga va kam ishonchli qilib qo'yadigan aktivlar

[61] Jadval muallif tomonidan ma'lumotlar asosida tayyorlangan

sifati «shubhali» deb tasniflanadi. Bunda yo'qotishlar ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan aktivlar sifati sharoit oydinlashguncha «umidsiz» deb tasniflanmaydi.

Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi:

- «qoniqarsiz» aktivlarning hech bo'lmaganda birorta ko'rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);
- yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanish ehtimoli mavjud bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa.

Tijorat banki sifati «shubhali» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan yoki qaytmasligidan dalolat beruvchi omillar yoki alomatlar mavjud bo'lgan hamda qaytmaydigan yoki qiymati juda pastligi tufayli hisobini balansda aktiv sifatida yuritilishi maqsadga muvofiq emas deb baholanadigan aktivlar sifati «umidsiz» deb tasniflanadi. Bunday tasniflash aktivlarda umuman hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Biroq, tijorat banklari o'z balanslarida bunday aktivlarning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Tijorat banki tomonidan ta'minotga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish yoki uni qaytarish choralari qo'llanishi lozim.

Bank aktivlarning sifati «umidsiz» deb tasniflanishi uchun quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lishi kerak,:

- aktivlarni undirilishi sud jarayonida bo'lsa;
- qarzdor va lizing oluvchidan undirilgan, garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqlardan foydalanish yo'li bilan tijorat banki tomonidan balansga qabul qilingan kundan boshlab uch oy muddatda sotilmagan va bank faoliyatini kengaytirish uchun sotib olingan binodan ikki yil mobaynida foydalanilmagan hamda bank faoliyati uchun ortiq foydalanilmay qo'yilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida sotilmagan bo'lsa;
- aktivlarning to'lash muddati uzaytirilgan bo'lsa;
- asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Tijorat bankining investitsiya portfeli quyidagi omillar asosida tasniflanishi va belgilangan miqdorda ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasi yaratilishi lozim:

- oxirgi bir yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — «qoniqarsiz» sifatida;
- oxirgi ikki yil davomida tijorat bankiga daromad keltirmagan investitsiya — «shubhali» sifatida;
- oxirgi uch yil davomida daromad olinmagan investitsiya sifati — «umidsiz» sifatida.

Markaziy bank tomonidan muayyan aktivlar sifatini yanada salbiy tasniflash uchun asos bo'ladigan omillar jumlasiga kiradiganlari quyidagilar hisoblanadi:

- tijorat banki kredit portfeli umumiy holatining yomonlashuvi;
- tijorat bankida kreditlar berishga doir etarli tahlil va tekshiruvlarning o'zgarishi yoki mavjud emasligi;
- tijorat banki shu tarmoq va sohaga berilgan kreditlar bo'yicha amalda zararlar ko'rganligi;
- yirik aktivlarning to'planishi;
- nomaqbul iqtisodiy yo'nalish va sharoitlar, xususan, qarzdorlarning bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari yoki ma'muriy-hududiy birlikda katta miqdorda to'planishi;
- tijorat banki tomonidan taqdim etilgan hisobotni tahlil qilish yoki Markaziy bank

tomonidan o’tkazilgan inspektsiya tekshirishlari natijasida aniqlangan qarzdorning yoxud tijorat bankining moliyaviy ahvoliga taalluqli boshqa holatlar.

Yuqorida banklar tomonidan berilgan kreditlar bo’yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik ko’rsatkichlari, uning moliyaviy holati, kredit riskining darajasi, kelajaqda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta’minlanganlik darajasini, kreditni to’lash muddatidan necha kun o’tganligini kabilarni inobatga olgan holda guruhlarga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashdan asosiy maqsad qarz oluvchining to’lay olish qobiliyatini hamda qarzning o’z vaqtida qaytarilishi uchun pul oqimining holatini baholashdan iborat.

Shu bilan birga tasniflangan kreditlarning har qaysi guruhga kirishi darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag’larning mavjudligi bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Tijorat banklari kredit siyosati.
2. Tijorat banklari kredit siyosatining zarurligi va ahamiyati.
3. Tijorat banklari kredit siyosatini tuzulmasi.
4. Kredit ta’minoti va unga qo’yilgan talablar.
5. Kredit siyosati va kreditlash mexanizmi.
6. Tijorat banklari kreditlash muammolarini bartaraf etish yo’llari

11-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING FOIZ SIYOSATI

Reja

11.1 Tijorat banklari foiz siyosati haqida umumiy tushuncha.
11.2 Foiz stavkalarining turlari. Kredit bahosini o'rnatish tartibi.
11.3 Kredit bahosi va unga ta'sir etuvchi omillar. Marja va uning hisoblanishi.

Tayanch iboralar

Bazaviy stavka, depozit, kredit, murakkab foiz, nominal foiz stavkasi, omonat, oddiy foiz, pul bozori stavkalari, real foiz stavkasi, foiz siyosati, suzuvchi foiz stavkasi, foiz stavkasi, qayta moliyalash stavkasi, qat'iy belgilangan stavka.

11.1. Tijorat banklari foiz siyosati haqida umumiy tushuncha.

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit boshqaruvida asosiy komponent vazifasini bajaradi, balki kredit munosabatlarini boshqarishda iqtisodda ustuvor ham hisoblanadi.

Bank foizidan foydalanish mexanizmi bir nechta elementlarni o'zida mujassamlashtiradi va uning yordamida bank foiz siyosati vujudga keladi hamda uning amaldagi ko'rinishi ssuda foizi hisoblanadi. Bank foiz stavkasiga olimlar turlicha ta'riflar berganlar[62]. Masalan I.O. Lavrushin bank foizini kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub'ektlardan biri bank bo'lgan holda vujudga kelishini ta'kidlaydi. Ssuda foizi esa ssudan vaqtinchalik foydalanishga ssudalashtiriladigan o'ziga xos narx hisoblanadi. Shunga o'xshash ta'rifni yana bir olim I.Tavasiev berib u shunday deydi: "banklar uchun pullar o'zida "oldi-sotdi" predmetini ifodalab o'zining narxi bo'lgan bank foiziga ega"[63]. Nazariy nuqtai nazardan uni to'lash manbai bo'lib kreditdan foydalanish natijasida olinadigan qarz oluvchi foydasining bir qismi hisoblanadi.

Bank foizining turli xil shakllari mavjud bo'lib ular: depozit foizi ko'rinishida, ssuda foizi, shu bilan birlikda banklararo kreditlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya foizlari va boshqalardir.

Bank foizi mazmunida shuni nazarda tutish kerakki, bank muassasalari o'zining mablag'larini emas, balki chetdan keladigan mablag'larni ssudaga joylashtiradi. Bank faoliyatida bajarilmaydigan majburiyatlar riski, aktiv tomondan pul qo'yuvchilarning ham passiv tomonidan majburiyatlar bajarilmasligi riskini oshiradi.

Bank foizi 2 xil ma'noda foydalaniladi:

1. Bank jalb qilgan mablag'lar (boshqa kredit tashkilotlaridan olingan banklararo kreditlar, jismoniy va yuridik shaxslarning omonotlari va depozitlariga foiz, mijozlarning hisobvaraqlaridagi qoldiqlarga foiz) ga to'laydigan qiymatni ifodalashda;

2. Bank joylashtiradigan mablag'larga olinadigan qiymatni ifodalash uchun . Boshqacha qilib aytganda bank foizi turli shakllarda :

- Depozit foizi;
- Ssudalar bo'yicha foiz;
- Banklararo kreditlar bo'yicha foiz;
- Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha foizlar shaklida namoyon bo'ladi.

Foizning mutloq miqdori hech narsani anglatmaydi. Shu sababdan kredit kelishuvining samaradorligini oydinlashtirish kredit qiymatining u yoki bu ma'qul qiymatni aniqlash uchun nisbiy ko'rsatkich - foiz normasi ko'rsatkichidan foydalaniladi:

Ssuda kapitali bozorining turli sektorlari xususiyatlaridan kelib chiqib bir turdagi foiz stavkalari (bank va nobank) ning bir necha guruhini ajratish mumkin:

- Kredit muassasalari o'rtasidagi qisqa muddatli kredit operatsiyalarida qo'llaniladigan pul bozori stavkasi;

---

[62] Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О.И. Лаврушина. - Москва: Финансы и статистика, 2005. -672 с.

[63] Тавасиев А.М. (ред.) Банковское дело. Управление и технологии Учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005 г. — 671с.

- Qayta moliyalashtirish stavkasi;
- Qimmatli qog'ozlar bozoridagi (birlamchi va ikkilamchi bozor) stavkalar;
- Bank va boshqa kredit muassasalarining nobank tashkilotlariga va jismoniy shaxslar uchun foiz stavkalari.

O'z navbatida yuqoridagi guruhlarning har biri doirasida foiz stavkalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Bitim muddatlari bo'yicha:

❖ Qisqa muddatli;

❖ Uzoq muddatli.

Foiz stavkalarining tuzilishi bo'yicha:

❖ asosiy(bazaviy);

❖ qo'shimcha, ya'ni asosiy qarz o'zgarishi natijasida o'zgaradigan foiz stavkalar.

Shakllanish xarakteri bo'yicha- bozor va tartiblanadigan to'g'ri yoki egri (Markaziy bank va boshqa sub'ektlar stavkalari) stavklariga bo'linadi. Tartiblanadigan stavkalarga qayta moliyalashtirish stavkasi va Markaziy bank shtraf stavkalari kiradi.

Foydalanish ko'lamiga bo'yicha- hududiy, milliy va halqaro kredit bozorlarida qo'llaniladigan stavkalar.

Kreditdan foydalanish davrida o'zgarish xarakteriga qarab -fiksirlangan (o'zgarmas) va suzuvchi (o'zgaruvchi) stavkalarga ajratiladi.

Lavrushin I.O. ssuda foizini belgilar bo'yicha quyidagicha turga ajratadi[64]:

Kredit shakllari bo'yicha - tijorat foizi, bank foizi, iste'mol foizi, lizing bitimlari bo'yicha foiz, davlat krediti bo'yicha foiz.

Kredit muassasalari turi bo'yicha-Markaziy bank hisob stavkasi, bank foizi, lombard foizi.

Investitsiya turi bo'yicha-oborot mablag'lariga kredit bo'yicha foiz, asosiy fondlarga investitsiya bo'yicha foiz, qimmatli qog'ozlarga investitsiya bo'yicha foiz.

Kreditlash muddatlari bo'yicha foiz.

Kredit muassasalarining operatsiya turlari bo'yicha foiz.

Bank foizdan foydalanish mexanizmi o'zida banklar amalga oshiradigan foiz stavkasi siyosatining elementlari majmuini ifodalaydi. Mexanizmning alohida elementlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

Foiz darajasini shakllantirish usullari;

Foiz stavkalarining differentsiyalash mezonlari bo'yicha;

Markaziy bank tomonidan foiz normasini tartiblash metodlari bo'yicha;

Foizlar bo'yicha to'lovlarni o'tkazish va undirish tartibi bo'yicha;

Foizning qarz oluvchilar moddiy manfaatlar tizimi bilan o'zaro bog'liqligi;

Kredit muassasalarinng daromadlari va xarajatlarini shakllantirishda foizning o'rni.

Bank foizidan foydalanishning zamonaviy mexanizmi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Foiz darajasi kredit bitimi tomonlari o'rtasidagi kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda shartnoma orqali aniqlanadi.

Markaziy bank doimiy ravishda to'g'ridan-to'g'ri ssuda foiz normasini ma'muriy boshqaruvidan uning darajasini qayta moliyalashtirish foiz stavkasini o'zgartirish va majburiy rezervlar normasini manevrlash orqali tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalanadi.

Ssudalar bo'yicha foiz stavkalari tijorat banklari tomonidan kredit kelishuvining aniq shartlarini hisobga olib o'rnatilmoqda, ya'ni ssuda hajmi va uni tugash muddati, ta'minot mavjudligi, mablag'larni jalb qilishdagi xarajatlar, kreditni rasmiylashtirish va nazorat bo'yicha xarajatlar, qarz oluvchining kreditga layoqatliligi va boshqalar.

Bank passiv operatsiyalari bo'yicha foiz bo'sh pul mablag'larini vaqtincha omonatlarga jalb qilish stimuli sifatida oshib bormoqda.

Foizlarning o'tkazilishi va undirilish tartibi shartnomada belgilanadi. Amaliyotda ssuda kunlari sanasi yaqinlashishi bilan oddiy foizlar hisoblash usulidan foydalaniladi.

[64] Лаврушин О.И., Мамонова И.Д., Валенцева Н.И. Банковское дело// Учебник. -М.: КНОРУС, 2009. — 768 с.

Xozirgi vaqtda foizlarni to'lash manbasi kredit qo'yilmalarining yo'nalishidan kelib chiqib turlichadir. Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi, uzoq muddatli va muddati o'tgan kreditlar bo'yicha xarajatlar korxona soliqqa tortilgan foydasiga olib boriladi.

Zamonaviy foiz mexanizmining xususiyati bevosita foizlar bo'yicha daromad va xarajatlarning bank yakuniy moddiy manfaatlari bilan bevosita bog'liqligi hisoblanadi.

Bank xarajatlari 2 asosiy elementlardan tarkib topadi:

Resurslarni shakllantirish bo'yicha xarajatlar;

Bank faoliyatini ta'minlovchi xarajatlar.

Bazaviy foiz stavkasining darajasi, bu ma'lum davrga ta'minlangan ssudalar bo'yicha bankning eng kreditga layoqatli mijozlari uchun o'rnatiladi;

Alohida har bitim sharoitidan kelib chiqib riskni qo'shish.

Bazaviy foiz stavkasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bazaviy foiz stavka=B_1+ B_2+ F_d ;

Bu erda:

B_1 - rejalashtirilayotgan davrga barcha kredit resurslarining o'rtacha real bahosi;

B_2 - bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha rejalashtirilayotgan xarajatlarning joylashtirilayotgan mablag'lar hajmiga nisbati;

P- bank ssuda operatsiyalarining rejalashtirilgan foydalilik darajasi.

Kredit resurslarining o'rtacha real bahosi (S_1) o'rtacha tortilgan formula bo'yicha hisoblanib alohida resurs turi bahosi va uning bank umumiy jalb qilingan resurslar summasidagi ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

O'z navbatida alohida bank jalb qilgan resursning o'rtacha haqiqiy bahosi mazkur resurs bozoridagi nominal bahosi va majburiy zahira normasiga korrektirovka asosida aniqlanadi:

$$B_d = \frac{P_d * 100\ \%}{1 - \text{majburiy zahira normasi}}$$

Bunda:

B_d -jalb qilingan muddatli depozitlarning o'rtacha haqiqiy bahosi;

P_d- depozit foizining o'rtacha bozor bahosi.

Riskni hisobga olgan holatda quyidagi mezonlardan kelib chiqib guruhlanadi:

Qarz oluvchining kreditga layoqatliligi;

Ssuda bo'yicha ta'minot va uning xarakteri;

Mijozning bank bilan mustahkam aloqasi;

Foizlarni hisoblash usullari;

Qarz oluvchining kredit muddatiga rioya qilishligi.

Ma'lumki ssuda foizi bank daromadini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va jalb qilingan mablag'larga to'lovlar uning xarajatlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Bank foiz marjasi bank aktiv va passiv operatsiyalarpi bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari o'rtasidagi farq muhim ma'no kasb etadi.

Foiz marjasi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_h = \frac{F_f - X_f * 100\ \%}{A_d}$$

Bunda:

M_h - foiz marjasining amaldagi hajmi;

F_f - foizli daromadlar;

X_f -Foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

A_d- foiz ko'rinishida daromad keltiruvchi aktivlar.

Foiz marjasining tahlili quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Amaldagi foiz marjasini bazaviy bilan solishtirish, foizlar bo'yicha daromadlarning oshishi yoki kamayishi sur'atlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi;

Foiz marjasi komponentlarini o’zgarishining tahlili daromad(xarajatlarning)larning qaysi kategoriyasi uning umumiy o’zgarishiga olib kelishini aniqlash imkonini beradi.

Foiz marjasining hajmiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar bo’lib kredit qo’yilmalari va ularning manbalari hajmi va tarkibi, to’lovlar muddati qo’llaniladigan foiz stavkalar xarakteri va boshqalar bilan bog’liq bo’lib hisoblanadi.

Bozor mexanizmi rivojlanishi sharoitida g’arb mamlakatlarining tajribasini hisobga olish muhimdir. G’arb mamlakatlarida bir vaqtning o’zida bir qator foiz stavkalarini - fiksirlangan va suzib yuruvchi foiz stavkalarini qo’llashadi. Bu odatda bozor kon’yukturasining o’zgarishiga bog’liq bo’lib hisoblanadi.

11.2.Foiz stavkalarining turlari. Kredit bahosini o’rnatish tartibi

Kreditning asosiy sharti - bu undan vaqtinchalik foydalanganlik uchun haq to’lash. Bu haq kredit summasiga nisbatan foiz hisobida olinadi va u kreditning foiz stavkasi deb yuritiladi. Kreditning foiz stavkasi pul bozorida amal qiladi. Bozorga chiqarilgan pulning bahosi foiz bo’ladi. Boshqa tovarlardan farqlirok qarz pulining narxi - bu uning ma’lum to’lov ehtiyojini qondirishdek xossasidan foydalanilganlik uchun beriladigan haq bo’ladi. Qarz puli kapital sifatida yoki odatdagi to’lov yoki xarid vositasida ishlatiladi. Shuning uchun ham qarzdor shaxs pul egasiga foiz stavkasini to’laydi.

Rossiyalik yirik iqtisodchi olimlarning fikricha, foiz stavkasi bu tomonlarning kredit asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabat bo’lib, kreditning oqilona foydalanishini ta’minlaydi.

Bank sohasida «aktiv» va «passiv» operatsiyalar bo’yicha foizlar uchraydi. Aktiv operatsiyalar bo’yicha foizlar – bu mijozlar tomonidan bankka to’lanadigan foizlar. Passiv operatsiyalar bo’yicha foizlar esa, bu mijozlarning depozitlari va qimmatli qog’ozlari bo’yicha bank tomonidan to’lanadigan foizlar. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar o’rtasida moliyaviy vositachilar sifatida qatnashayotib, banklar tomonidan jalb qilingan mablag’larni mijozlarga vaqtinchalik foydalanishga beradilar. Bunda qarz beruvchilar depozitlar bo’yicha foizlar oladi, qarz oluvchilar ma’lum vaqtda mablag’lardan foydalanish imkoniga ega bo’ladilar bank manfaati esa marja ko’rinishida ifodalanadi.

Entsiklopedik lug’atda foiz (lotincha pro centum) so’zi yuzdan bir degan ma’noni anglatishi qayd etilgan. “Ssuda foizi esa - bu kreditorning ssudadan foydalanganligi uchun qarzdordan oladigan to’lovidir – foiz miqdori esa bank tomonidan o’rnatilishi”[65] ta’kidlangan. Foiz stavkasiga bir tomonlama matematik miqdor sifatida ham yondashish va to’langan foizlarni kredit bahosining asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Ma’lumki, kredit operatsiyalari bu kreditor va kredit oluvchi o’rtasida pul mablag’larini vaqtincha ishlatib turish uchun uni foydalanishga berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlardir. Mijoz uchun eng muhim masala bo’lib olinadigan kreditning bahosidir, ya’ni u bo’yicha to’lanadigan to’lovlar hisoblanadi.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki asosiy yo’nalishni o’z ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablag’larni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida olib boriladigan foiz siyosatidir.

Pul-kredit resursi sifatida bank foizi ko’rinishidagi bahoga ega bo’lgan oldi-sotdi predmeti sifatida namoyon bo’ladi. Foiz qarz oluvchidan pul mablag’idan vaqtincha foydalanganlik uchun to’lanadigan ma’lum bir miqdordagi haq hisoblanadi. Buni boshqacha tushuntiradigan bo’lsak, kredit foydalanishga berilgani uchun emas, balki kreditdan foydalanish huquqi berilgani uchun haq to’lanadi. Agar kredit oluvchi resursdan foydalanmasa, harakatsiz bo’lganda ham unga foiz to’laydi. Kredit uchun nafaqat foiz, balki asosiy qarz summasi, ba’zi holatlarda komission haq hamda majburiyatlar bajarilmaganda shartnomada ko’rsatilgan tartibda jarimalar ham to’lanishi mumkin. Lekin, bank kreditining bahosi bo’lib tijorat bankning kredit operatsiyasi bo’yicha olinadigan daromadlari hisoblanadi.


[65] Большой экономический словарь Под ред. А.Н.Азримана. -М.: Фонд “Правовая культура”, 1994. – 1041 стр.

$$\text{Foiz stavkasi} = \frac{\text{Kredit bo'yicha olingan daromadlar}}{\text{Kredit qo'yilmalari summasi}} * 100\%$$

Kreditor qarz oluvchiga kredit beradi, qarz oluvchi mablag'lardan foydalanadi va ma'lum muddat davomida o'sgan qiymatni oladi hamda shu daromadning bir qismini kreditorga kredit foizi sifatida to'laydi.

Kredit oluvchi uchun kelajakda o'sib borgan iqtisodiy aktivni qaytara olgan taqdirda uning qilgan investitsiyasi rag'batlantiriladi.

Banklarda foiz siyosatini o'rganish jarayonida ularni tasniflash va ma'lum belgilariga ko'ra guruhlash muhim hisoblanadi. Foiz siyosati va umuman kredit foizlarini guruhlashda turli mezonlar asos qilib olinishi mumkin. Kredit bahosining darajasi kredit shakliga bevosita bog'liq bo'lib, uni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



1-rasm. Kredit foiz stavkasining kredit shakllari bo'yicha turkumlanishi.

Kredit foizlari tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, lizing bitimlari va xalqaro kredit shakllari bo'yicha turkumlangan. Kredit shakllari ichida tijorat, iste'mol va bank kreditlarining foizlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Kredit shakllari ichida bank krediti keng tarqalganligi bois, uning bahosini shakllanish jarayoni muhim hisoblanadi.

Foiz nazariyasiga muvofiq, umuman foizlar singari kredit foizlari nominal va real foiz stavkalarga ajratiladi.


Real foiz stavkasi	nominal foiz stavkasi – inflyatsiya darajasi

Kreditlar foizlarini hisoblash usuliga asosan, kredit foizi oddiy va murakkab foizlarga bo'linadi. Oddiy foizlarni hisoblashda asosiy qarzning qoldiq summasidan foizlar hisoblab chiqariladi. Murakkab foiz usulida esa, hisoblangan foizlar esa asosiy qarz qoldig'iga qo'shilib hisoblanadi. Foizlarni hisobga olishning ikkinchi usulidan bank amaliyotida kam foydalaniladi.

To'lash shakliga ko'ra foizlar oddiy va diskontlangan shaklda bo'lib, oddiy foizlarda kredit bo'yicha foizlarni olingan kreditni qaytarish grafigiga muvofiq to'lash amalga oshiriladi. Diskontlangan foizlar, esa kredit berilgan vaqtda ushlab qolinadi va jadval asosida asosiy qarz summasi qaytariladi.

Quyida keltirilgan rasmda bank kreditlari bo'yicha foizlarni turli mezonlar asosida tasniflanishini ko'rib o'tamiz.

Banklarning foiz siyosati bugungi kunda bank likvidligini ta'minlash va uni optimal boshqarishga qaratilishi kerak. Ssuda foizining differentsiyasi aktiv operatsiyalar bo'yicha qo'yilmalar likvidligiga bog'liq holda bo'lishi lozim. Milliy iqtisodiyotda bank foizining rolini oshirish, uning bevosita ta'sir doirasini kengaytirish va iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirishga yordam beradi.



2-rasm. Kredit bo'yicha foizlarning tasniflanishi.

Amaliyotda foiz stavkasini hisoblashning turli usul va yo'llari mavjud. Masalan bank amaliyotida oddiy hamda murakkab foizlar hisoblanadi.

Oddiy foizlar qisqa muddatli kreditlashda qo'llanib shartnomaga asosan foizlarni hisoblash har chorakda bir marta yoki boshqa muddatda amalga oshiriladi. Bunda qarz oluvchining asosiy qarz summasini hisobga olgandagi to'lovlar hajmi quyidagicha:

$S=P*(1+n*i)$;

Bunda:

S-boshlang'ich qarzni hisobga olgandagi kredit bo'yicha to'lov summasi;

P-boshlang'ich qarz;

i- foiz stavka;

n-ssuda muddati.

Murakkab foizlar asosan uzoq muddatli kreditlashda foydalanalib bunda hisoblangan foizlar kreditorga bitim oxirigacha to'lanmay balki qarz asosiy summasini oshiradi.

Bu usuldan foydalanganda hisoblangan foizlar qarz summasiga qo'shilib ularga foiz hisoblash davom ettiriladi. Murakkab foizlarni hisoblash formulasi quyidagicha:

$S=P*(1+i)^n$ -o'zgarmas foiz stavkasi uchun;

$S=P*(1+i_1)^{n1} *(1+i_2)^{n2} *.... *(1+i_k)^{nk}$ - o'zgaruvchan foiz stavkalar uchun;

Bunda:

S- dastlabki qarz summasi;

i- dastlab berilgan qarz summasi;

n-foiz stavkalar;


k-o'zgargan foiz stavkalar.

Depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni to'lash vaqti, davri, to'lash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o'rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomonidan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidliligiga, kredit resurslari baxosiga, kredit riskining darajasiga qarab tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomada aks ettiriladi. Kredit bo'yicha foizlar muddati kelganda memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo'lgan depozit hisobvarag'idan grafik bo'yicha undirib olinadi.

11.3 Kredit bahosi va unga ta'sir etuvchi omillar. Marja va uning hisoblanishi.

Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e’tiborimiz markazida bo’lib kelmoqda va bu o’zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar, ta’bir joiz bo’lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko’p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog’liq.[66]

O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini kreditlar tashkil qilib, bank faoliyati natijalari va samaradorligi bevosita shu operatsiyalarga bog’liq hisoblanadi. Bu esa, tijorat banklarining kreditlash jarayonini to’g’ri tashkil qilish va samarali kredit siyosatini ishlab chiqishni talab qiladi. Eng asosiysi esa, banklarda kredit operatsiyalarining samaradorligi bank kreditining bahosi shakllanishiga bog’liq hisoblanadi. Kredit bahosining to’g’ri o’rnatilishi bank faoliyatida yuzaga keluvchi kredit risklarini kamaytirish va ularni samarali boshqarishga yordam beradi.



3-rasm. Foiz stavkalariga ta’sir qiluvchi omillar tasnifi[67].

Shunday ekan, optimal kredit bahosini shakllantirish, uning darajasi nafaqat bank manfaatlari, balki mijoz manfaatlariga ham mosligiga erishish muhim masala hisoblanadi. O’zbekistonda ikki pog’onali bank tizimining shakllanishi va turli mulkchilik shaklidagi tijorat banklarining faoliyat yuritishi banklararo raqobatni shakllantirib, ular o’rtasida moliyaviy bozorlarda mustahkam o’ringa ega bo’lish intilishlarini keltirib chiqardi. Mamlakatimiz bank

[66] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari / – T.:O’zbekiston, 2009. - 48 b.

[67] Muallif ishlanmasi

tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ham banklararo raqobat bo'lib, uning to'la qonli shakllantirilishi bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tijorat banklari foiz siyosatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va uni tahlil qilish foiz stavkalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan rasmda foiz stavkalar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tasnifini keltirib o'tamiz.

Ushbu rasmda foiz stavkasiga ta'sir qiluvchi umumiy va xususiy omillarga tasniflanishini ko'rib chiqdik. Unga muvofiq umumiy omillar makro darajadagi ko'rsatkichlar o'zgarishlarini o'zida ifoda etadi. Xususiy omillar esa, bank kredit operatsiyasini amalga oshirish tartib-qoidalari, resurslar qiymati va mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Mamlakat Markaziy banki pul-kredit siyosatining holati ham albatta foiz siyosatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Chunki, Markaziy bank pul-kredit siyosati, uning bosh maqsadi ya'ni mamlakat pul birligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida mamlakatda pul muomalasini boshqarish bilan chambarchas bog'liq. Pul muomalasini boshqarish esa, pul massasiga, uning miqdori pul bozori va bozordagi pulning bahosiga bog'liqdir.

Markaziy bankning pul muomalasini boshqarishga qaratilgan har qanday pul-kredit siyosati kredit foiziga o'z ta'sirini ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Markaziy bankning "arzon pullar" (ekspansion) siyosati kredit foiz stavkasini pasaytirsa, uning "qimmat pullar" (restriktsiya) siyosati kredit foiz stavkasi darajasini oshishiga olib keladi.

Nazariy jihatdan qaraganda pul ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, tovar, umumiy ekvivalent. Shunday ekan, inflyatsiya darajasi har qanday tovarning bozordagi bahosiga ta'sir qilgani kabi, pulning bahosi ya'ni kredit foiziga ham ta'sir qiladi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik to'g'ri proportsionaldir, ya'ni birinchisining o'sishi ikkinchisining ham o'sishiga olib keladi va aksincha.

Mamlakatda pul bozorining rivojlanish darajasi asosan quyidagilarga bog'liq:

- tijorat banklari resurslarining miqdori va sifati;
- mamlakatda mavjud vaqtincha bo'sh mablag'larni bank aylanmasiga jalb qilinishi darajasi (shu jumladan, aholining ham);
- banklararo kredit bozorining faoliyati;
- banklararo vaqtincha bo'sh resurslardan foydalanish imkoniyatlari;
- resurslardan mobil ravishda foydalanish uchun bank texnologiyalarining mukammalligi kabilar.

Albatta, bir bankda mavjud vaqtincha bo'sh turgan resurslardan boshqa banklar tomonidan tez va samarali foydalana olishi kredit foiz stavkasi darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Raqobatdagi takliflar deganda tijorat banklaridan tashqari pul bozoridagi pulning taklifini nazarda tutiladi. Bu birinchi navbatda Markaziy bankning pul taklifiga ta'siri, qolaversa mamlakatda mavjud nobank kredit tashkilotlari pul takliflari, g'arb mamlakatlarida omonat kassalari, pochta, sug'urta va lizing kompaniyalarining pul bozoridagi faoliyatlari ham kredit foiziga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatda Markaziy bankning valyuta munosabatlarini tartibga solish uchun amalga oshiradigan valyuta interventsiyasini yoki valyutani tartibga solish bilan bog'liq operatsiyalari pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi. Pul taklifining o'zgarishi esa, albatta uning bahosini ya'ni kredit foiziga ta'sir etadi.

Mamlakatda pul muomalasini boshqarishda pul-kredit siyosati bilan bir qatorda soliq-fiskal siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Ular bir-birlari bilan uyg'un va mutanosib ravishda olib borilgandagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Soliq-fiskal siyosatidagi o'zgarishlar pul taklifi va talabiga ta'sir ko'rsatadi, natijada kredit foizining ham o'zgarishiga olib keladi.

Dunyodagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning kredit foiz stavkasiga ta'siri 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yaqqol namoyon bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz kabi foiz stavkalariga xususiy omillarning ta'siri alohida olingan kreditlar va kredit oluvchi o'rtasidagi kredit munosabatlarida yuzaga keladi. Kreditorlar odatda, kreditning qaytmaslik va foizlarning o'z vaqtida undirilmaslik risklarini yumshatish maqsadida alohida kredit turlari va alohida mijozlar uchun turli kredit foizlarini o'rnatishga

urinishadi. Masalan, ishonchli mijoz yoki likvid ta’minot uchun kredit foiz stavkasi ishonchsizroq mijozga yoki sifatsiz kredit ta’minoti uchun foizlarga nisbatan pastroq bo’ladi.

1-jadval

Foiz stavkasiga ta’sir etuvchi omillar[68]

№	Omillar	Izoh
1	2	3
1.	Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati	• Ya’ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.
2.	Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi	• Aniqrog’i shu pulning iste’mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko’p foyda keltirsa, yoki iste’molchi ehtiyojini to’laroq qondirsa, foiz yuqori bo’ladi, aks holda u pasayib ketadi. Bunda pulni hozir ishlatishdan tegadigan naf taqqoslanadi.
3.	Qarzni to’lash muddati va sharti	• Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta kichik-kichik qismlarga bo’lib, bemalol qaytarish mumkin bo’lsa, qarzdor past foizni ma’qul ko’radi. Gap shundaki, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko’rish mumkin va shu hisobdan foiz to’lash engil bo’ladi.
4.	Qarzning qanday pul bilan berilishi	• Agar qarz erkin konvertirlangan valyutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u oddiy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o’rnatiladi. Konvertirlangan pul obro’-e’tiborli bo’lganidan uni ishlatish oson, undan tezda daromad ko’rish mumkin.
5.	Inflyatsiya darajasi	• Inflyatsiya yuz bersa, qarzga beriladigan pul egasiga qaytib kelguncha o’z qadrini qisman yo’qotadi. Bunda pul egasi yutkazadi. Shu sababli foiz inflyatsiyani hisobga olib o’rnatiladi. Foiz inflyatsiya shiddatiga nisbatan to’g’ri mutanosiblikda o’zgaradi.
6.	Pulni qarzga berishdan ko’ra boshqa yo’sinda ishlatishdan tushadigan daromad	• Bunda pul egasining afzal ko’rish tamoyili amal qiladi. Agar aktsiya dividendi yuqori bo’lsa, foiz pasayadi va aksincha. Agar aktsiyaga 15 % dividend berilsa, foiz undan yuqori bo’lishi shart. Aks holda pul egasi uni qarzga bermay, aktsiya sotib olishni afzal ko’radi.
7.	Qarz berishning risk darajasi	• Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu xatarli bo’lib, qarz qaytishi shubhali bo’lsa, foiz yuqori bo’ladi. Odatda moliyaviy baquvvat va nufuzli firmalar uchun past foiz belgilanadi. Yuqori va past foiz o’rtasidagi farq pul egalari uchun ma’lum darajada qarz riskini kamaytiradi, chunki bir erda foizning kamligi, boshqa erda uning ortiq bo’lishi bilan qoplanadi.

Iqtisodiyotda kreditga bo’lgan talab ko’p omillarga bog’liq. Birinchidan, kreditga bo’lgan talab mamlakatdagi baholar darajasi bilan funktsional bog’liqlikka ega. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar bahosi ko’tarilishi sharoitida, sub’ektlar qo’shimcha mablag’ga muhtoj bo’ladi. Chunki ishlab chiqarish uchun zarur tovar va xizmatlar bahosi oshishi qo’shimcha mablag’ni talab etadi. Bunday holatda tashqi moliyalash manbalariga, xususan bank kreditlariga talab ortadi.

[68] Abdullaev Yo. va boshq. “Bank ishi” TMI., “Moliya-iqtisod” 2009 y. 242 b.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanish darajasi, fan-texnika taraqqiyoti, texnologik jarayonlarning takomillashuvi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi kabilar ham pul mablag'lariga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

Biz ta'kidlab o'tganimizdek, real daromadning o'sishi kreditga bo'lgan talab va taklifga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida iqtisodiyotda resurslar ko'payib, ular aylanishi tezlashadi. Daromad samarasining mexanizmi iqtisodiy tsikl davridagi foiz stavkasining darajasi bilan tushuntiriladi. Foiz stavkasining o'zgarishi real daromad harakatiga mos keladi. Chunki sub'ektlar real daromadining o'sishi pul mablag'lariga bo'lgan talabni oshiradi. Bunda foiz stavkasi darajasi nisbatan oshadi. Umuman foiz stavkasining oshishi, daromadning real o'sishiga mutanosib ravishda bo'ladi.

2017 yilda banklararo pul bozorida amalga oshirilgan operatsiyalar tahlili mazkur davrda olib borilgan pul-kredit siyosatining ushbu bozordagi foiz stavkalari dinamikasiga sezilarli ta'sir qilganligini ko'rsatmoqda.Xususan, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini 2017 yilning birinchi yarim yilligida 9 foizlik darajada ushlab turilishi sharoitida banklararo pul bozoridagi o'rtacha tortilgan foiz stavkasining 8,0 – 9,1 foiz oralig'ida tebranib turishi iqtisodiyot real sektorini kreditlash jarayonlarida o'z aksini topdi.

Umuman olganda, 2017 yilning ikkinchi yarmida Markaziy bank tomonidan 11 ta tijorat bankiga jami 1,75 trln. so'mlik kreditlar taqdim etilgan bo'lib, mazkur kreditlarning asosiy qismi tizimli ahamiyatga ega bo'lgan banklar hissasiga to'g'ri keldi.

Hisobot yilining birinchi yarim yilligi oxirida Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 9 foizdan 14 foizgacha oshirilishi banklararo pul bozoridagi operatsiyalar bo'yicha foizlar dinamikasiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Xususan, banklararo pul bozorida o'rtacha foiz stavkalari yanvar-iyun oylaridagi 8,0-9,1 foizdan iyul-dekabr oylarida 12-13,1 foizgacha oshdi.

Qayd etish lozimki, 2017 yilning IV choragida bank tizimida likvidlilik hajmi oshgan bo'lsa-da, uning asosiy qismi alohida yirik banklar hissasiga to'g'ri kelganligi sababli, banklararo pul bozorida foiz stavkalari mos ravishda pasaymadi.

Bunda ayrim yirik banklar bo'yicha likvidlilikning oshirilishi ularning o'z mijozlari oldidagi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish maqsadlarida amalga oshirilgan bo'lib, ushbu moliyaviy resurslar banklararo pul bozorida taklif hajmiga ta'sir qilmadi.

Natijada 2017 yilning oktyabr-dekabr oylarida banklararo pul bozoridagi o'rtacha tortilgan foiz stavkasining 11,8 foizdan 13,1 foizgacha oshishi kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining oshib borishi, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining oshishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Xususan, bank kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi (imtiyozli kreditlar hisobga olinmaganda) 2017 yilning birinchi yarim yilligida 14,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilining oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 18,5 foizgacha ko'tarildi.

Foiz stavkalarining o'zgarishiga, shuningdek, banklarda likvidlilik miqdorining kamayishi va banklararo pul bozorida tijorat banklari o'rtasidagi operatsiyalar hajmining qisqarishi ham ta'sir ko'rsatuvchi omillardan bo'ldi.

Tijorat banklarining raqobatbardoshligini va bank xizmatlari samaradorligini oshirish tijorat banklarining muhim strategiyalaridan hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi bank xizmatlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Bank xizmatlarining samaradorligi esa, xizmatlar bahosi darajasiga chambarchas bog'liq. Banklarning xizmatlar bozorida etakchi bo'lish, xizmatlar soni va sifatini oshirish bugungi kunda tijorat banklari baho siyosatining muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Foiz stavkalarining qanday turlari mavjud?
2. Tijorat banklari foiz siyosatining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Oddiy foizlar qanday hisoblanadi?
4. Murakkab foizlar qanday hisoblanadi?

5. Tijorat banklari jalb qilgan resurslar bahosiga qanday omillar ta’sir ko’rsatadi?
6. Tijorat banklari kreditlarining bahosiga qanday omillar ta’sir ko’rsatadi?
7. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari o’rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
8. Pul bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?
9. Kapitallar bozorida foiz stavkalari qanday shakllanadi?

12-MAVZU. ALOHIDA KREDIT TURLARI VA USULLARI

Reja

12.1 Alohida schetdan kreditlash tartibi va uni o’ziga xos xususiyatlari.
12.2 Lombard krediti va undan foydalanish imkoniyatlari
12.3 Iste’mol va ta’lim kreditlari haqida tushuncha. va uni rasmiylashtirish shartlari.
12.4 Ipoteka krediti va undan foydalanish imkoniyatlari.

Tayanch iboralar

Valyuta, valyuta munosabatlari, valyuta munosabatlari ishtirokchilari, valyuta konvertatsiyasi, valyuta bozori, market-meyker, spot operatsiyasi, Parij, Genuya, Bretton-Vuds, Yamayka, milliy, xududiy va jahon valyuta tizimlari.

12.1 Alohida schetdan kreditlash tartibi va uni o’ziga xos xususiyatlari.

Kreditning turi deganda uning ma’lum belgilariga ko’ra o’ta aniqlikda shakllantirilgan tavsifi tushuniladi.

Kreditlar muddatiga ko’ra uch turga bo’linadi:

– qisqa muddatli kreditlar;
– o’rta muddatli kreditlar;
– uzoq muddatli kreditlar.

Kreditlarning muddati bo’yicha turlarga ajratish dunyo mamlakatlarida bir-biridan farq qiladi.

Kreditlash ob’ektlariga ko’ra kreditning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

– tovar-moddiy qimmatliklarni sotib olish uchun berilgan kreditlar;
– ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun berilgan kreditlar (masalan, respublikamizda paxta va g’allani etishtirish xarajatlari imtiyozli kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi);
– mijozlarning to’lov aylanmasidagi uzilishni qoplash uchun berilgan kreditlar.

Kreditning maqsadi yo’nalishi va kredit munosbatlarida ishtirok etuvchi sub’ektlarga ko’ra kreditning quyidagi turlarini ajartib ko’rsatish mumkin:

– sinditsiyali kreditlar;
– ipoteka kreditlari;
– xalqaro kreditlar.

Hozirgi davrda tijorat banklari amaliyotida qo’llanilayotgan zamonaviy kreditlash usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) aylanma bo’yicha kreditlash usuli;
b) qoldiq bo’yicha kreditlash usuli;
v) aylanma-qoldiq usuli

Aylanma bo’yicha kreditlash usulida kredit, mijozning, ya’ni kredit oluvchi mijozning xarajatlarini, uning resurslari bo’shagunga qadar, moliyalashtirishga beriladi. Kredit miqdori ssudaga bo’lgan ehtiyoj oshib borishi bilan ortib boradi va ushbu ehtiyojning kamayishiga qarab qoplanib boradi.

Aylanma bo’yicha kreditlash usuli kredit oluvchining ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi.

Qoldiq bo’yicha kreditlash usulida kredit kredit oluvchining tovar-moddiq qimmatliklarining qoldig’i va xarajatlarining o’zgarishi natijasida yuzaga kelgan ehtiyojga qarab beriladi. Masalan, korxona tovar-moddiy qimmatlikni o’zining mablag’lari hisobidan sotib oldi va shundan keyingina bankka ssuda so’rab murojaat qildi. Bunday sharoitda kredit xarajatlarni avanslash uchun emas, balki tovar-moddiy qimmatliklarning qoldig’iga, qoplash tartibida beriladi.

Amaliyotda kreditlashning yuqorida qayd etilgan har ikkala usuli uyg’unlashib, kreditlashning yangi usulini, ya’ni aylanma-qoldiq usulini yuzaga keltiradi.

Ushbu usulda kredit dastlab tovar-moddiy qimmatliklar va xarajatlar shakllanishining dastlabki bosqichida beriladi, keyingi bosqichda esa, kredit mijozning bank oldidagi muddatli majburiyatining qoldig'i asosida so'ndiriladi.

Kreditlashning aylanma-qoldiq usulida kredit aniq belgilangan muddatlarda so'ndiriladi, biroq, bu muddatlar resurslarning bo'shash muddatlariga mos kelmasligi mumkin.

Kreditlashning har uchala uslida kreditlarning harakati mijozning ssuda hisobraqami orqali amalga oshiriladi.

Berilgan kreditlar ssuda hisobraqamining debetida, kreditning qaytarilishi uning kreditida aks etadi.

Kredit oluvchi korxonaning aylanmasiga bog'liq ravishda ssuda hisobraqamlarining uch turini ajratib ko'rsatish mumkin:

– aylanma-to'lov ssuda hisobraqami;

– qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami;

– aylanma-qoldiq ssuda hisobarqami.

Aylanma-to'lov ssuda hisobraqami mijozga barcha majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni, jumladan, etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha yuzaga kelgan kreditor qarzdorlikni, soliqlar bo'yicha qarzdorlikni va boshqa to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Aylanma-qoldiq ssuda hisobrami ham barcha to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ammo qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun mijozning kreditlash ob'ekti qancha bo'lsa, shuncha qoldiq-kompensatsion ssuda hisobraqami ochish kerak.

Kreditlashning overdraft shakli ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (Angliya, Shotlandiya. Irlandiya, Uels, Kanada) yaxshi rivojlangan.

Overdraft krediti doimiy pul tushumiga ega bo'lgan ishonchli mijozlarga beriladi va ular faoliyatida yuzaga keladigan qisqa muddatli pul mablag'lari etishmovchiligiga barham berish maqsadida beriladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamini debetli qoldig'i summasiga beriladi. Tijorat banki va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra, mijozga bank tomonidan kreditlash limiti ajratiladi. Mijozning joriy hisobraqamida pul mablag'larining etishmaslik holati yuzaga kelganda, ya'ni debetli qoldiq hosil bo'lganda, bank ajratilgan limit doirasida overdraft krediti ajratadi.

Overdraft kreditida ssuda hisobraqami ochilmaydi. Kompyuter dasturi berilgan overdraft kreditini mijozlar toifasi bo'yicha avtomatik ravishda hisobga oladi.

Overdraft krediti mijozning joriy hisobraqamiga pul kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Overdraft kreditining foiz stavkasi muddatli kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo'ladi. Buning sababi shundaki, overdraft kreditlari ta'minlanmagan kreditlar bo'lib, ularning risk darajasi nisbatan yuqoridir.

Overdraft kreditlarida garov ta'minotining mavjud emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qachon pul mablag'lari etishmasligini oldindan bilish qiyin;

– kredit oluvchining joriy hisobraqamida qancha miqdorda pul mablag'lari etmay qolishini oldindan bilib bo'lmaydi.

Angliya bank amaliyotida overdraft kreditlari bo'yicha kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida mijozlarga har oyining so'nggi kunida joriy hisobraqamning debetli qoldig'ini ta'minlash sharti qo'yiladi. Shu tariqa, overdraft krediti bo'yicha qarzdorlikni keyingi oyga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida mijozlarning joriy hisobraqamining debetli qoldig'ini yuzaga kelishiga ruxsat etilmaydi.

Kreditlashning kontokorrent shakli nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda (Germaniya, Avstriya, Shveytsariya) yaxshi rivojlangan.

Kreditlashning kontokorrent shaklida mijozning joriy hisobi yopiladi va uning o'rniga kontokorrent hisobraqami ochiladi.

Kredit olgan mijozning faoliyatidan keladigan barcha tushumlar kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi, uning majburiyatlari yuzasidan barcha to'lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi.

Kontokorrent kreditida mijozga kreditlash limiti ajratiladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamining debetli qoldig'i summasiga beriladi.

Kontokorrent krediti kontokorrent hisobraqamiga pul mablag'lari kelib tushishi bilan avtomatik ravishda qoplanadi.

Kontokorrent krediti kredit to'loviga layoqatliligi bo'yicha birinchi toifaga mansub bo'lgan mijozlarga garovsiz beriladi. Buning sababi shundaki, kontokorrent risk darajasi yuqori bo'lgan kreditlash shakli hisoblanadi.

Kontokorrent krediti yiriklashtirilgan kreditlash ob'ektiga beriladi.

Kontokorrent kreditining debetli qoldig'i uchun mijoz bankka, uning kreditli qoldig'i uchun bank mijozga foiz to'laydi. Bunda mijoz bankka kredit uchun foiz to'laydi, bank esa. mijozga talab qilib olinadigan depozit hisobraqamlari qoldig'iga to'lanadigan foiz darajasida (0,5-1,0%) foiz to'laydi.

Hozirgi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda suzuvchi stavkadagi sinditsiyali kreditlardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Buning sababi shundaki, mazkur mamlakatlar tijorat banklarining depozitlari tarkibida suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlarning salmog'i oshib bormoqda. Bu esa, suzuvchi stavkalardagi sinditsiyali kreditlar hajmining oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, suzuvchi stavkalarda jalb qilingan depozitlar hisobidan qat'iy belgilangan stavkalardagi sinditsiyali kreditlarni berish tijorat banklari faoliyatida kredit riskini chuqurlashish xavfini yuzaga keltiradi.

Sinditsiyali kreditlar bo'yicha marja miqdori 0,5 foizdan 2,5 foizgacha bo'lgan darajani tashkil etadi.

Sinditsiyali kreditlashni amalga oshirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Sinditsiyali kreditlashning tashaabbuskori bo'lgan tijorat banki (u Etakchi bank hisoblanadi) kreditlanishi ko'zda tutilayotgan investitsion loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanganligini va kredit oluvchi mijozning to'lovga qobilligini baholashni amalga oshiradi. Ayrim hollarda, baholash yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan moliyaviy maslahatchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasi ijobiy bo'lgandan so'ng, Etakchi bank, sinditsiyali kreditlashda ishtirok etishini so'rab boshqa tijorat banklariga Memorandum jo'natadi. Memorandumda bitimning asosiy shartlari o'z aksini topgan bo'ladi.

2. Sinditsiyali kreditlashda ishtirok etish istagini bildirgan tijorat banklari bu haqda Etakchi bankni yozma ravishda xabardor qiladi. Shundan so'ng Etakchi bank va ishtirokchi banklar o'rtasida sinditsiyali kreditlash jarayonida tomonlarning huquqlari va majburiyatlari hamda sinditsiyali kreditlash shartlari bo'yicha muzokara bo'lib o'tadi. Muzokara tugagandan so'ng Bosh bitim imzolanadi va unga ko'ra bank sindikati tashkil qilinadi.

Bosh bitimda Etakchi bankning huquq va majburiyatlari, ishtirokchi banklarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topadi.

3. Sindikat tashkil qilingandan so'ng, kredit oluvchi mijoz va Sindikat o'rtasida kredit shartnomasining shartlari muhokama qilinadi va kredit shartnomasi imzolanadi.

Kredit shartnomasida sinditsiyali kreditlashning quyidagi muhim shartlari o'z ifodasini topadi:

* sinditsiyali kreditning maqsadi;
* sinditsiyali kreditning summasi;
* kreditning muddati;
* foiz stavkasi darajasi va hisoblash tartibi;
* kredit beriladigan valyuta turi;
* kreditni berish va qaytarish tartibi;

* komission to’lovlar miqdori va ularni undirish tartibi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotini o’rganish natijalari ko’rsatadiki, kredit shartnomasi imzolangandan so’ng mijoz to’lov topshiriqnomasini Etakchi bankka olib keladi. Chunki, uning asosiy joriy hisobraqami Etakchi bankda ochilgan bo’ladi.

Ishtirokchi banklar o’zlarining sinditsiyali kreditlashdagi ulushini Etakchi bankka o’tkazib berishadi. Kredit hisobidan to’lovni faqat Etakchi bank amalga oshiradi.

Sinditsiyali kreditni qaytarish mijozning asosiy joriy hisobraqamidan amalga oshiriladi. Etakchi bank har bir tijorat bankning sinditsiyali kreditlashdagi ulushiga qarab, ularga kreditning asosiy qarz summasi va foizini to’lab beradi.

O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan sinditsiyali kreditlashni amalga oshirish O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 16 iyuldagi 613-sonli “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to’g’risida Nizom (yangi tahrir)” yo’riqnomasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur Yo’riqnoma O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 20 avgustda 1509-raqam bilan ro’yxatga olingan.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to’g’risida Nizom (yangi tahrir)” yo’riqnomasiga asosan, xorijiy amaliyotdan farqli ravishda, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o’rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so’ng, har bir ishtirokchi-bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash to’g’risidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida qarz oluvchiga o’z bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvarag’i ochadi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditning summasi har bir ishtirokchi bank balansida, uning tomonidan berilgan kredit miqdoriga teng ulushda aks ettiriladi

Etakchi bank tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatini, berilgan kreditdan maqsadli foydalanishi va garov holati yoki kafilning moliyaviy holati bo’yicha kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoringni amalga oshiriladi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklar talabi asosida, ular ishtirokida yoki kredit shartnomasida belgilangan tartibda har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

12.2. Lombard krediti va undan foydalanish imkoniyatlari

Lombard (frantsuz tilidan tarjima qilinganda Lombard) moliya muassasasi, ko’char mulk garovga qo’yish asosida ssuda beriuvchi tashkilot tushuniladi. Lombard moliya muassasi sifatida juda uzoq tarixga ega bo’lsada, qachon tashkil qilinganligi to’g’risida aniq ma’lumotlar yo’q. Biroq bunday tashkilotlar qadimgi Misr yoki Bobilda mavjud bo’lganligi to’g’risida ma’lumotlar bor. Qadimgi Rimda ssuda berilishi davlat tomonidan garov evaziga berish yo’lga qo’yilgan. G’arbiy evropada bunday moliyaviy xizmatlar ko’rsatuvchi korxonalar 15 inchi asrda mavjud bo’lganligi to’g’risida ma’lumotlar bor. Ba’zi bir adabiyotlarda birinichi bo’lib bunday moliyaviy xizmat turini Italiyaning Lombardiya pravintsiyasida tashkil topgan va Lombard deb nomlanishi aynan shu pravintsiya nomidan kelib chiqqan degan ma’lumotlar keltirilgan.

Lombardlar - fuqarolarga tegishli bo’lgan ko’char mulklar garovga qo’yilgan xolda lombardlar tomonidan fuqarolarga kredit berish tushuniladi ya’ni lombardlar aholidan tilla taqinchchoqlar va boshqa likvid buyumlarni garovga qo’yish evaziga ma’lum bir shartlar va foizlarda moliyaviy xizmatlar ko’rsatmoqdalar.

O’zbekistonda lombardlar 2002 yildan buyon O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O’zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to’g’risida"gi 402 - sonli Qarori bilan faoliyat yuritib kelmoqdalar. 2009 yilning 1 yanvar holatiga lombardlarning soni 34 tani tashkil qilmoqda.

Quyidagi jadvalda respublikada lombardlar faoliyatini xududlar miqyosida va ularning nomlari bilan tanishishingiz mumkin

Lombardlar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 17 sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to’g’risida”gi 402-sonli qaroriga muvofiq shuningdek O’zbekiston

Respublikasi Fuqarolik kodeksining 289-moddasiga, "O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 50-moddasiga, Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2002 yil 28 iyundagi 236-son qaroriga muvofiq hamda O’zbekiston Respublikasi hududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalashni tartibga solish va boshqa yo’riqnomalar va tartiblarga asosan, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublkasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan 1291-sonli “Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to’g’risida”gi Nizomga va O’zbekiston respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublkasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan 1290-sonli “Lombardlar tomonidan faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari”ga muvofiq o’z faoliyatlarini amalga oshiradilar.

Lombardlar tomonidan kreditlarni rasmiylashtirish va berish tartibi quyidagicha:

Garov ostida kreditni berilishi lombard bilan fuqaro o’rtasida tuziladigan kredit shartnomasiga va garov shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Lombardlar undiruvni qaratish mumkin bo’lmagan mulkni garovga qabul qilish huquqiga ega emas. Shuningdek bir shaxsga berilishi mumkin bo’lgan kreditlar summasi va soni, ularning beriladigan muddatlari, shuningdek kreditlardan foydalanish uchun to’lovlar me’yori, tomonlar kelishuviga asosan belgilanadi. Fuqarolar kredit olish uchun lombardga garovga topshiriladigan mulk tomonlar kelishuviga asosan baholanadi.

Lombardlar faoliyatini tartibga soluvchi xuquqiy xujjatlar

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2003 yil 17 sentyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi xududida lombardlarni ro’yxatdan o’tkazish va ular faoliyatini litsenziyalash masalalari to’g’risi”dagi 402- sonli qarori.

2. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan “Lombardlar tomonidan faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari” 1290-sonli yo’riqnomasi.

3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2003 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan va O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 10 dekabrda ro’yxatdan o’tkazilgan “Lombardlar faoliyatini litsenziyalash” 1291-sonli yo’riqnomasi.

Lombard krediti – kreditning bir turi bo’lib, u fuqarolardan shaxsiy iste’molga mo’ljallangan ko’char mol–mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta’minlash uchun garovga qabul qilish ixtisoslashgan tashkilotlar – litsenziyasi bo’lgan lombardlar tomonidan tadbipkoplik faoliyati sifatida amalga oshiriladi. Lombardda ashyolarni garovga qo’yish haqidagi shartnoma lombard tomonidan garov pattasi berish yo’li bilan rasmiylashtiriladi. Garovga qo’yilayotgan ashyolar lombardga topshiriladi. Lombard garovga qabul qilingan ashyolarni garovga qabul qilish paytida shunga o’xshash va shunday sifatli ashyolarning napxlapiga mos bahodagi to’liq summasida o’z hisobidan garovga qo’yuvchi foydasiga sug’urtalashi shart. Ayni vaqtda shuni aytish kerakki, lombard garovga qo’yilgan ashyolardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga haqli emas. Basharti, lombardda ashyolar garovi bilan ta’minlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmagan taqdirda, lombard notariusning ijro yozuvi asosida imtiyozli bir oylik muddat o’tganidan keyin garovga qo’yilgan mol–mulkni sotish uchun belgilab qo’yilgan tartibda ushbu mol–mulkni sotishga haqli. Shundan keyin hatto garovga qo’yilgan mol–mulkni sotishdan tushgan summa talablarni to’liq qanoatlantirish uchun etarli bo’lmasa ham, lombardning garovga qo’yuvchiga (qarzdorga) talablari bekor bo’ladi (Fk, 289-modda).

Lombard krediti — Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog’ozlarini garovga olgan holda, o’zgarmas yoki kimoshdi savdosi orqali shakllanadigan foiz stavkasida banklarga beriladigan kredit.

Banklarga lombard krediti O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shartnoma asosida beriladi.

Bank lombard kreditini olish uchun amaliyot kuni soat 10:30 gacha Markaziy bankka o’zgarmas foiz stavka bo’yicha lombard kreditini olish to’g’risidagi arizani ko’rsatilgan shaklda taqdim etadi va bu arizalar ko’rsatilgan shakldagi qayd etish daftarida ro’yxatga olinadi.

Arizani qabul qilish jarayonida Markaziy bank tomonidan quyidagilar tekshiriladi:

arizaning to’liq va to’g’ri rasmiylashtirilganligi;

arizada ko’rsatilgan bankning operatori Markaziy bank hisoblangan DEPO hisobvarag’ining «Garovga olingan» bo’limiga o’tkazilishi lozim bo’lgan davlat qimmatli qog’ozlar tarkibi va soni to’g’risidagi ma’lumotlarning to’g’riligi;

so’ralgan lombard krediti, shu jumladan foizlarning bankning depozitariydagi operatori Markaziy bank hisoblangan DEPO hisobvarag’ining «Garovga olingan» tegishli bo’limiga o’tkazilishi lozim bo’lgan davlat qimmatli qog’ozlarining zarur summasi bilan ta’minlanganligi va boshqalar.

Markaziy bank amaliyot kuni davomida taqdim etilgan hujjatlarni ko’rib chiqadi, tekshiradi va lombard kreditini berish yoki bermaslik to’g’risida qaror qabul qiladi.

So’ralgan lombard krediti summasining etarli darajada ta’minlanganligini tekshirish uchun kreditni ta’minlashga berilgan davlat qimmatli qog’ozlarining bozor narxi to’g’risidagi birja ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Agarda bankning garovga olingan davlat qimmatli qog’ozlari bozor narxi (Markaziy bank belgilagan tuzatish koeffitsientiga ko’paytirilgan) lombard krediti bo’yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni ta’minlash uchun etarli yoki undan ko’p bo’lsa, lombard krediti etarli darajada ta’minlangan hisoblanadi.

Etarli darajada ta’minlanmaslik bankka so’ralgan miqdordan kam hajmda lombard krediti berishga asos bo’ladi.

Qarz oluvchi bankka qo’yilgan talablar bajarilmasa, Markaziy bank joriy amaliyot kuni davomida bankning arizasini rad etadi va unga lombard krediti berish to’g’risidagi arizani qondirmaslik to’g’risida ko’rsatilgan shaklda xabarnoma yuboradi.

Lombard krediti berish to’g’risidagi qaror qabul qilinganda Markaziy bank amaliyot kuni davomida ariza bergan bankka kredit berish borasidagi shartlar ko’rsatilgan holda berilgan shakldagi xabarnomani hamda lombard krediti to’g’risidagi shartnomani to’ldirish va imzolash uchun taqdim etadi.

Markaziy bank lombard kreditini qaytarishga doir majburiyatlar bank tomonidan bajarilmagan (qisman) kunning ertasiga garovga olingan davlat qimmatli qog’ozlarini sotadi.

Agarda qimmatli qog’ozlarni sotishdan olingan summa Markaziy bankning lombard krediti bo’yicha talablari hajmidan oshsa, ushbu summa qoldig’i Markaziy bank talablari qondirilganidan so’ng, davlat qimmatli qog’ozlari sotilgan kundan keyingi ish kunida qarzdor bankning vakillik hisobvarag’iga o’tkazilishi lozim.

Agarda davlat qimmatli qog’ozlarini sotishdan olingan summa Markaziy bankning lombard krediti bo’yicha barcha talablarini qondirishga etarli bo’lmasa, ko’rsatilgan qarzni qoplash debet memorial orderiga asosan qarzdor bankning vakillik hisobvarag’idan undirib olinadi. Markaziy bankka lombard kreditiga doir qarzlarni qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Bunda, birinchi navbatda Markaziy bankning garovga olingan davlat qimmatli qog’ozlarini sotish bilan bog’liq xarajatlari qoplanadi, so’ngra hisoblangan foizlar summalari, asosiy qarz summasi va eng oxirida tegishli jarima summasi undirib olinadi.

Markaziy bank qarzdor bankdan uning garovga qo’yilgan davlat qimmatli qog’ozlarini kelishilgan narxda sotib olish huquqiga ega.

12.3.Iste’mol va ta’lim kreditlari haqida tushuncha. va uni rasmiylashtirish shartlari.

Iste’mol krediti jismoniy shaxsga (iste’molchiga) uning iste’mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditdir.

Moliyaviy iste’mol krediti va tovar iste’mol krediti iste’mol kreditining shakllaridir.

Moliyaviy iste’mol krediti sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to’lash uchun pul mablag’lari tarzida iste’molchiga beriladigan kreditdir.

Banklar yoki boshqa kredit tashkilotlari moliyaviy iste’mol krediti beruvchi tashkilotlardir.

Tovar iste’mol krediti sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko’rsatilgan xizmatlar haqini bo’lib-bo’lib to’lash tarzida iste’molchiga beriladigan kreditdir.

Iste’mol tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tovar iste’mol krediti beruvchi tashkilotlardir.

Jismoniy shaxsning iste’mol ehtiyojlari uchun mo’ljallangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste’mol krediti ob’ekti bo’lishi mumkin.

Ko’chmas mulk, shuningdek qonunga muvofiq muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo’lishi cheklangan boshqa mol-mulk iste’mol krediti ob’ekti bo’lishi mumkin emas.

Iste’mol krediti iste’mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste’mol krediti shartnomasi (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) bo’yicha to’lovlilik, muddatlilik va ta’minlanganlik shartlari bilan beriladi.

Iste’mol krediti o’z faoliyati natijasida olingan daromadlarga, pensiya va boshqa daromadlarga (bundan buyon matnda daromadlar deb yuritiladi) ega bo’lgan jismoniy shaxslarga beriladi.

Iste’mol krediti berish qoidalari iste’mol krediti beruvchi tashkilot tomonidan ushbu Qonunga muvofiq belgilanadi.

Iste’mol krediti berish qoidalari hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo’lishi va ularda iste’mol krediti berish shartlari, shuningdek kredit miqdori, uni berish muddati, foiz stavkasi, iste’molchi to’lashi lozim bo’lgan to’lovlar jadvali to’g’risidagi ma’lumotlar ko’rsatilgan bo’lishi kerak.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kreditga sotish sotuv kunida amalda bo’lgan narxlar bo’yicha amalga oshiriladi. Realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining keyinchalik o’zgarishi shartnoma taraflarining majburiyatlariga ta’sir etmaydi.

Iste’mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste’molchi iste’mol krediti olish uchun kredit buyurtmasini va o’z daromadlari to’g’risidagi ma’lumotlar ko’rsatilgan boshqa hujjatlarni iste’mol krediti beruvchi tashkilotga taqdim etadi.

Kredit buyurtmasida quyidagi ma’lumotlar ko’rsatiladi:

- iste’molchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti (yoki pasport o’rnini bosuvchi hujjati) seriyasi va raqami hamda yashash joyi;
- iste’mol kreditining ob’ekti;
- iste’mol kreditining muddati;
- iste’molchining faoliyat turi va daromadlari;
- iste’molchi tomonidan shartnoma bo’yicha majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usuli.

Kredit buyurtmasi buyurtma berilgan sana ko’rsatilgan holda iste’molchi tomonidan imzolanadi.

Iste’mol krediti beruvchi tashkilot kredit buyurtmasini olganidan so’ng kredit berish to’g’risida yoki kredit berishni asoslantirilgan holda rad etish haqida besh ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

Iste’mol krediti berish asoslantirilgan holda rad etilgan taqdirda, iste’mol krediti beruvchi tashkilot iste’molchiga bu haqda yozma shaklda ma’lum qilishi shart.

Kredit buyurtmasi iste’mol krediti beruvchi tashkilot tomonidan ko’rib chiqilayotganda quyidagilarning tahlili amalga oshiriladi:

- iste’molchining daromadlari etarliligini va kredit tarixini aniqlash;
- kredit buyurtmasida bayon etilgan ma’lumotlarning bir-biriga zid bo’lmasligi;
- iste’mol krediti summasini qaytarishning maqbul istiqbollari mavjudligi.

Ta’lim kreditlari oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni moliyaviy qo’llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi.

Ta’lim kreditlari yordamida talaba yoshlar oliy o’quv yurtlarida o’qishni davom ettirish imkoniga ega bo’ladi. Buning ustiga, ular o’qish davrida ta’lim kreditning asosiy qarz summasi bo’yicha hech qanday to’lovni amalga oshirmaydilar.

O’zbekiston Respublikasi bank amaliyotida jismoniy shaxslarga ta’lim kreditlari berish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 26 iyuldagi 318-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o’quv yurtlarida to’lov-kontrakt asosida o’qish uchun ta’lim kreditlari berish to’g’risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan ta’lim kreditlari berish ularni qaytarish, to’lovning ta’minlanganligi, muddatliligi va ulardan maqsadli foydalanish shartlari asosida amalga oshiriladi. Ta’lim kreditlari tijorat banklari tomonidan Oliy ta’lim muassasalarining kunduzgi bo’limlariga to’lov-kontrakt asosida qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi fuqarosi bo’lgan talabalarning o’qishi uchun talabalarning o’zlariga, ularning ota-onalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin. Ta’lim kreditlari, Oliy ta’lim muassasalarida o’qish davri hisobga olingan holda, bakalavriatga o’qishga qabul qilingan talabalarga 10 yilgacha, magistraturaga o’qishga qabul qilingan talabalarga 5 yilgacha bo’lgan muddatga beriladi.

Muddatli harbiy xizmatni o’tash davri bu muddatga kirmaydi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan ta’lim kreditlari bo’yicha:

– chin etimlarga, "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanganlarga hamda bolalikdan I va II guruh nogironlariga nol foiz stavkasi (foizsiz kredit);

– talabalarning qolgan toifalariga O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo’lmagan o’zgaruvchi foiz stavkalari belgilanadi.

Ta’lim kreditlari bo’yicha foiz stavkasi va tijorat banklari tomonidan qo’shiladigan foizlar uchun to’lovlar miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi o’zgarishiga qarab o’zgarishi mumkin, bu kredit shartnomasida qayd etilishi kerak.

Kam ta’minlangan oilalardan bo’lgan talabalar uchun kredit bo’yicha qo’shilgan foizlarning 50 foizi tuman “Bandlikka ko’maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish” markazlari tomonidan “Ish bilan ta’minlashga ko’maklashish davlat jamg’armasi” mablag’laridan to’lanadi. Ko’rsatib o’tilgan imtiyozga huquqli bo’lgan oilalar Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidagi nizomga muvofiq fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tomonidan aniqlanadi. Ta’lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to’lash ta’lim muassasasiga o’tkazilgan summa berilgan vaqtdan, asosiy qarzni qaytarish esa talaba tomonidan oliy ta’lim muassasasida o’qishning ta’limning ushbu turi uchun rasmiy belgilangan muddati tugallangandan so’ng, ayrim kurslarda takroran o’qish muddati hisobga olinmasdan, uch oy o’tgandan so’ng boshlanadi.

Talaba muddatli harbiy xizmatni o’tayotgan davrda ta’lim kreditlari uchun foiz hisoblanmaydi. Ta’lim kreditlari, qoidaga ko’ra, qarz oluvchi yashaydigan aholi punktida joylashgan tijorat banklari muassasalari tomonidan beriladi.

Ta’lim krediti qarz oluvchining ssuda hisob raqamidan uning shaxsiy yozma topshirig’i asosida oliy ta’lim muassasasining talab qilib olinadigan depozit hisob raqamiga mablag’ o’tkazish yo’li bilan beriladi. Ta’lim kreditlari bo’yicha mablag’lar kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda har yarim yilda o’qish uchun yillik to’lovning to’liq miqdorini ikki teng qismga bo’lish yo’li bilan o’tkaziladi. Bunda yangidan qabul qilingan talabalar uchun birinchi yarim yillikda o’qiganlik uchun boshlang’ich to’lov joriy yilning 1 oktyabrigacha, ikkinchi yarim yillik uchun navbatdagi kalendar yilning 15 martigacha to’lanadi.

O’qishning ikkinchi yilidan boshlab kredit hisobiga to’lovlar har yarim yillik birinchi oyi (sentyabr va mart)ning 5-kunidan kechiktirilmay to’lanadi. Foizlar qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasida qayd etilgan shartlarda to’lanadi.

Kam ta’minlangan oilalardan chiqqan talabalarning o’qishiga ta’lim kreditlari uchun foizlar qarz oluvchi va Jamg’arma tomonidan har oyda, hisoblangan foizlar summasining 1/2 qismi bo’yicha teng ulushlarda to’lanadi.

Jamg'arma hisoblangan foizlar summasini to'lov topshiriqnomasi bilan bank bildirishnomasi olingandan keyin uch ish kuni mobaynida o'tkazadi. Ta'lim krediti berilgandan so'ng bank kredit ta'minlanishi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan tartibda monitoring olib boradi.. Talabaning talaba safidan chiqarilishi oliy ta'lim muassasasi tomonidan bankka o'z vaqtida ma'lum qilinmagan taqdirda, ta'lim muassasasi ushbu davr uchun hisoblangan foizlarni bankka to'lashga majbur. Ushbu shartlar bank, qarz oluvchi va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida aks ettirilishi kerak.

Shunisi xarakterliki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 26 iyuldagi 318-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy o'quv yurtlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari berish to'g'risidagi nizomga muvofiq to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan talaba ichki tartib-qoidalarni, o'quv intizomini buzganligi va akademik o'zlashtirmaganligi, shuningdek, kontrakt shartlarini bajarmaganligi uchun o'qishdan chetlatilganda ilgari to'langan pullar qaytarib berilmaydi.

Ta'lim oluvchining o'z tashabbusi bilan uzrli sabablarga ko'ra o'qishni to'xtatishga majbur bo'lganda ta'lim muassasasi oldindan to'langan pullarning o'qishning amaldagi muddati uchun sarflangan xarajatlarni ushlab qolgan holda tegishli qismini qaytarib beradi.

12.4.Ipoteka krediti va undan foydalanish imkoniyatlari.

Hozir O'zbekistonda aholiga ipoteka kreditlari berish sxemasini amaliyotga joriy etayotgan kredit tashkilotlarining soni kundan-kunga ko'payib bormokda. Odatda, uy-joyni tanlash uchun vaqt cheklangan bo'ladi. Shunday ekan, qarz oluvchi bank ipoteka krediti berish chogida k.anday talablarni qo'yishini oldindan aniqlab oladi. Umuman olganda, ipoteka krediti olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash va rasmiylashtirishning to'rt bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich - bankka takdim etish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash bosqichi bo'lib, bu hujjatlar: qarz oluvchining pasporti; jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi; oilasining tarkibi haqida, yashash joyidan ma'lumotnoma; barcha voyaga etgan va etmagan oila a'zolarining shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar; qarz oluvchining mehnat daftarchasi; hozirgi ish joyidan olingan mehnat kontrakti (ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi); asosiy ish joyidan oxirgi 12 oyda olingan daromadlar va ushlab kolingan pullar miqdori haqidagi bank belgilagan shakldagi ma'lumotnoma; qo'shimcha daromadlar bo'lgan taqdirda - qarz oluvchining yashash joyi bo'yicha oxirgi bir yildagi daromad to'g'risida soliq organlari tomonidan tasdiqdangan deklaratsiya nusxasi (ish joyidan ma'lumotnoma bo'lmagan taqdirda); sotib olinayotgan uy-joyning bahosi to'g'risida mustaqil baholovchining hisobotidan iborat.

Ikkinchi bosqich-ariza to'ldirish, hujjatlarni kredit xodimlarining o'rganib chiqishi, kredit komissiyasining qaror qabul qilishi; ipoteka krediti olish uchun bank belgilagan shakldagi ariza; qarz oluvchini dastlabki tarzda malakalash bo'yicha bank belgilagan shakldagi, qarz oluvchi tomonidan imzolangan anketa; garovga qo'yilgan uy-joy bahosini bank bilan kelishish bosqichi.

Uchinchi bosqich - kredit shartnomasi tuzish, kvartirani rasmiylashtirish (kredit komissiyasi ijobiy qaror qabul kilgan taqdirda): sotuvchidan yoki kuruvchidan bank krediti hisobidan sotib olinayotgan va qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilgan uy-joyni olish-sotish shartnomasi; er (xotin)ning va boshqa voyaga etgan oila a'zolarining, shuningdek vasiylik va xomiylik organlarining voyaga etmagan oila a'zolarini kuzlab kredit hisobidan sotib olingan uy-joyni garovga qo'yishga, shuningdek, undirish uy-joyga karatilgan taqdirda, uy-joyni bushatib berishga notarial tasdiqlangan roziligi; bank muassasasida birlamchi omonat pul mavjudligini tasdiqlaydigan hujjatlar; sotib olinayotgan uy-joyni sugurtalash shartnomasi; qarz oluvchining xayotini va mehnat qobiliyatini cyg'yptalash shartnomasi; kredit hisobidan sotib olinayotgan uy-joyni garovga qo'yish (ipoteka) haqida davlat ruyxatidan o'tkazilganligini bildiruvchi belgi qo'yilgan shartnoma.

To'rtinchi bosqich - pul mablag'larini sotuvchi hisobvaragiga o'tkazish va sotuvchining pulni olishi.

Kredit tashkilotlari ipoteka yordamida sotib olinadigan uy-joyga kuyadigan muayyan talablar mavjud. Eng avvalo, bu uy-joy likvidli mol-mulk bo'lishi, ya'ni boeorda makbul

muddatlarda va narxidan ko’p yutkazmagan holda sotish mumkin bo’ladigan ob’ekt bo’lmogi kerak.


Bu shaxsan mijozga ham kerak, bank tomonidan ham ipoteka kreditini kurib chiqish chogida hisobga olinadi.

Garov tarikasida sotib olinayotgan uy-joy rasmiylashtirilganida, bu uy-joy qonun hujjatlariga muvofiq sotuvchiga mulk huquqi asosida tegishli bo’lishi kerak. Afsuski, oila a’zolari va ularni ko’chirib chikarish mumkinligi muammosi xar kanday, xatto yuridik jihatdan puxta tayyorlangan shartnomada ham dolzarb bo’lishi mumkin.

Xaridor bilan sotuvchi va rieltorlik agentligi o’rtasidagi shartnomalar shartlarni batafsil bayon kilgan holda fakat yozma shaklda tuzilishi kerak. Garov egasining undiruvni garovga qo’yilgan uy-joy yoki kvartiraga karatishi va bu mol-mulkning sotilishi uy-joy yoki kvartirani sotib oluvchi tomonidan ushbu binoda birga yashaydigan garov beruvchi va uning oila a’zolarini ko’chirib chikarish uchun asos bula olmaydi, basharti bu uy-joy ular uchun doimiy yashashga yarokli birdan-bir bino bo’lsa. Boshqa barcha hollarda bevosita sudning ko’chirib chikarish haqidagi hal kiluvchi qarorida sanitariya me’yorlariga javob beradigan va ko’chirib chikarilayotgan shaxs kuchib o’tishi kerak bo’lgan aholi punkti doirasidagi boshqa uy-joy binosi ko’rsatilishi kerakligini nazarda to’tish mumkin. (1-chizma)

1-chizma

O’zbekistonda ipotekaviy kreditlash jarayoni[69]



Agar xususiylashtirilgan kvartira birinchi marta sotilayotgan bo’lsa, bunday kvartiralarda Davlat mulki kumitasidan ma’lumotnoma bo’lishi kerak.

O’tgan yillar mobaynida ba’zi fuqarolar mamlakatdan tashqariga chikib ketgan va uzlarining roziligi talab kilinishini bilmagan bo’lishlari mumkin. Birok, bunday rozilik hozir, ko’chmas mulkni olish-sotish chogida zarur bo’ladi.

Hozirgi paytda O’zbekistonda ham ko’chmas mulk agentliklari bilan birga ipoteka dasturlarini amalga oshirayotgan kredit tashkilotlari paydo bo’ldi. Bu tashkilotlar konkret bankning talablarini biladi va g’oyat kiska muddatlarda kerakli variantni topa oladi. Yuqoridagilarga asoslangan holda aholi tomonidan ipoteka kreditlarini olish tartibi quyidagi ketma-ketlikda keltirilgan.

[69] Chizma muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi asosida tuzuldi. 2014 yil 17 yanvar. Toshkent shahri

1. QQI IKning tegishli filialiga murojaat qilib, namunaviy loyihani tanlaydi va dastlabki shartnoma tuzadi.

2. Loyiha qiymatining kamida 25% miqdoridagi mablag'ni omonatga qo'yib, kredit olish uchun tegishli hujjatlarni bankka taqdim qiladi.

3. Bank tomonidan dastlabki badal qo'yilganligi va kredit ajratishga ijobiy xulosa berilgandan so'ng QQI IK xududiy filiali bilan uy-joy qurilishi uchun asosiy shartnoma imzolanadi.

4. QQI IK bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish bosqichma bosqich moliyalashtiriladi. Bunda avval 25 foiz avans to'lovlari, ular moliyalashtirilgandan so'ng kredit, so'ngra yakuniy to'lov summalari yo'naltiriladi.

5. Ob'ektni davlat qabul qilish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi va uy-joy egasiga topshiriladi.

Shuni aytish kerakki, xaridor bilan sotuvchi va rieltorlik agentligi o'rtasidagi shartnomalar shartlarni batafsil bayon kilgan holda fakat yozma shaklda tuzilishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 108-109-moddalari).

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida buyurtmachi bilan ijrochi o'rtasidagi pulli shartnomalarning bunday turini 703-708-moddalar tartibga soladi. Bunday shartnomalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan bo'lsagina mutlako qonuniy bo'ladi.

Kredit muassasasi bilan hamkorlik qiladigan rieltorlik agentligining vazifalari sirasiga ham qarz oluvchining hohish-istaklariga muvofiq, ham bank talablariga muvofiq kvartira yoki boshqa uy-joyni izlash, shuningdek zarur hujjatlarni to'plash kiradi. Rieltor turar joy ob'ekti bo'yicha hujjatlarni bank kredit bulimining xodimiga takdim etadi, bitim parametrlarini (rejalashtirilayotgan notariat sanalarini, ruyxatga olish Hisobidan chikarishni, hisob-kitob qilish tartibi va xokazolarni) aniqlashtiradi.

Banklar qarz mablag'lariga sotib olinadigan uy-joyga qo'yiladigan talablar qarz oluvchining o'ziga foyda keltiradi. Chunki mijoz o'zi qo'ygan depozitiga bankdan past darajada bo'lsada foizli daromad olishga haqlidir.

Respublikamizda ipoteka krediti berish yosh oilalarga uy-joy qurish va rekonstruktsiya qilishga beriladigan iste'mol krediti O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan va ularning iste'molchilik extiyojlarini qondirishga mo'ljallangan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish uchun jismoniy shaxslarga beriladigan kreditdir.

Iste'mol krediti qarz oluvchi tomonidan, butun kreditlash davrida bankdagi garov depozitiga pul mablag'larini garov ta'minoti sifatida omonatga qo'yish sharti bilan, sotib olinadigan tovar (ishlar, xizmatlar)ning to'liq qiymati miqdorida beriladi.

Kreditning maksimal summasi - eng kam ish haqining 500 miqdoridan oshmaydi;

Kreditlash muddati - uzog'i bilan 3 yil;

Foiz stavkasi - yiliga 14% dan 17% gacha (yosh oilalarga 11%dan 14 %gacha);

Kredit ta'minoti bo'lib uchinchi shaxslar kafolati, mulk (shu jumladan kredit hisobidan xarid qilinadigan mulk) garovi hamda pul mablag'larini olish huquqlari garovi va qonunlarda ko'zda tutilgan boshqa usullar hisoblanadi.

Yosh oilalar (har birining yoshi ZOdan oshmagan, birinchi marotaba nikohdan o'tgan er-xotinlar) uchun iste'mol kreditlari bo'yicha olti oylik imtiyozli davr belgilangan bo'lib, bu davr mobaynida kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish muddati cho'ziladi.

Kredit olish uchun qarz oluvchi Bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) kredit berilishi to'g'risida ariza;

b) qarz oluvchining shaxsini va yashash joyini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjat;

v) qarz oluvchining daromadini belgilangan tartibda tasdiqlovchi ish joyidan ma'lumotnoma, yoxud qarz oluvchining ko'radigan daromadini yoki uning mavjud bo'lgan mablag'larini hujjatli ravishda tasdiqlovchi boshqa hujjat.

Yosh oilalarga beriladigan ipoteka uy-joy kreditlari - bu O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga sotib olinadigan ko'chmas mulkni garovga qo'yish sharti bilan beriladigan kreditlardir. Ipoteka kreditlari quyidagi maqsadlarda beriladi:

-Turar joy binosini yoki ko’p qavatli binodagi kvartirani sotib olishuchun;
-Turar joy binosi qurilishi uchun;
-Turar joy binosini rekonstruktsiya qilishuchun.

Ipoteka kreditining maksimal miqdori yakka tartibdagi turar joy binosini rekonstruktsiya qilish yoki ko’p qavatli uyda kvartira sotib olish uchun eng kam ish haqining ko’pi bilan 2500 baravari miqdorida;

- yakka tartibdagi uy-joyni qurish va sotib olish uchun
- eng kam ishhaqining, ko’pibilan, 3000 baravari miqdorida belgilangan.

Kredit yosh oila toifasidagi qarz oluvchilarga 15 yilgacha va qolgan toifadagi qarz oluvchilarga 10 yilgacha muddatga beriladi.

Foiz stavkasi yiliga 8% dan 18% gacha (yosh oilalarga 9%dan 14%gacha). Kredit sotib olinayotgan (qurilayottan, rekonstruktsiya qilinayotgan) uy-joyning oldi-sotti shartnomasi (qurilish yoki rekonstruktsiya smeta qiymati) bilan belgilangan qiymatidan ko’pi bilan 75% miqdorida beriladi.

Qarz oluvchi ipoteka kreditini olish uchun sotib olinayotgan uy-joy qiymatidan yoki qurilayotgan yoxud rekonstruktsiya qilinayotgan uy-joyning smeta qiymatidan kamida 25 foizi miqdorida o’z mablag’-lariga ega bo’lishi shart. Berilayotgan kreditning ta’minoti kredit summasi-ningkamida 125%ini tashkil etishi lozim.

Yosh oilalar uchun uch yillik imtiyozli davr belgilanadi. Uy-joy binosini (ko’p qavatli uydan kvartirani) sotib olishga kredit olish uchun qarz oluvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1-jadval

Mamlakatda yosh oilalarning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida berilayotgan imtiyozli ipoteka kreditlari[70]

Turar joyning turi va joylashuvi	Ipoteka krediti muddati	Dastlabki to’lov	Imtiyozli davr	Foizlar
Shaharlarda ko’p kvartirali arzon uy-joylar qurish va rekonstruktsiya qilish	20 yil (imtiyozli davr bilan birga)	kvartira qiymatining 25% i	3 yil	dastlabki 5 yil mobaynida yillik 7% miqdoridagi foiz stavkasi bilan va keyingi davrda MBning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida
Qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo’yicha arzon uy-joylar qurish va rekonstruktsiya qilish	15 yil (imtiyozli davr bilan birga)	15% – ikki, uch qavatli ko’p kvartirali (2 va 3 xonali) uylar va 2, 3 xonali bir qavatli uylar uchun; 25% – ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan uylar uchun	3 yil	dastlabki 5 yil mobaynida yillik 7% miqdoridagi foiz stavkasi bilan va keyingi davrda MBning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida

-uy-joy binosi yoki kvartira oldi-sotdisi to’g’risidagi dastlabki shartnomani, unga ilova qilib uy-joy binosi yoki kvartiraga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat;

- xususiyilashtirish dalolatnomasi, agar uy yoki kvartira oldin ham sotilgan bo’lsa, uning notariusda tasdiqlangan dalolatnomasi va oldi-sotdi shartnomasi, idoraga qarashli uy-joy egasining uy-joyni xususiylashtirishga ijozat berganligi to’g’risidagi hujjatning nusxasi;

-pul mablag’larining qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) nomiga ochilgan omonat qo’yilma hisobvarag’iga joylashtirilgani to’g’risidagi Bank ma’lumotnomasi;

[70] Vazirlar Mahkamasining 23.09.2017 yildagi 753-son «Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlashda qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi qarori.

-ariza beruvchining va u bilan birga yashovchi oila a’zolarining (agar ular qarzni birgalikda oladigan bo’lsalar) daromadlari to’g’risida doimiy ish joyidan oxirgi 12 oy uchun berilgan ma’lumotnoma;

-oila tarkibi to’g’risida turar joydan ma’lumotnoma;

-ariza beruvchi va birgalikda qarz oluvchining pasporti. Ularning balog’atga etgan va balog’atga etmagan barcha oila a’zolari shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, alohida namuna ko’rsatayotgan yosh oilalarning uy-joy va maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida banklar quyidagi shartlarda uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari beradi:

Bundan tashqari, qaror yangi tartib joriy etilishini ko’zda tutadiki, unga muvofiq, mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, alohida namuna ko’rsatayotgan yosh oilalar uchun ipoteka kreditlari bo’yicha quyidagi shakldagi to’lovlar nazarda tutilgan qo’shimcha imtiyozlar beriladi:

- ipoteka kreditlarini olgan yosh oilalarning kreditni to’lash muddati davomida keyinchalik uni qaytarish sharti bilan O’zbekiston yoshlar ittifoqi mablag’lari hisobidan uy-joy sotib olish uchun dastlabki badallarni to’lash;
- ipoteka krediti bo’yicha birinchi 5 yil nihoyasiga etgandan keyingi butun muddat uchun hisoblanadigan foizlarning O’zbekiston yoshlar ittifoqi mablag’lari hisobidan MBning qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida to’lash.

Shuni ta’kidlash kerakki, 2012 yildan boshlab mamlakatimizda namunaviy uy-joy qurilishiga Osiyo Taraqqiyot Banki jalb kilindi va shu munosabat bilan bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda qishloq joylarda uy-joy qurilish ishlari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 11 yanvardagi PQ-1683-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish" loyihasini ko’p martalik transh bo’yicha moliyalashtirish dasturini amalga oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risida" gi qarori;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 14 yanvardagi PQ-1687-sonli “2012 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo’yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturi to’g’risida”gi qarori; O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 4 yanvardagi PQ-1902-sonli “2013 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo’yicha individual uy-joy qurilishi bo’yicha dastur to’g’risida” gi qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 15 noyabrdagi PQ-2068-sonli “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo’yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilishining 2014 yil dasturi to’g’risida” gi qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Bugungi kunda ipoteka kreditlariga bo’lgan talabni o’rganish maqsadida respublika hududidagi viloyat markazi, tumanlar, kichik shaharlar va qishloq joylarida uy-joy qurilishiga ajratilgan va ajratilishi rejalashtirilayotgan er maydonlari hajmi hisoblangan. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasidan respublika aholisi soni, mehnatga layoqatli va ish bilan band bo’lgan aholi hamda ularning uy-joyga bo’lgan ehtiyoji to’g’risidagi ma’lumotlar olinib, tahlil qilib chiqilgan.

Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan kelishilgan yakka tartibdagi va namunaviy loyixa asosida, qurilishning belgilangan normalari va koidalariga rioya kilib yakka tartibda uy-joy qurish va rekonstruktsiya qilish hamda yakka tartibdagi uy-joyni yoki ko’p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish maqsadlari uchun beriladi.

O’zbekiston Respublikasida fuqarolarga ipoteka krediti murojaat qilgan kunida 18 yoshga to’lgan qishloq joyda yashaydigan kreditga layoqatli va namunaviy loyiha bo’yicha uy - joy qiymatining 25% dan kam bo’lmagan miqdorda boshlang’ich badalini to’plagan fuqarolarga eng kam ish haqining 1000 barobarigacha, shuningdek qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining 75 foizidan oshmagan miqdorda imtiyozli foizli stavka bilan asosiy qarzni qaytarish bo’yicha bir yil muddatga imtiyozli davr bilan 15 yil muddatgacha ajratiladi. (Bugungi kunda eng kam ish haqi miqdori 96 105 so’mni tashkil qiladi). Bunga qo’shimcha ravishda aytib o’tish joizki bitta qishloq oilasiga bitta namunaviy uy-joyga kredit berilishi mumkin.

Bularga qo’shimcha qarz oluvchining ko’chmas mulki mavjudligi, ya’ni qimmatbaho mulki to’g’risidagi ma’lumotlar, depozit hisobvarag’idan ko’chirmalar taqdim etiladi. Bular hammasi qarz oluvchining to’lovga qanchalik layoqatliligini ko’rsatadi.

Ipoteka kreditlari asosan, uzoq muddatga mo’ljallangan. Avvalo, boshlang’ich badal mablag’ining miqdori sotib olinadigan uy-joy umumiy qiymatining kamida 30 foiziga muvofiq kelishi lozim. Kredit sotib olinadigan uy-joy qiymatining 70 foizi miqdorigacha beriladi. qarz oluvchi tomonidan boshlang’ich badalga kiritilgan pul mablag’lari miqdoridan kelib chiqib, kreditdan foydalanganlik uchun to’lovlar miqdorining belgilanishi quyidagicha bo’ladi.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni kamaytirish yoki oshirish, O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi yoki bankning foiz siyosati o’zgargan holda, yangi beriladigan kreditlar uchun foizlar tegishli ravishda qayta ko’rib chiqilishi mumkin.

Ma’lumki, avval berilgan kreditlar, ya’ni sertifikatli uylar vaqtinchalik egalik huquqi bilan berilgan va qachonki, uy egasi hamma qarzlardan qutulgandan so’nggina, u uy egasi nomiga to’liq rasmiylashtirilgan. Ipoteka kreditlarida esa egalik huquqi uy sotib olgan shaxs nomiga birdaniga beriladi va uy egasi 10 yil davomida sekin-asta qarzlardan qutulib boradi.

2-jadval

Ist’emol va ipoteka kreditlari bo’yicha umumiy talablar[71]

Kredit shartlari	Ist’emol krediti	Ipoteka krediti
Kredit kimlarga beriladi?	Jismoniy shaxslarga	Jismoniy shaxslarga
Kredit miqdori	Tijorat banklarga qarab turlicha	Tijorat banklarga qarab turlicha
Boshlang’ich to’lovi	Tijorat banklarga qarab turlicha	Tijorat banklarga qarab turlicha
Kredit muddati	6 oydan 3yilgacha	3yildan 15yilgacha
Kredit taminoti	Xarid kilib olinayotgan tovar yoki uchinchi shaxsning kafilligi. Bazi banklar qo’shimcha taminot talab qilishlari ham mumkin.	Garov sifatida sotib olinayotgan xovli-joy yoki kvartira qabul qilinadi. Bazi banklar qo’shimcha taminot talab qilishlari ham mumkin.
Zarur hujjatlar	Pasport nusxasi	Uy sotib oluvchi va uy egasining pasport nusxasi
	Yashash joyidan malumotnoma	Yashash joyidan malumotnoma
	Ish joyidan oxirgi davrdagi ijobiy moliyaviy natijalar xaqida malumotnoma	Ish joyidan oxirgi davrdagi ijobiy moliyaviy natijalar xaqida malumotnoma
	Tovar yoki xizmat shartnomasi	Olinayotgan xovli-joy yoki kvartiraning kadastr hujjatlari

Tijorat banklari tomonidan ipoteka krediti berishni qo’llab-kuvvatlash jamg’armasi imtiyozli kredit liniyalari hisobidan beriladigan kredit miqdori yakka tartibda uy-joy qurilishi va sotib olish uchun eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha bo’lsa, yakka tartibdagi kurilgan uy-joyni rekonstruktsiya qilish va kvartira sotib olish uchun eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha bo’lgan summani tashkil etadi.

Hozirgi kunda ipoteka krediti olish uchun xar bir ariza beruvi kuriladigan, sotib olinadigan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdoridagi uz mablag’iga ega bo’lishi kerak. (2-jadval).

Kredit olish uchun buyurtmanoma va zarur hujjatlar takdim etilgan kundan boshlab 30 ish kunida kredit komissiyasi buyurtmanomani kondirish yoki rad etish to’g’risida qaror qabul qiladi.

Hozirgi kunda yosh oilalarga berilayotgan imtiyozli ipoteka kreditlari O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo’lmagan stavkalarda berilmokda.

Qurilishni monitoring qilish jarayoni:

[71] Bank axborotnomasi. № 42.2009; 4-bet

- Davlat arxitektura va qurilish nazorat inspektsiyasi - loyiha va qurilish montaj ishlarini qurilish me'yorlariga muvofiqligi va sifati bo'yicha nazorat qiladi;
- «Qishloq qurilish invest» kompaniyasi – buyurtmachi vazifasini bajarish bilan birgalikda qurilish jarayonida texnik nazoratni amalga oshiradi;
- Loyihalash tashkilotlari – qurilishni foydalanishga topshirish davomida qurilish ishlarini loyihaviy echimlariga monand bajarilishi ustidan mualliflik nazoratini amalga oshiradi;
- Uy-joy egasi – qurilish jarayoniga halaqit bermagan holda qurilishning borishini kuzatib borish hamda zaruriyat bo'lganda, namunaviy loyiha doirasida yozma shaklda takliflar kiritish huquqiga ega.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirishda xorijiy moliya institutlarining ishtiroki

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida ipotekali kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratilganligi tijorat banklari tomonidan berilayotgan ipoteka kreditlari hajmini so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sishiga sabab bo'lmokda. Bu esa o'z navbatida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda turmush farovonligini oshirishda ipoteka kreditlarining ahamiyati o'ziga xos o'rin tutmoqda.

Nazorat uchun savollar.

1. Kreditlar muddatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Kreditlar ta'minlanganligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Kreditlar foiz stavkasining turiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Kreditlar tarmoq xususiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Kreditning kreditlash ob'ektlariga ko'ra qanday turlari mavjud?
6. Kreditning maqsadi yo'nalishi va kredit munosbatlarida ishtirok etuvchi sub'ektlarga ko'ra qanday turlari mavjud?
7. Kreditlashning qanday zamonaviy usullarini bilasiz?
8. Overdraft shaklida kreditlash qay tartibda amalga oshiriladi?
9. Kreditlashning kontokorrent shakli nima va u overdraftdan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
10. Kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlashning afzallliklari nimada?

13-MAVZU. KIChIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI KREDITLASH

Reja

13.1 Kichik biznesning Respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ularni tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartiblari.

13.2 Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratiladigan kreditlarni o'ziga xos xususiyatlari.

13.3 Kichik biznes loyihalarini chet el investitsiyasi va boshqa manbalar hisobidan moliyalash.

13.4 O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik, hamda kasanachilik sohalarining barqaror rivojlanishida Davlat dasturlarining tutgan o'rni.

Tayanch iboralar

Garov ob'ekti, investitsiya, kichik biznes, kichik korxona, kredit liniyasi, mikrofirma, mikrokredit, mikrolizing, pul oqimi, pul mablag'lari, ssuda hisobraqami, xususiy tadbirkorlik.

13.1 Kichik biznesning Respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ularni tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlash tartiblari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda"[72].

Darhaqiqat, kichik biznes O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi hal qiluvchi kuchga aylandi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlari erkinlashuvi va takomillashuviga moslashuvini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning amaliy imkoniyati, zaruriy asoslari hamda strategik vazifalardan kelib chiqib, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yuksaltirishga birlamchi e'tibor qaratilib kelinmoqda va u amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida asosiy o'rinni egallab kelmoqda.

Hozirgi kunda bizning iqtisodiy iboralar lug'atimizda ishlatilayotgan bir qator so'zlar, ya'ni mulkdor, tadbirkor, biznes, biznesmen, xususiy korxona, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi tushunchalar mavjud.

Biz mazkur tushunchalar qatorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasiga kengroq ahamiyat qaratishga harakat qilamiz.

"Biznes", "kichik biznes" va "xususiy tadbirkorlik" tushunchalari, ko'pincha bozor iqtisodiyotiga bog'langan holda, uning elementlari hamda unda samarali faoliyat yuritish vositalari sifatida talqin etilmoqda. Ayni vaqitda bu tushunchalarning amalda qo'llanilishi, real kuchga kirishi bozor iqtisodiyoti sharoitida kengroq namoyon bo'la boshladi. Biznes, ishbilarmonlik, tadbirkorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Biznes ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish, o'sha faoliyatni o'zining kundalik hayot va harakat tarziga aylantirib olish, u bilan doimiy shug'ullanishdir. Biznes o'zidagi iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy, ma'naviy, intellektual imkoniyat, qobiliyat va sharoitlarni ishga solish orqali natijalar olishdir. Xullas, biznes faollik va yuqori iqtisodiy-ijtimoiy samaralarga erishib, farovon hayot tarzi asoslarini bunyod etishdir.

"Kichik" va "xususiy" korxona turlarining muhim belgilaridan biri – o'z faoliyati va mulkiga bevosita egalik qilishdir. Bunda mulk va uning nazorati yuzasidan javobgarlik hissi aynan rahbar – yagona mulkdor shaxsning zimmasiga yuklanishi bilan ifodalanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to'laroq ochib berish uchun uning boshqa iqtisodiy sub'ektlar (yirik biznes)dan farqli jihatlari, qolaversa, afzalliklari xususida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Xususan, amerikalik iqtisodchi R.Syuart kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan:

[72]Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. - B.7.

- kichik biznes ko’pchilik yangi mahsulot yoki xizmat turining bunyod etilishi uchun boshlang’ich ishlab chiqarish nuqtasidir. Bir shaxs birorta g’oyani amalda tadbiq etishga urinadi. Agar, u muvaffaqiyatli bo’lib chiqsa, biznes o’sadi yoki mahsulot yirik korxona tomonidan sotib olinadi;

- kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarni qondirishga yaxshi moslashgan bo’ladi;

- kichik biznes shaxsga tajriba orttirish imkonini berishi mumkin va o’zlariga keyinchalik kengroq miqyosda qo’l kelishi mumkin;

- ommabop ishlab chiqarilgan mahsulotlar joniga tekkan iste’molchilarga hunarmandlar shaxsiy ish rejasi bo’yicha ishlangan mahsulot taklif etilishi mumkin;

- kichik biznes o’z iste’molchisini shaxsan bilishi mumkin bo’lgan xizmat turlarini taklif etadi;

- yakka mulkdor iste’molchilarining ishonchlilariga tayanadi.

Iqtisodchi olim E.Egamberdievning fikriga ko’ra, kichik biznes – xo’jalik yuritishning shunday shakliki, bunda korxonalar davlatga bog’liq bo’lmagan holda mustaqil faoliyat olib boradilar. Ular ishlab chiqaradigan mahsuloti turlarini, hajmini o’zlari belgilaydilar; o’z xohishlariga ko’ra, mahsulotni xohlagan bahoda, xohlagan sharoitda sotadilar yoki xizmat ishlarini bajaradilar; korxonani rivojlantirish fondiga, ijtimoiy ishlarga, rezerv fondiga foydadan ajratmalar me’yorini, mehnatga haq to’lash shakli va miqdorini ham o’zlari ixtiyoriy ravishda belgilaydilar; mahalliy sharoitga tez moslashadilar, tezda bir qarorga keladilar va h.k.

Dunyo tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari, o’rta va yirik korxonalarga nisbatan bozor talabiga qisqa muddat ichida moslasha oladi, mehnatni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etib, undan samarali foydalanish kichik korxonalarda boshqalariga nisbatan tezroq amalga oshadi.

Davlat o’z islohotlari vositasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini shakllantirish orqali raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga, bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga ko’maklashishi lozim.

Jahon tajribasi tasdiqlashicha, umuman, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatda o’rta mulkdorlar sinfining paydo bo’lishiga, barqaror soliq solinadigan bazaning kengayishiga yordam beradi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish joylarini yaratish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog’liq muhim ijtimoiy rolni bajaradi.[73]

Prezident I. Karimov tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning zarurligini belgilovchi omillar haqida quyidagi fikrlar ta’kidlanadi:

- respublika bozorini zarur iste’mol mollari va xizmatlar bilan boyitadi;

- aholining (ayniqsa, ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo’lgan qishloq joylarida) ish bilan bandliligini ta’minlaydi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faqat ichki bozorni iste’mol tovarlari bilan ta’minlash emas, balki tashqi bozorlarga ham raqobatbardosh mahsulotlar chiqarishga qodir;

- kichik biznesda bozor kon’yukturasining o’zgarishiga tezda moslasha olish imkoniyati ham mavjud;

- uning fan va texnikaning yangi yutuqlarini tez o’zlashtirish qobiliyati ham bor.[74]

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mulkchilikning isloh qilinishi, xususiy mulkchilikni har tomonlama kengaytirish, kichik biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotning bir shakldan boshqa bir shaklga o’tish jarayonida kichik biznes taraqqiyoti davlat uchun uning istiqbolini belgilab beruvchi muhim bo’g’inga aylandi. Chunki aynan katta mablag’ talab etmaydigan va resurslarning o’sish tezligini kafolatlovchi kichik biznes korxonalari iqtisodiyotdagi qayta tuzilishlari bilan bog’liq bo’lgan

[73] Qoraliev T.M., Yaxshiboev G’.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta’minlash mexanizmi.-Monografiya.-T.: Akademiya. 2006 yil. - B.10-13.

[74] Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: “O’zbekiston”, 1999. – B.574.

muammolarni nisbatan tez va ortiqcha sarf-harajatlarsiz echishga ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan bo'lishiga qaramay iste'mol mollari bilan to'ldirishga qodir.

Hozirgi kunda kichik biznes oldida turgan eng asosiy muammolardan biri moliyaviy resurslar muammosidir. Bu vazifani bajarish, ya'ni kichik biznesni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, ularga imtiyozli foiz va muddatlarda kredit mablag'larini ajratish tijorat banklari zimmasiga yuklatildi.

Oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapital hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida qisqa va uzoq muddatli kreditlarni ajratish mexanizmlari qayta ko'rib chiqilib, hozirgi davr talablariga moslashtirildi.

Tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari tomonidan ajratiladigan mikrokreditlarning ta'minoti sifatida kredit qaytarilmasligi xatarini sug'urtalashda sug'urta polisini qo'llash amaliyotini kengaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jumladan, kasb-hunar bilim yurtlari bitiruvchilariga berilgan tijorat banklari kreditlari bo'yicha ta'minot sifatida jismoniy shaxslarning mol-mulkini garovga olish amaliyoti keng joriy qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvarda qabul qilingan «2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi PQ-1464-sonli Qaroriga asosan, tijorat banklarida kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ajratishda garovga qo'yilgan mulkni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni kreditning umumiy summasida aks ettirish amaliyoti joriy qilindi.

Keyingi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir bir qancha qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilib, bu me'yoriy hujjatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, bularga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat Dasturi to'g'risidagi 2011 yil 7 fevral PQ-1474-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomilllashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 4 aprel PF-4296-sonli va "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" 2008 yil 28 noyabr PF-4058-sonli Farmonlari, shuningdek, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 24 avgustdagi 4354-sonli hamda «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2011 yil 25 avgustdagi PQ-1604-sonli Qarorlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Bugungi kunda kichik biznesni kreditlashni tashkil qilishning huquqiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 15.09.2006 yildagi "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013 yil 23 noyabrdagi 22/9-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini kreditlash ob'ekti bo'lib, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda oilaviy korxonalar hisoblanadi.

Kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

Kreditlar tijorat banki va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq beriladi.

Kreditlar kreditlanayotgan tadbirning o’zini-o’zi qoplashini hisobga olgan holda quyidagi muddatlarga beriladi:

- qarz oluvchi o’z faoliyatini boshlashi uchun aylanma mablag’larni shakllantirish va investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga - 12 oy muddatgacha;
- aylanma mablag’larni to’ldirishga - 18 oy muddatgacha;
- qishloq xo’jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag’larni to’ldirishga - 24 oy muddatgacha.

Tijorat banklari kreditlar bo’yicha kreditlashning imtiyozli davrini belgilashlari mumkin.

Kreditlar qonun hujjatlarida ta’qiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ajratilishi mumkin emas.

Qishloq xo’jaligi korxonalariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g’alla va paxta xom ashyosi etishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun kreditlar berish “Qishloq xo’jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g’alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to’g’risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

Kreditlar ilgari olingan kreditlarni yoki tijorat bankining «Kredit siyosati»da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas.

Qarz oluvchi olingan kredit summasini muddatidan ilgari qaytarishga va ulardan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun hisoblangan foizlarni to’lashga haqli.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari (qarz oluvchi) kredit olish uchun xizmat ko’rsatuvchi tijorat bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. Ariza;
2. Qarz oluvchining bank hisobvarag’iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko’rsatilgan biznes-reja;
3. Qarz oluvchining tegishli davlat soliq inspektsiyasiga taqdim qilgan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi (1-son shakl) va debitorlik hamda kreditorlik qarzlari to’g’risida ma’lumotnoma (2a-son shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlarga doir solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar to’g’risida hisobot (2-son shakl), yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo’jaliklari bundan mustasno;
4. Kredit ta’minoti turlaridan biri.

Tijorat banklari kreditdan foydalanishning muddati davomida doimiy monitoring o’tkazadi. Monitoring qarz oluvchining arizasi va kredit shartnomasi shartlarini bajarish uchun yordam ko’rsatishga yo’naltirilishi kerak.

Monitoring o’tkazish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy-xo’jalik faoliyati, tuzgan shartnomalari (buyurtmalar) bo’yicha majburiyatlarining bajarilayotganligi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va yo’qotishlari, foydasi, aylanma mablag’lari aylanmasi va dinamikasi hamda tovar-moddiy boyliklar zaxirasi holati tahlil qilib boriladi.

Monitoring davomida qarz oluvchining faoliyati bilan bog’liq barcha ijobiy va salbiy holatlar, shuningdek taqdim etilgan garov ta’minotining holati qarz oluvchi uchun tijorat bankida ochilgan maxsus jildda tizimlashtirib boradi.

Kreditdan belgilanmagan maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlangan taqdirda, tijorat banki qarzdorga kelgusida kredit berishni rad etishga yoki kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishga hamda shartnomada belgilangan shartlar asosida jarima belgilashga haqlidir.

Qarz oluvchining garov ta’minoti kredit bo’yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni qaytarishga etmagan taqdirda, tijorat banki mazkur qarzni qaytarishni qarz oluvchining likvidli mol-mulki, jumladan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari, transport vositalari, kompyuter hamda tashkilotlarning boshqa likvidli aktivlari hisobiga Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrdagi 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan Banklarni kreditlari bo’yicha qarzdorlik o’z vaqtida

qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibiga muvofiq amalga oshirishi mumkin.

13.2.Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratiladigan kreditlarni o'ziga xos xususiyatlari.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham mikromoliyalash aholi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishi va o'z biznesini rivojlantirish uchun unga ko'p bo'lmagan miqdorda qarzlar, mikrokreditlar berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydigan vositadir.

Shunga o'xshash xizmatlarni maxsus mikromoliyalash tashkilotlari ko'rsatadi, ulardan esa asosan daromadi yuqori darajada bo'lmagan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni, o'z ishini kengaytirishni xohlaydigan, biroq buning uchun boshqa moliyaviy institutlaridan mablag'lar olish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar foydalanadilar.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mikromoliyaviy xizmatlarning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish borasida ko'p sa'y-harakatlar qilindi. Xususan uni boshqarish tizimining qaror topishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalashtirishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 309-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 avgustdagi 348-sonli "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "kichik va mikro moliyalashtirishni rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarning rivojlanishini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim rol o'ynadi.

Mikromoliyalash sektori qarz oluvchilarning soni jihatidan O'zbekistondagi eng yirik sektordir. Ularning ko'pchiligi qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirish, savdo, xizmatlar ko'rsatish yoki buyurtma bo'yicha tikuvchilik ishlari bilan shug'ullanadi.

Hozirga vaqtda O'zbekiston Respublikasida mikromoliyalash institutlari haqida so'z yuritganda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatayotgan institutlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bunday institular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1.Tijorat banklari.

2.Nodavlat-notijorat tashkilotlari:

- mikromoliyalash asosiy faoliyati bo'lmagan tashkilotlar;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilgan, asosiy faoliyati mikromoliyalash bo'lgan mahalliy tashkilotlar;

3. O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sifatida ro'yxatga olingan xalqaro va chet el tashkilotlarining dasturlari va loyihalari;

4. Lombardlar.

5. Sug'urta kompaniyalari.


6. Lizing kompaniyalari.

bo'lib kreditlash orqali taklif qilinadi;

O'zbekiston Respublikasi 2006 yil 15 sentyabr O'RQ-50-sonli "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, uning asosiy maqsadi mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub'ektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu qonunga muvofiq "Mikromoliyalash" bu mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan mikdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.

Yuqorida jahon amaliyotida mikromoliyalash sohasi bo'yicha xizmatlar va ularga berilgan ta'riflarni keltirgan edik, O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlar va ularning mohiyati qo'yidagilardan iborat:



1-rasm."Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlar turlari.

Mikrokredit qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'laridir. Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag'larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) berilishi mumkin.

Mikroqarz mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa to'lovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag'laridir.

Mikrolizing mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir.

Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari mikdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ham qabul qilindi.

Mikrokreditbank aktsiyadorlik-tijorat bankining tashkil etilishidan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish;
- yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish;
- qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirish.

Mikrokreditbank ATB tomonidan foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- Mikrolizing xizmatlari;
- Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'ldirishga;
- Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun.

Mikrokreditlar ajratishda quyidagi tamoyillarga amal kilinadi:

• Qaytarishlilik;
• To’lovlilik;
• Ta’minlalik;
• Muddatlilik;
• Maqsadli foydalanish.

Boshlang’ich (start) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar yiliga 3 foizlik stavka bo’yicha 18 oygacha muddatga, tashkil topganiga 6 oydan oshmagan kichik tadbirkorlik sub’ektlariga quyidagi miqdorlarda berilishi belgilangan:

- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko’rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlariga;

- eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha mikrofirma va yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko’rsatayotgan dehqon xo’jaliklariga;

- eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha fermer xo’jaliklariga.

Boshlang’ich (start) sarmoyani shakllantirishga ajratiladigan mikrokreditlar sharti yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub’ektlariga mikrokredit boshlangich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro’yxatidan o’tkazilgan kundan boshlab 6 oy mobaynida buyurtma takdim etilganda beriladi.

Biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag’larni to’ldirish uchun mikrokreditlarni mikrofirmalar, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo’jaliklari olishi mumkin.

Miqdori - eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda;

Muddati - 24 oy muddatgacha;

Foizi - Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizi stavkasida.

Imtiyozli mikrolizing xizmatlari:

Mikdori - eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda;

Muddati - 3 yil muddatgacha;

Foizi - yillik 5 foiz stavkada beriladi.

Mikrokreditlar kuyidagi kichik biznes sub’ektlariga ajratiladi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs maqomiga ega bo’lmagan dehqon xo’jaliklari;
- oilaviy tadbirkorlar;
- yuridik shaxs maqomiga ega bo’lgan dehqon xo’jaliklari;
- fermer xo’jaliklari;
- mikrofirmalar;
- kichik korxonalar.

Fuqaro tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanib, bank xizmatlaridan foydalanishi uchun:

- tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat ro’yxatidan o’tishi zarur;
- o’ziga qulay bo’lgan Mikrokreditbank filialida hisobraqam ochishi kerak.

Mikrokredit olish uchun bankka taqdim qilinishi lozim bo’lgan xujjatlar:

- mikrokredit olish uchun buyurtmanoma;
- biznes-reja, pul oqimlari prognozini albatta ko’rsatgan holda;
- mikrokreditning qaytarilishi ta’minlanishi bilan bog’liq hujjatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to’ldirilgan buxgalteriya va moliyaviy hisobot ma’lumotlari.

Tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan taqdim etiladigan biznes-rejaga qo’yiladigan asosiy talablar:

- Taqdim etiladigan biznes-reja mikrokredit olish uchun buyurtmanoma berilgan sanadan ko’pi bilan 60 kun oldin tuzilgan bo’lishi kerak.
- Mikrokreditbankka murojaat qilgan tadbirkorlar kredit olgungacha Mikrokreditbank tomonidan bepul tashkil etiladigan beriladigan mikrokreditlar va ko’rsatiladigan lizing xizmatlari turlari va mexanizmlari, shuningdek biznes-reja tuzish bo’yicha ikkita bazaviy seminarda qatnashishi majburiy hisoblanadi.

Mikrokreditni ta’minlash shartlari:

- Mikrokreditlar ta’minot va ishonch asosida beriladi.
- Mulk garovi mikrokreditni ta’minlashning asosiy shakli bo’lib xizmat qiladi. har qanday mulk, shu jumladan buyumlar va «Garov to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mulkiy huquqlar (talablar) garov predmeti bo’lishi mumkin.
- Yuqori likvidlikka ega bo’lgan qimmatli qog’ozlar;
- Mikrokreditni ta’minlash uchun likvidli tovarlar, xorijiy valyuta va garov shaklida rasmiylashtiriladigan valyuta boyliklarining boshqa turlari;
- Benuqson to’lov qobiliyatli sub’ekt obro’siga ega bo’lgan yuridik shaxslar kafilligi talab etiladi.

Ishonchli mikrokreditdan foydalanish sharti:

- Mikrokreditlar faqat qoniqarli kredit tarixiga ega bo’lgan va oldin olingan UChTA kreditni o’z vaqtida to’lagan qarz oluvchilarga ishonch asosida berilishi mumkin.
- Kredit ishonch asosida berilganda bo’lajak to’lovlar bo’yicha ta’minlash sifatida qarz oluvchilar tomonidan kredit qiymatining 20 foizigacha miqdordagi summada majburiy jamg’ariladigan depozit joylashtiriladi, unga bank tomonidan foiz to’lovlari qo’shiladi.

Mikrokredit va mikrolizing arizalarini ko’rib chiqish muddatlari:

- Mikrokredit berish to’g’risidagi qaror kredit qo’mitasi tomonidan bankka zarur hujjatlar ilova qilingan holda kredit buyurtmanomasi tushgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida qabul qilinadi.
- Tadbirkorlik sub’ekti tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda yoxud hujjatlarda ishonchsiz yoki noto’g’ri ma’lumotlar mavjud bo’lganda bank ko’rsatilgan muddat mobaynida hujjatlarni aniq mulohazalar ro’yxatini yozma shaklda bayon qilgan holda puxta ishlash uchun qaytarishga haqlidir.

Mikrokreditlar ajratish va mikrolizing xizmatlari ko’rsatish ta’qiqlangan yo’nalishlar quyidagilardan iborat:

- ilgari olingan kreditlarni yoki boshqa har qanday qarzlarni to’lashga;
- tamakichilikni va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarishni tashkil etishga;
- lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o’yinlarni tashkil etishga berilmaydi.

Mikrokreditni berish va qaytarish tartibi:

- naqd pulda yoki naqd pulsiz shaklda berilishi mumkin;
- Bank kredit summasidan va foiz stavkasidan kelib chiqib asosiy qarz va foizlarning bo’lajak to’lovlari summasini kreditning butun muddatiga teng to’lovlarda hisoblab chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mikromoliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklari samarali faoliyat olib bormoqda va ularning bu sohadagi hissasi ortib bormoqda. Tijorat banklari bilan bir qatorda mikromoliyaviy xizmatlar bozorida nobank kredit tashkilotlarining ham o’rni va ta’sir dorasi mavjudddir.

13.3.Kichik biznes loyihalarini chet el investitsiyasi va boshqa manbalar hisobidan moliyalash.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko’rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo’lishiga ham bog’liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o’rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko’rsatish sohasida va uncha katta bo’lmagan mahalliy resurs bazalarini o’zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko’rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog’langan.

Kichik biznes sub’ektlarini moliyaviy qo’llab–quvvatlashning manbalaridan biri bu - Xalqaro moliya tashkilotlari va chet el banklari tomonidan ajratilayotgan mablag’lar hisobidan ochilayotgan kredit liniyalari hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o’zgarishlar yirik sarmoyalarni talab qiladi.

Hozirgi kunda O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, kichik biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari katta ahamiyatga ega. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar, kichik biznes sub’ektlariga eksportga mo’ljallangan va import o’rnini bosuvchi mahsulotlar, qishloq xo’jalik mahsulotlarini va boshqa xom ashyo resurslarini qayta ishlashni hamda boshqa kundalik ehtiyojdagi xalq iste’moli tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsion loyihalarga beriladi. Chunki eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishi uchun kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishga eng yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishi zarur. Tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini ushbu jabhaga jalb etilishi orqali, investitsion loyihalarni moliyalashtirish tezlashtirilmoqda.

Xorijiy kredit liniyalari asosan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Bank, Asaka bank, Agro bank, Ipak Yo’li Bank, Mikrokreditbank, Ipoteka bank va banklar tomonidan jalb qilingan va o’zlashtirilmoqda. Yuqoridagi banklar tomonidan hozirgi kunda Evropa Taraqqiyot va Tiklanish banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot va tiklanish banki, KFV Germaniyaning taraqqiyot va tiklanish banki, OPEK fondi hamda Italiyaning “Natsionale de lavoro”banklari kredit liniyalari jalb qilingan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun 2014 yilda ajratiladigan xorijiy kredit liniyalari, ularning foiz stavkalari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki

Xorijiy kredit liniyasi nomi va maqsadi:

Xitoy taraqqiyot banki 4-kredit liniyasi

– qishloq xo’jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda meva-sabzavotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalar sotib olish;

– mahalliy xomashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish;

– qurilish materiallarini ishlab chiqarish, bunda yangi turlarini tatbiq etgan holda;

– tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste’mol tovarlari ishlab chiqarish;

– servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.

2014 yilda o’zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 35 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo’yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – yarim yillik LIBOR + yillik 3,8 foiz (XTDB marjasi) + O’zmilliybank marjasi.

Kredit miqdori – 100,000 AQSh dollaridan kam bo’lmagan miqdorda.

Kreditning maksimal muddati – 7 yil.

Xorijiy kredit liniyasi nomi va maqsadi:

Koreya eksport-import banki

– Qishloq xo’jaligi va chorvachilik mahsulotlarini hamda meva-sabzavotlarni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalar sotib olish;

– mahalliy xomashyoni qayta ishlash maqsadida zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish;

– tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat turdagi iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish;

– servis va xizmatlar doirasi, turizmni rivojlantirish.

2014 yilda o’zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 10 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidanajratiladigan kreditlar bo’yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi CIRR yoki LIBOR + har bir loyiha bo’yicha alohida aniqlanadigan Koreya Eksimbanki marjasi + O’zmilliybank marjasi, har bir loyiha bo’yicha alohida aniqlanadi.

Kredit miqdori – 100,000 AQSh dollaridan kam bo’lmagan miqdorda.

Kreditning maksimal muddati – 2 yildan 7 yilgacha.

2. «Asaka» ATB

Xorijiy kredit liniyasi nomiva maqsadi:

Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi

Barcha sohalardagi loyihalarni moliyalashtirish (agrobiznes, biotexnologiyalar, ta’lim, ishlab chiqarish, sog’liqni saqlash, axborot texnologiyalari va multimedia, telekommunikatsiya, transport va boshqalar), ammo:

l Turizm va dam olish

l Mudofaa

l Ko’chmas mulk sohalari bundan mustasno.

2014 yilda o’zlashtirilishi prognoz qilingan kredit liniyalari miqdori: 13 000 ming AQSh dollari.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidanajratiladigan kreditlar bo’yicha asosiy shartlar:

Foiz stavkasi – xorijiy bank marjasi – «Asaka» bank marjasi – 11-12 foiz.

Kredit miqdori – minimal summa – 100 000,0 AQSh dollari; maksimal summa – 2 000 000,0 AQSh dollari.

Kreditning maksimal muddati – 6 yil, lekin kredit muddati XSRIK bilan tuzilgan moliyalashtirish liniyasi kelishuvi muddatidan ko’p bo’lmasligi lozim.

3. «Agrobank» ATB

Shu bois, yil davomida banklar tomonidan mahalliy hokimliklar bilan birgalikda quyidagi masalalarga e’tibor qaratiladi:

– Jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo’naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag’larni eng avvalo tarkibiy qayta o’zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo’naltirishga alohida e’tibor qaratish;

– xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilayotgan mablag’larni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, jumladan, go’sht-sut va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarga yo’naltirish, tadbirkorlarning ushbu mablag’larni o’zlashtirishiga har tomonlama ko’maklashish;

– xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud bo’sh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy e’tiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud bo’lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bog’liq loyihalarni moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratish;

– mehnat resurslari ortiqcha hamda uzoq va borish qiyin bo’lgan 32 ta tuman va shaharda xorijiy kredit liniyalari hisobidan yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, mazkur hududlarda aholi bandligini ta’minlash va turmush farovonligini yuksaltirish yuzasidan tegishli choralar ko’rish.

13.4. O’zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlik, hamda kasanachilik sohalarining barqaror rivojlanishida Davlat dasturlarining tutgan o’rni.

Mamlakatimizda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida” qonunning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish, “Mikromoliyalash to’g’risida”, “Mikrokredit tashkilotlari to’g’risida”gi qonunlariga tegishli o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar bilan quyidagi amaliy ishlar olib borilmoqda:

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga investitsion maqsadlarga, shuningdek, boshlang’ich va aylanma kapitalni to’ldirish uchun o’rta muddatli va uzoq muddatli kreditlar ajratish;

- kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga o’z biznesini tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar ajratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ular tomonidan olingan zamonaviy bilim va ko’nikmalarni amaliy tatbiq etish maqsadida keng jalb etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish uchun xorijiy mamlakatlar xalqaro moliya institutlari va hukumatlari imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini faol jalb etish va o’zlashtirish;

- hukumat kafolati ostida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun taqdim etilgan xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar kredit liniyalarini qayta moliyalashtiruvchi tijorat banklari marjasini yillik 2 foizdan ko’p bo’lmagan darajada cheklash, boshqa moliyaviy xarajatlarni qayd etilgan kredit bo’yicha eng past darajaga keltirish;

Osiyo taraqqiyot banki tomonidan “Kichik va mikromoliyalashtirishni rivojlantirishning 2-bosqichi” loyihasini amalga oshirish doirasida ajratilgan mablag’larni o’zlashtirishni ta’minlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini mikromoliyalash orqali rivojlantirishning dolzarbligini ikki muhim omil belgilab beradi:

- birinchisi, kichik hajmdagi kreditlar orqali o’z ishlab chiqarish faoliyatini yo’lga qo’yib, ichki bozorni to’yintirish;

- ikkinchisi, bandlikni oshirish zaruriyati. Qolaversa, kichik biznesning muhim afzalliklari inqirozsharoitida uni har tomonlama rivojlantirish uchun ilmiy asos beradi.

Jahon tajribasining tasdiqlashicha, moliyalash va mikromoliyalash, nafaqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga ko’maklashadi, balki milliy iqtisodiyotda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga ko’maklashishning samarali vositasi hamdir. Mikromoliyalash sohasi nobank moliya tizimining bir unsuri sifatida inqiroz ta’siriga kamroq uchraydi. Birinchidan, pul oqimlarining hajmi bank aylanmalaridan kamligi o’z ta’sirini ko’rsatadi, ikkinchidan, mikromoliyalash tashkilotlari o’ziga xos tarzda tsikllidir, ya’ni pul mablag’larining ichki aylanishlari bilan cheklangan. Shu jihatdan olganda, mikromoliyalash, inqiroz sharoitida kichik biznesni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta’minlash kabi ijtimoiy muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes sub’ektlarini moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta’minlash maqsadida xorijiy tajribalarga tayanib, “Kichik biznes kafolat fondi”ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur fond boshlang’ich mablag’larini davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar, davlatning boshqa likvidli aktivlari (aktsiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aktsiyalari) va homiylik ajratmalariga hisobiga shakllantirish zarur. Kafolat fondining bosh maqsadi kredit-kafolat operatsiyalarini amalga oshirish orqali kichik biznes sub’ektlarining moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta’minlashdir.

Kichik biznes sub’ektlariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlar ta’minoti mazkur fond aktivlari evaziga amalga oshiriladi: bunda qarz oluvchi bilan kafolat shartnomasi tuziladi va bu shartnoma olingan qarz qaytarilmagan holatda ushbu mablag’lar kafolat fondi aktivlari hisobidan qoplanishi nazarda tutiladi.

Banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini ko’paytirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirish va hajmini kengaytirish bo’yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Yuqoridagilarga asoslangan holda O’zbekiston Respublikasi”bank tizimi 2016 yil uchun belgilangan parametr va ko’rsatkichlarning bajarilishini ta’minlash maqsadida ustuvor yo’nalishlar sifatida quyidagilarni belgilaydi:

- Hajmi va turlariga ko’ra mijozlar ehtiyojini qondiradigan sifatli bank xizmatparini taqdim etish yuli bilan bank xizmatidan foydalanayotgan korxonalar va aholining iqtisodiy ravnaqiga ko’maklashish;
- bank xizmatlarining, shu jumladan chakana bank xizmatlarining joriy turlarini takomillashtirish va kengaytirish;

- Respublika iqtisodiyotini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyixalarni moliyalashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda bankning faol ishtirokini ta'minlash;
- filiallar tarmog'ini lizing operatsiyalarni bajarishga faol jalb qilish;
- bankning xalkaro hisob-kito6lardagi ishtirokini kengaytirish va takomillashtirish.

Bunda, avvalambor oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida uzoq va o'rta muddatli kreditlar ajratishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishi uchun tijorat banklari o'z kredit resurslarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- investitsion maqsadlar – korxonalarni modernizatsiyalash va texnologik yangilash, zamonaviy yuqori texnologiya asosida innovatsion ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda boshlang'ich kapital va aylanma mablag'larni to'ldirish;
- tadbirkorlik tuzilmalari, fermer xo'jaliklariga minitexnologiya va ixcham asbob-uskunalar xarid qilishi va ko'rsatiladigan lizing xizmatlar xajmini oshirish;
- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlariga xomashyo va materiallar sotib olish, faktoring xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda soha vakillariga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmini oshirish;

Kichik biznes soxasidagi mavjud muammolarni xal kilish maksadida O'zbekistonda kuyidagilarni amalga oshirish lozim deb uylaymiz:

- tadbirkorlik faoliyatini milliy iqtisodiyotning barcha tarmoklarida bir tekisda rivojlantirish;
- kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun xisobga olish va xisobot berishning soddalashtirilgan tizimini ishlab chiqish;
- tadbirkorlarni bundan buyon ham byudjetdan tashkari fondlardan mablag' bilan ta'minlash orkali ularning yangi texnologiyalar va nou-xauga erishishlarini ta'minlash;
- kishlok joylarda tadbirkorlikning bozor infratuzilmasi tashkil etilgan tarmogini kengaytirish;
- kishlokda kichik oilaviy biznes shakli sifatida dexkon xujaliklarini rivojlantirish va bunday xujaliklar soxiblariga anik yordam ko'rsatish tartibini ishlab chiqish;
- chet el investitsiyalarini iqtisodiyotning kichik biznes shu'basi o'zlashtirishi mumkin bulgan eng ustuvor tarmoklariga jalb etish;
- solik va moliya, tashki savdo, investitsiya siyosati soxalarida isloxotlarni chukurlashtirish, shuningdek ichki jamg'armalarning kupayishini ragbatlantirish;
- kichik biznes shu'basi va tadbirkorlik tuzilmalari uchun mutaxassislar tayyorlash va tarbiyalash tizimni takomillashtirish.

O'zbekistonning uziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, kuyidagilarni xisobga olinsa, kichik biznes uchun istikbolli bular edi:

- meva-sabzavot va boshka kishlok xujaligi maxsulotlarini jiddiy kayta ishlash, konservalangan meva-sabzavot maxsulotlarini, sut va gusht maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi liniyalarni bevosita kishlok joylarida tashkil etish ma'kul, bu xom ashyoni tashish va ishchi kuchi mavjudligi nuktai nazaridan kulay;
- ham yirik, ham kichik shaxarlar va posyolkalarda muvaffakiyatli rivojlantirilishi mumkin bulgan, sanoat yuli bilan kayta ishlanadigan ozik-ovkat maxsulotlari – makaron, kandolatchilik va boshka turdagi shirinlik maxsulotlari, ozik – ovkat kontsentratlari, muzkaymok, mineral suvlar ishlab chiqarish;
- milliy badiiy buyumlar, an'anaviy uy-ruzgor buyumlar tayyorlash;
- xar xil turistik xizmatlar ko'rsatish;
- xususiy shifokorlik va ta'lim amaliyoti, sport;
- transport xizmatlari ko'rsatish.

Bu soxalardan aksariyati biznes samarali ishlashi, bozor extiyojlariga tezkorlik bilan javob berishi kiyin. Bir kator hollarda katta biznes fakat yirik shaxarlar va aholi punktlarini kamrab olib, mayda biznes bilan shugullanishi uchun kupgina joylarni e'tibordan koldirishi mumkin.

Tadbirkorlar uchun asosiy muammolardan biri, tashki iqtisodiy faoliyat soxasini erkinlashtirish.

O'zbekistonda mikromoliyalashtirish va aholini kam ta'minlanganlik muammolarini xal kilishda kerak bulgan ustivor vazifalar kuyidagilar deb xisoblaymiz:

- xukukiy asoslar yaratilishi ustida ishlash;
- subsidiyani kamaytirish;
- mikromoliyalashtirish tashkilotlarini faoliyatini kuchaytirish;
- mablag'larni mikromoliyalashtirish tashkilotlariga kayta yunaltirish;
- davlat bank tarmoklarida mikromoliyalashtirish tashkilotlarini faoliyatini asoslash.

Kichik biznesni mikrokreditlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar:

- respublikamizda kishlok xujalik maxsulotlari ishlab chiqarish saloxiyati yuqoriligini xisobga olgan holda, joylarda kichik biznes sub'ektlariga mini texnologiyalar sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish;
- jaxon tajribasidan kelib chikkan holda, respublikamizda ham mikrokreditlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan Mikromoliyalash institutlarini tashkil kilish;
- kredit ittifoklari faoliyatini takomillashtirish;
- mikromoliyalashtirish institutlari va sugxususiy kompaniyalarini pul utkazuvchi kompaniyalar bilan hamkorligini ta'minlash;
- mikromoliyalashtirish institutlarini boshka korporativ formalarga aylanishiga imkon berishning konuniy shart sharoitini ta'minlash.

Bu ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashni rivojlantirish orqali xususiy va kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlashga va kelajakda ularni iqtisodiyotning etakchi ishlab chiqaruvchilariga aylanishlariga imkon yaratadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Kichik biznes sub'ektining maqomi qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?
2. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes qanday o'rin tutadi?
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
4. Mikrokreditbank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokreditlarni berish va rasmiylashtirish tartibi qanday?
5. Mikrokreditbank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikrolizing xizmati qay tartibda ko'rsatiladi?
6. Kichik biznes sub'ektlari xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari hisobidan qanday tartibda kreditlanadi?
7. Kichik biznes sub'ektlarining investitsiya loyihalarini tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari hisobidan moliyalashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashda banklar tomonidan kreditlashning qaysi shakllaridan foydalaniladi?

14-MAVZU. TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIShLOQ XO'JALIK SUB'EKTLARINI KREDITLASH

Reja

14.1 Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini tutgan o'rni
14.2 Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi.
14.3 Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'allani etishtirishni imtiyozli kreditlash.
14.4 Erga egalik qilish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi.

Tayanch iboralar

Qishloq xo'jaligi, imtiyozli kredit, davlat ehtiyoji uchun kredit, garov, davlat xaridi, er garovi asosida kreditlash, imtiyoz, foiz, xarajat, mablag', nazorat.

14.1 Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini tutgan o'rni va tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi.

Qishloq xo'jaligi dunyo mamlakatlarining asosiy qismida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov: "Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil etishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, selektsiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshoqli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi.

Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 tsentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 tsentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir."[75]-deb bejiz ta'kidlamaganlar.

Agrosanoat majmui O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Sohada olib borilayotgan islohotlar o'zining bir qator ijobiy natijalarini berdi: ekinlar strukturasi yaxshilandi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kafolatlandi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva etishtirildi.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, etishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga etkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq

[75] I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so'zi. 16.01.2016.

xo’jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda. [76]

Shu sababli davlatimiz tomonidan bozor iqtisodiyotiga o’tishning birinchi bosqichida qishloq xo’jaligini isloh qilish va uni bozor munosabatlari talablariga mos ravishda rivojlantirish borasida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- qishloqda xo’jalik yuritishning yangi shakllarini keng ko’lamda rivojlantirish, dehqonlar o’zlari ishlayotgan erning, etishtirilayotgan mahsulotning to’la huquqli xo’jayinlari deb aniq xis qilishlariga imkon beradigan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish;

- paxtadan va boshqa ekinlardan bo’shatib olinayotgan er maydonlarini fermer (dehqon) xo’jaliklari tashkil etishga berish, shaxsiy tomorqa erlarini kengaytirish, qishloq mehnatkashlariga er maydonlarini meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo’yish yo’lini izchil olib borish;

- qayta ishlovchi korxonalarni qishloq xo’jaligi xom-ashyosi etishtiriladigan joyga mumkin qadar yaqinroq qurish, qishloqda ixcham sanoat korxonalari va tsexlar bunyod etish, mexnatning klassik shakllarini, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishga xizmat ko’rsatadigan firmalar tarmog’ini keng rivojlantirish;

Respublikamizda so’ngi ma’lumotlarga ko’ra 2015 yil boshiga sanoat ishlab chiqarishida, qurilishda, chakana savdo aylanmasida va aholiga pullik xizmatlarda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi ta’minlandi.

Sanoatda kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tomonidan 23967,2 mlrd.so’mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 2013 yilga nisbatan 117,6%ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlikning umumiy respublika sanoat mahsulotidagi ulushi 31,9%ni tashkil etib, o’tgan yilga nisbatan 7,1 foizga o’sdi.

Hududlar kesimida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha respublika ko’rsatkichidan yuqori ko’rsatkichlar namangan (55,9%), Samarqand (45,3%), Jizzax (42,9%) viloyatlari, Qoraqalpog’iston Respublikasi (34,6%) hamda Toshkent shahrida (68,9%) qayd etildi.

2014 yilda kichik tadbirkorar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi 13896,9 mlrd.so’mni, o’sish sur’ati esa 115,5%ni tashkil etib, respublika qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 70,3%ni tashkil etdi.

1-javdal

O’zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning Ulushi (01.01.2015 y.holatiga)[77]

№	Tarmoqlar	01.01.2014 yil.	01.01.2015 yil.
1	Xizmatlar	24,8	31,9
2	Chakana tovarlar aylanmasi	98,2	98,3
3	Qurilish	71,9	70,3
4	Qishloq xo’jaligi	46,3	45,4
5	Sanoat	46,7	48,5

Qishloq xo’jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bora-sidagi dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloq xo’jaligining moddiy-texnika bazasi yaxshilanishi natijasida, qishloq xo’jaligining yalpi hosili 6,9%ga, jumladan dehqonchilik 6,9%, chorvachilik esa 7%ga o’sdi.

2015 yil boshigaqishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi tuzilmasida xo’jaliklarning toifalari bo’yicha 65,1% dehqon xo’jaliklariga, 32,9% fermer xo’jaliklariga va 2,0% boshqa qishloq xo’jaligi korxonalariga to’g’ri keladi. Fermer xo’jaliklarining soni 2014 yil oxiriga 73,6 mingni

[76] I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o’zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo’l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so’zi. 16.01.2016.

[77] O’zbekiston iqtisodiyoti (axborot-tahliliy byulleten 2014 yil). 2015 yil

tashkil etib, ularning 61,8 mingtasi (83,9%) dehqonchilikda, 7,3 mingtasi chorvachilikda (9,9%), 4,6 mingtasi (6,2%) boshqa yo'nalishda ixtisoslashgan.

2-javdal

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi[78]

№	Tarmoqlar	Yillar kesimida		
		01.01.2013 y.	01.01.2014 y.	01.01.2015 y.
1	Fermer xo'jaliklari	34,4	34,0	32,9
2	Dehqon xo'jaliklari	63,5	64,0	65,1
3	Qishloq xo'jalik korxonalari	2,1	2,0	2,0
4	Jami	100,0	100,0	100,0

2015 yil yanvar holatiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmida dehqonchilikning ulushi 59% ni tashkil etdi. 2014 yil davomida asosiy va yordamchi ekin maydonlarida 255,8 ming ga. sabzavotlar, 81,5 ming ga. kartoshka va 57,1 ming ga. poliz ekinlari ekildi. 2,4 ming ga. maydonda yangi bog'lar, 5,6 ming ga. intensiv bog'lar va 8,9 ming ga. uzumzorlar tashkil etildi. 4,1 ming ga. bog' va 6,1 ming ga. uzumzor rekonstruktsiyasi amalga oshirildi. 422 ga. maydonda 750 ta issiqxona tashkil etildi. Natijada, 2014 yilda etishtirilgan don hajmi – 8,1 mln.t (2013y.ga nisbatan 103,1%), sabzavotlar – 9,3 mln.t (109,1), kartoshka – 2,5 mln.t (109), poliz ekinlari 1,7 mln.t (108,9), mevalar – 2,5 mln.t (110,2) va uzum 1,4 mln.t (109) ni tashkil etdi.

Biroq, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Bu o'z navbatida, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga halal bermoqda. Xo'jaliklarning moliyaviy ahvoli murakkablashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" PF-5095-sonli Farmoni e'lon qilindi.

Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini etkazib berishni maqsadli moliyalashtirishning printsipial yangi mexanizmini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasini boshqarish departamenti tashkil etildi.

Departament davlat xaridi uchun etishtiriladigan paxta va g'alla hosili hisob-kitobini moliyalashtirishga ajratilgan Jamg'armaning mablag'laridan foydalanishda, shuningdek zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni rag'batlantirish uchun qaytarib berish asosida ajratilgan qarz mablag'laridan foydalanilishida vakolati bo'lmagan mansabdor shaxslarning barcha aralashuvlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma kengashiga tegishli axborotlarni kiritadi.

Quyidagilar Jamg'armaning agentlari etib belgilangan:

- paxta va g'alla etishtirish, xarid qilish, shuningdek, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni moliyalashtirish bo'yicha moliya agenti — «Agrobank» aktsiyadorlik tijorat banki;
- paxtani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha tijorat agenti — «O'zpaxtasanoat» aktsiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallari;
- g'allani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha tijorat agenti — «O'zdonmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi;

[78] O'zbekiston iqtisodiyoti. (axborot-tahliliy byulleten 2014 yil.) 2015 yil

➢ zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish bo'yicha tijorat agenti — «O'zagrolizing» aktsiyadorlik jamiyati.

14.2 Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligini kreditlash tartibi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining hozirgi bosqichida ustuvor yo'nalishlardan biri, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: " ... xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, u birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va engil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030 yilda 5,6 marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi. [79]

Ushbu tuzilmaga ko'ra, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini kreditlash tizimi o'z ichiga – kredit institutlari (kredit resurslari bilan ta'minlovchi muassasalar), kreditdan foydalanuvchilar va kreditlash mexanizmini qamrab oladi.

Respublikamizda kredit berish asosan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.(3-jadval).

3-jadval

Qishloq xo'jaligini, fermerlarni kreditlash me'yoriy hujjatlari[80]

Sanasi va raqami	Me'yoriy xujjatlar nomi
8.04.2004 y. №1336	"Er uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida"gi NIZOM
16.04.2004y №1337	"Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lgusi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida"gi NIZOM.
10.04.2004y № 1345	"Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini er uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida"gi NIZOM.
14.04.2004 y № 1675	"Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi NIZOM.
11.04.2014y.1675/1 02.2015y.1675/2	"Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadi-gan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi NIZOMga kiritilgan o'zgartirish lar va qo'shimchalar.
27.12.2013y. № 2546	Qishloq xo'jalik korxonalarini milliy valyutada kreditlash tartibi.

Amaldagi tashkiliy tuzilmaga muvofiq, davlat ehtiyojiga mahsulot etishtirish xarajatlarini qoplash uchun kredit resurslari Moliya vazirligi huzuridagi "Davlat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga hisob-kitob qilish jamg'armasi" tomonidan Respublika Markaziy banki orqali tijorat banklariga va ularning viloyat, tuman bo'limlari orqali fermer xo'jaliklariga beriladi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha asosiy yo'nalishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

---


[79] I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so'zi. 16.01.2016.

[80] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki internet sayti asosida tayyorlangan.

Birinchi yo’nalish, bevosita fermer xo’jaliklarini davlat ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish bo’yicha asosiy xarajatlarini moliyalashtirish bilan bog’liq. Bunda fermer xo’jaliklarining mahsulot etishtirish xarajatlarini, xususan, mineral o’g’itlar, yoqilg’i-moylash materiallari, biologik mahsulotlar, kimyoviy vositalar, texnika xizmatlari, urug’lik, ish haqi va boshqa xajaratlarni moliyalashtirish nazarda tutiladi.

Fermer xo’jaliklarining hosil etishtirishga ketadigan xarajatlarini moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg’armasi tomonidan 3 foizli kredit mablag’lari ajratilmoqda.

Shuningdek, davlat ehtiyojlaridan tashqari boshqa mahsulot turlarini, jumladan, meva, uzum, sabzavot, poliz, kartoshka etishtirish, shuningdek, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ham etarli miqdorda kredit resurslari ajratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, fermer xo’jaliklarini zaruriy aylanma mablag’lar bilan ta’minlash maqsadida qo’shimcha bank kreditlarini jalb qilish yuzasidan Markaziy bank va tegishli vazirlik hamda idoralar tomonidan qator tartib va nizomlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.



1.-rasm. Fermer va dehqon xo’jaliklarini kreditlashning amaldagi tashkiliy tuzilmasi[81].

Birinchidan, fermer xo’jaliklari agrotexnik tadbirlarni tashkil etishda etarli miqdorda aylanma mablag’larga ega bo’lishiga yordam berish maqsadida ularga boshlang’ich sarmoyani shakllantirish uchun imtiyozli kreditlar berishning samarali tizimi joriy etildi. Fermer xo’jaligi boshlang’ich sarmoyani davlat ro’yxatidan o’tgandan so’ng 6 oy ichida olishi mumkin.

Boshlang’ich sarmoya uchun kredit fermer xo’jaliklariga 3 yilgacha bo’lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha foiz to’lashni 12 oygacha kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so’ng 18-24 oy o’tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

[81] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

Ikkinchidan, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan texnika vositalari bilan ta'minlash maqsadida fermer xo'jaliklariga texnika vositalarini lizing asosida sotib olish tizimi yaratildi.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini lizing asosida xarid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 7 yil muddat ichida (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarining fermer xo'jaliklari 10 yil muddatda) to'lashi mumkin. Bunda fermer texnikaning 85 foiz qiymatiga "O'zagrosug'urta" kompaniyasi bilan sug'urta shartnomasini tuzadi. Sug'urta mukofotlari hisoblash uchun sug'urta tarif (stavka) miqdori texnikaning 85 foiz qiymatidan bir yilga 0,5 foizni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilari tomonidan lizing¬ga olinadigan texnikalar soni har yili davlat texnika dasturiga kiritiladi.

Ikkinchi yo'nalish, qishloq xo'jaligi korxonalariga soliq imtiyozlari berilishidir.

Ma'lumki, soliqqa tortishda soliq miqdorini erning sifatiga (ball-boniteti) qarab hisoblash va bu jarayonga tabaqalashtirilgan ravishda yondashish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu xo'jaliklarga bir xil iqtisodiy sharoit yaratib berishni ta'minlaydi.

14.2.Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'allani etishtirishni imtiyozli kreditlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 7 noyabrdagi «Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qaroriga asosan davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi va g'alla etishtirayotgan fermer xo'jaliklariga ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash uchun tijorat banklari orqali to'g'ridan–to'g'ri imtiyozli kreditlash tizimi respublika viloyatlari bo'yicha 2003-2005 yillarda bosqichma-bosqich joriy etildi va 2005 yil hosilidan boshlab barcha viloyatlardagi fermer xo'jaliklariga paxta va g'alla etishtirish uchun imtiyozli kreditlar berila boshlandi. Bu fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlashning bozor tamoyillariga mos keladigan usullariga o'tishda muhim qadam bo'ldi.

Adliya vazirligidan 2011 yil 7 aprelda va 2015 yil fevralda 1675-1 va 1675/2 -son bilan ruyxatdan o'tgan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan paxta va g'alla etishtirishga imtiyozli kreditlar ushbu mahsulotlar uchun tuzilgan kontraktatsiya shartnomasidagi mahsulot qiymatining 60 foizi miqdorida beriladi. Kredit miqdorini aniqlash uchun amaldagi harid narxlar asos qilib olinadi. Kreditlar paxta etishtirish uchun ko'pi bilan 18 oy, g'alla etishtirish uchun esa 12 oy muddatga beriladi. Kreditlarning yillik foiz stavkasi 3 foizni tashkil etadi.

G'alla uchun ushbu miqdorlar quyidagicha taqsimlanadi: 1 yanvarga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 35% (yoki jami kreditning 58 foizi); 1 aprelga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 50% (yoki jami kreditning 83 foizi); 1 iyunga qadar mahsulot qiymatiga nisbatan 60% (yoki jami kreditning 100 foizi)[82].

Kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun beriladi: ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun; mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini sotib olish uchun; yoqilg'i-moylash materiallari sotib olish uchun; MTPlar, muqobil MTPlar va SFUlar hizmatlariga to'lovlar uchun; olingan urug'lik materiallari to'lovlari uchun; fermer xo'jaligi ixtiyoridagi texnika vositalariga ehtiyot qismlar sotib olish uchun; lizingga olingan texnika vositalarining lizing va sug'urta to'lovlari uchun; foydalanilgan elektr energiyasi to'lovlari uchun; yagona er solig'i to'lovlariga.

Mazkur hujjatning amaliyotga joriy qilinishi bilan fermer xo'jaliklarida tanlash imkoniyati vujudga keldi. Endilikda fermer davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etishtirishda hohlasa Moliya vazirligi qoshidagi Davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining

[82] 2011 yil 7 aprelda va 2015 yil fevralda 1675-1 va 1675/2 -son bilan ruyxatdan o'tgan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan tayyorlandi.

hisob-kitob jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kredit olish, hohlasa davlat ehtiyojlari uchun etishtirilayotgan hosilni garovga qo'yib tijorat bankidan kredit olish yoki har ikkala manbadan bir vaqtning o'zida kredit olish imkoniga ega bo'ldi.

Nizomga asosan kreditlar faqat davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga 1,5 yilgacha bo'lgan muddatga, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi. Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi. Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibini joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini kreditlash sharoitini yaxshilash uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir. Albatta bu tartib kelgusida takomillashtirilib borilishi lozim.

Bugungi kunda fermer va dehqon xo'jaliklariga banklarning o'z resurslari hisobidan 2 turdagi ya'ni tijorat va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Fermer va dehqon xo'jaliklariga ajratilayotgan kreditlar yo'naltirilishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

-kichik sanoat bo'linmalari va kasanachilikni tashkil etish va rivojlantirish;

-qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish;

-fermer xo'jaliklarida asosiy va takroriy ekinlar mahsulotlari etishtirishni rivojlantirish;

-noqishloq va qo'shimcha daromad keltiradigan soha sifatida transport, hizmat ko'rsatish, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnik ta'minoti va sotish, maishiy kommunal hizmat va shunga o'xshash boshqa tarmoqlarni rivojlantirish.

Qishloq xo'jalik korxonalariga banklar tomonidan ajratilayotgan tijorat kreditlari asosan qisqa muddatli (1-3 yil), ustama foizlari 16 foizdan 32 foizgacha bo'lib, garov miqdori kredit summasining 120 foizini tashkil etadi.

14.3. Erga egalik qilish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi.

Fermer xo'jaliklarida kreditni garov ta'minotidagi muammolarni hal qilish maqsadida Markaziy bank boshqaruvining 2004 yil 1 martdagi 564-conli qarori bilan «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining er uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Fermer xo'jaliklari tijorat banklaridan er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'ygan holda kredit olishlari mumkin. Agar fermerlarning ijara huquqi bahosi so'ralayotgan kredit summasiga etmasa, etmagan qismini qoplash uchun boshqa garov turlaridan, masalan sug'urta, kafillik va shu kabilardan foydalanish mumkin. Beriladigan kredit uchun yillik foizlar bank bilan fermer o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida ko'rsatiladi.

Er uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish huquqini garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomada fermerning ijara huquqi bahosi ko'rsatiladi. Ijara huquqining bahosi O'zbekiston respublikasi Markaziy Banki boshqaruvining 2004 yil 13 martidagi 6/17 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Er uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq aniqlanadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalaridan olingan dastlabki (boshlang'ich) sarmoya fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltirilishi mumkin.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirish uchun beriladigan kreditlarning yillik ustama foizi imtiyozli bo'lib, u Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida belgilangan. Dastlabki (boshlang'ich) sarmoya uchun kredit fermer xo'jaliklariga 3 yilgacha bo'lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 barobari miqdorigacha, foizlar to'lashni 12 oygacha kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so'ng 18-24 oy o'tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

Respublikamiz Prezidenti va Hukumati tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ-308-sonli «Shaxsiy yordamchi, dehqon va

fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2008 yil 21apreldagi PQ-№842 sonli "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari asosida chorvachilik mahsulotlari etishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklariga tijorat banklarining o'z resurslari va byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan kredit mablag'lari ajratilmoqda.

5-jadval.

Fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit ajratish shartlari[83]

Tijorat banklari	Garovga qiymati kredit miqdoriga	Kreditlar niqaytarish muddati va qaysi	Shu jumladan						
			Chorva mollarini sotib olish	Uy- joy qurish	Aylanma mablag'larni to'ldirish	Mashina sotib olish	Mahsulotlarni qayta ishlash texnologiya	Tadbirkorlik faoliyati uchun	Savdo tijorat faoliyati
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Agrobank		Muddati	3	-	1 yilgacha	3	5 yilgacha	5	1
		Qaytarish	1 yildan	-	birinchi	birinc	1 yildan	1 yildan	birinc
Qishloq qurilish	125%ga	Muddati	3	-	3 yilgacha	-	3 yilgacha	3	- -
		Kaytarish	2 yildan	-	1 yildan	-	2 yildan	2 yildan	-
Savdogar-bank	120%	Muddati	3	-	1 yilgacha	3	3 yilgacha	2	1
		Qaytarish	har chorakda	-	olti oydan so'ng har	har oyda	1 yildan so'ng	1 yildan so'ng	har oyda
AsakabankYuri	120%	3 yilgacha-	1- 3 yilgacha	1-3 yilgach	4 oydan - 1 yilgacha	1 - 3 yilgac	har chorakda	har chorakd	4 oygac
Mikro-kredit bank O'zmabl ag'-lari hisobida	125%	Muddati	2	-	1 yilgacha	2	5 yilgacha	2	1
		Qaytarish	1 yildan so'ng	-	6 oydan boshlab	grafik bo'yic	2 yildan boshlab	1 yildan sung	6 oydan
	125%	Muddati	3	-			5 yilgacha	3	
		Qaytarish	1 yildan so'ng	-			1 - 1,5 yildan	1 yildan so'ng	

Ushbu tijorat banklarida fermer xo'jaliklariga kreditlar ajratish yo'nalishlari bo'yicha to'liq qaytarish muddati hamda imtiyozli davri ham turlicha, ya'ni har bir bankning yuritayotgan kredit siyosatidan kelib chiqqan holda belgilangan.

Xar bir tashkilot mavsumiy xarakterdagi va boshqa turdagi tuzulmalarga kredit berish jarayonida va ularning hajmlarini belgilashda ya'ni kredit ajratishda ular tomonidan garovga qo'yiladigan mol-mulk qiymati tijorat banklarida beriladigan kredit miqdoriga nisbatan turlicha belgilangan.

Nazorat uchun savollar.

1. Imtiyozli kreditlar deganda nimani tushunasiz?
2. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar qaysi toifadagi sub'ektlarga beriladi?
3. Tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari qaysi manbalar hisobidan shakllantiriladi?
4. Qishloq xo'jaligi korxonalariga imtiyozli kreditlar berish tartibi qanday?
5. Imtiyozli kreditlarning foiz stavkalari qanday belgilanadi?
6. Tijorat banklarining imtiyozli kreditlar berish amaliyotiga nisbatan qanday moliyaviy imtiyozlar qo'llaniladi?

[83] Farmanov T.H., Muxtorov A.X., Shermatov S.B. "Fermer xo'jaliklarida kreditlash va moliyaviy munosabatlar" –Toshkent: Fan, 2007. B.- 17-18. 24-b

15-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING FAKTORING OPERATsIYaLARI

Reja

15.1 Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari hamda uning mohiyati.
15.2 Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi.
15.3 Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

Tayanch iboralar

Diskont stavkasi, komission haq, kredit riski, kassa usuli, regress huquqi, tijorat vekseli, tovar hujjatlari, to'lovga qobillik, faktoring, hisobga olish, hisoblash usuli..

15.1. Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari hamda uning mohiyati.

Faktoring xizmati respublikamiz bank amaliyotida mavjud bo'lgan xizmat turlaridan biri hisoblanar edi.

Faktoring inglizcha **factor** degan so'zdan olingan bo'lib, vositachi, agent degan ma'noni anglatadi.

Faktoring – bu savdo-vositachilik operatsiyasining bir turi bo'lib, bunda fatkor kompaniyasi yoki tijorat banki tomonidan mol etkazib beruvchining undirilmagan talablari, ya'ni debitor qarzdorligi regress huquqi bilan yoki regerss huquqisiz sotib olinadi. "Shu asnoda faktoringdan unumli foydalanish eng afzalidir. Faktoring kompaniyaari o'z faoliyatida asosan 3 xil usul bilan foydalanadi",- deb iqtisodchi Priyanka Prakash o'zining fikrlarini bayon qilgan[84].

Xalqaro amaliyotda faktoring ikki xil shaklda qo'llaniladi:

1. Faqat debitor qarzdorlikni inkasso qilish shaklida (invoice discounting).

2. Debitor qarzdorlikni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmatlarni ko'rsatgan holda (full factoring).

Faktoring kompaniyalari millionlab mijozlar bilan Shimoliy va Janubiy Amerikada, Evropa va Osiyoda, Avstraliya va Shimoliy Afrikada ish olib bormoqdalar. 2013 yil ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha faktoring biznesining 60 foizi Evropaga, 9 foizi Amerika qit'asidagi mamlakatlarga, 27 foizi Osiyo mamlakatlariga, 3 foizi Avstraliya va Okeaniyaga, 1 foizi esa Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi[85].

1968 yilda o'z ichiga dunyoning 53 mamlakatidan 150 a'zo- kompaniyalarni birlashtirib turuvchi Factors Chain International (FCI) yirik faktoring assotsiatsiyasi tashkil etildi. IFG tashkiloti kabi mazkur assotsiatsiya ham o'zaro ma'lumotlar almashishga xizmat qiluvchi EDIFACToring tizimini ishlab chiqdi.

2002 yil 31 yanvarda BMTning Bosh Assambleyasi «Xalqaro savdoda debitor qarzdorliklarni boshqa korxonalarga o'tkazilishini tartiblash to'g'risida»gi 56/81- sonli rezolyutsiyasini qabul qildi. Xalqaro faktoring operatsiyasi, shuningdek, FCI va IFG assotsiatsiyalari a'zolari tomonidan qabul qilingan «Xalqaro faktoring faoliyati»ning tartiblari (GeneralRulesforInternationalFactoring) orqali tartibga solinadi.

Faktoring operatsiyalari sotilgan tovarlar uchun to'lovni kechiktirish shaklida sotuvchilar tomonidan sotib oluvchilarga taqdim etiladigan tijorat krediti asosida vujudga kelgan. 1988 yil Xususiy xuquqni unifikatsiyalash xalqaro instituti tomonidan qabul qilingan "Xalqaro faktoring to'g'risida"gi konventsiyaga asosan, operatsiya quyidagi 4 ta talabdann kamida 2 tasini qondirsagina faktoring hisoblanadi. Ular quyidagilardir:

– qarz talablarini oldindan to'lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi;
– mol etkazib beruvchining debitorlik qarzini inkasso qilish;
– mol etkazib beruvchini kredit riskidan sug'urtalash.

Faktoring to'g'risidagi Xalqaro konventsiyaga muvofiq, quyidagi korxonalarga faktoring xizmati ko'rsatilmaydi:


- kichik summada qarzdorligi mavjud, lekin debitorlarining soni ko'p bo'lgan korxonalarga;

[84] "What Invoice Factoring Is and How It Works" by Priyanka Prakash "Fit Small Business" June 2015
[85]http://www.factors-chain.com

- nostandart va tor ixtisoslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga;
- o’z mahsulotini sotishdan so’ng xizmat ko’rsatish shartnomasi asosida ish yurituvchi korxonalarga;
- o’z mijozlari bilan uzoq muddatli shartnoma asosida ish yurituvchi va shartnomaga asosan bajarilgan ma’lum ish hajmi uchun to’lov oluvchi korxonalarga.

Faktoring operatsiyalari korxonalarning filiallari, bo’limlari va jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo’yicha olib borilmaydi. “Faktoring o’zida moliyalashtirishni aks ettiradi, ya’ni biznes egalarini qarz majburiyatlarini uchinchi shaxsga belgilangan foiz asosida sotadi”[86],- deb Shanon o’zining faktoring to’g’risidagi fikrlarini bildirgan.

Faktoring yangi bank xizmat turlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Shuni ta’kidlab o’tish lozimki, faktoring bank uchun noan’anaviy xizmat turi hisoblanadi. Chunki, faktoring operatsiyasi bilan maxsus faktoring kompaniyalari ham shug’ullanadilar.



1-rasm. Faktoring funktsiyalari.[87]

Faktoring operatsiyasining asosiy maqsadi mijozlarning qarzdorligini o’z vaqtida inkasso qilish, to’lovlarni o’z muddatida undirish, shubhali qarzdorliklarni paydo bo’lishini oldini olish, mijozlarning likvidligini oshirish va ularning moliyaviy risklarini pasaytirishdan iboratdir.

Faktoring asosida bank (faktor firma) tomonidan mijozning jo’natilgan tovarlar, ko’rsatilgan xizmatlar bo’yicha hisob-varaqlarini (talabnomalarini) asosiy qismi (70 foizdan-90 foizgacha) “kesh” usulida (tezda 2-3 kun ichida) sotib olinadi va qolgan qismi (kredit uchun foizini chegirib

[86] “Factoring; What It Is and How to Choose a Service” by Shannon G. “Business News Daily” April 2016
[87] Черкасов В.Э.Банковское операции: Финансовый анализ. М.: ФИС, 2010 г. – С. 127.

tashlangan holda) debitorlardan tushum kelib tushmasligidan qat'iy nazar belgilangan muddatda to'lab beriladi. Shuni uchun xalqaro bank amaliyotida ta'minot sotuvchi kreditlash, deb ham ataladi.

Faktoring uchun to'lov va komission xizmatlar uchun to'lov mahsulot etkazib beruvchi va faktor firmasi (bank) o'rtasidagi tuziladigan shartnomada ko'zda tutiladi.

Faktoring operatsiyalarida doim 3 tomon ishtirok etadi: faktor- vositachi (tijorat banki yoki faktor kompaniyasi); mol etkazib beruvchi; qarzdor (mahsulotlarni sotib oluvchi).

Faktoringning asosiy tamoyili shundaki, faktoring operatsiyasini amalga oshirayotgan bank (faktor firma) o'z mijozlaridan ularning etkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, amalga oshirilgan ishlar uchun boshqa korxonalarga bo'lgan talablarini sotib oladi va shu orqali bu talablar uchun to'lovlarni olishi huquqini oladi.

Taniqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushin tahriri ostida chop etilgan «Pul, kredit, banklar» darsligida banklarning faktoring operatsiyalari uchun asos bo'lib, bank tomonidan mol etkazib beruvchi tomonidan jo'natilgan tovarlarning hujjatlarini sotib olinishi va debitordan to'lov summasini undirish huquqini bankka berilishi hisoblanadi[88]. Ammo ushbu talqinda tovar hujjatlarini regress huquqi bilan yoki regress huquqisiz sotib olinishi o'z ifodasini topmagan.

Mazkur manbada faktoring operatsiyalariga xos bo'lgan quyidagi afzalliklar e'tirof etilgan:

- mol etkazib beruvchiga to'lovni olishni tezlashtiradi;
- to'lovni kafolatlaydi;
- hisob - fakturalar hisobi bo'yicha xarajatlarni kamaytiradi;
- sotib oluvchida moliyaviy qiyinchilik yuzaga kelgan sharoitda mol etkazib beruvchilarga to'lovlarni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi;
- mol etkazib beruvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

1.Tijorat banklari va faktor kompaniyalarining faktoring operatsiyalaridan oladigan daromadlarining barqarorligi.

Faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning barqarorligini aniqlashda uning darajasini oldingi davrlarga nisbatan barqaror sur'atlarda o'sish yoki o'zgarmasdan barqaror darajada qolishi hisobga olinadi. Bunda iqtisodiy tahlilning qiyosiy va trendli tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Masalan, tijorat banklarida faktoring operatsiyalarining daromadliligini aniqlashda ushbu daromadlar bankning kredit operatsiyalaridan olingan daromadlarining jami summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytirilib, faktoring kreditlarining daromadlilik darajasi aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichning barqarorligini baholash uchun quyidagi tartibda qiyosiy tahlil usulidan foydalaniladi:

- ko'rsatkichni boshqa banklarning shu ko'rsatkichi bilan taqqoslash;
- ushbu ko'rsatkichning joriy davrdagi darajasi oldingi davrlardagi darajalari bilan taqqoslanadi.

Faktoring operatsiyalarining samaradorligini aniqlashda iqtisodiy tahlilning trendli tahlil usuli ham muhim o'rin tutadi. Chunki, trendli tahlil usuli orqali faktoring operatsiyalaridan olingan daromadlarni o'zgarish tendentsiyasi aniqlanadi.

2. Faktoring operatsiyalari orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitor qarzdorligini pul mablag'lariga aylanish darajasini oshishi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning debitor qarzdorligini pulga aylanish darajasini tavsivlovchi ko'rsatkich bo'lib, debitor qarzdorlikni aylanish koeffitsienti hisoblanadi. Ana shu koeffitsientning darajasiga faktoring kreditlarining ta'siri ushbu kreditlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

3. Faktoring kreditlarining o'sish sur'ati bilan ulardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik.

Agar faktoring kreditlaridan olingan daromad summasining o'sish sur'ati faktoring kreditlari summasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa yoki teng bo'lsa, u holda, faktoring operatsiyasi samaradorligini talab darajasida, deb hisoblash mumkin.

[88] Деньги, кредит, банки. Учебник. Под ред. Проф. Лаврушина О.И. – М.: КНОРУС, 2009: - С.452.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring operatsiyalarining quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

1. Ichki faktoring.

Bunda faktoring shartnomasidagi barcha ishtirokchilar bitta davlatda joylashgan bo'ladi.

2. Xalqaro faktoring.

Bunda faktoring operatsiyalari xalqaro miqyosda amalga oshiriladi.

3. «Ochiq» faktoring.

Ochiq faktoring operatsiyasida sotuvchi (mol etkazib beruvchi) talabni bankka sotilganligi to'g'risidagi ma'lumotni sotib oluvchiga (xaridor) etkazishga majbur. Bu tizimda faktoring firma (bank) mijozni to'lov summasini to'liq olishiga kafolat beradi. Bunda ham u to'lov summasining 80 foizini to'lab beradi. Agar sotuvchi ma'lum sabablarga ko'ra yuborilgan mahsulot uchun tushumni ololmagan taqdirda ham faktoring firma (bank) ma'lum muddat o'tishi bilan sotuvchiga to'lov summasini to'liq to'lab beradi. Lekin bunday holatda sotuvchi uchun komission to'lov stavkasi biroz ko'tariladi. Hozirgi vaqtda xalqaro faktoring amaliyotida faktoring uchun komission haq o'rtacha 0,7-1,5 foizni tashkil etmoqda.

4. «Yopiq» (konfedentsial) faktoring.

Faktoringning ushbu shaklida korxona faktoring firmasi (bank) bilan faktoring shartnomasini tuzadi va u faktoring firmasini (bank) tuzilgan bitimlar bo'yicha doimiy ravishda xabardor qilib boradi. Ammo, korxona o'z hamkorini (sotib oluvchini) tuzilgan faktor shartnomasidan xabardor qilmaydi.

Faktoring firma (bank) o'z mijoziga faktoring shartnomasidagi to'lov summasining 80 foizini darhol to'lab beradi. Sotuvchi (mol etkazib beruvchi) o'z hamkoridan to'lov summasini ololmay qolgan taqdirda, sotuvchining xaridordan talabi faktoring-firma (bank) zimmasiga o'tadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro faktoring amaliyotida «yopiq» (konfedentsial) faktoring uchun shartnomadagi to'lov summasining o'rtacha 05-1,0 foizini tashkil etmoqda.

5. Regress huquqi bilan, ya'ni sotuvchidan (mahsulot etkazib beruvchi) to'langan summani qaytarib olish huquqi bilan yoki regress huquqisiz faktoring.

Regress huquqi asosida tuzilgan faktoring shartnomasiga asosan, to'lovchi to'lovga layoqatsiz bo'lib qolsa, faktor firma yoki bank to'lovni mol etkazib beruvchidan undirish huquqiga ega bo'ladi.

Regress huquqisiz faktoringda sotib oluvchining to'lovga layoqatsizliligi tufayli to'lov undirilmasa, u holda, faktor kompaniyasi yoki bank to'lov riskini to'liq o'z zimmasiga oladi, ya'ni ular mol etkazib beruvchiga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ushbu faktoringda faktor kompaniyasi yoki bankdan sotib oluvchining to'lovga qobillgini chuqur tahlil etish talab etiladi.

6. Faktor firma (bank) tomonidan sotuvchini (mol etkazib beruvchini) oldindan to'lov shaklidagi kreditlash (sotilayotgan qarz majburiyatlari summasini 80 foizigacha) yoki to'lov talabnomalarini aniq muddatda to'lab berish.

Mazkur faktoring operatsiyasining asosiy tamoyili shundaki, shartnomadagi qarz talabnomalari summasining qat'iy belgilangan foizi belgilanadi. Bunga asosan sotuvchi (mol etkazib beruvchi) avtomatik ravishda o'z moliyaviy resurslarini hajmini oshirishga erishadi. Agarda faktoring shartnomasida oldindan to'lov shaklidagi kreditlash emas, balki to'lov talabnomalarini aniq muddatda to'lab berish sharti ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda, faktor firma (bank) tomonidan sotuvchiga (mol etkazib beruvchiga) ma'lum aniq muddatda yoki aniq ma'lum muddat o'tgandan so'ng to'lov o'tkazib beriladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoring xizmatlarining bahosi ikki elementdan tashkil topadi: foizlar va komission to'lovlar. Komission to'lov stavkasi tovar hujjatlari summasiga nisbatan o'rnatiladi va, odatda, 1,5- 2,5 foizni tashkil etadi. Faktoringda tijorat banki tovarlar summasining 80-90 foizini birdan to'lab beradi. Qolgan 10-20 foizi debitor tomonidan qarz summasi to'liq qaytarilgandan so'ng to'lab beriladi.

Faktoring xizmatlarining bahosi 2 elementga bog'liq:

1) Xizmat ko'rsatish uchun haq.

U o’rtacha hisob-faktura narxining 0,5-3,0%ini tashkil qiladi, ammo ba’zilari 5 foizgacha ham boradi.

2) Berilgan kredit mablag’lari uchun haq.

Uning miqdori mijozning faktoring bo’limidan pul olishdan hamda to’lovchidan pul kelib tushishigacha bo’lgan vaqt ichidagi kundalik debetli saldosi miqdoriga qarab belgilanadi.

1-jadval.

Faktoring va kreditning farqli jihatlari[89]

Faktoring	Kredit
1.Faktoring mijozning debi-torlaridan tushadigan pul evaziga qaytariladi.	1.Kredit bankning qarzdorlari orqali qaytariladi.
2.Faktoring to’lovni aniq kechikish muddatiga beriladi.	2.Kredit qat’iy belgilangan aniq muddatga beriladi.
3.Faktoringda ta’minot talab etilmaydi.	3.Kredit asosan garov ostida beriladi
4.Faktoring tovarni jo’natilgan kuni to’lanadi.	4.Kredit shartnomadagi kunda to’lanadi.
5.Faktoringda hajm cheklanmagan bo’ladi. Bu mijozning sotish hajmini o’sishi bilan bog’liq	5.Kredit shart qilingan summadan oldinroq beriladi.
6.Faktoring debitorlar to’lovni amalga oshirgan kunda so’ndiriladi.	6.Kredit shartnomadagi kundan oldin qaytarilishi mumkin.
7.Faktoring avtomatik tarzda yuk xati va schet-faktura taqdim qilinganda to’lanadi.	7. Kredit olish uchun ko’plab xujjatlarni rasmiylashtirish lozim.

Hozirgi vaqtda, xalqaro amaliyotda mijozlarga moliyaviy xizmat ko’rsatishining universal tizimi bo’lib «ochiq» shakldagi faktoring operatsiyasi hisoblanadi. Biz yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, faktoring operatsiyasining bu shaklida mijozga faqatgina ishlab chiqarish va mahsulotlarini o’z muddatida etkazib berish vazifasi qoladi, qolgan barcha moliyaviy ishlarni faktor firmasi (bank) o’z zimmasiga oladi. Bu omil esa, mijozning faktor-firma (bank) bajarayotgan vazifalarni qayta bajaruvchi shaxsiy shtatni qisqartirishga, balki ulardan umuman voz kechishga imkon yaratadi. Bu imkoniyatdan keladigan iqtisodiy samara faktoring operatsiyasi xarajatlarini ma’lum qismini qoplashi mumkin.

Jahon amaliyotida faktoring operatsiyalari bo’yicha chegaraviy summalarni belgilashning uch xil usuli mavjud:

1) Kreditlash limitini ajratish.

Faktoring xizmati shartnomasida, agar qarzdorlik summasi belgilangan limitdan oshib ketsa, bank etkazib beruvchiga barcha qo’shimcha qarz talablarini qaytarib berish huquqiga ega, to’lovchining to’lovga qobiliyatsizligida esa, barcha uning qarzdorlik to’lovlari bankning tovar etkazib beruvchiga to’lagan summani undirgunga qadar bankka kelib tushadi.

2) Har oylik yuk jo’natish limitini aniqlash.

Tovar etkazib beruvchi mijoz qarzining miqdoridan qat’iy nazar, shubhali qarzlardan sug’urtalanadi. Limit hafta, oy, choraklarda belgilanishi mumkin.

3) Alohida shartnomalar bo’yicha sug’urta.

Bu usul bir mijozga bir necha tovar etkazib berish emas, balki alohida holatlarda, katta summalarda shartnomalar imzolanganda qo’llaniladi. Ma’lum holatlarda esa, bularning kombinatsiyasi ham qo’llanilishi mumkin.

Faktoring xizmati to’g’risida bank tovar etkazib beruvchi bilan shartnoma imzolashdan oldin tovar etkazib beruvchi bankka to’lovchining nomi va manzili u bilan kelishuv shartlari, barcha qarzdorlik to’lovlari summasi, har bir qarzdorning summasi, u bilan orasidagi munosabat va boshqa

[89] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

turdagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Barcha ma’lumotlarni o’rganib chiqib, bank kelishuv shartlari to’g’risida, qaror qabul qiladi. Faktoring xizmatlari to’g’risidagi kelishuv, odatda, 1-4 yilga tuziladi.

Konventsion faktoringda kelishuv xizmatlarni to’liq amalga oshirish, konfidentsial faktoringda esa kelishuv faqat hisob-fakturalar hisobini (diskontirovka) yuritishga tuziladi.

Xalqaro bank amaliyotida faktoringning ikki turi bir vaqtning o’zida qo’llanilmoqda; konventsion va konfidentsial faktoring.

Konventsion faktoring- bu mijozga moliyaviy xizmatlarning universal tizimini ko’rsatish bo’lib, buxgalteriya hisobi, mol etkazib beruvchilar va sotib oluvchilar bilan hisoblashish, sug’urtali kreditlash va boshqa moliyaviy xizmatlarni o’z ichiga oladi. Bunda mijozga faqat ishlab chiqarish funktsiyasi qoladi. Konventsion faktoring mijoz korxonaga mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Konventsion faktoringda bank mijozga jo’natilgan tovarlar summasining 80 foizini birdan to’lab beradi, qolgan 20 foizini esa, debitordan pul kelib tushishidan qat’iy nazar, belgilangan muddatda to’lab beradi.

Konfidentsial faktoringda ayrim operatsiyalarni amalga oshirish bilan cheklanib qolinadi, ya’ni pul mablag’larini olishga bo’lgan huquqni yon berish, qarz summasini to’lash kabi operatsiyalar. Konfidentsial faktoringda mol etkazib beruvchi mijozga jo’natilgan tovarlar uchun, sotib oluvchi mijozga to’lov uchun faktoring krediti beriladi. Faktoring kreditini o’z vaqtida va to’liq qaytishi debitorni, ya’ni tovarlarni sotib oluvchining to’lov qobiliyatiga bog’liq. Shu sababli, xorijiy banklar sotib oluvchining to’lovga qobilligini baxolashga alohida e’tibor beradilar. Bunda asosiy e’tibor sotib oluvchining pul oqimini baholashga qaratildi.

15.2. Faktoring operatsiyalarining turlari va faktoring operatsiyalarini o’tkazish tartibi.

O’zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asosi bo’lib, birinchi navbatda, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasida amal qiladigan qonun-qoidalar, tartiblar, ko’rsatiladigan xizmatlar va, xususan, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo’lmasligi lozim. Konstitutsiyaning 5-bo’lim, 15-bobi «Moliya va kredit» deb nomlanib, unda O’zbekiston Respublikasi o’z moliya va pul- kredit tizimiga ega, deyilgan. Shu bilan birga, uning 124-moddada O’zbekiston Respublikasi bank tizimini Markaziy bank boshqarishi keltirib o’tilgan. Shuning uchun bank faoliyati bilan bog’liq qonunlar va ular bajaradigan operatsiyalar hamda ko’rsatadigan xizmatlar Markaziy bank tomonidan belgilab beriladi.

Shuningdek, faktoring operatsiyalarini amalga oshirish O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi”da belgilab qo’yilgan me’yorlar va talablarga mos kelshi va tartibga solinishi kerak. Fuqarolik kodeksining 23-bob (313-323-modda) va 42-bob (749-758-modda)larida faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Fuqarolik Kodeksining 23-bobi “Majburiyatdagi shaxslarning o’zgarishi” deb nomlanadi. Bunda faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asosi quyidagi moddalarda keltirib o’tilgan:

Majburiyat asosida kreditorga tegishli bo’lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo’yicha boshqa shaxsga o’tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o’tishi mumkin.

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o’tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi. Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o’tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilingan bo’lmasa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o’zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o’z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o’tishi haqidagi qoidalar regress talablarga nisbatan qo’llanilmaydi.

O’zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish uchun O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan maxsus nizom

ishlab chiqilgan. Ushbu nizomda faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va uning huquqiy asosi batafsil yoritilgan.

O’zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi toomnidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan 2000 yil 3- avgustda 953-raqam bilan ro’yxatdan o’tgan “O’zbekiston Respublikasi hududida tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to’g’risida”gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom O’zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksining 313-323 va 749-758-moddalariga, "O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki to’g’risida", " Banklar va bank faoliyati to’g’risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 20 apreldagi 837-sonli "Eksport-import operatsiyalari bo’yicha valyuta nazoratini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida", 2000 yil 2 iyundagi 2612-sonli "Jamiyatning siyosiy, iktisodiy va ma’naviy sohalarida islohotlarni erkinlashtirish va chukurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta’minlash dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi Farmonlariga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizomga ko’ra, faktoring – bu bank xizmatlarining bir turi bo’lib, bunda xo’jalik yurituvchi sub’ektlar mol etkazib beruvchini aktseptli to’lovchi tomonidan etkazilgan tovarlar, ko’rsatilgan xizmatlar uchun ijro etilmagan to’lov talabnomalari asosida to’lovlarni talab qilib olish huquqini bank – moliya aktseptiga o’tkazib regress huquqini olmagan holda berishdir.

Faktoring operatsiyalari bo’yicha to’lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank tomonidan kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida 90966-"Xarid qilingan debitorlik qarzlari - Faktoring" shaxsiy hisobvarag’i ochiladi. Ushbu hisobvaraq debeti bo’yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarining to’liq summasi aks ettiriladi, kredit bo’yicha esa to’lovchilar to’liq so’ndirgan xarid qilingan debitorlik qarzlari hisobdan chiqariladi.

Taraflar tomonidan faktoring (pul talabini berish) to’g’risidagi shartnoma imzolanganidan keyin bank-moliyaviy agent mablag’larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag’iga, diskont summasini chegirgan holda, o’tkazishni amalga oshiradi.

Mablag’larni mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag’iga o’tkazishni bank memorial-orderlar bilan amalga oshiradi, ular ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa hisobvaraqlar bo’yicha buxgalteriya operatsiyalari amalga oshirilganidan keyin bankning kun hujjatlariga joylashtiriladi, ikkinchi nusxasi belgilangan tartibda mijozga yuboriladi. Mijoz hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishga qo’yiladigan barcha talablarga rioya etilishi, shuningdek, u tomonidan bankka berilgan pul talablari bo’yicha uning bank hisobvarag’iga biror-bir sabablar bilan hisoblab yozilgan mablag’larni o’z vaqtida o’tkazish uchun javobgardir.

Banklar faktoring operatsiyalarini ularning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvaraqlari joylashgan erdagi mijozlar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Faktoring xizmatlarini ko’rsatish asosida to’lovchi tomonidan moliya agentiga pul talabini bajarish muddatlari 90 kundan oshmasligi kerak. Banklar to’lovchilardan qarzni undirish bo’yicha ushbu muddatda to’lanmagan majburiyatlarga doir choralarni konunlarda belgilangan tartibda ko’rishlari kerak.

Faktoring operatsiyalari quyidagilar bo’yicha amalga oshirilishi mumkin emas:

- byudjet tashkilotlariga taqdim etiladigan talablar bo’yicha;
- jismoniy shaxslarning qarz majburiyatlari bo’yicha;
- to’lovga noqobil deb e’lon qilingan korxonalarning majburiyatlari bo’yicha;
- zarar ko’rib ishlaydigan korxonalar bo’yicha;
- kapital quyilmalarni moliyalash bo’yicha;
- eksportga oid konsignatsiya shartnomalari bo’yicha;
- kompensatsiya va barter bitimlari bo’yicha;
- ishga bosqichma-bosqich yoki bo’nak bilan haq to’lash bo’yicha;
- to’lovchi shartnomada shartlangan vaqt mobaynida, shuningdek, sotish xizmati ko’rsatilganidan keyin mahsulotni qaytarish huquqiga ega bo’lgan oldi-sotdi shartnomalari.

Faktoring operatsiyasini o’tkazish chog’ida bank pul mablag’larini ular haqini to’lash huquqi faktoring shartnomasida ko’rsatilgan summada bankka taqdim etilgan to’lov talabnomalari bo’yicha mijozning talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag’iga o’tqazadi. Bank tomonidan o’tkazilgan summa bilan shartnoma bo’yicha to’lov talabnomasi summasi o’rtasidagi farq bankning diskontli daromadini tashkil etadi. To’lovchida muddati o’tgan kreditorlik qarzining yo’qligi faktoring xizmatlarini ko’rsatishning majburiy sharti hisoblanadi. Agar shartnomada boshqa narsa ko’zda tutilmagan bo’lsa, bank tomonidan pul talabi huquqining keyin berilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Faktoring kelishuvida faktoring turidan tashqari shuningdek, quyidagilar ko’rsatiladi:

- sotib oluvchilar, taqdim etiladigan majburiyatlar;
- taqdim etiladigan majburiyatlarning nazorat summasi;
- avans miqdori;
- ushlab qolishlar;
- majburiyatlarni to’lash muddatlari;
- faktoring operatsiyalarini bajargani uchun to’lov miqdori;
- etkazib beruvchi tomonidan olinadigan qo’shimcha xizmatlar;
- faktoring operatsiyalari bo’yicha chegaraviy summa;
- regress huquqi;
- sotib oluvchi to’lashining oxirgi muddati;
- to’lovchi to’lovni to’g’ri, o’z vaqtida amalga oshirmaganda ko’riladigan choralar;
- shartnoma shartlarini buzganliklari uchun tomonlar javobgarligi;
- faktoring bo’limiga operatsiyalar bo’yicha shikoyat muddatlari;
- kelishuvning amal qilish muddati;
- kelishuvning bekor qilinish shartlari.

Kelishuvda bank va mijoz huquq va majburiyatlari ko’rsatib o’tiladi.

Bank majburiyatlari:

- unga taqdim etilgan qarzdorlik majburiyatlarini o’z vaqtida to’lash;
- mijozga hisob-kitoblar to’g’risidagi holatni yoki ma’lum to’lovchilar bilan qiyinchiliklar to’g’risidagi axborotni taqdim etishi.

Mijoz majburiyatlari:

- bankka barcha etkazib bergan tovarlar yoki ko’rsatilgan xizmatlar haqidagi hujjatlarni, shuningdek, mijoz tovar va xizmatlarni aktseptlagani to’g’risidagi hujjatlarni, shartnoma shartlari hamda tovar miqdori va sifati to’g’risidagi hujjatlarni.
- uning tovar va xizmatlarni sotib oluvchilari bilan o’z vaqtida mavjud bo’lgan kelishmovchiliklarni bartaraf etishi;
- bankka nomaqbul o’zgarishlar to’g’risida o’z vaqtida ma’lumot berish, ular bankning faktoring operatsiyalariga ta’sir etish doirasini belgilash;
- arbitrajda ishlarni ko’rib chiqishda bank bilan birga ishtirok etish.

Mijoz shartnoma tuzilgunga qadar bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ariza;
- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va to’lovchi tomonidan imzolangan oldi-sotdi, ishlar bajarish va xizmatlar ko’rsatish shartnomasi;
- moddiy boyliklar berilgani, ishlar bajarilgani va xizmatlar ko’rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar (tovar-transport yukxatlari, ishonchnomalarning ko’chirma nusxalari, ishlarni qabul qilish dalolatnomalari va hokazo);
- to’lovchi tomonidan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraklar ro’yxati;
- to’lovchining moliyaviy holatini belgilash uchun zarur hujjatlar.

Bankning mijoz bilan faktoring xizmati ko’rsatishga doir shartnomasida quyidagilar ko’rsatiladi:

- ularga nisbatan pul talabining berilishi amalga oshirilayotgan xaridorlar;
- berilayotgan talablarning umumiy summasi;
- diskont summasi;

- shartnomaning amal qilish muddati;
- taraflar tomonidan shartnoma shartlari buzilgani uchun da’volarni bayon etish muddatlari;
- shartnoma shartlari buzilgani uchun taraflarning mas’uliyati;
- shartnomani bekor qilish shartlari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shartlar.

Faktoring xizmatlarini ko’rsatish shartnomasini tuzish chog’ida mijoz va bank-moliyaviy agent to’lovchini ushbu bitim to’g’risida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

To’lovni amalga oshirish uchun to’lovchining talab qilib olingungacha asosiy depozit hisobvarag’ida mablag’lar etishmagan taqdirda to’lovchining banki bank - moliyaviy agentga to’lov talabnomasining 2-son kartotekaga qabul qilinganini ma’lum etadi.

Shartnoma:

- taraflarning o’zaro kelishuviga;
- bank shartnoma shartlarini buzgan taqdirda etkazib beruvchining tashabbusiga;
- etkazib beruvchi shartnoma shartlarini buzgan takdirda bankning tashabbusiga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shartlarga binoan bekor qilinishi mumkin.

Bunda taraflar shartnomaning amal qilishini shartnomada belgilangan muddatlarda bekor qilish to’g’risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

Shartnoma bir taraf tomonidan bekor qilingan taqdirda o’zaro da’volar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Eksport mahsulotlari bo’yicha faktoring xizmatlarini vakolatli banklar xorijiy valyutada talab qilib olingungacha depozit hisobvarag’i bo’lgan, faqat o’zlari xizmat ko’rsatadigan korxona va tashkilotlarga, 60 kundan oshmaydigan muddat bilan ko’rsatadilar.

Ular tomonidan faktoring xizmatlari ko’rsatilishi chog’ida bank daromadlari deganda xorijiy valyutada to’lov hujjatining nominal qiymati bilan uning shartnomaga muvofiq bankka berilish summasi o’rtasidagi farq bo’lgan diskont tushuniladi.

Etkazib beruvchi tegishli xorijiy sherik bilan tuzgan, ilgari hisobga qo’yilgan eksport shartnomalari bo’yicha etkazib beruvchi korxonada muddati o’tgan debitorlik qarzining yo’qligi eksport operatsiyalari bo’yicha faktoring xizmatlari ko’rsatilishining majburiy sharti xisoblanadi.

Vakolatli banklar faqat belgilangan tartibda o’zlari hisobga qabul qilgan eksport shartnomalari bo’yicha va xorijiy vakil banklarning bank kafolatlari olingan yoki mazkur shartnomalar bo’yicha ochiq chaqirib olinmaydigan akkreditivlar summasidan oshmaydigan summada faktoring xizmatlarini ko’rsatadi.

Vakolatli bank eksport shartnomalari bo’yicha faktoring operatsiyasini o’tkazish chog’ida mijozning talab qilib olingungacha tranzit depozit hisobvarag’iga mablag’larni, shartnomada ko’rsatilgan diskont summasini chegirgan holda, etkazib beruvchi tomonidan beriladigan talablar summasida erkin almashtiriladigan valyutada o’tkazadi. Mijozning tranzit hisobvarag’iga hisoblab yozilgan valyuta mablag’laridan majburiy sotishni mijoz to’liq hajmda, diskont summasini chegirmasdan amalga oshiradi.

Pul talabi huquqini berish to’g’risidagi shartnoma imzolanganidan keyin mijoz bu xususda xorijiy kontragent va uning kafili (kafolatchisi)ni xabardor kilishi va ushbu to’lov hujjatlari bo’yicha to’lovni amalga oshirish uchun ularga bank - moliyaviy agentning bank rekvizitlarini ma’lum etishi shart.

Agar to’lash shakli sifatida akkreditiv qabul qilinsa, bu holda mijoz bank - moliyaviy agent foydasiga akkreditivni qayta rasmiylashtirish amalini o’z vaqtida amalga oshirishi, so’ngra bankni qayta rasmiylashtirish holatidan xabardor qilishi shart.


15.3 Tijorat banklarida faktoring operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalarini amalga oshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Cotuvchi va xaridor o’rtasida to’lovni kechiktirilish ko’zda tutilgan shartnomani tuzish.
2. Tovarni etkazib berish.

3. Faktorining shartnomasini tuzish.
4. Bank tomonidan moliyalashtirishni amalga oshirish.
5. Xarid qiluvchi (debitor) tomonidan to’lovni amalga oshirish.

Odatda, bank yoki faktor kompaniyasi korxonadan ariza murojaatnomani olib, 1-2 hafta mobaynida mijozning moliyaviy va iqtisodiy ahvolini, uning xo’jalik faoliyati xususiyatlarini o’rganib chiqadi. Agar korxona bankning mijozi bo’lib qolgan bo’lsa, u holda u bankka xaridor uchun taqdim etiladigan barcha hisob- fakturalarni beradi. Bank barcha hisob- fakturalarni, shuningdek, xaridorning to’lovga qobilligini to’liq o’rganib chiqadi. Bu muddat 24 soatdan 2 haftagacha cho’zilishi mumkin. Shundan so’ng bank to’lovni belgilangan muddatda yoki undan oldinroq ham amalga oshirishi mumkin.



2-rasm. Faktoringni ishlash tizimi[90].

Faktoring operatsiyalarida bank hisob - faktura qiymatining, odatda, 80 foizi miqdorida, ayrim holatlarda esa, masalan, korxonaning mazkur bank uchun juda ishonchli mijozga aylanib qolganligi sababli ham mahsulot qiymatining 90 foizigacha miqdorini o’tkazib berishi mumkin. Qolgan 10-20 foizi esa, zaxira hisoblanadi, ya’ni to’lovning qolgan qismi debitor tomonidan barcha qarz summalari qaytarilgandan so’ng bank tomonidan amalga oshiriladi.

Faktoring operatsiyalari hisobi banklarda boshqa barcha operatsiyalar singari, O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro’yxatdan o’tgan «O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarining buxgalteriya hisob varaqalari rejasi» asosida olib boriladi. Unga muvofiq:

11101 – Sotib olingan debitor qarzdorlik yoki faktoring.

Bu hisobvaraqda ko’rsatilishi mumkin bo’lgan operatsiyalar quyidagilardir:

– hisobraqam debetida sotib olingan yoki mijozga to’lab berilgan summa va diskont summasi yotadi;

– hisobraqam kreditida esa, to’lovchidan undirib olingan summa, muddati o’tgan faktoring, sudda ko’rilayotgan faktoring va boshqa qonunda ko’zda tutilgan holatlar bo’lishi mumkin.

11103 – Muddati o’tgan faktoring.

11105 – Sud tomonidan ko’rilayotgan faktoring.

11195 – Sotib olingan debitor qarz bo’yicha diskont summasi, keyinchalik u 45217 hisobraqamiga olib boriladi.

[90] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

11199 – Sotib olingan debitor qarzdan qutilishi mumkin bo'lgan zararga ajratilgan zaxira, ushbu summa 56814 - hisobvaraqqa olib boriladi.

Banklarning faktoring operatsiyasini amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich shartnoma deb ataladi, chunki bu bosqichda ikkita korxona o'rtasida biron-bir tovar yoki xizmatlar uchun o'zaro shartnoma tuziladi. Ikkinchi bosqichda oldindan qisman to'lash jarayoni, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi 1154-Farmoniga asosan, 15 foizdan kam bo'lmagan to'lov amalga oshiriladi. Uchinchi bosqich - bu etkazib berilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmatlar va to'rtinchi bosqich - mol etkazib beruvchi tomonidan to'lovchining hisobraqamiga to'lov talabnomasi qo'yishdir.

Beshinchi bosqichda faktoring operatsiyasini amalga oshirish uchun mol etkazib beruvchi va uning banki bilan shartnoma tuziladi. Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha ushbu hisobraqamda faktoringni balansdan tashqari hisobi olib boriladi. Ushbu hisobraqamning debetida sotib olingan debitor qarz summasi, kreditida esa, to'liq yopilgan faktoring turadi.

Oltinchi bosqichda bank shartnoma asosida memorial order bilan quyidagi buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiradi:

1. Dt 11101

Kt 20208

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi korxonalarda debitorlik kreditorlik qarzdorligini inventarizatsiya qilish va aniqlangan o'zaro qarzdorlikni o'zaro singdirish hamda da'vo muddati o'tganlarini (O'zbekiston Respublikasi Fukorolik kodeksining 157 moddasiga asosan respublikamizda debitor-kreditor qarzdorlikning da'vo muddati 3 yil deb belgilab quyilgan) majburiy ravishda korxonaning foydasiga (kreditorlik qarzi) yoki zarariga (debitorlik qarz) olish to'g'risida maxsus qaror ishlab chiqish lozim. Ushbu qarorni ishlab chiqarilishi va amaliyotga kiritilishi respublikamizdagi juda ko'plab korxonalardagi o'zaro qarzdorlikni keskin ravishda qisqartirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlari tomonidan ular o'zlari to'g'risida xo'jalik-moliyaviy xolatis to'liq, xaqqoniy ma'lumot oshkoraligini amaldagi qonunchilik asosida tartibga solish lozim. Bu xolat esa tijorat banklarida faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan mijozlar to'g'risidagi xaqqoniy, to'liq ma'lumotni olish imkoniyatini beradi va bu bilan faktoring operatsiyasidagi pasayadi. Shuni ta'kidlash lozimki, faktoring shartnomasida ishtirok etayotgan sub'ektning biri bankning mijozi bo'lmasligi mumkin Shuni uchun,bizning fikrimizcha,respublikamiz bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan (mulkchilik shaklidagi qat'iy nazar) tijorat banklarida mijozlar to'g'risida tuliq ma'lumot bazasini yaratish va lozim vaqtda bu ma'lumotlardan (faktoring shartnomasi tuzilayotgan vaqtda) rasmiy ravishda o'zaro foydalanishlikni amaliyotga kiritish lozim.

Faktoring yuqori daromad keltiruvchi operatsiya bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga yarasha risk darajasiga ega. Shunday qilib, tijorat banklarining faktoring operatsiyalari ular uchun daromad keltirish manbai bo'lishi bilan birga o'zaro hisob-kitoblarni tezlashtirish va noto'lovlarni qisqartirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Faktoring so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Faktoringda regress huquqi qanday qo'llaniladi?
3. Regress huquqisiz deganda nimani tushunasiz?
4. Banklarning faktoring kreditlari qanday rasmiylashtiriladi?
5. Banklarning faktoring operatsiyalarini amalga oshirishning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
6. Faktoring kreditlari bilan bog'liq bo'lgan qanday risklar mavjud?

16-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING LIZING OPERATsIYaLARI

Reja

16.1 Lizing operatsiyalarining turlari.
16.2 Lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va lizingning avzalligi.
16.3 Lizing operatsiyalari bilan bog'liq risklar.
16.4 Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalari..

Tayanch iboralar

Amortizatsiya ajratmasi, lizing, lizing to'lovi, lizing krediti, lizing ob'ekti, moliyaviy ijara, moliyaviy lizing, operativ lizing, sublizing, foiz stavkasi, qaytariladigan lizing.

16.1 Lizing operatsiyalarining turlari.

Lizing so'zi inglizcha **leasing** degan so'zdan olingan bo'lib, ijaraga berish, degan ma'noni anglatadi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, lizing g'oyasi Aristotel davrida, ya'ni eramizdan avvalgi 384 – 382 yillarda paydo bo'lgan bo'lib, Aristotel: "boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan foydalanish" degan fikrni ilgari surgan. Bu esa, hozirgi zamon ta'biri bilan aytganda, kishining daromad olishi uchun qandaydir bir mulkka albatta egalik qilishi shart emas, balki undan foydalanish huquqiga ega bo'lishi va natijada foyda olishining o'zi kifoya qiladi.

Faoliyati zamonaviy lizingga asoslangan birinchi kompaniya 1952 yilda AQShning San-Frantsisko shahrida shahrida takshil etildi. Bu AQShning "Yunayted steyts lizing korporeyshn" lizing kompaniyasi edi.

XX asrning 30 – yillarida Genri Ford o'zining avtomobillarini sotish samaradorligini oshirish uchun lizingdan foydalanishni yo'lga qo'ydi. Ammo avtomobil lizingi biznesining qonuniy otasi bo'lib, Zolli Frenk hisoblanadi. U 40 – yillarning boshida avtomobillarni uzoq muddatga ijaraga berishni birinchi bo'lib taklif etgan chikagolik savdo agenti bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda transport lizingidan tushayotgan yalpi daromadlar yiliga 50 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketmoqda.

G'arbiy Evropada dastlabki lizing kompaniyalari XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. Ammo bu davrda G'arbiy Evropa mamlakatlarining soliq qonunchiligida lizing shartnomalari o'z aksini topmagan edi. Keyinchalik lizing shartnomalarining huquqiy maqomini sliq qonunchiligida aks etishi bilan lizing munosabatlari keskin rivojlanib ketdi.

XX asrning 60-yillariga kelib, lizing jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Buning sababi shundaki, ijaraga sanoat vositalari yoppasiga berila boshladi. Xususan, bahosi yuqori bo'lgan va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar - texnologik asbob-uskunalar, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlar uzoq muddatli ijara sifatida lizingga berila boshladi.

Hozirgi davrda xalqaro lizing bozorining asosiy qismi uch yirik moliya markazida – AQSh, Yaponiya va G'arbiy Evropada joylashgan.

AQSh va G'arbiy Evropada ixtisoslashgan lizing kompaniyalarining faoliyati rivojlangan bo'lib, ular lizing bozorida tijorat banklari bilan raqobat qiladi.

Yaponiyada lizingdan nafaqat yirik kompaniyalarning faoliyatini texnik va texnologik qurollantirish vositasi sifatida, balki kichik biznesni rivojlantirish omili sifatida ham keng foydalaniladi.

"Xuddi shunday kredit va lizing o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikni hisobga olgan holda banklarning lizing operatsiyalari bilan xizmat ko'rsatishi ham mamnunli holatdir",- degan fikrni iqtisodchi olim D. Stefan bildirgandir.[91]

Ta'kidlash joizki, lizing uzoq muddatli ijara sifatida talqin qilinsada, u prokat shaklidagi ijaradan farq qiluvchi jihatlarga ega.

[91] "The Banking System; Commercial Banking- Business Lending" by Stephen D.Simpson, "Investopedia"

Shunday qilib, prokat ijara munosabatlarining eng oddiy turi bo'lib, bu ijaraga asosan maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tovarlar (nikoh liboslari, muzlatgichlar, televizorlar, tikuv va yozuv mashinalari, mavsumiy sport anjomlari va h.k.) beriladi.

1-jadval

Lizing va ijara, ular o'rtasidagi farqlar[92]

№	Baholash ko'rsatkichlari	Munosabat turlari	
		Prokat	Lizing
1	*2*	*3*	*4*
1	Ishlab chiqarish vositasiga bo'lgan munosabat nuqtai-nazaridan	• Foydalanish	• Foydalanish • Egalik qilish • Qisman tasarruf qilish
2	Prokat ob'ekti nuqtai- nazaridan	• Xodim	• Mulk
3	Resurslarga javobgar nuqtai nazaridan	• Ma'naviy va qisman moddiy	• To'la mulkiy javobgar
4	Motiv va rag'bat nuqtai nazaridan	• Birinchi navbatda fiziologik ehtiyojni qondirish	• Shaxsiy salohiyatni ishga solish, ijtimoiy va intellektual ehtiyojni qondirish
5	Ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga bo'lgan huquq nuqtai nazaridan	• Mahsulot va daromadga korxonaning o'zi xo'jayinlik qiladi	• Lizing oluvchi ya'ni, foydalanuvchi ixtiyorida bo'ladi
6	Tovar ishlab chiqaruvchining holati nuqtai nazaridan	• Yollangan hodim	• Tadbirkor mulk egasi
7	Bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan	• Ijrochilik	• Ijrochilik • Boshqaruvchanlik, ya'ni tashabbuskorlik
8	Boshqarish usuli nuqtai-nazaridan	• Asosan boshqarish ma'muriy usuli	• O'z-o'zini boshqarish • Boshqarishning iqtisodiy usuli
9	Muvofiqlashtirish usuli nuqtai-nazaridan	• Mehnat shartnomasiga	• Mulkiy huquq • Qarziy huquq • Tijoriy huquq munosabatlari
10	Ish haqi darajasi	• Mehnat shartnomasiga binoan	• Lizing oluvchining qoldiq daromadiga binoan
11	Menejerlar bilan munosabat nuqtai - nazaridan	• Ierarxik, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga	• Shartnomaviy, hamkorlik
12	Tashkiliy nuqtai - nazaridan	• Yollangan mehnat	• Mustaqil tadbirkorlik faoliyati

Bu ijara turning xususiyati shundaki, aksariyat hollarda muddati belgilanmaydi yoki ijara o'ta qisqa muddatli bo'ladi yoki iste'molchi undan xohlagancha foydalanishi mumkin.

Lizing operatsiyalarining elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:


– lizing ob'ekti;
– lizing sub'ektlari;
– lizing shartnomasining muddati;
– lizing to'lovlari;

[92] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

– lizing bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlar.

Lizing mohiyatini ochishda uning tarkibiy qismlari bo’lmish lizing ob’ekti va sub’ektlariga ham aniqlik kiritib o’tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi lizing sub’ektlaridir.



1-rasm. Lizing sub’ektlari[93].

Bunda:

❖ Lizing beruvchi – li zing shartnomasi bo’yicha lizing ob’ektini keyinchalik lizing oluvchiga berish maqsadida mulk qilib sotib oladigan bank yoki lizing kompaniyasi yoxud ularning shu’ba kompaniyalari (qonunchilik hujjatlari bo’yicha lizing beruvchi bo’lib nafaqat lizing kompaniyalari yoki banklar, balki har qanday yuridik va jismoniy shaxs ham lizing beruvchi bo’lib maydonga chiqishi mumkin).

❖ Lizing oluvchi – lizing shartnomasi bo’yicha lizing ob’ektiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun oladigan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxslar.

❖ Sotuvchi – lizing beruvchiga lizing ob’ektini sotuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.

Lizing ob’ekti – iste’mol qilinmaydigan va qonunchilik bilan ta’qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatida qo’llaniladigan har qanday buyumlar, barcha mulk majmualari, shu jumladan, korxona, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko’char va ko’chmas mulk bo’lishi mumkin. Muomaladan olingan yoki muomala doirasi chegalangan er uchastkalari va boshqa tabiat ob’ektlari bo’lishi mumkin emas.

Mazkur ta’rifda lizing beruvchining lizing ob’ektini oluvchiga vaqtinchalik foydalanishga to’lash sharti yoki foyda olish maqsadida berishining belgilanishi lizingning tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liqlik jihatiga ham e’tibor qaratilgan yoki boshqacha qilib aytganda, lizing bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo’lgan foyda olish istagining mahsuli sifatida qaralgan.

Shu bilan birga, ushbu ta’rifda lizing ob’ektining lizing shartnomasi yakunlangandan so’ng, kimning mulkiy tasarrufiga o’tishi yoki lizing oluvchi mulkni o’ziga sotib olishi mumkinligi ko’rsatilmagan. Ushbu mezon lizing, ya’ni moliyaviy ijaraning muhim atributlaridan biri ekanligi bois, bizning fikrimizcha, bu mazkur ta’rifning sezilarli kamchiligidir.

O’zbekiston Respublikasining lizing to’g’risidagi qonunida lizing shartnomasi hech bo’lmaganda quyidagi shartlardan biriga javob berishi lozimligi aks etgan:

* lizing shartnomasining muddati tugashi bilan lizing ob’ekti lizing oluvchining mulkiga o’tadi;

* lizing shartnomasi muddati lizing ob’ekti xizmat muddatining sakson foizidan oshadi yoki lizing ob’ektining qoldiq qiymati lizing shartnomasi tugaganida uning boshlang’ich qiymatining kamida yigirma foizini tashkil etadi;

* lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing ob’ektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to’lab sotib olish huquqiga ega bo’ladi, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing ob’ekti qiymati asos bo’ladi;

* lizing shartnomasi davrida uchun lizing to’lovlarining umumiy summasi lizing ob’ekti qiymatining to’qson foizidan oshadi[94].


[93] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

[94] “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartishlar va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining 447-II-sonli qonuni tahririda.

Shu tariqa, agar, misol uchun, taraflar shartnomada ob'ektga mulk huquqi lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchiga o'tishini belgilagan bo'lsalar, - birinchi tasniflash alomatiga rioya qilinadi va bunday bitim lizing bitimi sifatida qaraladi. Tegishincha, qolgan to'rt alomatga rioya qilishga zarurat yo'q – ulardan istalgan biri kifoyadir. Biroq, yuqorida ko'rsatilgan alomatlardan birortasiga javob bermaydigan bitim lizing hisoblanmaydi.

Barcha mamlakatlarning amaliyotda keng tarqalgan lizing turlari bu moliyaviy va joriy ijara turlaridir. Moliyaviy ijara – bu lizing, oddiy, ya'ni moliyaviy bo'lmagan ijara esa joriy lizing deyiladi. Bugungi kunda ham amaliyotda lizing bitimlari yo lizing (moliyaviy ijara) yoki joriy lizing (oddiy ijara) shakli tuzilmoqda. Shu sababli lizingdan joriy lizingni farqini ajratish amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda lizingning bu turlarini farqlash bo'yicha o'z ichki qonunchilik hujjatlariga tegishli me'yorlar kiritilgan va shu me'yorlar bo'yicha lizing shartnomalari moliyaviy yoki joriy lizing sifatida tasniflanadi.

Lizingning asosiy funktsiyalarini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Lizingni asosiy funktsiyalari[95].

Ba'zi mutaxassislar lizingni joriy lizingdan farqini lizing shartnomasi davomida lizing ob'ekti bo'yicha vujudga keladigan barcha moliyaviy mas'uliyat va risklar kimning zimmasiga yuklanishiga qarab aniqlashni taklif etishgan.

Ushbu masala bo'yicha bir qarorga kelmaslik lizingni xalqaro munosabatlarda qo'llashda katta muammolarni vujudga keltirib, uning rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Ayniqsa, lizing kimning balansida hisobga olinishi, soliq majburiyatlari kimning zimmasida bo'lishi va moliyaviy hisobotlarda qanday aks ettirilishi masalalari xalqaro moliyaviy tashkilotlarning diqqat e'tiborini tortdi. Natijada, jahon iqtisodchilari tomonidan lizingni tasniflashning asosiy qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi.

Oxirgi 15 yilda rivojlangan mamlakatlarda lizing operatsiyalarining hajmi 5 marta oshgan va ularning 30 foizdan ortiq investitsiyasi lizing orqali amalga oshirilayotganligi to'g'risida aytib o'tgan edik. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, lizing dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin egallagan va bugungi kunda ham ushbu moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

[95] Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

16.2 Lizing operatsiyalarini o’tkazish tartibi va lizingning avzalligi.

G’arb mamlakatlarida lizing xizmatlari bozori lizing shartnomalarining shakl va modellari xilma-xilligi bilan hamda lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi turli huquqiy me’yorlar bilan ajralib turadi.

Lizing faoliyati butun dunyoda iqtisodiyotni rivojlantirishning tayanch omillaridan biri sifatida tan olinib, dunyo bo’yicha yildan-yilga jadal sur’atlar bilan o’sib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining 1999 yilda qabul qilingan “Lizing to’g’risida”gi qonunida lizingning ikki turi: moliyaviy va operativ lizing o’z aksini topgan. Shuningdek, Qonunda lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing ob’ektini vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga topshirish huquqi ham aks ettirilgan.

2002 yil 13 dekabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasini ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuniga binoan “Lizing to’g’risida”gi qonunda lizingning moliyaviy turi qoldirildi.

Iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida lizingning turli shakllaridan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Lizingning moliyaviy lizing, xalqaro lizing, ichki lizing, operativ (tezkor) lizing, aralash lizing, sublizing, qaytarma lizing, sof lizing, to’liq lizing, ommaviy lizing, revolverli lizing, bo’linma lizing va shu kabi ko’plab turlari mavjuddir. Lizing turlarini bir qancha mezonlarga asosan tasniflash mumkin.

Mamalakatimizda lizingning quyidagi turlari rivojlanmoqda:

1. Moliyaviy lizing.
2. Operativ lizing.

Moliyaviy lizingda lizing shartnomasining amal qilish davrida lizingga oluvchi lizingga beruvchiga lizingga olingan mulkning to’la qiymatini (to’liq amortizatsiyani) to’dab beradi.

Moliyaviy lizing katta miqdordagi kapital quyilmalarni talab etadi. Shu sababli, moliyaviy lizingni asosan tijorat banklari amalga oshiradi.

Operativ lizingda mulk, uning amortizatsiya davridan kam bo’lgan davrga, lizingga beriladi .

Odatda, ma’naviy eskirish sur’atlari yuqori bo’lgan mulklar operativ lizingga beriladi.

Operativ lizing shartnomalarining muddati 2 yildan 5 yilgacha bo’ladi.

Operativ lizing quyidagi xususiyatlarga ega:

- texnik uskunalar va jixozlarni ijaraga beruvchi lizing kompaniyasi hech mahal «barcha sarf-xarajatlarimni yakka-yu yagona mijozim evaziga qoplayman» qabilidagi fikr yuritmaydi;
- ijaraga berilgan texnika, asbob-uskunalarning nosoz holga kelishi yoki yo’qolishi, shuningdek tabiiy ofatlar - zilzila, yong’in va sel ketish oqibatida ko’riladigan moddiy zararlar, asosan, lizing beruvchi kompaniya hisobidan qoplanadi;
- ijara muddati mavjud asbob-uskuna va jihozlarning jismonan butunlay ishdan chiqish muddatini qoplamasligi darajasida belgilanmaydi;
- kelishilgan muddat tugagandan so’ng, ijaraga olingan barcha uskunalar egasiga, ya’ni lizing beruvchiga qaytarib beriladi.

Operativ lizing quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- Renting. Mulkni bir kundan to bir yilgacha bo’lgan qisqa muddatga ijaraga berish.
- Xayring. Bunda mulk 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga beriladi. Odatda,bu muddat o’rta muddat hisoblanadi.

Moliyaviy lizing ham o’z navbatida quyidagiturlarga bo’linadi:

- Ba’zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing;
- levedj-lizing;
- "paket"dagi lizing.

Ba’zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing. Bunda lizing kompaniyasi ijaraga berilgan uskunalarni o’rnatish, sozlash, mutaxassislar tayyorlash kabi bir qator majburiyatlarni o’z zimmasiga oladi.

Levedj - lizing. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya’ni investordan qarzga olinadi.

"Paket"dagi lizing. Mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo’lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

Lizing muomalalari ularni keltirib chiqaruvchi ob’ektiv shart-sharoitlarga qarab, aniqrog’i, ob’ektga egalik qilish manbalari nuqtai nazaridan ikkiga: bevosita va yana o’ziga qaytuvchi lizing turlariga bo’linadi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun, uning buyurtmasi asosida, mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.

O’ziga qaytuvchi lizing. Moliyaviy lizingning nisbatan kam uchraydigan bu turi «liz-bek»deb ham ataladi. Bunda ishlab chiqaruvchi korxona o’z tasarrufidagi xususiy mulkning bir qismini lizing kompaniyasiga to’la qiymatda sotadi. Ayni chog’da lizing kompaniyasi bilan korxona o’rtasida shu uskunani sotib olish byo’icha lizing shartnomasi tuziladi. Shartnomaga binoan lizing kompaniyasi esa muayyan muddat ichida ijara xaqini olaveradi. Bu sharoitda korxona sotilgan mulk uchun olgan mablag’larni ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish maqsadlariga sarflash imkoniyatlariga ega bo’ladi.

Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan lizing quyidagi turlarga bo’linadi:

Sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo’shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

To’liq lizing.Bu lizing turiga binoan ijaraga berilayotgan mashina va uskunalarga texnik xizmat ko’rsatish bilan bog’liq barcha sarf-xarajatlar lizing kompaniyasi zimmasiga tushadi.

Lizing shartnomasi ikki tomonlama imzolangan taqdirda, lizing kompaniyasi ikkinchi tomon bilan shartnoma shartlarini kelishib olgandan so’ng, uning buyurtmasiga muvoffiq, so’ralayotgan texnika va texnologiyalar, mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonaga ma’lumotnoma yuboradi hamda ijaraga olinayotgan uskunalarning narxlari ijara shartlari va hokozolarni kelishib oladi. Lizing oluvchi sub’ekt esa, o’z navbatida, kompaniyaga, o’ziga kerakli uskunalarni ijaraga olishini tasdiqlovchi majburiyat xati yuboradi.

Sublizing - ijarachining lizingga olingan ob’ektni lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi - lizing oluvchiga berishi.

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo’lib, bunda tomonlarning hech bo’lmaganda birortasi (yoki hammasi) boshqa mamlakatga tegishli bo’ladi, yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo’shma kapitalga egadir.

Xalqaro lizingning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: to’g’ridan-to’g’ri, eksport va import, tranzit (bilvosita), to’g’ri bo’lmagan.

To’g’ridan-to’g’ri xalqaro lizingda bitim bo’yicha barcha operatsiyalar turli mamlakatlarning yuridik shaxs maqomiga ega bo’lgan tijorat tashkilotlari o’rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit (bilvosita) lizingda bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo’lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga etkazib beradi.

To’g’ri bo’lmagan lizingda lizing firmasi va iste’molchi bir mamlakatga tegishli bo’ladi, lekin lizing firmasi boshqa mamlakatda joylashgan bo’ladi.

Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshlagan. Xalqaro lizing operatsiyalarini rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir etgan: ko’pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og’irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarini oshirishlari, lokal moliyaviy inqirozlar, ba’zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar.

16.3 Lizing operatsiyalari bilan bog’liq risklar.

Lizing kompaniyalari nima hisobdan daromad olishadi? Birinchidan, ijara haqi. Ikkinchidan, ijara muddati tugagandan so'ng uskunalarni qoldiq qiymati bo'yicha sotadi. Ijara haqi uskuna haqi bilan xizmatlar qiymatini (bank foiz stavkalariga tenglashtiriladi) qoplashi kerak. Uchinchidan, uskunalarni sotib olish qiymati bilan ijara haqi o'rtasidagi farq. Lizing kompaniyasi uskunalarni doimiy xaridor sifatida katta turkumlarda (partiyalarda) sotib olayotgani uchun ishlab chiqaruvchilar ularga qandaydir imtiyozlar beradilar. Bundan tashqari, mol-mulkka soliq qoldiq qiymatiga ko'ra to'lanadi, ijara haqi esa xizmat muddatiga qarab oshib boradi.

Ijarachining manfaatlari-chi? Ko'p mamlakatlarda mol-mulkka soliq lizing shartnomalariga belgilangan to'lovlardan ancha yuqori bo'ladi. Ba'zi paytlarda esa ijara usuli hozirgi zamon uskunalaridan foydalanishning yagona imkoniyati bo'lib qoladi, ayniqsa, yangi tashkil qilingan firmalar uchun. Ijarachi uchun uskunalar mulk xisoblanmaganligi sababli, firma balansiga kiritilmaydi, mol-mulkka soliq to'lanmaydi va bu sohada buxgalteriya hisobi yuritilmaydi. Ijara haqi esa, to'liqligicha ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ataylab lizing bo'yicha soliq yig'ishmaydi. Ammo hukumat bugungi kun bilan emas, balki kelgusini o'ylab iqtisodiy siyosat olib boradi. Lizing fan-texnika taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ertangi kunda ishlab chiqarish bugungi olinmagan soliqlarni to'liqligicha qoplaydi, demak u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib beradi.

MDH respublikalarida «ijara korxonalari» degan ibora paydo bo'lgan. Chet ellik mutaxassislar uchun bunday tushuncha mutlaqo tushunarsiz. Xalqaro amaliyotda ijara korxonalari degan tushunchaning o'zi yo'q. Korxonalar ijaraga berilmaydi, uskunalar va binolar berilishi mumkin.

Lizing munosabatlarini O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida qo'llash katta samara beradi. Masalan, AQShda fermerlar foydalanayotgan texnikaning 80 foizi ijaraga olinadi. Axir bir yilda 10-15 kun ishlatiladigan kombaynni sotib olishidan qanday mantiq topish mumkin?

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublika hukumati qaroriga ko'ra, 1999 yilning oktyabr oyida «O'zqishloqxo'ja-likmashlizing» hissadorlik kompaniyasi tuzildi. Bu kompaniyaning asosiy vazifasi mamlakatimiz mashina-traktor parklari va qishloq xo'jaligi korxonalariga **moliyaviy lizing** asosida traktor va yig'im-terim texnikasini etkazib berishdan iborat. Bundan tushgan mablag' traktor va qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar hisobiga o'z vaqtida tushiriladi. Bu hol ularga aylanma mablag'larni birinchi navbatdagi ehtiyojlariga ishlatib, uni to'ldirib turish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari esa texnika qiymatini asta-sekin, bir necha yil mobaynida to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Texnika o'zini o'zi bemalol oqlaydi. Agar inflyatsiya chiqimlari lizing oluvchiga tegishli bo'lmasdan, kompaniya tavakkali bo'lishini ham hisobga olsak, lizing shartlari juda manfaatlidir.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini zamonaviy, yuksak unumli texnika bilan ta'minlashni yanada rag'batlantirish, tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shu jumladan, ilg'or chet el kompaniyalari ishtirokida qishloqqa etkazib beriladigan traktor va yig'im-terim texnikasi uchun hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2000 yilning 2 noyabrida Vazirlar Mahkamasining «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra, 2001-2007 yillarda «O'zqishloqxo'ja-likmashxolding» kompaniyasi korxonalari tomonidan, shu jumladan, ilg'or chet el kompaniyalari ishtirokida ishlab chiqarilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasi (traktor va yig'im-terim texnikasi) mashina-traktor parklarining hududiy birlashmalariga, shirkatlar va fermer xo'jaliklariga ularni 7 yillik muddatga lizingga taqdim etish yo'li bilan quyidagi shartlarda etkazib berilishi belgilangan:

- 15 foizlik avans mashina-traktor parklarining hududiy birlashmalari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo'jaligi shirkatlari va fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidan;
- traktor va yig'im-terim texnikasi qiymatining 85 foizi «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan, unga zayom asosida Moliya vazirligi tomonidan beriladigan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, ular bilan bevosita aloqa o'rnatish maqsadida har bir viloyatda kompaniyaning bo'limlari tuzilmoqda. Bu ish shu yili nihoyasiga etkaziladi. Pirovardida shirkat va fermer xo'jaliklari texnikani olish ishlari bilan joylarda tanishish va lizing operatsiyalarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Muqobil mashina-traktor parklari uchun joylarda texnikani olish imkoniyatini yaratilishi esa o'z navbatida raqobatning rivojlanishiga olib keladi. Buning uchun ularda texnika narxining 15 foiz avansini o'tkazish uchun boshlang'ich mablag', aniqrog'i lizing oluvchining moliyaviy ahvoli lizing kompaniyasining talabi darajasida bo'lsa, bas. Agar lizing oluvchining moliyaviy ahvoli talab darajasida bo'lmasa, u holda bank yoki boshqa uchinchi yuridik shaxsning kafolati talab qilinadi.

Lizingning yana bir ijobiy tomoni shuki, u fermer xo'jaliklariga ham zamonaviy texnologiyalarni qo'lga kiritish imkonini yaratadi. Bu esa uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

16.4 Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini rivojlantirish masalalari.

Jahon iqtisodiy amal banklarning lizingning kapital quyilmalarni etarli darajada saqlab turishga xizmat qiluvchi moliyaviy vosita sifatidagi yuqori samaradorligidan dalolat bermoqda. Tijorat banklarning lizing moliyalashtirishning tijorat banklari negizida tashkil qilinadigan lizing kompaniyalari yoki banklarning o'zi amalga oshiradi. Shubhasiz, biznesning o'ziga xos bu turi bilan shug'ullanish banklarning o'ziga yoki ularning maxsus bo'limlariga, shuningdek, banklar bilan aloqador moliyaviy vositachilar uchun qulaydir.

Bugun biz O'zbekiston Respublikasida lizingning huquqiy asoslari shakllanayotganligini ishonch bilan aytishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi lizing shartnomasining mazmuni, lizing sub'ektlari va ularning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, lizing muomalalarida ishtirok etayotgan sub'ektlarning javobgarligini, lizing ob'ektlarini, sublizing (ijarachining lizingga olingan ob'ektni lizing shartnomasi asosida boshqa ijarachi – lizing oluvchiga berishi)ni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan, lizing to'lovi – bu lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga to'lanadigan hamda lizing ob'ektini sotib olish va lizing stavkasi bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni o'z ichiga olgan pul summasidir.

So'nggi yillarda respublikamizda lizingni yanada rivojlantirish va tadbirkorlik sub'ektlarining moddiy-texnik bazasini zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlash borasida choralar ko'rilmoqda. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlanitirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unga muvofiq, lizing to'lovlari qo'shilgan qiymat solig'idan, lizingga berish uchun O'zbekmston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari bojxona to'lovi hamda qo'shilgan qiymat solig'idan, lizing oluvchilar lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha lizinga berilgan mulkdan mulk solig'i to'lashdan ozod etilgan. Lizing beruvchilar esa lizinga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasini jami daromadidan chegirib tashlaydi. berish uchun O'zbekmston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari bojxona to'lovi hamda qo'shilgan qiymat solig'idan, lizing oluvchilar lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha lizinga berilgan mulkdan mulk solig'i to'lashdan ozod etilgan. Lizing beruvchilar esa lizinga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasini jami daromadidan chegirib tashlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Republikasining iqtisodiy o'sish sur'atlari darajasini ko'tarish uchun - Tijorat banklarning lizing kompaniyalari bilan samarali bitimlar tuzish lozim. Chunki, mana shu operatsiyalar orqali ham sanoatni, ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin. Sanoat va ishlab chiqarishi yuqori bo'lsa, demakki, eksport salohiyatimiz ham yaxshi bo'lishi mumkin. Agar mamlakatimiz eksportdan ko'plab valyutaviy tushumlar olsa, demakki savdo balansimiz ijobiy bo'ladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Lizing so’zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Operativ lizing deganda nimani tushunasiz?
3. Moliyaviy lizing nima?
4. Qaytariladigan lizing deganda nimani tushunasiz?
5. Lizing ob’ektiga amortizatsiya qanday hisoblanadi?
6. Lizing to’lovlari tarkibiga nimalar kiradi?
7. Tijorat banklari lizing operatsiyalarining qanday me’yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
8. Tijorat banklari lizing operatsiyalariga nisbatan Markaziy bank tomonidan o’rnatilgan qanday cheklovlar mavjud?
9. Tijorat banklarining lizing operatsiyalari bilan bog’liq bo’lgan qanday risklar mavjud?

17-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING YANGI XIZMAT TURLARI

Reja

17.1 Tijorat banklardagi turli operatsiyalar klassifikatsiyasi va tarkibi
17.2 Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari
17.3 Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati
17.4 Internet banking xizmatlari.

Tayanch iboralar

"Bank-Mijoz" tizimi, Internet-banking, magnitli kartalar, mol etkazib beruvchi, Mobayl banking, "of-line" rejimi, "on-line" rejimi, plastik karta, regress huquqisiz, smart kartlar, supersmart-kartlar, tratta, xotira kartalari, xalqaro savdo, xalqaro moliya bozorlari, forfeyting, forfeytor, SMS-banking.

17.1 Tijorat banklardagi turli operatsiyalar klassifikatsiyasi va tarkibi

Barcha tijorat banklarining bajaradigan operatsiyalari deyarli bir hildir. Ammo banklarning bugungi kundagi ko'rsatayotgan xizmatlariga e'tibor beradigan bulsak, ularning soni yanada oshganini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklari xizmatlarining iqtisodiy mazmuniga va ko'zlangan maqsadiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum darajada bankning likvidliligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar. Ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud bo'lib, u bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligini ta'minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba'zi birlari bankka daromad keltirsada, ular mavjudligining sababi bank umumiy likvidligini ma'lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarga 250-350 dan ortiq bank xizmat turlari taklif etilgan. Tijorat banklari yangi turdagi bank xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali korxona tashkilotlarga qulayliklar yaratmokda. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- lizing xizmatlari;
- faktoring xizmatlari;
- investitsiya operatsiyalari;
- moliyaviy brokerlik xizmatlari;
- trast xizmatlari;
- iqtisodiy va moliyaviy axborotlar va maslahatlar berish va boshqalar.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intelektual va professional bank faoliyatidir.

Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir.

Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui[96].

Bank xizmatlari bozori – mijozlar talabini qondirishga qaratilgan bank xizmati talabi va taklifining shakllanish sohasi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan shu narsani sezish mumkinki, bank xizmatlari va operatsiyalari o'rtasidagi farq asosan uning foyda olish va o'z mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Tijorat xizmatlarining namunaviy portfeli vakillik munosabatlar, risklarni boshqarish, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatish sohalarida vakil banklar hisobidagi

[96] Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 352 стр.

mablag’lar qoldig’i tufayli universal banklarni bank xizmatlari bozorida yuqori mavqeni egallashlariga va daromadini oshirishga imkon berishi aniqlandi.


1-jadval

Zamonaviy adabiyotlarda «Operatsiya» va «Xizmat» tushunchalarining farqlanishi[97]

Xizmat	**Operatsiya**
Boshqaga foyda keltiradigan harakat. Nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar. Moddiy tabiatni o’zgarishi bilan bevosita bog’liq bo’lmagan mehnatning barcha turlari. Bu narsalar iste’moliga xizmat ko’rsatish vositasida aholining har hil individual talablarini qondirishga qaratilgan mehnat turlari. Yangidan mavjud bo’lmagan mahsulot yaratilmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o’zgaradigan jarayonni amalga oshiruvchi ishlar, faoliyat turlari. Bu ashyolar ko’rinishida emas, balki faoliyat xizmatlar ko’rinishida taklif etiluvchi ne’matdir.	O’zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat. Bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui. Mijozlar hisobidan va topshirig’iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalar. Pul mablag’larini jalb qilish va joylashtirish operatsiyalari. Bir iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o’zaro bog’liq bo’lgan bank faoliyati. Ko’zlangan maqsadni amalga oshirish bilan bog’liq harakat.

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki bank xizmatlari bank operatsiyalaridan o’zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat qilishi, bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui, mijozlar hisobidan va ularning topshirig’iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalari, pul mablag’larini jalb qilish va joylashtirish operatsiyalari hamda bir iqtisodiy masalani echishga qaratilgan o’zaro bog’liq bo’lgan bank faoliyati deb ataladigan faoliyatlari bilan farqlanadi.

Xo’sh bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish funktsiyalari qaysilar?



1 rasm. Bank xizmatlarini boshqarish funktsiyalari.[98]

Bank xizmatlarini boshqarish funktsiyalari iqtisodiy adabiyotlarda bir nechta deb ko’rsatiladi. Ularning asosiylari quyidagilar[99]:

[97] Lending / Chartered Institute of Bankers. - London: BPP Publishing, 2003. ISBN 0-7517-1015-6

[98] Muallif tomonidan tuzilgan.

[99] Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. –М.: «Консалтбанкир» 2003.

-bozorni umumlashgan holda o'rganish va istikbolini belgilash, hamda unga bo'lgan talabni, bankga tashqi muhitning ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

-bankning ishlab chiqarish (iqtisodiy kredit) potentsialini, barcha qobiliyatini real baholash;

-uzoq muddatli xizmatlarini (aktiv va passivlarini) boshqarish strategiyasini bozor talablarini hamda o'z potentsialini hisobga olgan holda rejalashtirish;

-talab asosida yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni sotish;

-bankning aktiv va passivlarini boshqarish faoliyatini tashkil qilish va uning ustidan doimiy nazorat o'rnatishdir

Banklar aktiv va passivlarini boshqarishning koidalarini o'zlashtirdi va intensiv ravishda o'z faoliyatlarini strategik rejalashtira boshladilar. Xozirgi kunning holati bankning muammolariga e'tibor kuchaytirish bilan xarakterlanadi. Buning asosida jahon iqtisodiyotiga xos bo'lgan ikki tendentsiya mavjud:

1. Bank muassalaring internatsionallashuvi.
2. Moliya bozorlarining boshqarmaslik (deregulirovanie)

Bank bozor segmentatsiyasini ikki tamoyilga ko'ra amalga oshirish mumkin.

- Bank mahsulotlari bo'yicha (kredit operatsiyalari, investitsiya, trast operatsiyalari bozorlari)
- Mijozlar bo'yicha (kuchmas mulk egalari, korporatsiya bozori, davlat xukumati bozori)

Bozorlarni alohida segmentlash bo'yicha bo'lishni mohiyati shuki, bozorning barcha kuchini sochib yuborish emas, balki alohida segmentlarga mo'ljal olishdir. Bozor senmenti alohida olingan gruppaning bir hil turdagi operatsiyalarga bo'lgan talabi va uni to'lashga tayyorgarligini bildiradi. Banklar bozorlarni sengmentlashi quyidagilarga asoslanadi:

- Bozor segmenti alalohida aniq tasvirlanishi shart
- Olingan barcha ma'lumotlar taxlil uchun etarli bo'lishi shart
- Olingan segmentlar bankka foyda keltirishi shart
- Tanlab olingan segmenlarda reklama qilish imkoniyati bo'lishi kerak v. b.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'prok ta'sir ko'rsatayotir. Bular Birinchidan, bu uzgarishlar tulovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab kiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini koplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning ko'shilib ketishiga olib keladi, Bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. Uzbekistonning bank tizimi unga kam kuvvatli talay banklar kirganligi sababli, yakin vakt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu xodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli hildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning kulayligi, mijozlarning extiyojlariga dikkat e'tibor karatilishiga nisbatan banklarga tobora kattik talablar kuya boshlaydi. Bank tizimi xozir xal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. Qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya institutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu quyilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi.

17.2. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan an'anaviy va noan'aviy xizmat turlari

O’zbekistonda bozor iqtisodiyotini chukurlashtirishga karatilgan tadbirlar natijasida ko’p mulkchilik qaror topib, tijorat banklari o’rtasida erkin raqobat muhiti shakllanmokda. Bunday sharoitda bank xodimlari oldida turgan eng muhim vazifa, bankning uzoq muddatli kelajak istikbolini ta’minlashdan iboratdir. Buning uchun istiqbolni oldindan ko’ra bilish, kutiladigan o’zgarishlar va tashqi ta’sirlarni o’z vaqtida sezish talab etiladi.

Bank axborot tizimlarining barchasini fayl-server yoki mijoz-server texnologiyasi asosida ishlab chikilgan ikkita katta guruxga bo’lish mumkin. Mijoz-server texnologiyasi aslida andozaga aylanib kolgan. U axborot ishlash tezligining yuqoriligi, bu tezlik foydalanuvchilar soniga va ishlanadigan ma’lumotlar hajmiga uncha bog’lik emasligi; axborotni himoyalash imkoniyatlari rivojlanganligi, ma’lumotlarni tanlab olish va taxlil qilish jixatidan moslashuvchanligi kabi afzalliklariga ega. Lekin shuni ham ta’kidlash kerakki, bunday texnologiyadan foydalanish kredit tashkilotining apparat-texnika jixatidan ta’minlanishiga, avvalo, ma’lumotlarni ishlashda ko’llanadigan server va tarmokli uskunalarga bog’lik. Mijoz-server tizimi afzalliklari bir vaktning o’zida ishlaydigan ko’p sonli foydalanuvchilarning katta hajmli axborot bilan ishlay olishida namoyon bo’ladi.

Bank axborot texnologiyalari dasturiy ta’minotdan tashkari, bank operatsiyalarining axborot va apparat-texnika ta’minotiga oid vazifalarni ham hal qiladi. Shuningdek, axborot tizimini himoya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni sanab o’tish mumkin:

- ❖elektron imzoning ko’llanilishi;
- ❖virusga karshi bazalarning muntazam ravishda o’zgartirib turish;
- ❖serverlar resurslarini rejalashtirish va tarmokdagi kompyuterlar talablarini kuzatib borish;
- ❖ayrim dasturiy mahsulotlarning muhofazasini ta’minlash;
- ❖axborotlarning majburiy tartibda shifrlanishi;
- ❖ma’lumotlarni etkazish bo’yicha maxsus ajratilgan kanallardan foydalanish.

Mutaxassislarning fikricha, yuqoridagi usullardan tashkari, bankning likvid mablag’larga extiyoji va uni kondirishini baholashning asosiy usuli mavjud. U fond bozoridagi qoida va uni bajarish intizomiga asoslanadi. Ushbu usul bank raxbariyatini:

a) axoli ishonchi;

b) depozit sertifikatlari va boshqa karzlar bo’yicha xatarlar uchun mukofotlar;

v) aktivlarning zarar bilan sotilishi;

g) mijozlarning kreditga bo’lgan talablarining kondirilishi singari bozor talablariga alohida e’tibor karatishga chorlaydi.

Bugungi kunda bank faoliyatida marketing kontseptsiyalaridan foydalanish kontseptsiyalardan har biri moliya va bank xizmatlari sohasida u yoki bu darajada qo’llanilmoqda. Ularni kelajakda yanada takomillashtirish uchun marketing funktsiyalaridan kengroq foydalanish zarur. Bank marketingining asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

- ➢ bank xizmatlari bozori va unga talablarni kompleks o’rganish va bo’lg’usi rivojini bashorat qilish;
- ➢ banklarning ishlab chiqarish-sotish, eksport va boshqa imkoniyatlarini real baholash;
- ➢ uzoq muddatli marketing strategiyasini, uning maqsadi, vazifalarini, amaliyotga joriy etish yo’llarini ko’rsatgan holda ishlab chiqish;
- ➢ bozor talabi va bank potentsiali asosida tovar siyosatini rejalashtirish;
- ➢ talabni shakllantirish va sotishni rag’batlantirish;
- ➢ sotishni rejalashtirish va tashkil etish.

Yuqorida qayd etilgan marketing funktsiyalarni bank amaliyotiga to’liq joriy etish ular xo’jalik faoliyatini yaxshilash uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, bank marketologlari moliya xizmatlari bozorida va iqtisodiyotda ro’y berishi mumkin bo’lgan inqiroz holatlarni bartaraf etishlari uchun marketing faoliyatini boshqarishning hozirgi zamon usullarini bilishlari talab etiladi.

Bundan tashqari tijorat banklari fakatgina daromad va xarajat orasidagi nisbatni faoliyat rivojlanishining asosi sifatida belgilamasdan, balki umumiy faoliyatning ko’rsatkichlarini ham ko’rib chikishlari lozim.

Bu jarayon bank operatsiyalarini yaratish va rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Bank operatsiyalari bozorini rivojlantirish va uning faoliyati samaradorligini oshirish segmentlash ishlarini o'tkazish va maqsadli bozorlarni aniqlashni talab etadi.

Tijorat banklari faoliyatidagi asosiy mezon mijozlar ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'lib kelmoqda. Bank faoliyati odatda muntazam takrorlanib turadigan operatsiyalarga asoslanadi. Shuning uchun bankning maqsadi – mijozlar doirasini saqlab qolish va kengaytirish, uni uzoq vaqt mobaynida korxona va tashkilotlarga aylantirishdan iborat. Bank real ehtiyojlarni qondirishga intilishi, mijozga u juda ham muhtoj bo'lgan operatsiyalarni taqdim etishga o'rganishi lozim.

O'zbekiston tijorat banklarining marketing strategiyasi O'zbekiston Respublikasida hozirda mavjud bo'lgan tijorat banklari tarmog'lari faoliyatini takomillashtirishni talab etadi. Mamlakat bank tizimida asta-sekinlik bilan isloh qilish strategiyasi taklif etiladi. Chunki bank faoliyatidagi siljishlar iqtisodiyotdagi butun o'zgarishlar bilan bir vaqtda ro'y berishi mumkin.

Bundan tashqari, tijorat banklari mustaqilligini oshirish orqali banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hamda ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqan holda faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

* hududlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar doirasida yangi ish o'rinlarini yaratish, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish;

* bank tizimi barqarorligi va banklarning investitsiya faolligini oshirish uchun ishonchli resurs bazasini ta'minlash maqsadida aholi va yuridik shaxslarning mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni yanada kengaytirish;

* eng muhimi, qishloq joylaridagi aholiga bank xizmatlaridan foydalanishda qulayliklar yaratish, bank infratuzilmalari va ko'rsatilayotgan zamonaviy xizmatlar turini kengaytirish bank tizimining ustuvor vazifalari bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, bank biznesi muhim yo'nalishlarini tanlash mavjud va bo'lg'usi bank mahsulotlari va xizmatlarini, bank raqobat borasida afzalliklarga ega bo'ladigan potentsial bozorlar va mintaqalarni hamda filiallar tarmog'i kengaytirilishi yoki isloh qilinishi yordamida biznesni rivojlantirish asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mavjud imkoniyatlardan kerakli darajada foydalanish uchun strategik maqsadlarni qanday amalga oshirish kerakligini belgilash va bank boshqaruvining barcha darajalarida keyingi xarakatlarni ishlab chiqish va yondashuvlar tizimini shakllantirishga imkon yaratadi.

17.3 Plastik kartochkalar va ularni qo'llash zaruriyati

Plastik kartalar deganda turli xil maqsadlarga mo'ljalangan kartalarning yig'indisi tushuniladi.

Plastik kartalar vositasida aholi savdo shoxobchalaridan iste'mol tovarlari xarid qilishi, kommunal to'lovlarni to'lashi mumkin. Plastik karta yo'l chiptasi yoki kompyuterga kirish imkonini beruvchi vosita vazifasini o'tashi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, plastik kartalar turli maqsadlarga mo'ljallangan instrument hisoblanadi.

Plastik karta pul muomalasi sohasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Hozirgi davrda dunyoning barcha mamlakatlarida plastik kartalardan foydalanilmoqda.

Plastik kartalarning bir nechta turlari mavjud.

Plastik kartalar hisob-kitoblar uchun mo'ljallanishiga qarab shaxsiy va korporativ kartalarga bo'linadi.

Tijorat banklari shaxsiy kartalarni jismoniy shaxslarga, ular tomonidan joriy hisobraqam ochilgandan keyin beradi. Shuningdek, shaxsiy plastik kartalar to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan jismoniy shaxslarga ham beriladi.

Korporativ plastik kartalar yuridik shaxslarga, ularning kafolati va ta'minoti asosida, beriladi.

Plastik kartalarning ishlash rejimiga ko'ra 2 turi mavjud:

1. Of-line rejimidagi kartalar.

2. On-line rejimidagi kartalar.

Of-line rejimidagi kartalarga pul o'tkazilgandan so'ng undan foydalanish uchun kartani yuklab olish kerak bo'ladi. Bu plastik kartalar dastlab paydo bo'lgan kartalar bo'lib, hozirgi davrda kamdan-kam mamlakatlarda foydalaniladi.

On-line rejimidagi kartalar zamonaviy plastik kartalar bo'lib, ularni yuklab olish shart emas. Ushbu plastik kartalar orqali to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshiriladi.

Plastik kartalarning qo'llash mexanizmiga ko'ra 2 turi mavjud:

1. Debetli kartalar.

2. Kreditli kartalar.

Debetli kartalar naqd pullar, pullik cheklarga muqobil bo'lgan to'lov vositasi hisoblanadi. Ular karta egasining bankdagi joriy hisob-raqamidagi pul mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri echib olish yo'li bilan tovarlar va xizmatlar haqini to'lashda qo'llaniladi.

Debetli kartalarda tijorat banklarining kreditlari hisobidan to'lovlarni amalga oshirish imkoni mavjud emas, balki to'lovlar joriy hisobraqamdagi pul mablag'lari miqdorida amalga oshiriladi. Faqat bitta holatda karta egasi tijorat bankining kreditidan foydalanishi mumkin, qachonki unga bank tomonidan overdraft kreditidan foydalanish uchun limit ajratilgan bo'lsa.

Kreditli kartalarda karta egasiga tijorat banki tomonidan ssuda hisobqarami ochiladi va uning kredit to'loviga layoqatliligidan kelib chiqqan holda kreditlash limiti o'rnatiladi.

Plastik kartalarning funktsional belgilariga ko'ra quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

* magnitli kartalar;
* xotira kartalari;
* smart kartlar;
* supersmart-kartlar;

Magnitli kartalarning teskari tomonida magnitli yo'lakcha bo'lib, unda 100 baytgacha ma'lumot saqlanishi mumkin.

Xotira kartalari oddiy elektron kartalar bo'lib, ularda faqat xotira mavjud. Ushbu kartalarning xotirasi magnitli kartalarning xotirasidan bir necha marta katta.

Xotira kartasining xotirasidagi ma'lumotlarni olish va unga ma'lumotlarni kiritish terminal orqali amalga oshiriladi.

Smart kartlarda mikrosxema mavjud bo'lib, u mikrokompyuter kabi hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Smart kartalarni ishlab chiqaruvchi asosiy kompaniyalar bo'lib. quyidagilar hisoblanadi:

* Gemplus (Frantsiya);
* AT&T (AQSh);
* Bill CPS (Frantsiya);
*Toshiba (Yaponiya);
* Philips TRT (Germaniya).

Supersmart kartlar ko'p maqsadli kartalar bo'lib, Yaponiyaning Toshiba kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladi va VISA tizimida qo'llaniladi.

Supersmart-kartlarning afzalliklari:

* o'zida ham debetli kartni, ham kreditli kartni birlashtiradi;
* oddiy smart kartdan farqli ravishda qo'shimcha ma'lumotni kiritish qurilmalari mavjud;
* bir vaqtning o'zida soat, kalendar, kalkulyator, yozuv daftarchasi vazifasini bajaradi.

Magnitli plastik kartalardan naqd pul echib olish bankomatlar orqali amalga oshiriladi.

Bankomatlar ko'p funktsiyali qurilma hisoblanadi.

Bankomatlarning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

* banklarga kassa xodimlari sonini kamaytirish imkonini beradi;
* mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi;
* banklarning kassa xizmatini mijozga yaqinlashtiradi;
* shanba va yakshanba kunlari ham naqd pul olish imkonini beradi;

* mijozlarga omonat operatsiyalarini amalga oshirish imkonin beradi.

O'zbekistonda birinchi marta 1995 yilda milliy valyutada kredit va debetli plastik kartalar muomalaag chiqarildi. Ammo plastik kartalar muomalasining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrda qabul qilingan 445-sonli "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor vazifalari to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi plastik kartalar muomalasini yanada rivojlantirish imkonini berdi.

Prezidentning ushbu qarorida har yili kamida 500 ming dona plastik kartani respublikaning o'zida ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Agar 2004 yilda plastik kartalar orqali 0,1 mlrd. so'm miqdorida operatsiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2014 yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich 22,8 trln. so'mni tashkil etdi.

17.4 Internet banking xizmatlari.

Masofaviy bank xizmatlarining quyidagi turlari mavjud:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi. "Internet banking bugungi kunda biznesni yuritish va rivojlantirishda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan eng qulay va afzal xizmat turaridan biri hisoblanadi",-deb xorijlik iqtisodchi olimlar ham bunday zamonaviy xizmat turi haqida ta'riflab o'tganlar.[100]

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Albatta, SMS-banking xizmati hajmini oshirish uyali aloqa vositalaridan foydalanuvchilar soniga va ularning banklarga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

[100] The Risks and Advantages of Online Banking" by George N., "Small Business"

Mobayl banking. Zamonaviy talablarga hozirda mavjud texnologiyalardan qaysi biri javob berishi mumkin va mobil banking modellarining qaysi biri afzal, degan savol tug'iladi. Ko'pchilik ekspertlar WAP-banking modelini mijozlar uchun afzalligini e'tirof etishadi.

WAP-banking bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ayniqsa, WAP profili orqali ishlashda xarajatlarning minimal ekanligi va mijozning o'zi tanlash huquqining mavjudligi muhim afzalliklardan hisoblanadi.

Respublikamizda WAP-banking xizmatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar, shu jumladan, texnik-tashkiliy, molyaiviy imkoniyatlar mavjud. Buning ustiga, tijorat banklarida mobayl banking xizmati ko'rsatish borasida ma'lum tajriba to'plangan.

O'zbekiston to'lov tizimini rivojlantirishning so'nggi bosqichida, ayniqsa, bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi jadal rivojlandi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklari uchun internet banking tizimi ancha qimmatga tushadi.

Tijorat banklari uchun internet saytlarni ochish xarajatlari korporativ klientlar uchun ochiladigan korporativ saytlarni ochish xarajatlaridan farq qilmaydi. Buning uchun web-studiya 7 mln. so'mdan 15 mln. so'mgacha oladi[101]. Ammo bu xarajatlar faqat saytning dizayni va dasturiy qismi uchun qilinadigan xarajatdir.

Tijorat banklari uchun internet-loyihaning eng qimmat qismi – bu internet banking xizmati bo'yicha dasturiy ta'minot va uni avtomatlashtirilgan bank tizimiga ulash xarajatlaridir.

To'g'ri, yirik tijorat banki internet banking loyihasini tashqaridan firmalarni jalb qilmasdan turib, mustaqil joriy etish imkoniyatiga ega. Ammo bunday banklar uchun ham internet banking qimmatga tushadi. Chunki, ular yuqori malakali dasturchilarga ega bo'lishi va axborotlashtirish bo'linmasini saqlab turishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, bank mijozlarini elektron raqamli imzo bilan ta'minlash imkonini beradigan himoya vositalarini sotib olishga, dasturiy ta'minotni kuzatish xarajatlariga katta miqdorda pul sarflaydilar.

Masofaviy bank xizmatlari internetning tezligini yuqori darajada bo'lishini talab etadi. Bundan tashqari, tijorat banklari uchun yangi dasturiy ta'minotlarni sotib olish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bularning barchasi tijorat banklari uchun ma'lum darajadagi xarajatlar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Plastik karta nima va uning qanday turlari mavjud?
2. O'zbekistonda plastik kartalar muomalasi qachon joriy etilgan va uning qanday me'yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
3. Debetli plastik kartalar bilan kreditli kartalar o'rtasida qanday farqli jihatlar mavjud?
4. "Bank-Mijoz" tizimi nima va u orqali operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
5. Internet-banking nima va u orqali to'lovlar qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. SMS-banking nima va u qaysi amallarni amalga oshirish imkonini beradi?
6. Mobayl banking qanday xizmat turi hisoblanadi?
7. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish qanday amalga oshiriladi?

[101] Respublikamiz banklaridan internet-loyiha uchun olinadigan summalar.

18-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING BALANSDAN TASHQARI OPERATSIYALARI

Reja

18.1 Tijorat banklardagi turli operatsiyalar klassifikatsiyasi va tarkibi

18.2 Trast operatsiyasi bo'yicha tashkilotlarning o'zaro majburiyatlari.

18.3 Trast asosida amalga oshirilayotgan xizmat va operatsiyalarni amalga oshirish tartibi.

18.4 Respublikada lizing operatsiyalarni rivojlanish yullari.

18.5 Tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmat turlari (Marketing, huquqiy vositachilik va boshqalar).

Tayanch iboralar

Trast, ishonch, vositachilik, saqlash operatsiyasi, olib-sotarlik operatsiyalari, daromad, risk diversifikatsiyasi, komissiya operatsiyalari, mukofot, foiz, ulush.

18.1. Tijorat banklardagi turli operatsiyalar klassifikatsiyasi va tarkibi

Tijorat bankining balansdan tashqari operatsiyalari deganda pul mablag'larining harakati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo kelgusida bank uchun ma'lum bir talab va majburiyatlarni yuzaga keltiradigan operatsiyalar tushuniladi.

Mamlakatimizda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga asosan banklar moliyaviy universal sifatida namoyon bo'ladilar. Ushbu qonun va boshqa normativ xujjatlariga asoan banklar o'z daromadlari va risklari differentsiyalash ishlarini olib boradilar. Yana shu bilan birga bosh o'z kapitalini ko'paytirish yo'llarini izlamokdalar. Bulardan asosiysi bankda turli xizmatlarni ko'rsatishdir. Bankning turli xizmatlarini ko'rsatishi uning xajmiga bevosita bogliqdir. Chunki bank qanchalik katta bo'lsa u shuncha ko'p operatsiyani amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ammo bank qanchalik ko'p xizmat to'rini amalga oshirsa, unda bu xizmatlarni boshqara olmaslik riski, xarajatlarni samarali nazorat qilish riski hamda bank xizmatlarini qiymatini oshishiga olib keladi.

Ammo banklar o'z likvidligini hamda daromadni diverfikatsiya qilishga majbur. Shuning uchun banklar asosiy xizmatdan boshqa xizmatlarni amalga oshiradi.

Trast operatsiyalari banklarga quyidagi imtiyozlarni beradi.

Operatsiya o'tkazish jarayonida Tijorat banlari uzoq muddatli moliyaviy mablag'larga yo'l ochiladi va ularni birjada Qimmatli qog'ozlarga quyish mumkin.

Tijorat operatsiyalari tijorat banklari tomonidan mijozlarning ishonchi asosida olib boriladi va qonun bilan cheklanmaydi.

Tijorat banklari va boshqa banklarning operatsiyalari o'tkazish jarayonida mukofot oladi va o'z foydasi manbasinidiversifikatsiya qiladi hamda o'zini tusatdan moliyaviy xrisklardan ximoya qiladi.

Bank trast operatsiyalarida o'zining mablag'lari bilan emas balki, umuman begona kapital bilan ishtirok etadi. Asosiy risk qimmatbaho qogozga quyilma qo'ygan shaxsga to'shadi Bank faqat javobgar hisoblanadi.

Ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning balansdan tashqari operatsiyalaridir. Chunki bu operatsiyalar bank tsavi balansidan tashqarida hisobi yuritiladi. Ammo ulardan to'shadigan daromad umumiy balans daromadiga kushib hisoblanadi.

Ko'pchilik rivojlangan davlatlar tijorat banklari yaqin yillarda komission daromad olishga qaratilgan balansdan tashqari faoliyatni sezilarli darajada kengaytirdilar. Mazkur faoliyat kengayishi an'anaviy kreditlash sohasidagi qisqarishlar bilan bog'liq.

1980 yillardan rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida banklarning balansdan tashqari operatsiyalari keng rivojlandi. Ushbu operatsiyalar bankning balans hisobvaraqlarida aks ettirilmaydi, ammo yuqori foyda keltiradi. Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar foydalanmay o'zining imidjini, nomini sotish yo'li bilan mijozlarga kafolat berishi va ular faoliyatidagi risklarni sug'urtalashni amalga oshiradi.

Tijorat banklari balansdan tashqari operatsiyalari kelib chiqishining asosiy sabablari quyidagilar:

1. Banklararo raqobat sharoitida bank daromadlarining qisqarish tendentsiyasi kuzatilganligi.

2. Tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi (qishloq xo'jaligi va energetika sohasida);

3. Nazorat organlari tomonidan tijorat banklari kapitali etarliligiga qo'yiladigan talablarning oshirilishi.

Balansdan tashqari operatsiyalarni amalga oshirish qanday afzalliklarga ega:

* tijorat banklarining qo'shimcha foizsiz daromadlarining keng o'sishini ta'minlaydi;

* riskli aktivlarning bir qismini balansdan tashqariga chiqarish yo'li bilan bank moliyaviy holatining umumiy kartinasini yaxshilaydi;

* moliyaviy resurslarni joylashtirmay daromad olishi imkoniga ega bo'ladi.

18.2 Trast operatsiyasi bo'yicha tashkilotlarning o'zaro majburiyatlari.

Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalarini 2 yirik guruhga bo'lishimiz mumkin:

1.Shartnomaviy majburiyatlar bo'yicha operatsiyalar;

2. Qo'shimcha ma'lumot (informatsion xisobvaraqlar) beruvchi operatsiyalar.Yuqorida ko'rsatkichlarni bankning boshqa operatsiyalari jumlasiga kiritadi va ularni majburiyat (shartnoma) turiga ko'ra quyidagicha bo'lishi mumkin(1-jadval):

1-jadval

Bankning boshqa operatsiyalari

Tijorat bankining boshqa operatsiyalari	Majburiyat turi (shartnoma)
1. Uchinchi shaxslar tomonidan (pul) majburiyatlarining bajarilishini nazarda tutuvchi kafolotlar berish ko'zda to'tish	Kafolat shartnomasi
2. Uchinchi shaxslardan pul majburiyatlarining talab qilish huquqini olish	Talab qilish huquqini olish shartnomasi
3. Jismoniy va yuridik shaxslar pul mablag'lari va boshqa mulklarni shartnomaga binosi shu binoni boshqarish	Mulk va mablag'ni ishonchli boshqarish shartnomasi
4. qimmatbaho metallar va boshqa qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar o'tkazish.	Sotish-sotib olish, saqlash, mukofot (komissiya) bo'yicha shartnoma
5. Turli boyliklarni soklash uchun qo'lay	Ijara, saqlash, mukofot (komissiya) shartnomasi
6. Lizing operatsiyalari	Moliyaviy ijara shartnomasi
7. Maslaxat, axborot xizmatlari	Pudrat shartnomasi
8. Kushma (birlikdagi) faoliyat	Birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma

Shartnomaviy majburiyat operatsiyalari – mijozning iltimosiga (talabiga) ko'ra ma'lum xizmatni kelajakda bajarilishini bankning o'z zimmasiga olishidir.

Ushbu operatsiyada bank va mijoz o'rtasidagi shartnomaga muvofiq, belgilangan muddatlarda resurslar ajratish yoki to'lovlarning o'z muddatida amalga oshirilishi ta'minlanadi. Bu holatda mijozdan komission haq olish evaziga bank o'ziga majburiyatlarni oladi va mijozni riskdan sug'urtalaydi.

Shartnomaviy majburiyatlarga nimalar qanday operatsiyalar kiradi?

1. Savdo bitimlari bo'yicha majburiyatlar;

2. Bank kafolatlari.

Savdo bitimlari bo'yicha majburiyalar odatda, banklar tomonidan qo'llaniladigan tijorat akkreditivi bilan bog'liq. Bunda akkreditiv ochgan bank uchinchi tomonga to'lovlarning

to’lanishini kafolatlaydi. Shuningdek, mazkur operatsiyada trattalar aktseptlanishi orqali ham to’lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu operatsiyalarning barchasi banklarning balansdan tashqari operatsiyalari jumlasiga kiradi. Ishonchli mulk (egasi) (trast)- ishonchli trast ta’sischisi, - ishonchli mulkdor (shaxs)- va benefislar (manfaatdor ist’emolchi).

Uchinchi shaxs bo’lib - benefislar va mulk egasi (trast ta’sischisi) bo’lishi mumkin.

18.3 Trast asosida amalga oshirilayotgan xizmat va operatsiyalarni amalga oshirish tartibi.

Trast operatsiyalarini boshqarish quyidagi alohida va birga (aktiv) operatsiyalarini o’z ichiga olishi mumkin:

Saqlash;

Ishonch bildiruvchi shaxs vakolatini bildirish (majlislarda qatnashish);

Daromad va investitsiyalarni boshqarish;

Aktivlarni sotish va sotib olish;

Zaymlarni jalb qilish va qoplash, Qimmatli qog’ozlar birlamchi chiqarish va joylashtirish;

Yuridik shaxsni tashkil qilish, qayta tashkil qilish va likvidatsiya qilish;

Mulkni foydalanishga berish (sovga, vorisga).

Mijozning shaxsiy bank raqamini yuritish, kassa, moliya ho’jaligi, majburiyatlar bo’yicha hisob kitoblarni amalga oshirish;

Korxonadagi tasodifiy xolatlar, bashoratlar payitida korxonani vaqtinchalik boshqarish;

Umuman:

- ❖ xususiy shaxslarga xizmat.
- ❖ Tijorat korxonalariga xizmat.
- ❖ Notijorat tashkilotlariga xizmat.
- ❖ Majburiyatlar (uzoq muddatli)
- ❖ Aktsiya
- ❖ ko’zgalmas mulk
- ❖ Chet el aktsiyalari
- ❖ Sotib olish sharti bilan aktivlar sotish
- ❖ Venchur kapitali
- ❖ Optsion
- ❖ Fyucherslar.

Banklarning balansdan tashqari bajaradigan funktsiyalari ikkiga bo’linadi.

To’g’ri funktsiyalari - mulk javobgarligini oladi, hisoblash, xujjatlashtirishni bajaradi.

Diskresiya - o’zining xoxishiga ko’ra investitsion qarorlarni amalga oshirish mumkin.

Daromadlari to’g’ri gonorar va mukofot xizmatlar uchun

sum - trast aktivlari summasiga xajmidan kat’iy belgilangan yoki o’zgaruvchan foiz asosida mukofot olish.

Trast operatsiyalarini o’zaro karama-karshi zachet asosida olib borish, mijozning hisob varagidan majburiy ravishda pulni undirish mumkin emas.

Qimmatbaho metallar bilan operatsiyalar:

- qimmatbaho metallar sotib olish va sotish bilan bog’liq operatsiyalar;
- qimmatbaho metallarni jamg’armaga jalb qilish operatsiyalari;
- qimmatbaho metallar va toshlarni saqlash va transportirovka qilish;
- qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga kredit berish yoki ularni garavga asosida kredit berish.
- eksport operatsiyalari.

Overnayt-uik end paytida mablag’larni quyish.

Metall miqdori x baho x foiz stavkasi (%-yil)kun

360x100

Qimmatli qog’ozlar bilan bog’liq risklar:

Baho riski, Qimmatli qog’ozlar toshlar va metallarning bahosini o’zgarishi.

Likvidligining riski. Muddati va xajmini muvozanatini to’g’ri olib borilmasligini yoki to’g’ri kelmasligini natijasida risk paydo bo’ladi.

Huquqiy risk. Bank faoliyatiga bog’liq bo’lgan normativ xujjatlarni qabul qilishi natijasida oladigan zarar.

18.4 Respublikada lizing operatsiyalarni rivojlanish yullari.

O’zbekiston Respublikasida xo’jalik korxonalari sezilarli qismining moliyaviy holatining beqarorligini, investitsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlarining jiddiy tarzda cheklanganligini hisobga olib, ularning faoliyatini lizing asosida moliyalashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Moliyaviy lizing - o’z mohiyatiga ko’ra lizing ob’ektining barcha qiymatini to’lashni taqozo etadi. Bunda lizing asosida egalik qilish hamda foydalanish maqsadida ijaraga berilayotgan mulkning muddati to’liq amortizatsiya muddatiga yaqinlashadi. Lizing shartnomasi amal qilayotgan muddat mobaynida lizing beruvchi tashkilot lizing to’lovlari vositasida mulkning barcha qiymatini o’ziga qaytaribgina qolmay, balki bundan foyda ham oladi. “Bundan tashqari banklar faoliyatida lizing operatsiyalari rivojlanmoqda. Banklarda lizing xizmatlarini joriy etilishi mijozlarga yaratilayotgan qulayliklardan biridir”[102],-deb iqtisodchi olim B. Dilek ham o’z fikrlarini bildirgan. Lizing operatsiyasi yordamida lizing oluvchi sub’ektlar uchun:

- eskirayotgan texnika, uskuna va jihozlarni eng zamonaviylari bilan almashtirish imkoniyatlari tug’iladi;
- bir vaqtning o’zida ham zamonaviy texnologiya sotib olinadi, ham ishlab chiqarish ko’lami kengayadi;
- sotib olinayotgan uskunaning umumiy qiymatini bir paytning o’zida to’lash muammosidan ozod bo’ladi;
- zamonaviy texnologiyani ishlatishdan hosil bo’ladigan foydaning kelishi tezlashadi;
- foyda solig’iga tortiladigan soliq bazasini lizing to’lovlari summasi darajasida kamaytiradi.

Lizing beruvchi uchun esa:

- ko’rsatilayotgan xizmatlar ko’lamini kengaytirish hamda eski mijozlar bilan o’rnatilgan amaliy aloqalarni uzmaslik;
- yangi mijozlarni jalb etish;
- o’z mablag’laridan samarali foydalanish, shuningdek, qo’shimcha daromad olish;
- mijozning to’lovga noqobilligi oqibatida kelib chiqadigan zararlar xavfini kamaytiradi.

Agrar islohotlarda, bizning fikrimizcha, qisqa muddatli, ya’ni operativ lizing juda ham qulay bo’lib, ko’p jihatdan o’z afzalliklari bilan ajralib turadi. Uning afzalliklarini biz quyidagilarda ko’rishimiz mumkin:

Birinchidan, lizing shartnomasi qisqa muddatga tuzilishi va u muddat tugagach, mulkni (uskunalarni) ijaraga beruvchiga qaytarish imkoniyati qisqa vaqt ichida yo’nalishi tufayli moliyaviy qarorlar bo’yicha hisob-kitoblar aniq bo’ladi va istiqbol natijalariga mos tushadi. Bu natijada operativ lizing juda ham qulaydir.

Ikkinchidan, kichik va xususiy tadbirkorlar bozor talabidan kelib chiqib o’z faoliyatini tezkor o’zgarish imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, kerak bo’lgan uskunani qisqa muddatga sotib olishdan ko’ra uni ijaraga olib ishlatish, ijaraga oluvchining fan va texnika yutuqlaridan o’z vaqtida foydalanish imkonini berishi mumkin.

To’rtinchidan, lizing shartnomasi bilan bog’liq bo’lgan risklar nisbatan boshqa risklardan kamroq bo’lishi mumkin.

Beshinchidan, rivojlanib borayotgan va o’zgaruvchan iqtisodiyotda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qiladi.

[102] “Why Do Banks Provide Leasing?” by B.Dilek, “Journal of Financial Services Research” October 2014

Oltinchidan, ma’naviy jihatdan tez eskiruvchan va qadrsizlanuvchi uskunalar bo’yicha qisqa muddatli lizing shartnomalari muddatdan ilgari ma’naviy eskirish risklari, foydalanuvchi o’rniga, ijaraga beruvchi zimmasiga yuklatish imkoniyatini beradi.

Ettinchidan, lizing shartnomasida rad etish imkoniyatini beruvchi muddatli lizing shartnomasi uni rad etish auktsionini to’lashni talab qilgan taqdirda ham, ijaradan voz kechish imkoniyatini beruvchi mazkur shartnoma aslida adolatli bahoga ega bo’ladi.

Sakkizinchidan, to’la xizmat ko’rsatish lizing shartnomasi bo’yicha ijaraga oluvchi uskunalar bo’yicha zarur bo’lgan barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini qo’lga kiritish mumkin.

To’qqizinchidan, lizing kichik kompaniya va xususiy korxonalar uchun nisbatan arzon pul mablag’lari manbalari bo’lib xizmat qildilar.

O’ninchidan, aktsiya yoki obligatsiyalarni muomalaga chiqarish evaziga mablag’ jalb qilishga nisbatan, lizing pats xarajatlar bilan bosqichma-bosqich uzoq muddatli moliyalashtirishni ta’minlaydi.

Shu bilan kompaniya qishloq xo’jalik korxonalarini traktor, kombaynlar bilan ta’minlashga o’z hissasini qo’shmoqda. Lekin bu yo’nalishdagi ta’minot tadbirkorlarning asosiy vositalarga bo’lgan talabini to’liq qondira olmaydi. Shunday ekan, lizing operatsiyalarini amalga oshirilgan tashkilotlarni va ularning ish faoliyatini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ularni ijobiy hal etishda tijorat banklarining ham hissalari bo’lishi zarur. Buning uchun ular mulkchilikning nodavlat shakliga asoslangan maxsus lizing firmalari tashkil etish ishlarini rivojlantirishlari maqsadga muvofiqdir.

Operativ lizing yordamida tadbirkorlar traktorlar, mashinalar, kombaynlar va boshqa texnikalarni ijaraga beruvchi zavodlardan ularning eskirish muddatidan qisqa bo’lgan muddatga, ya’ni bir ishlab chiqarish jarayoniga yoki 2-5 yil muddatga ijara olishlari mumkin. Shu munosabat bo’yicha tomonlar lizing shartnomasini tuzishlari lozim. Shartnoma muddati tugashi bilan ijara haqi to’lovlari ham to’xtatilib, mashina, traktor va kombaynlar ijaraga bergan korxonalarga qaytarilishi, ayrim hollarda esa avvalgi ijara shartnomasi davom ettirilishi yoki ijarachilar ijaraga beruvchilar bilan kelishilgan holda texnika vositalarini belgilangan baholarda sotib olishlari mumkin.

18.5 Tijorat banklari tomonidan ko’rsatiladigan qo’shimcha xizmat turlari (Marketing, huquqiy vositachilik va boshqalar).

Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligiga asosan fyuchers – kimmatli kogoz (shartnoma) bulib, muayyan kimmatli kogozlar va boshka moliyaviy vositalarni yoki tovarlarni shartnomalarda belgilab kuyilgan narxda belgilangan kelgusi sanada xarid kilish yoki sotishdan iborat majburiyatni suzsiz tasdiklaydi.

Fyuchers shartnomasi bo’yicha bazis aktivining emitentning avval muomalaga chikarilgan kimmatli kogozlari va avval muomalaga chikarilgan uchinchi shaxsning kimmatli kogozlari tashkil etishi mumkin. Amaldagi konunchilikka asosan fyuchersning bazis aktivi bulib emitentning uzlik birlamchi muomalaga chikarilgan kimmatli kogozlar tashkil etishiga yul kuyilmaydi.

Fyuchers shartnomasining asosiy xususiyati shundaki unda baxoning anikligi va shartnoma bajarilishining majburiyligidir. Fyuchersga asosan bazis aktividagi kimmatli kogozlar darxol kuldan-kulga berilmaydi, balki kat’iy belgilangan muddatda etkazilishi zarur. Fyuchers shartnomasi yordamida fond kimmatliklarini kelajakda olish yoki etkazib berish majburiyati konun asosida rasmiylashtiriladi.

Fyuchers shartnomasi kuyidagi majburiy rekvizitlarga ega bulishi lozim:

✓“Fyuchers” deb nomlanishi;

✓Davlat organidan ruyxatdan utganligini tasdiqlovchi xujjat va tartib rakami;

✓“Fyuchers” imzolangan sana;

✓“Fyuchers”ning turi (sotib olish yoki sotish uchun);

✓“Fyuchers emitentining” nomlanishi, yuridik manzili va banki rekvizitlari;

✓Emitentning shartnomadagi bazis aktivni sotib olish yoki sotish tugrisidagi rasmiy majburiyati;

✓Fyuchersning amalga oshirilish sanasi;
✓Bazis aktivning xususiyatlari;
✓Fyuchers emitentining imzosi va muxri.

Fyuchers shartnomasidagi shartlar birja auktsionidagi kimmatli kogozlarga talab va taklifni chukur urgangan xolda tuziladi. Fyuchers bitimidagi xisob-kitoblar esa fond birjasidagi xisob-kliring palatasi orkali amalga oshiriladi. Buning uchun xisob-kliring palatasida fyuchers shartnomats ishtirokchilarining (sotuvchi va oluvchi) maxsus xisob rakamlar ochiladi.

Fyuchers shartnomasi shartlarini amalga oshirish mexanizmini kurib chikamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, fyuchers shartnomasida bazis aktivdagi aktsiyalar kursini pasayishi xisobiga manfaat yuzaga keladi. Odatda fyuchers shartnomasida kimmatli kogozlar ta'minlanmagan xolda sotiladi, ya'ni bu kimmatli kogozlar sotuvchining mulki bulmasligi xam mumkin. Fyuchers shartnomasiga asosan sotuvchi brokerdan ma'lum mikdordagi aktsiyalarni sotib oladi. Lekin sotib olingan paket aktsiyasining fakat 60 foizinigina tulaydi, kolgan 40 fozini esa brokerdan joriy narxda karzga oladi. Investor sotib olingan paket aktsiyani tulik sotadi. Fyuchers shartnomasiga asosan investor brokerga belgilangan muddatda kelishilgan kimmatli kogozlarni etkazib berishi lozim. Ushbu xolatda investor bazis aktivdagi aktsiyaning narxini tushishidan manfaatdor, chunki muddat kelganda u karzga olingan aktsiyalarni arzon narxda oladi va brokerga sharnomada eski yukori narxda etkazib beradi. Natijada investor kushimcha daromad olishi mumkin. Lekin olingan aktsiyalarning narxi oshib ketsa, investor aktsiyalarni yukori narxda xarid etib, uni brokerga shartnomadagi eski narxda etkazib berishga majbur. Natijada investor katta zarar kurishi mumkin. Shuning uchun fyuchers shartnomasini tuzuvchi shaxslar fond bozorini, uning xozirgi va kelajakdagi xolatini xamda narx-navo kanday bulishini chukur o'rganishi va uning bilishi lozim buladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Tijorat banklarining balansdan tashqari operatsiyalari mohiyati
2. Tijorat banklari investistion kudratini baholash
3. Banklarning kafolat operatsiyalari va ularni o'tkazish tartibi
4. Trast asosida amalga oshirilaetgan anik bir xizmat va operatsiyalarining amalga oshirish tartibi.
5. Tijorat banklarni komission va omborli operatsiyalari, ularni turkumlashtirish.
6. Tijorat banklar tomonidan kushimcha xizmat turlari (marketing, xukukiy vositachilik va boshkalar, yukoridagilar kategoriyasiga kiruvchi boshka bank operatsiyalari.
7. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan trast operatsiyalarini o'tkazish va ularni oshkarish muammolari
8. Banklarning trast operatsiyalaridagi risklar va ularni boshqarish
9. Tijorat banklarining trast operatsiyalarini ko'paytirish yo'llari
10. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida korporativ bshkaruv xususiyatlari va trast operatsiyalari

19-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI

Reja

19.1 Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari. Bank foydasining asosiy manbalari.

19.2 Tijorat banklari foydasining tarkibiy tuzilishi va ularning foiz turi bo'yicha turkumlash yo'llari.

19.3 Tijorat banklarining foizsiz daromadlari va ularni bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini oshirish yo'llari

19.4 Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni boshqarish.

Tayanch iboralar

Daromad, xarajat, operatsion daromad va operatsion xarajat, foiz daromadi, foiz xarajatlari, mukofot, rentabellik, foyda ko'rsatgichlari, bank biznesi, vositachilik-debet oboroti va kredit qoldig'i.

19.1. Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari. Bank foydasining asosiy manbalari.

Banklar foydani hisoblash maqsadlarida quyidagi tushunchalardan foydalanadilar[103]:

- ✓ buxgalteriya hisobining hisoblab yozish usuli - bu shunday usulki, unda operatsiya va hodisalar sodir bo'lgan paytda (pul mablag'lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan paytda emas) tan olinadi va buxgalteriya yozuvlarida aks ettiriladi, ular shuningdek o'zlari tegishli bo'lgan davrlarning moliyaviy hisobotida ko'rsatiladi;
- ✓ real foiz stavkasi - aktivning boshlang'ich balans qiymati bilan tenglashtirish uchun aktivdan foydalanish muddati mobaynida kutilayotgan kelgusidagi pul tushumlari oqimini diskontlash uchun ishlatiladigan foiz stavkasi;
- ✓ real foiz stavkasi usuli - bu usul diskont yoki mukofotni foizli daromadlar (yoki xarajatlar)ga amortizatsiya qilish yo'li bilan yoki kechiktirilgan foiz to'lovlarini (masalan, har oyda emas, balki har yilda olinadigan yoki to'lanadigan) taqsimlash yo'li bilan aktiv (majburiyat)ning xizmat muddati davomida doimiy foiz stavkasini tan olishga olib keladi;
- ✓ haqqoniy (haqiqiy) qiymat - yaxshi xabardor qilingan, bunday operatsiyani amalga oshirishni xohlovchi, bir-biridan mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda umumiy shart-sharoitlarda aktivni ayirboshlash yoki majburiyatni bajarish mumkin bo'lgan summa;
- ✓ moliyaviy hisobot elementlari - operatsiyalar va boshqa hodisalarning iqtisodiy tavsiflariga muvofiq guruhlash yo'li bilan ularning moliyaviy ta'sirini ko'rsatib berish uchun foydalaniladigan asosiy guruhlar. Aktivlar, majburiyatlar va kapital - bu buxgalteriya balansida moliyaviy holatni baholash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlardir. Daromadlar va xarajatlar - bu foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda faoliyatni baholashga bevosita tegishli bo'lgan elementlardir;
- ✓ daromadlar - bu xususiy kapital muassislarining ulushlari hisobidan ko'payishdan tashqari, kapitalning ko'payishiga olib kelgan davrda bankning odatiy faoliyati davomida iqtisodiy nafning yalpi kelib tushishidir. Daromad bankning odatiy faoliyati davomida yuzaga keladi va har hil atamalar, shu jumladan foizlar, foyda, dividendlar, sotishdan olingan tushum, gonorar, royalti va ijara haqi bilan ataladi;
- ✓ foizli daromad - bu pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun olingan daromad. Shuningdek foizli daromad har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud ssudalarning boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summalari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi;

[103] Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida NIZOM. 2004 y.

✓ foyda - bu bankning odatiy faoliyati jarayonida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo'lgan daromad ko'rinishi. Foyda, masalan, asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foydani o'z ichiga oladi. Foyda ta'rifi realizatsiya qilinmagan foyda, masalan savdo uchun mo'ljallangan (bozor) qimmatli qog'ozlarni qayta baholashda yuzaga keladigan foydani ham o'z ichiga oladi;

✓ xarajatlar - xususiy kapitalni uning muassislari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki tugashi ko'rinishida yoxud majburiyatlarning ko'payishi ko'rinishida hisobot davri ichida iqtisodiy nafning kamayishi;

✓ foizli xarajatlar - bu pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun xarajatlar. Foizli xarajatlar har qanday diskont yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud qarz mablag'larining boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summalari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi;

✓ zararlar - bu bankning odatiy faoliyati davomida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo'lgan xarajatlar ko'rinishi. Zararlar, masalan, yong'in yoki suv toshqini kabi tabiiy ofatlardan ko'rilgan yo'qotishlarni, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko'rilgan zararlarni o'z ichiga oladi. Zararlar ta'rifi realizatsiya qilinmagan zararlar, masalan mijozlarning yoki bank ushbu valyutaga o'zlashtirgan depozitlariga nisbatan valyuta ayriboshlash kursining ko'tarilishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni ham o'z ichiga oladi;

✓ tan olish - element ta'rifiga javob beradigan va tan olish mezonlarini qondiradigan muayyan moddani pul summasi ko'rinishida aks ettirish va balans yoki foyda va zararlar ro'g'risidagi hisobotga kiritish jarayoni;

✓ ehtimol - ehtimol tushunchasi bank tomonidan kelgusidagi iqtisodiy nafni olish yoki sarflashning noaniqlik darajasini ko'rsatib berish uchun tan olish mezonlarida ishlatiladi. Bu tushuncha bank ishlaydigan atrof-muhitni tavsiflaydigan noaniqlikka to'g'ri keladi. Ko'p turdagi qarzlar uchun odatda, to'lamaslik hissasi ehtimoli mavjud hisoblanadi, shuning uchun iqtisodiy foydaning kutilayotgan kamayishini ifodalovchi xarajat (kreditlar bo'yicha zararlarni baholash) tan olinadi;

✓ ishonchli o'lchanganlik - moddani tan olishning ikkinchi me'zoni bo'lib uning ishonchli o'lchanadigan qiymati yoki bahosining mavjud bo'lishi hisoblanadi. Ko'p hollarda qiymat va baho hisob-kitob yo'li bilan aniqlanishi lozim, asoslangan hisob-kitob qiymatlaridan foydalanish moliyaviy hisobotni tuzishning muhim qismi hisoblanadi va uning ishonchliligiga putur etkizmaydi. Biroq, asoslangan hisob-kitob qiymatini olish imkoni bo'lmagan taqdirda, modda bosh kitobda, balans yoki foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinmaydi.

Taxlillarga tayangan holda shuni aytimiz mumkunki "Iqtisodiy inqiroz vaqtida Amerika tijorat banklarining yillik sof foydasi tarmoqlar bo'yicha foydaning ko'p miqdori rezervlarni boy berishda sezilarli darajada tushib ketdi"[104],- deb iqtisodiy manbalarda keltirilgan.

Tijorat banki daromadi manbalari tuzilishi.

Daromad manbai - bizneslarning yigindisidan olinadi:Ssuda biznesi, Diskont - biznesi, saqlash bilan bog'liq biznes. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq biznes. Bank kafolati faoliyati bilan bog'liq biznes jamg'armalar jalb qilish va jamg'armachilik topshirigiga ko'ra bajaradigan operatsiyalari

- mukofot
- raqam berish;
- raqamni yuritish.
- katiy mukofot (pulda);
- muomaladan mukofot (foyda);
- raqamdan kuchirma berish;
- raqamni ochish;
- raqamdan vaqt pul berish (hisob-kitob xarakteri asosida).

[104] "Profits and Balance sheet developments at U.S. Commercial Banks in 2009" by Seung Jung Lee, Jonathan D. "Federal Reserve Bulletin" 2010.

Korrespondent munosabatlardan keladigan daromad.

Bankning noan'anaviy xizmatlaridan keladigan daromadlar - lizing, axborot, maslaxat, klientlar, o'qitish va boshqalar. Lizing to'lovlari, foiz to'lovlari, mukofot xizmat uchun.

Balans qiymatining bozor bahosini ochishi natijasida olinadigan daromad.

Shunday qilib bank daromadi bo'linadi.

Foizli daromad

Mukofot shaklidagi daromad.

boshqa daromad (olib sotarlik xizmati) Qimmatli qog'ozlar qayta baholash, jarima olish diskont daromadi.

Foiz daromadi mukofot bilan qo'shilib ketishi mumkin. Kredit to'lovi va mukofot obligatsiyani tarqatish va maslaxat xizmatlari uchun mukofot. Maslahatga olinadigan daromad kelishuv bajarilgandan so'ng olinadi.

Ssuda foizi - qiymatni vaqtinchalik berish asosida olinadigan baho. Barcha turdagi ssudalar, Veksellarni hisobga olish, oddiy va murakkab foizlar.

Komissiya - bankovskie operatsiya bo'yicha mukofot komissiya - topshiriq - lotincha. Kerakli foyda va xizmatlar tannarxidan foyda olish.

Daromadlar

Kreditni berishdan olinadigan foiz.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan olinadigan

Chet el valyutasi va boshqa valyuta qiymatliklari daromadi.

Olingan dividentlar.

Banklarga tashkilotlaridan olinadigan daromad.

Jarima, neutsoykalar

Boshqa daromad.

19.2. Tijorat banklari foydasining tarkibiy tuzilishi va ularning foiz turi bo'yicha turkumlash yo'llari.

Tijorat banki xarajatlari va ularni tuzilishi.

xarajat turiga qarab olti guruhga bo'linadi:

- operatsion.
- bank faoliyatini ta'minlash
- bank personaliga to'lash.
- soliq to'lash
- maxsus rezervlar
- boshqalar.

Operatsion xarajat

Depozit va kredit operatsiyalariga, qimmatli qog'ozlarga foiz to'lash.

Qimmatli qogozlarga bog'liq operatsiyalarga, chet el valyutasiga kassa hisob operatsiyalariga, inkossatsiyaga qilingan xarajat.

Boshqa operatsion xarajat Veksellar bo'yicha diskont xarajat, qimmatli qogozlar baholashdagi salbiy qoldiq, chet el valyutasidagi raqamlarning salbiy qoldig'i, qimmatli qog'ozlarga qimmatbaho qog'ozlarga xarajatlar.

Operatsion xarajat - bank operatsiyalari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan xarajat.

Bank faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq xarajat - ammortizatsiya (asosiy vositalar va moddiy aktivlar), ijara, uskunalari remonti, kontselyariya, avtotransport, maxsus kiyim, bino eksperti.

Bank personalini boshqarish - oylik, mukofot va boshqalar.

Soliq - mulk soligi, er, avtotransport, yo'l va boshqa soliqlar - bank operatsiyalari tannarxiga quyiladigan soliqlar.

Zararlarni qoplash, Qimmatli qog'ozlarni qoplash, aktiv operatsiyalar va debitor qarzlarni qoplash.

Boshqa xarajatlar - kadrlar tayyorlash, kompensatsiya, auditor, sud, publikatsiya hisobot bilan bog'liq xarajatlar.

19.3 Tijorat banklarining foizsiz daromadlari va ularni bank faoliyatiga bo'lgan ta'sirini oshirish yo'llari

Tijorat banklari tomonidan olinadigan daromadlar asosan:

a) foizli daromadlar

b) foizsiz daromadlar turlariga bo'linadi.


Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bank daromadlarini shakliga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. foizli daromad;
2. ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission to'lov;
3. boshqa daromadlar – valyuta kurslaridagi farqlar, balans va bozor narxlarining farqlanishi va boshqalar.

Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya rejasini qarab chiqadigan bo'lsak, bu erda daromadlar quyidagicha tasniflanadi:

1 chizma

Bank daromadlari tasnifi[105]



Foizli daromadlar shartnomalarda ko'rsatilgan va hisoblab chiqilgan daromadlar sifatida namoyon bo'ladi. Oddiy misol tariqasida kreditlar uchun hisoblangan foiz daromalarini keltirish mumkin.

Foizsiz daromadlar turiga quyidagilarni keltirish mumkin.

- vositachilik haqi va xizmat ko'rsatish to'lovlaridan olingan daromadlar;
- chet el valyutasidagi foyda;
- tijorat operatsiyalaridan olingan foyda;
- investistiyalardan olingan foyda va dividendlar;
- boshqa foizsiz daromadlar.

Ayni paytda banklarni islox etishning o'z xarakteriga ko'ra o'rtacha muddatlarga mo'ljallangan jarayoni korxonalar va banklar tizimida moliyaviy intizomni mustaxkamlash, markazlashtirilgan kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish, Markaziy bankning valyuta kursiga hamda foiz stavkasini belgilashga doir siyosatini bozor qoidalari asosida o'tkazish, bank nazorati hamda bank hisob otlarining yo'nalishini o'zgartirish va ularni takomillashtirish, pul muomalasi va kreditni tartibga solish usullarini rivojlantirish, samarali to'lov tizimini shakllantirish, chet el valyutasi bozorini kengaytnrish hamda liberallashtirish, banklar ko'rsatadigan xizmatlar sifatini yaxshilab, uni xalqaro andozalar darajasiga etkazish kabi va boshqa bir qancha muxim masalalar bir yo'la xal etilishini talab qilar edi.

Tijorat banklari daromadi (foydasi)ni shakllantprishning va ular faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri, avvalo, o'zida mavjud bo'lgan tabiiy resurslar bilan ishlashdir. Tijorat banklari

[105] Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

naqd pulsiz to’lovlarni amalga oshirishni, boshqa banklarga va mijozlariga kredit berishi va banklardan o’z hisobvarag’i chegarasida naqd pul olishi mumkin.

Tijorat banklari o’zida mavjud bo’lgan xaqiqiy resurslar chegarasida ishlashi deganda, tijorat banklarining nafaqat o’z mablag’lari bilan kredit quyilmalari o’rtasidagi miqdoriy munosabatni ta’minlashi zarur, balki bank aktivlariga yo’naltirilgan mablag’lar xususiyati munosabatiga ham erishish zarur. Avvalo bu ularning muddatiga tegishlidir.

Bank aktividagi ssuda qarzi miqdorining ko’pligi undan o’z mablag’larini ko’paytirishni talab etadi. Bankning iqtisodiy normalarini va uning operatsiyalarini muvofiqlashtirish davomida bank aktivlarining passivlar tavfsilotiga mustaxkam bog’liqligiga ahamiyati berilishi kerak.

Shuning uchun bank operatsiyalari shart-sharoitlarini ishlab chiqayotganda, avvalo, tegishli passivlarni shakllantirish manbalari hisobga olinadi.

Iqtisodiy normativ xujjatlar talablariga mos kelgan holda, tijorat banklari o’zida mavjud bo’lgan resurslar bilan aktiv operatsiyalarni etarli darajada o’tkaza oladi.

Tijorat banklarining o’zida mavjud bo’lgan chetdan jalb qilingan resurslar bilan faoliyat ko’rsatish tamoyili fundament sifatida uning alohida ko’rsatkichlariga ta’sir etadi: bankning depozitlarni jalb qilish xoxishi ortib boradi, yagona davlat banki tomonidan ma’muriy yo’nalishda boshqaruvdan bo’shagan kredit resurslari xarakatidan iborat passivlar uchun iqtisodiy raqobat rivojlanadi. Bank kapitalining yuqori rentabelli tarmoq (inflyatsiya sharoitida savdo tashkilotlari, birja faoliyati yuqori daromadli muomala sferasi bo’lib hisoblanadi) tomon ko’chishi yuz beradi. Kredit resurslarini planlashtirish va uning yordamida bank resurslarini xosil qilishga e’tibor kuchayadi.

Mavjud bo’lgan banklar qonun-qoidalar tizimi tijorat banklariga o’zining foyda va fondlaridan erkin foydalanish xuquqini beradi. Tijorat banklarining soliqlar to’langandan keyingi qoladigan daromadi (foydasi) umumiy aktsionerlar yig’ilishi qarorlariga muvofiq taqsimlanadi. U bankning xar hil fondlariga ajratmalar ajratish tartibi va aktsiyalar bo’yicha beriladigan dividendlar miqdorini belgilaydi.

19.4 Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni boshqarish.

Banklar O’zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to’g’risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq aktivlar va majburiyatlar bo’yicha mijozlar bilan tuziladigan shartnoma shartlari asosida foiz stavklari, vositachilik to’lovlari miqdorlari, aktivlar va majburiyatlar bo’yicha to’lovlar davri va muddatlarini mustaqil belgilaydilar.

Foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotdagi foizli daromadlar va xarajatlarning tasnifi buxgalteriya balansidagi moliyaviy vositalar tasnifiga mos kelishi lozim.

Foyda va zararlar hisobi

Olingan foiz va shunga o’qshash daromadlar.

Kredit depozitlarini joylashtirish (raqamlar va boshqa banklar).

Boshqa mijozlarga berilgan kreditlar.

Mijozlardan asosiy vasitalarni ijaraga berish, kelgusida sotib olish huquqi bilan.

Qat’iy belgilangan daromadli qog’ozlar.

Boshqa manbalar

Jami foyda

To’langan foizlar.

Jalb qilingan mablag’lar, zaym va depozitlar.

Mijozlardan jalb qilingan mablag’lar, zaym va depozitlar

Chiqarilgan Qimmatli qog’ozlar.

Boshqa operatsiyalar.

Jami to’langan foizlar.

Sof foyda (bank.daromadi).

Mukofot daromadi.

Mukofot xarajat.

Sof mukofot daromad.

Boshqa operatsion daromad.

Chet el valyutasi, boshqa valyuta qimmatliklari ko’rs farqidan olingan daromadlar.

qimmatbaho toshlar, metallar, qayta baholash, Qimmatli qog’ozlarni qayta baholashdagi ijobiy koldik.

Divident ko’rinishidagi daromad.

Jami baho joriy daromad.

Jami operatsion daromad (str 17-str18-str19-str 20)

Joriy daromad (str 12-str 15-str 21)

Mehnat haqi to’lovlari

Ekspluatatsiya xarajatlari

Xorijiy valyuta va boshqa valyuta qiymatliklari bilan kilinadigan operatsiyalarning kurs farqlari

Qimmatbaho metallar va kog’ozlarni sotish natijasida paydo bo’ladigan salbiy qoldiq

Nazorat uchun savollar.

1. Tijorat banklari foydasi manbalari
2. Bank xarajatlari tuzilishi
3. Bank rentabelligini boshqarish yo’llari.
4. Banklarning foydalilik va rentabellik tushunchalari.
5. Bank foydasining asosiy manbalari.
6. Tijorat banki foydasi boshqarish .
7. Banklarning xisob kitob operatsiyalari hisobiga foyda olish.
8. Tijorat banklari foydaliligi va rentabelligini boshqarish
9. sharoitida bank balansi rntabelligi ko’rsatgichlari
10. O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarining foydasi va rentabelligini oshirishda xorij tajribasi

20-MAVZU. TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLIGI VA LIKVIDLILIGI

Reja

20.1 Bank balansi likvidliligi va to'lov qobiliyati tushunchasi.

20.2 Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligi va to'lov qobiliyatini tartibga solish.

20.3 Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari.

20.4 Banklarni reytingi va uni baholash usullari.

20.5 O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari.

Tayanch iboralar

Likvidlilik, to'lov qobiliyati, koeffistient, kapital etarlilik darajasi, bank balansi likvidligi, risk darajasi, iqtisodiy normativlar.

20.1 Bank balansi likvidliligi va to'lov qobiliyati tushunchasi.

Xar kanday mamlakat iktisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlardan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mutsaxkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi xisoblanadi. Xar bir mutsaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bogliqdir.

Ma'lumki tijorat banklari xar kuni o'zaro bog'liq bir necha masalalarni echmoklari lozim:

a) o'z operatsiyalarining foydaliligiga erishish;

b) likvidlik darajasini zarur darajada saklash;

v) tulov kobiliyatini mutsaxkamlash va boshqalar.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki bankning daromadliligi va likvidligi o'zaro teskari mutanosibdir. Yukori likvidlikni ta'minlash bankning yuqori daromadlikka erishish maksadiga ziddir, chunki likvid aktivlar nolikvid aktivlarga nisbatan kam foiz daromadlari keltiradilar. Boshqa tomondan yukori foydaga erishish maqsadida aktiv siesat yurgizaetgan banklar likvid aktivlarini mumkin bulgan minimal darajada ushlab turish tenedentsiyasiga ega bo'ladilar. Likvidlik va daromadlik o'rtasidagi bunday uzaro bog'liqlik bank siesati noratsional tuzilgan sharoitda yukori likvidlik mavjud holda uning norentabelligiga yoki xatarli darajada pats bo'lgan likvidlik sharoitida bankning yukori daromadligiga olib kelishi va bu uning bankrotligiga sabab bo'lishi mumkin. Likvidlik va foydalilikning optimal darajada bo'lishini ta'minlash uchun banklar bu ko'rsatgichlarni kompleks taxlil qilishlari zarur, buning uchun esa avvalo «bankning likvidligi» va «bankning tulov qobiliyati» kabi tushunchalarni kurib chiqmoq zarur.

Hozirgi iqtisodiy adabietlarda likvidlik va tulov kobiliyati iqtisodiy terminlari ko'pincha bir-birini o'rnini almashtirgan holda talqin etiladi.

Likvidlik termini moddiy qiymatliklarning va boshqa aktivlarning tezda sotilishini va pulga aylanishini ifodalaydi. Bankning likvidligini shuningdek kupgina xollarda naqd mablag'larni O'zbyokiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki korrespondent banklardan sotib olish kobiliyati deb kam baholashadi. To'lig'icha bank likvidligi deganda likvid aktivlarini sotish, pul mablag'larini Markaziy bankdan sotib olish va aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit va omonat sertifikatlari xamda boshqa qarz intsrumentlarini emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi.

To'lov kobiliyati - bu birmuncha kengrok bo'lib u faqatgina aktivlarni tezda pulga aylantirish imkoniyatlarini emas, balki tijorat bankining o'z kreditorlari - omonatchilar, banklar va davlat oldidagi kredit va boshqa pul xarakteridagi operatsiyalaridan kelib chikadigan uz tulov majburiyatlarini o'z vaktida va to'lig'icha bajarish kobiliyatini xam o'z ichiga oladi. Shunday kilib, likvidlik tulov kobiliyatining zarur va majburiy sharti sifatida maydonga chikadi. Uning bajarilishi ustidan nazoratni fakatgina yuridik yoki jismoniy shaxsning o'zigina emas, balki muayyan tashki nazorat organi xam uz zimmasiga oladi.

Tijorat bankining likvidligi uning passiv buyicha pul shaklidagi uz majburiyatlarini o’z vaktida bajarilishini ta’minlash qobiliyatidir. Bankning likvidligi bank balansining aktiv va passivlarini balanslashtirilganlik darajasi, bank tomonidan joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan passivlarning muddati buyicha uzaro moslik darajasi bilan belgilanadi.

Bank likvidligining me’erlari odatda balans aktivlarining turli moddalarini passivlarning jami summasiga yoki ma’lum moddalariga, yoki aksincha passivlarning aktivlarga bulgan nisbati sifatida o’rnatiladi.

Bankning to’lov qobiliyatiga uning o’z majburiyatlari buyicha zarur summada javob bera olish qobiliyati deb ta’rif beriladi.

Bank nazorati bo’yicha bazel kumitasi likvidlikni taxlil qilishning quyidagi tamoyillarini taklif etadi. Ularga muvofiq likvidlikning 6 ta anozoviy koeffistentlari mavjud. Datslabki ikki koeffistent Markaziy bank talablari bajarilishini nazorat qilish uchun kolgan 4 tasi likvidlik bilan bog’liq axvolning yaralishini taxlil etish uchun hisob-kitob qilinadi.

1.Naqd pul zaxiralariga doir talablarga rioya qilish koeffistenti. Bazi bitimi maxrajda likvidlikning zarur darajasini, sur’atda esa bankning muayyan sanasidagi naqd pul zaxiralarini ko’rsatishni taklif etadi. Agar ushbu koeffistent birga teng bo’lsa, Markaziy bank talablari kat’iy bajarilayotgan bo’ladi. Agar ko’rsatkich birdan kam bo’lsa, bankda likvidlikning etishmasligi yoki tekari vaziyat bo’ladi.

2.Likvid aktivlarga doir talablarga rioya qilish koeffistenti. Uning maxrajida likvidlikning talab etiladigan darajasini qo’yish, sur’at esa likvidlik aktivlarning muayyan sanadagi amaliy miqdorini ko’rsatish zarur.

3.Kreditlar-depozitlar. Mazkur koeffistent likvidlik bilan bog’liq ishlarning ahvolini ko’rsatadi va uning kichik qiymati likvidlik etarli darajada ekanligidan dalolat beradi:

Aylanma mablag’lar-aktivlar;

Aylanma mablag’lar-depozitlar;

Aylanma mablag’lar-depozitlardan qarz mablag’lari.

4.Koeffistent bankining barcha aktivlaridagi likvid aktivlar ulushini ko’rsatadi. Keyingi koeffistent aylanma mablag’larining depozitlar va qarz mablag’lariga nisbatini ko’rsatadi.

Likvid koeffistentlari taxlil maqsadiga ko’ra farqlanishi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda likvidlikning quyidagi umumiy formulasi beriladi:

Likvidlik q Likvid aktivlar / jalb etilgan aktivlar

Ushbu koeffistentni muddatlar bo’yicha bo’lib chikish mumkin, masalan, qisqa muddatli likvidlik koeffistenti (KMK) va o’rta muddatli likvidlik koffistenti (UMK)

KMK q kassa nostro hisob varaqlari bo’yicha qoldiqlar (DKMO) / joriy va jamg’rma hisob varaqlaridan qisqa muddatli depozitlar

KF q (qoplash muddati 1-5 yilgacha bo’lgan qimmatli qog’ozlar va ssudalar) / (qoplash muddati 1-5 yilgacha bo’lgan depozitlar va zayomlar)

O’zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining «Tijorat likvidligini boshqarishga bo’lgan talablari to’g’risidagi» Nizom N421 2 noyabr 1998 yilgi qoidasiga asosan likvidlikni tartibga solish taxlil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

-Likvidlik koeffistentlari tizimini to’g’ri hisoblashni tartibga solish;

-Bank likvidligidagi ijobiy va salbiy yo’ralishlarni aniqlash;

-Salbiy yo’ralishlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash;

-Bank likvidligining axvoli to’g’risida xulosa chiqarish;

-Bank likvidligini taxlil qilish natijalari asosida bankga tavsiyalar tayyorlash;

Mazko’r qoidaga muvofiq laxzalik, joriy va qisqa muddatli likvidlik ko’rsatkichlari me’yoriy hisoblanadi. Likvidlik bankning majburiyatlarga doir to’lovlarni bajarish talablarini o’z vaqtida va to’liq bajarish layoqati hamda mijozlarning kreditga bo’lgan extiyojini qondirishga tayyorgarligi asosida baholanishi mumkin. Bank likvidligi quyidagilar qoplanishi lozim:

-depozitlarning olinishi;

-aktivlar va majburiyatlarni qoplash muddatlari o’rtasidagi farqlar;

-pul bozorining o’zgarishlari;

-rejalashtirilmagan xarajatlar;

Xar bir aktiv va majburiyat uchun eng kichik muddat belgilanib, shu muddat ichida qoplanishi lozim.

20.2 Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligi va to'lov qobiliyatini tartibga solish.

Iqtisodietni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish nazariyasining tarkibiy qismi sifatida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish nazariyalari hozirgi zamon iqtisodiy fanining tez sur'atlar bilan o'zgarib va rivojlanib boraetgan yo'nalishlaridan biridir.

Pul-kredit siesatining asosiy maqsadi iqtisodietga to'la bandlik va inflyatsiyaning yo'g'ligini tavsiflovchi umumiy ishlab ishlab chiqarish darajasiga erishishda yordam ko'rsatishdan iborat. Uning mohiyati ishlab chiqarishning yalpi hajmini, bandlik va baholar darajasini barqarorlashtirish maqsadida pul taklifini o'zgartirishdan iborat. yanada soddaroq qilib aytganda pul-kredit siesati ishlab chiqarish darajasi pasayaetgan paytda xarajatlarni rag'batlantirish maqsadida pul taklifini kengaytirish, inflyatsiya sharoitida esa aksincha xarajatlarni cheklash maqsadida pul taklifini qisqartirishga qaratilgan.

Pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning halqaro amalietda uchta asosiy vositasidan keng foydalaniladi. Ular quyidagilardir:

1. Ochiq bozor operatsiyalari.
2. Majburiy rezerv me'erining o'zgarishi.
3. Uchet stavkasining o'zgarishi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - bu Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ortiqcha rezerviga ta'sir ko'rsatish maqsadida davlat obligatsiyalarini tijorat banklariga va aholiga sotish eki sotib olish operatsiyalaridir. Markaziy bank tomonidan davlatning qimmatli qog'ozlari tijorat banklaridan va aholidan sotib olinganda tijorat banklarining rezervlari oshadi. Bu vaziyatda tijorat banklari o'z qimmatli qog'ozlari portfelining bir qismini Markaziy bankka o'tkazadilar va Markaziy bank bu qimmatli qog'ozlar uchun tijorat banklari rezervlarini xarid summasiga oshirish yo'li bilan to'laydilar. Tijorat banki esa xususiy shaxslardan obligatsiyalarni sotib olganda ularning joriy schetini oshiradi. Ushbu bitimning eng muhim jihati shundaki, Markaziy bank tijorat banklaridan qimmatli qog'ozlarni sotib olganda tijorat banklarining rezervlari va shu orqali kreditlash imkoniyatlari oshadi.

Markaziy bank davlatning qimmatli qog'ozlarini aholidan sotib olganda ham pul taklifining o'zgarishi mohiyatan shunday bo'ladi.

Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni bevosita tijorat banklaridan sotib olish bilan aholidan sotib olish o'rtasida sezilarli farq mavjud. Agarda tijorat banki dastlab o'zining barcha kredit imkoniyatlarini ishlatib bo'lgan holatda Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan obligatsiyalarning sotib olinishi tijorat bankining haqiqatdagi va ortiqcha rezervlarini sotilgan obligatsiyalarning butun summasiga oshirsa, Markaziy bank tomonidan obligatsiyalarning aholidan sotib olinishi tijorat bankining haqiqatdagi rezervlarini, shu bilan birga joriy schetlarini oshiradi. Ushbu mablag'larning bir qismi Markaziy bankdagi majburiy rezervlar schetiga ko'chirilishi lozim va shunda bank tizimining ortiqcha rezervlari majburiy rezervlar schetiga ko'chiriladigan mablag' smiqdoriga kamaytiriladi. Obligatsiyalarning aholidan sotib olinishi tijorat banklari tizimi tomonidan yangidan olingan rezervlarning bir qismini joriy schetlardagi yangi pullarni saqlash uchun ishlatilishi bilan barobardir.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni ochiq bozorda sotib olganda tijorat banklarining rezervlari oshadi. Agarda bank o'zining ortiqcha rezervlarini ssudaga bersa, unda mamlakatdagi pul taklifi o'sadi.

Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlar sotilgan paytda tijorat banklari rezervlarining kamayishi ro'y beradi.[39]

Aytaylik Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni ochiq bozorda tijorat banklariga sotmoqda:

a) Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni ularni sotib olaetgan tijorat banklariga o'tkazadi;

b) tijorat banklari ushbu qimmatli qog'ozlar qiymatini o'zlarining Markaziy bankdagi rezervlari hisobidan to'lab beradilar va Markaziy bank ushbu summada tijorat bankining rezervini kamaytirib qo'yadi.

Majburiy rezervlar me'erini oshirishi bank tizimining pul yaratish qobiliyatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi:

1. U ortiqcha rezervlar hajmini o'zgartiradi.
2. U pul mulütiplikatri hajmini o'zgartiradi.

Markaziy bankning asosiy ananaviy funktsiyalaridan biri bu "so'nggi instantsiyadagi kreditor"ligidir. Ayrim hollarda Markaziy bank mustahkam moliyaviy mavqiyga ega, ammo kutilmaganda zudlik bilan vaqtinchalik qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lib qolgan tijorat banklarniga ssudalar berishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan Markazi bankdan olinadigan ssuda ular uchun majburiyat hisoblanadi va tijorat banklari balansida " Markaziy bankdan olingan ssudalar" nomi ostida aks ettiriladi, bu ssuda Markaziy bankning balansida esa aktiv hisoblanib " Tijorat banklariga berilgan ssudalar" nomi ostida aks ettiriladi.[17]

Shunday qilib Markaziy bank Tijorat banklariga kredit beraar ekan uning umumiy rezervlarni oshiradi va shu yo'l bilan ularning xo'jalik yurituvchi su'ektlar va aholini kreditlash imkonini yaratadi.

Respublikamizning bozor iqtisodtetiga o'tilaetgan sharoitda iqtisodietni Davlat tomonidan pul-kredit vositalari orqali tartibga solish zaruriyati iqtisodietda yuz beraetgan quydagi jaraenlardan kelib chiqadi.

* turli mulkchilik shakliga asoslangan korxonalarni tashkil topishi va rivojlanishi;
* tashqi iqtisodiy aloqalarni kengayishi;
* respublikani xalqaro valyutmoliya munosabatlariga kirishishi;
* mustaqil hisob-kitob, kredit va boshqa operatsiyalarni amalag oshiriuv tijorat banklarni faoliyatiningrivojlanishi;
* normal faoliyat ko'rsatuvchi pul tizimini vujudga kelishi va milliy valyutaning barqarorligi uchun sharoitning yaratilishi va hokozo.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Respublikamizda iqtisodietni bozor munosabatlariga o'tkazish va uning tarkibiy qismi sifatida markazlashtirilgan bank tizimidan markazlashmagan ikki poqonali bank tizimiga htkazish rejalari ishlab chiqildi. Bunday sharoitda iqtisodiy o'sish va inflyatsiya su'ratini jilovlashag aniq ishlab chiqilgan va tartib bilan olib borilaetgan pul-kredit siesati orqali erishiladi.

Hozirgi kunda Respublika Markaziy banki emission markaz va pul-kredit siesatini olib boruvchi rasmiy muassasa hisoblanadi. Turli mulk shakillaroiga asoslangan tijorat banklari esa mustaqil bo'lib ularning faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi.

Pul-kredit siesati orqali muvofiqlashtirishning ajralmas qismi sifatida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish zaruriyati quyidagilardan iborat:[24]

- banklarning likvidliligini ta'minlash orqali ular inqirozini oldini olish;
- pul va boshqa moliya resurslari ustidan manopol nazoratga yo'l qymaslik hamda kam sonli kredit muassasalarning qo'lida kapitalning to'planib qolishini cheklash.

Banklarni inqirozga uchrashini oldini olish maqsadida O'zbekiton respublikasi Markazi banki banklar uchun yuqori xatarga ega bo'lgan va ularni lekvidligini pasayishiga olib keladigan operatsiyalarni qonuniy chegaralaydi.

Shunday qilib bank faolatini tartibga solishning asosiy maqsadlari moliya tizimining yuqori samaradorligini saqlab turish, uning barqarorligi va xavfsizligini kafolatlash, shunindek investorlarni himoya qilishning muvofik darajasini saqlab turishdan iboratdir. Rivojlaninning turli davrlarida qayd etilgan maqsadlarning muhimlik darajasi mamlakatdagi siesiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazyatlardan kelib chiqib o'zgarib turadi. Demak, respublikamizning bozor munosobatlariga o'taetgan hozirgi sharoitda tartibga soluvchi organlar faolatida birinchi galdagi vazifalardan biri bu pul, kredit va fond bozorlarini rivojlantirishdir. Bu bilan banklar va moliya muassasalari

faoliyatining samaradorligini oshirish, butun bank tizimining barqarorligini saqlab va investorlar manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash imkonini beruvchi "o’yin qoidalari" ning talablariga rioya etilishini nazorat qilish orqali banklar o’rtasida soqlom raqobat muhitini saqlab bo’lib qolmoqda.

20.3 Xorijiy davlatlar amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholash usullari.

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari bir-biriga o’xshash bo’lib tuyulsada ularning xar biri asrlar mobaynida tashkil topgan uziga xos bank ishi milliy munosabatlari va ularning tarkibiy qismlariga ega. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va ularni barqarorligini ta’minlash borasida xar qanday davlat ham o’ziga xos tajribalarga ega. “Hozirgi iqtisodiy inqiroz sharoitida bank tizimining likvidlik riski haqidagi savollar doimo vujudga keladi”,- deb ta’kidlaydi iqisodchi olima Angela Roma bank likvidligi haqida.[106]

Jaxon banklari amaliyotida ichki va tashki nazoratni tashkil etishga turlicha yondashuvlar mavjud. Intsitustional nuktai nazardan bu tizimining tashkiliy tuzilish usullari, Markaziy bankning ushbu tizimdagi o’rni va roli bilan fark qiluvchi uch guruh mamlakatlarini ajratish mumkin:

- nazorat faoliyati fakatgina Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Avtsraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zellandiya, Portugaliya.
- nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan boshqa organlar bilan birga amalga oshiriladigan mamlakatlar:

AKSh - Federal Rezerv Tizimi (FRT), Moliya vazirligi va mutsakil agentlik - Depozitlarni Sug’urtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) bilan birgalikda;

Shveytsariya - Markaziy bank, Federal Bank Komissiyasi bilan birgalikda;

Frantsiya - Frantsiya Banki, Bank Komissiyasi bilan birgalikda;

Germaniya - Bundesbank, Kredit Nazorati Federal Xizmati bilan birgalikda.

Nazorat faoliyati Markaziy bank tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlar: Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avtsriya, Finlandiya, Norvegiya.

Shunday qilib, bank nazorati ob’ektiv zarurat ekan, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus organlar xam zarurdir. Ushbu organlar maqomi bo’yicha turlicha bo’lishi mumkin, ammo ular ichida xamisha davlat organlari mavjud buladi. Shu bilan birgalikda ayrim mamlakatlarda bank faoliyatini tartibga soliq tizimining tashkil topishining amaliyoti tarixiy jixatdan karalganda shuni ko’rsatmokdaki, ushbu jarayonlar turli mamlakatlarda turlichaligidan ko’ra ko’proq umumiy xususiyatlarga ega AKShda pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas’ul organ bo’lib - Federal Rezerv Tizimi (Markaziy bank) hisoblanadi.

AKSh da banklar faoliyatini nazorat etish va boshqarish bizdan farq qiladi. Bugungi kunda AKSh banklarini boshqarish va ularni faoliyatini nazorat etish quyidagi idoralar tomonidan olib boriladi:

1. Federal rezerv sistemasi.
2. Pul muomalasi nazoratchisi barcha milliy banklarni nazorat qiladi.
3. Depozitlarni sug’urtalovchi Federal korporatsiyasi bank va mijozlar depozitlarini sug’urtalaydi, bankrotlikka uchragan banklarga o’z vakolati doirasida yordam beradi.
4. Adliya vazirligi.
5. qimmatli qogozlar va birjalar bo’yicha komissiya.
6. Shtatlardagi bank faoliyati bo’yicha komissiya yoki bank sovetlari yangi banklar ochilishi uchun charterlar beradi va o’z navbatida shtatda charter olgan barcha banklarni doimiy tekshiradi hamda ularni doimiy ravishda nazorat etadi.

Hozirgi kunda AKShda tijorat banklari faoliyatini tartibga soliq quyidagi makroiqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga yo’naltirilgan:

Mamlakat moliya-kredit tizimining barkarorligini qo’llab-quvvatlash.

Bank mijozlarining manfaatlarini himoya qilish.

[106] “The Impact of Bank-specific Factors on the Commercial Banks Liquidity; Empirical Evidence from CEE Countries” by Angela Roma “Procedia Economics and Finance” 2015

Muayyan iqtisodiy usish sur’atlarini saqlab turish.

Iqtisodiy me’yorlar tizimini aniklash va uning bajarilishi ustidan nazoratni Federal Rezerv Tizimi amalga oshiradi. AKShda hozirgi kunda iqtisodiy me’yorlar tizimini ishlab chiqishda Bazelu bitimining takliflari asos kilib olingan. 1988 yilgacha AKShda etarli kapital mikdori barcha aktivlarning 5%i darajasida belgilangan edi. 1988 yildan boshlab kapitalning etarlilik talablari xatarni xisoblab chamalangan aktivlarning 8% darajasida belgilandi. 1993 yilning 1-yanvaridan boshlab barcha amerika banklari Bazelu bitimi talablariga bo’ysinishga majburligi konun yo’li bilan belgilab qo’yildi. Xuddi shu tizimga o’xshagan xolat Angliya bank tizimi faoliyatiga xam tegishli.

Angliya Bank tizimining o’ziga xos xarakatlantiruvchi asosiy kismi va London pul bozorining asosiy qatnashchilari yirik tijorat banklaridan iborat cheklangan guruh xisoblanadi. Ular jumlasiga avvalo mamlakatning yirik «katta to’rtlik» banklari: «Lloyds», «Midland», «Barklayz» va «Neshnl Vetsmintser» kiradi.

Tijorat banklari va kredit-moliya institutlarining faoliyatini tartibga solish Angliya Banki tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatni atroflicha taxlil qilish uchun bu soxada qabul kilingan muxim qonun va karorlarni kurib chiqish lozim.

Buyuk Britaniya bank tizimi tarixan kup xam nazoratga olinmagan, 1973-74 yillarda bir qator banklarning nisbatan qisqa muddatga mablag’larni jalb qilib uzoq muddatga kredit berishi oqibatida bank tizimi inkirozga uchradi va bu xol 1979 yil bank konunining qabul qilinishiga asos bo’ldi. Ushbu qonunga muvofiq depozit qabul qiluvchi institutlar ikki toifaga, banklar va listenziyalangan depozit qabul qiluvchilarga ajratildi. Bank sifatida listenziya olish uchun muassasalar etarlicha mablag’larga ega bo’lishi va o’z mijozlariga turli-tuman bank xizmatlari ko’rsatish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim. Listenziyalangan depozit qabul qiluvchilar esa bank maqomiga ega bo’lish uchun qo’yilgan shartlarga to’liq javob bera olmaydigan, ammo ayrim turdagi bank operatsiyalari bilan shug’ullanuvchi moliya muassasalari edilar. Ushbu qonunda shuningdek "bank" so’zini faqatgina etarlicha bank kapitaliga ega bo’lgan xamda banklarga xos ko’p turdagi operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya muassalarigina ishlatishi belgilab qo’yildi.

1979 yilgi bank qonuni mayda bank depozitorlari va jamg’armachilarini bank inkirozlaridan ximoya qilish maqsadida bank depozitorlarini himoyalash tizimini ishlab chiqdi. Ushbu AKShdagi Depozitlarni Sugo’rtalash Federal Korporatsiyasi (DSFK) singari faoliyat ko’rsatadi. Ushbu tizim a’zo banklarning vakillaridan tashkil topgan Depozitlarni ximoyalash Boshqarmasi tomonidan boshqariladi va uning boshlig’i Angliya Bankining raisi hisoblanadi. Bu boshqarma Depozitlarni himoyalash Fondini boshqaradi xamda barcha banklar va depozit qabul qiluvchi muassalar o’z depozit bazalariga nisbatan 0,3%, ammo 300,000 funt tserlingdan oshmagan miqdorda badal to’lashlari shart.

1981 yilda qabul qilingan «Monetar Nazorat to’g’risidagi nizom»ga binoan bank muassalari va depozit qabul qiluvchilarning likvidligini ta’minlash maqsadida bu muassasalar o’z majburiyatlarining 0,5% ini Angliya Bankidagi operatsiyalarda qatnashmaydigan xisob rakamida saqlashlari shart qilib qo’yildi. Shuningdek ushbu nizomga muvofiq Angliya Banki tomonidan uchet stavkalari e’lon qilinmaydigan bo’ldi, ammo bu intsrumentni zarur paytda qo’llash kukuki saqlab kolindi. Lekin shunday bo’lsada kupgina tijorat banklari va depozit qabul qiluvchi muassasalar beraetgan kreditlari uchun foiz stavkasini belgilash jarayonida Angliya Banki tijorat banklariga berayotgan kreditlar uchun belgilaydigan foiz stavkalarini asos qilib olmoqdalar.

Germaniya bank tizimida kredit tizimining turli zvenolari o’rtasidagi o’zaro aloqalarning asosi sifatida universallashtirish tamoyili qo’llaniladi. Unga binoan turli kredit muassasalari moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda bir hil xuquqga egadirlar.

Germaniyada tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vazifasi Bundesbank va Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Bundesbank faqat birgina real ta’sir vositasiga ega, ya’ni u xam bo’lsa majburiy rezervlashning eng kam miqdorini urnatish va tijorat banklari ustidan nazorat qilishning fakatgina ikki intsrumentiga ega - bular mablag’larni rezervlash va xisobotlar qabul qilish. Boshqa nazorat funktsiyalari Moliya vazirligiga bo’ysinuvchi Kredit Nazorati Federal Xizmati zimmasiga yuklangan.

Germaniyada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari Bundesbankka bank balansi likvidligining axvoli xakida xar oyning oxirida talab etilgan shakllar bo'yicha xisobot topshiradilar.

Frantsiya bank tizimi xam dunyodagi eng qadimgi va hozirgi kunda taraqqiy etgan tizimlardan biri sanaladi, shu sababli xam bizningcha uning tajribasini o'rganish foydadan xoli emas.

20.4 Banklarni reytingi va uni baholash usullari.

Har qanday faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub'ektga nisbatan baho bevosita unga berilgan reyting natijalari yoki nazorat usullari orqali aniqlanadi.

XX asr oxirida har bir sohada o'z etakchilarini bilish istagi kuchaydi. Eng yaxshi korxona, eng yaxshi bank, eng yaxshi mutaxassis, eng rivojlangan tuman, viloyat, mamlakat va hokazolar.

O'z o'rnini aniqlab olishga harakat qilish biznesga ham xosdir. Bu sohada ham dastlabki o'nta eng yirik bank, ishonchlilar orasida eng ishonchli sug'urta agentliklari, dunyoning yuzta eng yirik korxonasi va boshqalar aniqlanmoqda. Reyting bo'lmasa, na butun amaliy hayotni, na shaxsiy hayotni tasavvur qilish mumkin. Chunki «Kimga qarab ish tutish kerak, kim bilan bitim tuzsa bo'ladi, mening ishonchli sherigim kim?» degan muammolarga duch kelamiz.

Reyting - bu muayyan ob'ekt yoki sub'ekt to'g'risidagi natijaviy baho bo'lib, qaror qabul qilish bo'yicha g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki u, aytaylik, bankirga bankning taraqqiy etish yo'nalishini, ishbilarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko'rsatib beradi. Shuningdek, reyting tizimi:

- banklar faoliyatini xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlar asosida qiyosiy tahlil qilishda;
- mazkur bankning moliyaviy bozordagi o'rnini, nufuzini, shuningdek, muammoli banklarni aniqlashda;
- banklar taraqqiyotidagi mayl (tendentsiya)larni kuzatish, umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda;
- banklar samaradorligiga baho berishda juda ham zarur.

Barcha manfaatdor tomonlarning xohish va istaklarini inobatga oluvchi reyting usuli yordamida aholi omonatlari qaerlarda ko'proq, qaysi banklarda qanday foizlarda joylashtirilyapti, depozitlar bo'yicha ahvol qanday, sertifikat va aktsiyalarning sotib olinishi qay darajada kabi savollarga ham javob olish mumkin.

Xalqaro amaliyotda bank reytinglarini baholashning juda ko'p turlari mavjud. Ular ichida quyidagi ikki usul eng ko'p tarqalgan:

- miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash;
- sifat ko'rsatkichlari orqali baholash.

Miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash usuli asosan banklar faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, ularga quyidagilar kiradi:

- aktivlar summasi;
- depozitlar;
- kreditlar;
- o'z kapitalining summasi;
- daromad summasi.

Bu ko'rsatkichlar orqali banklar faoliyati ommalashtiriladi.

Baholashning ommaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi turi **sifat ko'rsatkichlari** bo'lib, ular bankning ishonchlilik darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi:

- kapitalning etarliligi;
- aktivlar sifati;
- daromadlilik darajasi;
- bank likvidliligi.

Umuman bunday tizimlar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- kredit tashkilotlarini inspektsiya va uzoqlashtirilgan monitoring doirasida bir tizimga keltirilgan tarzda rasman baholash;
- banklarni va muammolar mavjud bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarni identifikatsiya qilish;
- nazorat idoralari resurslarini maqbul taqsimlash uchun tekshiruvlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- nazorat organining o'z vaqtida ish boshlashini uyushtirish.

Barcha mamlakatlarda bank nazorati va reytingining asosiy ob'ekti kredit muassasalar, ya'ni tijorat banklari hisoblanadi. Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymay turib, davlat iqtisodiyotini yuksaltirish va uning barqarorligiga erishish mumkin emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Ikkinchi pog'onani esa tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari tashkil etadi.

Bank nazorati va ularga reytig berishni amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqadi va ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, banklar mamlakat aholisining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi.

Ikkinchidan, bank kreditorlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llaniladi va yakunda reyting natijalari beriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va individual shaxslar o'z faoliyatlarini rivojlantirish, turmush farovonliklarini oshirish uchun tijorat banklarining turli xil kreditlaridan foydalanishadi.

Uchinchidan, hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Bu butun iqtisodiyotni inqirozga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, banklar bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi, shu bilan birga, mamlakatdagi pul massasiga bilvosita tasir etib, inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, bank aktsiyadorlari va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati va reytingini berish tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlarini iqtisodchi olim V.Yu.Kuznets quyidagilardan iborat deb ta'kidlaydi[107]:

a) pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;

b) iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorliklarga barham berish;

v) banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;

g) bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

O'zbekiston bank tizimini qayta qurish mustaqil davlatimiz iqtisodiy tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Xo'jalik mexanizmi bir maromda faoliyat yuritishi barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimini taqozo etadi. Bugungi kunda iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida sifat jihatidan butunlay yangi bank tizimi hamda bank nazoratini tub asosini yaratish va qurish uzluksiz davom ettirilmoqda.

20.5 O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlash yo'llari.

Tijorat banklarining barqarorlik darajasini ekzogen va endogen faktorlar orqali aniqlanadi.

Bankning moliyaviy axvolini tuzatish va uning iqtisodiy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1.Bank sarmoyadorlarini imkoniyatlarini ko'rib chikish va yil oxiriga kadar bankning ustav kapitalini elon qilingan miqdorga etkazishni taminlash.

[107] Кузнец Ю.В. Банковская дело. –М.: 2002. 360 б.

2.Muddati o’tgan qarzlarni qaytarish uchun tegishli tadbir asosida choralar ko’rish va kaytishi mavhum bo’lgan kreditlar uchun zaxiralarni belgilangan me’yorga yetkazilishini taminlash.

3.Bankning aktivlarini daromad keltirmaydigan qismini kamaytirish va o’z navbatida daromadlik imkoniyatini oshirish uchun aktiv mablag’larni asosan tavakkalchilik darajasi kam bo’lgan DKK bozoriga yo’naltirish.

4.Bank bo’limlari va binolarini ko’rish bo’yicha amalga oshirilgan 290,5 mln sumlik kapital xarajatlarni bankning norentabel bo’limlarining bino va inshootlarini, bankning asosiy faoliyatida muhim bo’lmagan vositalarni sotish orqali qoplash.

5.Bank ssudalari bo’yicha muddati o’tgan foizlarni to’liq qaytarib olib, shu summani bankning muddatsiz depozitlardagi majburiyatlarga ishlatish uchun bankning vakillik varaqasida saqlab turish.

6.Bank mamuriyatiga, transportga, ish haqi va shu bilan birgalikda unga tenglashtirilgan xarajatlarni bank daromadligiga bog’liq ravishda hisoblash.

7.Bankning aktivlarini marketing tadqiqotlariga bog’liq ravishda taqsimlashtirishni yo’lga qo’yish.

Xulosa qilib shuni ko’rsatishimiz mumkinki, banklarning bankrotlikka uchrash quyidagi eng asosiy xolatlarda ro’y berishi mumkin: ccudalarning qaytmasligi va boshqa aktivlar qiymatining yo’qotilishi, likvid mablag’larning minimum darajadaligii va asosiy faoliyatdan ko’riladigan zararlar shuningdek, ushbu zararlarni omonatchilar va mijozlar mablag’lari hisobidan qoplash. Bundan tashqari, bank majburiyatlarining aktivlarga nisbatan ortib ketishi, qimmatli qogozlar qiymatining tushib ketishi. Bunga misol, 1930 - 1933 yillardagi dunyo mamlakatlarida tijorat banklarining yoppasiga bankrotlikka uchrashining asosiy sabablaridan biri, bank obligatsiyalarining bozor narxining keskin tushib ketishi va buning natijasida aholining o’z omonatlarini qaytarib olishi bo’lgan. Bunday vaziyat bank krizisi yoki sarosimalik deb ataladi.

Bank likvidlikning o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvidli aktivlarga zarur miqdorini beliglab olishlari shart. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

1) omonatchilarning ko’payishi yoki kamayishiga ko’ra mablag’larga ega bo’lish yoki ularni yo’qotish bank jalb qilingan mablag’lar bo’yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog’lik, hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy deponentlar) hisob varaqdan olinadigan yoki darxol to’lanadigan depozitlar va boshqa passivlar bilan qiyoslangan holda taxlil qilish kerak;

2) omonatlar summasining usishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me’yoriy miqdorining ko’payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta’sir ko’rsatadi.

3) ssudalar va investistiyalar summasining oshishi yoki kamayiishaiga ko’ra mablag’lar oqib kelishining ko’payishi yoki pasayishi ushbu omilning ta’siri iboratki, ssudalar va investistiyalar miqdoridir xar bir oshishi likvidli aktivlar ulushini kamaytiradi,chunki investistiyalar uzoq muddatga asoslangan.

Nazorat uchun savollar.

1. Tijorat banki balansi likvidliligi va to’lov qobiliyati tavsifi va baholash ko’rsatgichlari
2. Tijorat banklari likvidligi va to’lov qobiliyatini tartibga solishda xorij tajribasi.
3. O’zbekiston Respublikasi tijorat banklari to’lov qobiliyatini boshqarish muammolari
4. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligi va tulov qobiliyatini tartiba solish.
5. Banklarning likvidlilik risklar va ularni boshqarish
6. Tijorat banklarining to’lov qobiliyati va likvidliligini ko’paytirish yo’llari
7. O’zbekiston Respublikasi Tijorat banklarining to’lov qobiliyati va likvidliligini ko’paytirishda xorij tajribasi

21-MAVZU. TIJORAT BANKLARI RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH USULLARI

Reja

21.1 Bank operatsiyalari risklari va ularni paydo bo'lish sabablari.
21.2 Bank risklarining klassifikatsiyasi va ularga tavsif.
21.3 Tijorat banklari risklarini baholash va boshqarish usullari.
21.4 Tijorat banklari riskini boshqarish vositalari.
21.5 Bank risklarining sug'urtasi.

Tayanch iboralar

Risk, xavf-xatar, noaniqlik, diversifikatsiya, foyda, likvidli mablag'lar, naqt pulsiz hisob-kitoblar riski, kredit riski, valyuta riski.

21.1 Bank operatsiyalari risklari va ularni paydo bo'lish sabablari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng o'tgan vaqt mobaynida bank sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Tijorat banklarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Tijorat banklarining takomillashishiga sabab, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligidagi ishtiroki salmog'i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lami kengayib borayotganidadir. Bu borada banklarning o'rni barchaga ma'lum. Shu sababli hozirgi kunda banklar faoliyatida risklarni aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash hamda kamaytirish usullarini qo'llash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Risk - bu ma'lum maksadni kuzlagan xolda olib borilaetgan faoliyat natijasiga bulgan ishonchsizlik, ba'zan konikarsiz tugashi natijasidagi yukotishlardan iboratdir. Masalan berilgan kredit buyicha tulovlarning amalga oshmasligi natijasida bank foydasining kamayishi, eki berilgan kafolat xatlari buyicha tulovlarni amalga oshirishga tugri kelishi va shu bilan bir katorda bankning resurs ba'zasining kamayishi. Risklar bank faoliyatida ulchash mumkin bulgan kursatgichdir va ular doim bankning bajaraetgan operatsiyalardan olgan zarariga, yukotgan daromadiga teng buladi. Risk va foydalilik o'rtasidagi bogliklikga etibor beradigan bo'lsak, bank operatsiyalarining risklilik darajasi ortgan sayin uning foydaliligi xam ortib boradi va aksincha riski kam jaraenlar uz navbatida kam daromad beruvchi operatsiyalar xisoblanadi.

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatida ko'zlangan natija – bu birinchi navbatda foyda olishdir. U esa albatta risk bilan bog'liq bo'ladi. Risk tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p qirrali tushunchadir. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotdagi mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur.

Riskni yuzaga kelish tarixini insonni paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin yoki inson hayotini ma'lum bir qismi deb izohlash mumkin. Rus olimi A.P. Algin riskni yuzaga kelishini shunday izohlab o'tadi, "Risk-shunday umumlashgan hodisaki u inson tsivilizatsiya jarayonini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir"-deydi.[108] Bu jumla ko'pgina munozarali ko'rinsada, ammo haqiqatdan to'g'ri yondoshadigan bo'lsak hayotiy har tomonlama eng sodda yo'l bilan asoslab berilgan. Riskni nazariy jihatdan sodir bo'lish jarayonini aniqlash juda murakkab, chunki bu jarayon birinchidan, risk to'g'risidagi tushunchalar umumlashtirilayotgan bo'lsa, ikkinchidan riskni alohida o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar juda kam. Bu esa risk nazariyasini iqtisodiy nazariyani yoki boshqa fanlarni ma'lum bir qismi, bo'limi sifatida emas, balki alohida bir "risk-nazariyasi" fani sifatida o'qitish, o'rganish lozim bo'ladi.

"Risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi. Taniqli lug'atshunos S. N. Ojegovning rus tili lug'atida "risk" bu "muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid" degan ma'noni anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug'atida riskka "xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli" deb qaralgan. V.T. Sevruk

[108] Альгин А.П. Риск и его роль в общественной жизни, - М.Мысль 1989, 188 б.

“risk-bu hol, bir ishlab chiqaruvchining situativ holati” degan ta’rif bergan bo’lsa[109], rus olimi A.Olshanniy “risk-bu zarar ko’rish yoki manfaatni qo’ldan chiqarish bilan bog’liq ehtimollar o’lchamidir” degan ta’rif beradi[110]. Professor V.M. Usoskin “Risk doimo noaniqlik birga kelib, oxirgi o’z navbatida oldindan ko’ra bilish yoki mumkin bo’lmagan voqealar bilan bog’liq bo’ladi”[111] deb izohlaydi. E.S. Stoyanova “Risk bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko’rish ehtimolidir”[112] deb ta’rif keltiradi.

Risklarni mohiyatini ochib berishda ularni har xil sinonimlar bilan qo’llaganda asosiy ma’nosini tahlil etishda prof. Sh. 3. Abdullaevaning ishida “Risk xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokozalar deb ta’rif berish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda “risk”, “bank riski”, “kredit riski” deb yuritsak maqsadga muvofiq” deb hisoblanadi.[113] Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo’lishi mumkin.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o’rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma’lumotlarning noto’g’riligi yoki etarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, ob’ekt va mijozlar to’g’risida, ularning moliyaviy holati to’g’risidagi ma’lumotlarning noto’g’riligi yoki to’liq emasligi;
- tarmoqlar yoki sohalar faoliyatining o’ziga xos xususiyatlarining inobatga olinmaganligi;
- sub’ektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi mablag’lardan foydalanish bo’yicha bilim va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, bank riski – bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag’larining bir qismini yo’qotish, yoki daromad olomaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o’tkazishdir, degan ta’rifni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda bank sohasida turli xil operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bank o’ziga oluvchi risklarni boshqarish va ularni to’g’ri baholashning mohiyati oshib bormoqda.

Bank riskini boshqarish tizimi riskni yuzaga kelishini oldindan prognoz qilish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo’l qo’ymaslik yoki ularning ta’sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig’indisini o’z ichiga oladi.

Tijorat banklari risklarni minimallashtirishga qaratilgan risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Buning uchun esa bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay olish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyat turlari bo’yicha optimal qarorlar qilishga erishish, mijozlarning xo’jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarni bilish lozim.

Shuni esda tutish kerakki, hech qanday riskni butunlay bartaraf qilib bo’lmaydi. Shuningdek, bank faoliyati foiz stavkalari va valyuta kursini o’zgarishida “Risk-daromad” o’yini ko’zda tutadi. Shu bilan birgalikda bank qanchalik katta darajadagi riskni o’ziga olsa, foyda bank hisobga olgan darajada katta bo’lishi kerak. Bankning vazifasi – o’z operatsiyalarining riskliligi va foydaliligini o’zaro optimal nisbatiga erishish.

21.2 Bank risklarining klassifikatsiyasi va ularga tavsif.

Quyidagi jadvalda operatsiyalar o’tkazganda paydo bo’ladigan xavf -xatar nuktai nazaridan bank maxsulotlari hilma-hilligi ko’rsatilgan.

[109] Севрук В.Т. Банковские риски М7 дело 1995, 3 б
[110] Ольшанный А.И. «Банковские кредитование» М, РДЛ 1997
[111] Усоскин В.М. Современный коммерческий банк М. 1994
[112] Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент. М. 1993
[113] Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. T, «Moliya», 2002

Siesiy risklar - bular korxonalar va xujaliklar faoliyatiga siesiy axvoldagi uzgarishlar ta'siridir, Bunga chegaralarning bekilishi, boshka davlatlarga maxsulot xom ashe olib chikish takiklanishi. Boshka davlatlardan maxsulot, xom ashe olib kirilishning takiklanishi.

Iktisodiy risklar - bular Mamlakat eki bankning iktisodiy axvolidagi salbiy uzgarishlar okibatida yuzaga keladigan risklardir. Eng kup tarkalgan iktisodiy risk turiga balanslanmagan likvidlik riski kiradi, ya'ni majburiyatlar buyicha tulovlarni uz vaktida bajara olmaslik.

2-jadval

Bank maxsulotlarini risk darajasi[114].

№	Bank maxsuloti	Maxsulotning tovar-qiymat xususiyati	Xavf-xatar parametrlari (potentsial)
1	Ssuda operatsiyalari	qarzdorlarga kredit berish	Kredit xatari(imkoni bor va ommabop)
2	Depozitlarni boshqa banklarga joylashtirish	Moliyaviy resurslar savdosi	Foizli xatar (axborotga ega bo'lish saviyasiga ko'ra)
3	Depozitlarni mijozlardan jalb etish	Moliyaviy resurslarni sotib olish	Amalda mavjud emas
4	Mijozlar talabiga ko'ra hisob-kitoblarni amalga oshirish	Xizmatlar savdosi	Tijorat xatari imkoniyati
5	Kapital qo'yil-malarni bankning shaxsiy mablag'lari hisobidan mo-liyalash	Moliyaviy resurslar savdosi	Xatarning yuqori extimolliligi
6	qimmatbaho qogozlarni olish	qimmatbaho qogozlar portfelini shakllantirish uchun bank xarajatlari	Tizimli xatar imkoniyati
7	Kafolatnomalarni berish va kafolatlash	Xizmat ko'rsatish	Kafolat tasnifiga bogliq xatar
8	Valyuta oldi-sotdisi va uni sotib olish	Oldi-sotdi savdosi	Valyuta xatari (tizimi)
9	Lizing operatsiyalari amalga oshirish	Ijara	Ahamiyatsiz xatar
10	Xizmat ko'rsatish va tovar etkazib berish bazasidan	Oldindan to'lov, pul mablag'lari savdosi	Pul mablag'larini yo'qotish xatari (ahamiyati)

Bu risk paydo bulishiga uz navbatida boshka turdagi xususiy risklar ta'sir kursatadi. Masalan uz vaktida qaytarilmagan kredit bankning likvidlik riskining ortishiga erdam beradi.

Tarmok riski - ma'lum bir tarmokning iktisodiy -moliyaviy faoliyatidagi boshka tarmoklarga nisbatan uzgarib turish darajasi bilan tugridan tugri boglikdir. Tarmok faoliyatidagi uzgarishlar darajasi kancha baland bo'lsa tarmok riski shuncha yuqori buladi. Tarmok riskini boshkarishda kuyidagilarni etiborga olish kerak buladi:

Alternativ tarmoklar faoliyati kay darajada. Tarmoklar natijalari o'rtasidagi fark va sabablari.

Yaxshi faoliyat kursatib kelaetgan tarmokda keskin uzgarishlar bor bo'lsa, sababi nimadan iborat.

Bank mablagidan foydalanmokchi bulgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan uz tarmogi ichidagi uxshash korxonalar moliyaviy natijalari o'rtasidagi fark.

Foiz riski. Banklar uz faoliyatlari davomida doimo operatsiyalar riski bilan boglik bulgan foiz riskiga duch keladilar.


[114]Muallif tomonidan tuzilgan

Foiz riski- bu foiz stavkalaridagi uzgarishlarning foyda va operatsion xarajatlar o’rtasidagi farkka ta’siriga aytiladi.

21.3 Tijorat banklari risklarini baholash va boshqarish usullari.

Banklar faoliyati davomida amalga oshiradigan operatsiyalarining riskliligining miqdorini aniqlash muhim jarag’n hisoblanadi. Bu nafaqat banklarga, balki boshqa moliyaviy tashkilotlarga ham tegishli. Asosiysi, oldindan mavjud risklarni baholash bilan cheklanib qolmaslik kerak, yangi bozorlarda olib borilayotgan bank operatsiyalarining riskliligini aniqlash va baholash zarur. Ushbu vazifa marketing tadqiqotlari bilan uzviy bog’liq. Riskni baholash tizimi risklarning 3 ta tarkibiy qismini baholashi lozim, bular: risk hajmi, amalda bo’lish muddati va sodir bo’lish ehtimoli.

Tijorat banki tomonidan berilan kredit to’g’risidagi misolga qaytamiz: risklarni aniqlash uchun dastlab kredit reytinglarini belgilash lozim. Kreditning konkret turlari bo’yicha risklilik darajalarini baholagandan keyin kreditga foiz belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, bank o’z bo’yniga olgan risk uchun kompensatsiya miqdorini belgilaydi. Bu risklarni aniqlashga *individual yondashuv* deyiladi. Kredit portfeli doirasida risklarni baholash usulini har bir sohaga o’ziga xos reyting tizimini shakllantirish orqali takomillashtirish mumkin.



1-rasm. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi[115].

[115]Muallif tomonidan tuzilgan

Risklarni baholash tizimining murakkabligi darajasi bank faoliyat yuritayotgan sohaning risklilik darajasi bilan mos bo'lishi lozim. Agar bank xarajatlarini tejash maqsadida risklarni baholash tizimini tashkil qilmagan bo'lsa, uning risklardan ko'radigan zararlari tejalgan pullardan bir necha baravar ko'payishi mumkin.

Yuqori risklilik darajasiga ega bo'lgan sohalarda samarali faoliyat yuritish uchun tijorat banki qaror qabul qilishning alohida mexanizmini ishlab chiqishi lozim. Ushbu mexanizm qaysi sohada bank o'z bo'yniga qanchalik riskni olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatib berishi va kutilayotgan daromadlar risklarni qoplay oladimi, shu kabi masalalarni hal qila olishi lozim. Ushbu mexanizm asosida riskni kamaytirish chora tadbirlari ishlab chiqiladi. Demak, yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun tijorat banklari tomonidan shunday risklarni boshqarish tizimi yaratilishi kerakki, ushbu tizim orqali bank risklarni aniqlash, baholash, boshqarish va kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lsin. Risklarni boshqarish tizimi bir qator elementlardan tashkil topadi, ular quyidagi chizmada keltirib o'tilgan.

Risklarni boshqarish tizimi konkret chora tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, quyidagi jadvalda kredit bo'limi darajasida risklarni boshqarish elementlari keltirilgan.

3-**jadval**

Kredit risklarini boshqarish elementlari[116]

Risklarning darajalari	**Riskning aniqlanishi**	**Risk nazorati**	**Monitoring**
1-Daraja Kredit siyosati	Kredit tahlili	Yuridik ekspertiza	Kredit portfeli nazorati
2-Daraja Kreditning rejalashtirilishi	Kredit shartnomasini ko'rib chiqish va tasdiqlash (avtorizatsiya)	Kreditning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish.	Hisobotlar nazorati
Тижорат банклари балансига олинган ва қайта тикланган банкрот корхоналар ҳақида маълумот

№	Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	01.01.2010	01.01.2011	01.01.2012	01.01.2013
1.	Тижорат банклари балансига олинган корхоралар	Дона	86	147	164	168
2.	Қайта тикланган корхоналар	дона	-	140	156	157
3.	Инвесторларга қайта сотилган корхоналар сони	дона	70	64	110	120
4.	Банклар томонидан киритилган инвестициялар	Млрд.сўм	1000,0	156,0	275,0	388,0
5.	Яратилган иш ўринлари	Минг киши	17	21	22	
6.	Яратилган маҳсулот миқдори	Млрд сўм	-	460,0	1000,0	1700,0
7.	Экспорт қилинган маҳсулот миқдори	Млн. АҚШ доллари	-	165	320	480

24

Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг узига хос хусусиятлари

Ўзбекистон бозор иқтисодиётига ўтишнинг босқичма - босқич йўлини танлаганлиги боис, 1 - босқичдаги кредит-пул сиёсати соҳасидаги асосий вазифалар қуйидагилардан иборат қилиб қўйилди:

- Марказий банк бошчилигида кенг тармоқли мустақил тижорат ва хусусий банкларни ўзида мужассамлаштирган икки босқичли банк тизимини вужудга келтириш, республика ҳудудида йирик чет эл банкларининг бўлимлари ва ваколатхоналарини очиш учун қулай шароит яратиш;
- баркарор пул муомаласини таъминлаш;
- кредит ва нақд пул массасининг асоссиз ўсишини кескин чеклаш;
- Ўзбекистон Республикасининг миллий пулини муомалага киритиш учун зарур иқтисодий ва ташкилий шарт - шароитлар, ҳамда имкониятларини яратиш ва бошқалар.

Банк фаолиятида рискнинг иқтисодий асосланган чегаралардан чиқиб кетмаслик банк системаси баркарор ишланиши муҳим шартидир. Риск доираларини чеклаб қўйиш Марказий банк томонидан тижорат банклари учун риоя этилиши мажбурий бўлган иқтисодий меъёрларни белгилаб қўйиш орқали амалга оширилади. Марказий банк банклар учун мажбурий бўлган иқтисодий меъёрларни. Шу жумладан:

- капиталнинг етарлилиги коэффициенти;
- бир қарз олувчи ёки бир - бирига дахлдор қарз олувчилар гуруҳига таваккалчиликнинг энг кўп миқдорини;
- йирик кредит таваккалчилик ва инвестицияларнинг энг кўп миқдорини;
- ликвидлилик коэффициентларини ва бошқаларни белгилайди.

Банклар фаолиятини тартибга солиш ва уларни назорат қилишдан асосий мақсад "Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида" ги қонуннинг 50 - моддасига мувофиқ банк тизимини барқарор тутиб туриш, омонатчи ва кредиторлар манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

Тижорат банклари Ўзбекистон Республикаси Марказий банкидаги ўз ҳисобварақларидан ўзаро ҳисоб - китоблар учун фойдаланадилар ва ундан ташқари нақд пул зарур бўлганда ҳам улар Марказий банкга мурожаат қилишади.

3.Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида банк тизими ва ислоҳотлари

- Биринчи босқич (1991-1994 йиллар). Миллий валютани киритиш учун асос яратилган ва икки поғонали банк тизимига ўтиш пойдевори қурилди.
- Иккинчи босқич (1994-1996 йиллар). Бу даврда банк тизимининг ҳуқуқий базаси мустаҳкамланиб, Марказий банк вазифалари белгиланди. Бу даврда тижорат банклари сони ортди ва улар турлари кўпайди. Бу босқичда икки поғонали банк тизимини мустаҳкамлаш мақсадида, иқтисодий ўзгаришларга жавоб бера оладиган ва бошқарадиган "Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида"ги (1995 йил 21 декабр) ва "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги (1996 йил 25 апрел) Қонунларнинг қабул қилиниши алоҳида аҳамият касб этди, чунки мазкур қонунлар кейинчалик Халқаро валюта жамғармаси ва Жаҳон банки экспертлари томонидан ижобий баҳоланди.

02.09.2015. 28

- Учинчи босқич (1997-2000 йиллар). Бу даврда тижорат банклари корпоратив бошқарув кўринишини ола бошлади, акциядорлик кўринишига киритилган тижорат банкларини назорат қилиш орқали корпоратив бошқарув сифатини ошириш ва кучайтиришга йўналтирилган ислоҳотлар билан боғлиқ давр бўлди. Бу босқичнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, мазкур тизимга хусусий капиталларнинг кириб келиши билан изоҳланади. Бу жараён Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Хусусий тижорат банклари ташкил қилишни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармонининг қабул қилиниши билан янада фаоллашди.
- Тўртинчи босқич (2001 ва ундан юқори йиллар). Бунда банклар фаолиятини янада эркинлаштириш мақсадида аҳолини банк тизимига бўлган ишончини фаоллаштиришга қаратилади, яъни аҳолининг бўш маблағларини банк жамғармаларига ва депозитларга жалб этиш бўйича турли дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишни татбиқ этиш орқали банк тизимининг реал ишлаб чиқариш секторини кредитлаш имкониятларини янада кенгайтирди. Натижада тижорат банклари корхоналарнинг чинакам ҳамкорларига айланмоқда ва ўз ресурсларини фойдали лойиҳаларни молиялаштиришга йўналтириб, мамлакатимиз иқтисодиётининг юқори суръатларда ривожланишига хизмат қилмоқда.

02.09.2015. 29

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.04.2015 й. "Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4720-рақамли Фармони

-эски бўлинмалар ва лавозимларни тугатиш, замонавий халқаро стандартлар ва бозор иқтисодиёти талабларига мос янги бўлинма ва лавозимларни жорий этишни инобатга олган ҳолда, акциядорлик жамиятларини бошқариш тузилмасини тубдан қайта ташкил этиш;

-акциядорлик жамиятларини стратегик бошқариш, бошқарув ходимларининг самарали фаолиятини назорат қилишни таъминлашда акциядорлар, жумладан, миноритар акциядорлар ролини ошириш;

-етакчи хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорлик асосида бошқарув ходимларини тайёрлаш ва уларнинг касб даражасини ошириш, шунингдек, акциядорлик жамиятларида раҳбарлик лавозимларига чет эллик юқори малакали менежерларни жалб қилиш.

30

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.04.2015 й. “Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4720-рақамли Фармони

Фаолият кўрсатаётган акциядорлик жамиятларини танкидий ўрганиш натижаларига кўра, 364 акциядорлик жамияти ночор ва тугатилиши ёки бошқа ташкилий-ҳуқуқий шаклга айлантирилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 31 мартдаги ПҚ-2327-сонли қарори билан ташкил этилган Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш комиссияси қайд этилган акциядорлик жамиятларини қайта ташкил этиш жараёнини 2015 йилнинг 1 октябрига қадар тугатиш устидан қатъий назорат ўрнатсин.

31

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 6 майдаги “Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва уларнинг ресурс базасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2344-сонли Қарори

Банк назорати бўйича Базель қўмитаси томонидан тижорат банкларига нисбатан қўйиладиган меъёрий талабаларни янада такомиллаштиришни, жумладан, капиталнинг етарлилиги ва ликвидлилик кўрсаткичи бўйича янги талабларни назарда тутган янги стандартлар ва тавсиялар (Базель-III стандартлари) ишлаб чиқилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки:

-банк назорати бўйича Базель қўмитасининг стандарт ва тавсияларини (Базель-III стандартлари) 2015 — 2019 йилларда босқичма-босқич жорий этилишини таъминласин;

Банклар уюшмаси ва тижорат банклари билан биргаликда бир ой муддатда Марказий банкнинг қайта молиялаштириш ставкаларини, кейинги йилларда инфляция даражаси изчил пасайишини, шунингдек бошқа макроиқтисодий кўрсаткичларнинг барқарорлигини ҳисобга олган ҳолда тижорат банклари жалб қилаётган депозитлар фоиз ставкаларини белгилаш механизмини ишлаб чиқиб, тасдиқласин.

32

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 6 майдаги “Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва уларнинг ресурс базасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2344-сонли Қарори


Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тижорат банкларининг инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришга йўналтириладиган узоқ муддатли кредитлари улушини кўпайтиришни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2009 йил 28 июлдаги ПҚ-1166-сонли қарори билан тижорат банкларига кредит портфели таркибидаги узоқ муддатли инвестициявий молиялаштириш улушига қараб табақалаштирилган ставкалар бўйича фойда солиғини тўлаш юзасидан берилган имтиёзларнинг амал қилиш муддати 2020 йилнинг 1 январига қадар узайтирилсин.

33

Ўзбекистон Республикаси банк тизимида хорижий капитал иштироки.


- Банкни фаолиятини ривожлантиришда хориж банкирлари сегментлаш услубиётидан фойдаланадилар. Бундай услубиёт банк фаолиятида энг оддий турлар рўйхатини тузиш ва сўнгра - уларни қўйидаги мезонларга мувофиқ равишда бир хилдаги гуруҳларга солишдан иборат бўлади:
- мижозлар;
- рақобатчилик;
- технология.

02.09.2015. 34



4. Кичик тадбиркорлик (бизнес) нинг иқтисодиёт ва унинг асосий тармоқларидаги улуши ,фоиз ҳисобида

	2000 й.[1]	2001 й.[1]	2002 й.[1]	2003 й.	2004 й.	2005 й.	2006 й.	2007 й.	2008 й.	2009 й.	2010 й.	2011 й.	2012 й.	2013 й.[2]
ЯИМ	31.0	33.8	34.6	35.0	35.6	38.2	42.1	45.7	48.2	50.1	52.5	54.0	54.6	55.8
Саноат	12.9	12.5	15.4	10.8	11.0	10.0	10.9	13.2	14.6	17.9	18.8	21.9	23.1	20.1
Қишлоқ хўжалиги	73.6	74.5	74.9	78.1	81.1	85.7	94.0	97.6	97.7	97.8	97.8	97.7	97.8	98.1
Инвестиция	15.4	13.4	16.3	15.0	18.8	24.0	26.5	25.7	24.6	23.7	20.5	31.9	35.3	32.7
Қурилиш	38.4	40.4	42.0	39.9	49.6	50.9	52.1	55.4	58.4	42.4	53.1	68.6	71.1	71.5
Савдо	42.5	42.5	39.6	42.4	42.3	43.7	45.7	48.2	48.1	47.8	50.3	47.1	45.6	46.1
Пуллик хизматлар	37.0	39.4	40.1	45.3	47.9	52.5	50.8	50.1	48.5	46.9	47.0	46.3	44.9	46.2
Жами хизматлар	x	x	x	x	x	x	x	44.1	44.2	44.1	45.7	46.1	46.8	48.9
Юк ташиш	6.7	8.3	12.0	14.7	19.7	24.6	27.2	34.7	38.1	39.5	41.6	43.2	44.2	47.3
Юк айланмаси	25.8	31.2	37.2	45.8	54.1	59.7	64.7	70.4	74.6	73.1	76.6	78.9	81.2	82.8
Йўловчи ташиш	20.0	34.6	39.5	48.3	57.6	65.7	69.4	75.7	78.4	78.8	79.4	81.8	83.1	84.5
Йўловчи айланмаси	44.0	49.5	54.7	63.4	71.9	77.8	80.4	84.8	84.5	82.9	84.7	87.0	87.6	87.7
Экспорт	10.2	9.3	7.5	7.3	7.3	6.0	10.7	14.8	12.4	14.6	13.7	18.8	14.0	24.1
Импорт	27.4	26.9	24.9	33.7	32.7	33.7	34.0	32.0	35.7	42.5	35.8	34.3	38.6	42.4
Бандлик	49.7	51.8	53.5	56.7	60.3	64.8	69.1	72.1	73.1	73.9	74.3	75.1	75.6	76.7



Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 15 майдаги “Хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4725-сонли Фармони

- 2015 йилнинг 1 июлидан шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:
- микрофирмалар, кичик корхоналар ва фермер хўжаликлари фаолиятига оид барча текширувлар режали тартибда назорат органлари томонидан тўрт йилда бир мартадан, бошқа хўжалик субъектларида эса фақат Ўзбекистон Республикаси Назорат қилувчи органлар фаолиятини мувофиқлаштирувчи республика кенгаши қарорига асосан уч йилда бир мартадан кўп бўлмаган тартибда амалга оширилади;
- молия-хўжалик фаолияти билан боғлиқ бўлмаган режали текширувлар ўтказиш муддати 10 календарь кунидан ошмайди;
- тадбиркорлик субъектларининг молия-хўжалик фаолиятини режали текширишлар фақат сўнгги режали текширувдан кейинги даврни камраб олади;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 15 майдаги “Хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4725-сонли Фармони

- микрофирмалар, кичик корхоналар ва фермер хўжаликлари фаолиятига оид барча текширувлар режали тартибда назорат органлари томонидан тўрт йилда бир мартадан, бошқа хўжалик кўзғатилган жиноий ишлар муносабати билан хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти ҳукукни муҳофаза қилувчи органлар томонидан хўжалик юритувчи субъект жалб этган адвокатлар албатта иштирок этган ҳолда (хўжалик юритувчи субъект томонидан ушбу ҳукукнинг рад этилиш ҳолатлари бундан мустасно) амалга оширилади;
- Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 184-моддасида назарда тутилган жиноятни (соликлар ёки бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлаш) биринчи марта содир этган, жиноят аниқлангандан кейин 30 кун ичида давлатга етказилган заарни тўлиқ қоплаган, пеня ва бошқа турдаги молиявий санкцияларни тўлаган шахсга нисбатан жиноий иш кўзғатилмайди ва у жавобгарликдан озод қилинади.

39

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 15 майдаги “Хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4725-сонли Фармони

- 4. Белгилаб қўйилсинки:
- тегишли даъвони кўриб чиқиш даврида тадбиркорлик субъекти томонидан шикоят қилинганда хўжалик судларига назорат қилувчи орган қарори ижросини тўхтатиб туриш ҳукуки берилади;
- солиқ ва божхона қонунчилиги тадбиркорлик субъектлари томонидан бузилиши билан боғлиқ ҳолатда уларнинг мол-мулклари фақат суд қарори бўйича олиб қўйилади;
- тадбиркорлик субъектлари томонидан эътироз қилинадиган қўшимча ҳисобланган божхона тўловлари хўжалик суди қарори бўйича ундирилади;
- Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Адлия вазирлиги, Молия вазирлиги ва бошқа манфаатдор вазирликлар ҳамда идоралар билан ҳамкорликда уч ой муддатда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасига тадбиркорлик субъектларининг қонуний манфаат ва ҳукукларини ишончли ҳимоя қилиш, тадбиркорлик субъектлари даъволарини кўриб чиқиш муддати, жумладан, ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш орқали тезлаштиришни таъминлаш бўйича суд органлари роли ва фаолияти самарадорлигини янада ошириш борасида таклифлар киритсин.

40

5.Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг вазифалари ва функциялари

- Республикамизда банк фаолиятини хорижий банклар иштирокида олиб бориш Марказий банк томонидан тақдим этиладиган махсус лицензия асосида амалга оширилади. Уларнинг асосий вазифалари, функциялари ва фаолият доираларини ҳукукий белгилаш билан бирга, Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Марказий банки меъёрий ҳужжатларида кўрсатилган.
- Марказий банкнинг мавқеи Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам алоҳида моддалар билан кўрсатиб қўйилди.Ҳар қандай хориж банклари билан вакиллик муносабатларини молиявий тизимда учта элементдан таркиб топган ҳолда олиб борилади:
- - бевосита кредитлаш жараёни, ликвидли маблағларни айирбошлаш ва бошқалар амалга оширадиган сармоялар бозорлари;
- - қарз мажбуриятлари ва таваккалчиликларни трансформация қилиш йўли билан билвосита кредитлашни таъминлайдиган банк сектори;
- - хўжалик юритувчи субъектларнинг энг кам харажатлар ва таваккалчилик билан ҳисоб-китобларни амалга оширишга ёрдам берадиган тўлов механизми.

02.09.2015. 41

- Ўзбекистонда ҳам банк тизими икки поғонадан иборат бўлиб, уларнинг фаолияти тегишли қонун ҳужжатлари асосида тартибга солинади. Икки поғонали банк тизимида банклар – эмиссион банк (Марказий банк) ва эмиссион бўлмаган (тижорат банклари, кредит уюшмалари, микрокредит ташкилотлар, ломбардлар) банклардан ташкил топади.
- Ўзбекистонда икки поғонали банк тизимининг шаклланиши 1987 – 1990 йилларда, собиқ Давлат банкини ислоҳ қилиш даврига тўғри келади.
- Марказий банкларнинг вужудга келиш тарихига эътибор қаратадиган бўлсак, улар мамлакатда пул муомаласини тартибга солиб турувчи молиявий муассаса сифатида вужудга келди.

42

- Барча мамлакатларда Марказий банкларнинг бажарадиган вазифалари ва функциялари деярли бир хил бўлиб, улар турли мамлакатларда турли номда юритилиши мумкин. Хусусан, хозирги кунда, бизга маълумки, дунёнинг турли мамлакатларида ушбу банклар "марказий банк", "халк банки", "эмиссион банки", "миллий банки", "захира банки", "давлат банки" тарзида юритилади.
- Масалан, АҚШда Федерал захира тизими, Англияда Англия банки, Европада Европа Марказий банки, Ўзбекистонда Марказий банк, Қозоғистонда Миллий банк ва ҳоказо.

43

- Иқтисодий адабиётларда, дастлабки Марказий банк 1650 йилда Швециянинг Стокгольм шаҳрида ташкил этилганлиги қайд қилинган. Ушбу банк олтин тангалар асосида депозит сертификатларини муомалага чиқарган, мазкур депозит сертификатлари бутун швеция ҳудудида тўлов воситасини бажарган бўлиб, тақдим қилувчига олтин танга берилиши билан кафолатланган.
- Дастлабки эмиссион банк 1694 йилда Англия банки сифатида ташкил этилган бўлиб, ушбу банк муомалага пулларни эмиссия қилиш ва банкларнинг тижорат векселларини рўйхатга олиш билан шуғулланган.

44

- Марказий банкларнинг ташкил топиш шаклига эътибор қаратадиган бўлсак, улар давлат капитали асосида ташкил топган марказий банклар (Буюк Британия, Европа иттифоқи, Россия), акциядорлик шаклидаги марказий банклар (АҚШ, Италия), аралаш капитал иштирокида марказий банклар (Япония, Бельгия) кўринишида вужудга келган.

45

ЖАҲОН АМАЛИЁТИДА МАРКАЗИЙ БАНКЛАР ВУЖУДГА КЕЛИШИНИНГ ИККИ АСОСИЙ ЙЎЛИ МАВЖУД:

- Биринчи йўл - узоқ давр давомида тижорат банкларнинг ривожланиши натижасида, уларни миллийлаштириш йўли билан Марказий банкларнинг ташкил қилиниши. Масалан Франция банки 1880 йилда, Германия Рейхсбанк - 1875 йилда, Италияда - 1893 йилда, Испанияда - 1874 йилда эмиссион марказ сифатида фаолият кўрсата бошлади.
- Иккинчи йўл - ташкил қилингандаёқ Марказий банк эмиссион марказ сифатида қабул қилинган банклар. Бундай банкларга АҚШнинг федерал банклари (1913) кўпгина Лотин Америка мамлакатлардаги банклар, Австрия банки ва бошқаларни мисол келтириш мумкин.

46

Мустақилликка эришилгунча қадар Ўзбекистон ҳудудидаги банк муассасалари собиқ Иттифоқ банк тизими таркибий қисмига кирар эди. Собиқ «Иттифоқ» банк тизими доирасидаги банклар: Иттифоқ Давлат банки, Иттифоқ Қурилиш банки ва Иттифоқ Ташқи банкини ўзига оларди.

- Банк тизимини қайтадан ташкил этиш 1987 йилда бошланди. Бу жараёнда банк тизимининг ташкилий тўзилмасини ўзгартириш, банкларнинг ролини ошириш, иқтисодий тизимнинг ривожланишига уларнинг таъсирини кучайтириш, кредитни ҳаракатдаги иқтисодий дастакчага айлантириш кўзда тутилганди.

47

02.09.2015

Қайта ташкил этиш жараёнини биринчи босқичида давлат банкларининг янги тузилмасини ташкил этиш бошланди. Қайта ташкил этиш модели қуйидагиларни ўз ичига олади:

- - икки босқичли банк тизимини вужудга келтириш: Марказий эмиссион банк ва бевосита хўжаликларга хизмат кўрсатувчи ихтисослашган давлат банклари;
- - ихтисослаштирилган банкларни тўлалигича хўжалик ҳисобига ва ўз-ўзини молиялашга ўтказиш;
- - иқтисодий тизим доирасида юридик ва жисмоний шахслар билан бўладиган кредит муносабатлари услублари ва шаклларини такомиллаштириш.

48

02.09.2015

Банк тизимининг такомиллаштирилиши натижасида вужудга келган махсус ихтисослашган банклар:

- Саноат қурилиши банки;
- Коммунал қурилиш ва социал тараққиёт банки;
- Агросаноат банки;
- Миллий банк,
- Жамғарма банки.

- Ихтисослаштирилган Ўзбекистон Республикасида икки босқичли банк тизимини ташкил этишга реал асос 1991 йил 15 февралда «Банклар ва банк фаолияти тўғрисидаги» қонуни ҳисобланади.

49

02.09.2015

16-МОДДА. БОШҚАРУВ ТАРКИБИ

- Марказий банкнинг олий органи унинг Бошқарувидир. Бошқарув Марказий банк сиёсати ва фаолиятининг асосий йўналишларини белгилаб беради, банкни бошқаради.
- Бошқарув ўн бир кишидан иборат бўлади. Бошқарув таркибига Марказий банк Раиси, унинг ўринбосарлари, шунингдек банкнинг асосий бўлинмалари раҳбарлари киради.
- Марказий банк Раиси Бошқарувнинг Раиси ҳисобланади. Бошқарув аъзоларини (Марказий банк Раисининг биринчи ўринбосари ва ўринбосарлари бундан мустасно) Марказий банк Раисининг тақдимномасига биноан Олий Мажлис Сенатининг Кенгаши тасдиқлайди.

50

02.09.2015

Марказий банкнинг ёрдамчи корхоналари

- 1."Давлат белгиси" Давлат ишлаб чиқариш бирлашмаси
- 2.Қимматбаҳо металлар агентлиги
- 3. Давлат асиллик даражасини белгилаш палатаси
- 4. Республика Инкассация бирлашмаси
- 5. "Ахборотлаштириш Бош маркази" ДУК
- 6. Ўзбекистон Республикаси Молия соҳасини ривожлантириш агентлиги
- 7. Республика валюта биржаси

02.09.2015

51

31-МОДДА. МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ МИЖОЗЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШИ

- Марказий банк қонун ҳужжатларида назарда тутилган тартибда ва шартларда давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари, уларнинг муассасалари ва ташкилотлари, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Миллий хавфсизлик хизмати, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Давлат божхона қўмитаси, Давлат чегараларини ҳимоя қилувчи қўмита, шунингдек Марказий банкка қарашли корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг асосий ҳисобварақларига хизмат кўрсатиш бўйича банк операцияларини амалга ошириши мумкин.

02.09.2015

52


БОЗОР ИҚТИСОДИ ШАРОИТИДА МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ АСОСИЙ МАҚСАДИ

- пул-кредит тизими ва валюта барқарорлигини таъминлаш асосида иқтисодий ўсишга эришишдан иборат.

02.09.2015

53

Марказий банкнинг асосий вазифалари:




02.09.2015

54

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки қуйидаги функцияларни бажаради:

02.09.2015.



55

4-МОДДА. МАРКАЗИЙ БАНК УЧУН ТАҚИҚЛАНГАН ФАОЛИЯТ ТУРЛАРИ

02.09.2015.

- Марказий банк:
- молиявий ёрдам кўрсатиш билан шуғулланишга;
- тижорат фаолияти билан шуғулланишга;
- Ўзбекистон Республикаси Халқ банкининг, "Микрокредитбанк" акциядорлик тижорат банкининг, шунингдек Марказий банк фаолият юритишини таъминловчи корхоналар ва ташкилотларнинг капиталларида иштирок этишини истисно этганда, банклар ва бошқа юридик шахсларнинг капиталларида қатнашишга ҳақли эмас.

56

«Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури.

2015 йил 18 февраль,ПК-2302-сон

02.09.2015.

- I. Кексаларга ғамхўрлик кўрсатиш ва эътиборни кучайтириш, уларнинг ҳаёт даражаси ва сифатини ошириш учун қулай ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитлар яратишга қаратилган конунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш, пенсия таъминоти ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш, ёши улуғ инсонларга давлат хизматлари, шу жумладан, турли маълумотнома ва тасдиқловчи ҳужжатларни олиш хизматлари кўрсатишнинг энг қулай тизимини шакллантириш.
- II. Кексалар, авваламбор, фашизм устидан қозонилган Ғалаба ва Ватанимизни қайта тиклашга муносиб ҳисса қўшган 1941 — 1945 йиллардаги уруш ва меҳнат фронти фахрийларини манзилли ижтимоий ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлашни кучайтириш, ёши улуғ инсонлар, биринчи навбатда ёлғиз қариялар ва ногиронларга кўрсатиладиган ижтимоий ва маиший хизматлар рўйхатини кенгайтириш, уларни фаровон ва муносиб турмуш шароитлари билан таъминлаш учун маҳаллалар, «Нуроний» жамғармаси, бошқа нодавлат ташкилотлари ва ижтимоий тузилмалар томонидан моддий ва маънавий қўллаб-қувватлаш миқёсини ошириш.

57

«Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури.

2015 йил 18 февраль,ПК-2302-сон

02.09.2015.

- III. Фахрийлар ва ёши улуғ инсонларга тиббий ва ижтимоий хизмат кўрсатиш даражаси ва сифатини ошириш, уларни тизимли асосда соғломлаштиришни ташкил этиш, профилактика тадбирларини кўпайтириш, кўриш ва эшитиш органлари, таянч-ҳаракат тизими ва юрак-қон томир касалликларини даволашнинг замонавий усуллари билан қамраб олиш ва улардан фойдаланишни кенгайтириш, кексалар ва ногиронларни ёрдамчи ҳамда техник реабилитация воситалари билан, жумладан, имтиёзли асосда таъминлаш, кексаларга хизмат кўрсатишга ихтисослаштирилган санаторий-соғломлаштириш ва ижтимоий хизмат кўрсатиш муассасаларининг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш.
- IV. Мамлакатимизнинг мудофаа қобилияти, иқтисодий, маданий ва интеллектуал салоҳиятини ошириш, жамиятимизда тинчлик, тотувлик ва барқарорлик муҳитини мустаҳкамлашга бебаҳо ҳисса қўшган, соғлом ва баркамол униб-ўсаётган авлодни тарбиялашда фаол иштирок этаётган кекса авлод вакилларига муносиб эътибор қаратиш ва уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича кенг кўламли чора-тадбирларни тизимли асосда амалга ошириш, оила ва жамиятда ёши улуғ инсонларнинг ўрни ва обрўсини ошириш, болалар ва ёшларни ота-оналарни, ҳар бир нуронийни чуқур хурмат қилиш, эъзозлаш ва уларга ғамхўрлик кўрсатиш туйғуси руҳида тарбиялаш бўйича аниқ тадбирларни амалга ошириш

58

«Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури.

2015 йил 18 февраль,ПҚ-2302-сон

- V. Ҳар бир кексага ҳар томонлама эътибор қаратиш бўйича амалга оширилаётган ишлар самарадорлигини кучайтириш ва ошириш, кексаларнинг ҳаёт фаолияти ва дам олишини ташкил этиш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, бунда улар учун туман ва маҳаллаларда мулоқот марказлари, қизиқиши бўйича клублар ташкил этишга алоҳида эътибор қаратиш, жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишлари учун шароит яратиш, телевидение, оммавий ахборот воситалари, кинотеатрлар, театр ва бошқа маданий-маърифий муассасаларда ёши улуғ инсонларнинг қизиқишларига мос мавзуда янги махсус кўрсатувлар, спектакль ва фильмлар яратиш ва эфирга узатиш ҳажмини кўпайтириш.
- VI. Маҳаллалар ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ташкилий тузилмасида кексалар ва ногиронларга доимий эътибор қаратадиган секторни мустаҳкамлаш, бунда уларга хизмат кўрсатадиган идора ва хизматлар, биринчи навбатда, пенсия, ижтимоий ва тиббий таъминот хизматлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилишни назарда тутиш.

02.09.2015.

59

«Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури.

2015 йил 18 февраль,ПҚ-2302-сон .

2015 йилда Дастур тадбирларини амалга оширишга харажатларнинг жами: 2 246,5 млрд сўм ва эквивалентда 229,6 млн доллар.

Улардан:	сўмда	долларда
Бюджет ва бюджетдан ташқари жамғармалар маблағлари	— 310,3 млрд сўм	
Бажарувчилар ва ҳомийлар маблағлари	— 995,2 млрд сўм	— 4,6 млн доллар
Тижорат банклари кредитлари	— 940,3 млрд сўм	
Халқаро ташкилотлар, молиявий институтлар маблағлари ва грантлар	— 0,7 млрд сўм	— 225 млн доллар

02.09.2015.

60

Тижорат банкларининг функциялари ва операциялари.

*Банкларнинг асосий максади пул маблағларини кредиторлардан қарз олувчиларга ва сотувчилардан харидорларга ўтказишда воситачилик килишдир. Банклар билан бир каторда, бозорларда пул маблағларни ўтказишни бошқа молиявий ва кредит - молиявий ташкилотлар: инвестицион фондлар, сугурта компаниялари, брокерлар, дилер фирмалари ва хокозолар бажарилишлари мумкин.

61

02.09.2015.

•Банклар, молиявий бозор субъекти сифатида бошқа субъектлардан қуйидаги белгилари билан ажралиб туради.:

- Биринчидан, банклар учун қарз мажбуриятларининг икки томонлама алмаштириш характерлидир (хосдир): улар ўзларининг мажбуриятларини (депозит) шакллантирадилар ва жалб килинган маблағларни қарз мажбуриятларига, қимматли қоғозларга (бошқаларнинг чиқарган қоғозларига) жойлаштирадилар;
- Иккинчидан банклар ўзларига юридик ва жисмоний шахслар олдидаги каътий белгиланган сумма буйича шартсиз мажбуриятларни оладилар.
- Аммо шуни назарда тутиш зарурки, бугунги кунда аник олинган банк ташкилоти амалиётида барча санаб ўтилган банк операциялари амалга оширилмайди ёки деярли мавжуд эмас.

62

02.09.2015.

2.Банкларнинг функциялари

* -вақтинча буш турган пул маблағларни йигиш ва уларни капиталга айлантириш;
* -корхона, ташкилотлар ва ахолини кредитлаш;
* -муомалага кредит пуллар (муомаланинг кредит воситалари) ни чикариш;
* -халк хужалигида ҳисоб-китоблар ва тўловларни амалга ошириш;
* -молия - валюта бозорида фаолият курсатиш;
* -иқтисодий-молиявий ахборотлар бериш ва маслахат хизматларини курсатиш.

63 02.09.2015.

Банкнинг функциялари

Банкнинг бирламчи ва асосий функцияси бўлиб, вақтинчалик буш пул маблағларини аккумляция килиш, йигиш функцияси ҳисобланади.
Аккумляциясининг узига хос тамойилларни ҳисобга олиш зарурдир. Банклар буш пул маблағларини йигиш ва уларни капиталга айлантириш функциясини бажара туриб мавжуд буш пул даромадлари ва жамгармаларни йигади.

Банкларнинг иккинчи функцияси- пул муомаласини тартибга солиш функцияси. Банклар турли хужалик субъектлар орқали утадиган тўлов муомаласи (обороти) нинг маркази сифатида чикадилар. Ҳисоб-китоблар тизими орқали банклар узларининг мижозларига айирбошлашни амалга оширишни, пул маблағлари ва капитални айланиши учун шароит яратиб берадилар.

64 02.09.2015.



65 02.09.2015.

Махсус ихтисослашган кредит институтлари (банклар) тижорат банклари фаолиятини тўлдиради ва улар иқтисодиётнинг кам рентабеллик, кам фойдали тармоқларига (қишлоқ хўжалиги, уй-жой қури-лиш, тадбиркорликни ривожлантириш ва бошқалар) енгил шароитда кредитлар бериш йўли билан уларнинг фаолиятини рағбатлантириб, ривожлантириб боради.

Кредит уюшмаси деб юридик ва жисмоний шахслар томонидан кредитлар бериш мақсадида ихтиёрий тенг ҳуқуқли аъзолик асосида тузиладиган кредит ташкилоти эътироф этилади. Кредит уюшмаси Ўзбекистон Республикаси ҳудудида банк ҳисобварақларини белги-ланган тартибда очишга ҳақлидир.

1. Кредит уюшмаси ўзининг фирма номи давлат тилида тўлиқ ёзил-ган ҳамда жойлашган манзили кўрсатилган юмалоқ муҳрига эга бўлиши лозим.

2. депозитларга қўйиш учун ўз аъзоларидан пул маблағларини жалб этиш;
- ўз аъзоларига кредитлар бериш;
- ўз уставига мувофиқ шартномалар тузиш ва бошқа фуқаролик-ҳуқуқий битимларни амалга ошириш;

3. грантлар ҳамда бепул бериладиган бошқа маблағларни олиш;
- маслаҳат ва ахборот хизматлари кўрсатиш;
- кредит уюшмаси аъзолари молиявий мажбуриятларини бажармаганликлари ёки лозим даражада бажармаганликлари учун тўлайдиган миқдорини белгилаш;
- кредитларни белгиланган тартибда жалб этиш
- .

Микрокредит, микроқарз, микролизинг бериш соҳасида хизмат-лар кўрсатиш бўйича фаолиятини амалга оширувчи ва ушбу Қонунга мувофиқ бошқа микромолиявий хизматлар кўрсатувчи юридик шахс **микрокредит ташкилотидир**.

1. Микрокредит ташкилоти қуйидаги турлардаги микромолиявий хизматлар кўрсатиши мумкин:
- микрокредитлар ёки микроқарзлар бериш;

2. қарз мажбуриятларини сотиб олиш ва сотиш (факторинг);
- микрокредит ташкилоти лизинг берувчи сифатида иштирок этадиган микролизинг (молия ижараси

қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа турдаги микромолиявий хизматлар кўрсатиш, шу жумладан истеъмол кредитлари бериш.

3. Микрокредит ташкилоти микрокредитлар, микроқарзлар, микролизинг бериш ва бошқа микромолиявий хизматлар кўрсатиш билан бсғлиқ маслаҳат ва ахборот хизматлари кўрсатиши мумкин.

Микрокредит ташкилоти қарз мажбуриятларини чиқаришга ҳамда юридик ва жисмоний шахслардан омонатлар (депозитлар) қабул қилишга ҳақли эмас.

Ломбард ташкилотлари деганда қимматбаҳо металларни гаровга олган ҳолда кредит берувчи юридик шахс мақомига эга ташкилотлар тушунилади. Ломбард ташкилотлари жисмоний шахслар ўзининг молиявий хизматларини кўрсатади

2-МАВЗУ. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХУҚУҚИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ АСОСЛАРИ

РЕЖА:

- Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида тижорат банклари бозор инфратузилмасининг асосий тармоғи сифатида.
- Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози шароитида Ўзбекистон Республикасининг банк тизими ва унинг асосий операциялари.
- Банк турлари уларнинг функционал йўналиши бўйича классификацияси (эмиссион, тижорат, мулк, ихтисослашув ва бошқалар)
- Ўзбекистон Республикаси банк тизимининг узига хос хусусиятлари
- Ўзбекистон Республикаси "Банклар ва банклар фаолияти" тўғрисидаги конун.
- Бозор иқтисодиёти шароитида пул маблағларини айланиши ва кредитлаштиришда банкнинг функциялари.
- Тижорат банклари тизими. Давлат тижорат банклари. Давлат Акциядорлик банклари. Хусусий банклар. Қўшма банклар.
- Тижорат банклари капиталига қўйилган талаблар.
- Ўзбекистон республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларини назорат килиш ва фаолиятини тартибга солиш инстурментлари.
- Тижорат банкларининг бугунги кундаги фаолиятини такомиллаштириш муаммолари.

5.Ўзбекистон Республикаси "Банклар ва банклар фаолияти" тўғрисидаги конун.

- Ўзбекистон республикасининг N 216-I "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида" ги Конуни 25.04.1996 йилда қабул қилинган. Қонун ўз ичига қуйидаги бўлимларни олган:

I. Умумий кондалар (1-6-моддалар)

II. Банклар ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини тугатиш тартиби (7-19-моддалар)

III. Банк фаолиятини тартибга солиш. Банкларнинг хукук ва бурчлари (20-35-моддалар)


IV. Банкларга васийлик килиш (36-37-моддалар)

V. Банк мижозларининг манфаатларини химоя килиш (38-40-моддалар)

VI. Банкларда хисоб юритиш ва хисобот. Банкларни назорат килиш (41-44-моддалар)

БАНК - ТИЖОРАТ ТАШКИЛОТИ БЎЛИБ, БАНК ФАОЛИЯТИ ДЕБ ХИСОБЛАНАДИГАН КУЙИДАГИ ФАОЛИЯТ ТУРЛАРИ МАЖМУИНИ АМАЛГА ОШИРАДИГАН ЮРИДИК ШАХСДИР:

- юридик ва жисмоний шахслардан омонатлар кабул килиш хамда кабул килинган маблаглардан тавакка л килиб кредит бериш ёки инвестициялаш учун фойдаланиш;
- тўловларни амалга ошириш.



Банклар бевосита ишлаб чикариш, савдо ва сугурта фаолияти билан шугулланишга хакли эмаслар.

Банк куйидаги холларда ўз фаолиятини тўхтатади:

- акциядорлар йигилишининг карорига кўра;
- Марказий банк лицензияни чакириб олганида;
- банкрот деб эълон килинганида.

6.Бозор иктисодиёти шароитида пул маблағларини айланиши ва кредитлаштиришда банкнинг функциялари.

- Тижорат банклари кредитлаш жараенлари орқали мамлакат иқтисодининг ривожланишига хам жуда катта хисса қўшмокда.
- Тижорат банкларининг яна бир мухим функциясидан бири бу хисоб тўловларини амалга ошириш функциясидир. Бугунги кунда корхона ва хўжаликлари ўртасидаги хисоб–китобларнинг асосий қисми пул ўтказиш йўли билан амалга оширилмокда. Бу жараенларда тижорат банки воситачи сифатида тўловлар ўтказиш жараенини бажармокда.

Айни пайтда банк тизимининг умумий активлари ҳажми аҳоли ва юридик шахсларнинг ҳисобваракларидаги маблағлар миқдоридан 2 баробардан ҳам ортиқ бўлиб, бу депозитларни ишончли ҳимоя қилиш ҳамда уларга ўз вақтида ва тўла ҳажмда хизмат кўрсатишни кафолатлайди.

7. Тижорат банклари тизими. Давлат тижорат банклари. Давлат акциядорлик банклари. Хусусий банклар. Қўшма банклар.

- Тижорат банкларини белгиларига қараб қуйидаги турларга бўлиш мумкин. Мулкчилик шаклига қараб банклар: давлат банкига, аксиядор банкларга, кооператив, хусусий, минтакавий, аралаш мулкчиликка асосланган банкка булинади. Аксиядор банклар аксиядор жамият каби очиқ турдаги ёки ёпиқ турдаги аксиядор банклар бўлиши мумкин.

- Акциядор тижорат банкларининг юқори органи - акциядорларнинг умумий йиғилиши ҳисобланади.

Баъзи тижорат банклари пайлар (бадаллар) ҳисобидан ташкил килиниши мумкин. Бу турдаги банкларнинг қатнашчилари ҳам ҳукукий ва жисмоний шахслар бўлиши мумкин.

Бажарадиган операцияларига караб тижорат банклар - универсал ва махсус банкларга булинади.

Универсал банклар хилма-хил операциялар бажариш, хар хил хизматлар амалга ошириш хусусиятига эга булади. Махсус банклар маълум юналишларга хизмат курсатиб, уз фаолиятини шу юналишларда ютукларга, самарадорликка эришишга багишлайди.

Ташкилий тузилиш бўйича гуруҳлаш ушбу давлатда фаолият олиб борадиган кредит турлари ва шаклларини, бунда иштирок этадиган банкларнинг турларини ўз ичига олади.

8.Тижорат банклари капиталига қўйилган талаблар.

Натижада охирги беш йил давомида мамлакатимиз банк сектори капиталининг етарлилик даражаси банк назорати бўйича Базель қўмитаси томонидан 8 фоиз этиб белгиланган халқаро меъёрдан 3 баробар кўп бўлган даражани ташкил этди.

Ҳисобот йилида тижорат банкларининг жами капитали ўтган йилга нисбатан 30 фоиз ошиб, 2012 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра 5,3 трлн. сўмни ташкил этди.

- Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида", "Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида", "Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар хукукларини химоя қилиш тўғрисида"ги қонунларига хамда бошқа қонунлар ва қонун хужжатларига мувофиқ тижорат банклари устав капитали миқдори, акциядорлар таркиби, банк номи ва манзилининг ўзгариши, тижорат банки уставига киритиладиган ўзгартириш ва қўшимчаларни рўйхатга олиш тартиби белгилаб қўйилган.



Банк уставига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги қарор акциядорлар умумий йиғилиши томонидан умумий йиғилишда иштирок этувчи овозга эга акциялар эгалари бўлган акциядорларнинг кўпчилик тўртдан уч қисми овоз берган холда қабул қилинади.

Маблағларни жалб қилишда банкларнинг имкониятлари Республика Марказий Банки томонидан бошқарилади ва хозирги кунда банкларнинг хусусий капиталларининг хажми хамда уларнинг ташкилий - хуқуқий шаклларидан келиб чиққан холда банкларнинг имкониятлари аниқланади:

- тижорат банклари учун жалб қилинган маблағлар хажми банкларнинг хусусий капиталидан 25 мартадан ошмаслиги лозим;
- епиқ турдаги акциядорлик жамияти кўринишида барпо этилган банклар учун – 20 баробардан ортмаслиги лозим;
- очиқ турдаги акционер жамияти кўринишда барпо этилган банклар учун 10 баробардан ортмаслиги лозим.

- Банкларнинг капиталлашув даражасини оширишда ҳам муайян ишлар амалга оширилди. Жумладан, тижорат банклари устав капиталларининг энг кам миқдорини 2011 йилнинг 1 январидан барча янги очилаётган тижорат банклари учун 10 млн. евро эквивалентига, янги очилаётган хусусий тижорат банклари учун эса 5 млн. евро эквивалентига етказиш тартиби белгиланди. Фаолият юритаётган банклар учун эса устав капитали миқдори уларнинг рискка тортилган активларга нисбатан 10 фоиздан кам бўлмаслиги керак.

9.Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларини назорат қилиш ва фаолиятини тартибга солиш инстурментлари.

Бугунги кунда банкларни ва бошқа молия-кредит ташкилотлари орасидаги фарқини йўқотишни мамлакатдаги капитал ҳаракатини марказлашувуни ва жамғарлиши билан бевосита боғликдир.

Бундай ҳаракат натижасида ўзаро якин ва ухшаш бўлмаган кредит ташкилотларини йўқолиб кетиши ёки кушилиши жараёни амалга оширилиши мумкин.

Марказий банкнинг пул-кредит сиёсати сэлектив усулларига:

- лимитлар, квоталар урнатиш орқали кредит миқдорини ёки Векселларини ҳисобга олишни тўғридан-тўғри қисқартиришдир;
- кредит операцияларини ўсиш даражасини пасайтириш;
- алоҳида олинган турдаги кредитлар устидан назоратни урнатиш, исмол кредити устидан;
- алоҳида олинган жамғармаларга юқори фоизларни ўрнатиш ёки умуман фоиз ставкаларини тартибга солиш ва бошқалардир.

Пул-кредит сиёсатининг умумий усулларига:

- Марказий банкнинг ҳисобга олиш сиёсати ёки фоиз ставкаларини тартибга солиш сиёсати;
- очиқ бозордаги операциялар, ёки давлат қимматбаҳо-қоғозларини сотиб олиш ва сотиш;
- мажбурий заҳира нормаларини ўзгартиришлар киради.

УМУМАН ОЛГАНДА МАРКАЗИЙ БАНКЛАР ТОМОНИДАН БАЖАРИЛАДИГАН ОПЕРАЦИЯЛАР ҚУЙИДАГИ ТУРТ ГУРУҲГА (ТУРГА) БЎЛИНАДИ:

1. Банкнотларнинг монопол эмиссиясини амалга ошириш;

2. Марказий банк- банклар банки ҳисобланади;

3. Марказий банк- ҳукумат банкири ҳисобланади;

4. Марказий банк пул- кредитни тартибга солади ва банк назоратини амалга оширади.

Марказий банк бевосита тадбиркорлар ва аҳоли билан ҳеч қандай фаолият олиб бормайди. Унинг асосий мижозлари бўлиб тижорат банклари ҳисобланади.

3-мавзу. Тижорат банкларининг пассив операциялари таркиби ва уларнинг жойлашиши

Режа:

- Тижорат банкларининг ресурслари ва уларнинг таркибий тузилиши ва тавсифи.
- Банкларнинг пассив операциялари, уларнинг тузулиши
- Тижорат банкининг капитали ва унинг таркиби.
- Тижорат банкларининг жалб қилинган маблағлари.
- Депозит операцияларнинг турлари ва уларнинг қиёсий тавсифи. .
- Банклараро кредит ресурслари ва унинг аҳамияти

1.Тижорат банкларининг маблағлари ва уларнинг таркибий тузилиши.

Жаҳоннинг кўплаб мамлакатларини қамраб олган молиявий инқироз кўлами кенгаётганига қарамай, Ўзбекистон банк тизими ишончлилиги ва барқарор ривожланаётгани, хорижий молиялаштириш манбаларига қарамлиги йўқлиги ва ташқи инқироз ҳолатларининг салбий таъсирига берилмаслик хусусиятлари билан ажралиб турди.

Натижада охирги беш йил давомида мамлакатимиз банк сектори капиталининг етарлилик даражаси банк назорати бўйича Базель қўмитаси томонидан 8 фоиз этиб белгиланган халқаро меъёрдан 3 баробар кўп бўлган даражани ташкил этди.

ЎЗБЕКИСТОН ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КАПИТАЛИНИНГ 2011-2016 ЙИЛЛАРДА ЎСИШ ДИНАМИКАСИ (ТРЛН. СЎМДА)

2015 йил якуни бўйича банк тизими капиталининг етарлилик даражаси қариб 23,6 фоизни, шунингдек, ликвидлик даражаси 64,5 фоизни ташкил этди. Капитал етарлилик кўрсаткичи умумий қабул қилинган халқаро стандартлардан 3 марта, банк ликвидлиги эса 2 марта кўпдир



Аҳолининг банк тизимига бўлган ишончининг тобора ортиб бораётганлиги, уларнинг банклардаги жамғармаларининг қонун билан тўлиқ кафолатланганлиги ва ўз вақтида қайтарилаётгани омонатлар миқдорининг ўтган йилга нисбатан 38,8 фоиз ошиб, бугунги кунга келиб унинг миқдорини 6,2 трлн. сўмга етишига пухта замин яратди.

Молиявий ресурсларнинг асосий манбаи бўлиб, вақтинчалик бўш турган пул маблағлари, солиқлар, жисмоний шахсларнинг пул маблағлари, чек- депозит эмиссияси билан боғлиқ маблағлар ва бошқалар ҳисобланди.

Бизнинг фикримизча, банк пассивлари банк ресурсларини ташкил қилиш манбаи бўлиб, уларнинг ҳажми бир неча омилларга боғлик:


- -банкларнинг ўз маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган фаолияти;
- -пул-кредит сиёсатини бошқариш соҳасидаги Марказий банкнинг сиёсати;
- -банкнинг жалб қилинган маблағлари ва уларнинг таркиби;
- -тижорат банки томонидан Марказий банкка ўтказиладиган мажбурий заҳира миқдори;
- -бошқа пассивлар.

Иқтисодий манбаларда ва банк маблағларининг шаклланиши бўйича олиб борилган тадқиқотларда «банк ресурслари», «кредит ресурслари», «депозит ресурслари», «банк пассивлари» каби тушунчаларни учратишимиз мумкин ва бу тушунчаларга муаллифлар ўзларининг турлича таърифлари орқали изоҳ берганларининг шоҳиди бўламиз.

Бозор муносабатлари шароитида тижорат банкларининг ресурсларини ташкил қилиш жараёнига катта аҳамият берилади. Шу сабаб ўтиш иқтисодиётини бошидан кечираётган деярли барча мамлакатларда тижорат банклари ресурсларини шакллантириш тизимида тубдан ўзгаришлар бўлди. Бу ўзгаришларнинг бўлишига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади. Булар:

- банкларо кредит бозорида Марказий банкнинг фаол иштирок этишининг таъминланиши ва бу ўз навбатида кредит рискини камайтирганлиги;
- иқтисодиётда нотўловлар муаммосининг мавжудлиги ва кредитнинг кайтарилмаслиги окибатида тижорат банкларининг зарар кўриш имкониятининг ошиши;
- аҳоли кўлидаги омонатларнинг ўсиши;
- корпоратив қимматли қоғозлар бозорининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва бошқалардир.

Тижорат банклари ресурсларининг шаклланиш жиҳатдан таркибий таснифи



Тижорат банклари ресурсларининг манбаси бўйича таснифланиши

Таснифланиш	Ресурслар турлари	Изоҳ
1	2	3
Манбаи	Ўз маблағлари	Низом, қўшимча капитал, захиралар, фойда ва зарарлар ҳисоб рақамидаги қолдиқ.
	Жалб қилинган ва қарз маблағлари	Мижозларининг ҳамда вакил - банкларининг жорий, депозит, жамғарма ва бошқа ҳисоб рақамларидаги маблағлар; юридик шахслар томонидан олинган кредитлар
Маблағлар-нинг қимга тегишлилиги бўйича	Банкка тегишли	Ўз маблағлари: жамғармалар, тақсимланмаган фойда, тақсимотдан кейинги жорий даврнинг фойдаси, ўз маблағларини кўпайишига таъсир қилувчи харажатларни ҳисобга олмаган ҳолда эмиссион даромад.
	Банкка тегишли бўлмаган	Банклараро кредит, жалб қилинган депозитлар, махсус жамғармалар, корхоналарнинг ҳисоб рақамлардаги вақтинча бўш пул маблағлари, банкнинг кредиторлик қарзлари, дебиторлар билан ҳисоблашишлар бўйича захиралар.
Муддатига кўра	Узоқ муддатли	Ўз маблағлари, ўз маблағларига тенглаштирилган маблағлар (талаб қилиб олингунча ҳисобрақамларидаги минимал қолдиклар), узоқ муддатли депозитлар.
	Қисқа муддатли	Қисқа муддатли депозитлар, корхона ва ташкилотларнинг талаб қилиб олингунча ҳисоб рақамларидаги минимал қолдиқдан ортган маблағлар.
Қиймати	Тўловли	Ўз маблағлари, депозитлар, бошқа юридик шахсларнинг кредитлари
	Нисбатан тўловсиз	Талаб қилиб олингунча ҳисоб рақамлари, корхоналарнинг ҳисоб рақамлари
Ишончлилик даражасига кўра	Ишончли	Ўз маблағлари, узоқ муддатли депозитлар, молиявий ёрдам
	Ишончсиз	Талаб қилиб олингунча депозитлар, корхона ва ташкилотларнинг ҳисоб рақамлари.
Кўлайлик манбаи	Ўз ички ва ташқи маблағлари	Тақсимланмаган фойда. Қимматли қоғозларни чиқариш (акция, облигация, векселлар) шу жумладан, конвертирланадиган, банк активларини сотиш, кўчмас мулкни ижарага бериш.
	Жалб қилинган ички ва ташқи қарз маблағлари	Қимматли қоғозларни конвертация қилиш. Юридик шахсларни ҳисоб рақамларини очиш, фуқароларнинг омоналари, юридик шахсларнинг депозитлари, банклараро кредитлар.

2.Банкларнинг пассив операциялари

Банк ресурларининг шаклланиши ва уларни барқарорлигини таъминлашда қуйидагилар асосий бўлиб қолмоқда:

- Бугунги кунда банкларнинг асосий маблағлари ўсиши акциядорларни жалб қилиш ва уларнинг маблағларини жойлаштириш ҳамда олинган даромадлардан ажратмалар ажратиш, заҳира фондлар яратиш ва мақсадли заҳиралар тузиш орқали амалга оширилмоқда.

- Банкнинг пассив операцияларини юритиш орқали, яъни депозитларга жалб қилиш, юридик ва жисмоний шахсларнинг талаб қилиб олгунча ва жамғарма, муддатли омонатларига, вақтинча ёки талаб қилиб олгунча шартлари бўйича жойлаштириш орқали олиб борилмоқда.

3.Тижорат банклари кредит потенциали тузилиши.

Жалб қилинган ва сотиб олган маблағлар ёки қарзга олинган маблағлар банк пассивларининг катта қисмини ташқил этувчи ҳамда тижорат банкнинг воситачи ташқилот эканлигини, яъни вақтинча бўш маблағларни жалб қилиб бошқа мижозларни талабларини қондирувчи эканлини тавсифлайди.

Банк ресурслари бизга маълумки пассив операцияларни натижасида шаклланади. Банкнинг пассив операциялари – банкнинг ўз ва жалб қилинган маблағларини устида амалга оширилган амалиётларда юзага келади. Молия-кредит луғатларда берилишича, банкларнинг пассив операциялари бу – «Банклар кредит ва бошқа актив амалиётларни бажариш учун ўз ресурсларини шакллантириш операциялари» дир.

Банк пассивларини бошқарилишини қўйидагиларни ўз ичига олади ва олиши керак.

Биринчидан	• пассивларни бошқариш – банкни барқарор ресурслар билан таъминлаши.
Иккинчидан	• жалб қилинган ва ўз маблағлари ўртасида нисбатни оптимал тарзда белгилаши.
Учинчидан	• пассивларни бошқариш орқали капиталнинг етарлилиги талабларини назорати.
Тўртинчидан	• депозитлар турларини салмогини кўпрок бўлишини таъминлаши ва мулкчилик шаклларини манфаатларини ифода этиши.
Бешинчидан	• муддатли жамғармаларга алохида эътибор берилиши ва ликвидликни таъминланиши.
Олтинчидан	• жалб қилинган ресурсларни муддатлари бўйича жойлаштирилган активларнинг муддатлари ва суммаларини мос келиши.
Еттинчидан	• пассивларни бошқарилиши шундай ташкил этилиши лозимки, натижавий холатда банк фойда кўриши лозим.

Жалб қилинган маблағлари банк ресурслари таркибида 50% ва ундан ҳам кўпрок улушни ташқил этиши мумкин. Банкларнинг ривожланиш тараққиётида шунинг билан биргаликда анъанавий ва хорижий тажрибалардан келиб чиқган ҳолда жалб қилинган маблағларнинг таркибида уни ташқил этувчи манбааларда бир қатор ўзгаришлар юзага келган, яъни бугунги кунда жалб қилинган маблағлар депозит ва нодепозит манбаалар ҳисобига шаклланаётганлигини кўрамиз.


4.Тижорат банклари капитали ва уларни таркиби.



- Банк капитали ёки ўз маблағларининг жаъми банк ресурслари таркибида улуши камрок бўлишига қарамай, бир қатор функцияларни бажаради.
- Улар бугунги кунда кенг тарзда эътироф этилаётган учта асосий функцияларга: химоя, тезкорлик ва назорат га бўлинади. Банк активларнинг сезиларли қисми жамғармачилар томонидан молиялаштирилади, шунинг учун ўз маблағлари жамғармачилар манфаатини таъминловчи химоя вазифасини
- Банк капитали, ўз ўрнида банк учун «ёцикча» вазифасини бажаради ёкибанк фаолиятини кўзда тутилмаган харожатлар ва зарарлардан сакланиш учун ишонч вазифасини ўтайди.

Капиталнинг тезкорлик функциясидан ўз ўрнида, банкнинг бошлангич фаолиятида керакли бўлган бино ва асосий воситаларга манба сифатида фойдаланилади.

Капиталнинг назорат функцияси омманинг қизиқиши ва эътиборида бўлиб банкнинг самарали ишлаш фаолияти назоратини таъминлайди.




Бу ерда I даражали капитал жаъми капиталнинг 50% дан кўп бўлиши талаб қўйилган.

5.Марказий банк томонидан тижорат банклари капиталига қўйилган талаблар.

Устав капиталининг миқдори, уни шакллантириш тартиби ва унга ўзгартиришлар киритиш банкнинг Низомида белгиланган бўлади.

Маблағларни жалб қилишда банкларнинг имкониятлари Республика Марказий Банки томонидан бошқарилади ва хозирги кунда банкларнинг хусусий капиталларининг хажми хамда уларнинг ташкилий - хуқуқий шаклларидан келиб чиққан холда банкларнинг имкониятлари аниқланади:

- аввалги ихтисослаштирилган давлат банклари базасида ташкил этилган тижорат банклари учун жалб килинган маблағлар хажми банкларнинг хусусий капиталидан 25 мартадан ошмаслиги лозим;
- ёпик турдаги акциядорлик жамияти кўринишида барпо этилган банклар учун – 20 баробардан ортмаслиги лозим;
- очиқ турдаги акционер жамияти кўринишда барпо этилган банклар учун 10 баробардан ортмаслиги лозим.



Хусусий банклар регулятив капиталнинг энг кам даражасига қўйилган талабларнинг бажарилишини улар Марказий банкка рўйхатга олинган кундан бошлаб 5 йил мобайнида таъминлашлари керак.

Регулятив капитал миқдорини аниқлаш учун миллий валютадаги эквивалент бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи мақсадлари учун ҳисобот ойининг охирги кунига қонун ҳужжатлари билан белгиланган валюта курси бўйича белгиланади.

Капиталнинг етарлилик коэффициентлари:

а) регулятив капитал (РК) чегирмалар ажратилган ҳолда I даражали капитал ва II даражали каптиталнинг йиғиндиси сифатида аниқланади;

б) таваккалчиликни ҳисобга олган ҳолда ҳисобланган капиталнинг умумий суммаси (ТКУС) чегармалар ажратилиб, таваккалчилик ҳисобга олинган ҳолда ҳисобланган баланс ва балансдан ташқари активлар йиғиндиси сифатида аниқланади;

в) регулятив капиталнинг таваккалчиликни ҳисобга олган ҳолда ҳисобланган активларнинг умумий суммасига нисбати 10 фоиздан кам бўлмаслиги керак. Регулятив капиталнинг етарлилик коэффициенти К1 қуйидаги тарзда ҳисобланади: К1 = РК / ТКУС.

Низом талабларига мувофиқ бўлмаган банклар қуйидагиларни ўз ичига олувчи капиталга қўйиладиган талабларнинг бажарилишини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқишлари керак:

- банк капиталини етарлилик даражасигача кўтариш учун зарур бўлган стратегия ва ҳатти-ҳаракатлар;
- режанинг амал қилиш даври мобайнида белгиланадиган капиталнинг чекланган миқдорлари;
- банкнинг фаолиятига белгиланган чекловлар таъсири остида режа билан қамраб олинадиган давр учун тадбирлар режаси;
- Марказий банк талабларига мувофиқ бошқа ахборот.

7.Тижорат банкларининг депозит маблағлари манбаи.

Депозит - лотинча (depositum) сўз бўлиб, сақлаш учун топширилган буюм маъносини билдиради. Иқтисодиётда эса мижознинг ўз маблағини вақтинча фойдаланиш учун банкка топшириши натижасида вужудга келадиган иқтисодий муносабат тушунилади.

Депозит амаллари банкларнинг асосий вазифаларидан бири хисобланиб, депозит амалиётисиз тижорат банклари ўзларининг бошқа асосий вазифаларини бажаришлари мумкин эмас.

Депозит - бу мижознинг банкларга вақтинча ишлатиш учун ўз маблағларини бериши бўйича иқтисодий муносабатидир.

Омонотчи чек ёзиб бериб, маълум миқдордаги пул маблағини муомалага (айлантиришга) қўйиши мумкин. Шу билан бирга бу вақтда банк пуллари фоиз келтиради. Улар омонатчига 2 хил вазифани бажаради: биринчи томондан пул вазифасини, иккинчи томондан фоиз келтирувчи капитал сифатида.

Тижорат банклари томонидан қабул қиладиган депозитнинг энг кўп миқдори чегараланмайди. Барча депозитлар жорий маблағлар тарзида қабул қилинади ва шу асосда тўланади.

Банкларнинг депозитлар билан боғлиқ фоизлар (фоиз ставкалари) банклар томонидан депозитлар билан келишувига мувофиқ белгиланади. Аммо шуни назарда тутиш керакки, банкларнинг депозитларга тўлайдиган фоизлари Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасига ҳамда банкнинг нарх сиёсатини ҳисобга олган ҳолда белгиланади


Депозитлар банкнинг асосий ресурс манбааси сифатида тавсифланади, шу билан биргаликда улар ташқил этиш жарағнида ўзига хос муаммоларни юзага келтириши мумкин. Масалан уларни жалб қилиш ўзига яраша маркетинг ишлари ва улар билан боғлиқ бўлган харожатларни келтириб чиқарипи мумкин. Бошқа томондан қараганимизда банк учун кўзда тутилган актив операциялардан юзага келиши мумкин бўлган йўқотишларни олдини олиш ёки маълум мақсадли инвестиция жарағнини амалга ошириш ицалган вақтда керакли ресурсларни йиғиб олиш имқонини бермайди.

8. Тижорат банклар фаолиятида депозит операцияларини аҳамияти ва ташкил қилиш қоидалари

Депозит операциялари ёрдамида тижорат банкларининг 70 фоиздан ортиқ пассивлари ташкил қилиниши мумкин.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ЖАМИ ДЕПОЗИТЛАРИ ҚОЛДИҒИ, ТРЛН. СЎМДА

Тижорат банкларининг ресурс базасини кўпайтириш борасида амалга оширилган чора-тадбирлар натижасида жалб қилинган депозитларнинг умумий ҳажми 2016 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, 35,6 трлн. сўмни ташкил этиб, 2015 йил бошига нисбатан 28,0 фоизга ошди.



9

Депозит операцияларини амалга оширишда бу операция турининг объект ва субъектини аниқлаш лозим.


Депозит операцияларнинг субъектлари бўлиб бир томондан тижорат банклари қатнашса, иккинчи томондан:

- давлат корхона ва ташкилотлари;
- молия, суғурта, инвестицион ва траст компаниялар;
- хусусий корхона ва ташкилотлар;
- акционер компаниялар;
- банклар ва бошқа кредит муассасалари;
- қўшма корхоналар, кооперативлар;
- жамоа ташкилотлари ва фондлар;
- алоҳида жисмоний шахслар ёки уларнинг бирлашмалари қатнашадилар.

Депозит операцияларининг обьекти

эҳтиёждан ортиқча пул маблағлари (қўйилмалар) ҳисобланади. Депозит операцияларини ташкил қилишнинг асоси бўлиб баланс ликвидлилиги, мижозларнинг молиявий аҳволининг барқарорлиги ҳисобланади.

9.Депозит операцияларнинг турлари ва уларнинг қиёсий тавсифи.



Талаб қилиб олингунгача бўлган депозитлар қуйидаги хусусиятларга эга:

- депозитнинг бу турида хоҳлаган вақтда, хоҳлаган суммада маблағни қўйиш ёки олиши мумкин;
- депозит муддати чегараланмаган;
- кам миқдорда фоиз тўланади;
- бу турдаги депозитлар бўйича Марказий банкга ўтказиладиган мажбурий резервлар салмоғи юқори ва ҳ.к.

Муддатли депозитлар - бу банклар томонидан маълум муддатга жалб қилинадиган депозитлардир. Бу турдаги депозитлар қўйилган муддатда ўзгармас бўлиши лозим ва улар жорий тўловлар учун ишлатилмайди.

Муддатли депозитлар қуйидаги хусусиятларга эга:

- аниқ муддатга эга ва улар бўйича ўзгармас (депозит сиёсатида кўрсатилган) фоиз тўланади;
- жорий ҳисоб-китоблар учун фойдаланилмайди;
- мижоз томонидан муддатидан олдин олинмаслиги лозим акс ҳолда фоиз тўлаш бўйича шартнома шартлари бекор қилинади ва талаб қилиб олингунча депозит миқдорида фоиз тўланиши мумкин;
- маблағлар секин айланади, узоқ муддатли ссудаларга йўналтирилади;
- мажбурий резерв нормаси нисбатан паст бўлиши мумкин ва ҳ.к.

Банк депозит сертификатлари – банк ресурслар манбаасига қўшимча пул маблағларини жалб қилишнинг бозор механизмига хос бўлган усулларидан бири бўлиб, банк тизимининг барқарор фаолият кўрсатишда ва ресурс базасининг муцахкамланишида ўзига хос мухим аҳамият касб этади.

Банк томонидан чиқарилаётган сертификатлар халқаро амалиётда ва бизнинг қонунчиликда белгиланган шартлар бўйича икки турда чиқарилиши мумкин:

- Юридик шахслар учун мўлжалланган – депозит сертификатлари.
- Жисмоний шасхлар учун мўлжалланган – жамғарма сертификатлари

Депозит сертификатлари – бу қимматли қоғоз бўлиб, эмитент банк пул маблағларининг омонатга қўйилганлиги хақидаги гувохномасидир ва у омонатчига ёкиунинг хуқуқий ворисининг депозит суммасини ва унга тегишли фоизларни белгиланган муддат тугагандан сўнг ёкикўрсатилган шартлар бўйича олдиндан олиш хуқуқини тасдиқлайди. Хуқуқий жихатдан ғндашадиган бўлсак депозит сертификатлар банкнинг қарз мажбурияти ҳисобланиб, у орқали жалб қилинган маблағларга маълум муддатга эгалик қилиш ҳисобига сертификат эгасига тегишли фоиз тўловларини амалга оширади.

4-мавзу. Тижорат банкларининг актив операциялари таркиби ва уларнинг жойлашиши

1

- Тижорат банкларининг актив операциялари ва уларни таркибий тузилиши
- Банк активларнинг риск ва даромад даражаси бўйича тавсифи.
- Банкларнинг кредит операциялари ва уларни таркибий тузилиши.
- Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.
- Тижорат банкларининг активларини бошқариш усуллари
- Тижорат банкларининг вакиллик хисобваракдари ва турлари.
- Тижорат банкларида мажбурий заҳираларни ташкил этиш тартиби ва унинг зарурияти.

2

1.ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ АКТИВ ОПЕРАЦИЯЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ.

Банкнинг актив операциялари унинг операцияларининг аниклаб берувчи кисми хисобланади. Активлар структураси деганда банк баланси активлари турли сифатли моддаларининг баланс якунига нисбати тушунилади. Банк активларининг сифати активлар структураси, актив операцияларни диверсификациялаш, рискли активлар хажми, критик ва тулик булмаган активлар хамда активларнинг узгарувчанлик хусусиятлари билан аникланади.

Тижорат банклари активларини 4 категорияга булиш мумкин: кассадаги накд пул ва унга тенглашган маблаглар; кимматли когозларга инвестициялар; ссудалар; иморат ва ускуналар.

АГАР АКТИВЛАР ТАРКИБИНИ БАНК ФАОЛИЯТИДАГИ АССОСИЙ ТУРЛАРИ БУЙИЧА ГУРУХЛАШТИРСАК, У ХОЛДА КУЙИДАГИ ХУЛОСАЛАР ЧИКАРИШ МУМКИН:

Банк актив операцияларида асосий уринни кредит операциялар эгаллайди. Уларнинг улуши 19,90% дан 83,25% гача ташкил этади.

2. Банк активларида иккинчи уринни кимматли когозларга килинган инвестициялар эгалайди (2,15% дан 29,18% гача).

3. Учинчи уринда — касса активлари (0,2% дан 12,94% гача).

4. Бошка активлар улуши хисоб-китоб хусусиятларидан келиб чикиб банк операцияларида жуда хам кенг спектрни уз ичига олади (2% дан 78% гача).

«АСАКА» БАНКИ АКТИВЛАРИ ТУЗУЛМАСИ


1.	Кассадаги накд пуллар	5.554
2.	Уз.Р Марказий банкидаги маблаглар	83,680
3.	Бошка банклардаги маблаглар	29,352
4.	Карзли кимматли когозлар	111,744
5.	Мижозларга берилган карзлар ва бунаклар	137,391
6.	«Репо» битими буйича олинадиган маблаглар (кайта сотиб олиш шарти билан)	288
7.	Корпоратив кимматли когозлар	2,468
8.	Бирлашмаган шуъба ва уюшган компанилардаги инвестициялар	3.112
9.	Жами банк активлари	373,589
10.	Асосий воситалар	41,625
11.	Бошка активлар	5,330
12.	Жами активлар	420,544

Даромад келтиришига караб банк активлари: даромад келтирувчи активларга ва даромад келтирмайдиган активларга бўлинади.

Даромад келтирувчи активларга куйидагилар киради: барча берилган кредитлар (жумладан банклараро кредитлар); инвестициялар; хазина векселлари; давлат облигациялари; кимматли коғозлар.

Даромад келтирмайдиган активлар: пул активлар гурухи; асосий воситалар; капитал харажатлар; барча моддий активлар ва бошка активлар; номоддий активлар.

Банк актив операциялари тузилмаси



7

1. Таваккалчиликдан холис бўлган активлар (риск коэффиценти - 0%) куйидагиларни уз ичига олади:

- Банкда ва унинг филиалларида накд пул куринишида сакланаётган миллий ва чет эл валютаси (жумладан, йилдаги накд пуллар ва банк омборларида ёки Марказий банк омборларида сакланаётган олтин куйилмалар);
- Марказий банк ва унинг худудий, бошкармаларида вакиллик ва захира хисоб ракамларидаги маблағлар;
- Хукумат ва Узбекистон Республикаси Марказий банкига тугридан-тугри талаблар ва бу эмитентлар томонидан чикарилган кимматли коғозлар;
- Иктисодий хамкорлик ва тараккиёт ташкилоти (ИХТТ) га кирувчи мамлакатлар хукуматлари ва марказий банкларига куйиладиган бошка талаблар;
- Активлар ёки уларнинг Узбекистон Республикаси ва ИХТТга кирувчи мамлакатлар миллий валюталарига деноминация килиниб, накд пул билан таъминланган хамда банкда алохида чеклаб куйилган депозит хисоб ракамида сакланаётган кисми.

9

2.Банк активларнинг риск ва даромад даражаси бўйича тавсифи. (Тижорат банклари капиталининг монандлигига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом.) [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2015 йил 6 июлда 2693-сон)

Тижорат банкларини активлари таваккалчилик даражаси буйича 0, 20, 50, 100% ли турт гурухга булинади. Хар хил тоифали активлар нисбий таваккалчилиги уз зиммасига мажбуриятларни кабул килган шахс тури ва гаров ёки кафолат тавсифига боглик.

Рискни хисобга олган холдаги активлар хар бир актив баланс суммасининг унга тегишли таваккалчилик микдорига купайтириш ва риск буйича аникланган активлар йигиндиси оркали топилади.

8

1. Таваккалчиликдан холис бўлган активлар (риск коэффиценти - 0%) куйидагиларни уз ичига олади:

- Банкда ва унинг филиалларида накд пул куринишида сакланаётган миллий ва чет эл валютаси (жумладан, йилдаги накд пуллар ва банк омборларида ёки Марказий банк омборларида сакланаётган олтин куйилмалар);
- Марказий банк ва унинг худудий, бошкармаларида вакиллик ва захира хисоб ракамларидаги маблағлар;
- Хукумат ва Узбекистон Республикаси Марказий банкига тугридан-тугри талаблар ва бу эмитентлар томонидан чикарилган кимматли коғозлар;
- Иктисодий хамкорлик ва тараккиёт ташкилоти (ИХТТ) га кирувчи мамлакатлар хукуматлари ва марказий банкларига куйиладиган бошка талаблар;
- Активлар ёки уларнинг Узбекистон Республикаси ва ИХТТга кирувчи мамлакатлар миллий валюталарига деноминация килиниб, накд пул билан таъминланган хамда банкда алохида чеклаб куйилган депозит хисоб ракамида сакланаётган кисми.

9

2.Минимал таваккалчилик даражасига эга активлар (таваккалчилик коэффициенти - 20%) куйидагилардан иборат:

- ИХТТ давлатларида руйхатга олинган депозит институтларига нисбатан талаблар, шу жумладан, карзлар ва пул бозори воситалари;
- Банкнинг Жахон банки, Халкаро Валюта Фонди, Европа тикланиш ва тараккиёт банки каби халкароташкилотларига нисбатан талаблари, шунингдек, бу ташкилотлар томонидан кафолатланган банк активлари;
- еврооблигациялар,киска муддатли биринчи синф
- таъминланганликка эга булган кредитлар вабошка хужжатлар киради.

10

3. Ўртача риск даражасига эга активлар (риск коэффициенти - 50%) куйидагилардан иборат:

- жисмоний шахсларга бир оилага уй-жой сотиб олиш ёки куриш учун берилган ва дастлабки гаров билан таъминланган кредитлар. Бунда ссуда микдорининг гаров кийматига нисбати 60% дан ошмаслиги керак. 60 ва ундан ортик кунга муддати утган, фоизлар хисоблаш тухтатилган ёки реструктуризацияланган кредитлар таваккалчилик даражаси юкори (100%) булган активлар тоифасига киради;
- банкнинг ИХТТга кирувчи давлатлар махаллий хокимият органларига нисбатан талаблари ёки бу талаблар ва кафолатлар буйича туловлар мазкур мажбуриятлар буйича молиялаштириладиган муайян лойиха тушумларига боглик булса, ушбу ташкилотлар томонидан кафолатланган активлар. Юкоридаги ташкилотлар томонидан эмиссия килинган кимматли когозлар.

11

4.Юкори риск даражасигаэга активлар(таваккалчилик коэффициенти — 100%) куйидагилардан иборат:

- банк томонидан берилган барча кредитлар, жумладан, тадбиркорлик тузилмалари, кишлок хужалик, ишлаб чикариш корхоналарига берилган кредитлар, истеъмол ва ипотека кредитлари, олдинги бандларда курсатилган кредитлар бундан мустасно;
- банкнинг асосий воситалари, иншоотлари, жихозлари ва шахсий кучмас мулки;
- бошка барча активлар.

12

3. Банкларнинг кредит операциялари ва уларни таркибий тузилиши.

Тижорат банкларининг актив операциялари ичида кредитлаш жараёни асосий ўринни эгаллайди. У куйидаги боскичларни ўз ичига олади:

- кредит олиш учун берилган мижознинг ариза талабномасини кўриб чиқиш;
- Карз олувчининг тўловга ва кредитга лаёкатлилигини банк томонидан ўрганиб чиқилиши;
- кредит кўмитасининг қарори;
- кредит битимини расмийлаштириш;
- кредит берилиши;
- ссуда ва у бўйича фоиз тўлашни банк томонидан назорат қилиниши.

13

Тижорат банклари томонидан бериладиган барча кредитлар унинг кредит портфелида уз ифодасини топади.

Тижорат банклар фаолиятининг асосий кисми кредитлар бериш ва шу асосда фойда олишга йуналтирилган булганлиги учун улар фаолиятида бу рискларнинг салмоги хам юкори булади.

Таснифланган кредитларнинг кайси гурухга кириш даражаси тез сотиладиган активлар ва юкори ликвид маблагларнинг мавжудлиги билан белгиланади.

14

Банкларнинг кредит жараёнлари ўз навбатида муддат бўйича иккига бўлинади:



15

Тижорат банклари кредит портфели.

Кредит портфели

- уни тугри ташкил этилиши тижорат банкларининг самарали фаолият юритиши учун асос хисобланади.

Кредит портфели

- бу турли хил рискларга асосланган муайян мезонларга караб туркумланган кредитдар микёсидаги банк талабларининг йигиндисидир.

16

Тижорат банклари уз мижозларига турли куринишдаги кредитлар бериши мумкин. Аввалambор, карз олувчиларнинг асосий гурухлари буйича:



17

Коидаларда кредит беришнинг куйидаги янги шакллари кузда тутилган:

"кредит линиясини очмасдан" ва "кредит линиясини очиб" алохида ссуда хисобварагидан кредит бериш;

контокорент-кредит;

овердрафт;

кимматли когозларни гаровга куйиб кредит олиш (гаровхона кредити);

Вексел кредити.

18

Овердрафт контокоррентиннг алохида шакли бўлиб, бундан мижознинг хисоб-китоб вараги епилмаслиги, лекин унинг мохияти узгариши билан фарк килади: хисобварак айни вактда овердрафт кредитга хам айланади. Овердрафт кредитда мижоз ой давомида узининг хисоб-китоб варагида дебетли салдога эга бўлиш хукукини олади, лекин хар бир ой охирида колдикнинг кредитли салдосига эга бўлиши шарт.

Буюк Британияда овердрафт чекли кредит шаклларидан бири сифатида таркалган. Кредит хисобаврақдаги маблағлар колдигидан ошадиган суммада чек еки тулов топшириғини езиш воситасида тақдим этилади. Бундай ошиш одатда "кизил тусга кириш" деб номланади

19

Банк кредити турлари.

Кредит субъектлари бўйича кредитлар	давлат корхоналари, нодавлат корхоналари, аҳоли, бошқа хўжаликлар, давлат органлари, қўшма корхоналар, бошқа банклар ва бошқа ташкилотлар
Кредит мақсадига кўра кредитлар	Истеъмолга, саноатга, савдога, қишлоқ хўжалигига, инвестицион, бюджет кредитлари
Кредитни жорий қилиш муҳитига қараб кредитлар	ишлаб чиқаришга, муомалага
Кредит муддатига қараб кредитлар	қисқа муддатли, узоқ муддатли, ўрта холда муддатли, талаб қилиб олгунча кредит
Кредит хажмига кўра кредитлар	Йирик, ўрта, майда (микро) кредитлар
Тўлов турига кўра кредитлар	бозор фоизи, юкори фоизли,имтиёзли фоизли
Кредитлаш объектига кўра кредитлар	хусусий объектлар, умумлашган кредитлаштириш объекти
Кредитлаштиришдаги валюта тури бўйича кредитлар	миллий валютада, хорижий валютадаги кредитлар
Кредит таъминоти бўйича кредитлар	таъминланган кредитлар, таъминланмаган кредитлар
Қайтариш тартибига кўра кредитлар	бир вақтда қайтариладиган кредитлар, тўловни кечиктириш асосидаги кредитлар (ойлик, квартал, йил)
Фоиз ставкасини ўрнатилишига қараб	қатъий белгиланган, ўзгарувчан
Кредит муносабатларида қатнашадиган банклар сонига кўра	битта банкдан бериладиган кредитлар,синдицирлашган кредитлар кабилардир
Кредитлаш услубига кўра	Қолдиқ, оборот (муомала), кредит линияси орқали

20

Ўзбекистон Республикаси кредитлаш тизимини ривожлантириш қуйидагиларга боғлиқ:

1.Банклар ва бошқа махсус кредит институтларининг кредит бериш ҳажми, улар томонидан жалб қилинган кредит ресурслари миқдорига боғлиқдир. (1:10):

2.Банклар томонидан кредит бериш тижорат асосига мўлжалланган (арзон олиб - қиммат сотиш ва маржа):

3.Кредит бериш, олиш, қоплаш, назорат қилиш кредит олувчи в банкнинг келишувига яъни кредит шартномасига асосланади:

4.Кредитлашда хозирги кунда асосий бўлиб яъни бирламчи бўлиб кредит субъекти, сўнг эса кредит объекти хисобга олинади:

5.Кредитлаш миқдори (ҳажми) банк бўйича (потенциали) Марказий банкнинг иқтисодий нормативларига боғлиқдир (Н1 - капитал етарлиги, банк ликвидлиги, мажбурий захира миқдори, қайта молиялаштириш ставкаси ва бошқалар).

21

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низом. ([Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2015 йил 14 июлда 2696-сон).
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 6 майдаги ПҚ–2344-сон «Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва уларнинг ресурс базасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига мувофиқ.

22

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- активлар — кредит, овердрафт, лизинг, факторинг, қимматли қоғозлар, инвестициялар, бошқа банклардаги маблағлар, бўлиб-бўлиб тўлаш шаклида сотилган мулклар, балансдан ташқари моддалар (чакириб олинмайдиган кредит мажбуриятлари, фойдаланилмаган кредит линиялари, аккредитивлар, кафолатлар) ҳамда молиялаш билан боғлиқ барча бошқа талаблар.
- муаммоли активлар — сифати «қониқарсиз», «шубҳали» ва «умидсиз» деб таснифланган активлар;
- махсус захиралар — сифати «субстандарт», «қониқарсиз», «шубҳали» ва «умидсиз» деб таснифланган активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплашга мўлжалланган мажбурий захиралар;
- стандарт активларга яратиладиган захиралар — тижорат банки фаолияти давомида умуман ёки бирор-бир фаолият тури натижасида эҳтимолий йўқотишларни қоплаш мақсадида ташкил қилинадиган захиралар;

23

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- шартлари қайта кўриб чиқилган активлар — шартнома ва (ёки) унга қўшимча келишувга мувофиқ асосий шартлари ўзгартирилган активлар;
- тижорат банки активлари бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун мажбурий захиралар депозитлари (бундан буён матнда мажбурий захиралар депозитлари деб юритилади) — активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун тижорат банкларининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банкидаги (бундан буён матнда Марказий банк деб юритилади) мажбурий захиралар депозитлари;
- таъминланмаган активлар — таъминотсиз берилган ёки таъминоти белгиланган тартибда расмийлаштирилмаган активлар. Бундай активлар мустаҳкам тушумга эга бўлган қарздорга унинг яхши кредит тарихи асосида берилиши мумкин.

24

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Сифати «стандарт» деб таснифланган активлар қайтарилишида муаммолар кузатилмайди. Бунда асосий қарз суммасининг ва фоизларининг ҳеч қандай қисми муддати ўтган ёки шартлари қайта кўриб чиқилмаган бўлиши лозим. Асосий қарз суммаси ёки фоизлардан муддати ўтган ва шартлари қайта кўрилган активлар сифати «стандарт» деб таснифланиши мумкин эмас.
- Тижорат банки захира капитали таркибида сифати «стандарт» деб таснифланган активлар учун уларнинг қайтарилмаган асосий қарз (қолдиқ) суммасининг бир фоизи миқдорида стандарт активларга яратиладиган захира шакллантириши лозим.
- Қарздорнинг молиявий ҳолати барқарор ҳисобланган, лекин айрим салбий ҳолатлар ёки тенденциялар мавжуд бўлиб, агар улар бартараф этилмаса, молиялаштирилган лойиҳанинг амалга оширишига ёки қарздорнинг активи ўз вақтида тўлаш қобилиятига нисбатан шубҳа пайдо бўлиши мумкин бўлган активлар сифати «субстандарт» деб таснифланади.
- Тижорат банки сифати «субстандарт» деб таснифланган активлар учун уларнинг қайтарилмаган асосий қарз (қолдиқ) суммасининг ўн фоизи миқдорида махсус захира шакллантириши лозим.

25

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «қониқарсиз» деб таснифланади:
- асосий тўлов манбалари қарз тўлаш учун етарли бўлмаса, таъминотга қўйилган мулкни ва қарз олувчининг бошқа асосий воситаларини сотиш, тўланиши лозим бўлган қарзларни узайтиришларни ҳисобга олган ҳолда қўшимча тўлов манбаларини топиш талаб этиладиган бўлса;
- қарз олувчининг жорий молиявий ҳолати ёки унинг пул маблағларининг мўлжалланаётган оқими мажбуриятларни қоплаш учун етарли бўлмаса;
- қарз олувчининг капитали етарли даражада бўлмаса;
- ушбу соҳага нисбатан тенденция ва истиқболлар баркарор бўлмаса;
- таъминот қиймати асосий қарз суммасидан ошмаган, ҳеч бўлмаганда асосий қарзнинг тўланмаган суммасига тенг бўлса;
- асосий қарз ва фоизлар бўйича муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлиб, унинг муддати 90 кундан ошмаган бўлса.
- Тижорат банки сифати «қониқарсиз» деб таснифланган активлар учун уларнинг қайтарилмаган асосий қарз (қолдиқ) суммасининг йигирма беш фоизи миқдорида махсус захира шакллантириши лозим.

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «шубҳали» деб таснифланади:
- «қониқарсиз» активларнинг ҳеч бўлмаганда бирорта кўрсаткичи, шунингдек айрим бошқа салбий тавсифлари мавжуд бўлса (бозорда осон сотиладиган таъминотнинг мавжуд эмаслиги ёки таъминланмаган активларнинг мавжудлиги ёхуд қарз олувчининг банкрот деб эълон қилиниши);
- якин келажакда активнинг қисман тўланиш эҳтимоли мавжуд бўлса;
- асосий қарз ва фоизлар бўйича 90 кундан ортиқ лекин, 180 кундан ошмаган муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.
- Тижорат банки сифати «шубҳали» деб таснифланган активлар учун уларнинг қайтарилмаган асосий қарз (қолдиқ) суммасининг эллик фоизи миқдорида махсус захира шакллантириши лозим.

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Қуйида келтирилган омиллардан ҳеч бўлмаганда биттаси мавжуд бўлса, активларнинг сифати «умидсиз» деб таснифланади:
- активларни ундирилиши суд жараёнида бўлса;
- қарздор ва лизинг олувчидан ундирилган, гаровга қўйилган мол-мулкка бўлган ҳуқуқлардан фойдаланиш йўли билан тижорат банки томонидан балансга қабул қилинган кундан бошлаб уч ой муддатда сотилмаган ва банк фаолиятини кенгайтириш учун сотиб олинган бинодан икки йил мобайнида фойдаланилмаган ҳамда банк фаолияти учун ортиқ фойдаланилмай қўйилган пайтдан бошлаб бир йил мобайнида сотилмаган бўлса;
- активларнинг тўлаш муддати узайтирилган бўлса;
- асосий қарз ва фоизлар бўйича 180 кундан ортиқ кунга муддати ўтган қарздорлик мавжуд бўлса.
- Тижорат банки сифати «умидсиз» деб таснифланган активлар учун уларнинг қайтарилмаган асосий қарз (қолдиқ) суммасининг юз фоизи миқдорида махсус захира шакллантириши лозим.

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Активларнинг қуйида келтирилган асосий шартларидан ҳеч бўлмаганда биттаси ўзгартирилган бўлса, улар шартлари қайта кўриб чиқилган активлар деб ҳисобланади:
- фоиз ставкасининг пасайтирилиши, Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкаси пасайиши муносабати билан фоиз ставкасининг пасайтирилиши ҳолатлари бундан мустасно;
- асосий қарзнинг камайтирилиши ёки ундан қисман воз кечилиши;
- фоизлар ва (ёки) асосий қарзга доир тўловларнинг бир қисми ёки барчасидан воз кечилиши;
- активнинг асосий ва (ёки) фоизларининг тўлаш муддати кечиктирилиши ёки узайтирилиши;
- қарз олувчи ва (ёки) таъминот турининг ўзгартирилиши, кредитнинг бир қисми қайтарилганлиги муносабати билан таъминотдан чиқарилган ҳолатлар бундан мустасно.

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Тижорат банклари маблағларни вакиллик ҳисобварағидан Марказий банкда очиладиган мажбурий захиралар депозитларига тижорат банки активлари бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун шаклланиши лозим бўлган махсус захиралар маблағлари миқдорига тенг суммани ўтказишни таъминлашлари шарт.
- Мажбурий захиралар депозитларига ўтказиш учун мажбурий бўлган маблағлар ҳажми захиралар суммасидан келиб чиқиб, ҳар ой якунлари бўйича ҳисоблаб чиқарилади.

30

4.Банк активларининг сифат даражаси ва диверсификацияси.

- Тижорат банки активларининг сифат жиҳатдан баҳолаш банкнинг капиталининг етарлилик даражаси кўрсаткичи ҳамда унинг фаолиятининг қай даражада самарадорлигини баҳолаш каби кўрсаткичга тенгдир. Тижорат банклари активларининг сифати турли омиллар асосида олиб борилади. Ушбу омилларга қуйидагиларни киритиш мумкин:
- активлар таркибининг муддатларига асосан пассивлар таркибига мослиги;
- тижорат банкларини активларининг ликвидлилиги;
- тижорат банкларининг активларининг даромадлилиги;
- тижорат банклари актив операцияларининг диверсификация килинганлик даражаси;
- умидсиз ва шубхали активларнинг умумий активлар таркибидаги улуш;
- тижорат банклари активларининг узгарувчанлик белгилари.
- Тижорат банклари активларининг юкори сифатга эга эканлиги, банк томонидан мижозлари билан тузилган шартномада кўрсатилган муддат жойлаштирилган активларни ва улар бўйича ҳисобланган фоизларни ўз муддатида ҳамда тўлиқ қайтариб олиши билан белгиланади.

31

Тижорат банклари активларининг тоифалари ва улар бўйича захиралар ажратиш тартиби


№	Активларнинг номланиши	Захиралар ажратиш фоизи
1.	стандарт активлар (кредитлар)	1,0
2.	субстандарт активлар (кредитлар)	10,0
3.	қониқарсиз активлар (кредитлар)	25,0
4.	шубхали активлар (кредитлар)	50,0
5.	умидсиз активлар (кредитлар)	100,0

32

5.Тижорат банкларининг активларини бошқариш усуллари.


Тижорат банклари жалб килинган ресурсларни турли хил актив операцияларга тақсимлашлари керак. Бунда банклар қуйидаги методлардан фойдаланадилар:

1. Умумий фонд маблағлари методи. Бу метод асосида барча ресурсларни умумий битта жойга йиғиш назда ётади.



33

1. Активларни тақсимлаш методи. Бу метод биринчи методнинг баъзи камчиликларини бартараф этиш билан боғлиқ.



34

Илмий метод, шунингдек ЭҲМни қўллаш билан боғлиқ бўлган метод. Бу метод нисбатан мураккаб математик методлар ва ЭҲМ орқали бошқариш муаммоларига ёндашишни касб этади. Ушбу саволларга жавоб беришда ЭҲМлардан кенг фойдаланилади. Активлар ва пассивларни бошқаришда банк активлари ликвидлиги масаласини кўриб чиқиш муҳим ҳисобланади.

35

- Ҳозирги кунда банк ликвидлигини бошқаришнинг 4 та асосий назарияси фарқланади. Улар қуйидагилардир:
- 1. Тижорат ссудалари назарияси.
- 2. Жойдан-жойга (активларни) кўчириш назарияси.
- 3. Кутиладиган даромад назарияси.
- 4. Пассивларни бошқариш назарияси.

36

Тижорат ссудалари назарияси.

- Бу назариянинг вакиллари тижорат банклари ликвидлиги унинг активларини қисқа муддатли ссудаларга жойлаштирилган пайтда сақланишини таъкидлайди. Бунда ссудаларнинг қисқа муддатлилиги, айланиш тезлиги, даромадлилиги инобатга олинган.
- Бошқача қилиб айтганда, банклар товарлар ҳаракати ишлаб чиқаришдан уни истеъмолгача бўлган босқичларни молиялаштиришни кўзда тутади.

37

Жойдан-жойга (активларни) кўчириш назарияси

- Бу назарияга асосан банк активларини бошқа активларга кўчира олиши ёки уларни бошқа кредиторларга ҳамда инвесторларга сота олиши билан ўз ликвидлигини таъминлаши мумкин. Агар товарлар билан таъминланган ссудалар ўз вақтида қайтмаса, у ҳолда банк бозорда уларни сотиши мумкин, агар ссуда маблағларига мухтожлик сезилса, банклар Марказий банкдан қайта молияланиши ёки банклараро кредит ресурслари бозоридан ресурс сотиб олиши мумкин. Демак, ҳар қандай талабни амалга ошириш учун тижорат банклари ҳар доим ликвид активларга эга бўлиши керак.

38

Кутилаётган даромадлар назарияси.

- Бу назарий қараш таъсирида кредитлар бўйича асосий қарз ва фоиз тўловларнинг қайтиши, аввало, мижозлар томонидан кутилаётган даромад даражасига ҳам миқдор, ҳам вақт нуқтаи назаридан мос келиши ва ўзаро боғланиши амалга татбиқ қилинди. Банклар кредитларни диверсификация қилиш жараёнида шу хусусиятни ҳисобга олиши лозим эди. Бу эса келажакда кутилаётган ликвидлик муаммосининг олдини олишга имкон берарди.

39

Пассивларни бошқариш назарияси.

- 1960-70 йиллардан бошлаб банк ликвидлигини бошқариш борасида "пассивларни бошқариш" назарияси пайдо бўлди. Бу назариянинг пайдо бўлишига иқтисодиётда фонд ва пул бозорининг шаклланиши ҳамда икки поғонали банк тизимининг тўла шаклланиши билан банк маблағлари бозорининг ривожланиши туртки бўлди. Бу назарий фикрга таянган ҳолда банклар ўз ликвидлигини пул бозори ва сармоя бозоридан қарз олиш, яъни маблағлар жалб қилиш орқали бошқара бошлашди. Бу асосан Марказий банкдан маблағлар сотиб олиш, депозит сертификатлари, киска муддатли тижорат векселлар ва евродоллар каби қарз мажбуриятларини муомалага чиқариш шаклида амалга оширилди.

40

- Тижорат банклари актив операцияларини бошқариш, ўз олдига баланс ликвидлигига риоя қилган ҳолда, банк фойдалилигини таъминлаш сингари икки мақсадни қўйади.
- Молиявий жиҳатдан активларни бошқаришнинг асосий мақсади қуйидагилардан иборат:
- - Банк ликвидлигини ошириш;
- - Банк даромадини ошириш;
- - Таваккалчиликларни камайтириш.

41

6.Тижорат банкларининг вакиллик хисобварақлари ва турлари.

- Тижорат банкини ўзи бажарадиган анъанавий ва ноанъанавий функциялари орасида хар куни банк мижозларининг талабларига асосан нақд пулсиз ҳисоб – китобларни бетўхтов амалга ошириш ва уларни ҳисобидан нақд пулларни етказиб бериши лозим. Шунинг учун тижорат тижорат банклари ихтиёридаги активларининг бир қисми пул шаклида, одатда банкнинг корреспондент ҳисобрақамидаги қолдиқ ва банк кассасидаги нақд пул шаклида сақланиб туриши лозим. Тижорат банклари ҳисобрақамларидаги катта маблағларни мижозларнинг талаб қилиб олингунча бўлган депозитлар ташкил этади.

42

Банкларнинг вакиллик ҳисобварақдаги қуйидагиларга бўлинади:

- а) резидент банклардаги вакиллик ҳисобварақлари;
- б) нерезидент банклардаги вакиллик ҳисобварақлари;
- в) Ўзбекистон Республикаси Марказий банкидаги мажбурий захира ҳисобвараги;
- г) банкларнинг бошқа депозит ҳисобварақлари.
- Янги ташкил этилаётган банк таъсис бадалларини йиғиш учун исталган банкда вақтинчалик талаб килингунча (маблағ йигиш учун) депозит ҳисобвараги очиши мумкин.

43

Тижорат банк миллий валютада вакиллик ҳисобвараги очиш учун қуйидагиларни тақдим қилади:

- а) ҳисобварақ очиш тўғрисида ариза;
- б) солиқ тўловчининг идентификакия рақами берилганлиги тўғрисида гувохнома нусхаси;
- в) банк операкияларини амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан берилган лицензиянинг нусхаси;
- г) цатистика органлари томонидан берилган корхона ва ташкилотнинг ягона давлат рўйхатига киритилганлиги тўғрисида гувохнома нусхаси;
- д) имзолар намуналари ва муҳр изи қўйилган варакча.
- Нерезидент банклар томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида ва Ўзбекистон Республикасининг ваколатли банкларида вакиллик ҳисобварақларини очиш учун қуйидагилар тақдим қилинади:
- а) ихтиёрий шаклда ҳисобварақ очиш тўғрисида ариза;
- б) имзолар ва муҳр изи намуналари.

44

- Тижорат банклари маблағларни корреспондент ҳисобваракдан Марказий банкда очиладиган банк активлари бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун мажбурий захиралар депозитига (бундан кейин - мажбурий захиралар депозитлари) банк активлари бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун шаклланган махсус захиралар маблағлари миқдорига тенг суммани ўтказишни таъминлашлари шарт.

45

7.Тижорат банкларида мажбурий заҳираларни ташкил этиш тартиби ва унинг зарурияти.

- Ссудалар бўйича эҳтимолий йўқотишларга қарши заҳиралар мижозларга берилган кредитларни таҳлил этиш ва банкнинг риск даражасига таъсир этувчи омилларни аниқлаш асосида ташкил этилади. Заҳиралар ҳажми риск гуруҳлари инобатга олинган ҳолда берилган ссудаларнинг сифатига боғлиқ бўлади.
- Банк амалдаги тартибдан келиб чиқиб ҳар бир ҳисобот ойининг биринчи кунида заҳира ҳажмини ҳисоблайди. Ссудалар бўйича эҳтимолий йўқотишлар учун заҳира маблағлари ҳар ойда берилган ссудаларнинг аниқланган риск даражаси ёмонлашган тақдирда ажратилади.
- Мажбурий захира-бу "Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг тижорат банклари томонидан Марказий банкда мажбурий захираларни депонентлаш тартиби тўғридаги Низом"га мувофиқ тижорат банклари томонидан Марказий банкда жойлаштириладиган мажбурий захиралардир.

- Заҳира талаблари монетар сиёсатни амалга оширишда банк тизимининг умумий ликвидлилигини тартибга солиш ва пул массасини зарур миқдорларда бўлишини таъминлашнинг асосий воситаларидан бири ҳисобланади.
- Заҳира талабларининг меъёрлари Марказий банк Бошқаруви томонидан банкларнинг депозит мажбуриятларига нисбатан фоизларда белгиланади.
- Заҳира талаблари ҳисобига жисмоний шахсларнинг депозитлари киритилмайди.
- Мажбурий захираларни депонентлаш Бош банк томонидан вакиллик ҳисоб варағидан пул маблағларини ўтказиш йўли билан амалга оширилади.
- Банк томонидан депонентланиши лозим бўлган мажбурий захиралар миқдорини тартибга солиш ҳамда мажбурий захиралар миқдорини тартибга солиш бўйича банк томонидан тақдим этиладиган ҳисоб-китобларнинг тўғрилигини текшириш Марказий банк томонидан амалга оширилади.

- Банкнинг бошқа давлатлар ҳудудида рўйхатга олинган бўлинмаларининг мажбурий захираларини шакллантириш ушбу давлатлар қонунчилигига мувофиқ амалга оширилади. Мажбурий захиралар миқдори ҳисоб-китоб қилинаётганида тегишли баланс ҳисобваракларидаги банкнинг хорижий давлатдаги филиали ёки шўъбасига оид маблағлар қолдиқлари чегириб ташланади.
- Марказий банкда депонентланиши лозим бўлган мажбурий захираларнинг ҳисоб-китоби кунлик баланс асосида алоҳида миллий ва алоҳида хорижий валютада мажбурий захираланиши лозим бўлган маблағларнинг ўртача ойлик қолдиғини аниқлаш орқали тузилади.
- Мажбурий захираланиши лозим бўлган маблағларнинг ўртача ойлик қолдиғи ҳисобот ойининг ҳар бир иш куни бўйича ҳисобваракларнинг алоҳида миллий ва алоҳида хорижий валютадаги қолдиқлари йиғиндисини иш кунлари сонига бўлиш орқали аниқланади.

- Ҳисобот ойи тугаганидан кейинги 3 иш кунидан кечиктирилмаган муддатда банклар ҳисоб-китобларга мувофиқ етишмаган суммани мажбурий захираларга ўтказиб беришлари шарт.
- Мажбурий захираларни Марказий банкда депонентлаш тартибига риоя этиш борасида жавобгарлик банклар зиммасида бўлади.
- Банк томонидан мажбурий захиралар талаблари бажарилмаган тақдирда Марказий банк Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида»ги. Қонунга мувофиқ ўтказиб берилмаган маблағ суммасини ҳамда қайта молиялаш ставкасининг икки баравари миқдорида жарима қўллаган ҳолда банкдан сўзсиз тартибда ундириб олади.

Тижорат банкларининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида резерв шакллантириладиган мажбуриятлари

РЎЙХАТИ

Т/р	Баланс хисобвараги рақами	Резерв шакллантириладиган мажбуриятлар номлари
1.	20203	Республика қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
2.	20204	Маҳаллий бюджет қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
3.	20205	Бюджетдан ташқари фондларнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
4.	20207	Республика йўл жамғармасининг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
5.	20208	Хусусий корхоналар, хўжалик ширкатлари ва жамиятларнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
6.	20210	Давлат корхона, ташкилот ва муассасаларининг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
7.	20212	Нодавлат нотижорат ташкилотларининг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
8.	20214	Чет эл капитали иштирокидаги корхоналарнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
9.	20216	Банк бўлмаган молиявий муассасаларнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
10.	20218	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
11.	20296	Бошқа мижозларнинг талаб қилиб олингунча сақланадиган депозитлари
12.	20403	Республика қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича жамғарма депозитлари
13.	20404	Маҳаллий бюджет қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича жамғарма депозитлари
14.	20405	Бюджетдан ташқари фондларнинг жамғарма депозитлари
15.	20408	Хусусий корхоналар, хўжалик ширкатлари ва жамиятларнинг жамғарма депозитлари
16.	20410	Давлат корхона, ташкилот ва муассасаларининг жамғарма депозитлари
17.	20412	Нодавлат нотижорат ташкилотларининг жамғарма депозитлари
18.	20414	Чет эл капитали иштирокидаги корхоналарнинг жамғарма депозитлари
19.	20416	Банк бўлмаган молиявий муассасаларнинг жамғарма депозитлари
20.	20418	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг жамғарма депозитлари
21.	20496	Бошқа мижозларнинг жамғарма депозитлари
22.	20603	Республика қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича муддатли депозитлари

Тижорат банкларининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида резерв шакллантириладиган мажбуриятлари

РЎЙХАТИ

Т/р	Баланс хисобвараги рақами	Резерв шакллантириладиган мажбуриятлар номлари
23.	20604	Маҳаллий бюджет қарамоғидаги бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари бўйича муддатли депозитлари
24.	20605	Бюджетдан ташқари фондларнинг муддатли депозитлари
25.	20608	Хусусий корхоналар, хўжалик ширкатлари ва жамиятларнинг муддатли депозитлари
26.	20610	Давлат корхона, ташкилот ва муассасаларининг муддатли депозитлари
27.	20612	Нодавлат нотижорат ташкилотларининг муддатли депозитлари
28.	20614	Чет эл капитали иштирокидаги корхоналарнинг муддатли депозитлари
29.	20616	Банк бўлмаган молиявий муассасаларнинг муддатли депозитлари
30.	20618	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг муддатли депозитлари
31	20696	Бошқа мижозларнинг муддатли депозитлари
32.	21202	Бошқарув (менежер) чеклари
33.	22604	Мижозларнинг бошқа депозитлари — жамғарма — мақсадли
34.	22606	Мижозларнинг импорт билан боғлиқ тратта ва ёки траст хужжатлари билан кафолатланган аккредитивлар бўйича депозитлари
35.	22608	Мижозларнинг қимматли қоғозлар билан бўладиган операциялар бўйича маблағлари
36.	22610	«O'ZBEKISTON POCHTASI» AJ нинг таркибий бўлинмалари томонидан тўланадиган пенсия ва нафақалар
37.	22612	«O'ZBEKISTON POCHTASI» AJ нинг таркибий бўлинмалари томонидан амалга ошириладиган пул ўтказмалари ва даврий нашрларга обуна

Тижорат банкларининг Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида резерв шакллантириладиган мажбуриятлари

РЎЙХАТИ

Т/р	Баланс хисобвараги рақами	Резерв шакллантириладиган мажбуриятлар номлари
38.	22619	Якка тартибдаги тадбиркорларнинг пластик карточкалари бўйича мажбуриятлар
39.	22620	Корпоратив пластик карточкалар бўйича мажбуриятлар
40.	22622	Юридик шахсларнинг ўз ваколатхоналари ва филиаллари таъминоти учун ажратган маблағлари
41.	22624	Айрим турдаги акцизли товарларни сотадиган юридик шахсларнинг мақсадли маблағлари
42.	22626	Корхона ва ташкилотларнинг мақсадли маблағлари
43.	22630	Маҳаллий бюджетдан молиялаштирилаётган, фукароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан тайинланган ижтимоий нафақалар маблағлари
44.	22696	Бошқа депозит мажбуриятлари
45.	23404	Республика қарамоғидаги бюджет муассасаларининг маблағлари
46.	23424	Капитал қўйилмаларни маҳаллий бюджетлардан молиялаштириш
47.	23426	Маҳаллий бюджет маблағлари — туман/шаҳар
48.	23430	Маҳаллий бюджет маблағлари — вилоят
49.	23432	Маҳаллий бюджет маблағлари — Қорақалпоғистон Республикаси
50.	29801	Мижозлар билан хисоб-китоблар
51.	29842	Ҳаракатсиз депозит мажбуриятлари
52.	29846	Талаб қилиб олинмаган бошқа кредит қолдиқлари
53.	29896	Бошқа мажбуриятлар

5-мавзу. Тижорат банкларининг валюта операциялари

1. Валюта ва валюта курси тушунчаси
2. Валюта муносабатлари ва валюта операциялари.
3. Халқаро валюта конунчилиги. Ўзбекистон Республикаси валюта конунчилиги.
4. Тижорат банклари томонидан валюта операцияларини ўтказиш тартиби.
5. Хеджерлаш ва унинг валюта муносабатларини ташкил қилишдаги роли
6. Тижорат банклари томонидан мижозларни чет эл валютасида кредитлаш тартиби.
7. Халқаро хисоб-китоблар ва унинг республика тижорат банклари томонидан ишлатиладиган асосий шакллари.

1

Валюта операциялари - бу хорижий валютада ва валютавий қимматликлар билан бўладиган олди-сотди операцияларидир.

Жаҳон амалиётида валюта операцияларининг амалга ошириш учун иккита усулдан фойдаланилади:

-Жорий валюта операциялари;

-Капиталлар ҳаракати билан боғлиқ валюта операциялари.

Валютавий қимматликларга қуйидагилар киради:

-хорижий валютада ёзилган қарз мажбуриятлари, яъни оддий векселлар ва тратталар;

-хорижий валютадаги ёзилган қимматли қоғозлар;

-олтин, платина ва бошқа қимматбаҳо металлар, тошлар.

2

ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИГА ҚУЙИДАГИЛАР КИРАДИ:

- валюта бойликларига бўлган мулк ҳуқуқининг ва бошқа ҳуқуқларнинг ўзга шахсга ўтиши ҳамда валюта бойликларини тўлов воситаси сифатида ишлатиш билан боғлиқ операциялар;
- валюта бойликларини Ўзбекистон Республикасига олиб кириш ва жўнатиш, шунингдек Ўзбекистон Республикасидан олиб чиқиш ва жўнатиш;
- халқаро пул жўнатмаларини амалга ошириш;
- резидентлар ва норезидентлар ўртасида миллий валютадаги операциялар.

3

ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИ ТУРЛАРИ



4

Жорий халқаро операциялари

- ташқи савдо, бошқа жорий фаолият олиб борилиши, шу жумладан хизматлар кўрсатилиши муносабати билан, шунингдек одатдаги киска муддатли банк ва кредит механизмлари ишлаши муносабати билан тўланиши зарур барча тўловлар;
- фоизлар ва бошқа даромадлар кўринишида, шу жумладан банк омонатлари, кредитлар ҳамда лизинг бўйича олинадиган фоизлар ва бошқа даромадлар шаклида, шунингдек бошқа инвестициялардан олинадиган соф даромад шаклида тўланиши зарур тўловлар;
- кредитларни, қарзларни узиш учун ёки тўғридан-тўғри инвестициялар амортизацияси учун мақбул суммаларни тўлаш;
- савдо билан боғлиқ бўлмаган пул жўнатмаларининг мақбул суммалари.

5

Капитал ҳаракати билан боғлиқ валюта операциялари

- инвестиция фаолиятини амалга ошириш;
- кредитлар олиш ва бериш, лизинг операцияларини амалга ошириш;
- кўчмас мулкни сотиб олиш ва сотиш;
- хорижий давлатлардан маблағларни ҳисобварақлар ва омонатларга жалб этиш ҳамда хорижий давлатларда маблағларни ҳисобварақлар ва омонатларга жойлаштириш киради

6

ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ ЎЗ ХАРАКТЕРИ ВА НАМОЁН БЎЛИШ УСУЛИГА КЎРА, УЛАР ҚУЙИДАГИЛАРГА БЎЛИНАДИ



7

- **Валюта курси** – бу бир мамлакат пул бирлигининг бошқа мамлакатлар пул бирликларида ёки халқаро валюта бирликларда ифодаланган баҳосидир.
- Валюта курси алмашув қатнашчилари учун валюта бозоридаги талаб ва таклиф нисбати орқали аниқланадиган бир валютани бошқасига қайта ҳисоблаш коэффициентидир.

8



9

Миллий валютанинг бошқа мамлакатлар валюталарига алмашинув даражасини унинг конвертирланиши акс эттиради. Ташқи иқтисодий операцияларининг кўриниши ва бу операцияларни ўтказган субъектларга қараб, валюта конвертацияси туркумларга ажратилади.

- **Тўлиқ конвертирланувчи валюта** бу – ташқи валюта операция-ларининг ҳамма турини ва барча категориядаги у ёки бу валюта операциялари бўйича валютанинг чекловларсиз конвертацияланадиган валютадир.
- **Қисман конвертирланадиган валюталар** – ташқи иқтисодий операцияларининг маълум турлари ва маълум субъектлари бўйича валютанинг қисман конвертирланадиган валюталардир. Ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида одатда, ушбу конвертациялаш шартлари кенг қўлланилади.

10

Ташқи конвертацияланадиган валюталар – фақатгина норезидентлар учун ташқи иқтисодий операцияларининг у ёки бу кўринишига алоҳида конвертацияланадиган валюталардир.

Ички конвертацияланадиган валюталар – фақат мамлакат резидентлари учун валютани айирбошлаш шартларини ўзида мужассамлаштирган валюталардир. Бунда норезидентлар учун валютанинг эркин конвертацияланишига йўл қўйилмайди.

11

Жорий валюта операциялар бўйича миллий валюта конвертациясини таъминлаш юзасидан харакат режасида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш назарда тутилган:

-ички валюта бозорида алмаштириш курсларини унификациялаш;

-корхоналар ва ташкилотлар томонидан чет эл валютасини сотиб олиш тартибини янада ҳам соддалаштириш;

-накд чет эл валютасини сотиш ва харид килишда ахолига кулайликлар яратиш;

-ташқи иқтисодий алоқага оид операцияларни амалга ошириш бўйича амалдаги тартибни янада соддалаштириш.

12

Валюта муносабатлари ва валюта операциялари

Валюта жахон бозорида давлатлар орасида пул вазифаларини бажарувчи давлатларни миллий пул бирликлари хисобланади.

Етакчи хорижий валюталарга нисбатан коэффициент куллаш кондаси.

Етакчи хорижий валюталар	Кабул килинган белгиси	Коэффиценти
АКШ доллари	USD	1
Евро	EUR	1
Буюк Британия фунт стерлинги	GBR	1
Япония иени	JPY	1
Швейцария франки	CHF	100

13

Валюта муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари

- **ВАЛЮТА МУНОСАБАТЛАРИ -** бу давлатлараро битим ва келишувлар натижасида амалга ошириладиган барса иқтисодий, маданий муносабатларнинг пулдаги ифодасидир.
- **ВАЛЮТА ТИЗИМИ-** валюта муносабатини ташкил қилишнинг давлат ҳуқуқи шакли.

14

Миллий ва жаҳон валюта тизимларининг асосий элементлари

МИЛЛИЙ ВАЛЮТА ТИЗИМИ	ЖАҲОН ВАЛЮТА ТИЗИМИ
Миллий валюта	Резерв валюталар, халқаро ҳисоб-рақам валюта бирликлари
Миллий валютани конвертациялашнинг шартлари	Валюталарнинг ўзаро конвертацияланиши шартлари
Миллий валюта паритети	Валюта паритетларининг унифицирланган режимлари
Миллий валютанинг курс режими	Валюта курсларининг режимининг тартиби
Валютавий чеклашларнинг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги, валюта назорати	Валюта муносабатларини давлатлараро тартибга солиш

15

Миллий ва жаҳон валюта тизимларининг асосий элементлари

МИЛЛИЙ ВАЛЮТА ТИЗИМИ	ЖАҲОН ВАЛЮТА ТИЗИМИ
Мамлакатнинг халқаро валютавий ликвидлилигини миллий даражада тартибга солиш	Халқаро валюта ликвидлилигини давлатлараро даражада тартибга солиш
Муомалада халқаро кредит маблағларидан фойдаланиш тартиби	Муомалада халқаро кредит маблағларидан фойдаланишнинг унификацияланган қоидалари
Мамлакатнинг халқаро ҳисоб-китоблар бўйича тартиби	Халқаро ҳисоб-китобларнинг асосий шаклларининг унификацияси
Миллий валюта бозори ва олтин бозорининг режими	Жаҳон валюта бозори ва олтин бозорларининг режими
Мамлакатда валюта муносабатларини бошқарувчи ва тартибга солувчи миллий органлар	Давлатлараро валюта муносабатларини амалга оширувчи халқаро ташкилотлар

16

ХАЛҚАРО ВАЛЮТА МУНОСАБАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШ БОҚИЧЛАРИ

1. Париж
2. Генуя
3. Бреттон Вудс
4. Ямайка

17

ВАЛЮТА ТИЗИМИ- валюта муносабатини ташкил қилишнинг давлат ҳуқуқи шакли.

Валюта тизими турлари

- Миллий валюта тизими.
- Худудий валюта тизими.
- Жаҳон валюта тизими.

18

Валюта тизимида олтиннинг ўрни

Олтин металл категорияси			
Кўринишига кўра	Сифатига кўра	Пишиқлигига кўра	Талабга кўра
- ялтироқ - эгилувчан - эрувчан - қотувчан - силлиқ - кўкун - антиквар - турли шаклда	- тоза, софлиги - қимматбаҳо - ноёб, камёб - ишончли - шифобахшлиги	- баркарор - мустаҳкам	- жамғарма - совға - мерос - гаров - қарзни ундириш

19

Халқаро валюта конунчилиги. Ўзбекистон Республикаси валюта конунчилиги.

- Ўзбекистон Республикаси худудида валюта муносабатларини тартибга солиш мақсадида 2003 йилда «Ўзбекистон Республикаси худудида валюта муносабатларини тартибга солиш қонуни» ва 1994 йил октябрь ойида «Сўмни ички конвертацияси ҳақида конун» қабул қилинган. Бундан ташқари, мазкур қонунлар харакатидан келиб чиққан ҳолда, тижорат банклари, жисмоний шахслар ва хўжалик юритувчи субъектларни ташки иқтисодий фаолиятини тартибга солувчи Ўзбэкситон Республикаси Марказий банкининг бир қатор меъёрий хужжатлари ва йўриқномалари мавжуд.

20

- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 4 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси валюта бозорини ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ушбу жараннинг муҳим босқичларидан бири бўлди. Ушбу қарорга биноан 1994 йил 15 октябрдан бошлаб, республика ҳудудида Ўзбекистон Республикаси резидентлари ва норезидентлари бўлган юридик ва жисмоний шахслар ўртасидаги барча тўлов ва ҳисоб-китоблар фақат миллий валюта – сўмда амалга оширилиши лозим эди.

21

- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 7 майдаги 842-XII рақамли қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида валюта муносабатларини мувофиқлаштирувчи “Валютани тартибга солиш” қонуни амал қила бошлади.
- 1992 йилнинг 19 октябрида 14 рақамли хат билан Ўзбекистон Республикаси Марказий банки “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки муассасаларининг валюта алмаштириш шахобчаси ҳақидаги Низом”ни муомалага киритди.
- 1994 йил 18 апрелда 45 рақамли “Корхоналар, бирлашмалар ва ташкилотлар томонидан хорижий валютада олинган тушумнинг бир қисмини Ўзбекистон Республикаси Марказий банкига мажбурий сотув тартиби” ва 47 рақамли “Корхоналар томонидан СССР таркибига кирган давлатлар субъектлари билан савдо операциялардан олинган тушумнинг бир қисмини мажбурий сотув тартиби” қабул қилинган.

22

Валюта билан биргаликда, халкаро валюта муносабатлари тушунчаси мавжуд. Валюта муносабатлари - бу, валютани жахон хужалигида функционал амал килиш жараёнида ва халкаро алокалар сохасига хизмат курсатувчи узига хос пул муносабатларини йигиндисидир. Валюта муносабатлари жахон валюта тизимини асоси булиб хизмат килади.Валюта муносабатларининг ахволи куйидагиларга боглик булади

Валюта тизими - бу, давлатлар аро келишувлар ва шартномалар билан белгиланадиган халкаро валюта муносабатларни ташкил этишни давлат-ёукукий шаклидир

Валюта тизими 3 хил куриниш билан фаркланади:
1Миллий
2Жахон
3Худудий

23

Жахон валюта тизми бу - давлатлароро келишувлар Билан мустаххамланган жахон бозори ривожланиши асосида халкаро валюта муносабатларни ташкил этиш шаклидир

Худудий валюта тизими бу - худудий бирлашма асосида давлатларнинг давлатлароро келишувлар билан мустаххамланган валюта муносабатларини ташкил этиш шаклидир.

Захира валютаси бу - жахон савдосида урин эгаллаган мамлакатлар миллий валютаси булиб, у халкаро тулов муомаласига хизмат курсатиш учун ва бахолар белгилашда хамда бошка давлатлар марказий банкларида валюта захиралари сифатида ишлатиладиган валютадир

24

Тижорат банклари томонидан валюта операцияларини ўтказиш тартиби.

- Жаҳон амалиётида, валюталарни олди-соттиси амалга ошадиган жой жаҳон валюта бозори деб аталади. Аммо, мазкур бозорнинг хусусиятларига кўра, у аник бир манзилга эга эмас ёки маълум бир жойда жисмонан мавжуд эмас. Жаҳон валюта бозори -телефон хамда замонавий телекомуникацион тизим оркали савдоси амалга ошадиган хусусиятли бозордир.

25

Валюта позицияси

- Валюта позицияси – дилерни талаб ва мажбуриятларини нисбатидир. У икки кисмдан иборат, яъни «узун» ва «киска» позициядан.«Узун» позицияда – дилерни талаблари акс этади. Талаблар эса, дилер томонидан валюта сотиб олинганда хосил бўлади.
- «Киска» позицияда – дилерни мажбуриятлари акс этади. Мажбуриятлар эса, дилер томонидан валюта сотилганда ҳосил бўлади.

26

Спот» операцияси

- Спот» операцияси – бу, бир зумда амалга ошадиган валюта операцияси бўлиб, валюта шартнома амалга ошгандан сўнг 2 банк иш куни давомида шартнома тузилган кун курси асосида сотиб олувчига етказилади.«Спот» курс – олдиндан келишув ёки контракт сифатида расмийлаштирилмаган валюта операцияларида (ишлатиладиган) олди-сотти валюта алмашув курсидир.

27

Муддатли битимлар

- Муддатли битимлар деб, белгиланган муддатда, аммо икки иш кунидан ошик бкган муддатда амалга ошириладиган операцияларга айтилади. Амалиётда муддатли битимларнинг куйидаги кенг таркаган турлари мавжуддир. Уларга:
- Форвард валюта битимлари;
- Фючерс битимлари;
- Валюта опциони;
- Своп операцияларини кўрсатиш мумкин.

28

Опцион операциялари

- Америка опциони деб, одатда опционни харакат муддатини хохлаган вақтида бажарилишига, ва шунинг учун опционни харакат муддати унинг биринчи ва охирги китоб санаси орасида урнатилади.
- Европа опциони деб, одатда опционни фақат ҳисоб-китобнинг аниқ бир маълум охирги даврида бажарилишига айтилади.

29

Своп операцияси

- Своп операцияси - бу бир вақтнинг ичида чет эл валютасини хар-хил санага турли ҳисоб-китоблар шартида тенг суммада сотиб олиш ва сотишдир. Своп - битимлар, шунингдек, банклар томонидан кзларининг чет эл валютасидаги мажбуриятларини қоплаш мақсадида фойдаланилади.

30

4.Валюта бозори ва валюта биржаси.

- Замонавий валюта бозори, ялпи жаҳон хўжалиги миқёсида амал қилувчи, мураккаб ва мунтазам иқтисодий тизим сифатида майдонга чиқади.
- Валюта бозори янги шароитларга мослашган ҳолда тинмай ривожланиб келган. У хорижий валютадаги векселлар билан савдонинг локал марказларидан тортиб то бирдан-бир ҳақиқий халқаро бозор шаклигача бўлган йўлни босиб ўтди.

31

Замонавий жаҳон валюта бозорлари қуйидаги асосий хусусиятлар билан тавсифланади:

валюта ва кредит хавф-хатарларини суғурталаш мақсадида валюта операцияларининг кенг ривожланиши.

5)чайков ва арбитраж операциялари тижорат битимлари билан боғлиқ валюта операцияларидан кўп жихатдан ортиқдир, улар иштирокчиларининг сони кескин кўпаяди ва ўз таркибига банк ҳамда бошқа юридик ва жисмоний шахсларни олади;

6)курси, хусусиятли биржа товарига ўхшаб фундаментал иқтисодий омилларга боғлиқ бўлмаган, ўзининг тенденцияларига эга бўлган валюталарнинг барқарорсизлиги.

хўжалик алоқаларининг байналмилаллашуви, электрон алока воситаларидан кенг фойдаланиш ва ҳисоб-китобларни амалга ошириш заминида валюта бозорларининг байналмилаллашуви;

2)операциялар навбати билан жаҳоннинг барча жойларида узлуксиз, сутка давомида амалга ошади.

3)валюта операцияларининг техникаси соддалаштирилган, ҳисоб-китоблар банкларнинг вакиллик ҳисобвараклари оркали амалга ошади;

32

Функционал нуқтаи назардан валюта бозорлари қуйидагиларни таъминлайди:

- -халқаро ҳисоб-китобларнинг ўз вақтида амалга ошишини;
- -валюта ва кредит хавф-хатарлар суғурталанишини;
- -жаҳон валюта, кредит ва молия бозорларининг ўзаро алоқаларини;
- -банклар, корхоналар, давлат валюта заҳираларининг диверсификациясини;
- -валюта курслари мувофиқлаштирилишини (бозор ва давлат томонидан);
- -иштирокчилари томонидан валюта курсларининг фарқи сифатидаги чайқов фойдаси олинишини;
- -иқтисодиётни давлат томонидан мувофиқлаштирилишига қаратилган валюта сиёсатини амалга оширилиши.

33

- Валюта бозорлари институционал нуқтаи назардан банклар, брокерлик фирмалари, корпорациялар ва айниқса Транс Миллий Корпорациялар йиғиндисидан иборатдир.
- Валюта операцияларини амалга ошириш ҳуқуқи тақдим этилган банклар ваколатли, девизли ёки валютали банклар деб аталади.

34

- Валюта бозорининг янги иштирокчиси бўлиб валюталарни турли мамлакатлар ҳукуматлари ва корпорацияларининг юқори ликвидли ҳамда ишончли қимматли қоғозларига жойлаштирган ҳолда активлар портфелининг диверсификацияли бошқарувини амалга оширувчи инвестиция фондлари майдонга чиқди

35

- Валюта бозорлари иштирокчиларининг қаторига ушбу бозорлар орқали валюта заҳираларини бошқарадиган, миллий валюта курсини қўллаб-қувватлаб турадиган, валюта интервенцияси ҳамда миллий валютадаги қўйилмалар бўйича фоиз ставкалари мувофиқлаштирилишини амалга оширадиган мамлакатлар марказий банклари киради

36

- 70-йиллардан бошлаб валюталар билан айрим операциялар товар биржаларида амалга оширилади (масалан, фьючерс ва опцион валюта операциялари Чикаго ҳамда Нью-Йорк товар биржаларида).
- Ўзбекистонда ҳам валюта биржаси ташкил этилган ва у Республика Валюта Биржаси деб аталади. Мазкур биржанинг хусусиятли тарафи шундаки ушбу биржада нафақат валюта операциялари, балки фонд (давлат қисқа муддатли облигациялари) операциялари ҳам амалга оширилади.

37

- Валюта, кредит, молия ва олтин бозорлари ўртасидаги кучайиб бораётган боғлиқлик муносабати билан энг йирик банкларда “валюта зали” концепцияси жорий этилган. Банкнинг турли бўлимларида амалга ошириладиган ушбу бозорлардаги операциялар “валюта залида” бирлаштирилган.

38

- Валюта курсларининг қисқа ва ўрта муддатли динамикаси тенденцияларини прогнозлаш ҳамда аниқлашда валюта бозори конъюнктурасига таъсир этувчи омиллар (ялпи ички маҳсулотнинг ҳажми, саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши, ишсизлик даражаси, улгуржи ва чакана баҳолар индекслари, тўлов баланси асосий моддаларининг аҳволи, фоиз ставкаларининг динамикаси) таҳлил этилади.

39


- Банкларнинг банкротлиги валюта операциялари устидан банк раҳбарияти ва тегишли давлат органлари назоратининг кучайишига олиб келди. Банклар устидан назоратнинг миллий органлари капитал ҳаракати ва банклар хавф-хатарлари ҳажмларини назорат қилиш мақсадида уларнинг валюта позицияларини кузатади. Жаҳон валюта ва кредит бозорларидаги операциялар миллий ҳамда халқаро органларнинг мунтазам ўрганиш объекти бўлиб хизмат қилади.

40

Тижорат банклари томонидан мижозларни чет эл валютасида кредитлаш тартиби.

Халкаро кредит – бу ссуда капиталининг жахон оборотидаги характи бўлиб бу харакат товар ва валюта кўринишдаги маблағларни уч шарт асосида яъни: кайтариб беришлилик, муддатлилик, фоиз тўлашлилик асосида юзага келади.

41



42

Халқаро ҳисоб-китоблар ва унинг республика тижорат банклари томонидан ишлатиладиган асосий шакллари.

- Халқаро ҳисоб-китоблар деганда турли мамлакатларнинг юридик ва жисмоний шахслари ўртасида иқтисодий молиявий операциялар натижасида юзага келадиган пул мажбуриятлари ва талаблари бўйича тўловларни амалга оширилиши тушунилади.
- Ҳисоб-китобларни амалга ошириш учун банклар ўзларининг хориждаги бўлимлари ва хорижий банклардаги корреспондентлик алоқаларидан фойдаланишади.

43

Ҳалқаро ҳисоб-китобларнинг холати қуйидаги бир қатор омилларга боғлик:

- Мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий муносабатлар
- Мамлакатдаги валюта қонунчилиги
- Ҳалқаро савдо қоидалари
- Банклар амалиёти
- Ташки савдо контрактлари ва кредит келишувидаги шартлар


44

Хукуматлараро келишувларда ҳисоб-китобларнинг умумий тартиб – қоидалари белгиланса, ташки савдо битимларида шартлар аниқ кўрсатилади. Уларга қуйидагилар киради:

- нарх қайси валютада белгиланиши;
- нарх қайси валютада амалга оширилиши;
- тўлов шартлари;
- тўлов воситалари;
- ҳисоб-китоб шакли;
- қайси банклар ҳисоб-китобни амалга ошириши


45

Халқаро ҳисоб-китоблар ва унинг республика тижорат банклари томонидан ишлатиладиган асосий шакллари.




46

Халқаро ҳисоб-китоблар ва унинг республика тижорат банклари томонидан ишлатиладиган асосий шакллари




47

Тижорат банкларининг халкаро хисоб-китоб операцияларидакўлланиладиган тулов шартлари.



48

Тижорат банкларининг ордерли чеклари воситасида амалга ошириладаган халкаро хисоб-китоб операцилари.




49

(1)- ташки савдо шартномасини имзолаш;
(2)- импортёр уз банкига чек ёзиш тугрисида ёзма курсатма беради;
(3)- банк чекни ёзади;
(4)- банк чекни импортёрга узатади;
(5)- экспортёр товарларни ва товарлар билан боглик булган хужжатларни жунатади;
(6)- импортёр чекни экспортёрга узатади;
(7)- экспортёр чекни узининг банкига узатади;
(8)- банк чекни кабул килиб олади;
(9)- экспортёрнинг банки чекни тулов учун импортёрнинг банкига тулов учун жунатади;
(10)- импортёрнинг банки чек буйича туловни амалга оширади;
(11)- импортёрнинг банки экспортёнинг банкини 10-операция бажарилганлиги тугрисида ёзма равишда хабардор килади;
(12)- экспортёрнинг банки тулов суммасини экспортёрнинг жорий хисоб ракамига утказади;
(13)- экспортёрнинг жорий хисобракамидан кучирма.


50

Хужжатли инкассо воситасидаги халкаро хисоб-китоб операциялари.



51

Свифт оркали импорт туловларини амалга ошириш тартиби.



53

(1)- ташки савдо шартномасини имзолаш;
(2)- товарларни жунатиш;
(3)- экспортёр товар хужжатларини уз банкига узатади;
(4)- банк хужжатларини кабул килиб олади;
(5)- экспортёрнинг банки хужжатларни импортёрнинг банкига инкассо учун жунатади;
(6)- импортёрнинг банки товар хужжатларини инкассога кабул килади;
(7)- импортёрнинг банки хужжатларни келиб тушганлиги тугрисида импортёрни хабардор килади;
(8)- импортёр тулов топширикномаси ёзади;
(9)- импортёрнинг банки тулов топширикномасига асосан туловни амалга оширади;
(10)- импортёрнинг банки товар хужжатларини импортёрга узатади;
(11)- импортёрнинг банки экспортёрнинг банкини 9-операция бажарилганлиги тугрисида ёзма равишда хабардор килади;
(12)- экспортёрнинг банки тулов суммасини экспортёрнинг жорий счётига утказади;
(13)- экспортёрнинг жорий счётидан кучирма.

52

Мавзу 6. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операциялари

Режа:

1. Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозори.
2. Молиявий бозор ва бунда тижорат банкларининг роли.
3. Банкларнинг қимматли қоғозлар бўйича тижорат ва инвестицион операциялари.
4. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан пассив операциялари ва уларнинг таркибий тузилиши.
5. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан актив операциялари ва уларни туркумланиши.

1

1.Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозори.

* Молиявий муносабатлар устун келадиган бозорлар молия бозорлари деб хисобланади ва унинг таркибига куйдаги бозорлар киради:

- халқаро кредитлар бозори;
- валюта бозори;
- қимматли қоғозлар бозори;
- суғурта ва пенсия фондлари бозори;
- қосилавий молиявий инструментлар бозори.

2

Қимматли қоғозлар бозори

* Қимматли қоғозлар бозори ёки фонд бозори деганда, фонд инструментлари билан савдо хусусида, ўз эгаларининг юқорида зикр этилган бозорлар молиявий товарларининг муайян бир турига бўлган мулкий эхтиёжларини қондирувчи пул бозори ва капиталлар бозори йиғиндиси тушунилади.

3

Фонд инструментлари

* Фонд инструментлари (қимматли қоғозлар)нинг қуйидаги турлари ажратиб кўрсатилади:
* -акциялар (оддий ва имтёзли, номли ва номсиз акциялар);
* -акциялар ҳосилалари (сурогатлари), буларга депозитар тилхатлар киради: АДР, ЖДР, варрантлар, опцион ва фьючерслар, конвертация қилинадиган облигациялар;
* -облигациялар, давлат ва корхона облигациялари;
* -депозит ва жамғарма сертификатлари;
* -векселлар ва чеклар.
* Фонд бозори давлат қимматли қоғозлар бозори ва корпоратив қимматли қоғозлар бозорларига бўлинади.

4

Биржа индекси


* Ҳар бир мамлакатнинг акциялар бозори ўзининг шахсий индексига эга, ушбу индекс акциялар жорий баҳоларини уларнинг базис баҳоларига бўлган нисбати сифатида ҳисоб-китоб қилинади. Биржа индекси ҳисоб-китоби учун олинадиган акцияларнинг сони турли мамлакатларда бир-биридан фарқланади ва одатда 10дан 500тагача тебраниб туради.

5

Молиявий бозорлардаги операцияларнинг моҳияти

* Молиявий бозорлардаги операцияларнинг моҳияти валюталар (қимматли қоғозлар) курсларининг фарқи, товар-хом ашё биржаларидаги товарлар баҳоларининг ёки қимматли қоғозлар котировкалари индексларининг ўзгариши сифатида даромад олишдан иборатдир.

6



7

Халқаро молиявий марказлар

* Халқаро молиявий марказлар деганда халқаро валюта, кредит, молиявий операциялар ҳамда қимматли қоғозлар ва олтин билан битимларни амалга оширувчи банклар ва ихтисослашган молия-кредит ташкилотларининг тўпланган жойи тушунилади.

8

* Молия бозорлари - бу, пул оқимларини мулк эгаларидан қарз олувчиларга қарата йўналтира оладиган бозор институтларининг йиғиндисидир.
* Молия бозорлари кўп турдаги хилма-хил “каналлардан” иборат бўлиб, ушбу каналлар оркали пул маблаглари эгаларидан қарз олувчиларга оқиб ўтади.

9

Молиялаштириш каналлари

* Ушбу каналлар асосан 2 гурухга бўлинади, яъни:
* 1) тўғидан-тўғри молиялаштириш каналлари. Ушбу каналлар бўйича пул маблағлари бевосита пул эгаларидан қарз олувчиларга оқиб ўтади. Мазкур тўғридан-тўғри молиялаштиришнинг ўзини 2 (икки) кичик гурухга бўлиш мумкин, яъни:
* а)капитални молиялаштириш. Ушбу хар қандай кўринишдаги келишувдан иборат бўлиб, унга асосан инвестиция қилиш нияти бўлган пул маблагининг эгасига фирманинг мулкида улуш иштирокига эга бўлиш хукуки эвазига, унинг пул маблагларини олади. Бунга яққол мисол бўлиб, коорпорация томонидан оддий акцияларни сотилиши ҳисобланади.

10

Молиялаштиришнинг каналлари

* Эгри каналлар оркали молиялаштиришда оила хўжаликларидан фирмаларга оқиб ўтаётган пул маблағлари махсус институтлар оркали оқиб ўтади. Бундай институтларга банклар, ўзаро фондлар, суғурта компаниялари киради. Ушбу турдаги ташкилотлар - молиявий воситачилар деб аталади.

11

Қимматли қоғозлар бозорида молиявий воситачилар сифатида майдонга одатда брокерлар ва дилерлар чиқади.

Брокер, қимматли қоғозлар бозорининг профессионал иштирокчи. Яъни, қимматли қоғозлар муомаласини тартибга солувчи қонунларга мувофик, ишонч билдирилган шахс ёки комиссионер сифатида қимматли қоғозлар билан фукаролик-хукукий шартномаларини, топшириқ-шартномаси ёки комиссия хамда ишонч асосида амалга оширилган операциялар брокерлик фаолиятига киради

Брокерлар сифатида бозорда жисмоний ва юридик шахслар лицензия асосида харакат қилиши мумкин.

* Дилер - бу, қимматли қоғозлар бозорининг профессионал иштирокчиси(юридик ёки жисмоний шахс).У "қимматли қоғозлар бозори хакида"ти қонунга мувофик, оммавий равишда муайян қимматли қоғозларни сотиш ва сотиб олиш баҳоларини эълон қилган холда уларни ўз номидан ва ўз маблағи ҳисобига сотиб олиш хамда сотиш, шу билан биргаликда дилерлик фаолиятини амалга оширувчи шахс томонидан эълон қилинган баҳолар асосида қимматли қоғозларни сотиб олиш ёки сотиш билан боғлиқ шартномаларни амалга оширувчи шахс.

12

Қимматли қоғозлар бозорининг бошқа иштирокчилари

* Қимматли қоғозлар бозорининг профессионал иштирокчиларидан бири сифатида, уларни ташкил этишнинг аниқ юридик шаклидан қатъий назар, қимматли қоғозларни бошқариш фаолиятининг давлат лицензиясига эга бўлган бошқарувчи компаниялар бўлиши мумкин.
* Ушбу фаолият ўз ичига қуйидагиларни олади:
* -эгалари томонидан мазкур бошқарувчи компанияга берилган қимматли қоғозларни бошқариш;
* -қимматли қоғозларга фойдали жойлаштириш учун мўлжалланган мижозлар пул маблағларини бошқариш;
* -компаниялар томонидан қимматли қоғозлар бозоридаги фаолият борасида олинган қимматли қоғозлар ва пул маблағларни бошқариш.

13

Молиявий воситачилар

* Молиявий воситачилар, ихтисослашган молиявий ташкилотлар ёки жисмоний шахслардир. Жаҳон амалиетида молиявий бозорда куйидаги молиявий воситачилар мавжуд: Инвестиция фирмалари (банклари), Брокер фирмалари (конторалари), Инвестиция фондлари, Сугурта компаниялари ва Пенсия фондлари. Жисмоний шахслар эса брокерлар ёки дилерлар сифатида мавжуддирлар.

14

2.Молиявий бозор ва бунда тижорат банкларининг роли

* Республикада қимматли қоғозларни олди-соттисига ихтисослашган “Тошкент” фонд биржаси фаолият кўрсатмокда.
* Ўзбекистондаги йирик эмитентларга Акциядорлик-тижорат банклар, Миллий корпорациялар, Акциядор-тижорат корхоналари ва Молия Вазирлиги киради.

15

Банклар қуйидаги шартлар бажарилган ҳолда қимматбаҳо қоғозларга қўйилмаларни амалга оширишлари мумкин:

* Ўзбекистон Республикаси банклари Марказий банк томонидан бериладиган умумий лицензия асосида қимматбаҳо қоғозлар банк операцияларини амалга оширишлари мумкин.
* а) банкнинг бир корхона устав капиталига, шунингдек ушбу корхонанинг бошқа қимматбаҳо қоғозларига қўйилмасининг миқдори 1- даражали банк регулятив капиталининг 15% ошмаслиги керак.
* б) банкнинг барча элиментлар учтав капиталига ва бошқа қимматбаҳо қоғозларига қилган инвестициялари миқдори 1-даражали банк регулятив капиталнинг 15%идан ошмаслиги керак.
* в) олди-сотди учун нодавлат қимматбаҳо-қоғозларига қилинган банк қўйилмаси миқдори 1-даражали банк регулятив капиталининг 25%идан олиниши керак.
* Банк истъемол корхона (молиявий институтлар миқдори) устав капиталига 20%идан ортиғига тўғридан тўғри ёки билвосита эгалик қилиши мумкин эмас

16

Банкларнинг фонд операцияларига қуйидагилар кириши мумкин:

* 1. қимматбаҳо қоғозларга асосан кредитлар (ломбард).
* 2. қимматбаҳо қоғозларни ўз портфели учун сотиб олиш (инвестиция).
* 3. янги чиқарилган қимматбаҳо коғозларни бирламчи тақсимлаш (жамлаштириш);
* 4. Мижознинг топшириғига кўра кимматбаҳо коғозларни сотиб олиш ва сақлаш (кимматбаҳо коғозлар иккиламчи муомаласига хизмат кўрсатиш).

17

Банк брокерлик операцияси

* а) Банкларнинг ўзларининг мижозлари топшириғига кўра комиссион операцияларни амалга оширувчи масалан (ўзлари номидан мижоз ҳисобидан қимматбаҳо қоғозлар сотиб олиш операциялари амалга оширишлари мумкин.
* б)банклар амалиётнинг келишуви асосида қимматбаҳо қоғозларни чиқаришни ташкил этиши мумкин.
* в) 3- шахс номидан (фойдасига) қимматбаҳо қоғозларни жойлаштиришни кафолотини олиши мумкин. қимматбаҳо коғозлар сақлаш ёки уларни ҳисоблаш олиб бориш ҳуқуқи депозитлар операциялари.

18

Ўзбекистон фонд бозорининг объектлари

* Ҳозирги вақтда қимматли қоғозларнинг қуйидаги беш тури Ўзбекистон фонд бозорининг объектлари бўлиб колди: хусусийлаштирилган корхоналар акциялари, давлат қисқа муддатли облигациялари, давлат 12 фоизли ички заёми, тижорат банклари ва бошқа хўжалик юритувчи субъектларнинг дисконт Векселари, тижорат банкларнинг депозит сертификатлари ва депозит облигациялари.

19

Тижорат банклари қимматли қоғозлари

* Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ, тижорат банкларига қимматли қоғозлар акциялари, облигациялар, депозит ва жамғарма сертификатлари, Векселлар, шуниндек хосила қимматли қоғозлар (фючерслар ва опционлар) каби турларини чиқаришга рухсат берилади.

20

Қимматли қоғозлар бозорининг тузулиши ва қатнашчилари

* Қимматли қоғозлар бозори бу – юридик ва жисмоний шахслар ўртасида муомалага қимматли қоғозлар чиқариш , унинг айланиши ҳамда уларни тўлаб берилиши билан боғлиқ иқтисодий муносабатлар йиғиндисидир.
* Қимматли қоғозлар бозори асосини товарлар бозори, пул ва пул капитали ташкил қилади. Булар биринчини асоси бўлса, қимматли қоғозлар бозори унинг хосиласи хисобланди.

21

Ҳалқаро амалиётда қимматли қоғозлар бозорини куйидагича таснифланади:

1. Ҳалқаро ва минтақавий қимматли қоғозлар бозори;
2. Миллий ва худудий қимматли қоғозлар бозори;
3. Қимматли қоғозларнинг аник шаклидаги бозори;
4. Давлат ва корпоратив (нодавлат) қимматли қоғозлар бозори;
5. Қимматли қоғозларнинг бирламчи ва хосилавий бозори.

22

Қимматли қоғоз бозорига таъсир кўрсатувчи омиллар

* Қимматли қоғозлар бозорида инвесторлар ва эмитентлар ўртасида вақтинча бўш пул маблағлар харакати, унинг миқдори жуда кўп омилларга боғлиқ.. Улардан асосийлари куйидагилар:
* 1. Қимматли қоғозлар бозорининг даромадлилик даражаси;
* 2. Қимматли қоғозлар бозорининг солиққа тортилиш даражаси;
* 3. Қимматли қоғозлар бозорида капитал ва у келтирадиган фойдани йўқотилиш хатари даражаси;.
* 4. Қимматли қоғозлар бозорида сармоядорлар хак-хукукларини химоя килиш даражаси;
* 5. Қимматли қоғозлар бозоридан тўлиқ , аниқ ва ошкора маълумотларнинг мавжудлик даражаси ва бошқалар.

23

Қимматли қоғозлр бозори бажарадиган вазифалар

* Қимматли қоғозлр бозори бажарадиган вазифалар мавжуд. Биз бу вазифаларни асосан икки гурухга ажратишимиз мумкин. Биринчи гуруҳни умумбозор яъни хар бир бозорга тегишли вазифалар ташкил этса, иккинчи гуруҳни фақат қимматли қоғозларга тааллуқли бўлган вазифалар ташкил этади.

24

Умумбозор ёки анъанавий бозор вазифаларига қуйидагилар киради:

* Тижорат вазифаси;
* Маълумотлар етказиш вазифаси;
* Ташкил этиш вазифаси;
* Тартибга солиб туриш вазифаси.

25

Қимматли қоғозлар бозорининг фақатгина ўзига хос бўлган вазифалари:

* Мамлакат аҳолисининг, корхоналарнинг ва давлатнинг вақтинча бўш пул маблағлари жамланиши таъминланади;
* Қимматли қоғозлар бозори капиталнинг жамланиши ва марказлашуви жараёнининг тезлаштиришни таъминлайди.;
* Қимматли қоғозлар бозори тармоқлараро тўсиқларни олиб ташлашга хизмат килади.;
* Сармоядорларининг яъни мамлакат аҳолисининг, корхоналарнинг ва давлатнинг вақтинча бўш пул маблағларини жамлаб уни капиталга айлантириб, бу капитал оқилона ва самарали харакатини таъминлайди;
* Бозорда шаклланган талаб ва таклиф асосида ҳақиқий бозор баҳосини белгилайди;
* Аниқ бир капитални (банк, савдо, саноат) ҳаракатини фаоллашувига имконият яратади.;
* Қимматли қоғозлар бозори ёрдамида давлат бюджети тақчиллиги (дефицит) қопланади.;
* Мамлакатда янги мулкдорлар синфини шакллантиради.


26

Қимматли қоғозлар бозорининг махсус инфратузилмасига-қимматли қоғозлар бозорида ўз фаолиятини асосий фаолият сифатида амалга оширувчи махсус малакали инвестиция институтлари киради.


1. Инвестиция маслаҳатчиси;
2. Инвестиция воситачилари;
3. Инвестиция компаниялари;
4. Инвестиция фондлари;
5. Бошқарувчи компанияси;
6. Депозитарийлар;
7. Қимматли қоғозларни реестрини сақловчиси;
8. Ҳисоб-клиринг палатаси;
9. Қимматли қоғозларнинг номинал сақловчиси.

27

4.Банкларнинг қимматли қоғозлар бўйича тижорат ва инвестицион операциялари



28



29

Инвестицион фаолият

- Инвестицияни мулкий томондан қўйилмаларга ишлатиши - бу компанияни корхонанинг реал активларига ёки шахсий мулкка жойлаштирилиши тушунилади.
- Инвестицион фаолиятнинг асосий белгилари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:
- -капиталнинг вақтинчалик йўқотилган истъемол қийматини (ликвидлигини капиталнинг вақтинчалик йўқотилган истъемол қийматини (ликвидлигини) қайтиб келмаслиги; (бўлмаслиги).
- - бошланғич фаровонлик даражасини усишини кутиш;
- - узоқ муддатга қўйилган капиталнинг натижасини ноаниқлилиги;

30

Инвестиция турлари


* Инвестиция мақсадига кўра иккига бўлинади;
* 1) Тўғри инвестициялар - бу инвестиция объектини бевосита бошқариш мақсадида амалга ошириладиган инвестициялардир. Агар бундай инвестициялар қимматли-қоғозларга қўйилса у ҳолда корхоанинг контрол пакетини сотиб олиши керак. Масалан инвестициялар мулк, ишсизлик патент ва бошқалар ҳам бўлиши мумкин.
* 2) Портфел инвестициялари - қимматбаҳо қоғозлар портфелини ташкил қилиш учун контрол пакетини ташкил қилмасдан ва инвестиция объектини тўғридан-тўғри бевосита фаолиятидир.

31

Тўғри инвестициялар банк ўз фаолиятини бошқа соҳада таъсирини кенгайтириш мақсадида амалга оширилса, банк портфел инвестициялари қуйидаги функцияларни амалга оширади

* банк даромадлари бошқарилиши;
* банк кредит портфелидан келадиган кредит рискларини қплаш мақсадида, банкнинг кредит рисклари пасайтириши мумкин.
* географик диверсификацияси таъминлаши мумкин.
* банкнинг солиқ пасайтириши мумкин.
* бозор фоиз ставкаларнинг ўзгариши жараёнида (шароитида) банк йўқотишларини суғурталайди.
* банк активлари портфелини ўзгартирувчанлигини таъминлаши мумкин.
* банк баланси молиявий кўрсаткичларни яхшилишга имкон яратади.

32



33

Депозит сертификати

* Депозит сертификати- бу эмитент банкнинг пул маблағларининг омонатга қўйилганлиги ҳақидаги гувоҳномаси бўлиб, у омонатчи ёки унинг ҳуқуқий ворисининг депозит суммасини ва у бўйича фоизларни белгиланган муддат тугагандан сўнг олиш ҳуқуқини тасдиқлайди.
* Депозит сертификатлари икки хил шаклда муомалага чиқарилиши мумкин:
* -юридик шахслар учун- «депозит сертификатлари». Депозит сертификатлари бир йилгача (сертификат бериш санасидан то сертификат эгаси сертификат бўйича омонатни талаб қилиб олиш ҳуқуқини олган санагача) муддатга;
* -жисмоний шахслар учун-«депозит (омонат) сертификатлари». Ушбу сертификат 3 йил муддатгача чиқарилиши мумкин.

34

Депозит сертификатини расмийлаштириш

* Юридик шахслар учун депозит сертификатини омонатчи билан эмитент банк ўртасида тузилган шартнома асосида расмийлаштирилади. Омонатчининг вакили депозит сертификатини милки билан биргаликда сақланадиган депозит сертификатини олиш учун ишонч хатига эга бўлиши лозим. Юридик шахслар учун депозит сертификатларини сотиш ва сотиб олиш бўйича пул хисоб-китоблари хамда улар юзасидан суммаларни тўлаш фақат нақд пулсиз тартибда амалга оширилади.

35

Депозит сертификатини расмийлаштириш

* Жисмоний шахсларга депозит (омонат) сертификатларини расмийлаштириш ариза асосида амалга оширилади. Омонатчи шахс ушбу аризада депозит сертификатини тўлдириш учун зарур бўлган барча маълумотларни кўрсатади. Депозит сертификати тўлаш учун омонатчи эмитент банкка сертификат суммаси миқдорида чек тақдим этиши, нақд пул билан маблағ киритиш ёки омонат суммасини эмитентга ўтказиш хақида ўз банкига топшириқ бериши мумкин.

36

Амалдаги қонунчиликка асосан акциялар эмиссияси қуйидаги холларда амалга оширилади:

* Акциядорлик жамияти таъсис этилиб, акциялар унинг муассислари ўртасида таркатилган холда;
* Акциядорлик жамиятларининг дастлабки низом фонди миқдори акциялар чиқариш йўли билан кўпайтирилган холда.
* Акциядорлик жамиятининг муомалага қўшимча акцияларни қимматли қоғозларга айирбошлаш йўли билан жойлаштириш бундай қимматли қоғозларни жойлаштириш тўғрисидаги қарорда белгиланган тартибда амалга оширилади.

37

Қимматли қоғозлар чиқарилишининг бекор қилиниши:

* муомалага чиқарилиши амалга ошмаган деб расмий тан олинганда
* банк тугатилганда ёки қайта ташкил қилинганда
* суднинг тегишли қарори мавжуд бўлганда.

38

* Қимматли қоғозларнинг эмитентлари, инвесторлар ва инвестиция институтлари, шунингдек, уларнинг бирлашмалари (уюшмалари), фонд биржалари (биржаларнинг фонд бўлимлари), қимматли қоғозларнинг бозорини тартибга солиб турадиган ва мувофиқлаштириш бўйича давлат томонидан ваколат берилган органлар ва бошқалар *қимматли қоғозлар бозори қатнашчилари* ҳисобланади.

39

Эмитентлар

* Қимматли қоғозларнинг йирик эмитенти бўлиб *давлат* ҳисобланади. Давлат Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва маҳаллий ҳокимият сифатида муомалага облигациялар ҳамда давлат ҳазина мажбуриятларини чиқариши мумкин.
* Қимматли қоғозларнинг кейинги йирик эмитенти бўлиб *акциядорлик жамиятлари* ҳисобланади.

40

Инвесторлар

* Қимматли қоғозлар бозорининг асосий иштирокчиси бўлиб *инвесторлар* ҳисобланади. Қимматли қоғозларни ўз маблағи ва ўз номидан олган юридик ёки жисмоний шахс инвестор деб номланади. Хорижий фуқаролар ва юридик шахслар Ўзбекистон Республикаси қонунларига мувофиқ Ўзбекистон Республикасидаги қимматли қоғозлар бозорида инвесторлар сифатида иштирок этишлари мумкин.

41

* Қимматли қоғозлар бозорини ва унинг иштирокчиларини тахлил этиш ва истиқболини аниқлаш, молиявий воситаларини (молиявий мажбуриятларини) экспертиза қилиш, ишлаб чиқариш ва тавсия этиш бўйича хизматлар кўрсатиш, қимматли қоғозлар чиқариш, уларни жойлаштириш ва муомалага киритиш, мутахассисларни қайта тайёрлаш, шунингдек юридик ва жисмоний шахслар инвестиция спёсатини амалга оширишлари хусусида маслахатлар бериш сохасидаги хизматлар маслахат бериш борасидаги фаолият дейилади.

42

Инвестиция маслахатчиси

* Қимматли қоғозлар бозорида маслахат бериш фаолияти билан шуғулланувчи инвестиция институти «инвестиция маслахатчиси» деб аталади. Юридик ва жисмоний шахс инвестиция маслахатчиси бўлиши мумкин.
* Амалдаги қонунчиликка асосан инвестиция маслахатчисининг устав капиталининг энг минимал миқдори 300 энг минимал иш хақи хажмидан кам бўлмаслиги керак. Инвестиция маслахатчиси фаолиятида H_1 ва H_2 коэффицентлари қўлланилмайди., яъни у барча мижозлар билан ишлай олади.

43

Инвестиция маслахатчиси

* Жисмоний шахс инвестиция маслахатчиси бўлиши учун қуйидаги хужжатларга эга бўлиши лозим.

1. Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Марказидан махсус малака шаходатномаси ва фаолият учун лицензия;
2. Махаллий хокимият органидан тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтиш;
3. Устав капиталини шакллантириш.

44

Инвестиция воситачиси

* Қимматли қоғозлар бозорида брокерлик ва дилерлик фаолиятини амалга ошираётган инвестиция институти «инвестиция воситачиси» хисобланади.
* Топшириқ шартномалари ёки воситачилик хаки асосида ёхуд битимлар тузиш учун берилган ишончнома асосида иш олиб бориб, ваколатли шахс ёки воситачи сифатида қимматли қоғозлар юзасидан фукаролик – хукукий битимларни амалга ошириш брокерлик фаолияти хисобланади. Юридик ёки жисмоний шахс брокерлик фаолияти билан шуғулланиши мумкин.
* Амалдаги қонунчиликка асосан инвестиция воситачисининг (брокер ва дилер учун хам) устав капиталининг энг минимал миқдори 1000 энг минимал иш хаки хажмидан кам бўлмаслиги лозим. Инвестиция воситачилари фаолиятида $H_1>1$ ва $H_2>1$ бўлиши лозим. Агарда инвестиция воситачисининг ўз сармояси мижоз маблағидан $H_1 \le 1$ ёки $H_2 \le 1$ коэффицентда бўлса, у холда у бу мижоз билан ишлаш хукукига эга эмас.

45

Инвестиция воситачиси

* Жисмоний шахс брокер фаолияти билан шуғулланиши учун қуйидаги хужжатларга эга бўлиши лозим:

1. Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Марказидан махсус малака шаходатномаси ва фаолият учун лицензия;
2. Махаллий хокимият органидан тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтиш;
3. Устав капиталини шакллантириш;
4. Фонд биржасидан брокерлик жойини сотиб олиш.

46

Инвестиция компанияси.

* Қимматли қоғозлар чиқарадиган ва уларни жойлаштириш бўйича учинчи шахслар фойдасига кафолатлар берадиган, кимматли қоғозларга маблағ соладиган, ўз номидан ва ўз хисобидан, шу жумладан қимматли қоғозларни котировкалаш (инвестиция компанияси сотиш ёки сотиб олиш мажбуриятини ўз зиммасига оладиган муайян қимматли қоғозларнинг сотиш нархини ва сотиб олиш нархини эълон қилиш) хисобидан кимматли қоғозлар олди-сотдисини амалга оширадиган юридик шахс инвестиция компаниясидир.

47

Инвестиция компанияси мажбуриятлари.

* Амалдаги қонунчиликка асосан инвестиция компаниясининг устав капиталини энг кам минимал миқдори 3000 минимал иш хақи хажмидан кам бўлмаслиги лозим. Инвестиция компанияси фаолиятида $H_1>1$ ва $H_2>1$ бўлиши лозим. Агарда инвестиция компаниясининг ўз сармояси мижоз маблағидан $H_1 \leq 1$ ёки $H_2 \leq 1$ коэффицентга эга бўлса, у холда у бу мижоз билан ишлаш хукукига эга эмас.

48

Инвестиция компанияси вазифалари

- қимматли қоғозларни чиқаришни ташкил этиш ва эмитентга уларнинг жойлаштирилиши кафолатини бериш;
- қимматли қоғозларни инвестиция қилиш;
- қимматли қоғозлар билан ўз хисобидан ва шахсий таваккалчилик асосида операциялар (олди-сотди) қилиш.

49

Инвестиция фонди

* Қимматли қоғозлар бозорининг иштирокчиларидан бири инвестиция фонди хисобланади. Инвестиция фонди инвесторлар (юридик ва жисмоний шахслар) маблағларини жалб қилиш мақсадида муомалага акциялар чиқариш ва жалб қилинган маблағларни фонд номидан қимматли қоғозлар, банк хисоб вараклари ва омонатларига қўйиш билан шуғулланувчи юридик шахсдир.

50

Инвестиция фонди мажбурияти

* Қўйилмалар билан боғлиқ хамма таваккалчилик, қўйилмаларнинг бозордаги бахосининг ўзгариши билан боғлиқ хамма даромад ва зарарлар тўлалигича фонд эгалари (акциядорлар)га тегишли бўлиб, улар тарафидан фонд акцияларининг ўзгариши билан амалга оширилади. Тижорат банклари ва суғурта компаниялари инвестиция фонди бўлиши мумкин эмас.
* Амалдаги қонунчиликка асосан инвестиция фондининг устав капиталини энг кам минимал миқдори 3000 минимал иш хаки хажмидан кам бўлмаслиги лозим. Инвестиция фонди фаолиятида H_1 ва H_2 коэффицентлари қўлланилмайди, яъни фонд барча сармоядор мижозлар билан иш олиб бориш хукукига эга.

51

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан пассив операциялари ва уларнинг таркибий тузилиши.

* -биринчидан, тижорат банклари фаолияти учун карз мажбуриятлари юзасидан икки томонлама тасниф мавжуд. Улар биринчи томондан юридик ва жисмоний шахслар учун муомалага ўзларининг карз мажбуриятларини, яъни депозит сертификатлари, депозит-жамғарма сертификатлари, облигацияларини чикарадилар. Иккинчи томондан эса, тижорат банклари қўшимча даромад олиш максадида бошка эмитентларнинг муомалага чиқарган қарз мажбуриятларини (акциялар, облигациялар, депозит сертификатлари) сотиб оладилар:
* -иккинчидан, тижорат банклари ўз номидан чиқарилган қимматли қоғозлар (облигациялар, депозит сертификатлари) бўйича қатъий белгиланган фоиз бўйича даромад тўланиши мажбуриятини оладилар. Инвестиция фондлари эса даромад тўланиши юзасидан рискларни инвесторлар зиммасига юклайдилар.

52

Банкларнинг пассив операциялари

* -банклараро бозорда кредитлар олиш;
* -векселлар хисоб-китоби ва Марказий банкдан кредит олиш;
* муомалага қимматли қоғозларни чиқариш (акциялар, облигациялар, депозит сертификатлари, депозит-жамғарма сертификатлари, Векселлар);
* депозитларни жалб этиш;
* қимматли қоғозларни қайтиб сотиб олиш шарти билан сотиш шартномалари («Репо» операцияси) амалга ошириш;
* Евронота ва Евробондлар бозорида иштирок этиш;
* банк акцептларини (авал сифатида) сотиш.

53

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан актив операциялари ва уларни туркумланиши.

* Тижорат банкларининг актив операциялари жуда хилма-хилдир, лекин халкаро амалиётда актив операциялар қуйидаги асосий турларга ажратилади:
  - юридик ва жисмоний шахсларга турли муддатларга, турли максадларга хамда турли шартлар асосида кредитлар бериш;
  - банк мижозларига турли воситачилик хизматларини кўрсатиш;
  - давлат ва бошка юридик шахсларнинг қимматли қоғозларига ўз номидан ва ўз хисобидан инвестиция килиш;
  - лизинг операцияларини амалга ошириш;
  - инвестиция проектларини амалга ошириш;
  - «репо» операцияларини амалга ошириш;
  - валюта дилинги операцияларини амалга ошириш;
  - мижозларга бошка турдаги анъанавий ва ноанъавий банк хизматларини кўрсатиш.

54

Тижорат банкларининг инвестицияларига

* банк активининг сўндирилиш муддати бир йилдан ортиқ бўлган қимматли қоғозларга қўшимча даромад олиш учун йўналтирилиши ҳисобланади.
* Халқаро банк амалиётида тижорат банкларининг инвестиция фаолияти жараёнини цратегиясида икки хил цратегия ажратилади:
* -пассив стратегия
* -актив стратегия

55

Тижорат банки инвестиция стратегияси

* Тижорат банки инвестиция фаолияти олиб боришнинг пассив стратегиясида асосан кутиш, яъни қимматли қоғозлар бўйича бир маромда ва доимий равишда даромад олишда уларнинг бозордаги ўртача даражадаги даромадга яқин даражада фойдаланади. Пассив стратегияни олиб боришда банклар икки хил усулдан фойдаланишлари мумкин;
* -«зинапоя» усули;
* -«штанга» усули;

56

Тижорат банки инвестиция стратегияси

* Тижорат банки биринчи усулдан фойдаланганда ўзи томонидан аниқланган инвестиция муддати асосида қимматли қоғозларни турли муддати бўйича сотиб олади ва уларни инвестиция портфели таркибида бир текис жойлаштиради. Пассив стретегияни «штанга» усулида тижорат банки инвестицияга йўналтирилаётган маблағларнинг асосий қисмини инвестиция портфелининг ликвидлигини таъминлайдиган жуда қисқа муддатли қимматли қоғозларга ва маълум қисмини юқори фойда берадиган узоқ муддатли қимматли қоғозларга сарфлайди.
* Ўзбекистон Республикасида тижорат банклари қимматли қоғозлар инвестиция портфелини шакллантириш ва уни бошқаришда пассив стратегиянинг икки усулидан хам фойдаланадилар.

57

Тижорат банки инвестиция стратегияси

* Тижорат банкларнинг қимматли қоғозлар билан агрессив сиёсати асосида қимматли қоғозларнинг фонд бозорида курси ва фоиз ставкасини тебранишидан имкони борича кўп даромад олиш ётади. Лекин шуни таъкидлаш лозимки бундай агрессив сиёсатни фақатгина катта миқдордаги инвестиция портфелига эга бўлган молиявий барқарор йирик банклар олиб бориши мумкин.

58

7-мавзу: Кредитлашни ташкил этиш асослари

Режа:

1. Тижорат банкларида кредитлашни ташкил этиш асослари.
2. Кредит механизми ва унинг элементлари.
3. Кредитлаш боскичлари ҳакида тушунча.

Кредитни пайдо бўлиш капиталнинг доиравий айланиши ва айланишнинг ўзига хослиги билан изоҳланади.

Капиталнинг доиравий айланиши қуйидаги формула билан кўрсатилади:

П—Т...УК...Т′—П′

Бунда:

- **П** – Пул;
- **Т** – Товар;
- **Т′** - Қўшимча маҳсулот;
- **П′** - Қўшимча қиймат;
- **УК** – унумли капитал

- Кредит муносабатларида қатнашувчилар кредитор ва қарз олувчи биринчи ўринда мустакил юридик шахс сифатида (субъект сифатида) қатнашиб, ўз мажбуриятлари бўйича кафолат бериб қатнашиши лозим.
- Кредит муносабатларида иштирок этувчи томонларнинг манфаатларининг ўзаро мос келиши.
- Кредитни қийматни ҳаракати сифатида тартибга солувчи бозор регуляторларининг мавжудлиги.

- Қатнашувчи субъектлар.
  - пул муносабатларида сотувчи ва сотиб олувчи иштирок этса
  - кредитда – қарз берувчи ва қарз олувчи қатнашади.
- Кредитда тўловлар муддати ўзгаради, муддати узайтирилади, пуллик муносабатларда эса товарлар ва пулнинг ҳаракати бир вақтда содир бўлади.
- Кредит пулнинг мустақил алмашув қиймати сифатидаги ҳаракатини англатади. Яъни П—П' ҳаракати кузатилади. Пуллик тўловлар эса пулнинг нафақат товарсиз ҳаракатини, балки товарлар билан боғлиқ бўлган ҳаракатини англатади.
- Кредит муносабатларида қатнашувчи томонларнинг вақтинчалик молиявий муносабатларда талабларни қондиради (пул умумий эквивалент сифатида хоҳлаган товар айирбошлаш - кредит эса фақат конкрет товарга вақтинчалик талабни қондиради).
- Пул умумий эквивалент вазифасини бажаради. Кредит бўлса, пулнинг асосан муомала воситаси функциясини бажаради.

Тўлов муддати келганида суғурта компаниялари суғурталоувчига суғурта тўловларидан камроқ тўлов қилади.

- қайтариб бериш шарти бу ерда биринчи ўринда турмайди (суғурта ҳолати вужудга келгандагина тўланади).
- суғурталанувчилар ва суғурта корхоналари ўртасида кредит шартномаси эмас, балки суғурта шартномаси тузилади.

Кредит бу ссуда капиталнинг ҳаракати бўлиб, бу ҳаракат товар ва пул кўринишидаги маблағларни қайтариб беришлик, муддатлилик ва фоиз тўлашлилик шартлари асосида бериш натижасида юзага келади. Кредитда ссуда капитали фақатгина қайтарибгина қолмай, балки фоизи билан қайтариш лозим.

Кредит деганда ссуда капиталининг ҳаракати тушунилади.

Кредитда унда қатнашувчи субъектлар манфаати тўлиқ инобатга олиниши лозим, қарзда эса фақат олувчи манфаатдордир.

Кредит муносабатларда қатнашувчи субъектлар масофа ва вақтдан қатъий назар қарз берувчилар ва қарз олувчилар сифатида иштирок этишади.

Қарз олувчи:

- маблағнинг тўлиқ хўжайини бўла олмайди фақат вақтинча ишлатади;
- хоҳлаган жойда ишлаб чиқариш, муомала жараёнида фойдаланиши мумкин, кредитор фақат муомала жараёнига беради;
- фақат - доиравий айланиш тугагандан сўнг маблағни қайтаради;
- фақатгина қайтарибгина қолмай, балки қўшимча фоиз билан қайтаради;
- кредиторга боғлиқ ва уни кўрсатмаларига қараб ҳаракат қилади.

КРЕДИТНИНГ ҲАРАКАТ БОСҚИЧЛАРИ

Кж → Ккот → Фк → Бр → Кк → Ктко

- (Кж)— Кредитни жойлаштириш
- (Ккот)— қарз олувчи томонидан кредит олиш
- (Фк)— Кредитдан фойдаланиш
- (Бр)— Ресурсларни бўшаши
- (Кк)— кредитни қайтариш
- (Ктко)— кредитор томонидан кредит шаклида жойлаштирилган ресурслар олиш.

КРЕДИТ ҚОНУНЛАРИ

Кредит қонунларининг асосий белгилари:

- умумийлик
- конкрет
- Кредит қайтарилишини қонуни
- Мувозанат қонуни
- Қийматнинг сақланиши қонуни.

Тижорат банкларида кредитлаш жараёни асосан қуйидаги тамойиллар орқали амалга оширилади



КРЕДИТ ШАКЛЛАРИ

Кредитлар объектига кўра 2 шаклга эга.

- Банк кредити.
- Товарли (тижорат) кредит.

Кредитлар кредит муносабатларининг акс эттиришига кўра қуйидаги шаклларга бўлинади:

- Давлат кредити.
- Халқаро кредит
- Тижорат кредити.
- Истеъмол кредити
- Банк кредит.

КРЕДИТ ФУНКЦИЯЛАРИ

Функция объектив характерга эга. Кредитор ва қарз олувчилар ўртасидаги муносабатдан келиб чиқади.

Функциялар кредит муносабатлари махсус томонларини ифодалаб колмай, бошқа хусусиятларга ҳам тааллукли бўлиши мумкин.

Буни қуйидаги уч хулоса асосида кўришимиз мумкин:

- Функция — кредит муносабатларини кредитнинг функциялари ифодалайди (фақат кредитор ёки қарз олувчининг фаолиятини эмас).
- Функция — кредитнинг барча шаклларига хос бўлиб, уларни моҳиятини очиб бериши лозим.
- Кредитнинг функциялари уни бошқа иқтисодий категориялардан фаркли томонларини белгилаб улар билан муносабатларни ифодалаш лозим.

КРЕДИТНИНГ ИККИ ФУНКЦИЯСИ БОР:

1. Қайта тақсимлаш
2. Кредит муомала воситаларини яратиш функцияси (вексель, банкнота, чек) операциялари билан алмаштириш.

Кредит молия категорияси орқали тақсимланган маблағларни унга эҳтиёжи бўлган субъектлар фойдасига қайта тақсимлайди.

Миллий даромад молия категорияси орқали тақсимланганда тўрт қисмга ажралади:

1. Ишлаб чиқариш соҳаси корхоналарининг фойдаси;
2. Ишлаб чиқариш соҳаси корхоналарининг ходимларининг иш ҳақи;
3. Ер рентаси;
4. Тижорат банклари кредитлар учун фоиз олади.

КРЕДИТ МУОМАЛА ВОСИТАЛАРИГА ВЕКСЕЛЬ, БАНКНОТА ВА ЧЕК КИРАДИ

- **Вексель** тижорат кредитини бериш жараёнида юзага келади. Одатда, тўлов муддатини кечиктириш асосида сотилган товарлар суммасига вексель ёзилади.
- Кредитларнинг маълум қисми нақд пулларда, яъни банкноталарда берилади. **Банкноталар** – марказий банк томонидан муомалага чиқарилган нақд пуллар бўлиб, марказий банкнинг активлари билан таъминланади.
- **Чек**ларнинг маълум қисми банкларнинг кредитлари ҳисобидан тўланади.

8-мавзу. Айланма маблағлар ва мижозларнинг кредитга лаёқатлигини баҳолаш усуллари

Режа

1. Айланма маблағлар тушунчаси ва унинг таркиби.
2. Айланма маблағларни ташкил этиш манбалари.
3. Кредитга лаёқатлилик тушунчаси ва уни ҳисоблаш кўрсатгичлари.
4. Бизнес режа ва уни кредитлаш жараёнидаги ўрни.
5. Тижорат банклари томонидан айланма маблағларни тўлдириш учун бериладиган кредитларни расмийлаштириш тартиби.

- Бугунги куннинг энг долзарб муаммоси – бу 2008 йилда бошланган жаҳон молиявий инқирози, унинг таъсири ва салбий оқибатлари, юзага келаётган вазиятдан чиқиш йўлларини излашдан иборат.

1. Айланма маблағлар тушунчаси ва унинг таркиби

Айланма маблағлар корхона мулкининг таркибий мулкининг таркибий қисми ҳисобланади. Бозор муносабатлари уларни ташкил қилишнинг сифат жиҳатдан юқори боскичини юзага келтиради. Юқори даражадаги инфляция, тўловсизлик муаммоси ва бошқа кризис ҳолатлари корхоналарнинг айланма маблағларга нисбатан бўлган янгича мазмундаги сиёсатини юзага келтиради.

Айланма маблағлар икки йирик қисмдан ташкил топади:

1. Айланма ишлаб чиқариш фондлари
2. Муомала фондлари.

Меҳнат предметларига қуйидагилар киради:

- хом-ашё
- асосий ва қўшимча материаллар
- харид қилинган ярим фабрикатлар
- ёқилғи
- идишлар
- мойловчи материаллар

Айланма ишлаб чиқариш фондларига қуйидагилар киради:



Айланма ишлаб чиқариш фондларига қуйидагилар киради:

- кам баҳоли ва тез тўзийдиган буюмлар
- инвентарь
- Эҳтиёт қисмлар
- махсус мосламалар

Корхонанинг ўз маблағларига қуйидагилар киради:

- корхонанинг устав капитали
- корхонанинг жорий йилда олган фойдаси
- ўтган йилларнинг тақсимланмаган фойдаси
- фойда ҳисобидан ташкил этилган захиралар

Корхонанинг жалб қилинган маблағларига қуйидагилар киради:

- корхонанинг қимматли қоғозларини сотиш натижасида олинган маблағлар,
- тижорат банкининг кредитлари,
- ҳукумат томонидан корхоналарнинг айланма маблағларини тўлдириш мақсадларига бериладиган мақсадли давлат кредити

Миллий иқтисодиётни модернизациялаш шароитида турли мулк шаклидаги корхоналар жорий маблағларининг айланиши жараёни.

- Айланма маблағлар ўзида ишлаб чиқариш жараёнидаги меҳнат предметлари ва моддий бойликларнинг пулдаги кўринишини ифодалайди.
- Ишлаб чиқариш айланма фондлари икки қисмга бўлинади. Биринчисига ҳали ишлаб чиқариш жараёнида қатнашмаган ва омборда ётган маҳсулотлар киради. Булар ем-хашак, уруғлик ва ўтказиш материаллари, эҳтиёт қисмлар, минерал ўғитлар, заҳарли химикатлар, ёқилғи-мойлаш материаллари ва шу кабилар. Иккинчи қисм айланма маблағлари ишлаб чиқариш жараёнида қатнашади.

- Айланма маблағларнинг таркиби ва тузилмаси турли омиллар таъсирида вужудга келади. Улар хўжаликнинг ишлаб чиқариш йўналиши, ихтисослашуви, шароитлари, иқтисодий ривожланганлик даражаси, ишлаб чиқариш ҳажми, етиштирган маҳсулоти ва кўрсатилган хизматларини реализация қилиш жараёнлари ҳамда шу каби фаолият натижаларига боғлиқ бўлади.
- Айланма маблағлари доиравий айланишнинг учта босқичини босиб ўтади: сотиб олиш (таъминот), ишлаб чиқариш ва реализация қилиш.
- Мазкур ҳамма босқичларда айланма маблағлар шундай даражада жойлашган бўлиши керакки, яъни улар хўжалик фаолиятининг узлуксиз ҳамда мувофаққиятли кечишини таъминлаши лозим.

Оборот капитал истиқболини белгилаш

Илмий асосланган қоидаларга мувофиқ хўжалик корхоналарининг ўз айланма маблағлари минимал даражада бўлади.

Қарз маблағлари асосан мавсумий захира ва харажатларни ташкил қилишга йўналтирилади.

Хўжалик корхоналари айланма маблағларининг шаклланиш манбалари

Ўз манбаалари	Қарз маблағлари	Қўшимча жалб қилинган
Устав каритали Қўшимча каритал Захира каритали Тақсимланмаган фойда Бюджет малағларининг мақсадли пул маблағлар	Банкларнинг узоқ муддатли кредитлари Узоқ муддатли қарзлар Банкларнинг қисқа муддатли кредитлари Тижорат кредитлари Солиқ кредитлари	Кредиторлик қарзлари: рудратчи ватаъминотчилар; иш ҳақини тўлаш; суғурта ва бошқа кредиторлар бўйича. Истеъмол фонди. Кутилаётган харажат ва тўловлар бўйича захира. Шубҳали қарзлар бўйича захира ва бошқалар.

- Корхонани қўшимча айланма маблағларга эҳтиёжини ўз манбалари ҳисобидан молиялаштирилиши мумкин, бироқ жорий молиялаштиришнинг энг қулай ва тез мослаша олиши қисқа муддатли кредитдан фойдаланиш ҳисобига таъминланиши ҳам мумкин. Жорий молиялаштириш манбаларига эҳтиёжни аниқлаш учун айланма маблағлар икки қисмга бўлинади:
  - доимий айланма маблағлар (айланма активларнинг мунтазам қисми), унга эҳтиёж бутун операцион давр мобайнида нисбатан ўзгармасдир;
  - ўзгарувчан айланма капитал (жорий активларнинг ўзгариб турувчи қисми), унга эҳтиёж, у тўлиқ йўқ бўлишига қадар сезиларли бўлмаган даражада ўзгаради.

Корхоналар айланма капиталини бошқаришда кредитнинг роли

Айланма маблағни бошқариш моделлари номи	Қисқа муддатли кредит ва кредиторлик карзининг роли	Ликвидлик нуқтаи назаридан таваккалчилик
Баркамол	Қисқа муддатли мажбуриятлар ҳисобига барча жорий активлар, яъни уларнинг ўзгарувчан қисми ҳам тўлиқ молиялаштирилади.	Агар бир райтнинг ўзида кредиторлар олдидаги барча мажбуриятлар сўндирилиши лозим бўлса, енг катта таваккалчилик эҳтимоли мавжуд.
Агрессив	Қисқа муддатли мажбуриятлар ҳисобига айланма активларнинг ўзгариб турувчи қисми тўлиқ қорланади.	Ўта хатарли, чунки реал активлар минимуми билан шаклланиш имкони йўқ.
Комрамиссли	Айланма маблағларнинг ўзгарувчи қисми 50 фоизга қисқа муддатли мажбуриятлар ҳисобига қорланади.	Енг кам хатар, бироқ ортиқча жорий маблағлар мавжудлиги ва шунинг ҳисобига фойданинг расайиши эҳтимоли мавжуд.
Консерватив	Ўзгарувчи қисми узоқ муддатли рассивлар ҳисобига қисман қорланади.	Ликвидликни йўқотиш хатари йўқ, чунки қисқа муддатли кредиторлик карзлари мавжуд эмас.

Ҳар қандай ҳолатда ҳам қисқа муддатли кредит ва корхонанинг айланма маблағлари қуйидаги кўринишларга эга:

- қисқа муддатли кредитлаш муддати айланма маблағнинг айланиш муддати билан боғлиқ-бир йилга қадар;
- қисқа муддатли кредит корхона жорий фаолиятидан тушумлар, товарлар (ишлар, хизматлар)дан тушумлар ҳисобига сўндирилади, айланма маблағлар элементлари таннархнинг аксарият қисмини ташкил этиши боис айланма капитал даврий айланишининг узлуксизлиги қисқа муддатли кредитни сўндиришнинг шарти ҳисобланади;
- қисқа муддатли кредитни жалб этиш учун харажатлар бухгалтерия (молия) (таннарх) таркибига, солиқ ҳисобида эса ўрнатилган чеклашлар доирасида киритилади.

3. Кредитга лаёқатлилик тушунчаси

Тижорат банки мижозининг кредитга лаёқатлилиги деганда, унинг кредитни ва унга ҳисобланган фоизларни ўз вақтида ва тўлиқ қайтара олиш қобилияти тушунилади.

Кредитга лаёқатлилик тўловга қобилликдан фарқли ўлароқ, маълум даврдаги ёки аниқ санадаги тўловсизликни акс эттирмайди, балки мижознинг яқин келажакдаги қарз мажбуриятларини тўлаш қобилиятини прогноз қилишни англатади

Мижознинг юридик шахс сифатида репутацияси унинг узоқ йиллик фаолияти мобайнида шаклланади. Бунда корхонанинг асосий иқтисодий кўрсаткичларининг ўртача тармоқ кўрсаткичларига мувофиқ келиши, унинг кредит тарихи, ҳамкорлари олдидаги репутацияси асосий ўринни эгаллайди. Бошқарувчининг репутацияси унинг профессионал даражаси, маънавий сифатлари, оилавий аҳволи, молиявий аҳволи, банк раҳбарияти билан ўзаро муносабатларининг ҳолати каби кўрсаткичлар билан белгиланади.

Биринчи даражали гаров объектларига қуйидагилар киради:

1. Мижозга тегишли ер майдонлари.
2. Ҳукуматнинг қимматли қоғозлари.
3. Олтин ва бошқа нодир металлар.
4. Тўлови ҳукумат томонидан кафолатланган корпоратив қимматли қоғозлар.

4. Кредитга лаёқатлиликни асосий кўрсаткичлари

Мижознинг молиявий ҳолатини тавсифловчи асосий кўрсаткичларга қуйидагилар киради:

1. Қоплаш коэффициенти

Қоплаш коэффициенти корхонанинг айланма капиталини қисқа муддатли кредитор қарздорлик суммасига бўлиш йўли билан аниқланади.

2. Ликвидлик коэффициенти

Ушбу коэффициентни ҳисоблаш учун айланма маблағлар ва заҳиралар ўртасидаги фарқ суммаси қисқа муддатли кредитор қарздорлик суммасига бўлинади. У корхонанинг пул маблағлари, қимматли қоғозлар ва дебетор қарздорлик каби активлари суммасини қисқа муддатли кредитор қарздорликка нисбатини англатади. Мазкур коэффициент корхонанинг реал пул оқими тўғрисида тўлароқ тасаввур беради.

I гуруҳ ликвид маблағлар

Пул маблағлари:

190 – касса (50)

170 – пул маблағлари (51,55,56,57)

180 – валюта маблағлари (50,52,55,56,57)

II гуруҳ ликвид маблағлари

- Тез реализация қилинадиган талабномалар
- Харид ва буюртмачилар б-н ҳисоблашишлар (220)
- Аванс тўловлари (210)
- Бюджет билан ҳисоблашишилар (240)
- Қисқа муддатли қуйилмалар
- Сотиб олинган хусусий акциялар
- Таъсисчилар билан ҳисоб-китоблар (280)
- Шўъба корхоналари билан ҳисоб-китоблар (250)
- Уюшма корхоналари билан ҳисоблашишлар (260)
- Хизматчилар билан ҳисоблашишлар (240-610)
- Бошқа дебеторлар билан ҳисоб-китоблар (290)

III гуруҳ ликвид маблағлари

- Тез реализация бўладиган ТМҚ заҳиралари ва ишлаб чиқариш харажатлари
- Ишлаб чиқариш заҳиралари (120)
- Тугалланмаган ишлаб чиқариш харажатлари (130)
- Келгуси давр харажатлари (140)
- Тайёр ва олиб сотиладиган товарлар (150)

Коэффициентлар.

Қоплаш коэффициенти

$$\text{Қоплаш} = \frac{\text{П.м} + \text{Т.р.қ.т.} + \text{Т.р.қ.мз ва х}}{\text{Қ.М.М}}$$

Қоплаш коэффициенти мижознинг барча ликвид маблағлари қанчалик уни барча мажбуриятларини қоплаш мумкинлик ҳолатини англатади (2 мартадан юқори бўлса яхши ҳисобланади).

Ликвидлилик коэффициенти

$$\text{К лик} = \frac{\text{П.м.} + \text{Т.р.қ талаб}}{\text{Қ.М.М (780)}}$$

Мухторийлик коэффициенти


$$\text{К мух} = \frac{\text{Ўз маблағлари}}{\text{Валюта баланси}}$$

Жаҳон банк амалиётида кредитга лаёқатлиликнинг қуйидаги мезонлари шаклланади:

1. Мижознинг характери.
2. Маблағлар жалб қилиш қобилияти.
3. Мижознинг жорий фаолияти давомида кредитни қайтариш учун зурур бўлган маблағларни ишлаб топа олиш қобилияти.
4. Мижознинг капитали.
5. Кредитнинг таъминланганлиги.
6. Мижоз фаолиятининг қонуний асослари ва унинг банк талабларига жавоб бера олиши устидан назоратни амалга ошириш.

- Жисмоний шахсларнинг кредитга лаёқатлилигини баҳолаш учун қўлланиладиган “Скоринг” модели дастлаб америкалик иқтисодчи Д.Дюран томонидан XX асрнинг 40-йиллири бошида ишлаб чиқилган. У балл ҳисоблашда қуйидаги коэффициетнларни қўллайди:
- 1.Ёши;
- 2.Жинси;
- 3.Яшаш муддати;
- 4.Касби;
- 5.Бандлиги;
- 6.Молиявий кўрсаткичлари.

Англия клиринг банклари кредит рискини баҳолаш учун PARSER ва CAMPARI методларини қўллайди.



CAMPARI-методи

- Character – мижоз;
- Ability – кредит олувчи фаолиятининг баҳоси;
- Means – ссудага зарур муомала таҳлили;
- Purpose – кредит мақсади;
- Amount – кредит суммаси;
- Repayment – кредитни қайтариб бериш;
- Insurance – кредит рискини суғурталаш.

Америка банклари тажрибасида 5С қонуни амал қилади:

1С – customer's character (кредит олувчининг характери) – мижознинг фаолияти, маъсулиятлилиги, қарзни қайтара олишлиги. Банк мижоз ҳақида тўлиқ маълумотни олишга ҳаракат қилади;

2С – capacity to pay – мижознинг ҳозирда ва келажакдаги даромадлари ва ҳаражатларини тўлиқ таҳлил қилади. Кредит олувчининг кредитни тўлаб беришнинг 3 та пул манбаи мавжуд: жорий касса кирими, активларни сотиш орқали ва бошқалар (валюта бозоридаги қарз олиши билан бирга);

3С – capital – (капитал) – банк фирманинг ўз (акционерлик) капиталига, унинг таркибига катта аҳамият беради;

4С – collateral – кредитнинг таъминланганлиги ва етарлилиги;

5С – current business condition and goodwill (умумий иқтисодий талаблар) – мамлакатдаги иқтисодий вазиятни аниқлайди ҳамда банк ва мижозга таъсир ўтказади. Масалан, иқтисодий коньюктуранинг аҳволи, ўхшаш товарни ишлаб чиқарувчиларнинг рақобати, солиқлар, нарх ва хом ашё.



КРЕДИТ ТАЪМИНОТИ ВА УНИНГ ШАКЛЛАРИ.

Режа:

- Кредит таъминоти тушунчаси. Таъминотларни расмийлаштиришнинг ҳуқуқий асослари.
- Кредитнинг қайтарилишида гаров ва бошқа таъминот шаклларининг тутган ўрни.
- Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида кредит таъминоти билан боғлиқ муаммолар.

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.
McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

• Кредитларни ўз муддатида қайтарилиши банклар ва мижозлар учун муҳим аҳамиятга эга эканлигига Президентимиз И.А.Каримов алоҳида эътибор қаратиб шундай дейди: “Табиийки, биз орқа-олдига қарамай кредит бериш тарафдори эмасмиз, чунки уларнинг бир қисми охир-оқибатда қайтарилмай қолиши мумкин. Лекин банклар учун хусусий тадбиркорлар, кичик бизнес субъектлари орасидан ишончли мижозлар доирасини шакллантириш вақти келди. Токи кредитлар мижозларнинг қарзларни қайтариш борасидаги ишончли нуфузи ҳамда баркарор молиявий кўрсаткичлари асосида берилсин”

3

• Иқтисодиёт тармокларига таъминланмаган кредитларнинг берилиши банк кредитларининг банкка қайтиб келмаслигига сабаб бўлади. Бу ўз навбатида банкнинг ликвидлигига ва пул муомаласига салбий таъсир кўрсатади, шунинг учун ҳам банклар томонидан бериладиган кредитларнинг товар моддий-бойликлари ва харажатлар билан таъминланган бўлишига алоҳида эътибор берилмоқда. Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги шароитида банклар фаолиятидаги энг асосий муаммолардан бири берилган кредитларнинг қайтарилмаслигидир. Ушбу муаммони ҳал этиш учун мижоз мулкининг маълум қисмини берилган кредит учун гаров сифатида талаб қилишдир.

4

Жахон банк амалиётида «Банк бу молиявий хизматлар сотиладиган универмагдир» деган тушунча берилганига қарамай, кредит операциялари барча банклар фаолиятида муҳим ўрин эгаллаган. Бир томондан банк кредити иқтисодий субъектлар учун зарурий ҳолларда вақтинча юзага келган молиявий қийинчиликларни ечишда ёрдам берувчи муҳим манба бўлиб ҳисобланса, бошқа томондан банкларнинг энг кўп фойда берувчи фаолияти бўлиб ҳисобланади.

5

Банкнинг кредит маҳсулларини ҳажми факат ўз маблағлари ҳажмига эмас, балким жалб қилинган маблағлар ҳажмига ҳам боғлиқ. Бозор иқтисодиёти шароитида банк мижозларнинг маблағларини қўшимча равишда жалб қилиш йули билан катта миқдордаги маблағлар билан савдо қилиш мумкин. Банк ўзи учун эмас бошқалар учун бу қўшимча маблағларни жалб килади ва канча кўп микдорда пул маблағларини жалб килса, у шунчалик катта ҳажмдаги кредит ресурсларига эга бўлади.

6

Кредитлаш шартлари деганда ўзига хос талабларга, яъни кредитлаш элементларини - объекти, субъекти ва таъминланганлик даражасигига асосланганлиги тушунилади. Бу дегани, банк хар кандай мижозга кредит берилмайди.чэгараланган пропорцияларига боғликдир.

Шу билан бирга Ўзбекистон Республикасида тижорат банкларининг кредит фаолияти Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан 22.02.2000 й. N 429 тасдиқланган "Тижорат банклари кредит сиёсатига нисбатан қўйиладиган талаблар тўғрисида низом"га биноан олиб борилади.

7

Кредит қайтарилишини таъминлаш механизми

Бу иқтисодий жараёнлар асоси, иккинчи томондан эса кредитор ва қарз олувчи ўртасидаги ҳуқуқий муносабатлар демакдир.

Кредит қайтарилишининг **иқтисодий асосини** ишлаб чиқариш жараёнлари иштирокчиларининг айланма(оборот) фондлари ва уларнинг кругооборотини ҳамда кредитнинг амал қилиш қонунларини ташкил этади.

McGraw-Hill/Irwin

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Кредит битимлари:

икки субъект-кредитор ва қарздор қатнашади

Кредит битими кредит олувчининг мазкур қарзни қайтариш билан боғлиқ мажбуриятларини шакллантиради.

Иқтитисодиётда инфляция жараёнларининг кучайиши берилган кредитлар қийматининг қадрсизланишини келтириб чиқарса, қарздор молиявий аҳволининг ёмонлашуви кредит қайтарилиш муддатларининг бузилишига сабаб бўлади.

Аниқ омилларга асосланган ҳолда амалиёт шуни кўрсатадики, мажбириятларнинг мавжудлиги (турли шаклларда) кредитнинг тўла ва ўз вақтида қайтарилиши деган гап эмас

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Халқаро тажрибаларда кредит қайтарилиш механизмини ташкил этувчи омиллар:

- *Берилган кредитнинг олинган тушум(даромад) ҳисобидан қайтарилиш таркиби*
- *кредит шартномасида кредит қайтарилиш тартибини ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаш(бириктириш)*
- *ссуженной қиймат тўлиқ ва ўз вақтида қайтишини таъминловчи турли шакллардан фойдаланиш кабилардан иборат.*



McGraw-Hill/Irwin

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Банклар амалиётида кредитнинг қайтарилиш манбалари:

1.Бирламчи манбалар:

Бирламчи манбаларга маҳсулот реализациясидан (хизмат кўрсатишдан) тушган тушум(даромад).лар киради. Чет эллик кўпгина банкирлар кредит қайтарилишининг "ОЛТИН ҚОИДАСИ" сифатида бирламчи манбаларга кўпроқ эътибор қаратадилар.


Шу сабабли мижозларнинг кредит олиш учун буюртмаларини кўриб чиқиш жараёнида пул оқимлари ҳаракатига қаратилиб,мазкур мижоз фаолият юритувчи тармоқ ёки бизнес соҳаси ривожига, унинг маҳсулот етказиб берувчи ва сотиб олувчилар билан муносабатларига асосий эътибор қаратадилар.

Агарда банкда мазкур мижознинг пул оқимлари тўғрисида салбий хулоса қилинса кредит битимлари тузилмайди.

Кредит қайтарилишининг реал гарови сифатида тушум(даромад)нинг эътиборга олиниши фақатгина молиявий барқарор корхоналаргагина тааллуқлидир. Бундай кредитлар ўта ишончли, молиявий барқарор ва банк билан доимий муносабатда бўлган мижозларгагина берилиши мумкин.

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Иккиламчи манбалар:



McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Кредит қайтарилишининг таъминоти ликвидлилиги жиҳатда иккига булинади:

Таъминланганлик ликвид воситалари.

- *-давлат кафолатлари;*
- *-давлатнинг ҚҚ.*
- *-Марказий банк кафолати.*
- *-чет эл (миллий) валютасидаги депозитлар;*
- *-олтин ва кумуш қуймалари(слиткалар) ва ҳ.к.*

Ноликвид таъминот воситалари

- *-кўчмас мулк ва ҳуқуқлар;*
- *-кўчар мулк;*
- *-хўжалик субъеклари (давлат корхоналари) акциялари ва улар томонидан берилган кафолатлар ва ҳ.к.*



McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

1.1.1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг кредит қуйилмалари динамикаси

Кўрсаткичлар	Йиллар								
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
ЯИМ, млрд. сўм	22731,4	36839,4	48097	61831	77800	96600	120861,5	144867,9	171569,0
Кредит қўйилмалари умумий суммаси, млрд.сўм	4777,6	6574,4	8558,2	11539	15700	20400	25529,9	34809	42685
Тижорат банклари жами кредит қўйилмаларни ЯИМга нисбати, фоиз	21,02	17,3	17,79	18,66	20,17	21,11	21,13	24,03	24,91

14

- Ҳар бир кредит шартномасида унинг предметини аниқловчи пункт бўлади. Лекин унинг таркиби мижозлар талабига қараб турлича бўлиши мумкин. Шунинг учун тижорат банклари кредит бериш жараёнида кредитнинг таъминотига алоҳида эътибор қаратадилар.
- Ўзбекистон Республикасида тижорат банкларининг кредитга бўлган гаров муносабатлари Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси ва Ўзбекистон Республикаси "Гаров тўғрисида", "Гаров реестри тўғрисида"ги қонунлари асосида бошқарилади .

15

- Қонунга кўра, гаров туфайли кредитор (гаровга олувчи) қарздор мажбуриятларни бажармаган тақдирда гаровга қўювчи гаровга қўйган мол-мулк қийматидан таъминланиш ҳуқуқига эгадир. Ашёлар, қимматли қоғозлар, пул маблағлари, шахсий ёрдамчи хўжалик юритиш, якка тартибда уй-жой қуриш учун ким ошди савдоси асосида олинган ер участкасига мерос қилиб қолдириладиган умрбод эгалик ҳуқуқи, шунингдек савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаси объектлари, турар жой бинолари улар жойлашган ер участкалари билан биргаликда, бошқа мол-мулк ва мулкий ҳуқуқлар гаров нарсаси бўлиши мумкин.
- Гаровга қўйилиш мулк нафақат қарз маблағларини қайтарилишини, балки унинг фоизларини ва бошқа қурилган зарарларни қопланишини таъминлаши шарт. Бундан ташқари гаровга қўйилган мулкни бозор нархлари тушиб кэтишини ҳам ҳисобга олиш лозим.

16

- Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига асосан гаров предмети бўлиб, гаровга қўюувчи шахснинг ҳар қандай мулкни, шу билан бирга қимматбаҳо қоғозлар ва мулкка эгалик ҳуқуқлари бўлиши мумкин.
- Хусусий мулкчилик қонунига асосан, гаров предметининг эгаси гаповга қўювчи шахс бўлиши мумкин Шу билан бирга, гаровга қўювчи шахс нафақат ҳам қарздор бўлиши мумкин, балки учинчи шахс ҳам бўлиши мумкин.

17

- Кредит портфелини шакллантириш банк томонидан кредитнинг асосий тамойилларига риоя этишни, риск даражасини инобатга олган ҳолда кредитлар сифатини белгилаш ва туркумлашни, кредитлар бўйича зарурий заҳираларни ташкил этишни ва кредит портфели сифатини яхшилаш борасида чора-тадбирларни ишлаб чиқишни талаб этади.

18

Жаҳон амалиётида банк ссудаларини таъминлашнинг кенг тарқалган турлари қуйидагилар ҳисобланади:

- Ер, уй-жой ва бошқа кўчмас мулк муҳим таъминлаш объекти бўлиб ҳисобланади.
- Қимматли қоғозлар банк учун маъқулрок таъминлаш тури ҳисобланади. Чунки қимматли қоғозларни фонд бозорида осонгина сотиш мумкин, банкда сақлаш учун харажатлар талаб қилинмайди. Шулар билан бир қаторда уларни сотиш ва сотиб олишда ортиқча расмиятчиликнинг йўқлиги қимматли қоғозларнинг таъминланганлик объекти сифатида аҳамиятини оширади.
- Дебитор қарздорлик йиғиндиси деганда- бу ерда очиқ счётлар бўйича ҳисоб-китоблардаги қарздорлик йиғиндиси тушунилади. Бу пул банкнинг мижози жўнатган товарлари учун харидорлардан олиши лозим бўлган пулдир.
- Хом-ашё, материаллар ва тайёр маҳсулотлар кўпчилик давлатларда, хусусан, республикамиздаги кредитнинг кенг қўлланиладиган таъминланиш объекти бўлиб хизмат қилади.
- Суғурта қилинувчи суғурта компаниясига бадал тўлаб боради. Суғурта муддати тугаши билан маблағ тўлаган шахсга қайтарилиши мумкин. Банк суғурта полисини йиғилган бадаллар йиғиндиси миқдорида таъминланганлик учун қабул қилади.

19

Банк филиалларининг берилган кафолат ва кафилликлари бўйича мажбуриятлари қуйидаги ҳолатларда тухтатилади:

- бенефициарга берилган кафолат (кафиллик) суммасига тенг бўлган сумма туланса;
- кафолат (кафиллик)нинг белгиланган муддати тугаши билан;
- бенефициар кафолат (кафиллик) бўйича уз ҳуқуқларидан воз кечса ва уни кафолат (кафиллик) берувчи шахсга қайтарса;
- бенефициар кафолат (кафиллик) бўйича уз ҳуқуқларидан кафолат (кафиллик) берувчи шахс фойдасига ёзма равишда воз кечса.

20

ГАРОВ ВА ГАРОВ МЕХАНИЗМИ.

Банклар томонидан кредитлар қайтарилишини таъминлашнинг кенг тарқалган шаклларидан бири – *бу мол-мулк гаровидир.*

Бир шахснинг бошқа шахсга мол-мулкни ёки унга бўлган ҳуқуқни мажбуриятларни таъминлаш учун бериши гаров ҳисобланади. (“Гаров тўғрисидаги” Қонун, 1-модда)

Мол-мулк гарови “Гаров тўғрисида”ги шартнома орқали расмийлаштирилади.

- *Гаров механизми*-бу гаров тўғрисидаги шартноманинг тайёрланиши, ҳулоса қилиниши ва унинг реализациясидан иборатдир.
- Гаров механизми кредит олиш учун аризаси(буюртмаси)ни кўриб чиқиш пайтида вужудга келиб, кредит шартномасини тузиш шартларидан биридир.



McGraw-Hill/Irwin

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров механизми таркиби.



McGraw-Hill/Irwin

Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров механизми таркиби.

Қарз олувчи ← 1.Кредит шартномаси → Кредитор

(мижоз) ← 2.Гаров тўғрисида шартнома → (банк)

Гаровга қўйилган мол-мулкини банк ихтиёрига бериш (ёки бермасдан)

Мулк эгаси гаровга қўйилган мол-мулкга билвосита(опосредственное) эгалик ҳуқуқини сақлаб қолади(гаровга қўйилган мол-мулк кредиторга берилган тақдирда) ёки ушбу мол-мулк мижоз ихтиёрида бўлади.

Гаровга қўйилган мол-мулкни бериш пайтида эгалик ҳуқуқи бевосита(непосредственное) сақланиб қолган ҳолда уни сақлаш ва ундан фойдаланиш ҳуқуқини.

McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров механизмининг ҳуқуқий асоси

Гаров механизмининг ҳуқуқий асоси – бу Ўзбекистон Республикасининг "Гаров тўғрисида"ги конуни ва «ФУҚАРОЛИК» кодексидир. Буларга асосан:

1.Гаровга қўйилган мол-мулкка эгалик ҳуқуқи қарз олувчида сақланиб қолади.

2.Қарздор томонидан мол-мулкка эгалик қилиш ҳуқуқи бевосита ёки билвосита бўлиши мумкин.

3.Гаровга қўйилган мол-мулкка эгалик ҳуқуқи ундан фойдаланиш ва унинг йўналишига қараб тасарруф этилади

McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

ГАРОВ МЕХАНИЗМИНИ реализация қилишнинг асосий босқичлари қуйидагилардан иборат:

Гаров предметлари *(гаров предметлари – буюмлар, қимм. қоғозлар, бошқа мол-мулклар ёки мол-ҳуқуқлари бўлиши мумкин)* ва турларини танлаш;

Гаров предметларини баҳолашни ташкил қилиш;

Гаров тўғрисидаги шартномани тузиш ва ҳаракатга келтириш;

Гаровдан фойдаланиш тартиби.



McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров предметлари ўз вақтида икки критерияга эга

- **Қабул қилиниши (талабгир).** Бу критерия гаров буюмларининг *сифат* кўрсаткичларини акс эттиради.
- **Етарли бўлиш** талабларига жавоб бериши лозим. Бу критерия гаров буюмларининг *миқдор* кўрсаткичларини акс эттиради.



McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

ГАРОВ ПРЕДМЕТЛАРИ моддий (материал) – буюм мазмунига кўра қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

1.Мижознинг гаров буюмлари:

- -ТМҚ (хом-ашё, материаллар, ярим фабрикатлар, товарлар, тайёр маҳсулот, валюта қийматликлари, тилла буюмлар, безаклар, антиквариат ва санъат буюмлари) гарови;
- -бошқа ТМҚ гарови (Қим.қоғозлар, депозитлар(шу банкдаги), ипотека(кўчмас мулк гарови) .



2. Мол-мулк ҳуқуқи гарови: (ижарачи ҳуқуқлари гарови, муаллифнинг мукофотга бўлган ҳуқуқи, буюртмачининг пудрат шартномасига бўлган ҳуқуқи).



McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

ТМҚ гаровга олиш икки омил асосида:

- *-қимматликлар сифати (тезда реализация бўлиши, баҳоларнинг нисбий барқарорлиги, сотилиш имконияти, узоқ муддат сақлаш(имкон қадар кредитор ихтиёрида) - шу сабабли тез эскирувчи буюмлар гаровга олинмайди);*
- *-кредиторнинг улар устида назорат ўрнатиш имкониятининг мавжудлиги асосида амалга оширилади.*



McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров механизмининг асосий элементлари

Гаров механизмининг асосий элементларидан бири гаров предметини баҳолашдир. Жумладан:

1.Асосан бозор баҳосида.
2. Доимий равишда қайта баҳолаб бориш.
3.Мутахассислар ёрдамида баҳолаш.
4.Антиквариат, санъат буюмларини баҳолашнинг реаллиги.
5.ТМҚ баҳолашда баҳолаш харажатларининг қарз олувчига юклатилиши.
6.Баҳолашда тугатиш(ликвидация)га эътибор қаратиш (реализация харажатлари, мажбурий сотиш жараёнида маржа, суд харажатларини тўлаш).



McGraw-Hill Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

2.1.2-жадвал

Муаммоли кредитларни келиб чиқишига таъсир этувчи омиллар

№	Таъсир этувчи омиллар	Таъсир этиш даражаси (%)
1	Ички омиллар	67 %
2	Таъминот етишмаслиги	22 %
3	Ссуда буюртмасини ўрганишда ахборотни нотўғри баҳолаш	21 %
4	Операция назоратининг заифлиги, хамда дастлабки огоҳлантирувчи белгиларни ўз вактида аниқланмаслик ва улар юзасидан тегишли чоралар кўрмаслик	18 %
5	Гаров таъминоти сифатининг пастлиги	5 %
6	Шартномада кўрсатилган таъминотни олиш имконияти йўклиги	1 %
7	Ташки омиллар	33 %
8	Компаниянинг банкрот бўлиши	12 %
9	Кредиторларни қарзни кайтаришни талаб килиши	11 %
10	Компаниянинг бозорда ўз ўрнини йўкотиши ва ички ижтимоий муаммолар	6 %
11	Ўғирлик, муттаҳамлик	4 %

29

Гаров предмети сифатини баҳолаш мезони

Ишончли-лик рей-тинги	Гаровдаги мулк ва ссуда қийматининг нисбати	Гаров предмети ликвидлилиги	Гаров предметини назорат қилиш имконияти	Мисоллар
A	100 % ёки ундан юқори	Тез сотилади	Бутунлай банк назоратида	Банкдаги депозит
B	100 % дан кам	Нархлар тебра-ниши ва реали-зацияда кийин-чиликлар бўлиши мумкин.		Банкка сақлаш учун берилган котировка қилинадиган қимматли қоғозлар.
C	100 % дан кам		Назорат қилишда муаммолар бор.	Котировкаланмайдиган қимматли қоғозлар. Товар-моддий бойликлар.
Д	100 % дан кам	Нарх тушади, сотишда муам-молар бор.	Назорат қилишда муаммолар бор.	Товар-моддий бойликлар
E	100 % дан кам	Нарх тушади	Назорат йўқ	Товар-моддий бойликлар

30


ТАЛАБНИ ЁН БЕРИШ *(ЦЕССИЯ)* МУЛК ҲУҚУҚИНИ БЕРИШ.

Бозор муносабатлари ривожланган кўпгина мамлакатларда таъминланганлик шакли сифатида тез-тез талаб бўйича ён бериш (ЦЕССИЯ) ва мулк ҳуқуқини бериш амалиёти кўзга ташланади.



McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Цессиянинг ҳуқуқий таркиби



McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Амалда ЦЕССИЯНИНГ икки тури кўзга ташланади




1.Очиқ. *Очиқ цессияда қарз олувчига (цедентни сотиб олувчига) талабни ён берганлиги тўғрисида хабар қилинади. Бунда қарздор қарзини банк қарздори(цедент)га эмас, банкка қайтаради*

2.Жим. *Жим (тихая) цессияда банк учинчи шахсга талабни ён берганлиги тўғрисида хабар бермайди, қарздор тўловни цедентга беради ва ўз навбатида у банкка тўловни амалга оширади.*

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

МУЛК ҲУҚУҚИНИ БЕРИШ

Мулкни кредитор ихтиёрига ўтказишнинг ҳуқуқий таркиби



Ишончлилик рейтинги	Кредит ва гаровга қўйилган мулк суммаси ўртасидаги нисбат	Гаров предметлари ликвидлилиги	Гаров предметлари устидан назорат ўрнатиш имконияти	Илюстрация учу ўрнаклар(примеры)
A (юкори) B C Д E	100% ва ундан юкори 100%дан кам 100%дан кам 100%дан кам 100%дан кам	Тез реализация бўлади Баҳо ўзгариши ва реализация кийин.мумкин Баҳо пасаяди.реал.б-н боғлик муам.лар мавжуд Баҳо пасаяди	Тўла банк назоратида Назорат б.н боғлик муаммолар мавжуд Назорат б.н боғлик муаммолар мавжуд Назорат б.н боғлик муаммолар мавжуд	Банкдаги депозитдаги маблағлар, банкда сақланаётган котировка килинадиган ҚҚ. 1)котировка килинмайдиган ҚҚ 2)мижоз ихтиёридагиТМҚ мижоз ихтиёридагиТМҚ мижоз ихтиёридагиТМҚ мижоз ихтиёридагиТМҚ

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Гаров механизми, кафолат ва кафилликлар билан боғлиқ мавжуд муаммолар:

1.Таъминот иккламчи шаклларини (ошириб баҳолаш) ва мижозлар кредитга лаёқатлилигини баҳлашдаги камчиликлар.

2.Мулк таркиби сифатини баҳолашдаги дастлабги ва кейинги назорат механизмининг суслиги ва уни сақлаш билан боғлиқ.

3.Шартнома бўйича дифференциялашнинг суслиги.

4.Гаров шартномасини расмийлаштириш билан боғлиқ муаммолар ва ҳ.к.

McGraw-Hill/Irwin Copyright © 2006, The McGraw-Hill Companies, Inc.

Ушбу муаммонинг бундай тус олишига республикамиз шароитида бир неча омиллар таъсир килмокда. Булар:

- гаровга қўйилаётган мол-мулк кредит валютасида баҳоланади, бу эса валютанинг сўмга нисбатан курсининг кўтарилиши гаровга қўйилган мол-мулкни кийматини камайишига ва тадбиркорларни инвестицион лойиҳада иштирок етувчининг улушини камайишига олиб келмокда;
- кўчмас мулк биржасининг ривожланмаганлиги, айникса кишлок жойларда;
- кафолат берувчи молиявий ҳолати мустаҳкам корхоналар сонининг чекланганлиги.
- Кредит таъминоти масаласида кафолатларга етарлича эътибор берилмаслик ҳолатлари учрамокда. Бошка банк ёки корхонанинг кафолати остида кредит беришда кафолат мажбуриятлари кафолат берувчини баланси чукур таҳлил килинмаётганлиги кўзга ташланмокда. Натижада берилган кредитлар бир ёки ундан ортик маротаба пролонгация килинмокда. Қарздорнинг гаров мажбуриятларини расмийлаштириш керакли даражада амалга оширилмаган, гаров объектининг хужжатлари, (хусусан, сертификат, нархи тўғрисидаги тўлик маълумот суғурта хужжатлари) этишмайди, суғурта хужжатлари кераклича тўлик бўлмаслиги ва нотўғри расмийлаштирилиши кўп учрайди.

37

Шунинг учун муаммоли кредитларни бартараф этиш бўйича банклар томонидан асосан:

- кредит муддатини узайтириш, яъни пролонгация чораларини кўриш;
- қўшимча равишда таъминот талаб қилиш;
- гаров сифатида қўйилган мулк ёки учинчи шахснинг кафиллиги бўйича кредитни қайтариш чораларини кўриш;
- кредитни бошқа банкка сотиш;
- корхона раҳбариятига мавжуд муаммони ҳал этиш бўйича консалтинг хизматларини таклиф этиш;
- корхонанинг бўш турган активлари, мол-мулкларини сотиш, дебиторлик қарзлари мавжуд бўлган тақдирда уларни ундириш евазига муаммони ҳал этиш каби ишлар амалга оширилади.

38

10-мавзу: Кредитлаш жараёнлари ва уларнинг босқичлари

1. Тижорат банклари кредит сиёсати ва унинг элементлари.
2. Кредит ҳужжатлари йиғмажилдини ташкил қилиш.
3. Кредит шартномаси, унинг мазмуни ва аҳамияти.
4. Кредитларни таснифланиши ва улар бўйича захира ташкил қилиш.

Банкнинг кредитлаш жараёни бу мижоз банкка ариза билан мурожаат этган кун ва улар орасида кредит шартномаси имзоланган даврдан бошлаб, то олинган ссудани сўндиришгача бўлган даврни ўз ичига оладиган жараёндир. Кредитлаш жараёнинг бошланиши мижоз ва банк ўртасида кредит муносабатларининг ўрнатилганлагини билдиради. Ушбу жараёнда банк қарз олувчидан исталган ҳужжатни талаб қилиш ҳуқуқига ва ссуда беришдан аввал, қарз олувчининг молиявий ҳолатини батафсил ўрганиб чиқилади

Тижорат банкларининг кредит сиёсатини намоён қилувчи омиллар.

Банкларнинг кредит сиёсати – банкларнинг кредитларни олиш ва бериш борасидаги стратегия ва тактикасидир.

Тижорат банкларининг кредит сиёсати – бу банкларнинг кредит рискларини камайтиришва кредит орерацияларининг даромадлилигини кўрайтириш мақсадида амалга оширадиган комрлекс тадбирлари мажмуасидир.

Банк кредит сиёсатини аниқловчи (белгиловчи) омиллар.

Макроиқтисодий омиллар	Мамлакат иқтисодиётининг умумий ҳолати. Марказий банк рул-кредит сиёсати. Хукуматнинг молиявий сиёсати
Регионал (шўъба) ва тармоқ омили	Худуд ва тармоқдаги иқтисодиёт ҳолати (банк бўлимига тегишли). Мижозлар тузилмаси, уларнинг кредитга бўлган талаби. Ракобатчи банкларнинг мавжудлиги.
Банк ичидаги омиллар	Банк (капитали) ўз маблағлари ҳажми (миқдори). Рассивлар тузилиши. Банк персонали (хизматчилари) тажрибаси ва қобилияти

Тижорат банклари томонидан тузиладиган кредит сиёсати элементлари

Кредит босқичлари	Тартибга солувчи параметрлар (кўрсаткичлар) ва жараёнлар
Кредитни бериш бўйича бирламчи иш (фаолият)	– келгуси карз олувчилар тури (туркуми) – кредитлаш турлари – кредитлаш жараёнинг миқдорий кўрсаткичлари (чегаралари) – карз олувчини кредит олиш қобилиятини баҳолаш стандартлари – кредитларни баҳолаш стандарти – фоиз ставкалари – кредитни қайтишини таъминлаш усуллари – жараёнларни боришини назорат килиш ва беришга тайёрлаш
Кредитни расмийлаштириш	– ҳужжат шакллари – кредитни беришнинг техник (технологик) жараёнлари – кредитни тўғри расмийлаштириш назорати
Кредитни бошқариш	– кредит портфелини бошқариш тартиби – кредит шартномасини бажаралишини назорат килиш – муддати ўтган кредитларни кечиктириш ёки янгилаш шартлари – карзларни (зарарни) корлаш тартиби – кредитларни бошқариш назорати

8.Кредит бериш тамойиллари ва уларнинг қисқача тавсифи

Кредитлаш асосан бир неча босқичдан иборат бўлиб улар қуйидагилардан ташкил топган:

- Тайёрлов.
- Кредит лойихасини кўриб чиқиш.
- Кредит ҳужжатларини расмийлаштириш.
- Кредитдан фойдаланиш босқичи.
- Кейинги назорат ва бошқалар.

Банк мижозларини кредит олиш қобилияти ёки кредитга мукобиллиги- бу корхонанинг олган қарз маблағларини самарали фойдаланиши учун ишонч билдирувчи, қарз олувчининг олган кредитларини шартнома асосида қайтариш қобилияти ва тайёрлашни билдирувчи молиявий хўжалик холатидир. Бошқача сўз билан айтганда

Кредитга қобиллик - бу хўжалик субъектлари томонидан кредитларни ўз вақтида ва тўлалигича қайтадан олиш қобилияти ҳамда молиявий ахволига бериладиган баҳодир.

Қарздорни кредит олиш қобилиятини баҳолашга қуйидагилар сабаб бўлиши мумкин:

- иқтисодиёт бугинлари субъектларини давлат маъсарруфидан чикиши ва хусусий лаштирилиши;

- давлат кармогида бўлмаган турли мулкдаги корхоналарнинг шаклланиши ва ривожланиши;

-корхоналарнинг молиявий барқарорлигини тўлиқ акс еттирмайдиган иборат маблағларини улар ихтиёрида тўрланиб қолиши (корхона ихтиёрида бегона шахсларнинг рул маблағларини тўрланиб қолиши);

- банк тизимини тўлиқ хўжалик ҳисобига ўтиш ва банк барқарорлигини тиклаш учун банк рискларини расайтириш

Мижозни кредитга қобиллиги тахлил қилиш жараёнида банк 2 та масалани хал етиши керак.


1. Мижозни ўз мажбуриятиларини ўз муддатида бажара олиш қобилияти ;

2. Мижозни ўз мажбуриятларини бажаришга тайёрлиги (хохиши).

Кредит сиёсати қуйидагиларни ўз ичига олади:

- кредитнинг гаров таъминотига нисбатан қўйиладиган талаблар,
- кредитлаш шакллари,
- кредитларнинг фоиз ставкаларини белгилаш тартиби,

Тижорат банкларида кредитлаш жараёнини ташкил этиш



Кредитлаш жараёнининг 1-босқичи

Бу босқичда кркдит олиш учун банкка қуйидаги ҳужжатлар тақдим этилади:

- Ариза;
- Бизнес режа;
- Йиллик бухгалтерия баланси солиқдан тасдиқланган тўлиқ шаклда;
- Устав, таъсис шартномаси, гувохнома нусхаси;
- Ҳисобрақамида картатека-2 тўғрисидаги маълумот;
- Барча кредит ва мажбуриятлар ва банкдаги ҳисобрақам айланмалари тўғрисида маълумот;
- Кредит ҳисобига сотиб олинадилаг товар ва хизматларнинг олди сотди шартномаси;
- Таъминот(гаров ёки кафиллик).

Кредитлаш жараёнининг 2-босқичи



Тижорат банкларини кредитлаш жараёнини ташкил этиш асослари

Тижорат банкларини кредитлаш жараёнини самарали ташкил этиш учун, биринчи навбатда, уларнинг кредит сиёсати ишлаб чиқилиши лозим. Бозор иқтисодиёти шароитида банкларнинг фаолиятида хўжалик субъектларини кредитлаш функцияси биринчи даражали аҳамиятга эга бўлганлиги учун банклар фаолиятининг самарадорлиги ва ликвидлилигини таъминлаш учун аввалambор, банкларнинг кредит сиёсатини тўғри ишлаб чиқишга эътибор бериш зарур. Банклар оладиган даромадлар унинг актив операциялари натижасида, асосан кредит операциялари орқали вужудга келиши банклар томонидан кредит сиёсатини оқилона ташкил этиш ва амалга оширишни тақазо қилади.

Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида кредит пакетини ташкил қилиш тартиби Марказий банк томонидан белгиланади.

Ўз.Р. Марказий банкининг 2000 йил 2 мартдаги 906-сонли «Ўз.Р. банкларида кредит ҳужжатларини юритиш жараёни тўғрисида»ги Низомга мувофиқ, тижорат банкларида кредит пакетини ташкил қилишга нисбатан қуйидаги талаблар белгиланган:

1. Тижорат банки мижоздан кредит ҳужжатларини юритиш учун зарур бўлган исталган маълумотни талаб қилишга ҳақли;

2. Тижорат банки берилган ҳар бир кредит учун кредит пакети очади ва бу пакет тўлиқ қайтарилгандан кейин ёпилади;

. Тижорат банкларининг кредит пакетида қуйидаги ҳужжатларнинг мавжуд бўлиши талаб қилинади:

- мижоз кредит олиш тўғрисидаги аризаси;
- мижознинг таъсис ҳужжатлари;
- бизнес режа;
- мижознинг номидан кредит шартномасини имзоловчи шахснинг ваколатини тасдиқловчи ҳужжатлар;
- мижознинг баланс ҳисоботи ва «фойда ва зарарлар тўғрисида»ги ҳисоботи;
- кредит шартномасининг оригинали;
- мижознинг кредитга лаёқатлилиги таҳлил қилинган ҳужжат;
- нотариус томонидан тасдиқланган гаров шартномаси;
- Кредит комитетининг кредит бериш тўғрисидаги қарори.

Агар ипотека кредити бўлса, у ҳолда, юқоридаги ҳужжатлардан ташқари, қуйидаги ҳужжатлар талаб қилинади:

- ипотека шартномасининг оригинали;
- кўчмас мулк қийматини баҳоланганлиги тўғрисидаги ҳисобот;
- гаров предметини сотиш баҳосини тасдиқловчи ҳужжат.

Тижорат банклари қўшимча ҳужжатлар ҳам талаб қилиши мумкин.

Масалан, жисмоний шахсларга ипотека кредитлари беришда қуйидаги ҳужжатлар

- мижознинг даромадлари тўғрисидаги маълумотнома;
- мижознинг иш хонасидан мижознинг номига берилган тавсиянома;
- 086-шаклдаги тиббий маълумотнома;
- мижоз паспортининг нусхаси;
- мижознинг автомашина, ҳовли, дом каби мулкининг мавжудлигини тасдиқловчи ҳужжатлар;
- мижознинг меҳнат дафтарчасидан кўчирма;
- олди-сотди шартномаси.

Берилган кредитларнинг мониторинги бўйича пакетга тикиладиган ҳужжатлар қуйидагилардан иборат:

- кредит шартномаси тузилгандан кейинги даврда мижоз билан банк ўртасидаги алоқаларни тасдиқловчи ҳужжатлар (хатлар, ёзишмалар ва бошқалар);
- мижознинг чораклик баланс ҳисоботлари;
- кредитнинг таъминоти сифатида қабул қилинган мулкнинг баҳосини акс эттирувчи ҳужжатлар;
- мижозга кафиллик берган корхонанинг молиявий ҳолатини баҳолаш имконини берадиган ҳужжатлар;
- кредитни ўз вақтида ва тўлиқ қайтишини тасдиқловчи ҳужжатлар;
- мижоз кредитни қайтара олмай қолган шароитда банк томонидан кўриладиган чораларни тасдиқловчи ҳужжатлар.

Тижорат банклари томонидан мижозларни кредитлаш тартиби қуйидагича:

1. Мижознинг аризасини қабул қилиш.
2. Мижоз билан кредитнинг мақсади, суммаси, фоиз ставкаси ва муддати хусусида суҳбатлашиш.
3. Мижознинг молиявий ва мулкий ҳолатини таҳлил қилиш асосида, унинг кредит тўловига лаёқатлилигини аниқлаш;
4. Кредит учун гаров таъминоти сифатида қабул қилинаётган мулкни баҳолаш;
5. Кредит қўмитасида мижозга кредит бериш масаласини муҳокама қилиш.
6. Кредит қўмитасининг кредитни бериш тўғрисидаги қарорни чиқариш.
7. Кредит шартномасини имзолаш.

Тижорат банкларининг қисқа муддатли кредитлаш жараёнини ташкил қилишнинг бирламчи аҳамиятга эга бўлган ҳуқуқий асоси бўлиб, тижорат банкининг Кредит сиёсати ҳисобланади.

Кредит сиёсатини тижорат банкининг Кенгаши томонидан тасдиқланади ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2000 йил 2 мартдаги 905-сонли «Тижорат банкларининг кредит сиёсатига қўйиладиган талаблар тўғрисида»ги Низомнинг талабларига жавоб берадиган тарзда тузилади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 1998 йил 2 ноябрда тасдиқланган 422-сонли «Бир қарздор ёки ўзаро дахлдор бўлган қарздорлар гуруҳига тўғри келувчи таваккалчиликнинг энг юқори даражаси тўғрисида»ги Низомга кўра тижорат банкларининг кредитлаш амалиётига нисбатан қуйидаги аниқ талаблар қўйилган:

- бир қарздор ёки ўзаро дахлдор қарздорлар гуруҳига тўғри келувчи таваккалчиликнинг энг юқори даражаси биринчи даражали банк капиталининг 15 фоизидан ошмаслиги керак, бунда ишончли кредитлар учун таваккалчиликнинг энг юқори даражаси биринчи даражали банк капиталининг 5 фоизидан ошмаслиги зарур;
- банкнинг барча йирик кредитларининг имкдори биринчи даражали банк капиталидан саккиз мартадан ошмаслиги керак.

ЎзР Марказий банки томонидан тижорат банкларини кредитлаш амалиётига нисбатан белгиланган меъёрий талабларга қуйидагилар киради:

1. Ўз Р. Марказий банкининг 1999 йил 11 февралдаги 632-сонли «Тижорат банклари активлари сифатини таснифлаш, улар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш заҳираларни шакллантириш ва ишлатиш тартиби» тўғрисдаги йўриқномасига асосан, т. банкларининг кредитлари 5 гуруҳга бўлинади ва тўрт тоифаси бўйича заҳиралар шакллантиради;
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 1998 йил 2 декабрдаги 561-сонли йўриқномасига асосан, қисқа муддатли кредитларга фоиз ҳисоблашни тўхтатиш кредитни муддати тугаганидан сўнг 60 кундан кейин, узоқ муддатли кредитларга 90 кундан сўнг тўхтатилади. Муддати ўтган фоизлар тижорат банкнинг фоизли даромади ва тақсимланмаган фойдаси ҳисобидан кечиб юборилади;
3. Ўз Р. Марказий банкининг 1998 йил 2 декабрдаги 561-сонли йўриқномасига асосан, қисқа муддатли кредитларга фоиз ҳисоблашни тўхтатиш кредитни муддати тугаганидан сўнг 60 кундан кейин, узоқ муддатли кредитларга 90 кундан сўнг тўхтатилади. Муддати ўтган фоизлар тижорат банкнинг фоизли даромади ва тақсимланмаган фойдаси кечиб юборилади;
4. кичик бизнес субъектларини кредитлаш тартиби, уларга бериладиган кредитларнинг фоиз ставкаси Марказий банк томонидан белгиланади.

Кредит шартномаси: унинг мазмуни ва аҳамияти

- Кредит шартномаси банк ва мижоз ўртасида тузилади ҳамда кредит битимининг ҳуқуқий ва иқтисодий шарт-шароитларини белгилайди.
- Кредит шартномаси ҳуқуқий ҳужжат сифатида кредит битими билан боғлиқ барча масалаларни тартибга солиш имконини беради.

Кредит шартномасида қуйидагилар белгилаб қўйилади:

- томонларнинг номи,
- шартноманинг амал қилиш муддати,
- кредит битимининг предмети ва шартлари,
- томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари,
- ушбу мажбуриятларни бажаришнинг ҳуқуқий кафолатлари.

Мажбуриятларни бажаришнинг ҳуқуқий кафолатларига қуйидагилар киради:

- кредитнинг қайтишини таъминлаш усуллари;
- мажбурияларни бажармаган томонга нисбатан иқтисодий жазо чораларини қўллаш;
- кредит шартномасини бекор қилиш шартлари.

Кредит шартномасининг ўзига хос хусусиятлари:

1. Банк кредит битимининг айрим шартлари бўйича мижозга ўзининг ҳукини ўтказиши мумкин. Масалан, кредит шартномасида кредитни берилиш санаси сифати ҳақиқатда кредит ҳисобидан тўлов амалга оширилган кун эмас, балки мижозга ссуда счёти очилган кун олиниши мумкин.
2. Банкнинг кредит бериш хусусидаги ижобий қарори мижознинг кредит тўловига лаёқатлилиги ўрганилгандан сўнг қабул қилинади. Шунинг учун кредитни мижоз томонидан учинчи шахсга ўтказиш қатъиян манн қилинади. Чунки банк айнан кредит олаётган мижознинг кредит тўловига лаёқатлилигини таҳлил қилади.
3. Кредит шартномаси кредитни бериш ва уни қайтариш юзасидан томонларнинг аниқ мақсадларини акс эттиради. Мижоз кредитни ўз вақтида ва тўлиқ қайтариш юзасидан аниқ ҳаракатларни амалга оширади. Банк эса кредитни ўз вақтида ва тўлиқ чиқариш юзасидан аниқ ҳаракатларни амалга оширади.

4-жадвал
Кредитларнинг сифати бўйича шакллантирилиши лозим бўлган заҳиралар нормаси

Кредитларнинг сифати бўйича синфлари	Эҳтимолий йўқотишлар бўйича заҳиралар учун ажратмалар нормаси
Стандарт	1%
Субстандарт	10%
Қониқарсиз	25%
Шубҳали	50%
Умидсиз	100%

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФОИЗ СИЁСАТИ

РЕЖА:


1. Тижорат банклари фоиз сиёсати ҳақида умумий тушунча.
2. Фоиз ставкаларининг турлари. Кредит баҳосини ўрнатиш тартиби.
3. Кредит баҳоси ва унга таъсир этувчи омиллар. Маржа ва унинг ҳисобланиши.

Тижорат банкларининг фоиз сиёсати ва унинг тузилиши.

Тижорат банкларининг фоиз сиёсати - депозитлар ва кредитларнинг оқилона фоиз ставкаларини шакллантириш ва фоиз рискини бошқариш билан боғлиқ тадбирларнинг мажмуидир. Фоиз сиёсатининг асосий максади банкнинг баркарор даромад олишини таъминлашдан иборат.


Банкларни ресурс жалб қилиш жараёнида қуйидаги тамойилларга мувофиқлигини таъминлаш лозим:

1. Жамғармаларнинг миқдори ва муддатига мувофиқ фоиз ставкаларни табақалаштириш;
2. Омонатлар бўйича фоиз ставкаларни "ижтимоий" туркумлаш;
3. Омонатчиларнинг маблағларини сақлаш ва ҳимоя қилиш.



Тижорат банкларининг ресурсларни жалб қилиш ва жойлаштириш борасидаги воситачилик фаолияти.

Иқтисодиётдаги кредит маблағларининг циркуляцияси




Ресурсларни жойлаштириш билан боғлиқ операцияларда қуйидаги тамойилларга амал қилиниши лозим:

1. Кредит муддати ва йўналишидан келиб чиқиб фоиз ставкаларини дифференция қилиш;
2. Жалб қилинган ресурслар баҳосидан келиб чиқиб, банк операцияларининг самарадорлигини таъминлаш;
3. Банк ликвидлилигини юқори даражада сақлаш;
4. Мижозларнинг актив операцияларга жойлаштирилган ресурсларини сақлаш ва ўз вақтида қайтишини таъминлаш.

Тижорат банклари фоиз сиёсатининг асосий жиҳатлари қуйидагилардан иборат:

1. Фоиз сиёсатининг асосий мақсади ва вазифалар
2. Фоиз рискини юзага келтириши мумкин бўлган ҳолатлар.
3. Фоиз рискини бошқариш усуллари.
4. Фоиз ставкаларининг турлари.
5. Фоизларни ўстирмаслик мақомини белгилаш тартибини жорий қилиш.



Кредит муносабатлари Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига мувофиқ тартибга солинади. Фуқаролик Кодексининг 41-боби «Қарз ва кредит» тўғрисида бўлиб, унинг икки параграфи кредит муносабатларига бағишланган. Тижорат банкларида кредитлашни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларидан бири томонлар ўртасида кредит битимининг шартномавий характерга эга эканлигидир. Кредит муносабатларида икки томон, қарз олувчи ва кредитор иштирок этиб, улар ўртасида юзага келадиган ўзаро талаблар ва мажбуриятлар шартнома асосида мустаҳкамланиши кўрсатиб ўтилган

Банклар фаолиятининг ҳуқуқий асоси деганда банклар фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солувчи амалдаги Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентнинг Фармонлари, Вазирлар Маҳкамасининг Қарорлари ва улар асосида Марказий банк Бошқаруви томонидан тасдиқланган ҳамда белгиланган тартибда Адлия вазирлигидан давлат рўйхатидан ўтган Марказий банкнинг меъёрий ҳужжатлари тушунилади.

Тижорат банклари операциялари бўйича фоиз ставкалари, хизмат ҳақи ва комиссион тўловлар Қонун ва қонун ости ҳужжатларига мувофиқ банклар томонидан мустақил белгиланади. Жумладан, «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуннинг 28-моддаси биринчи бандига мувофиқ, банк кредит операциялари бўйича фоиз ставкалари ва воситачилик ҳақи миқдорини мустақил белгилайдилар. Кредит фоиз ставкаси ва бошқа тўловларни белгилаш тартиби банк сиёсатида ўз аксини топади.

«Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонуннинг 3-боби 31-моддасига мувофиқ, банклар ўз мижозлари билан ўзаро муносабатларни шартномалар асосида амалга оширади. Кредитор ва қарз олувчи ўртасида тузилган кредит шартномаси ҳуқуқий-иқтисодий шартларни, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини аниқлайди.

Имтиёзли фоизларни ўрнатишнинг бирламчи қонуний асоси «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонунининг 28-моддаси ҳисобланади. Унда тижорат банкларининг давлат дастурларини кредитлаш учун Марказий банк, бюджет, бюджетдан ташқари фондлар кредит линиялари ва бошқа манбалардан бериладиган кредитлари бўйича фоизларни ўрнатишида юқори чегарасини Марказий банк белгилаши қайд этилган. Бунда тижорат банклари орқали берилаётган марказлаштирилган ресурслар учун тўлов ва энг асосийси тижорат банкларининг кредитлаш амалиёти билан боғлиқ харажатларнинг қопланиши эътиборга олинади. Тижорат банклари томонидан берилган имтиёзли кредитлар банкларга минимал даромад олишини таъминлаши лозим.

Ўзбекистон Республикасининг «Истеъмол кредити тўғрисида»ги 2006 йил 24 февралда қабул қилинган Қонуннинг 7-моддаси 4-бандига асосан истеъмол кредитини бериш қоидалари ҳамма учун очиқ бўлиши, кредит бериш тартиби, кредит миқдори ва уни бериш муддати, фоиз ставкаси тўғрисидаги маълумотлар ўз аксини топиши керак. Ушбу қонуннинг 10-моддасига мувофиқ банк ва мижоз шартнома асосида кредит муносабатларини ўрнатиб, шартномада фоиз ставкаси кўрсатилиши ва у томонлар келишуви асосида ўрнатилиши белгилаб қўйилган.

«Микромолиялаш тўғрисида» ги қонуннинг 8-моддасига мувофиқ, тижорат банклари қарз олувчиларга микромолиявий хизматлар кўрсатиш қоидаларининг очиқ бўлишини таъминлаши лозим. Банклар микромолиявий хизматларни кўрсатишда мижозларга молиявий хизмат миқдори (суммаси), муддати ва ундан фойдаланганлик учун тўланадиган ҳақ тўғрисидаги маълумотларни тақдим қилиши керак. Ушбу қонуннинг 14-моддасида томонлар ўртасидаги муносабатлар шартнома тузилиши орқали амалга оширилиши ва унда фоизлар ёки лизинг тўловлари миқдори аниқ белгиланиши лозимлиги кўрсатилган.

- Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан 22 февраль 2000 йилда қабул қилинган 429-сонли «Тижорат банклари кредит сиёсатига нисбатан қўйиладиган талаблар тўғрисида» ги низомга мувофиқ банк кредит сиёсатини ишлаб чиқади. Кредит сиёсати алоҳида ҳуқуқий ҳужжат бўлиб, банкнинг кредитлаш фаолияти мақсад ва вазифаларини аниқлаб беради. Кредит сиёсати амалдаги қонунчилик ва меъёрларга асосланиб ҳар йили камида бир марта ишлаб чиқилиши ва тасдиқланиши лозим. Тижорат банклари кредит сиёсатига қўйиладиган талаблардан бири кредитлар бўйича белгиланадиган фоиз ставкалари ва уни ўрнатишга доир қўйиладиган талаблардир.

Ушбу низомнинг 2.9-бандига мувофиқ кредит сиёсати тижорат банкининг кредит турлари ва қарздорлар тоифалари бўйича белгиланувчи фоиз ставкаларни ўрнатишда фойдаланиладиган омилларни ўзида мужассамлаштириши лозим. Тижорат банки кредитлар бўйича фоиз ҳажмини белгилашда қуйидагиларни ҳисобга олиш лозим:

1. банк ресурслари қиймати;
2. кредит операциясини амалга ошириш билан боғлиқ банк харажатлари;
3. воситачилик ҳаки, кредит сифатига кўра эҳтимолий йўқотишлар учун захиралар меъёри;
4. банк минимал фойда олишини таъминловчи маржани ҳисобга олиши назарда тутилган.

Кредит сиёсатида банк қарз олувчи мижозларга уларнинг олган кредитлари бўйича белгиланадиган фоиз ставкалари шаклланиш тартибини кўрсатиши лозим.


Банк муассасаларида кредит фоизларининг бухгалтерия ҳисоби 2004 йил 30 январда қабул қилинган «Тижорат банкларида фоизларни ҳисоблаш тўғрисида»ги 1306 – сонли низомга мувофиқ амалга оширилади. Шунингдек, банкларнинг депозитлар ва кредитлар бўйича фоизларни ҳисоблаш бўйича Марказий банкнинг 1998 йил 2 октябрда қабул қилинган 424-сонли «Тижорат банкларида кредитлар ва депозитлар бўйича фоизларни ҳисоблаш тўғрисида» ги низомга асосан кредитларни фоизларини ҳисоблаш амалга оширилади. Ушбу тартиб талабларига мувофиқ банк кунлик асосда баланс ҳисобварағида фоизларни ҳисоблайди. Кредитлар бўйича фоизларни ундириш кредит шартномасида кўзда тутилган муддатлар ва даврийликда амалга оширилади.

Тижорат банклари амалиётида фойдаланиладиган фоиз ставкалар.

Фоиз сўзи лотинча pro-centum сўзидан олинган бўлиб, ўзбекча юздан бир деган маънони англатади.

Тижорат банклари амалиётида ресурслар жалб қилиш ва жойлаштириш борасида бир қанча фоиз ставкалардан кенг фойдаланилади.

Фоиз ставкаларни қуйидаги турлари мавжуд:



1 - расм. Кредит фоиз ставкаларининг таснифланиши

1. Инфляцияни ҳисобга олган ҳолда:


Номинал фоиз ставка;

Реал фоиз ставка.

Номинал фоиз ставка= Реал фоиз ставка+ кутилаётган инфляция даражаси;

2. Фоизларни ундириш даври бўйича:


- антисипатив;
- декурсив.




2-расм. Кредит фоизининг кредит шакллари бўйича туркумланиши

Тижорат банклари фоиз сиёсатига таъсир қилувчи омиллар.

Молиявий инқироз шароитида Ҳукуматимиз томонидан амалга оширилган ислоҳотлар натижасида тижорат банкларининг капитали ва мижозлардан жалб қилинган депозитлар ҳажмининг барқарор ўсиши таъминланди. Иқтисодиётнинг базавий тармоқларида таркибий ўзгартириш, самарали инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш, кичик бизнес ва тадбиркорликни кредитлашни қўллаб-қувватлашда банкларнинг ролини оширилмоқда. Хусусан, тижорат банклари томонидан иқтисодиётнинг реал секторига ажратилган кредитлари ҳажми 2008 йилда 34 фоизга ошиб, 2009 йил 1 январь ҳолатига 6 372 млрд. сўмни ташкил этди. Банкларнинг умумий активлари 12068,2 сўмни ташкил этди ва 2008 йилда 30,1 фоизга ошди.






Марказий банк қайта молиялаш сиёсати эластиклигини ошириш ва марказлашган кредитлар ҳажмини кўпайтириш орқали тижорат банклари кредитларининг фоиз ставкалари даражасига таъсир этади.

Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида Марказий банк қайта молиялаш сиёсатидан самарали фойдаланиши лозим. Чунки тижорат банкларини қайта молиялаш орқали банк кредитлари фоиз ставкалари даражасига ижобий таъсир кўрсатилиб, кредит таклифи оширилади ва уларнинг қўшимча молиявий ресурсларга бўлган талаби қондирилади. Натижада, тижорат банкларининг иқтисодиёт тармоқларини кредитлаш имкониятлари кенгаяди.

Тижорат банкларида кредит баҳосининг шаклланишига таъсир этувчи 10 та омилни таъсирини ўрганиш мақсадида анкета сўровномалари ўтказилди. Сўровнома Республикамиз йирик тижорат банклари кредит бўлимида фаолият юритаётган 100 дан ортиқ мутахассислар иштирокида ўтказилди. Банкларда кредит баҳосининг шаклланишига таъсир қилувчи омиллар даражаси Дельфи усули орқали баҳоланди.



1-расм. Тижорат банкларида кредит баҳоси шаклланишига таъсир қилувчи омилларни Дельфи усули орқали баҳолаш

X1–тижорат банкининг фоиз сиёсати.
X2–кредитнинг муддати, миқдори ва валютаси.
X3–мижознинг кредит тарихи ва банк билан мунособатлари.
X4–кредит таъминоти манбалари ва унинг сифати.
X5–мамлакатдаги инфляция даражаси.
X6–мамлакатда рақобатчи банклар таклифи ва кредитга бўлган талаб.
X7–банкнинг ресурс манбалари ва уларнинг баҳоси.
X8–Марказий банкнинг пул-кредит сиёсати (қайта молиялаш, мажбурий захира, валюта сиёсати).
X9–мижознинг молиявий ҳолати, кредит мақсади ва лойиҳа риски даражаси.
X10–бошқа омиллар.

1-жадвал

Кредит баҳосига таъсир қилувчи омиллар ўзгариши

Кўрсаткичлар	2004 й.	2005 й.	2006 й.	2007 й.	2008 й.	2009 й.	2009 йилда 2004 йилга нисбатан ўзгариши
Тижорат банклари кредит қўйилмалари, млрд.сўмда	3409,8	3853,3	4104,	4757,4	6372	8558	2,5 марта
Марказий банк қайта молиялаш ставкаси, ўртача йиллик ставкаси, %	18,8	16,0	14,0	14,0	14,0	14,0	-4,8 ф.п.
Марказий банкнинг сўмдаги мажбурий захира талаблари ўртача йиллик ставкаси, %	18	15	15	13	15	15	-3,0 ф.п.
Инфляциянинг йиллик даражаси, %	3,7	7,8	6,8	6,8	7,8	7,4	3,7 ф.п.
Даромад (фойда) солиғи ставкаси, %	15	12	10	10	10	10	-5,0 ф.п.
Тижорат банклари умумий капиталининг ўзгариши, млрд. сўмда	824,1	930,9	1070,1	1502,6	2104,3	3010	3,7 марта
Жалб қилинган депозитлар ҳажми, млрд.сўм	1272,2	1688,7	2544,5	3829,2	5771,6	8703	6,8 марта
Сўмнинг 1 АҚШ долларига нисбатан номинал алмашув курси	1058,0	1180,0	1240,0	1291,2	1393	1511,4	1,4 марта
Кредитлар бўйича ўртача тортилган йиллик фоиз ставкаси, %	21,5	19,4	17,8	16,3	16,4	15,9	-5,6 ф.п.

Тижорат банклари томонидан берилган жами кредитлар хажмида муддати ўтган кредитлар салмоғининг ўзгариши кредит сиёсатининг самарадорлигини тавсифловчи асосий кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Ривожланган хорижий давлатлар банк амалиётида, хусусан, Ғарбий Европа давлатларининг банк амалиётида муддати ўтган кредитларнинг жами кредит қўйилмалари ҳажмидаги салмоғини 3 фоиздан ошмаслиги нормал ҳолат ҳисобланади. Бу кўрсаткичнинг йўл қўйилиши мумкин бўлган чегаравий миқдори 5 фоизни ташкил қилади. Кредитлар бўйича ташкил қилинадиган махсус захирларнинг меъёрий даражаси жами активларининг 5 фоизидан (махсус захиралар/жами активлар) ошмаслиги лозим.

Банкларда кредит баҳосини шакллантириш тартиби.

Кредитнинг фоиз ставкаси берилган кредит баҳосининг асосини ташкил қилади. Назарий жиҳатдан олганда, фоиз суммасини тўлаш манбаи мижознинг кредитни ишлатишдан олган фойдаси ҳисобланади.

Кредит баҳоси бу қарз олувчи томонидан кредиторга маблағлардан вақтинчалик фойдаланган учун тўланадиган қиймат, яъни шартнома шартларига мувофиқ кредитдан фойдаланиш ҳуқуқи берилганлиги учун тўланадиган тўловлар йиғиндисидир

Бошқача қилиб айтганда, кредит баҳоси таркибий жиҳатдан кредит шартномасида белгиланган кредит фоиз ставкаси ва банк томонидан белгиланган қўшимча тўловлардан ташкил топади. Кредит бўйича тўловлар:

– кредит буюртмасини кўриб чиқиш ва кредитни расмийлаштириш учун ҳақ;

– кредит берганлик учун воситачилик ҳақи;

– кредит ҳисобварағини юритиш ва уни бошқариш учун тўлов;

– кредит бўйича ўтказиладиган тўловлар бўйича комиссион ҳақ;

– мижоз мажбуриятлари бажарилмаган ҳолларда тўланадиган пеня каби тўловларни ўз ичига олади.

Ўзбекистон Республикаси банк амалиётида ҳам тижорат банклари томонидан қўшимча тўловлар жорий қилинган. Масалан, ОАТ Алоқа банкда кредит ҳисобварағини бошқариш учун юридик мижозлардан 0,5 % ва жисмоний мижозларидан 0.25 % миқдорида қўшимча тўлов олинади. Асакабанк ва Агробанк каби етакчи банкларда жисмоний шахсларга бериладиган ипотека кредитлари бўйича расмийлаштириш учун 150 минг сўм миқдоригача қўшимча ҳақ олинади. ОАТ Қишлоқ қурилиш банк томонидан ипотека кредитларини олиш учун энг кам ойлик иш ҳақининг 2 баробари миқдорида тўлов олинади.

Бошқа тижорат банкларида эса, кредитнинг миқдоридан келиб чиқиб воситачилик ҳақи олинади. Банкларда мижозга депозит ҳисобварағидаги маблағларни нақд пул шаклида олишлари ҳам маълум ҳақ эвазига амалга оширилади. Бундай тўловларнинг ундирилиши мижоз тўловларининг ошишига олиб келади. Мижоз учун энг муҳим масала бўлиб оладиган кредитининг баҳосидир, яъни у бўйича фоиз ставка ва тўланадиган бошқа тўловлар ҳисобланади.

Банк томонидан берилган кредит амалдаги қийматида акс эттирилади ва у қарздорга берилган пул маблағлари суммасини ифодалайди. Банк томонидан кредит берилганда қуйидаги бухгалтерия ўтказмаси амалга оширилади:

Дт 11900-15500 (тегишли ссуда ҳисобвараги)

Кт 10301 - "Марказий банкдаги вакиллик ҳисобварағи – Ностро"

(агар маблағ олувчига бошқа тижорат банки томонидан хизмат кўрсатилса), ёки

Кт – маблағ олувчининг талаб қилиб олунгунча депозит ҳисобварағи (агар маблағ олувчига мазкур банкда хизмат кўрсатилса) ёки

Кт – 10100 – "Кассадаги нақд пул ва бошқа тўлов ҳужжатлари" (кредит нақд пулда берилганда).

Дт- Қарз олувчининг талаб қилиб олунгунча депозит ҳисобварағи

Кт 16309 – "Кредитлар бўйича ҳисобланган фоизлар.

Ҳисобланган фоизлар ҳар куни амалга оширилади ва ҳисоботда қуйидаги бухгалтерия ўтказмаси билан акс эттирилади:

Дт 163.. олиш учун ҳисобланган фоизлар

Кт 40201 – 44900 фоиз даромадлари

№	Кўрсаткичлар	Мижоз ва банк ўртасидаги муносабатлар уч йилдан ортиқ	Мижоз ва банк ўртасидаги муносабатлар уч йилгача
	1. Мижозинг кредит тарихи		
1.1	БЕНУҚСОН	0	0
1.2	ЯХШИ -	2	4
1.3	ЎРТАЧА	4	6
1.4	ЙЎҚ –	6	8
	2. Мижозинг кредитга лаёқатлилик тоифаси		
2.1	1 – синфга таллуқли	0	0
2.2	2 – синфга таллуқли	2	4
2.3	3 – синфга таллуқли	4	6
2.4	4 – синфга таллуқли*		
	3. Кредит муддати		
3.1	Қиска муддатли кредит	2	4
3.2	Узок муддатли кредит	4	8
	4.Тармоқ риски даражаси		
4.1	Истеъмол кредити	2	4
4.2	Саноат	4	6
4.3	Қишлоқ хўжалиги	6	8
4.4	Транспорт ва алоқа	4	6
4.5	Қурилиш	6	10
4.6	Савдо ва умумовқатланиш	4	6
4.7	Моддий-техник таъминот	4	6
4.8	Коммунал уй-жой хўжалиги	4	6
4.9	Бошқа тармоқлар	6	10
	5. Кредит таъминотининг сифати		
5.1	Кафолат ва давлат кимоятли қоғозлари	2	2
5.2	Депозит гарови	2	2
5.3	Суғурта полиси	2	4
5.4	Кафиллик	2	6
5.5	Кўчмас мулк (ипотека)	2	6
5.6	Бошқа кимоятли қоғозлар гарови	8	10
5.7	Бошқа гаровлар ва ишончли кредитлар	10	12
	6. Кредит валютаси		
7.1	Миллий валюта	2	4
7.2	Хорижий валюта	4	6
	7. Кредит йўналиши		
8.1	Айланма маблағларни тўлдириш учун	2	4
8.2	Асосий воситалар ва фондларни шакллантириш учун	4	8

Масалан, карздор банкдан 5 млн. сўм миқдоридаги маблағни кредит линиясини очиш билан олиши тўғрисида банкка мурожаат қилди. Банк ва мижоз ўртасидаги келишувга мувофиқ кредитдан фойдаланганлик учун тўлов йиллик 20 % ставкада фоиз белгиланди. Банк мижози ҳақиқатда 4 млн.сўмдан фойдаланди. Мижозга кредит линиясининг ўзлаштирилмаган қисмидан 1 % комиссион ҳақ тўланиши шартномага асосида келишилди. Бундан ташқари банк мижозга депозит ҳисобварағида ҳақиқатда фойдаланилган кредит суммасининг 20 % миқдорида ва фойдаланилмаган қисмидан 5 % миқдорида депозит ҳисобваракларида маблағлар қолдиғи бўлишини талаб қилди. Ўша пайтда Марказий банк мажбурий захира меъёри 15 % ни ташкил қилган.

Юқоридаги маълумотлар асосида кредит баҳосини ҳисоб-китоб қиламиз:

Кредит операциялардан олинган даромад:

4000 000 * 0.2 + 1000 000 * 0.1 =800 000 + 10 000= 810 000 сўм;

Банк мижозининг ҳақиқатда фойдаланган кредит суммаси:

4000 000 – (4000 000*0.2 + 1000 000*0.05) + 0.15 * (4000 000*0.2 + 1000 000*0.05)=4000 000 – 850 000 + 127 500=3 277 500 сўм.

Ушбу кредит бўйича солиққа тортилгунга кадар банк олган фойдаси қуйидагича аниқланади:

810 000/ 3277500*100%=24,71 % ташкил қилди.

Тижорат банкининг кредити бўйича йиллик 20 % да жойлаштирилган кредитидан олинган даромад солиққа тортилгунга кадар олинган даромаднинг 24,71 % ини ташкил қилади. Бу кўрсаткичнинг юқори бўлишига сабаб, банк томонидан депозит ҳисобварағида доимий қолдиқни бўлишини талаб қилиши ҳисобланади.

- Ресурсларнинг бозор ва реал баҳоси ажратиб кўрсатилади. Реал баҳо ўзида мажбурий заҳиралар меъёрига бўлган корректировка қилинган бозор баҳосини ифодалайди.

$$\text{Кредит ресурсларининг реал баҳоси} = \frac{\text{Ресурсларнинг ўртача ҳисобланган бозор баҳоси}}{\text{100 \% - кредит ресурсларини бошқариш фондига ўтказма (отчисление) нормаси (\%да)}}$$

Банкларнинг соф фоизли маржа ва спрэд кўрсаткичлари.

Фоиз маржаси – банкнинг актив ва пассив операциялари бўйича уртача фоиз ставкалари уртасидаги фарк.

Фоиз маржаси куйидагича аникланади:

$М_{факт} = (Д_ф – Х_ф) * 100 / А_ф$ Бу ерда:

$М_{факт}$ - амалдаги фоиз маржаси;

$Д_ф$ - Фоиз даромади;

$Х_ф$ - Фоиз харажати;

$А_ф$ - Фоиз куринишида даромад келтурувчи активлар;

Фоиз маржаси хажмига куйидаги омиллар таъсир килади:

- Кредит қўйилмалари ва уларнинг манбаларининг хажми ва таркиби;
- Тулов муддатлари;
- Кулланилаётган фоиз ставкаларининг характерланиши ва харакати;
- Фоиз ставкаларини кайта куриб чикиш даражаси; Ушбу омилнинг таъсири асосан, ривожланган мамлакатлар иктисодиётида кузатилади. Ривожланаётган давлатларда асосан катъий белгиланган ставка кулланилади.

Актив операциялар бўйича мулжалланган фоиз:

$$СП = (Х + Ф + Д)/А$$

Бу ерда:

- Х – банкнинг режалаштирган харажатлари суммаси.
- Ф - режалаштирилган банк фойдаси.
- Д - режалаштирилган комиссион ва бошка даромадлар;
- А - даромад келтирувчи режалаштирилган активлар хажми;

Кредит баҳосини шакллантиришнинг хориж тажрибаси.

Хорижий мамлакатлар банк амалиётида кредит баҳосини белгилашда бир қанча моделлар қўлланилади. Бу моделлар банкларнинг фаолияти хусусиятлари, кредитлашни ташкил қилиш ва бошқа жиҳатлари орқали ажратилиб банклар амалиётида қўлланилмоқда. Биз тадқиқот ишимизда асосан Ғарб мамлакатлари банк амалиётида кредит баҳосини белгилашда қўлланиладиган методлар ва моделларга тўхталиб ўтамиз. Молия-кредит тизими ривожланган мамлакатларда кредит баҳосини белгилашда қуйидаги моделларидан кенг фойдаланилади:

1. **«Қиймат плюс» модели;**
2. **«Баҳо етакчилиги» модели;**
3. **«Қиймат - фойда» модели.**

- **«Қиймат плюс» модели.** Кредит бўйича фоиз ставкасини ўрнатишнинг энг оддий модели «Қиймат плюс» бўлиб, бунда банк томонидан жалб қилинадиган маблағлар ва кредит амалиёти бўйича банкнинг операцион харажатлари ҳисобга олинган ҳолда баҳо шакллантирилади. Мазкур модел бўйича кредит фоиз ставкасини ҳисоблашда қуйидаги компонентлар ҳисобга олинади ва уларнинг йиғиндиси сифатида умумий қиймат аниқланади:
- банк учун қарз олувчини кредитлаш мақсадида жалб қилинган маблағлар қиймати;
- банк операцион харажатлари, шу жумладан, кредит бошқармаси ходимларининг ойлик иш ҳақилари, кредитни расмийлаштириш, ҳисобварақ очиш, кредит мониторинги ва кредитни сўндирилиши билан боғлиқ бўлган бошқа харажатлар;
- бажарилмаслиги мумкин бўлган мажбуриятлар риски даражасига маржа (банкнинг риск мукофоти);
- бериладиган кредит бўйича банк маржаси ёки банкнинг оладиган даромади.

«Баҳо етакчилиги» модели. «Қиймат плюс» моделида келтирилган камчиликлар кредит баҳосини ўрнатишнинг бошқа бир моделини, яъни «Баҳо етакчилиги» (баҳо лидерлиги) моделининг пайдо бўлишига олиб келди. Бу модел 60 йилдан зиёд банклар амалиётида қўлланилиб келинмоқда. 30 йиллардаги буюк депрессия вақтида АҚШ нинг энг йирик банклари «Прайм-рейт» (гохида у базавий ёки маълумот ставкаси деб аталади) номи билан машҳур бўлган кредитлар бўйича унификациялашган фоиз ставкани ҳамда қисқа муддатли кредитлар бўйича кредитга лаёқатлилиги юқори ишончли мижозларга таклиф қилинадиган энг паст ставкани ўрнатиш тартибини жорий этдилар.

Ҳар қандай қарз олувчига бериладиган кредит бўйича ҳақиқатдаги фоиз ставка қуйидаги формула асосида аниқланади:

Кс=Бс+У+Рм

бунда:

Кс – кредит фоиз ставкаси;

Бс – базавий ёки прайм-рейт ставкаси (банк маржасини ҳисобга олинган ҳолдаги);

У – устама, биринчи синфга кирмайдиган мижозларга мажбуриятларни бажара олмаслиги учун қўйиладиган устама;

Рм – риск мукофоти.

- 1970 йиллардан бошлаб, хўжалик субъектларга тақдим этиладиган кредитлар бўйича асос сифатида ишлатиладиган фоиз ставкалар «прайм- рейт» билан бир қаторда тижорат банклари ЛИБОР (Лондон банкларараро таклиф ставкаси) ставкасини қўллашни бошладилар. Бу банк тизимининг глобаллашуви билан ҳамда етакчи банклар томонидан евродолларни кредит ресурс сифатида тобора кўп ишлатилиши билан боғлиқ.
- Кредит бўйича «прайм-рейт» асосида фоиз ставкаларнинг модификация тизими 80 йилларда пайдо бўлди. Шундай килиб, «прайм- рейт»дан паст ставка ўрнатишнинг янги модели пайдо бўлди. Бу моделнинг пайдо бўлиши кучли рақобат шароитида йирик банкларнинг бозорни эгаллаш ва мижоз базасини кенгайтиришга қаратилган фаолияти билан изоҳланади.

«Қиймат – фойда» модели асосида кредит ставкасини ўрнатиш. Хорижий мамлакатлар банк амалиётида тижорат банкарининг барча харажатларини ва кредитлаш фаолиятида юзага келадиган рискларни қоплай оладиган ҳамда банк учун етарли даромадни таъминлайдиган кредит баҳоси шаклланишининг мураккаб моделлари ишлаб чиқилиб амалиётда кенг қўлланилмокда. Кредит фоизларининг каттагина қисми «прайм-рейт», ЛИБОР, маълум базавий ставкалар асосида ҳисобланаётган бир вактда кредит баҳосини ўрнатишнинг мураккаб усулларидан бирини ишлаб чиқдилар. Бу моделга мувофиқ, банк ўзига зарурий маблағни олиши, харажатларини қоплаши ва фойда кўришлари мумкин. Шундай моделлардан бири «Қиймат – фойда» модели ҳисобланади. «Қиймат – фойда» модели бўйича кредит фоизини белгилаш алоҳида амалий кўрсаткичлар асосида ҳисоб-китоб қилиб кўрсатилган

Масалан, қарздор банкдан 5 млн. сўм миқдоридаги маблағни кредит линиясини очиш билан олиши тўғрисида банкка мурожаат қилди. Банк ва мижоз ўртасидаги келишувга мувофик кредитдан фойдаланганлик учун тўлов йиллик 20 % ставкада фоиз белгиланди. Банк мижози ҳақиқатда 4 млн.сўмдан фойдаланди. Мижозга кредит линиясининг ўзлаштирилмаган қисмидан 1 % комиссион ҳақ тўланиши шартномага асосида келишилди. Бундан ташқари банк мижозга депозит ҳисобварағида ҳақиқатда фойдаланилган кредит суммасининг 20 % миқдорида ва фойдаланилмаган қисмидан 5 % миқдорида депозит ҳисобвараклариде маблағлар қолдиғи бўлишини талаб қилди. Ўша пайтда Марказий банк мажбурий захира меъёри 15 % ни ташкил килган.

Юқоридаги маълумотлар асосида кредит баҳосини ҳисоб-китоб киламиз:

Кредит операциялардан олинган даромад:

4000 000 * 0.2 + 1000 000 * 0.1 =800 000 + 10 000= 810 000 сўм;

Банк мижозининг ҳақиқатда фойдаланган кредит суммаси:

4000 000 – (4000 000*0.2 + 1000 000*0.05) + 0.1 * (4000 000*0.2 + 1000 000*0.05)=4000 000 – 850 000 + 127 500=3 277 500 сўм.

Ушбу кредит бўйича солиққа тортилгунга қадар банк олган фойдаси қуйидагича аниқланади:

810 000/ 3277500*100%=24,71 % ташкил қилди.

Тижорат банкининг кредити бўйича йиллик 20 % да жойлаштирилган кредитидан олинган даромад солиққа тортилгунга қадар олинган даромаднинг 24,71 % ини ташкил қилади. Бу кўрсаткичнинг юқори бўлишига сабаб, банк томонидан депозит ҳисобварағида доимий қолдиқни бўлишини талаб қилиши ҳисобланади.

Кредит сиёсати оркали банкларнинг рақобатбардошлигини таъминлашда *асосий эътибор* **фоиз маржаси**нинг даражасига қаратилади. Фоиз маржаси деганда, одатда, берилган кредитларнинг фоиз ставкаси билан депозитларнинг фоиз ставкаси ўртасидаги фарқ тушунилади. Банк мўътадил фоиз маржасини сақлаб туриши кўп киррали омилларга боғлиқ.

Ҳозирги вақтда, Ғарбий Европа банкларида фоиз маржасининг ўртача миқдори 1,00-1,25 фоизли пунктни ташкил этади. Япония банкларида эса, бу кўрсаткич 0,50-0,75 фоизли пунктни ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида эса, фоиз маржасининг ўртача миқдори 8-10 фоизли пунктни ташкил қилади.


Фоиз маржасини қисқартириш учун тижорат банклари харажатларининг таркибини мўътадил даражага келтиришлари лозим. Акс ҳолда, фоиз маржасини қисқартириш банк молиявий фаолиятини зарар билан якунлашига олиб келиши мумкин.

12-мавзу: Алоҳида кредит турлари ва усуллари

Режа:

1. Алоҳида счетдан кредитлаш тартиби ва уни ўзига хос хусусиятлари.
2. Ломбард кредити ва ундан фойдаланиш имкониятлари.
3. Истеъмол ва таълим кредитлари ҳақида тушунча ва уни расмийлаштириш шартлари.
4. Ипотека кредити ва ундан фойдаланиш имкониятлари.





Алоҳида счётдан кредитлаш асослари

а) кредит линияси очмасдан кредитлаш;

б) кредит линияси очиш йўл билан кредитлаш;

Республикамиз банк амалиётида, асосан, мижозларни кредит линияси очмаслан туриб, алоҳида ссуда счёти орқали кредитлаш кенг қўлланилади.

Кредит линияси асосида кредитлашнинг афзалликлари:

- Банк кредитни ишлатилиш юзасидан таъсирли назорат ўтказа олади
- Банк кредитнинг фоиз ставкасидан ташқари қўшимча хақ олади
- Мижоз ҳар сафар кредит сўраб банкка мурожаат қилиш заруриятидан халос бўлади
- Мижоз кредитнинг фақат иштиладиган қисми учун фоиз тўлайди

Контокоррент счётидан кредитлаш

Контокоррент шаклида кредитлашда мижознинг жорий счёти ёпилади ва унинг ўрнига контокоррент счёти очилади.

Мижознинг фаолиятидан келадиган тушумлари контокоррент счётининг кредитида счётининг кредитида акс эттирилади, мижознинг фаолияти билан боғлик туловлар эса, контокоррент счётининг дебитида акс этади

Контокорент счетининг дебетли қолдиғи контокорент кредити ҳисобланади ва мижоз кредитдан фойдаланган кунлар фоиз тўлайди.

Контокорент счетининг кредитли қолдиғи контокорент кредити ҳисобланади ва банк мижозга шу қолдиқ учун фоиз тўлайди.

Контокоррент хисобрақами бўйича тўланадиган фоизлар:

- Контокоррент хисобракамининг дебетли колдиғи учун мижоз банкка фоиз тулайди.
- Контокоррент хисобракамининг кредитли колдиғи учун банк мижозга фоиз тулайди.
- Мижоз банкка кредит учун фоиз тулайди.
- Банк мижозига талаб килиб олинадиган депозитларнинг фоиз ставкаси даражасида фоиз тулайди.

Овердрафт бўйича кредитлаш

Бунда кредит мижознинг жорий хисобварағини дебитли колдиғига берилади.

Овердрафт кунлик харажатларини доимий равишда молиялаштириб турадиган, жорий ҳисоб варағига сотилган товарлар ва кўрсатилган хизматлар юзасидан олинадиган тушумларининг келиб тушуш вақти билан тўловларни амалга ошириш вақти ўртасида бўладиган қисқа муддатли узилишлар тез-тез руй бериб турадиган мижозлар томонидан кенг қўлланилади.

Ломбард кредити ва ундан фойдаланиш имкониятлари

Ломбард кредитлари деганда, одатда, банклар томонидан кимматли когозларини ёки нодир металларни гаровга олиш йули билан катий кайт килинган муддатда бериладиган кредитлар тушунилади.

Ривожланган хорижий давлатлар банк амалиётида Марказий банклар хукуматга ломбард кредитлари беради: Бунда хукуматнинг қимматли қоғозлари кредитнинг 90 фоизгача бўлган қийматга гаров сифатида қабул қилинади.

Қимматли қоғозлар бозорида котировка қилинмайдиган қимматли қоғозлар ломбард кредитлари беришда гаров сифатида қабул қилинмайди.

Ломбард кредитлари ҳажмини оширишдаги асосий муаммо гаровга олинган қимматли қоғозларнинг бозор баҳосини тебраниши ҳисобланади.

Истеъмол кредити

Тижорат банкларининг истеъмол мақсадларида кредитлари истеъмол кредитлари дейилади.

- Истеъмол кредити — Товар сотиб олиш учун
- Уй-жой кредити — Уй-жой сотиб олиш учун

Истеъмол кредити

Ўзбекистонда "Ипотека банк"и томонидан уй-жой кредити берилади:

1. Аҳолининг шахсий жамғармаларида уй-жой қийматининг катта қисми тўланади.
2. Сузиб юрувчи фоиз ставкалари мавжуд эмас.
3. Уй-жой баҳосининг доимий ошиши кузатилмоқда.
4. Муддати 10 йил.
5. Аҳоли уй-жой қийматининг 30 фоизини олдиндан тўлаши шарт.

Ипотека кредити ва ундан фойдалниш имконияти

Ипотека кредити деганда асосан қўзғалмас мулкларни гаровга олиш йўли билан бериладиган кредитларга тушунилади.

Қўзғалмас мулк:	Қўзғаладиган мулк:
• Ер	• Машина
• Бино	• ускуналар
• иншоотлар	• Эҳтиёт қисмлар

Ипотека ссудаларининг доимий афзаллари

- ссудалар беришда риск даражаси паст. Чунки кредит тўлиқ гаров билан таъминланади.
- Ипотека кредитларини бериш банка баркарор даромад келишини таъминлайди.

13-мавзу: Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларини кредитлаш.


Режа:

1. Кичик бизнесни Республика иқтисодиётидаги ўрни ва тижорат банклари томонидан имтиёзли кредитлаш тартиблари;
2. Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларига айланма маблағларни тўлдириш учун ажратиладиган кредитларни ўзига хос хусусиятлари;
3. Кичик бизнес лойиҳаларини чет эл инвестицияси ва бошқа манбалар ҳисобидан молиялаш;
4. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, ҳамда касаначилик соҳаларининг барқарор ривожланишида Давлат дастурларининг тутган ўрни;


Кичик бизнес субъектларидаги иш билан бандликлар сони динамикаси.



Иқтисодиёт тармоқларида кичик тадбиркорликнинг улуши, фоизда.



Экспорт-импорт ҳажмида кичик тадбиркорликнинг улуши, фоизда



Хозирги кунда бозор иқтисодиёти шароитида кичик бизнес мамлакатимиз иқтисодиёти учун асосий негиз бўлиб хисобланади. Шундай экан, кичик бизнес ва тадбиркорлик билан шуғулланувчи субъекларни мамлакатимизда янада кўпайтириш ва уларнинг фаолиятини қўллаб қувватлаш давлатимиз олдида турган асосий вазифалардан биридир. Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш орқали ишлаб чиқариш секторида янги инновациялар яратиб, ўз бозорларимизни маҳаллий махсулотлар билан тўлдирган холда, халқимиз турмуш тарзини бунданда яхшилашга харакат қилсак, асосий мақсадларимиздан бирини амалга оширган бўламиз.

Республикамиз Президенти томонидан «Кичик бизнес ва тадбиркорликнинг банклар, бошқа бозор тузилмалари ва йирик корхоналар билан кундалик алоқаларини амалда мустаҳкамлаш, уларни ҳақиқий шерикчилик муносабатларига айлантириш лозим»лиги алоҳида таъкидланиб, банк ва молия муассасаларининг бу соҳага йўналтирилган фаолиятини ислоҳ қилиш лозимлиги эътироф этилди. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили” Давлат дастури доирасида амалга оширилган кенг кўламли чора-тадбирлар натижасида кичик бизнес субектларига ажратилган кредитлар ҳажми 2010 йилга нисбатан 1,5 баробар ошиб, 2012 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра 4,1 трлн. сўмни ташкил этди.

- **Кичик бизнес субъектлари** – корхона кўлами, ишлаб чиқариш ҳажми, ишловчилар сони, молиявий маблағлари миқдори ва бошқалар жиҳатидан имкониятлари чекланган ишлаб чиқарувчи субъектлар. Республикамизда кичик бизнес субъектлари тоифасига якка тартибдаги тадбиркорлар, микрофирмалар ва кичик корхоналар киради.

- **Якка тартибдаги тадбиркорлик** – алоҳида фуқаролар томонидан ўзларининг таваккалчиликлари ва мулкий жавобгарликлари остида, шахсий даромад (фойда) олиш мақсадида амалдаги қонунчилик доирасида амалга ошириладиган ташаббускор хўжалик фаолияти.

- **Микрофирма** – кичик бизнес субъектларининг бир тури бўлиб, мамлакатимизда амалдаги қонунчиликка кўра саноат ишлаб чиқаришнинг тармоқларида 20 кишигача, хизмат кўрсатиш соҳасида 10 кишигача, савдо ва умумий овқатланиш соҳасида 5 кишигача ишловчи корхоналар микрофирма ҳисобланади.

- **Кичик корхона** – кичик бизнес субъектларининг бир тури бўлиб, мамлакатимизда амалдаги қонунчиликка кўра саноат ишлаб чиқаришнинг айрим тармоқларида (масалан, енгил ва озиқ-овқат саноати, металлга ишлов бериш ва асбобсозлик саноати ва ҳ.к.) 100 кишигача, айримларида (масалан, машинасозлик, металлургия, ёқилғи-энергетика саноати ва бошқаларда) 50 кишигача, хизмат кўрсатиш соҳасида 25 кишигача ишловчи корхоналар кичик корхона ҳисобланади.

Хусусий тадбиркорлик, кичик ва хусусий бизнес субектлари, деҳқон ва фермер хўжаликлари ҳисобланувчи қарз олувчиларга тижорат банклари қуйидаги кредит йўналишлари бўйича кредитлар беради:

- иш билан таъминлаш жамҳармаси – 3 йилгача;
- деҳқон-фермер хўжаликларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси – 3 йилгача, 6 ойгача имтиёзли давр билан;
- "Микрокредитбанк" АТБ кредит йўналиши – 3 йилгача;

Бюджетдан ташқари фондларнинг кредит йўналишлари ҳисобидан бериладиган кредитлар бўйича имтиёзли фоиз ставкаси кредитланаётган инвестиция лойиҳаларининг йўналишига қараб, қуйидаги ҳажмларда белгиланади:

- дастлабки (бошланғич) сармояни шакллантириш учун – Марказий банк амалдаги такрор молиялаш ставкасининг 1/6 қисми;
- деҳқон ва фермер хўжаликларини ривожлантириш ва кенгайтириш, қишлоқ хўжалиги техникаси сотиб олиш, фермерлик иншоотлари қуриш учун – Марказий банк амалдаги такрор молиялаш ставкасининг 1/3 қисми;
- хом ашё ва метериалларни ишлаб чиқариш ҳамда чуқур қайта ишлаш, маҳаллий саноатни ривожлантириш учун – Марказий банк амалдаги такрор молиялаш ставкасининг 40% ҳажмида;
- бошқа мақсадлар учун – Марказий банк амалдаги такрор молиялаш ставкасининг 45% ҳажмида.

Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини микромолиялаш

Молиявий хизматлар кўрсатувчи ташкилот	Микромолиявий хизматлар				
	Турн	Суммаси	% ставка	Муддат	Алохида шарт имтиёзлар
Юридик макомига эга бўлган тадбиркорлик субъектлари					
Микрокредит банк	Бошланғич сармоясини шакллантириш	Энг кам иш хакини 200 баробаригача	Йиллик 3%	18 ойгача	Тадбиркорлик субъектларининг давлат рўйкатидан ў ойдан ошмаслиги ло
	Фаолиятини кенгайтириш ва айланма маблағларини тўлдириш	Энг кам иш хакини 500 баробаригача	Йиллик 7%	24 ойгача	
	Ишлаб чикаришни хизматлари	Энг кам иш хакини 2000 баробаригача	Йиллик 5%	3 йилгача	
Тижорат банклари	Бошланғич сармояни шакллантиришга йўналтирилган	Энг кам иш хакини 500 баробаригача микдорда	Йиллик 2,3%	18 ойгача	Тадбиркорлик субъектларининг давлат рўйкатидан ў ойдан ошмаслиги ло
	ишлаб чикаришни кенгайтириш ва фаолиятини ривожлантириш	10000 АҚШ долл. микдорида	Йиллик 4,7%	2 йилгача	
Деҳкон ва фермер хўжаликларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси	Бошланғич сармояни шакллантиришга микрокредитлар	энг кам иш хакининг 150 баробаригача	Йиллик 2,3%	3 йилгача	Тадбиркорлик субъектларининг давлат рўйкатидан ў ойдан ошмаслиги ло
Юридик шахс макомига эга бўлмаган тадбиркорлик субъектлари					
Микрокредит банк	Бошланғич сармоясини шакллантириш	Энг кам иш хакининг 50 баробаригача микдорда	Йиллик 3%	18 ойгача	Тадбиркорлик субъектларининг давлат рўйкатидан ў ойдан ошмаган
Тижорат банклари	Чорвачилики ривожлантириш	энг кам иш хакининг 80 баробаригача	Йиллик 14 %	3 йилгача	Кам аъминланган с накд пул шаклида
	Ишлаб чикаришни фаолиятини кенгайтириш	5000 АҚШ долл. микдорида	Йиллик 3,5 %	3 йилгача	50 фоизи накд пул ша
Банклизка қўмаклашув чи жамғарма	Чорвачилики ривожлантириш	энг кам иш хакининг 80 баробаригача	Йиллик 3,5 %	3 йилгача	Факат кам таъминлан оилаларга, накд пул ш
	Оилавий тадбиркорлик	энг кам иш хакининг 150 баробаригача	Йиллик 3,5 %	2 йилгача	Давлат рўйкатига вактида бериладиган гувохно оилавий тадбиркорл эканлиги кўрсатилиш ой имтиёзли давр

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик кредитлари бўйича умумий талаблар

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик кредитлари	
Кредит кимларга берилади?	Кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик субектлари ҳамда фермер ва деҳқон хўжаликларига
Кредит миқдори	Кредит шартномасига кўра турлича
Бошланғич тулови	Тижорат банкларга қараб турлича
Кредит муддати	45 кундан 5 йилгача, ўртача 1,5йил
Кредит фоизи	2% дан 24% гача, ўртача 17%
Кредит таъминоти	Мол-мулк ёки қимматли қоғозлар.
	Банк кафолати
	Учинчи шахс кафиллиги
	Суғурта компаниясининг қарз олувчининг кредитни қайтара олмаслиги хавфи суғурта полиси.
	Банклар қўшимча таъминот талаб қилишлари мумкин.
Зарур хужжатлар	Бизнес-режа
	Қарздорнинг молиявий ҳолати бўйича ҳисоботлари
	Кредит таъминоти бўйича маълумот
	Кредит ва фоиз тўловларини сўндирилиши бўйича режа-график
Изоҳ	Баъзи тижорат банклари қушимча маълумотлар талаб

Ўзбекистонда кичик бизнеснинг куйидаги асосий муаммолари мавжуд

- бозор конъюктураси, янги технологиялар тугрисидаги ахборотнинг такчиллиги;
- стратегик хом ашё ресурсларининг айрим турларига изожат чегараланганлиги;
- фоиз ставкалари юқорилиги, бизнес режаларни ишлаб чиқиш тажрибаси йуклиги, тадбиркорлик маданиятининг етишмаслиги туфайли кредит, молия ресурсларини олиш борасида кийинчиликлар мавжудлиги;
- кичик бизнесда узлаштирилган экспорт махсулотларини сотишда кумаклашиш учун профессионал маркетинг тузилмаларининг етишмаслиги;

Ўзбекистонда кичик бизнеснинг куйидаги асосий муаммолари мавжуд

- кичик корхоналар томонидан ишлаб чикарилган махсулотни экспорт килиш учун хорижий бозорларни билмаслик;хар хил фаолиятни амалга ошириш учун лицензиялар олиш, экспорт-импорт контрактларини руйхатга олиш;
- кичик бизнес сохасида пухта тайёргарлик курган, профессионал жихатдан укувли ташкилотчилар, рахбарларни етишмаслиги;
- микрокредитлар учун ресурслар топиш муаммоси.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг равнак топиши учун тижорат банклари ўз кредит ресурсларини қуйидаги йўналишлар бўйича такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир:

- инвестицион мақсадлар – корхоналарни модернизациялаш ва технологик янгилаш, замонавий юқори технология асосида инновацион ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш ҳамда бошланғич капитал ва айланма маблағларни тўлдириш;
- тадбиркорлик тузилмалари, фермер хўжаликларига минитехнология ва ихчам асбоб-ускуналар харид қилиши ва кўрсатиладиган лизинг хизматлар хажмини ошириш;
- истеъмол товарлари ишлаб чиқарувчи хўжалик субъектларига хомашё ва материаллар сотиб олиш, факторинг хизматлари кўрсатиш ҳажмини ошириш;
- ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда соҳа вакилларига кўрсатиладиган банк хизматлари ҳажмини ошириш;
- "Микрокредитбанк" томонидан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига, энг аввало хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини, кишлок хўжалиги махсулотларини кайта ишлаш ва истеъмол товарлари ишлаб чикаришни ривожлантириш учун кўрсатиладиган микромолиявий хизматлар хажмини ошириш.

Республикамизда кичик бизнесни ривожлантириш масаласи, биринчи навбатда, бу соҳани ривожлантиришга банкларнинг ўз маблағлари ва ҳорижий кредит линиялари орқали йўналтирилаётган маблағлар ҳажмини кўпайтириш лозимлигини, кредит бериш усулларининг баъзи жиҳатларини такомиллаштириш ва соддалаштириш кераклигини зарурат қилиб қуймоқда.

Тижорат банкларининг тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари учун энг катта муаммо, олинаётган кредит учун таъминотнинг бирон бир турини топишдир. Айнан олинаётган кредит учун таъминотнинг йўқлиги ёки етарли эмаслиги 60-70 фоиз молиялаш учун қабул қилинган лойихаларни молиялаштириш узоқ вақтни талаб қилмоқда. Бундай муаммомони ҳал қилинмаганлиги иқтисодиётимизнинг муҳим тармоқларига хорижий кредитларни жалб қилинишига тўсқинлик қилмоқда.

14-мавзу: Тижорат банклари томонидан қишлоқ хўжалик субъектларини кредитлаш

1

Режа:

1. Республикамиз иқтисодиётида қишлоқ хўжалигини тутган ўрни ва тижорат банклари томонидан қишлоқ хўжалигини кредитлаш тартиби.
2. Давлат эҳтиёжлари учун пахта ва ғаллани етиштириш имтиёзли кредитлаш.
3. Ерга эгалик қилиш ҳуқуқини гаровга олган ҳолда кредитлаш тартиби.

2

Тадбиркорлик субъектларига микрокредитлар бериш ва микролизинг хизматлари кўрсатиш хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш, якка тартибдаги мехнат фаолиятини, оилавий бизнесни ва касаначиликни ривожлантириш йўли билан янги иш ўринлари яратиш, ахоли кенг катламларининг, шу жумладан кишлок жойларда, молиявий ресурслардан фойдалана олишини таъминлаш максадида амалга оширилади.

4

- кишлокда хўжалик юритишнинг янги шаклларини кенг кўламда ривожлантириш, деҳқонлар ўзлари ишлаётган ернинг, етиштирилаётган маҳсулотнинг тўла хукукли хўжайинлари деб аниқ хис қилишларига имкон берадиган иқтисодий муносабатларни шакллантириш;
- пахтадан ва бошқа экинлардан бўшатиб олинаётган ер майдонларини фермер (деҳқон) хўжаликлари ташкил этишга бериш, шахсий томорка ерларини кенгайтириш, қишлоқ мехнаткашларига ер майдонларини мерос қилиб қолдириш хукуқи билан умрбод фойдаланишга бериб қўйиш йўлини изчил олиб бориш;
- қайта ишловчи корхоналарни қишлоқ хўжалиги хом-ашёси етиштириладиган жойга мумкин қадар якинроқ куриш, кишлокда ихчам саноат корхоналари ва цехлар бунёд этиш, мехнатнинг классик шаклларини, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришга хизмат кўрсатадиган фирмалар тармоғини кенг ривожлантириш;

5

Бозор муносабатлари шароитида кредитлаш тижорат характерига ва ўз навбатида, катта рағбатлантириш аҳамиятига эга бўлиши лозим. Бу эса ўз навбатида қуйидаги омиллар билан асосланади:

- биринчидан, турли мулк шаклидаги қишлоқ хўжалиги корхоналарни фаолияти жараёнида такрор ишлаб чиқариш учун зарур бўлган маблағлардан фойдаланишда давлат бюджети ва аҳоли ўртасида доимий пайдо бўладиган зиддиятларга бардош бериш;
- иккинчидан, аграр соҳанинг турли соҳалари ва кўп сонли хўжалик юритувчи субъектларни фаолият юритишида капитални ва маблағларни турли муддатларда доиравий айланишининг узлуксизлигини таъминлаш;
- учинчидан, нақд пулсиз тўлов воситаларини муомалага киритиш ва уларнинг харакатини зарурий жойлаштириш;
- тўртинчидан, бозор шароитида қишлоқ хўжалик корхонасини тижорат ташкилоти сифатида самарали фаолият юритишини таъминлашга эришиш.

6

Ҳозирги шароитда фермерлик харакатини кредитлаш тизими олдида турган асосий вазифалардан бири бу иқтисодиётни янада ислоҳ қилиш ва либераллаштириш, мамлакат аграр секторини барқарор ва самарали ривожлантиришнинг, аҳоли фаровонлигини оширишнинг энг муҳим бўғини сифатида кишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши фаолиятини ривожлантиришда қуйидаги вазифаларни бажаради:

7

- қишлоқда ижара муносабатларини ривожлантириш ва мустаҳкамлашга қаратилган қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш, қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини ташкил қилишнинг етакчи бўғини ва шакли сифатида фермер хўжаликларининг ҳуқуқлари, манфаатлари ҳимоя қилиниши ва самарали фаолият юритишини таъминлаш;
- фермерликни ташкилий жиҳатдан мустаҳкамлаш, фермер хўжаликларининг ўзини ўзи бошқариш таъсирчан механизмларини яратиш, уларнинг давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, тайёрлов, таъминот ва хизмат кўрсатиш ташкилотлари билан ўзаро муносабатларини такомиллаштириш;
- фермер хўжаликларининг иқтисодий мустақиллиги ва молиявий барқарорлигини ошириш, фермерларнинг ер-сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, замонавий технологияларни жорий этиш ва қишлоқ хўжалик хомашёсини комплекс қайта ишлаш, шунингдек, қишлоқда янги ишлаб чиқаришлар ва хизмат кўрсатиш соҳаларини ташкил қилиш ҳамда ривожлантириш ҳисобига механизациялаш даражаси ва рентабелликни оширишдан манфаатдорлигини рағбатлантириш.

2-жавдал

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг хўжалик тоифалари бўйича тақсимланиши

№	Тармоқлар	Йиллар кесимида		
		01.01.2013 й.	01.01.2014 й.	01.01.2015 й.
1	Фермер хўжаликлари	34,4	34,0	32,9
2	Деҳқон хўжаликлари	63,5	64,0	65,1
3	Қишлоқ хўжалик корхоналари	2,1	2,0	2,0
4	Жами	100,0	100,0	100,0

Деҳқон-фермер хўжаликлари товар ишлаб чиқарувчиларни шароитини яхшилаш учун хал этилиши зарур бўлган асосий муаммолар қуйидагилардан иборат:

- 1) баҳо номутаносиблиги (диспаритети)ни бартараф этиш;
- 2) корхоналар учун кредит бериш доирасини кенгайтириш;
- 3) маҳсулот сотиш учун яхши шароит яратиш;
- 4) қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари даромадларининг ўзлари етиштирган маҳсулотнинг охирги нархидан оладиган улушини кўпайтириш;
- 5) қишлоқ хўжалиги корхоналари ва бирлашмаларида маркетинг фаолиятини кучайтириш, шунингдек, бозор конъюнктурасини мунтазам ўрганиб бериш;
- 6) қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларини даромад нуқтаи назаридан давлат ва минтақа бюджетлари имкониятлари доирасида қўллаб– қувватлаш;
- 7) товар ишлаб чиқарувчиларни молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича бюджетдан ташқари фондлар ташкил этиш йили билан қишлоқ хўжалигига кредит-молия хизмати кўрсатишни яхшилаш.

Деҳқон фермер хўжалиги молиясини ташкил этиш хусусиятлари

- Қишлоқ хўжалиги корхоналари молиясининг моҳияти биринчи навбатда қишлоқ хўжалигининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади. Қишлоқ хўжалигида ер, чорва моллари ва бошқа табиий бойликлардан ишлаб чиқариш жараёнига жалб этилган бўлиб, бу унинг иқтисодиётнинг бошқа тармоқларидан фарқланишига сабаб бўлади.
- Қишлоқ хўжалиги асосий ишлаб чиқариш фондларининг аҳамиятли қисмини маҳсулотлар ва ишчи ҳайвонлар ташкил этади. Аммо, уларни такрор ишлаб чиқариш жараёни бевосита қишлоқ хўжалигининг ўзида амалга оширилади. Ер сингари маҳсулодор чорва молларига нисбатан қисқа амортизация ҳисобланмайди вау маҳсулот таннархи шаклланишида иштирок этмайди.
- Қишлоқ хўжалигда ишлатиладиган кўпгина хомашё ва материаллар бевосита корхонанинг ўзида яратилади. Яратилган маҳсулотнинг маълум бир
- қисми (подани тўлдириш учун ёш моллар, уруғлик, чорва моллари учун озиқа, маҳаллий ўғит сифатида гўнг ва бошқа.) реализация қилинмай, корхонанинг ўзида такрор ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланиш учун олиб қолинади.

- Чорва молларини боқиш ва ўсимликларни парваришлаш ишлаб чиқариш жараёнига авансланган айланма маблағларнинг узоқ вақт давомида айланишини талаб этади. Ўсимликчиликда у бир йилгача, чорвачиликда эса 9 ойгача давом этади. Бунинг натижасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг асосий қисми йил охирида (асосан чоракда) реализация қилинади ва пул тушумининг бир маромда айланишига имкон бермайди. Бу эса хўжаликнинг якуний молиявий натижаларини фақатгина йил якунига кўра аниқлашни тақоза этади.
- Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг табиий – иқлимий шарт – шароитларга боғлиқлиги ҳосилсизлик, сув тошқини, қурғоқчилик ва бошқа табиий офатлар таъсирига қарши корхоналарнинг моддий ва пул заҳира фондларини яратишни тақазо қилади.
- Ишлаб чиқариш жараёнининг узоқлиги сабабли қишлоқ хўжалигида йил бошида қилинган сарф-харажатлар ўз натижасини йил охирида беради.

12

Амалдаги ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларга мувофиқ банклар орқали фермер ва деҳқон хўжаликларини кредитлаш қуйидаги йўналишларда амалга оширилмоқда:


- фермер хўжаликларида давлат эҳтиёжлари бўйича етиштирилаётган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш харажатларини кредитлаш;
- - фермер ва деҳқон хўжаликлари фаолиятини ташкил қилиш ва ривожлантиришга кредитлар ажратиш.
- Ушбу йўналишларда фермер ва деҳқон хўжаликларини банклар орқали кредитлаш – давлат бюджети, турли жамғармалар, банклар ва кредит муассасаларининг ўз маблағлари ҳисобидан амалга оширилмоқда .

13

Қабул қилинган санаси ва рақами	Меъёрий ҳужжатлар номи
8.04.2004 й. №1336	"Ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқи қийматини баҳолаш тартиби тўғрисида"ги НИЗОМ
16.04.2004й.№1337	"Тижорат банклари томонидан фермер хўжаликларига бўлғуси ҳосилни гаровга олган ҳолда кредит бериш тартиби тўғрисида"ги НИЗОМ.
10.04.2004й.№ 1345	"Тижорат банклари томонидан фермер хўжаликларини ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқини гаровга олган ҳолда кредитлаш тартиби тўғрисида"ги НИЗОМ.
14.04.2004 й № 1675	"Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг давлат эҳтиёжлари учун харид қилинадиган пахта ва ғалла етиштириш харажатларини тижорат банклари томонидан кредитлаш тартиби тўғрисида"ги Н ИЗОМ.
11.04.2014й.1675/1 02.2015й.1675/2	"Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг давлат эҳтиёжлари учун харид қилинади-ган пахта ва ғалла етиштириш харажатларини тижорат банклари томонидан кредитлаш тартиби тўғрисида"ги Н ИЗОМга киритилган ўзгартириш лар ва қўшимчалар.
27.12.2013й. № 2546	Қишлоқ хўжалик корхоналарини миллий валютада кредитлаш тартиби .

14

Фермер ва деҳқон хўжаликларини кредитлашнинг амалдаги ташкилий тузилмаси



15

Амалдаги ташкилий тузилмага мувофик, давлат эҳтиёжига маҳсулот етиштириш харажатларини қоплаш учун кредит ресурслари Молия вазирлиги ҳузуридаги “Давлат эҳтиёжи учун зарур бўлган қишлоқ хўжалик маҳсулотларига ҳисоб-китоб қилиш жамғармаси” томонидан Республика Марказий банки орқали тижорат банкларига ва уларнинг вилоят, туман бўлимлари орқали фермер хўжаликларига берилади.

16

Адлия вазирлиги томонидан 2007 йил 14 апрелда 1675-рақам билан рўйхатга олинган «Фермер хўжаликларининг давлат эҳтиёжлари учун ҳарид қилинадиган пахта ва ғалла етиштириш харажатларини тижорат банклари томонидан кредитлаш тартиби тўғрисида»ги Низомга асосан пахта ва ғалла етиштиришга имтиёзли кредитлар ушбу маҳсулотлар учун тузилган контрактация шартномасидаги маҳсулот қийматининг 60 фоизи миқдорида берилади. Кредит миқдорини аниқлаш учун амалдаги ҳарид нархлар асос қилиб олинади. Кредитлар пахта етиштириш учун кўпи билан 18 ой, ғалла етиштириш учун эса 12 ой муддатга берилади. Кредитларнинг йиллик фоиз ставкаси 3 фоизни ташкил этади.

17

кредитлар қуйидаги мақсадлар учун берилиши мумкин:

иш ҳақи ва унга тегишли ажратмаларни тўлаш учун;

минерал ўғит ва ўсимликларни кимёвий ва биологик ҳимоя қилиш воситаларини харид қилиш учун;

ёқилғи - мойлаш материаллари харид қилиш учун;

СИУлар хизмати учун тўловларга;

Электр энергия тўловларига;

МТПлар, мукобил МТПлар ва қишлоқ хўжалик техникаси мавжуд бўлган бошқа хўжалик субъектларининг хизматлари учун тўловларга, лизингга (молиявий ижарага) берилган техника воситаларининг лизинг тўловларига;

ягона ер солиғи тўловларига;

уруғлик учун тўловларга;

Суғурта тўловларига;

Зарурий харажат учун ўрнатилган тартибдаги тўловларга.

18

- 1675/1- 1675/2- сонли Низомга киритилган қўшимча ва ўзгартиришлар

- 1.Агротехник тадбирлардан келиб чиқиб, кредитлаш жараёнидаги фоиз ўзгаришида;
- 2.Суғурта ташкилотини эркин танлаш;
- 3.СФУ ларни СИУ атамаси билан юритиш;
- 4.Бошқа харажат турига ўтказмаслик учун чекланган харажат турига ЁММ ни киритилиши;
- 5.ММТП ва СИУ ларни қрсатилган техника хизмати ва бажарилган иш учун тўловларини 23210 ва 23220 ҳисоб рақамларига юритиш;
- 6.Ягона ер солиғини жорий йил ҳосили учун тўлаш;
- -7. Пахта ва ғалла етиштиришда экин ҳолатини ойма-ой мониторингини юритиш.
- -8.Ўтган йил имтиёзли кредит қарздорлиги мавжуд қишлоқ хўжалик корхоналарига жорий йил ҳосили учун имтиёзли кредит ажратмаслик.

19

-9.Кредит миқдорини аниқлаш учун амалдаги ўртача харид нарх асос қилиб олинишида.(амалдаги харид нархлари асос қилиб олинган.)

-10. Имтиёзли кредитни мақсадли сарфланиши юзасидан мониторинг хизмат кўрсатувчи тижорат банклари зиммасига юклатилишида.

-11. Кредитдан эл энергияси учун тўловларга рухсат берилишида.

-12.МТП ва ММТПлар, фермер хўжаликлари, Ўзкимёсаноат" давлат акциядорлик компанияси, "Ўздон" маҳсулот АК ва "Ўзпахтасаноат" уюшмаси тизимидаги корхоналар ҳузурида фаолият юритаётган ММТП МЧЖ ҳамда к/х техникаси мавжуд бўлган бошқа хўжалик субъектлари томонидан кўрсатилган ва кўрсатиладиган техника хизматлари учун тўловларда, маблағлар 23210(23220) – сонли ҳисоб рақамларига ўтказиб берилади.

20

Имтиёзли кредит олиш учун:

✓- ариза ва унга қуйидаги ҳужжатлар илова қилинади;

✓- тайёрлов ташкилоти билан тузилган контрактация шартномаси нусхаси;

✓- Пул оқимлари кўрсатилган бизнес режа;

✓- дебитор -кредитор қарзлар тўғрисида маълумотнома (2 а-шакл) ва молиявий натижалар тўғрисида ҳисобот (2-шакл);

✓- таъминотнинг бир тури.

21

NCI-дастуридаги "Фермер хўжаликлари ҳисобини юритиш" модулига маҳсулот ҳажми ва миқдори тўғрисидаги ва бошқа маълумотларни тўғри киритилишини таъминлаш тўғрисида.

- Давлат эҳтиёжлари учун етиштирилаётган пахта ва ғалла ҳосили етиштириш
- харажатларига имтиёзли кредитлашда NCI-дастуридаги "Фермер хўжаликлари
- ҳисобини юритиш" модулига ҳар бир фермер хўжаликнинг номи унинг уникал коди, контрактация шартномасида ги ер майдони , етиштирилаётган маҳсулот
- ҳажми ва миқдори тўғрисидаги маълумотларни тўғри киритилиши жуда катта аҳамиятга эга.

Имтиёзли кредитлашда Қишлоқ хўжалик вазирилиги томонидан ишлаб чиқилган 1 тонна маҳсулот етиштириш учун кетадиган харажатлар меъёри асос қилиб олинади. **2014 йил учун пахта – 937,4 минг сўм, ғалла – 380 минг сўм.)**

22

Кредитларни бериш муддати(тартиби)

- Пахта хом ашёси учун кредитлар маҳсулотни ўтган йилги қийматига ёки жорий йилда бериладиган жами кредит миқдорига нисбатан қуйидагича тақсимланади: 1 январга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 10 % (ёки жами кредитнинг 17 фоизи); 1 апрелга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 25% (ёки жами кредитнинг 42 фоизи); 1 июлга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 50% (ёки жами кредитнинг 83 фоизи); 1 сентябрга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 60% (ёки жами кредитнинг 100 фоизи).
- Ғалла учун ушбу миқдорлар қуйидагича тақсимланади: 1 январга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 35% (ёки жами кредитнинг 58 фоизи); 1 апрелга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 50% (ёки жами кредитнинг 83 фоизи); 1 июнга қадар маҳсулот қийматига нисбатан 60% (ёки жами кредитнинг 100 фоизи).

23

Қишлоқ хўжалик корхоналарининг давлат эҳтиёжлари учун харид қилинадиган 2015 йил –галла ва пахта ҳосилини етиштириш харажатларининг хар бир турини молиялаштириш учун берилган муъёрлар тўғрисида

МАЪЛУМОТ

№	Харажат турлари	шундан	
		Галла йиллик 60%	Пахта йиллик 60 %
		(1тонна -380 минг сўм)	(1-тонна-937,4 минг сўм)
1	Иш хаки	2,6%	6,8%
2	Минерал ўғитлар	21,0%	21,6%
	Ўсимликларни химоя қилиш жумладан	1,8%	2,0%
3	Уруғлик	9,7%	3,7%
4	Механизация хизмати	5,6%	3,9%
5	Лизинг тўловлари	2,4%	2,9%
6	СИУ тўловлари	0,5%	1,1%
7	ЁММ тўловлари	13,6%	14,7%
8	Электр энергия харажати	0,6%	1,2%
9	Ягона ер солиғи	0,8%	1,2%
10	Полиэтилен плёнкаси тўловлари.	0	0,4%
11	Вилоят ва туман ҚСХБ ажратма	0,24%	0,20%
12	Фермерлар кенгаши	0,30%	0,30%
13	Бошка харажатлар	0,36%	0
	ЖАМИ	60,0%	60,0%

24

Фермер ва деҳқон хўжаликларига ажратилаётган кредитлар йўналтирилиши бўйича қуйидаги турларга бўлинади:

- -кичик саноат бўлинмалари ва касаначиликни ташкил этиш ва ривожлантириш;
- -қишлоқ хўжалиги тармоғини ривожлантириш;
- -фермер хўжаликларида асосий ва такрорий экинлар маҳсулотлари етиштиришни ривожлантириш;
- -ноқишлоқ ва қўшимча даромад келтирадиган соҳа сифатида транспорт, хизмат кўрсатиш, қурилиш, савдо ва умумий овқатланиш, моддий-техник таъминоти ва сотиш, маиший коммунал хизмат ва шунга ўхшаш бошқа тармоқларни ривожлантириш.

25

Кредит турлари

- Республикамиз Президенти ва Ҳукумати томонидан деҳқон ва фермер хўжаликларида чорвачилик тармоғини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 23 мартдаги ПҚ-308-сонли «Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ҳамда 2008 йил 21апрелдаги ПҚ-№842 сонли “Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантиришни кучайтириш ҳамда чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорлари асосида чорвачилик маҳсулотлари етиштирувчи деҳқон ва фермер хўжаликларига тижорат банкларининг ўз ресурслари ва бюджетдан ташқари жамғармалар ҳисобидан кредит маблағлари ажратилмоқда.

26

Фермерларга кредит

- Фермер хўжаликларида кредитни гаров таъминотидаги муаммоларни ҳал қилиш мақсадида Марказий банк бошқарувининг 2004 йил 1 мартдаги 564-сонли қарори билан «Тижорат банклари томонидан фермер хўжаликларининг ер участкасини ижарага олиш ҳуқукини гаровга олган ҳолда кредитлаш тартиби тўғрисида»ги Низом ишлаб чиқилиб амалиётга жорий қилинди. Фермер хўжаликлари тижорат банкларидан ер участкасига бўлган ижара ҳуқукини гаровга қўйган ҳолда кредит олишлари мумкин. Агар фермерларнинг ижара ҳуқуки баҳоси сўралаётган кредит суммасига етмаса, етмаган қисмини қоплаш учун бошқа гаров турларидан, масалан суғурта, кафиллик ва шу кабилардан фойдаланиш мумкин. Бериладиган кредит учун йиллик фоизлар банк билан фермер ўртасида тузиладиган кредит шартномасида кўрсатилади.

27

- Ер участкасини узоқ муддатли ижарага олиш ҳуқуқини гаровга қўйиш тўғрисидаги шартномада фермернинг ижара ҳуқуқи баҳоси кўрсатилади. Ижара ҳуқуқининг баҳоси Ўзбекистон республикаси Марказий Банки бошқарувининг 2004 йил 13 мартидаги 6/17 сонли қарори билан тасдиқланган "Ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқи қийматини баҳолаш тартиби тўғрисида Низом"га мувофиқ аниқланади.

28

. Бугунги кунда республикамиз қишлоқ хўжалигида фаолият юритаётган деҳқон-фермерларини кредитлаш тизимини янада такомиллаштиришнинг объектив зарурлиги қуйидаги омиллар билан белгиланади:

- -янги ташкил қилинаётган фермер ва деҳқон хўжаликларининг кредит олиши учун ўзининг айланма маблағлари ва гаровга қўядиган мулкининг етишмаслиги;
- -қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи фермер ва деҳқон хўжаликлари фаолиятида таваккалчилик даражасининг юқорилиги, ва аксинча гаров мажбуриятларининг кучсиз эканлиги сабабли тижорат банклари томонидан уларни кредитлаш салмоғининг пастлиги;
- -фермер хўжаликларини ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқи ва бўлғуси ҳосилни гаровга қўйган ҳолда кредит олиш механизмини амалда тўлиқ ишламаслиги;
- -халқаро кредит линияларни жалб қилиш бўйича қўйилган талабларига асосан фермер ва деҳқон хўжаликларида лойиҳа ҳажмининг 25 фоизига тенг хусусий капиталнинг йўқлиги; фермер ва деҳқон хўжаликларида лойиҳа ҳажмининг 120 фоизига тенг миқдордаги гаров мулкининг йўқлиги;
- -хорижий инвесторлар кредит линиялари бўйича энг кам кредит миқдори 50 минг АҚШ долларини ташкил қилиши сабабли фермер ва деҳқон хўжаликлари томонидан шу миқдоргача бўлган асбоб-ускуналарни кредит орқали ҳарид қилиш имкониятига эга эмаслиги ва бошқалар.

29

Фойдаланиш йўналишларига кўра микрокредитлар:

- бошлангич (старт) сармоясини шакллантириш учун;
- бизнесни ривожлантиришга (кенгайтиришга) ва айланма маблагларни тўлдиришга берилади.

30

Бошлангич (старт) сармоясини шакллантириш учун микрокредит йилига 5 фоиз ставка бўйича 18 ой муддатгача:

- энг кам ойлик иш хакининг 50 бараваригача микдорда - юридик шахс макомига эга бўлмаган тадбиркорлик субъектлари учун;
- энг кам ойлик иш хакининг 100 бараваригача микдорда микрофирмалар ва дехкон хўжаликлари учун (юридик шахс макомига эга бўлган);
- энг кам ойлик иш хакининг 200 бараваригача микдорда – фермер хўжаликлари учун берилади.

31

Ипотека кредитлари шартнома асосида ҳамда қайтарилиш, тўлиқлик, таъминланганлик, мақсадли фойдаланиш ва муддатлилик шартлари билан қуйидаги талабларга жавоб берувчи қарз олувчига берилади:

- қишлоқ жойларда яшайдиган, ипотека кредити олиш учун мурожаат қилган кунида 18 ёшга тўлган Ўзбекистон Республикаси фуқароларига;

- охирги 12 ой мобайнида доимий иш жойига, шахсий ёрдамчи ёки деҳқон хўжалигидан ёхуд якка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятидан доимий даромадга, шунингдек ипотека кредити бўйича ҳисоблаб ёзилган фоизларни ва асосий қарзни тўлов жадвалига мувофиқ ҳар ойда тўлаш учун етарли бўлган, қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа даромад манбаига эга бўлган шахсларга;

- барпо этилаётган уй-жой смета қийматининг ва/ёки бажарилган қурилиш-монтаж ишлари ҳажмининг ва/ёки барпо этилаётган уй-жой смета қийматининг камида 25 фоизи суммасидаги қурилиш материаллари қийматининг камида 25 фоизи миқдорида бошланғич бадал учун маблағга эга бўлган шахсларга;

- кредит ташкилотларидан кредитлар бўйича тўлов муддати ўтган қарзи бўлмаган шахсларга берилади.

32

15-мавзу: Тижорат банкларининг факторинг операциялари

1

Режа:

1. Тижорат банкининг факторинг операциялари ва унинг моҳияти.
2. Факторинг операцияларининг турлари ва факторинг операцияларини ўтказиш тартиби.
3. Тижорат банкларида факторинг операцияларини ривожлантириш масалалари.

2

Факторинг – банк ёки бошқа молия ташкилотларининг корхоналар қарзини, хусусан етказиб берилган товарлар, бажарилган ишлар, хизматлар учун ҳақ тўлаш мажбуриятларини сотиб олишдир. Факторинг ушбу товарлар учун улар етказиб берилишига кўра, юклаш ҳужжатлари кўрсатилганда тўланишини кўзда тутади, келгусида факторинг хизматини кўрсатаётган ташкилот (банк) харидорлардан қарзларни ундириб олади. Жаҳон амалиётида факторинг деганда, товарлар ва хизматлар учун ҳисоб-китобларни амалга ошириш жараёнида фактор томонидан мижозга кўрсатиладиган бир қатор комиссион-воситачилик хизматлар тушунилади.

3

1988 йил хусусий хукукни унификациялаш Халкаро институти томонидан қабул қилинган халқаро факторинг тўғрисидаги конвенцияга асосан операция қуйидаги 4 та белгилардан камида 2 тасини қондирса, факторинг ҳисобланади, деб келишиб олинган. Улар қуйидагилардир:

1. Қарз талабларининг олдиндан тўлаш шаклида кредитлашга эга бўлиш;

2. Етказиб берувчининг бухгалтерия ҳисобини, айниқса, сотув ҳисобини; юритиш;

3. Унинг қарзини инкассация қилиш;

4. Етказиб берувчини кредит рискидан суғурта қилиш.

4

Факторинг операцияларининг асосий мақсади шундан иборатки, фактор (банк, факторинг компания) ўз мижозларининг сотиб олувчиларга бўлган талабни сотиб олади, уларга 3-4 кун ичида талабнинг мол етказиб берувчилардан пул ундириш, ундирмаслигидан қатъий назар, албатта, фоиз тўловларини ушлаб қолгандан кейин 70-90% иш ҳаки тўлайди. Қарзнинг қолган қисмини шартномада белгиланган муддатда тўлаб бериши лозим. Факторинг тўлаган суммаси ва қарзнинг қолган қисмини у кейин сотиб олувчидан ундириб олади. Айрим холатларда, масалан, мажбуриятлар бўйича саволлар туғилиб қолса ва бошқа холатларда (кечиктирилса) 50% ва жуда кам ҳолатларда эса олдиндан 100% тўланади. Бу операцияда учта шакл қатнашади. Улар:

- Фактор-воситачи (тижорат банки ёки факторинг компанияси);
- Мол етказиб берувчи
- Мол сотиб олувчи

5

Банкнинг факторинг операциялари қуйидагича таснифланади:

- Ички факторинг, агар мол етказиб берувчи ёки унинг мижози, яъни олди-сотди шартномаси, шунингдек, факторинг компания бир мамлакат худудида жойлашган бўлса.
- Халқаро факторинг.

6

Очиқ факторинг – факторинг хизматининг шакли бўлиб, етказиб берувчи счёт фактураларни факторинг компанияларига ўтказиб берилаётгани ҳақида хабардор бўлади.

- Ёпиқ факторинг (конфиденциал).
- Регресс хукуки билан, яъни етказиб берувчига талаб билан тўланган суммани қайтариб бериш.
- Регресс хукукисиз факторинг.

Бундай шартлар тўловчининг ўз мажбуриятларини бажаришдан воз кечганда вужудга келган рисклар, яъни кредит рисклари билан боғликдир.

Маълум санага талабларни тўлаш шаклида етказиб берувчини кредитлаш шарти билан. Бунда факторинг компаниясининг мижози ўз махсулотини юклаб жўнатилганидан кейин компания воситасида сотиб олувчига ҳисобини тақдим этади.

Олдиндан тўлаш шарти билан. Бунда факторинг компанияси юклаб жўнатиш кийматининг 80%-90%ини тезлик билан тўлаш шарти асосида мижоздан счёт-фактураларни сотиб олади.

7

Дунё амалиётида факторинг хизматларининг нархи 2 элементга боғлиқ:

Хизмат кўрсатиш учун ҳақ. У ўртача счёт-фактура нархининг 0,5-3,0%ини ташкил қилади, аммо баъзилари 5% гача ҳам боради.

Берилган кредит маблағлари учун ҳақ. Унинг миқдори мижозининг факторинг бўлимидан пул олишдан ҳамда тўловчидан пул келиб тушишигача бўлган вақт ичидаги мижозининг кундалик дебет сальдоси миқдорига қараб белгиланади.

8

Факторинг хизмати мижозига шартнома асосида кўрсатилади. Шартномада етказиб берувчига регресс ҳуқуқи брилгани ёки йўқлиги кўрсатилади.

Регресс ҳуқуқига эга бўлган шартномада банк етказиб берувчига ҳар қандай тўланмаслик қарздорлик мажбуриятини сотиш ҳуқуқига эга ва аксинча регресс ҳуқуқига эга бўлмаган шартномада банк тўланмаслик рискини ўз бўйнига олади, агар мажбуриятлар ноқонуний деб топилмаса.

9

Жаҳон амалиётида факторинг операциялари бўйича чегаравий суммаларни белгилашнинг уч хил усули мавжуд:

1) Кредитлаш лимитини ажратиш. Факторинг хизмати шартномасида, агар қарздор суммаси белгиланган лимитдан ошиб кетса, банк етказиб берувчига барча қўшимча счётларни кайтариб бериш ҳуқуқига эга, тўловчининг тўловга кобилиятсизлигида эга барча унинг қарздорлик тўловлари банкнинг етказиб берувчига тўлаган суммани ундиргунча кадар банкка келиб тушади.

2) Ҳар ойлик юк жўнатиш лимитини жўнатиш. Етказиб берувчи мижоз қарзининг миқдоридан қатъий назар, шубҳали қарзлардан суғурталанади. Лимит ҳафта, ой, чоракларда белгиланиши мумкин.

3) Алоҳида шартномалар бўйича суғурта. Бу усул бир мижозга бир неча товар етказиб бериш эмас, балки алоҳида холатларда, катта суммаларда шартномалар имзоланганда қўлланилади.

10

ФАКТОРИНГ ОПЕРАЦИЯЛАРИ ҳисоби банкларда бошқа барча операциялар сингари. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан рўйхатдан ўтган «Ўзбекистон Республикаси Тижорат банкларининг бухгалтерия ҳисоб варакалари режаси» асосида олиб борилади. Унга мувофик:

11101 – Сотиб олинган дебитор қарздорлик ёки факторинг. Бу ҳисобваракда кўрсатилиши мумкин бўлган операциялар қуйидагилардир:

Ҳисобракам дебетида сотиб олинган ёки мижозга тўлаб берилган сумма ва дисконт суммаси ётади.

Ҳисобракам кредитида эса тўловчидан ундириб олинган сумма, муддати ўтган факторинг, судда кўрилаётган факторинг ва бошқа конунда кўзда тутилган ҳолатлар бўлиши мумкин.

11103 – Муддати ўтган факторинг.

11105 – Суд томонидан кўрилаётган факторинг.

11195 – Сотиб олинган дебитор қарз бўйича дисконт суммаси, кейинчалик у 45217 ҳисоб рақамига олиб борилади.

11199 – Сотиб олинган дебитор қарздан қутилиши мумкин бўлган зарарга ажратилган (резерв) захира, ушбу сумма 56814 - ҳисобваракга олиб борилади.

Бу схемани боскичма-боскич кўриб чиқамиз:

11

Факторинг шаклида кредитлаш тартиби



(1)-олди-сотди шартномасини имзолаш.

(2)-товарларни жўнатиш.

(3)-товар ҳужжатларини банкка узатиш.

(4)-банк ҳужжатларини қабул қилиб олади, яъни дисконт стакаси бўйича сотиб олади

(5)-банк ҳужжатларини тўловчининг банкига жўнатади.

(6)-тўловчининг банки ҳужжатларини қабул килиб олади.

(7)-банк ҳужжатларини тўловчига узатади

(8)-тўловчи тўлов топшириқномаси ёзади

(9)-банк тўлов топшириқномасига асосан тўловни амалга оширади

(10)-тўловчининг банки 9-операция бажарилганлиги тўгрисида мол етказиб берувчининг банкини хабардор килиди.

(11)-Мол етказиб берувчининг банки тулов суммасини қабул қилади

12

Ўзбекистон Республикасида ҳозирги пайтда тўлов муддатларига риоя қилиш, ҳамда хўжалик юритувчи субъектларнинг дебитор ва кредитор қарздорликларини имкон борича камайтиришга жиддий эътибор берилмоқда. Банк факторлар фаолияти, айнан товар етказиб берувчилар ва харидорлар ўртасидаги муносабатларда тўловлар хатари ва муддатлилик муаммосини ҳал қилиш, ушбу муносабатларнинг барқарор бўлишига кўмаклашиши керак.

Ўзбекистон Республикасида банклар факторинг операцияларини 90-йиллар бошидан амалга ошира бошладилар. Лекин тегишли қонуний ва меъёрий негизнинг йўқлиги факторингни ривожланишига тўсқинлик қилиб, банкларга ундан кенг фойдаланишга имкон бермади.

13

Кейинги муаммо – мамлакатнинг кўпчилик банклари фаолиятининг ўрта муддатли инвестицияларга тайёр эмаслигидир. Бу ерда асосий тўсқинлик факторингни молиялаштирилиши эмас, балки ишни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган узоқ муддатли цикл ҳисобланади. Бу цикл малакали бажарувчиларга эга бўлганида ҳам узоқ давом этади.

Бу билан Ўзбекистонда факторингнинг истиқболларини оптимистик деб баҳолаш мумкин.

Умуман, факторинг сармоя айланишини тезлаштириш, қарзни ундириб олиш билан боғлиқ харажатларни камайтириш, банклар ўртасида муносабатларни осонлаштиришга ёрдам бериб, пулни ҳисоб-китоб тизимини муҳим воситаси бўлиб ҳисобланади.

14

Хулоса қилиб айтганда, биринчидан, фактор рискни камайтириш ёки бартараф этиш учун кўпроқ ахборот ва билимга эга. Иккинчидан, факторинг компанияси алоҳида қарздорлар билан шуғулланмасдан, тўлай олмасликда, банкротни бартараф этувчи дебитор қарздорлик портфелини шакллантиради.

Шундай қилиб, факторинг қуйидаги ҳолларда фойдали ҳисобланади:

1. Сотиб олувчи етказиб берувчининг кредит тарихига эга бўлмасдан, бир марталик етказиб беришларида.
2. Етказиб берувчи етказиб беришларнинг кўп тармоқли тизимига эга бўлганда.

15

Факторинг, етказиб берувчини баланс суммасини камайтиради ҳамда ўз капитали ва жалб қилинган капитали нисбатининг кўрсатишларини кўпайтириб, унинг тўзилишини яхшилайди.

Якуний хулоса қилиб айтганда, факторинг бўйича бажарилган амаллар асосида халқ хўжалигидаги ҳисобдорликлар тезлашиши, товар етказиб берувчи корхона ўз молиявий ҳолатини барқарорлаштириш, банк ўз маблағларидан унумли фойдаланиш ва маълум даромад олиши мумкин, асосийси эса мамлакат товар айланмасини қайсидир маънода тезлаштиради.

Шуни шубҳасиз айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикасида факторинг операцияларининг қўлланилиши банк тизимига ижобий таъсир кўрсатади. Бу нафақат, банк тизимига, айниқса, ҳозирги замонда кичик бизнесни ривожлантириш учун қўл келади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасида факторинг хизматлари, биринчидан, иқтисодиётга тушаётган тўловларни оширади, иккинчидан эса, Ўзбекистон банк тизимини жаҳон стандартларига яқинлаштириб, бутун дунё фирмаларига хизмат кўрсатиши мумкин.

16-мавзу. Тижорат банкларининг лизинг операциялари

- Лизинг операциялар турлари.
- Лизинг операцияларини ўтказиш тартиби ва лизингнинг авзаллиги.
- Лизинг операциялари билан боғлиқ рисклар.
- Тижорат банкларида лизинг операцияларини ривожлантириш масаллари.

Лизинг бир тараф (лизинг берувчи) бошка бир тараф (лизинг олувчи)нинг топширигига биноан учинчи тараф(мол етказиб берувчи)дан лизинг шартномасига мувофик лизинг объекти булган мулкни уз мулки килиб сотиб олиб, уни лизинг олувчига хак эвазига лизинг шартномасида белгиланган шарт билан вактинчалик фойдаланиш, эгалик килиш учун хамда шарт тугагандан сунг лизинг объектини сотиб олиш хукуки билан берадиган мулкий муносабатлар мажмуасидир.

Лизинг субъектлари:

- **Лизинг берувчи** - лизинг шартномаси буйича лизинг объектини кейинчалик лизинг олувчига бериш максадида мулк килиб сотиб оладиган банк, лизинг компанияси ёки уларнинг шуъба корхоналари.
- **Лизинг олувчи** - лизинг шартномаси буйича лизинг объектига вактинчалик эгалик килиш ва фойдаланиш учун оладиган юридик шахс, якка тартибдаги тадбиркор ёки жисмоний шахслар.
- **Сотувчи** - лизинг берувчига лизинг объектини сотувчи юридик ёки жисмоний шахслар.

Лизинг объекти булиб истеъмол килинмайдиган ва конунчилик билан таъкикланмаган тадбиркорлик фаолиятида кулланиладиган хар кандай буюмлар, барча мулк мажмуалари хамда кучар ва кучмас мулк булиши мумкин.

Молиявий лизинг - ўз моҳиятига кўра лизинг объектининг барча қийматини тўлашни тақозо этади. Бунда лизинг асосида эгалик қилиш ҳамда фойдаланиш мақсадида ижарага берилаётган мулкнинг муддати тўлиқ амортизация муддатига яқинлашади. Лизинг шартномаси амал қилаётган муддат мобайнида лизинг берувчи ташкилот лизинг тўловлари воситасида мулкнинг барча қийматини ўзига қайтарибгина қолмай, балки бундан фойда ҳам олади.

Лизинг субъектлари:

- **Лизинг берувчи** - лизинг шартномаси буйича лизинг объектини кейинчалик лизинг олувчига бериш максадида мулк килиб сотиб оладиган банк, лизинг компанияси ёки уларнинг шуъба корхоналари.
- **Лизинг олувчи** - лизинг шартномаси буйича лизинг объектига вактинчалик эгалик килиш ва фойдаланиш учун оладиган юридик шахс, якка тартибдаги тадбиркор ёки жисмоний шахслар.
- **Сотувчи** - лизинг берувчига лизинг объектини сотувчи юридик ёки жисмоний шахслар.

Лизинг объекти булиб истеъмол килинмайдиган ва конунчилик билан таъкикланмаган тадбиркорлик фаолиятида кулланиладиган хар кандай буюмлар, барча мулк мажмуалари хамда кучар ва кучмас мулк булиши мумкин.

Тижорат банклари томонидан амалга ошириладиган лизинг операцияларининг хукукий асослари:

1995 йил 21 декабрда кабул килинган Узбекистон Республикаси Фукаролик Кодексининг 587-599 – моддалари;

❖Узбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелдаги «Лизинг тугрисида»ги Конуни;

❖ 2001 йил 1 февралдан кучга кирган «Халкаро молиявий лизинг тугрисида»ги Конвенция;

❖«Банклар ва банк фаолияти тугрисида»ги конуннинг 4-моддасида Тижорат банкларига мазкур фаолият тури билан шугулланишга рухсат берилган;

❖Марказий банкнинг « Узбекистон Республикаси банклари томонидан молиявий лизингни утказиш тартиби тугрисида»ги Низом.





Лизинг туловлари кушилган киймат солигидан, лизингга бериш учун Узбекистон республикаси худудига олиб келинадиган технология ускуналари вакил банкнинг тегишли тасдиги мавжуд булган такдирда, божхона туловларидан хамда лизинг олувчилар лизинг шартномаси амал киладиган муддатгача лизингга берилган мулкдан мулк солиги тулашдан озод этилган.Бу эса уз навбатида, лизинг ёрдамида ишлаб чикаришни замонавий техника ва технологиялар билан куроллантиришга, жахон андозалари даражасидаги халк истеъмоли товарларини ишлаб чикаришга, ички истеъмол бозорларни сифатли махсулотлар билан тулдиришга ва Республикамиз экспорт салохиятини янада оширишга замин яратади.

Лизинг операцияларини кенг микёсда ривожлантиришга тускинлик килувчи куйидаги омиллар мавжуд:

Лизинг берувчилар хам, лизинг олувчилар хам унинг мохиятини, афзалликларини етарли тушуна олмаганлари;

Лизинг бозорига хизмат киладиган инфратузилмалар, ривожланган лизинг компаниялари, консалтинг фирмалари тармокларининг камлиги;

Лизинг инфратузилмасида ишлайдиган тажрибали ходимларнинг етишмаслиги ва бошкалар.

Унинг афзалликларини биз қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

Биринчидан, лизинг шартномаси қисқа муддатга тузилиши ва у муддат тугагач, мулкни (ускуналарни) ижарага берувчига қайтариш имконияти қисқа вақт ичида йўналиши туфайли молиявий қарорлар бўйича ҳисоб-китоблар аниқ бўлади ва истиқбол натижаларига мос тушади.

Иккинчидан, кичик ва хусусий тадбиркорлар бозор талабидан келиб чиқиб ўз фаолиятини тезкор ўзгариш имкониятига эга.

Учинчидан, керак бўлган ускунани қисқа муддатга сотиб олишдан кўра уни ижарага олиб ишлатиш, ижарага олувчининг фан ва техника ютуқларидан ўз вақтида фойдаланиш имконини бериши мумкин.

Тўртинчидан, лизинг шартномаси билан боғлиқ бўлган рисклар нисбатан бошқа рисклардан камроқ бўлиши мумкин.

Бешинчидан, ривожланиб бораётган ва ўзгарувчан иқтисодиётда кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва уни молиялаштириш манбаи сифатида хизмат қилади.

Олтинчидан, маънавий жиҳатдан тез эскирувчан ва кадрсизланувчи ускуналар бўйича қисқа муддатли лизинг шартномалари муддатдан илгари маънавий эскириш рисклари, фойдаланувчи ўрнига, ижарага берувчи зиммасига юклатиш имкониятини беради.

Еттинчидан, лизинг шартномасида рад этиш имкониятини берувчи муддатли лизинг шартномаси уни рад этиш аукционини тўлашни талаб қилган тақдирда ҳам, ижарадан воз кечиш имкониятини берувчи мазкур шартнома аслида адолатли баҳога эга бўлади.

Саккизинчидан, тўла хизмат кўрсатиш лизинг шартномаси бўйича ижарага олувчи ускуналар бўйича зарур бўлган барча хизматлардан фойдаланиш имкониятларини қўлга киритиш мумкин.

Тўққизинчидан, лизинг кичик компания ва хусусий корхоналар учун нисбатан арзон пул маблағлари манбалари бўлиб хизмат қилдилар.

Ўнинчидан, акция ёки облигацияларни муомалага чиқариш эвазига маблағ жалб қилишга нисбатан, лизинг пақ харажатлар билан боскичма-боскич узоқ муддатли молиялаштиришни таъминлайди.

Оператив лизинг ёрдамида тадбиркорлар тракторлар, машиналар, комбайнлар ва бошқа техникаларни ижарага берувчи заводлардан уларнинг эскириш муддатидан қисқа бўлган муддатга, яъни бир ишлаб чиқариш жараёнига ёки 2-5 йил муддатга ижара олишлари мумкин.

Республикада лизинг операцияларни ривожланиш йўллари

Жаҳон иқтисодий амал банкларнинг лизингнинг капитал қуйилмаларни етарли даражада сақлаб туришга хизмат қилувчи молиявий восита сифатидаги юқори самарадорлигидан далолат бермоқда. Тижорат банкларнинг лизинг молиялаштиришнинг тижорат банклари негизида ташкил қилинадиган лизинг компаниялари ёки банкларнинг ўзи амалга оширади. Шубҳасиз, бизнеснинг ўзига хос бу тури билан шуғулланиш банкларнинг ўзига ёки уларнинг махсус бўлимларига, шунингдек, банклар билан алоқадор молиявий воситачилар учун қулайдир.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексига биноан, лизинг тўлови – бу лизинг олувчи томонидан лизинг берувчига тўланадиган ҳамда лизинг объектини сотиб олиш ва лизинг ставкаси билан боғлиқ барча сарф-харажатларни ўз ичига олган пул суммасидир.

Республика тижорат банклари Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 1997 йил 29 мартда 11- сонли баён билан қабул қилинган 327- сонли «Ўзбекистон Республикаси банклари томонидан лизинг операцияларини амалга ошириш тартиби» йўриқномасига амал қилади.

Мамлакатимиз Президентининг «Лизинг фаолиятини ривожланитиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлди. Унга мувофиқ, лизинг тўловлари қўшилган қиймат солиғидан, лизингга бериш учун Ўзбекмстон Республикаси ҳудудига олиб келинадиган технология ускуналари божхона тўлови ҳамда қўшилган қиймат солиғидан, лизинг олувчилар лизинг шартномаси амал қиладиган муддатгача лизингга берилган мулкдан мулк солиғи тўлашдан озод этилган.

Лизинг берувчилар эса лизингга бериш учун мулк харид қилишга олган кредитлар фоизи ҳамда белгиланган бошқа тўловларнинг суммасини жами даромадидан чегириб ташлайди. бериш учун Ўзбекмстон Республикаси ҳудудига олиб келинадиган технология ускуналари божхона тўлови ҳамда қўшилган қиймат солиғидан, лизинг олувчилар лизинг шартномаси амал қиладиган муддатгача лизингга берилган мулкдан мулк солиғи тўлашдан озод этилган.

Лизинг операцияларини янада такомиллаштириш мақсадида Марказий банк ва АҚШ халқаро ҳамкорлик агентли (USAID) ўртасида имзоланган меморандумга мувофиқ банкларда бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни Халқаро бухгалтерия андозаларига мос ҳолда юритилишини таъминлаш борасида биргаликда ишлар амалга оширилмоқда.

1

17-мавзу. Тижорат банкларининг янги хизмат турлари

Режа:

- Тижорат банкларидаги турли операциялар классификацияси.
- Тижорат банклари томонидан кўрсатиладиган анъанавий ва ноанъанавий хизмат турлари.
- Пластик карточкалар ва уларни қўллаш зарурияти.
- Интернет банкинг хизматлари.

2

Банк хизматлари деганда тижорат банкларининг тезкор ва стратегик фаолияти ҳамда самарали бошқариш билан бевосита боғлиқ бўлган ҳаракатлар мажмуаси тушунилади. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон банклари ўз хизматларини етарли даражада шакллантиришга эришди. Бироқ, банклар ўртасидаги рақобат кураши уларни қўшимча мижозлар жалб этиш ҳамда кўрсатилаётган хизматлар доираси ва сифатини кенгайтириш учун янгича ёндашишга ундамоқда.

3

Банк хизматлари турларини бир-биридан ажратиб турувчи жиҳатлар

- Мавҳумлиги;
- Сақланмаслиги;
- Шартномавийлиги;
- Пул билан боғлиқлиги;
- Манбадан ажралмаслиги;
- Сифатнинг бир хил эмаслиги;
- Қондириладиган эҳтиёжнинг иккиламчилиги.

4

Банк хизмати – банк операцияларини ўтказишни оптималлаштирувчи назарий, технологик, молиявий, интелектуал ва профессионал банк фаолиятидир.

Банк хизмати ҳақиқатдан ҳам банк фаолияти мажмуасидир. Мижозларнинг банк фаолиятига бўлган талабларини қондириш билан боғлиқ бўлган хизматлардир. Шу билан бир қаторда банк хизмати тушунчасига банк операцияларини оптималлашувини ҳам муҳим элемент сифатида киритилди, чунки банклар хизматнинг у ёки бу турини танлашда ушбу операциянинг самарадорлиги, қулайлиги ва сифатлилиги даражасига эътибор беришлари ва ушбу кўрсаткичлар унинг рақобатбардошлигини таъминлаш асоси ҳисобланишини ҳис этмоқлари лозим.

5

Операция» ва «Хизмат» тушунчаларининг фарқланиши


Хизмат	Операция
- Бошқага фойда келтирадиган ҳаракат - Нафакалар ва бошқа ижтимоий ёрдамлар -Моддий табиатни ўзгариши билан бевосита боғлиқ бўлмаган меҳнатнинг барча турлари. Бу нарсалар истеъмолига хизмат кўрсатиш воситасида аҳолининг ҳар хил индивидуал талабларини қондиришга қаратилган меҳнат турлари - Янгидан мавжуд бўлмаган маҳсулот яратилмайдиган, лекин мавжуд маҳсулот сифати ўзгарадиган жараённи амалга оширувчи ишлар, фаолият турлари. Бу ашёлар кўринишида эмас, балки фаолият хизматлар кўринишида таклиф этилувчи неъматдир.	-Ўзи кабилар билан бир қаторда алоҳида ҳаракат. -Бир мақсадда бирлаштирилган ҳаракатлар мажмуи. -Мижозлар ҳисобидан ва топшириғига асосан бажариладиган ҳуқуқий, комиссион операциялар. -Пул маблағларини жалб қилиш ва жойлаштириш операциялари. -Бир иқтисодий масалани ечишга қаратилган ўзаро боғлиқ бўлган банк фаолияти. -Кўзланган мақсадни амалга ошириш билан боғлиқ ҳаракат.

6


Банк хизматларини ривожланишига кўра қуйидагиларга бўлинади:

1. Анъанавий;
2. Ноанъанавий.

7



8



9

Банк хизматларининг мижозларга масофавий етказиб берилиши натижасида, уларни баҳосини пасайиши қўйидагилар билан асосланади:

Қўл меҳнатига қараганда хужжатларни автоматик тарзда бажарилиши уларни таннархини тушуради,

Банк хизматчиларининг самарадорлигини оширади (вақт бирлигида кўрсатиладиган хизматлар ҳажмининг кўлами ошиши натижасида),

Банк хизматларини стандартлаштиради (кўпайтиради, оммалаштиради).

«BANK-MIJOZ» –бу компютер дастурий тизими бўлиб, у мижозга офисдан чиқмаган ҳолда, коммуникация алоқа каналларидан фойдаланиш, ўзининг банк ҳисобрақамини бошқариш ва назорат қилишда кенг имкониятларни яратади.

«BANK-MIJOZ» дастурий тизими ўз мижозларига қуйидаги қулайликларни яратади:

- Офисдан чиқмасдан туриб тўловларни амалга ошириш имконияти эвазига вақт ва маблағлар тежалиши;

Реал вақт шароитида тўловларни амалга ошириш;

- Ҳисобрақам ҳолати тўғрисида батафсил маълумот олиш;

- Банкдан ҳар қандай узоқликдан қатъий назар , доимо ҳисобрақам тўғрисида тўлиқ маълумотга эга бўлиш

10

11

Sms – Банкинг

SMS-Банкинг – бу банкда ҳисоб рақамига эга ва кредит олган жисмоний ва юридик шахсларга тақдим этиладиган хизмат туридир. SMS-Банкинг ўз ҳисоб рақамлари ҳолати ва амалга оширилган операциялар ҳақида маълумотлар олиш имконини беради. SMS-Банкинг мижозга ўз телефони орқали қуйидаги маълумотларни олиш имконини беради:

Ҳисобрақамдаги қолдиқ маблағи тўғрисидаги маълумот
Ҳисобрақам га охирги келиб тушган маблағ тўғрисидаги маълумот
Ҳисобрақам дан охирги чиқарилган маблағ тўғрисидаги маълумот
4.Ҳисобрақам га келиб тушган барча маблағлар рўйхати
5.Ҳисобрақам дан чиқарилган барча маблағлар рўйхати

12

Кредит карта –бу банк ва мижоз ўртасидаги шартномага кўра белгиланган кредит лимити чегарасида банкдан маблағ олиш имкониятини берувчи пластик карта ҳисобланади.

13

Банк фаолиятида моделлаштириш хусусиятлари.

- Ахборот тизимлари ривожланишининг учинчи босқичига қадар банк ахборот тизимлари деярли бир-биридан фарқ қилмас эди ва турли соҳа корхоналарини автоматлаштириш учун мавжуд бўлган тизимлардан нусха олганлар.
- Бироқ, функционал ва тузилмавий фарқлар мавжуд бўлганда банк бизнесининг предметли соҳаси АТ нинг ўзига хослигини белгилайди. Биринчи навбатда банк бизнесида катта ҳисоб-китоблар талаб этилмайди, тўпланиши, ишончли сақланиши ва тезкор қайта ишланиши зарур бўлган ахборотлар ҳажми эса доимо асосий муаммо ҳисобланган.

14

- Шунинг учун банк тизимини автоматлаштириш негизида маълумотларни сақлаш ва фойдаланиш муҳити ётади
- Банк хизматчилари тизимдан фойдаланувчилар ҳисобланади. Улар учун терминал, шахсий компьютер ёки ишчи бекати фақатгина уларнинг шахсий касбий файолиятининг куролини намоён этади холос.
- Банк ахборот тизимини муҳим таркибий қисми узоқ вақт тўпланадиган ва йўқолса тиклаб бўлмайдиган ахборот ҳисобланади.

15

- Молиявий бизнесни автоматлаштиришни ривожлантириш ахборот тизимларининг (АТ) тараққиёти билан узвий боғлик. Тараққиётнинг биринчи босқичи 1960-1970 йилларга тўғри келади, ахборот тизимларининг катта ЭҲМ негизида курилиши билан тавсифланади.
- Иккинчи босқич, 1975-1980 йилларда, кичик компьютерлардан фойдаланиш ҳисобига марказдан чиқаришга қилинган қадам бўлди. Марказлаштирилган маълумотлар базаси (МБ) ва амалий пакетлар кўринишида ахборот пойдеворига эга икки босқичли “катта ЭҲМ-кичик компьютерлар” модели иккинчи босқичнинг асосий янгилиги бўлди.
- Учинчи босқич (80-90 йилларнинг бошлари) катта ЭҲМ ва кичик компьютерлардан фойдаланувчиларнинг ШКга оммавий ўтишига асосланган тақсимланган тармоқли қайта ишлаш билан тавсифланади.

16

- Ахборот тизимларини ривожлантиришнинг тўртинчи босқичи мижозларнинг-ишчи станцияси локал тармоғидан серверлар тармоғига ўтиш орқали тақсимланган қайта ишлаш ютуқларини сақлаб қолган ҳолда ресурслар концентрацияси билан тавсифланади.
- Ахборот тизимларини тараққий этишининг бешинчи босқичи, Internet тармоғи вакил бўлган умумий фойдаланиш тармоқлари пайдо бўлиши билан тавсифланади. Ушбу босқич билан корхона ўз хусусий тармоқларининг ташқи интерфейси сифатида WWW (World Wide Web –Бутунжаҳон тўри) тизими саҳифаларини кўриб чиқиш дастуридан фойдаланадиган {Intranet) интратармоқлари пайдо бўлиши билан боғлиқ.

17

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 8 июлдаги “Ахборот-коммуникация технологияларини янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори ижроси юзасидан ишлаб чиқилган “2010 йилгача ахборот технологиялари ва электрон ҳужжат айланишини жорий этиш, интернет тармоғида ахборот-ресурсларни шакллантириш ва уларни доимий янгилаб бориш чора-тадбирлари режаси” ҳамда Марказий банк бошқарувининг қарорлари асосида Марказий банк ва тижорат банкларида ахборот технологияларини жорий этиш бўйича қуйидагилар бажарилди:

18

- барча банкларда ягона вакиллик ҳисоб варағи ва ягона баланс тизимлари тўлиқ ишга туширилди;
- туман марказларида рақамли Банк телекоммуникация тармоғини ривожлантириш лойиҳаси амалга оширилди;
- интеграллашган ахборот-таҳлилий тизимининг асосий дастурий комплекслари ва маълумотлар базалари ишга туширилди;
- электрон ҳужжат айланиши ва электрон иш юритиш тизимлари тўлиқ ишга туширилди;
- банк бошқарув тизимининг дастлабки босқичи электрон ҳужжат айланиши ва электрон иш юритиш тизими билан бирга ишга туширилди;
- Марказий банк тизимида электрон кутубхона тизими ташкил килинди;
- Марказий банкда фойдаланиладиган ҳисоблаш техникаси янгиланди;
- интерактив хизмат турлари давлат реестрига киритилди;
- интеграллашган ахборот-таҳлилий тизимининг иқтисодий самарадорлигини ҳисоблаш методикаси ишлаб чиқилиб, тижорат банкларига амалда қўллаш учун тавсия килинди ва Ўзбекистон алока ва ахборотлаштириш агентлигига хулоса олиш учун тақдим килинди.

19

Марказий банкнинг қуйидаги ахборот тизимлари давлат рўйхатидан ўтказилиб, тегишли гувоҳномалар олинди:

- интеграллашган автоматлаштирилган бухгалтерия тизими;
- кредит ахбороти миллий институти ахборот тизими;
- ягона вакиллик ҳисоб варақлар ҳисоб-китоб маркази (тўлов тизими);
- электрон ҳужжат айланиши тизими;
- банк тизими ахборотлар омборхонаси.

20

- Марказий банк ва унинг вилоятлардаги ҳудудий бош бошқармаларининг локал-ҳисоблаш тармоқларини БТТнинг мантиқий каналлари орқали бирлаштириш натижасида Марказий банк корпоратив тармоғи ташкил қилинди. Корпоратив тармоқ орқали Марказий банк серверларида ўрнатилган марказлашган “Антивирус”, “Право”, “Ишонч телефонлари” дастурларидан вилоятлардаги компьютерлар орқали фойдаланиш имконияти яратилган.

21

- **Интернет – Банкинг**
- Интернет-банкинг – бу мижозни ўз ҳисоб рақамини Интернет орқали бошқариб боришга имкон берадиган хизматдир. Интернет-банкинг технологияси билан тўлақонли ишлаш учун мижоз Интернет тизимига уланган ва Microsoft Internet Explorer браузери бор компьютерга эга бўлиш кифоя.
- **Интернет-банкинг қуйидагиларга имкон яратади:**
- Банкга барча турдаги молявий ҳужжатларни жўнатиш.
- Исталган давр учун барча ҳисоб варақалар бўйича кўчирмалар ва ҳужжатлар олиш.
- Банкда тўлов ҳужжатларини қайта ишлашнинг барча босқичларини реал вақт режимида кузатиб бориш.
- Хатолар ҳақида тезкор маълумотлар олиш.
- Битта интерфейсда турли банклардаги ҳисоб варақалари билан ишлаш.
- Кираётган ва чиқаётган тўлов ҳужжатларини кўриб ва печатьлаб бориш.

22

- **Интернет-банкинг афзалликлари:**
- Фойдаланишнинг оддийлиги.
- Интернет орқали ўз ҳисоб рақамингизни бошқариш учун алоҳида ўзига хос билим ёки қобилиятга эга бўлишингиз шарт эмас.
- Тезлиги
- Мижоз ва банк ўртасидаги ҳисоб-китоблар реал вақт режимида амалга оширилади.Сиз банкда тўлов ҳужжатларини қайта ишлаш босқичларини компьютерингиз экрани орқали кузатиб борасиз.
- Сизнинг манзилингизга келган тўловлар ҳақидаги ахборотлар уларнинг банкга келишига қараб бир кунда бир неча маротаба янгиланиб борилади.
- Қулайлиги
- Интернет-банкингга уланиш жуда соддадир. Бунинг фақат бизнинг банкда ҳисоб рақамингиз бўлиши ва "Интернет-банкинг ҳамда электрон рақамли сертификат тизимида хизмат кўрсатиш" шартномаси имзоланган бўлиши керак.
- Тўлов хабарномаларини расмийлаштиришда хатога йўл қўйиш мумкинлиги ҳақида хавотирланмаслик. Тизим ҳужжатларни тўғри тўлдирилишини тубдан назорат қилиб, хатоларни кўрсатиб боради. Хато тўлдирилган ҳужжатни жўнатган ҳолатингизда ҳам мижоз уни зудлик билан тўхтатишингиз мумкин ва унда ҳисоб рақами бўйича операция амалга оширилмайди.

23

Интернет банк тизимини ривожланиш боскичини тахлил киладиган булсак, илк бор Интернет банк фаолияти АКШ да вужудга келди. Бунинг асосий сабаби булиб, АКШ конунчилигига кура тижорат банкларига бошка штатларда филиалларини очишга куйилган чекловлар хисобланди. Ушбу чеклов банкларни масофадан туриб банк хизматларини етказиб беришга ундади.

Маълумотларга кура АКШ да илк масафавий банк хизматлари 80 йилларда жорий килинди. Улар асосан телефонлар учун мулжалланган дастурлар асосида, кейинчалик персонал компьютерларга урнатилган модемлар оркали амалга орилди.

Интернет банкнинг узи эса, 1995 йилда жорий этилди. Аникрок килиб айтадиган булсак, 1995йилда биринчи вертуал банк жорий этилди ва у Security Fist Net Work Bank деб номланди. Кейинчалик ушбу банк хизматларига булган кизикиб ошди ва ушбу тизим бошка банклар фаолиятига хам жорий этилди.

24

Интернет банкнинг ишлаш тамойилига кура турларини куриб чикадиган булсак улар куйидаги 3 та схемага ажралади:

- «Ахборот» бу тизим мижозга узининг хисобраками тугрисидаги маълумотларни олиш имкониятини беради. Бу тизимга кириб мижоз хисобракамидаги маблаг колдигини, качон ва канча маблаг хисобракамга туширилганлигини, шунингдек туловлар качон ва канча микдорда утказилганлигини билиш мумкин. Бу тизимда хисобни бошкариш, тулов амалга ошириш, валюта алмаштириш каби операцияларни амалга ошириш мумкин эмас.
- «Хисоб ракамни бошкариш». Бунда мижоз нафакат хисобракам тугрисидаги маълумотларини олиши, балки туловларни амалга ошириш имкониятига хам эга булади. Бу тизим оркали мижоз навбат кутиш, вакт сарфлаш, ишлаб турган банк булинмасини излаш каби муаммолардан кутилади. Мижоз уйда туриб Интернет, комунал ва бошка туловларни амалга ошириши мумкин.
- «Молиявий бошкариш» бу тизим мижозларга on-line режимида тулик банк хизматлари мажмуасини амалга ошириш имкониятини беради. Буларга мисол килиб, туловларни амалга ошириш, хисобракамлардаги валютани алмаштириш, кредит олиш, кимматли когозларни сотиш ва сотиб олиш, яъни мижознинг узини тулик молиявий маблагларини бошкариш имкониятини беради.

25

Иш ойнаси куйидагиларни уз ичига олади.

Интернет банк тизимига уланиш учун мижоз банк офисига биринчи мартага бориши керак булади. Бунда мижоз ариза бериши, уланиш учун туловни амалга ошириши, логин ва пароль олиши керак булади.

Мижоз тизимга улангандан сунг тизимга кириш учун берилган логин ва парольни терган холда шахсий кабинитига Кириши мумкин булади.

	Умумий ахборотлар	Мижоз банкда очилган хисобракамлар тугрисида маълумотлар олиши мумкин булади
	Туловлар	Накд пулсиз туловлар амалга оширилади. Бу булимда кабул килинган маблаглар, утказилган туловлар тугрисидаги маълумотлар хам булади.
	Банк хабарлари	Бу булимда банк томонидан мижоз манзилига каратилган ахборотлар юборилади. Масалан: Комиссион туловларни узгариши, Янги хизмат ва имкониятлар, Янги фоиз ставкалар ёки иш вактига киритилган узгаришлар тугрисидаги маълумотлар берилади.
	Сервис	Бу булимда мижоз банк ходимига саволларини бериши, порольни узгартириши ва б к хизматларини амалга ошириши мумкин.
	Тизимдан чикиш	Операциялар амалга оширилгандан сунг Интернет банк тизимидан чикиш мумкин.


27

Тижорат банклари кредит фаолиятида оптималлашган иқтисодий математик моделлар.

- Молиявий ахборот – бу кўриб чиқилаётган объектнинг иқтисодий ҳолатини ёритиб берувчи ахборот ҳисобланади. Молиявий ахборот объектнинг иқтисодий ҳолати, унинг иқтисодий тавсифларини белгилайди.
- Молиявий ахборотни олиш мақсади- объектнинг иқтисодий ҳолатига таъсир этиш имконига эга бўлишдир.

29

Молиявий ахборотлар таснифи



30

Молиявий талабларни моделлаштириш ва молиявий оқимлар ва ҳужжатларни қулайлаштириш маълумотлар оқими диаграммасини тузиш орқали амалга оширилиши мумкин.

18-мавзу. Банкларнинг балансдан ташкари операциялар.

- Тижорат банклардаги турли операциялар классификацияси ва таркиби
- Траст операцияси бўйича ташкилотларнинг ўзаро мажбуриятлари.
- Траст асосида амалга оширилаётган хизмат ва операцияларни амалга ошириш тартиби.
- Республикада лизинг операцияларини ривожланиш йўллари.
- Тижорат банклари томонидан кўрсатиладиган қўшимча хизмат турлари(Маркетинг, ҳуқуқий воситачилик ва бошқалар).

Тижорат банклардаги турли операциялар классификацияси ва таркиби

Мамлакатимизда «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонунга асосан банклар молиявий универсал сифатида намоён бўладилар. Ушбу қонун ва бошқа норматив хужжатларига асоан банклар ўз даромадлари ва рисклари дифференциялаш ишларини олиб борадилар. Яна шу билан бирга бош ўз капиталини кўпайтириш йўлларини изламокдалар. Булардан асосийси банкда турли хизматларни кўрсатишдир.

Банклар ўз ликвидлигини ҳамда даромадни диверфикация қилишга мажбур. Шунинг учун банклар асосий хизматдан бошқа хизматларни амалга оширади.

Траст операциялари банкларга қуйидаги имтиёзларни беради

- Операция ўтказиш жараёнида Тижорат банклари узоқ муддатли молиявий маблағларга йўл очилади ва уларни биржада қимматбаҳо қоғозларга қўйиш мумкин.
- Тижорат операциялари тижорат банклари томонидан мижозларнинг ишончи асосида олиб борилади ва қонун билан чекланмайди.
- Тижорат банклари ва бошқа банкларнинг операциялари ўтказиш жараёнида мукофот олади ва ўз фойдаси манбасини диверсификация қилади ҳамда ўзини тусатдан молиявий хрисклардан химоя қилади.
- Банк траст операцияларида ўзининг маблағлари билан эмас балки, умуман бегона капитал билан иштирок этади. Асосий риск қимматбаҳо қоғозга қўйилма қўйган шахсга тўшади Банк фақат жавобгар ҳисобланади.

Траст операциялари банкларга қуйидаги имтиёзларни беради


- Ушбу операцияларнинг барчаси банкларнинг балансдан ташқари операцияларидир. Чунки бу операциялар банк цави балансидан ташқарида ҳисоби юритилади. Аммо улардан тўшадиган даромад умумий баланс даромадига кушиб ҳисобланади

Траст операцияси бўйича ташкилотларнинг ўзаро мажбуриятлари.

Банкнинг бошка операциялари

Тижорат банкининг бошка операциялари	Мажбурият тури (шартнома)
1. Учинчи шахслар томонидан (пул) мажбуриятларининг бажарилишини назарда тутувчи кафолотлар бериш кузда тутиш	Кафолат шартномаси
2. Учинчи шахслардан пул мажбуриятларининг талаб килиш хукукини олиш	Талаб килиш хукукини олиш шартномаси
3. Жисмоний ва юридик шахслар пул маблағлари ва бошка мулкларни шартномага биноси шу бинони бошкариш	Мулк ва маблагни ишончли бошкариш шартномаси
4. Кимматбахо металлар ва бошка кимматбахо тошлар билан операциялар утказиш.	Сотиш-сотиб олиш, саклаш, мукофот (комиссия) буйича шартнома
5. Турли бойликларни соклаш учун кулай	Ижара, саклаш, мукофот (комиссия) шартномаси
6. Лизинг операциялари	Молиявий ижара шартномаси
7. Маслахат, ахборот хизматлари	Пудрат шартномаси
8. Кушма (бирликдаги) фаолият	Биргаликдаги фаолият тугрисидаги шартнома

Тижорат банкларининг балансдан ташқари оперпацияларини банк фаолиятига таъсирини ошириш йуллари



Лизинг операциялар. Лизинг турлари ва уларни классификацияси. Молиявий лизингнинг авзаллиги.

Молиявий лизинг - ўз моҳиятига кўра лизинг объектининг барча қийматини тўлашни тақозо этади. Бунда лизинг асосида эгалик қилиш ҳамда фойдаланиш мақсадида ижарага берилаётган мулкнинг муддати тўлиқ амортизация муддатига яқинлашади. Лизинг шартномаси амал қилаётган муддат мобайнида лизинг берувчи ташкилот лизинг тўловлари воситасида мулкнинг барча қийматини ўзига қайтарибгина қолмай, балки бундан фойда ҳам олади.

Лизинг операцияси ёрдамида лизинг олувчи субъектлар учун:

- эскираётган техника, ускуна ва жиҳозларни энг замонавийлари билан алмаштириш имкониятлари туғилади;
- бир вақтнинг ўзида ҳам замонавий технология сотиб олинади, ҳам ишлаб чиқариш кўлами кенгаяди;
- сотиб олинаётган ускунанинг умумий қийматини бир пайтнинг ўзида тўлаш муаммосидан озод бўлади;
- замонавий технологияни ишлатишдан ҳосил бўладиган фойданинг келиши тезлашади;
- фойда солиғига тортиладиган солиқ базасини лизинг тўловлари суммаси даражасида камайтиради

Лизинг берувчи учун эса:

- кўрсатилаётган хизматлар кўламини кенгайтириш ҳамда эски мижозлар билан ўрнатилган амалий алоқаларни узмаслик;
- янги мижозларни жалб этиш;
- ўз маблағларидан самарали фойдаланиш, шунингдек, қўшимча даромад олиш;
- мижознинг тўловга нокобиллиги оқибатида келиб чиқадиган зарарлар хавфини камайтиради.

Унинг афзалликларини биз қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

Биринчидан, лизинг шартномаси қисқа муддатга тузилиши ва у муддат тугагач, мулкни (ускуналарни) ижарага берувчига қайтариш имконияти қисқа вақт ичида йўналиши туфайли молиявий қарорлар бўйича ҳисоб-китоблар аниқ бўлади ва истиқбол натижаларига мос тушади.

Иккинчидан, кичик ва хусусий тадбиркорлар бозор талабидан келиб чиқиб ўз фаолиятини тезкор ўзгариш имкониятига эга.

Учинчидан, керак бўлган ускунани қисқа муддатга сотиб олишдан кўра уни ижарага олиб ишлатиш, ижарага олувчининг фан ва техника ютуқларидан ўз вақтида фойдаланиш имконини бериши мумкин.

Тўртинчидан, лизинг шартномаси билан боғлиқ бўлган рисклар нисбатан бошқа рисклардан камроқ бўлиши мумкин.

Бешинчидан, ривожланиб бораётган ва ўзгарувчан иқтисодиётда кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ва уни молиялаштириш манбаи сифатида хизмат қилади.

Олтинчидан, маънавий жиҳатдан тез эскирувчан ва кадрсизланувчи ускуналар бўйича қисқа муддатли лизинг шартномалари муддатдан илгари маънавий эскириш рисклари, фойдаланувчи ўрнига, ижарага берувчи зиммасига юклатиш имкониятини беради.

Еттинчидан, лизинг шартномасида рад этиш имкониятини берувчи муддатли лизинг шартномаси уни рад этиш аукционини тўлашни талаб килган тақдирда ҳам, ижарадан воз кечиш имкониятини берувчи мазкур шартнома аслида адолатли баҳога эга бўлади.

Саккизинчидан, тўла хизмат кўрсатиш лизинг шартномаси бўйича ижарага олувчи ускуналар бўйича зарур бўлган барча хизматлардан фойдаланиш имкониятларини қўлга киритиш мумкин.

Тўққизинчидан, лизинг кичик компания ва хусусий корхоналар учун нисбатан арзон пул маблағлари манбалари бўлиб хизмат килдилар.

Ўнинчидан, акция ёки облигацияларни муомалага чиқариш эвазига маблағ жалб қилишга нисбатан, лизинг пац харажатлар билан боскичма-боскич узоқ муддатли молиялаштиришни таъминлайди.

Оператив лизинг ёрдамида тадбиркорлар тракторлар, машиналар, комбайнлар ва бошқа техникаларни ижарага берувчи заводлардан уларнинг эскириш муддатидан қисқа бўлган муддатга, яъни бир ишлаб чиқариш жараёнига ёки 2-5 йил муддатга ижара олишлари мумкин.

5.Республикада лизинг операцияларни ривожланиш йуллари

- Жаҳон иқтисодий амал банкларнинг лизингнинг капитал қуйилмаларни етарли даражада сақлаб туришга хизмат қилувчи молиявий восита сифатидаги юқори самарадорлигидан далолат бермоқда. Тижорат банкларнинг лизинг молиялаштиришнинг тижорат банклари негизида ташкил қилинадиган лизинг компаниялари ёки банкларнинг ўзи амалга оширади. Шубҳасиз, бизнеснинг ўзига хос бу тури билан шуғулланиш банкларнинг ўзига ёки уларнинг махсус бўлимларига, шунингдек, банклар билан алоқадор молиявий воситачилар учун қулайдир.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексига биноан, лизинг тўлови – бу лизинг олувчи томонидан лизинг берувчига тўланадиган ҳамда лизинг объектини сотиб олиш ва лизинг ставкаси билан боғлиқ барча сарф-харажатларни ўз ичига олган пул суммасидир.

Республика тижорат банклари Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг 1997 йил 29 мартда 11- сонли баён билан қабул қилинган 327- сонли «Ўзбекистон Республикаси банклари томонидан лизинг операцияларини амалга ошириш тартиби» йўрикномасига амал қилади.

- Мамлакатимиз Президентининг «Лизинг фаолиятини ривожланитиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлди. Унга мувофиқ, лизинг тўловлари қўшилган киймат солиғидан, лизингга бериш учун Ўзбекмстон Республикаси худудига олиб келинадиган технология ускуналари божхона тўлови ҳамда қўшилган киймат солиғидан, лизинг олувчилар лизинг шартномаси амал қиладиган муддатгача лизингга берилган мулкдан мулк солиғи тўлашдан озод этилган.
- Лизинг берувчилар эса лизингга бериш учун мулк харид қилишга олган кредитлар фоизи ҳамда белгиланган бошқа тўловларнинг суммасини жами даромадидан чегириб ташлайди. бериш учун Ўзбекмстон Республикаси худудига олиб келинадиган технология ускуналари божхона тўлови ҳамда қўшилган киймат солиғидан, лизинг олувчилар лизинг шартномаси амал қиладиган муддатгача лизингга берилган мулкдан мулк солиғи тўлашдан озод этилган.

Лизинг операцияларини янада такомиллаштириш мақсадида Марказий банк ва АҚШ халқаро ҳамкорлик агентли (USAID) ўртасида имзоланган меморандумга мувофиқ банкларда бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни Халқаро бухгалтерия андозаларига мос ҳолда юритилишини таъминлаш борасида биргаликда ишлар амалга оширилмокда.

Тижорат банклари томонидан кўрсатиладиган қўшимча хизмат турлари (Маркетинг, ҳуқуқий воситачилик ва бошқалар)

- Узбекистон Республикасининг амалдаги конунчилигига асосан фючерс – кимматли когоз (шартнома) булиб, муайян кимматли когозлар ва бошка молиявий воситаларни ёки товарларни шартномаларда белгилаб куйилган нархда белгиланган келгуси санада харид килиш ёки сотишдан иборат мажбуриятни сузсиз тасдиклайди.
- Фючерс шартномаси бўйича базис активининг эмитентнинг аввал муомалага чикарилган кимматли когозлари ва аввал муомалага чикарилган учинчи шахснинг кимматли когозлари ташкил этиши мумкин.

Фючерс шартномасининг асосий хусусияти шундаки унда бахонинг аниклиги ва шартнома бажарилишининг мажбурийлигидир. Фючерсга асосан базис активидаги кимматли когозлар дархол кулдан-кулга берилмайди, балки катъий белгиланган муддатда етказилиши зарур.

Фючерс шартномаси куйидаги мажбурий реквизитларга эга булиши лозим:

- "Фючерс" деб номланиши;
- Давлат органидан руйхатдан утганлигини тасдикловчи хужжат ва тартиб раками;
- "Фючерс" имзоланган сана;
- "Фючерс"нинг тури (сотиб олиш ёки сотиш учун);
- "Фючерс эмитентининг" номланиши, юридик манзили ва банки реквизитлари;
- Эмитентнинг шартномадаги базис активни сотиб олиш ёки сотиш тугрисидаги расмий мажбурияти;
- Фючерснинг амалга оширилиш санаси;
- Базис активнинг хусусиятлари;
- Фючерс эмитентининг имзоси ва мухри.

Фючерс шартномасидаги шартлар биржа аукционидаги кимматли когозларга талаб ва таклифни чукур урганган холда тузилади. Фючерс битимидаги хисоб-китоблар эса фонд биржасидаги хисоб-клиринг палатаси оркали амалга оширилади.

Тижорат банкларининг балансдан ташқари операцияларини банк фаолиятига таъсирини ошириш йуллари.

- Ўзбекистон Республикасида фонд бозорини шакллана бориши билан бу фонд бозорининг «Европача» аралаш модели мавжуд бўлиб, бунда тижорат банклари хам бошқа нобанк ташкилотлар хам-инвестиция муассасалари тенг хуқуқларда фаолият кўрсатиши қонунларда белгилаб қўйилган.
- Амалиётда тижорат банки ўз акцияларини муомалага асосан акциядорлик жамияти сифатида чиқаради.

Қонунчиликка асосан тижорат банклари муомалага қимматли қоғозларнинг бошқа турлари облигациялар, депозит сертификатлари ва Векселларни чиқариши билан улар мамлакатимиздаги пул айланмасини жадаллаштиради хамда юридик ва жисмоний шахсларнинг вақтинча бўш турган пул маблағларини жалб этиб, кейинчалик уларни иқтисодиётнинг устувор тармоқларига инвестиция қиладилар.

- Тижорат банклари ўз фаолиятида турли тоифадаги сармоядорлар учун кенг миқёсда маслахат бериш хизматларини кўрсатиш: мижозларнинг инвециционсиёсатини шакллантириш.
- Тижорат банклари қимматли қоғозлар бозорида турли кредиторлар ва суғуртачилар, депозитар ва клиринг хисоб-китоб марказларининг ташкилотчилари сифатида иштирок этишлари мумкин.

- Ўзбекистон Республикасида тижорат банклари-фақатгина ўзига хос ноёб муассасалар хисобланиб, хозирда улар амалиётда миллий фонд бозорининг барча воситаларини: акциялар, давлат қиска муддатли облигациялари, давлат ўрта муддатли облигациялари, депозит сертификатлари, депозит жамғарма сертификатлари, Векселлар билан фаолият олиб боришни ўзлаштириб олиб, хозирги вақтда улар қимматли қоғозлар бозорида бир вақтнинг ўзида хам эмитент, хам сармоядорлар ва инвестиция институти сифатида чиқмоқда.

Ўзбекистон Республикасида амалдаги қонунчилик тижорат банкларига фонд бозорида қимматли қоғозлар билан боғлиқ хар кандай турдаги операцияларини амалга оширишда иштирок этишига қонунан йўл қўйилади;

- -тижорат бакларининг нисбатан барқарор молиявий холати ва банк операцияларини юқори даромадлилиги уларга кўрсатиладиган банк хизматларининг янги турларини, шу жумладан қимматли қоғозлар билан боғлиқ операцияларини амалга ошириладиган кўлгина турларини ўзлаштиришга катта молиявий ресурсларни ажратиш учун етарлича имконият яратиб беради;
- -тижорат банкларида мавжуд бўлган хозирги замон даражасидаги техникавий, ахборот ва ходимлар салохияти, шуъба банкларининг жуда кенг тармоғи ва мижозлар маълумотлари базаси уларни қимматли қоғозлар бозорининг энг юқори кобилиятли катнашчиларга айлантирган;
- -тижорат банклари билан бошка молиявий ихтисодий муассасалар ўртасидаги кучайиб бораётган ўзаро рақобат, амалиётдаги кўлгина анъанавий банк хизматлари хисобланадиган (кредитлаш, валюта, молиявий ва агентлик операциялари) хизматларини кўрсатишдан келадиган фойданинг камайиб кетиши, тижорат банкларининг ўз фаолиятини асосий диққат марказини миллий қимматли қоғозлар бозори сохасига кўчиришга мажбур қилмоқда.

19-мавзу. Тижорат банкларининг даромадлари, харажатлари ва фойдаси

Режа:

Банкларнинг фойдалилик ва рентабеллик тушунчалари. Банк фойдасининг асосий манбалари

Тижорат банклари фойдасининг таркибий тузилиши ва уларнинг фоиз тури бўйича туркумлаш йўллари.

Тижорат банкларининг фоизсиз даромадлари ва уларни банк фаолиятига бўлган таъсирини ошириш йўллари

Тижорат банклари фойдалилиги ва рентабеллигига таъсир қилувчи омиллар ва уларни бошқариш.

- Яъни бу аввало, ана шу давлатнинг молия-валюта тизими нечоғлик мустаҳкам эканига, миллий кредит институтларининг қай даражада капиталлашуви ва ликвидлиги (тўлов имконига), уларнинг чет эл ва корпоратив банк тузилмаларига қанчалик қарам эканига, шунингдек, олтин-валюта захирасининг ҳажми, хорижий кредитларни қайтариш қобилияти ва пировард натижада- мамлакат иқтисодётининг барқарорлик, диверсификация ва рақобатга бардошлик даражасига боғлиқ»

37

- Фоиз рискининг ортиб кетиши ва бунинг оқибатида банк ликвидлилиги ва тўлов кобилиятига етказиладиган салбий таъсир бевосита макроиқтисодий ҳолатга ҳам боғлиқ.

38

Банклар фаолиятида риск муаммосини ўрганиш ва назарий қарашларнинг такомиллашув даврини қуйидаги боскичларга ажратиш мумкин:

- **I. «Тижорий кредитлар назарияси».** Биринчи Халқаро иқтисодий инқироз юз бергунга қадар (1929 йилгача) барча ривожланган мамлакатларда либерал иқтисодий тизим амал қилиб, иқтисодий фаолият фақат бозор ҳукмига, яъни талаб ва таклиф қонунига асосан олиб борилган.
- **II. «Маблағларни қайта тақсимлаш назарияси».** 1929-30 йиллардаги Биринчи Иқтисодий инқироздан сўнг эркин рақобатга асосланган либерал бозор тизими инқирозга учраб, ўрнига Ж.М. Кейнс назарий таълимоти асосида тўла давлат бошқарувига асосланган бозор иқтисодиёти пайдо бўлди.

39

- **III. «Кутилаётган даромадлар назарияси».** 1950-йилларда Р. Лукас бошчилигида «Рационал тахминлар назарияси» пайдо бўлиши билан иқтисодий субъектларнинг истиқбол ҳақидаги тахминлари иқтисодий мувозанатга бевосита таъсир кўрсатиш ғояси ҳам ривожланди. Истиқбол ҳақидаги тахминларнинг кўникмаларга асосланган ёки рационал шаклда бўлиши иқтисодиётни бошқариш борасида олинган қарорлар таъсирини белгилаб беради.
- **IV. «Пассивларни бошқариш назарияси».** 1960-70 йиллардан бошлаб банкларда рискларни бошқариш борасида «пассивларни бошқариш» назарияси пайдо бўлди ва банклар ликвидлик муаммосини ечиш борасида ўз пассивлари, яъни мажбуриятларига эътибор қарата бошлади. Бу назариянинг пайдо бўлишига иқтисодиётда фонд ва пул бозорининг шаклланиши ҳамда икки босқичли банк тизимининг тўла шаклланиши билан банк ресурслари бозорининг ривожланиши туртки бўлди.

40

- **V. «Актив ва пассивларни бошқариш назарияси».** Бугунги кунда эса банклар рискларни бошқариш учун ҳам активларни бошқариш, ҳам **пассивларни** бошқаришни бирга олиб бормоқда. Фақат бугунги кунда банклар олдида банк ликвидлилигини бошқаришда фоиз даражаларидаги ўзгаришларни ҳам ҳисобга олишдек қийин бир муаммо пайдо бўлган. Бунинг асосий сабаби иқтисодиётнинг эластиклик даражасининг ортиши натижасида, фоиз даражалари ўта ўзгарувчан ҳолатга келган.

41

Рискларни бошқаришда бугунги кунда ривожланган англо-саксон услуби 3 йўналишни таклиф этади, яъни:

- -суғурталаш (хежирлаш);
- -арбитраж;
- -спекуляция.

42

Ўзбекистондаги тижорат банкларда вужудга келадиган рисклар. Республика банк тизимида банк рискининг суғуртасини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари.

- Риск даражасини бахолашда хамда уни камайтиришга каратилган энг кадимий чоралардан бири бу рискларни сугурта килиш усулидир. Бугунги кунгда Республикамиз тижорат банклари бу усулдан фойдаланишлари бир мунча кийинрок булмокда, чунки утиш даврида барча МДХ давлатларидаги каби бизнинг республикамизда хам сугурта фаолияти янги давр талаблари оцида кайта ташкиллаштирилмокда ва у янги узлаштирилаетган сохалар каторига кирмокда.
- Банк рискларини пайдо килувчи факторлар асосида энг авволо иктисодий хамда сиесий факторлар этади.

43

Банк рискларини бошкариш жараёнининг вазифаларини белгиловчи 4 асосий боскични ажратиб курсатиш мумкин:

Банк рискларини тахлил килиш ва бахолаш.

Риск микдорини аниклаш.

Банк рискларини бошкариш.

Банк рискларини самарали бошкариш устидан назорат.

44

Кредит ахборот бюроси ва унинг вазифалари.

- КАМИ тижорат банкларининг кредит операциялари ва уларнинг карздорлари тўғрисидаги маълумотларни йиғади ва таҳлил қилади, улар бўйича маълумотлар базасини шакллантиради, кредит ахборотининг ягона реестрини (кейинги матнда – реестр) юритади ҳамда Банклараро кредит бюроси (кейинги матнда – БКБ) ва тижорат банкларига ахборот тақдим этади.
- Тижорат банклари томонидан тақдим этиладиган кредит, лизинг ҳамда учинчи шахслардан мажбуриятларнинг бажарилишини талаб қилиш ҳуқуқини олиш тўғрисидаги (кейинги матнда – факторинг) шартномалар шартлари, гаровга олинган мулк, кафолатлар (кафилликлар, кредит таваккалчилигини суғурталаш) тўғрисидаги ахборот, шунингдек давлат статистика ва иқтисодиёт органлари, нодавлат ташкилотлари ва хўжалик субъектларидан қонун ҳужжатларида тақиқланмаган тартибда ва асосларда олинган маълумотлар КАМИ реестрини шакллантириш манбаи ҳисобланади.

45

- Кредит ахборoти — кредит битимининг ҳолати, берилган таъминот бўйича (гаров, кафолат, кафиллик, кредитни тўламаслик хавфини суғурталаш ва таъминотнинг бошқа турлари бўйича) мажбуриятларнинг бажарилиши ҳақидаги маълумотлар, шунингдек кредит ахборoти субъектининг кредит қобилиятини, молиявий ҳолатини, тўлов қобилиятини, тўлов интизомини ва ўзга сифатларини аниқлашга кўмаклашувчи бошқа ахборот, шу жумладан:
- кредит ахборoти субъектини ва кредит ахборотини етказиб берувчини идентификациялаш имконини берадиган;
- кредит ахборoти субъектининг фуқаролик-ҳуқуқий шартнома бўйича пул суммасини тўлаш мажбуриятлари тўғрисидаги;
- кредит ахборoти субъектига алоқадор шахслар тўғрисидаги;
- кредит битими билан боғлиқ мол-мулк тўғрисидаги маълумотлар.

46

Fanga doir video ma’ruzalar, video roliklar

https://www.youtube.com/watch?v=9UP-VcHkl44. Shablon biznes reja.

http://study.com/academy/course/banking-related-services-guide.html

http://study.com/academy/lesson/banking-system-definition-types.html

http://study.com/academy/lesson/safeguards-controls-of-banking-activities.html

http://study.com/academy/lesson/the-renaissance-economy.html

http://study.com/academy/lesson/how-technology-makes-banking-more-efficient.html

http://study.com/academy/lesson/the-world-bank-imf-other-international-banking-organizations.html

http://study.com/academy/lesson/using-atms-mobile-online-banking-method-examples.html

http://study.com/academy/course/financial-banking-securities-law-guide.html

QO’LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

QO’LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma’ruza mashg’ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruza mashg’uloti – OO’Yuda o’qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo’naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o’qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o’quv faoliyatga va aniq o’quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o’quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma’ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko’p emasligi.

Ma’ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun etarli bo’lishi kerak.

Ma’ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlar

O’quv mashg’ulotning maqsadi	**Ma’ruza turi, uning o’ziga xos xususiyatlari**
Kirish ma’ruzasi	
Fan doirasida o’quv axborotini o’zlashtirish bo’yicha talabalar harakatining yo’naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o’quv fani mazmuni, uning o’quv jarayonidagi o’rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to’g’risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo’naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
Axborotli ma’ruza	
O’quv mavzu bo’yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o’quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
Muammoli ma’ruza	
Muammoni belgilash va uni echimini topishni tashkillashtirish/an’anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o’quv mavzusi bo’yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o’qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
Ko’rgazma ma’ruza	
O’TVdan keng foydalanish orqali o’quv mavzusi bo’yicha	Bunday ma’ruzani o’qish, ko’rib chiqilayotgan ko’rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha

O’quv mashg’ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o’ziga xos xususiyatlari
tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	sharhlashga olib keladi.
Binar ma’ruza	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda echishni namoyish etish orqali o’quv mavzusi bo’yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma’ruzani o’qish ikki o’qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o’qituvchi va talabalarning dialogini o’zida namoyon etadi.
Anjuman-ma’ruza	
O’quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o’quv mavzusi bo’yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma’ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg’ulot ko’rinishida o’tkaziladi. Mashg’ulot yakunida o’qituvchi mustaqil ish va so’zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to’ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
Umumlashtiruvchi ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma’ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo’limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
Maslahatli-ma’ruza	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo’yicha o’tishi mumkin. 1. “Savol-javoblar”- o’qituvchi bo’lim yoki to’liq kurs bo’yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. “Savol-javoblar-munozaralar”: o’qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
Yakuniy ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o’rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o’tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma’ruzada o’qituvchi kursning asosiy g’oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o’rganishda olgan bilimlarni qanday qo’llash yo’llarini ko’rsatadi, fan bo’yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg’ulot:

- o’quvchilarni o’qituvchi bilan va o’zaro faol suhbatga kirishishiga yo’naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo’ljallangan mashg’ulotning o’qitish shakli.
-

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	**Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari**
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	***Keng ko'lamli suhbat.*** Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi. ***Ma'ruza va referatlar muhokamasi.*** Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p holllarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. Shu bilan birga, odatiy seminar ishiga "quruq nazariyalik" elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan

	muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. ***Press-konferentsiya.*** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng har bir talaba ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarning markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra u yoki boshqalar bo'yicha istagan bir talaba o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa,faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha, yoki seminar yakunida o'z xulosasini qiladi. ***O'zaro o'qish.*** Tushunish va o'zlashtirish uchun eng ko'p murakkablikdagi savollarni o'rganish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o'zaro o'qishga yo'naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo'yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma'lumotlarni vizual taqdim etish bo'yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so'ng o'qituvchi xulosalar qiladi. ***Yumoloq (yozma /og'zaki) stol.*** O'tgan mavzu bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo'llash, o'z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo'lgan, seminar. Har xil stsenariylar bo'yicha o'tkazilishi mumkin. 1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / echimi topilishi kerak bo'lgan g'oya yozilgan varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi. 2. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. ***Spetsseminar***. Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi.Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar

Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.	usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'quituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.
***Maxsus (kasbiy) va umumo'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish*:** - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va echish jarayonida xarakatlar algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.	**Ta'limiy o'yin.** O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu erda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shallantiradi; virabativaet dinamiku rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa)yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. ***Amaliy topshiriqlarni bajarish.*** Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. ***Masalalar echish bo'yicha mashq.*** Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish – masalani echish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. ***Muammoli masalalar va vaziyatlarni echish.*** Muammoli masalalar va vaziyatlarniishlab chiqish juda katta mexnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni echish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. ***Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keyslarni) echish*.** Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq echim variantlarini

	qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi. Keysni echish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va echish, → yakka tartibda topilgan echimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul echim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni echish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni echish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalilllar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqkamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko'maklashadi. ***O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi*** Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlab chiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordam berish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish. Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida). O'qituvchi guruhlarning o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash	***Kollokvium***. O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan etarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. ***Yozma (nazorat) ish.*** Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni

	echadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to’plamini to’g’ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o’quv materialni o’zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta’minlashi kerak.

3. Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to’zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g’oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo’llaniladigan metod.

☝Metod chegaralangan vaqt oralig’i ichida aniq muammo (savol, masala)ni echishning noan’anaviy yo’llarini izlash bo’yicha o’quvchilarni aqliy faoliyatini yo’naltirishga asoslangan.

☝O’quv mashg’ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo’yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lishi hamda o’quvchilarda faol qiziqish uyg’otishi kerak;
- ko’p har xil ma’nodagi echim variantlariga ega bo’lishi kerak.

O’qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o’quv mashg’ulotining bir lavhasi yoki butun mashg’ulotni o’tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo’lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so’zdan olingan bo’lib - **INSERT** – **I**nteraktive- interfaol **N**oting – belgilash System - tizim for-uchun **E**ffective – samarali **R**eading – o’qish and– va **T**hinking – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

1) Samarali o’qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo’yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;
(+) –men uchun yangi axborot;
(−) - menning bilganlarimga, zid axborot;
(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi**:**

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni echish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni echish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi *o'qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor echimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda echiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni echish uchun kerakli va etarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak
- keysni echish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarmetodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

• muammoni shakllantirishga;
• amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
• muammo echimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:

- savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
- topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda

berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy echimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana-"yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UChUN?» SXEMASI –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.

2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«BALIQ SKELETI» ChIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

O’quv topshiriqda ko’rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:
1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o’ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to’g’risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning echimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko’p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o’ylashga hojat bo’lmaydi. Muammo echimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo’ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga echilishi lozim bo’lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo’ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o’ylab o’tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g’oyalarni grafik ko’rinishda qayd etishni o’zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko’rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o’ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko’p miqdordagi foydali g’oyalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni echimini topish uchun to’g’ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo’nalishini namoyon bo’lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.


«NILUFAR GULI» ChIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O’zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o’z navbatida to’qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo’nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo’yicha o’quv topshirig’iga yo’riqnoma

O’quv topshiriqda ko’rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O’zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o’z navbatida to’qqizta kichik kvadratdan iborat;



2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g’oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g’oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o’tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o’tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o’z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

MUSTAQIL TA’LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA’LIMGA OID TOPShIRIQLAR

1.“Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” davlat dasturidan o’rin olgan bank tizimidagi masalalar tahlili va ularning ijrosi.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz bank tizimida hal etilishi lozim bo’lgan ustuvor yo’nalishlar.

3. Korxona mablag’larini maksimallashtirishda bank tizimining vazifalari.

4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat bankning vazifalari

5. Markaziy bankning monetar siyosati va uni bank tizimini liberallashtirishdagi ahamiyati.

6. Pul-kredit muomlasini tartibga solishda bank tizimi o’rni.

7. O’zbekiston Respublikasi valyutasini barqarorlashtirish usullari.

8. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning alohida bo’g’inlarining tavsifi va hokazo.

9. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida tijorat kreditining o’rni.

10. O’zbekiston Respublikasida bank tomonidan kreditlash va uning o’ziga xos xususiyatlari.

11. Rivojlangan davlatlarning kredit mexanizmdan foydalanish tajribalari.

12. O’zbekiston Tijorat banklarining moliyaviy va valyuta hisob-kitoblarga plastik kartochkalarni tatbiq qilish muammolari.

13. Mamlakat iqtisodiyotida tijorat banklari aktivlari va ularni boshqarish usullari.

14. “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” davlat dasturini moliyaviy mablag’lar manbasida bank kreditlarining o’rni.

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIYLAR

Atamaning o’zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Pul muomalasi qonuni	**Law of money circulation**	**Zakon denejnogo obrashcheniya**	bu-mamlaqatda tovar ayirboshlash uchun hizmat qiluvchi zaruriy pul miqdorini belgilovchi, pul muomalasi haraqatini o’rgatuvchi va barcha pullarga taaluqli qonundir.
Pul tizimi	**Monetary system**	**Denejnaya sistema**	bu-davlat qonunlari asosida pul muomalasini tashqil qilish shaqli hisoblanadi.
Inflyatsiya	**Inflation**	**Inflyatsiya**	bu tovar muomalasiga nisbatan qog’oz pul massasining ortiqchaligidir.
Monetar siyosat	**Monetary policy**	**Monetarnaya politika**	bu-Makroiqtisodiy sharoitlarga ta’sir ko’rsatish uchun davlat tomonidan ishlatiladigan instrument.
Emissiya-	**Emission**	**Emissiya**	muomalaga pul yoki qimmatli qog’ozlarni chiqarish. Pul emissiyasi-bu muomaladagi pul massasini ortishiga olib keluvchi pullarni chiqarishdir.
Pul massasi-	**Money supply**	**Denejnaya massa**	har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta’minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar(korxonalar, birlamalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladian naqd va naqd pulsiz xarid hamda to’lov vositalari majmuidir.
Bank tizimi	**Banking system**	**Bankovskaya sistema**	bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va konkn bilan mutsahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko’rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o’ziga hos milliy belgilariga egadir. Shu belgilar shu hududning, geografik shartlari ob-xavo aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yo’llari va omillar asosida shakllanadi.
Bankning passiv operatsiyalari –	**Passive operations of the bank**	**Passivnie operatsii banka**	bankning mablag’larni jalb qilish bilan bog’liq operatsiyalaridir. Banklarning passiv operatsiyalari bu – banklar kredit va boshqa aktiv amaliyotlarni bajarish uchun o’z resurslarini shakllantirish operatsiyalaridir.
Depozit –	**Deposit**	**Depozit**	lotincha so’zdan olingan bo’lib, lug’aviy ma’nosi-saqlash uchun topshirilgan buyum ma’nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o’z mablag’ini vaqtincha

			foydalanish uchun bankga topshirish natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatni tushuniladi.
Bankning aktiv operatsiyalari-	**The active operations of the bank**	**Aktivnie operatsii banka**	banklarning kelajakda daromad olish maqsadida jamlangan kredit mablag'larini kreditlarga va investitsiyalarga joylashtirilishi va boshqa maqsadli operatsiyalaridir.
Tijorat banklarining kredit siyosati	**The credit policy of the commercial bank**	**Kreditnaya politika kommercheskogo banka**	bu banklarning kredit risklarini kamaytirish va kredit operatsiyalarining daromadliligini ko'paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasidir.
Bank likvidliligi-	**Bank Liquidity**	**Likvidnost banka**	banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.
Korporativ obligatsiyalar-	**Corporate bonds**	**Korporativ-nie obligatsii**	korporativ tashkiliy tuzilmalar(yuridik shaxslar) tomonidan o'zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan qarz instrumentlaridir.
Mamlakatning Markaziy banki	**The country's central bank**	**Tsentralniy bank strani**	shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo'lib hisoblanadi.
Qayta moliyalashtirish siyosati	**Central bank refinancing**	**Politika refinansiro-vanie**	Markaziy bank tomonidan kredit institutlarining veksellarni sotib olish shakli va qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash tushuniladi.
Majburiy zaxiralar siyosati	**The policy of mandatory reserves**	**Politika obyazatelnix rezervov**	tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismini Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir. 2009 yilda bank tizimini isloh qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli Qaroriga asosan pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda va tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida 2009 yilning 1 sentyabridan boshlab tabaqalashtirilgan majburiy zahiralar normasi joriy etildi.
Bank krediti	**Bank loan**	**Bankovskiy kredit**	banklar pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir.
Valyuta bozorlari	**Currency market**	**Valyutniy rinok**	bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir. Valyuta bozori- xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish

			bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasidir.
Valyuta operatsiyalari	**Currency operations**	**Valyutnie operatsii**	chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqini almashinishi bilan bog’liq operatsiyalari.
Kredit	**Credit**	**Kredit**	o’z egalari qo’lida vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga xaq to’lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatdir.
Iste’mol kredit	**Consumer loan**	**Potrebitel-skiy kredit**	tijorat banklari iste’molchilarga tovar sotib olish uchun bergan qarzidir.
Kredit ekspantsiyasi	**Credit expansion**	**Kreditnaya ekspantsiya**	mamlakatning ssuda kapitallari bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko’payishi va buning oqibatida, kredit qo’yilmalari hajmining keskin ko’payishidir.
LIBOR	**LIBOR**	**LIBOR**	Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida etakchi erkin almashinadigan valyutalar-AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk britaniya funt tserlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to’lanadigan foiz stavkasidir.
Foiz stavkasi	**Interest rate**	**Protsentnaya stavka**	qarzdor kishining olgan qarzi uchun pul egasiga to’laydigan to’lovidir.
Bank aktivlari	**Bank assets**	**Bankovskie aktivi**	bank balansining aktiv qismida joylashgan moddalarining sifat nuqtai nazaridan uning umumiy miqdoridagi ulushi tushuniladi.
Bank passivlari	**Liabilities Bank**	**Passivi banka**	yuridik va jismoniy shchaxslarning bo’sh pul mablag’lari, o’z mablag’lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan , bank xarajatlari bilan bog’liq operatsiyalar majmui.
Trast operatsiyalari	**Trust business**	**Trastovie operatsii**	bank mijoz topshirig’i bilan ma’lum mulkni, pul, qimmatli qog’ozlar ko’rinishida saqlash, o’tkazish va boshqarishni o’z zimmasiga oladi.
Lizing	**Lleasing**	**Lizing**	tomonlar o’rtasidagi mulkiy va moliyaviy munosabatlarni tashkil etuvchi, asosiy vositalarni uzoq muddatli ijara asosida sotilishidir.
Faktoring	**Factoring**	**Faktoring**	hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo’lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug’ullanadi.

Komission operatsiyalar	**Selling on commission**	**Komissionnie operatsiy**	banklar o’z mablag’larini qo’ymasdan, ssuda bermasdan ko’rsatiladigan, asosan to’lov topshiriqnomasini bajarish Bilan bog’liq operatsiyalar.
Depozit operatsiyalari	**Deposit operations**	**Depozitnie operatsii**	yuridik va jismoniy shchaxslarning bo’sh pul mablag’larini jalb qilish bilan bog’liqoperatsiyalar.
To’lovga layoqatlilik	**Solvency**	**Platejesposobnost**	bank zarur muddatlarda kredit-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to’la summada bajara olish layoqatini bildiradi.
Valyuta	**Currency**	**Valyuta**	bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to’lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.
Overdraft	**Overdraft**	**Overdraft**	- kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo’lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish xuquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar va kitoblar

1. Gali, Jordi. Monetary Policy, Inflation, and the Business Cycle: An Introduction to the New Keynesian. Framework. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2008.

2. Lucas, Robert, and Thomas Sargent. Rational Expectations and Econometric Practice. Minneapolis:University of Minnesota Press, 1981.

3. Scheffrin, Steven. Rational Expectations. New York: Cambridge University Press, 1996. Saylor URL: http://www.saylor.org/books. Creative Commons Attribution-Non Commercial-ShareAlike 3.0 License.

4. Introduction to banking. Barbara Casu Claudia Girardone Philip Molyneux. Pearson Education Limited. First published 2006.

5. Lecture notes for money and banking. Matthew Chambers. 8/17/2005.

6. The Mystery of banking. Murray N. Rothbard. Second edition. Ludwig von Mises Institute Auburn, Alabama. Copyright © 2008 by the Ludwig von Mises Institute.

7. Banking regulation. Its Purposes, Implementation and Effects. Fifth Edition. Kenneth Spong Division of Supervision and Risk Management. Federal Reserve Bank of Kansas City. 2000.

8.The Governance of International Finance Annual Review of Political Science Vol. 19: 33-48 (Volume publication date May 2016). First published online as a Review in Advance on December 11, 2015

10.International Banking and Liquidity Risk Transmission: Evidence from Germany. Cornelia Kerl, Cathérine Koch.

11. Ansoff matrix. www.free-management-ebooks.com

12.Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal. www.iqtisodiyot.uz

13. Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz

14. Journal of Marketing. www.ama.org

Internet saytlar

1. www.study.com
2. www.cbu.uz.
3. www.bank.ru.
4. www.bankir.uz
5. www.free-management-ebooks.com

I. Toymuxamedov.
N.Sobirova.

Bank ishi

Fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua

Ma’ruza mashg’uloti uchun

Toshkent: Iqtisodiyot, 2017
yil, 501 bet.